ФОРМИРОВАНИЕ ИСТОРИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ ПОСРЕДСТВОМ ФОЛЬКЛОРНЫХ ФЕСТИВАЛЕЙ: ОПЫТ “ЛЯЗГИ” И “БАХШИЧИЛИК”

Садуллаева Фарангиз Сапаровна, начальник отдела “Координация академической деятельности” Джизакского областного центра педагогического мастерства

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekistonning boy og‘zaki an’analari asosida tashkil etilayotgan “Lazgi” va “Baxshichilik” xalqaro festivallarining tarixiy ongni shakllantirishdagi roli tahlil etiladi. Mazkur tadbirlar orqali folklor san’ati nafaqat estetik madaniyat, balki tarixiy tafakkur, milliy o‘zlik va xalq xotirasini saqlovchi vosita sifatida baholanadi. Maqolada ushbu festivallarning mazmuni, ishtirokchilari, tarixiy ildizlari va ta’sir doirasi ilmiy yondashuv asosida yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *folklor, tarixiy ong, Lazgi, Baxshichilik, festival, og‘zaki ijod, milliy xotira, doston, raqs, madaniy integratsiya.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль международных фестивалей “Лазги” и “Бахшичилик”, организуемых на основе богатых устных традиций Узбекистана, в формировании исторического сознания. Эти мероприятия оцениваются не только как эстетические формы народного искусства, но и как важные инструменты сохранения исторического мышления, национальной идентичности и коллективной памяти. В статье с научной точки зрения анализируются содержание фестивалей, состав участников, исторические корни и сфера их влияния.*

Ключевые слова*: фольклор, историческое сознание, Лазги, Бахшичилик, фестиваль, устное творчество, национальная память, дастан, танец, культурная интеграция.*

Abstract: *This article explores the role of the international “Lazgi” and “Bakhshichilik” festivals, organized on the basis of Uzbekistan’s rich oral traditions, in shaping historical consciousness. These events are evaluated not only as expressions of aesthetic culture but also as vital instruments for preserving*

historical thought, national identity, and collective memory. The article presents an academic analysis of the festivals' content, participants, historical roots, and spheres of influence.

***Keywords**: folklore, historical consciousness, Lazgi, Bakhshichilik, festival, oral heritage, national memory, epic, dance, cultural integration.*

KIRISH. Tarixiy ong – bu jamiyat va individning o‘z tarixini anglash, qadimiy merosini saqlash va uni kelajak avlodga yetkazish vositasidir. Bu ong jamiyatning o‘zini tanishi, shakllanishi va rivojlanishida asosiy psixologik, madaniy va siyosiy omillardan biri hisoblanadi [1]. Tarixiy ong manbalari orasida og‘zaki ijod, xususan, xalqning dostonchilik, raqs, qo‘shiq va marosim san’ati alohida o‘rin tutadi. Aynan folklor san’ati xalq tarixiy xotirasining eng qadimiy va eng tirik shakli sifatida qadrlanadi [2].

O‘zbek xalqining tarixiy tafakkuri asrlar davomida musiqa, og‘zaki doston, raqs va marosimlar orqali ifodalangan. Maqomlar, baxshichilik, milliy raqslar – bularning barchasi tarixiy jarayonlarni nafaqat yodda saqlash, balki ularni estetik vositalar bilan hayotga tatbiq etish imkonini bergan[3]. Masalan, “Alpomish” dostoni yoki “Lazgi” raqsi orqali xalq ozodlik, ijtimoiy adolat, tabiat bilan uyg‘unlik, g‘urur va erkinlik g‘oyalarini asrlar davomida tarannum etib kelgan[4].

ASOSIY QISM. Tarixiy jarayonlarda, ayniqsa og‘zaki an’analar asosida shakllangan folklor san’ati nafaqat estetik hodisa, balki tarixiy, ijtimoiy va axloqiy tafakkurning ko‘zgusidir. Tarix fani bugungi kunda bu san’at namunalarini madaniy antropologiya, tarixiy rekonstruksiya, sotsiologik tafakkur va pedagogik yondashuvlar nuqtaнi nazaridan chuqur o‘rganmoqda[5].

XXI asrda globallashuv, tezkor axborot oqimi va raqamli madaniyat jarayonlari tarixiy ongni mustahkamlash zaruratini yanada kuchaytirdi. Shu bois, o‘zbek xalqining boy nomoddiy madaniy merosini xalqaro miqyosda targ‘ib qilish maqsadida turli xalqaro festivallar yo‘lga qo‘yilmoqda. Bu tadbirlar orasida “Lazgi” va “Baxshichilik” xalqaro festivallari nafaqat milliy san’at namunalari, balki tarixiy ong, xalq xotirasi va o‘zlikni anglash vositasi sifatida alohida o‘rin egallaydi[6].

Mazkur maqolada aynan shu ikki festival misolida og‘zaki ijodning tarixiy tafakkurga ta’siri, sahnadagi jonlanish vositasi sifatida qay darajada samarali ishlayotgani, shuningdek, ularning ilmiy, estetik va madaniy-diplomatik funksiyalari chuqur tahlil qilinadi.

“Lazgi” – qadimiy Xorazm sivilizatsiyasidan kelib chiqqan, tabiat, ruh va inson uyg‘unligini ifodalaydigan ramziy-falsafiy raqs san’atidir. Uning harakati orqali yer, suv, quyosh, erkinlik va sevgi singari universal insoniy qiymatlar estetik aspektda jonlanadi[7].

YUNESKO ning nomoddiy madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishi (2019): YUNESKO ning nomoddiy madaniy meroslar ro‘yxatiga “Khorezm Dance – Lazgi” elementi 2019-yil 12-dekabrda qo‘shildi. Bu qaror Lazgi raqsining qadimiy ildizlari, energetik harakatlari va xalq hayotiga singanligini e’tirof etadi[8].

Baxshi – bu xalq tarixini dostonlar orqali saqlovchi, poetik ravishda ifoda etuvchi og‘zaki ijodkor bo‘lib, u jamiyatning axloqiy-qadriy tizimlarini, ijtimoiy tartibni va tarixiy mafkuralarni asrlar davomida yetkazib kelgan. O‘zbek baxshichiligi qadimiy davrlardan buyon shakllanib, Markaziy Osiyo madaniy fazosining ajralmas qismiga aylangan[1].

2019-yildan boshlab Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida har ikki yilda “Xalqaro baxshichilik san’ati festivali” o‘tkaziladi. Ushbu tadbirda 20 dan ortiq davlat – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya, Koreya, Xitoy, Ozarbayjon va boshqalar ishtirok etadi. 2025-yilda Xiva shahrida bo‘lib o‘tgan 4-festival esa 40dan ortiq davlatdan 200 ishtirokchini birlashtirdi[2].

Festival doirasida klassik epik dostonlar – “Alpomish” (milliy epik ong), “Go‘ro‘g‘li” (ozodlik va kurash timsoli), “Rustamxon” (adolat va aql elchisi) – sahna spektakllar shaklida jonlantirildi. Bu dostonlar baxshi tomonidan nafaqat so‘z bilan, balki dutar, surnay yoki doira kabi an’anaviy asboblar bilan ijro etilib, teatr elementlarini o‘z ichiga oladi[3].

Baxshi – so‘zlovchi, musiqachi, aktyor va hikmat egasidir. U nafaqat tarixni, balki ahloqiy-tarbiyaviy saboqlarni ham ifoda qiladi. O‘z navbatida festival yoshlar va keng jamiyat uchun

og‘zaki tarixni jonli shaklda uzatadigan ta’limiy vositadir[4].

Daryo.uz va UzDaily kabi nashrlarda baxshichilik festivalining ma’naviy-axloqiy rolini ta’kidlab: “...folk art is a lullaby of humanity... bakhshi art is not only an echo of the past, it is also the clear voice of modernity” deb yozilgan[5].

Babanazarova (2024) maqolasida baxshichilikda ritualistik shamanik unsurlar va davriy konservatsiya metodlari tahlil qilinib, ularning sog‘lomlashtirish va xalqaro tanqidiy diqqat uchun asos bo‘lishi ko‘rsatildi[6].

- “American Journal of Social Science and Education Innovations” (2020) nashrida epik xotiraning asl manba sifatida og‘zaki memoriyani saqlash muhimligi urg‘ulandi – “If epic memory ... forgotten, creative beginning is lost”[7].

- Xorazm asosli bir qator maqolalar baxshining repertuari, iqtidor, aktyorlik san’ati va bulardan tashqari pedagogik tafakkurga ta‘siri haqida akademik mulohazalarni taqdim etdi[8].

“Baxshichilik” festivali og‘zaki tarixni milliy ongga singdiruvchi ta’lim, madaniy diplomatiya va tarixiy xotira vositasidir. Bu festival nafaqat tomoshabinlarga folklor go‘zalliklarini kuzatishga, balki zamonaviy sharoitda tarixiy-xotirani qanday jonlantirish mumkinligini ham ko‘rsatadi. Shuningdek, bu tadbir pedagogik yondashuv bilan birga, global ilmiy dialoglarga ham kirib borishi uchun platforma yaratadi[9].

XULOSA. Demak, “Lazgi” va “Baxshichilik” festivallari – bu o‘tmish bilan hozirgi zamon, an’ana bilan yangilik, lokal madaniyat bilan global dunyo o‘rtasidagi ko‘prikdir. Tarix fani uchun esa bu festivallar – og‘zaki tarixni sahnaviy shaklda talqin etuvchi zamonaviy fenomen bo‘lib, o‘zbek xalqining ruhiy va tarixiy boyligini yoritishda benazir vosita bo‘lib qolmoqda. Shuningdek, ushbu festivallar bugungi raqamlashtirilayotgan global dunyo sharoitida yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda va ularning milliy identitetini barqarorlashtirishda ham g‘oyatda muhim o‘rin tutmoqda. Internet, ijtimoiy tarmoqlar va multimediyaviy texnologiyalar orqali “Lazgi” va “Baxshichilik” san’ati millionlab auditoriyalarga yetkazilmoqda. Bu esa, raqamli avlod ongida qadimiy madaniyatga qiziqishni oshirib, milliy o‘zlik va madaniy immunitetni mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Global axborot oqimida yot madaniyatlar kuchli bo‘layotgan bugungi sharoitda, ushbu festivallar yosh avlodning “o‘zligini yo‘qotmasdan, ochiq dunyoda yashash” tamoyiliga tayangan holda tarbiyalanishiga yordam beradi. Madaniyatni ommalashtirish, uni raqamli kontent sifatida eksport qilish – bu o‘zbek san’atining zamonaviy diplomatik va tarbiyaviy strategiyasiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Xorazm madaniy merosi va tarixiy ong: antropologik tahlil. Toshkent, 2022.
2. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va uning zamonaviy pedagogik ahamiyati. Toshkent, 2023.
3. Milliy raqs va epik dostonlarning estetik qadriyatlari. Samarqand, 2021.
4. “Alpomish” va “Lazgi”: tarix va madaniyat uyg‘unligi. Xorazm, 2020.
5. Og‘zaki san’at va tarixiy tafakkur: nazariy yondashuvlar. Toshkent, 2019.
6. Baxshichilik festivalining ritualistik unsurlari va konservatsiya. Termiz, 2024.
7. YUNESKO nomoddiy madaniy merosi ro‘yxati: Lazgi raqsi. YUNESKO, 2019.
8. Baxshi san’ati va uning pedagogik roli. Toshkent, 2020.
9. Folklor festivallari va milliy o‘zlik shakllanishi. Jizzax, 2022.
10. Tarixiy ongni mustahkamlashda folklorning roli. Toshkent, 2023.
11. Botir Rakhimov. “Lazgi raqsining falsafasi va milliy identitet”. Xorazm ilmiy jurnali, 2021.
12. Xalqaro folklor festivallari va madaniy diplomatiya. Toshkent, 2023.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 159.99

ПСИХОБИОГРАФИЯГА УМУМИЙ ҚАРАШЛАР: НАЗАРИЙ АСОСЛАР, МЕТОДЛАР ВА АМАЛИЁТДАГИ АҲАМИЯТИ (НОГИРОНЛИГИ БОР ШАХСЛАР МИСОЛИДА)

Мухаммадиева Шахло Ғаниевна, Тошкент шаҳридаги ММФИ Миллий тадқиқот ядро университети Федерал давлат автоном олий таълим муассасаси филиали катта ўқитувчиси

https://orcid.org/0009-0004-5861-6569
e-mail: muxammadiyevashaxlo9@gmail.com

OVERVIEW OF PSYCHOBIOGRAPHY: THEORETICAL FOUNDATIONS, METHODS, AND PRACTICE SIGNIFICANCE (IN THE EXAMPLE OF PEOPLE WITH DISABILITIES)

Mukhammadiyeva Shaxlo Ganiyevna, Senior teacher of the branch of the Federal State Autonomous Higher Educational Institution of the National Research Nuclear University of the MMFI in Tashkent

ОБЗОР ПСИХОБИОГРАФИИ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, МЕТОДЫ И ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ (НА ПРИМЕРЕ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ)

Мухаммадиева Шахло Ганиевна, старший преподаватель филиала Федерального государственного автономного высшего образовательного учреждения Национального исследовательского ядерного университета Федерального государственного физико-технического института в г. Ташкенте

Аннотация: *Ушбу тадқиқот психобиографик тадқиқотлар билан боғлиқ асосий тушунчалар ва терминологияни тушунтириш орқали аниқ тушунча беришга қаратилган. Шунингдек, у психобиографиянинг тарихий илдизларини ўрганади ва бундай тадқиқотларни ўтказиш билан боғлиқ асосий босқичларни белгилайди. Психобиографияни ногиронлиги бор шахслар ҳаётини психологик нуқтаи назардан тадқиқ қилишдаги тутган ўрни ҳам ёритишга ҳаракат қилинган.*

Калит сўзлар*: психобиография, ҳаёт тарихини ўрганиш, психологияда сифат усуллари, ижтимоий мослашув, ногиронлик.*

Abstract: *This study aims to provide a clear understanding of the main concepts and terminology associated with psychobiographical research by explaining them. It also examines the historical roots of psychobiography and identifies the main stages associated with conducting such research. An attempt is also made to shed light on the role of psychobiography in the study of the lives of people with disabilities from a psychological perspective.*

***Keywords**: psychobiography, life history research, qualitative methods in psychology, social adaptation, disability.*

***Аннотация:** Цель данного исследования – дать четкое представление об основных понятиях и терминологии, связанных с психобиографическими исследованиями, путем их объяснения. В исследовании также рассматриваются исторические корни психобиографии и определяются основные этапы, связанные с проведением таких исследований. Также предпринята попытка пролить свет на роль психобиографии в изучении жизни людей с ограниченными возможностями здоровья с психологической точки зрения.*

***Ключевые слова:** психобиография, исследование истории жизни, качественные методы в психологии, социальная адаптация, инвалидность.*

КИРИШ. Биографик усул (психобиографик) замонавий психология ва унга алоқадор гуманитар фанлар арсеналида тобора муҳим ўрин эгаллаб бормоқда. Унинг ривожланиши файласуфлар, тарихчилар, социологлар, санъатшунослар ва албатта, психологлар томонидан яратилган узоқ, бой тарихга эга. Замонавий илм-фанда инсонни бутун умри давомида тарихий давр миқёсида яхлит ўрганиш тенденцияси кучайиб бормоқда, шу муносабат билан биографик усуллар тобора оммалашиб бормоқда. Шунга қарамай, инсоннинг ҳаёт йўли назарияси, ҳаётни табиий-тарихий жараён сифатида шахс даражасида ўрганишнинг методологик воситалари, шахсий-биографик ва ижтимоий-тарихий вақт ўртасидаги муносабатларнинг кўплаб масалалари ҳал қилинмаган. Психобиография ўз моҳиятига кўра фанлараро боғлиқ бўлиб, тарих ва психологиянинг интеллектуал фанларига таянади. Психобиографлар тарихдан тарихшунослик, биографик усулларга, психологиядан эса унинг шахсият ва инсон ривожланиши ҳақидаги назарияларига асосланадилар. Шахснинг ривожланишини ўрганиш учун биографик усулдан тўлиқ версияда фойдаланиш тажрибалари жуда кам учрайди. Психобиография психология тарихида муҳим ўрин тутади, аммо психология бўлимларида психобиографик тайёргарлик ва диссертация тадқиқотлари ҳолати ҳақида кам маълумотлар мавжуд. Психобиография – “психологик ва тарихшунослик тадқиқот усулларидан фойдаланган ҳолда ижтимоий-маданий контекстда тарихий аҳамиятга эга бўлган ва психологиянинг ўрнатилган назарияларидан талқин қилинган ҳолда, умр бўйи интенсив ўрганиш”[1]. Психобиография – шахсий ҳаётни психологик назария орқали ўрганиш – ногиронларнинг тажрибалари ҳақида чуқур маълумот бериши мумкин. Бу ёндашув, айниқса, қимматлидир, чунки у тадқиқотчиларга инсон ҳаётининг ҳиссий, ривожланиш ва шахсиятга асосланган ўлчовларини қамраб оладиган юзаки гап-сўзлар ёки ногиронлик ҳақидаги тиббий кўринишлардан ташқарига чиқишга имкон беради. Психобиография шахснинг субъектив тажрибасига асосланади. Шахслари кўпинча тиббий ташхис ёки функционал чекловларга қисқартирилган ногиронлиги бор шахслар учун бу усул уларнинг шахсий ҳикоялари, ҳис-туйғулари, орзулари ва курашларини илгари суради, уларни инсонийлаштиради ва стереотипларга қарши курашади. Анъанавий ёндашувлар қарамлик ёки заифликка қаратилиши мумкин. Психобиография, аксинча, одамларнинг тизимли тўсиқларга қарамай, ўз атроф-муҳитини ва ўзига хослигини қандай бошқариши ва ўзгартиришини кўрсатиб, чидамлилик, курашиш механизмлари ва мослашиш стратегиялари ҳақидаги ҳикояларни очиб бериши мумкин.

МЕТОДОЛОГИЯ. Автор мақолада психобиографиянинг тарихи, у бўйича қилинган тадқиқотлар, психологик биографияни олиб бориш услубларига тўхталади. Бундан ташқари, автор мақолада ногиронлиги бор шахслар психологиясини

тадқиқ қилиш жараёнида психобиографиянинг тутган ўрнини илмий тарзда очиб беришга уринади. Юқорида айтиб ўтилганидек, психобиография, сифатли усул сифатида, бутун шахсни ҳисобга олган ҳолда, ўз эътиборини субъектнинг индивидуаллигига қаратади. Бу шуни англатадики, ижтимоий-тарихий ва маданий маълумотларни, шунингдек, ижтимоий кўникмалар ва оилавий ҳикояларни ҳисобга олиш керак. Бинобарин, бу шахс ва инсон ривожланишининг янги назарияларини синаб кўриш ва ривожлантириш имкониятидир. Олимлар психобиографияни олиб боришнинг қўйидаги кўрсатмаларига амал қилишни тавсия қиладилар:

-Ноёб шахсият намуналарини тушуниш, биз баъзи хусусиятларни бошқа одамлар билан бир хиллигини билсак ҳам, биз ўзимизнинг ўзига хослигимизни ҳис қиламиз[2].

-хулқ-атворини башорат қилишга ёрдам берадиган, (масалан, сиёсатчиларнинг) психобиографияга анъанавий тарзда қизиқиш ортиши ортидан 1920 йилдан бери бир қатор ишлар нашр қилинди. 1972 йилда Жеймс Дэвид Барбер томонидан нашр этилган “Президентлик характери” китоби бунга мисол бўла олади, унда у АҚШ президентлари ва номзодларини таснифлаш типологиясини таклиф қилди[3].

-мавзуни контекстуаллаштириш орқали унинг тушунчасини бойитиш, чунки психобиография тегишли ижтимоий ва тарихий муҳитни билиш ва тушунишни талаб қилади. Шундай қилиб, психобиография мавзунинг яхлит тавсифини таклиф қилади.

-шахсият назариялари ёки ёндашувларини тасдиқлаш ёки қайта кўриб чиқиш. Психобиография ҳам бир қанча шахсият назарияларининг манбаи ҳисобланади. Фрейд, Маслоу ва Эриксон каби жуда муҳим психологлар ўзларининг назарияларини қуриш ёки қайта кўриб чиқиш учун мос равишда Леонардо Да Винчи, Рут Бенедикт, Макс Вертхаймер ва Мартин Лютер Кингнинг ҳаётий ҳикояларидан илҳомланганлар[4].

-психобиография таълим жараёнида фойдалидир: бошқа ҳаётларни чуқур таҳлил қилиш психолог талабаларга психологик ютуқларни бирлаштириш ва улардан фойдаланиш орқали инсон онги ва хатти-ҳаракати ҳақидаги билимларини кенгайтиришга ёрдам беради[5].

АСОСИЙ ҚИСМ. XX асрда биографик психологиянинг ривожланишига катта ҳисса қўшганлар орасида Н.А.Рыбников, Б.Г.Ананьев, С.Л.Рубинштейн, Зигмунд Фрейд, Шарлотта Бюлер, Виктор Франкл, Альфред Адлер, Ганс Томэ, Г.Олпорт, А.Маслоу каби психологлар ҳам бор. Психобиографияни субъектнинг ҳаётини изчил ва ёрқин ҳикояга айлантириш учун психологик назариядан самарали фойдаланиш сифатида тушунтириш мумкин. Психобиографиянинг мақсади – шахсни тушунишдир; умумлаштириш ёки умумийликни аниқлаш учун эмас, балки ҳар бир мавзуга ўзига хос тарзда ёндашишдир. Психобиограф субъект ҳаётининг баҳсли ва тушунарсиз томонларини тушунишга мойил бўлади. Бугунги кунда психобиография деб номланувчи ушбу усулни биринчи бўлиб қўллаган киши Фрейд эди. Чет эл олимларидан кейинчалик, XVI асрда Гиоргио Васари рассомлар ҳаёти ҳақида ёзган[5]. 1910 йилда Фрейд Леонардо Да Винчи ҳақида иншо нашр этди ва йиллар ўтиб Гёте ва Достоевский ҳақида бошқа тадқиқотлар ёзди. Унинг тадқиқотидан сўнг, бошқа психоанализ мутахассислари ушбу методологиядан бошқа рассомларга мурожаат қилиш учун фойдалана бошладилар, масалан, 1910 йилда Жонс томонидан ёзилган Шекспир ёки 1911 йилда Вагнер Грааф томонидан олиб борилган тадқиқот. Бироқ, бу ишлар жиддий танқидга учради, чунки таҳлилларга психопатологик жиҳатлар кучли таъсир кўрсатди[5]. 1930-йилларга келиб эса психобиография энди психоанализ назариялари билан чекланмасликни бошлади. Персонология янги

ёндашув бўлиб, унинг ҳаётий ҳикояси орқали мавзуни ўрганишга эътиборни қаратди ва уни Олпорт эълон қилди, у ҳаёт тарихи инсоннинг индивидуаллигини аниқлашга ёрдам берадиган ягона ўлчов эканлигини таъкидлади, чунки биз инсон шахсияти ҳақида гапирганимизда, кўпинча ўша ҳаёт тарихига мурожаат қиламиз. Бу психоанализдан ташқари ҳозирги психобиография устида ишлашнинг энг муҳим усули эди. Андерсон, Александр, Рунян, Элмс, Мак Адамс ва Шульцнинг ишлари туфайли 1980-йилларда психобиография кучли қайта туғилди. Ҳикоя психологиясининг тобора оммалашиб бориши бунга ҳисса қўшди[5]. Рунян "Ҳаёт тарихи ва психобиография: назария ва услубдаги изланишлар" асарини ёзган[6]. Психобиографиянинг кенг ривожланишига МДҲ давлатларининг олимларидан Б.Г.Ананев (1907-1972) ҳисса қўшган бўлиб, у олтмишинчи йилларда инсоннинг комплекс тадқиқотларини ташкил этиш, лойиҳалаш ва дастурлашни бошлаган, шу муносабат билан у психология методологияси муаммоларига мурожаат қилган ва биографик ўриннинг янги таснифини ишлаб чиққан. Унинг таснифи тадқиқотни режалаштиришдан тортиб олинган маълумотларни шарҳлашгача бўлган тадқиқот жараёнининг мантиқийлигини акс эттиради. Шунга кўра, у усулларнинг тўртта синфини аниқлади:

Ташкилий; Эмпирик; Ишлов бериш усуллари;Изоҳлаш.

Усулларнинг энг кенг ва тарқоқ синфи эмпирик бўлиб, у илмий фактлар олинадиган дастлабки эмпирик материални олиш воситаси бўлиб хизмат қилади. Ананев эмпирик усулларни кузатиш (кузатиш ва ўз-ўзини кузатиш), экспериментал (табиий ва лаборатория тажрибалари), диагностик, праксис ва улар билан бирга биографик усулларга ажратади. Б.Г.Ананевнинг фикрига кўра, "биографик усул – бу шахс ва фаолият субъекти сифатида инсоннинг ҳаёт йўли ҳақидаги маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилишдир (инсон ҳужжатларини таҳлил қилиш, замондошларнинг гувоҳликлари, шахснинг ўз фаолияти маҳсулотлари ва бошқалар)"[7]. С.Л.Рубинштейнга кўра, ҳатто инсон ўз тарихига эга бўлган тақдирдагина шахсият деб айтиш мумкин[8].

Психобиографияни қандай яратиш, тузиш, самарали қўллаш борасида олимлар ҳар хил фикрларни илгари суришганки, қуйида биз уларнинг бир қаторларини келтирамиз.

Шульц психобиографияни тайёрлашни тўртта асосий босқичга ажратди [9].

1.Шахс ҳақида биринчи шахс ва учинчи шахс ҳужжатларидан ўқиш.

2.Ушбу шахснинг ҳаётида очиладиган сирни ҳал қилиш ёки топиш учун муаммо топиш.

3.Ушбу сирни кўзда тутган ҳолда таржимаи ҳол ва бошқа манбаларни қайта ўқиш. Бу олдинга ва орқага жараён.

4. Ҳикояни яратиш. Бу жараёнда ўқувчи кучайиб бораётган драматик кескинликни ҳис қилиши керак, деб ўйлаймиз, бу эса охирида унинг талқини билан ҳал қилинади. Ёзувчи олим сифатида эмас, ижодкор сифатида ёзиши мақсадга мувофиқдир. Шульцнинг юқоридаги тавсияларидан фарқли тарзда М.Б Майлз ўн икки босқичли тавсифлар тўпламини берди[10].

1.Тадқиқот объектини танлаш. Бу тадқиқотчи психобиография тадқиқотини ўтказиш учун муҳим ва зарур деб ҳисоблаган тарихий (ёки оддий) шахсга асосланишни ўз ичига олган жараёндир. Ушбу дастлабки босқичда кўриб чиқилиши керак бўлган омиллар тадқиқотчининг мўлжалланган мавзу алоқаси билан боғлиқ. Ду Плессис шахсни танлаш бўйича баъзи саволларга жавоб беришни тавсия қилади, масалан "Мен бу шахсни нима учун танладим?" ёки "Бу шахс мендан бошқа одамларни қизиқтирадими?" Ушбу жавобларнинг ишончлилиги шахснинг психобиографик тадқиқотга мос келишини аниқлашга ёрдам беради [11].

2. Шахсга оид асосий ва иккиламчи манбаларни аниқлаш. Аввалига иложи борича кўпроқ манбаларни аниқлаш керак. Кейин

уларнинг фойдалилигини танқидий баҳолаш керак, қандай маълумотларни киритиш ёки чиқариб ташлаш кераклиги ҳақидаги қарор жуда муҳим, чунки у психобиографик тадқиқотнинг моҳиятини аниқлайди. Шульц таъкидлайдики, аниқ психобиография яратиш учун субъект ҳақида биринчи шахс ва учинчи шахс ҳужжатларида мавжуд бўлган етарли материалларни баҳолаш ва ўқиш муҳимдир[9].

3. *Шахснинг яшаш муҳитини аниқлаш*. Ҳар бир ҳаёт кўпинча ижтимоий-маданий кўникмалар билан тўла ва бу хусусиятлар кўп жиҳатдан бевосита ва билвосита намоён бўлади. Бу шуни англатадики, ҳар қандай психобиография тадқиқотида субъектнинг ҳаётига маҳаллий ва халқаро ижтимоий-сиёсий, диний, тарихий ва маданий омиллар катта таъсир кўрсатади.

4.Мос психологик назарияни ёки назарияларнини танлаш. Тадқиқотчи оладиган маълумотни шарҳлаш учун олдиндан белгиланган моделлар мавжуд эмас. Бироқ, Шульц таъкидлаганидек, психобиографиянинг сифати, бошқа жиҳатлар қатори, илмий жиҳатдан тасдиқланган қатъий назарияни танлашга боғлиқ бўлади[12].

5.Маълумотларни ўзи учун тилга киришига изн бериш. Бир нечта манбалардан олинган турли хил биографик маълумотлар билан ишлашда номувофиқликка дуч келиш одатий ҳолдир[13]. Ушбу номувофиқликлар кичик ёки катта бўлиши мумкин, улар туғилган сана ёки ўлим санаси, болалик тажрибаси, иш ҳаёти, эътиқод ва эътиқод масалаларидаги фарқларга тааллуқлидир. Ушбу қарама-қаршиликлар ва номувофиқликларни бартараф этиш учун психобиограф психологик далиллар устун бўлишига имкон бериш учун аниқ маълумот манбаларига ишониш ёки рози бўлмаслик учун асосларни ишлаб чиқиши керак[11].

6.Ўрганилаётган мавзуга мос келадиган саволларни бериш. Бу саволлар танланган назарияга боғлиқ бўлиши мумкин. Ҳар бир психобиограф тадқиқотни ўзи очмоқчи бўлган тахминлар ва саволлар билан бошлайди. Бу саволлар ва гипотезалар фақат тадқиқотчи ёки кенг жамоатчиликни қизиқтириши мумкин. Баъзи психобиография муаллифлари ушбу мавзу бўйича тўлиқ маълумотлар тўпланганда сўнг тадқиқот саволлари ва гипотезаларини шакллантиришни бошлаш яхшироқ деб таъкидлайдилар, чунки тадқиқотчи қандай саволларни беришни аниқ билиб олади. Психобиограф қачон гипотезалар ва тадқиқот саволларини шакллантиришни бошлашидан қатъи назар, асосий нарса гипотезалар мавзу бўйича спекулятив бўлган саволларга жавоб беришга тайёр бўлиши керак. Худди шундай, сўраладиган саволлар ҳам қўлланиладиган назариядан келиб чиқиши керак. Бу билан тадқиқотчи тадқиқотнинг ишончлилигини таъминлайдиган тизимли ёндашувни ўрнатади[11].

7.Кодлаш стратегиялари ва шунга кўра кодлаш. Сифатли тадқиқотлар натижалари матндан келиб чиқмайди; аксинча, улар тадқиқот саволларига жавоб берадиган изчил ҳикояларни ишлаб чиқиш учун асосий элементларни аниқлаш учун асослашни талаб қилади. Шунинг учун кодлар маълумотларни тизимлаштирилган тарзда тузиш ва таҳлил қилиш учун ишлатилади. Психобиографияда қандай кодлаш ва нимани кодлаш бўйича қарорлар топилмаларнинг якуний тузилишига сезиларли таъсир кўрсатади. Анъанавий, кодлашнинг идеал усули маълумотлар тўпламига таянишни ўз ичига олади. Бунга тадқиқотчининг луғат ва мавзуларидан фойдаланиш ўрнига мавзунинг турли маълумотлар манбаларида топилган иборалар ва атамалардан кодлар яратиш киради. Кўпгина қарашларда кодлар улардаги ҳақиқатни акс эттирган ҳолда маълумотлар ғояларига яқин туради.

8.Дисплей форматларини танлаш. Изланишлар тартибга солинаётганда, биринчи навбатда, уларнинг ўқувчиларга қандай тақдим этилиши ҳақида ўйлаш керак. Тақдимот формати тадқиқот натижаларига таъсир қилиши ва тадқиқотдаги муҳим масалалардан хабардорликни ошириши мумкин. Шундай

қилиб, тақдимот формати ҳикояни ўқувчилар учун мантиқий тарзда ташкил қилиши керак. Психобиографик топилмаларни тақдим этишнинг кўплаб ёндашувлари мавжуд. Масалан, матннинг катта қисмларини сарлавҳаларга гуруҳлаш ёки графиклар, жадваллар ва рақамлар каби форматларни қўшиш орқали матндан фойдаланиш[10].

9.Кодлашни дисплей формати билан интеграциялаш. Дисплей формати ва кодлаш тўғрисида қарор қабул қилгандан сўнг, асосий эътибор кодларни дисплей форматига бирлаштиришга ўтади. Шу нуқтада, олдинги босқичларга, хусусан, тадқиқотчи тадқиқот саволлари ва гипотезаларини шакллантирган 5 ва 6-босқичларга мурожаат қилиш жуда муҳимдир. Чунки у маълумотни қизиқтирган соҳаларни белгилаб берадиган тарзда тартибга солишга ёрдам беради.

10.Психобиографияни ёзиш. Бу одатда психобиограф тадқиқотнинг барча қисмларини бирлаштирадиган босқичдир. Шунингдек, тадқиқотчининг ижодий интилишлари юзага чиқадиган босқичдир. Ушбу жараён тадқиқотчи маълумотларни синчковлик билан ўзгартириб, таҳлил қилгандан кейингина бошланиши керак, аммо баъзи ҳолларда ёзиш пайтида кўпроқ янги далиллар ва асосий маълумотлар талаб қилиниши мумкин. Ёзма равишда психобиограф аниқ киришдан бошлаши, мавзуни таърифлаш, нима ўзига хослигини ва нима учун улар бўйича психобиографик тадқиқот муҳимлигини таърифлаш кутилади. Кириш қисмида мавзуга татбиқ этиладиган психологик назариялар ҳам баён қилиниши ва тавсифланиши керак. Шуни билиш керакки, ушбу босқичнинг сифати кўп жиҳатдан маълумотларни йиғиш пайтидаги ишига ва психобиографнинг ижодий ёзиш қобилиятига боғлиқ.

11.Психобиографияни кўриб чиқиш. Психобиографик тадқиқотлар ҳақиқатга ишора қилиш учун статистик аҳамиятга эга эмас. Шу сабабли, психобиограф учун ўз тадқиқотларини топилмалар тадқиқот саволларига берганлигини текшириш муҳимдир. Бундан ташқари, тадқиқотчи бошқа муқобил тушунтиришлар мавжудлигини билиш учун ушбу мавзу бўйича ўз хулосасини қайта кўриб чиқиши мақсадга мувофиқдир. Бундай ҳолда, психобиографик мавзу бўйича сўзловчининг талқинига таъсир қилиши мумкин бўлган ўзига хос шахсий ҳис-туйғулар мувозанатига ҳам эътибор қаратиш лозим бўлиши мумкин.

12.Тадқиқотни баҳолаш. Психобиографик тадқиқот тегишли тарзда ўтказилганлигини аниқлаш учун якуний имтиҳон бошқа тадқиқотчилар томонидан итератив жараёнга чакирувдир. Уларнинг фикрига кўра, психобиографик тадқиқотлар тузилганда, қайси шарҳлар мавжуд фактлар билан энг яхши тасдиқланганлигини ўқувчилар ёки шарҳловчилар аниқлашлари керак. Бундан ташқари, ҳар қандай психобиографик тадқиқотнинг ишончлилигини таъминлаш учун тадқиқот жараёнида қўлланилиши мумкин бўлган турли стратегияларни таъкидлайди. Бунга объект тарихи ва ижтимоий-маданий контекстни яхши тушунишни таъминлаш, маълумотларни саралаш ва кодлаш бўйича белгиланган кўрсатмаларга риоя қилиш, статистик умумлаштиришдан кўра аналитик умумлаштиришга интилиш, якуний лойиҳа бўйича маълумот берувчи сифатида субъектнинг оила аъзосидан фойдаланиш, шунингдек, барча топилмалар спекулятив эканлигини тан олиш киради. Бошқа тадқиқотларда психобиографик тадқиқотларни баҳолашнинг мумкин бўлган усуллари сифатида психобиографик тадқиқотларни чеклаш, маълумотларни саралаш ва қисқартириш усулларини аниқ белгилаш, мумкин бўлган нотўғриликни тан олиш ва маданиятлараро муаммолардан хабардор бўлиш каби кўрсатмалар келтирилган.

Ногиронлиги бор шахсларнинг ҳаёти, руҳий саломатлиги ва ижтимоий интеграцияси психология фани учун долзарб йўналишлардан ҳисобланади. Ногиронлик инсон ҳаётида турли тўсиқлар, қийинчиликлар ва ижтимоий

TAMADDUN NURI

мослашув масалаларини келтириб чиқаради. Шу жиҳатдан, инсоннинг ҳаётий тажрибаларини шахсий ривожланиш нуқтаи назаридан таҳлил қилиш усули – психобиография алоҳида аҳамиятга эга. Ногиронликка доир ҳаётий воқеаларни таҳлил қилиш шахснинг руҳий чидамлилигини кучайтиради. Психобиография орқали инсон қийин вазиятларда қандай ечим топгани ва қайси омиллар унга ёрдам берганини англайди. Биографик таҳлил инсоннинг жамиятда тутган ўрнини ва атрофдагилар билан муносабатини кўрсатиб беради. Бу эса ижтимоий қўллаб-қувватлаш тизимини такомиллаштиришда муҳим аҳамиятга эга.

ХУЛОСА. Ногиронлиги бор шахслар биографиясини психобиографик таҳлил қилиш психологик тадқиқотлар учун бой материал манбаи ҳисобланади. Шу билан бирга, амалиётда уларнинг эҳтиёжларига мос реабилитация ва ижтимоий қўллаб-қувватлаш дастурларини ишлаб чиқишга хизмат қилади. Ногирон шахслар ҳаётида психобиографиянинг ўрни беқиёсдир. У шахснинг шахсий тажрибаларини теран англашга, ижтимоий мослашувини кучайтиришга, маънавий куч ва мотивация манбаи сифатида хизмат қилади. Илмий жиҳатдан эса ногиронлик масалаларини янги нуқтаи назардан ёритиш имконини беради. Ногиронлиги бор шахсларнинг ҳаётини психологик жиҳатдан ўрганиш учун психобиографиядан фойдаланиш юртимиз олимлари томонидан кам татбиқ этилганини ҳисобга оладиган бўлсак, бу соҳада кўплаб илмий изланишлар қилиниши зарур, деган хулосага келдик.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ponterotto,J.G. (in press). Psychobiography in psychology: Past, present, and future. Journal of Psychology in Africa.
2. Elms AC (2007) Psychobiography and case study methods. In: Robins RW, Fraley RC, Krueger RF (Eds.), Handbook of research methods in personality psychology. Guildford Press, New York, NY, USA, pp. 97-113.
3. McAdams, Dan P (2010) George W Bush and the redemptive dream: A psychological portrait. Oxford University Press, New York, NY, USA.
4. Elms AC (2007) Psychobiography and case study methods. In: Robins RW, Fraley RC, Krueger RF (Eds.), Handbook of research methods in personality psychology. Guildford Press, New York, NY, USA, pp. 97-113.
5. Psychobiography as a method. The revival of studying lives: New perspectives in personality and creativity research. Zoltán Kőváry Institute of Psychology, University of Szeged.
6. Runyan WM (1984). Life histories and psychobiography: Exploration in theory and method. Oxford University Press, New York, USA.
7. Ананьев Б.Г. О проблемах современного человекознания. М.: Наука. 1977. 379 с.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. М., 1999.
9. Schultz WT (2005a) Introducing Psychobiography. In: Schultz WT (Ed.), Handbook of Psychobiography. Oxford University Press, New York, USA, pp. 3-18.
10. Miles MB, Huberman AM, Saldana J (2014) Qualitative data analysis: A methods sourcebook. Sage Publications, Los Angeles, USA.
11. Du Plessis C. (2017). The method of psychobiography: Presenting a stepwise approach. Qualitative Research in Psychology 14 (2): 216-237.
12. Schultz WT (2016) Psychobiography: Theory and practice. The American Psychologist 72(5): 434-445.
13. Robins,R.W., Fraley,R.C., & Krueger, R.F. (2007). Handbook of research methods in personality psychology. Guilford Press. London.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 392.181.151.9

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARNI SPORT MASHG'ULOTLARIGA KOMPLEKS TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI

[1]Daniyeva Yarkin Choriyevna, Termiz davlat universiteti pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
[2]Xakimova Nargiza Urokovna, Termiz davlat universiteti

THE TECHNOLOGY OF COMPLEX PREPARATION OF STUDENTS FOR SPORTS TRAINING BASED ON AN INNOVATIVE APPROACH

[1]Danieva Yarkin Chorievna, Termez State University Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor
[2]Xakimova Nargiza Urokovna, Termiz State University Teacher of the Department of Physical Education and Sports Games

https://orcid.org/0009-0009-1804-2409

ТЕХНОЛОГИЯ КОМПЛЕКСНОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОВ К СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКЕ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА

[1]Даниева Яркин Чориевна, Термезский государственный университет, кандидат педагогических наук, доцент
Xakimova Nargiza Urokovna, Термезский государственный университет, преподаватель кафедры физического воспитания и спортивных игр

Annotatsiya: *Ushbu maqola talabalarni innovatsion yondashuvdan foydalangan holda sport mashg'ulotlariga har tomonlama tayyorlash texnologiyasini ishlab chiqish va tadqiq qilishga bag'ishlangan. Talabalarning sport bilan shug'ullanishi ularning jismoniy va psixologik rivojlanishining muhim jihati bo'lib, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga yordam beradi. Maqolada kompleks tayyorgarlikning asosiy nazariy jihatlari ko'rib chiqiladi, shuningdek, sport mashg'ulotlari jarayonida mavjud yondashuvlar tahlil qilinadi. Sport tayyorgarligida zamonaviy texnologiyalar, innovatsion mashg'ulot metodlari va mashg'ulotlar jarayonini qo'llab-quvvatlash vositalaridan foydalanish kabi innovatsiyalarning o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.*

Kalit so'zlar: *kompleks tayyorgarlik, sport mashg'ulotlari, talabalar, innovatsion yondashuv, yengil atletika, virtual reallik, biometrik tizimlar.*

Annotation: *This article is devoted to the development and research of technology for the comprehensive preparation of students for sports training using an innovative approach. Sports training of students is an important aspect of their physical and psychological development, and also contributes to the*

formation of a healthy lifestyle. The paper discusses the main theoretical aspects of integrated training, and also analyzes existing approaches to the training process. Particular attention is paid to the role of innovations in sports training, such as the use of modern technologies, innovative training methods and means of supporting the training process.

Key words: *integrated training, sports training, students, innovative approach, athletics, virtual reality, biometric systems.*

Аннотация: *Настоящая статья посвящена разработке и исследованию технологии комплексной подготовки студентов к спортивной тренировке с применением инновационного подхода. Спортивная подготовка студентов является важным аспектом их физического и психологического развития, а также способствует формированию здорового образа жизни. В работе рассматриваются основные теоретические аспекты комплексной подготовки, а также проводится анализ существующих подходов к тренировочному процессу. Особое внимание уделяется роли инноваций в спортивной подготовке, таких как использование современных технологий, инновационных методов тренировки и средств поддержки тренировочного процесса.*

Ключевые слова: *комплексная подготовка, спортивная тренировка, студенты, инновационный подход, легкая атлетика, виртуальная реальность, биометрические системы.*

KIRISH. Sport va jismoniy faollik zamonaviy jamiyatda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va hayot sifatini yaxshilashda muhim o‘rin tutadi. Talabalarning sport bilan shug‘ullanishi alohida ahamiyatga ega, chunki bu nafaqat ularning jismoniy rivojlanishiga yordam beradi, balki maqsadlarga erishishda intizomli va mas’uliyatli yondashuvni shakllantiradi.

Mazkur tadqiqot natijalari talabalarni sportga tayyorlash amaliyotini boyitish, jismoniy faollik darajasini oshirish, shuningdek, yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qilishi kutilmoqda. Talabalarni tayyorlashga innovatsion yondashuv yengil atletika bo‘yicha optimal natijalarga erishadi va ehtimol, boshqa sport turlariga o‘tkaziladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ushbu mavzu bo‘yicha ishlarni o‘rganish va tahlil qilish talabalarning jismoniy tarbiyasida innovatsion yondashuvlarning bir nechta asosiy yo‘nalishlarini aniqlashga imkon beradi:

1. Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish:

- Rodkin D.A., Kolpakova E.M. “Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlarining innovatsion texnologiyalari”.

- Naskalov V.M., Jhernakova N.I. “Universitet talabalari jismoniy tarbiyasida innovatsion texnologiyalar sog‘liqni saqlash usuli sifatida”.

TADQIQOT METODOLOGIYASI quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

- o‘rganish vazifasi va maqsadlarini belgilash;

- innovatsion yondashuvlardan foydalangan holda yengil atletika bo‘yicha talabalarni har tomonlama tayyorlash mavzusi bo‘yicha zamonaviy tadqiqot va adabiyotlarga sharh o‘tkazish;

- boshqa sport fanlari va sport maktablarida muvaffaqiyatli uslub va texnologiyalar tajribasini tahlil qilish;

- tadqiqot ishtirokchilarini tanlash, ularni nazorat va eksperimental guruhlarga bo‘lish;

- innovatsion texnologiyani ishlab chiqish, talabalarni tayyorlashning innovatsion texnologiyasiga kiritiladigan mashqlar majmuasi, usul va yondashuvlarni aniqlash, ishlab chiqilgan texnologiya doirasida o‘quv jarayonining ketma-ketligi va davriyligini tavsiflash;

- tajriba o‘tkazish;

- eksperimentdan oldin va keyin talabalarning jismoniy tayyorgarligi to‘g‘risida ma’lumotlarni to‘plash, natijalarni statistik usullar yordamida tahlil qilish va nazorat guruhi bilan solishtirish;

- tadqiqot natijalarini sharhlash va muhokama qilish.

TADQIQOT NATIJALARI. Yaxshilangan jismoniy tayyorgarlik: eksperimental guruh nazorat guruhiga nisbatan kuch, chidamlilik, tezlik va moslashuvchanlikda statistik jihatdan sezilarli yaxshilanishni ko‘rsatdi. Sport ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi: eksperimental guruh talabalari nazorat guruhiga nisbatan sport musobaqalarida yuqori natijalarni ko‘rsatdilar. Yaxshilangan texnik ko‘nikmalar: innovatsion yondashuvlardan foydalanish eksperimental guruh ishtirokchilariga yengil atletikaning turli yo‘nalishlari bo‘yicha texnik ko‘nikmalarini sezilarli darajada oshirish imkonini berdi.

Motivatsiya va qoniqishning ortishi: Innovatsion texnologiyalar bilan mashg‘ulot o‘tkazgan talabalar an’anaviy usullarga nisbatan yuqori motivatsiya va mashg‘ulotlardan qoniqishni bildirdilar.

Amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalari innovatsion yondashuvlar asosida talabalarni yengil atletika bo‘yicha kompleks tayyorlash texnologiyasining samaradorligini tasdiqlaydi. Yangi texnologiya sport maktablari, oliy o‘quv yurtlari va boshqa ta’lim muassasalarida sportchilarni tayyorlash sifatini oshirish uchun tavsiya etilishi mumkin.

Keyingi tadqiqotlar: Yangi texnologiyaning uzoq muddatli natijalarini tasdiqlash uchun ko‘proq ishtirokchilar bilan va uzoqroq vaqt davomida keyingi tadqiqotlar tavsiya etiladi. Tadqiqot innovatsion yondashuvning fanlar bo‘yicha qo‘llanilishini baholash uchun boshqa sport turlariga ham kengaytirilishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Tadqiqot sportchilarning jismoniy tayyorgarligida innovatsion uslub va yondashuvlarning samaradorligi va ahamiyatini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kompleks texnologiyalar, jumladan, innovatsion mashqlar, funksional tayyorgarlik va kuch-quvvat usullaridan foydalanish ishtirokchilarning jismoniy tayyorgarligi, sport ko‘rsatkichlari va texnik mahoratini sezilarli darajada oshirishga xizmat qilmoqda. Yengil atletika bo‘yicha talabalarning sport mashg‘ulotlariga innovatsion yondashuvni qo‘llashning afzalliklari, shuningdek, talabalarning motivatsiyasi va mashg‘ulotlardan qoniqishini oshirishni o‘z ichiga oladi, bu esa mashg‘ulot jarayonini yanada samarali o‘tkazishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Родькин Д.А., Колпакова Е.М. Инновационные технологии физического воспитания и спортивной тренировки //Международный студенческий научный вестник. – 2015. – №. 5-3. – С. 339-341.
2. Наскалов В.М., Жернакова Н.И. Инновационные технологии в физическом воспитании студентов вузов как путь к здоровьесбережению //Актуальные проблемы медицины. – 2010. – Т. 12. – №. 22 (93). – С. 36-45.
3. Иссурин В. Подготовка спортсменов XXI века. Научные основы и построение тренировки. – Litres, 2022.
4. Радаева С. В. Физическое воспитание студентов нефизкультурного вуза на основе спортивно-ориентированных технологий //Красноярск.–2008.–24 с. – 2008.
5. Воротникова В.Д., Скороходов А.А., Кульков Я.А. Инновации в системе занятий со спортсменами //Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки, оздоровительной и адаптивной физической культуры. – 2021. – С. 26-30.

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 93/94

AMIR NASRULLOXON HARBIY NIZOMIDAGI HARBIY UNVON VA MANSABLAR TAVSIFI

Shukurillayev Yunus Asrorovich, Buxoro davlat texnika universiteti dotsenti, tarix fanlari nomzodi

DESCRIPTION OF MILITARY TITLE AND POSITIONS IN THE MILITARY REGULATION OF AMIR NASRULLAKHON

Shukurillayev Yunus Asrorovich, Associate Professor of Bukhara State Technical University, Candidate of Historical Sciences

ХАРАКТЕРИСТИКА ВОИНСКИХ ЗВАНИЙ И ДОЛЖНОСТЕЙ ПО ВОИНСКОМУ УСТАВУ АМИРА НАСРУЛЛАХОНА

Шукуриллаев Юнус Асрорович, доцент Бухарского государственного технического университета, кандидат исторических наук

https://orcid.org/0009-0000-4295-7212
e-mail: shukurillayevyunus@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Amir Nasrulloxon tomonidan ishlab chiqilgan "Buxoro davlatining harbiy Nizomi"da keltirilgan harbiy unvon va mansablar, ular egalarining vazifalari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: ***"Muxabbir", "Ajudan", "Yovari avval", "Sardasta", "Bahodir", "Tabbol", "Nayzan", "Shipurchi", "Sarjuqa", "Keshikchi", "Sarhangi", "Alamdor", "Mustahfiz".***

Abstract: *The article examines the military ranks and positions presented in the Military Regulations of the Bukhara State, developed by Emir Nasrulla Khan, and elucidates the functions of their holders.*

Keywords: *"Mukhabir", "Adjutant", "Yavari avval" (First Assistant), "Sardasta" (Senior Commander), "Bahadir" (Hero, Brave Warrior), "Tabbal" (Drummer), "Naizan" (Spearman), "Shipurchi" (Trumpeter), "Sarjuka" (Senior Standard-Bearer), "Keshikchi" (Guard, Sentinel), "Sarhangi" (Senior Officer), "Alamdor" (Standard-Bearer), "Mustahfiz" (Guardian).*

Аннотация: *В статье рассматриваются воинские звания и должности, приведённые в "Военном уставе Бухарского государства", разработанном эмиром Насрулла-ханом, а также раскрываются функции их обладателей.*

Ключевые слова: *"Мухаббир", "Адъютант", "Ёвари аввал", "Сардаста", "Бахадир", "Таббал", "Найзан", "Шипурчи", "Саржука", "Кешикчи", "Сарханги", "Аламдор", "Мустафиз".*

KIRISH. Amir Nasrulloxon (1827-1860) Buxoro amirligida muntazam qo'shinga asos solgan, harbiy islohotlarni amalga oshirgan jasur va dovyurak kishi bo'lib *"Bahodir", "Botir"* unvonlari berilgan. U xonliklar orasida birinchi bo'lib Eron, Turkiya, rivojlangan Yevropa davlatlari harbiy nizomlari asosida harbiy Nizomni ishlab chiqdi. O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida mang'itlar sulolasiga oid 3ta harbiy Nizomlar saqlanadi. Amir Nasrulloxon davrida Abbosquli Mirzo Kirmoniy tomonidan 1272-hijriy – 1856-milodiy yilda yozilgan "Buxoro davlatining harbiy Nizomi", Amir Abdulahadxon hukmronligi yillarida Rossiya imperiyasining harbiy nizomi asosida Mullo Xolmurodbiy dodxoh tarjimasi va Mullo Muhammad Toqiy tomonidan yozilgan Nizom hamda 1308-hijriy – 1890-1891-milodiy yilda Mirzabiy to'qsabo tomonidan uning to'ldirilgan, kengaytirilgan qo'lyozmasi shular jumlasidandir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Buxoro amirligida harbiy unvon va mansablar tarixi bilan shug'ullanilganda odatda tarixchilar tomonidan Mirzo Badi' Devonning "Majma' ul-arqom", A.A.Semyonov hamda A.B.Vildanovalar tomonidan shu asar tarjimasi va unga yozilgan sharhlarga

murojaat qilishadi. Biroq, amir Nasrulloxon harbiy Nizomida shunday harbiy unvon ma mansablarga duch kelinadiki, ularning aksariyati yuqorida keltirilgan manbalarda uchramaydi[1].

Mazkur maqolada biz ana shunday quyidagi unvon va mansablar – (“**Muxabbir”** – (مخبر), “**Ajudon”** – (اجودان), “**Yovari avval”** – (یار اول), “**Sardasta”** – (سردسته), “**Bahodir”** – (بهادر), “**Ajudanboshi”** – (اجودانباشی), “**Tabbol”** – (طبال), “**Nayzan”** – (نیزن), “**Shipurchi”** – (شیپورچی), “**Sarjuqa”** – (سرجوقه), “**Keshikchi”** – (کشیکچی), “**Sarhangi”** – (سرهنگی), “**Alamdor”** – (علمدار), “**Mustahfiz”** – (مستحفظ) tahliliga to‘xtalib o‘tamiz:

Muxabbir - (arabcha: **مُخَبِّر**) so‘zi arab tilidagi **“xabar”** (خبر) – ya’ni **axborot, ma’lumot, yangilik** so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, x**abar beruvchi, axborot yetkazuvchi –** ya’ni, ma’lumot tarqatuvchi shaxs ma’nosini anglatadi. Nizomda: - Muxabbirlar dastasi ham o‘z ro‘parasida jamlangan dastalar bilan birga march qiladi. Qolgan dastalar ham shu tartibda keladilar. Sardastalar bayroqning ro‘parasida turadilar va dastalari vakildan o‘tishi bilan bu buyruqni beradilar, Muxabbirlar dastasining birinchi vakili orqadagi bahodirlar dastasi bilan qo‘shilgan joyda sakkizinchi dasta vakilidan bir qadam masofada turadi, deyiladi. Bundan ko‘rinadiki, muxabbirlar Amir Nasrulloxon qo‘shinida alohida dasta sifatida tashkil etilgan [2].

Ajudan (forscha: **اجودان** ruschada ham “adyutant” shaklida) – Buxoro amirligi va boshqa islomiy-turkiy davlatlarda amalga oshirilgan harbiy-ma’muriy lavozim bo‘lib, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri **amir yoki yuksak sarkarda** huzurida xizmat qilgan. Ajudan amirning yonida doimiy yuradigan, uning buyruq va topshiriqlarini harbiy va ma’muriy shaxslarga yetkazadigan, amir tomonidan berilgan yozma yoki og‘zaki farmonlarni (amr, irsol, xabardorlik) tegishli qo‘mondonlarga yoki amaldorlarga yetkazadigan shaxs sanalgan. Bundan tashqari, Ajudan safardosh, jang maydonida esa aloqachi vazifasini, qo‘shin ichida tartib, intizom va joylashuv bo‘yicha ma’lum buyruqlarni nazorat qilish vazfalarini ham bajargan[3]. Ajudan odatda yuksak ishonchga sazovor bo‘lgan shaxs bo‘lib, amirning sirli ishlaridan ham xabardor bo‘lishi mumkin. Nizomda – Ajudanboshi (ya’ni, adyutantlarning boshlig‘i) har bir topshiriqni favjlar sarhangiga yozib turadi. Sarhang esa o‘ziga qarashli favjning ajudaniga bir kun avval ertaga nechta qorovul kerakligi to‘g‘risida xabar beradi, Favj ajudani jadvalga muvofiq dastajotga taqsimlab, sardastalarni xabardor qiladi, O‘rdu tikish va chodir o‘rnatish nizom qonuniga asosan bo‘ladi. Bunda ajudanlar ko‘chish paytida o‘z favjlarini jobajo qilib bo‘lishgach, ajudanboshi bilan kelishgan holda lashkarni tushirmoqchi bo‘lgan yerni oldindan ko‘rib keladilar. Agar u joy qulay va xavfsiz bo‘lsa, ro‘parasi dushman, atrofi daryo, yoki tog‘, yoki botqoq kabi dushman o‘tolmaydigan joy bo‘lsa, o‘rdu uchun tanlaydilar. O‘rduning joyi har tomonlama qulay, o‘ralgan, xavfsiz va yaxshi joy bo‘lishi lozimki, bu joyni favjlarning ajudanboshi tanlaydi deyiladi[4].

Yovari avval – (**یارِ اوّل**) - Buxoro amirligidagi yuqori martabali harbiy-ma’muriy mansablardan biri bo‘lib, u **amirning shaxsiy xizmatida turgan va yordamchi vazifalarini bajargan amaldor** sifatida tanilgan. **Yovar** fors tilidagi یار (yor, yordamchi) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, yordamchi, xizmatchi, jamiyatda yuqori shaxslarga yaqin turib xizmat qiluvchi shaxsni anglatadi, a**vval –** birinchi, oldingi, katta ma’nosini beradi. **Amirning shaxsiy kotibi yoki maslahatchisi** sifatida harakat qilgan [5]. Bundan tashqari i**chki saroy ishlari**da ishtirok etgan qabullar, ziyofatlar, maxsus shaxslarni qabul qilishda ishtirok etgan, **Ajudan, mirshab, darvozabon, eshikog‘aboshi** kabi xizmatchilar faoliyatini muvofiqlashtirish, a**mir topshiriqlarini bajartirish va nazorat qilish,** ayniqsa, harbiy yurishlarda va rasmiy chiqishlarda hamrohlik qilgan.

Sardasta – (**سردسته**) qo‘shinning kichik bo‘linmasi –
“dasta” (masalan, 10–50 nafar askardan iborat) ustidan nazorat qiluvchi komandir. Ular ko‘pincha baxshi (ma’muriy kotib), mirza, tabbol, nayzan, to‘pchi kabi xizmatchilarni o‘z ichiga olgan harbiy guruhlarga boshchilik qilgan.

Bahodirlar – (**بهادر**) Buxoro amirligida **martaba va maqomga ega bo‘lgan kurashchi, jasur, harbiy xizmatda tajribali shaxslar** hisoblangan. Bahodirlar ko‘pincha **otliq qo‘shin** saflarida xizmat qilgan, **o‘ta tajribali, jangovar qobiliyati yuqori**, shaxsiy jasorati bilan tanilgan sarbozlar sanalgan. Ba’zi hollarda “**Bahodir” unvoni** shaxsga jasorat va xizmatlari uchun amir yoki yuqori amaldorlar tomonidan **mukofot** sifatida berilgan, ushbu unvon o‘ziga xos **sharaf va nufuz** belgisi edi. Amir Nasrulloxon qo‘shinida ular alohida dastalarda xizmat qilishgan.

Tabbol – (**طبّال**) Buxoro amirligida va umuman turkiy-islomiy harbiy tizimlarda xizmat qilgan dobulchi, ya’ni dovar, marsh signallari berish bilan shug‘ullanuvchi harbiy musiqachi, **Shipurchi** – (**شیپورچی**) Buxoro amirligida harbiy va marosimiy an’analarda xizmat qilgan nay chaluvchi, ya’ni nay,

shipur, surnay kabi sozda signal va marosim musiqasi ijro etuvchi, **Nayzan – (نيزن** naychi) ya'ni amir Nasrulloxon tomonidan tashkil etilgan "Bolobomchilar" harbiy musiqa guruhi a'zosi hisoblangan.

Sarjuqa – (**سرجوقه**) olti kishidan iborat harbiy qism komandiri.

Nizomda Sarjuqalarning vazifalari aniq ko'rsatib o'tiladi:

-"Dastalarning orasi bir qadamdan bo'ladi. O'ng va chap rasadlarning sarjuqalari oldingi safdagi sarbozlar bilan bir qatorda turadi. Mansabdorlardan qorovul tayinlanganda ulardan har o'n-o'n beshtasiga bitta sarjuqa tayinlanadi. Yigirmatadan o'ttiz nafariga bitta vakil va bitta sarjuqa yetarli bo'ladi. O'ttiztadan ellik nafargacha bo'lganda bitta noyib, ikki vakil va ikki sarjuqa tayinlanadi. Qachonki, dasta boshlig'i dastaning chap tomoniga kelsa, noiblar o'z joylarini o'zgartiradilar. Birinchi vakil esa aksincha, dasta boshlig'ining orqasidan keladi. Yuztasiga bir nafar sardasta, ikki noyib va to'rtta sarjuqa tayinlanishi lozim. Tabbol, nayzan va shipurchilar soni yigirmatadan oshmasligi kerak. Mansabdor sarbozlar "safdur" qoidasiga ko'ra shamshirlarini bellariga bog'lagan holda oldinga kelib, qilichlarini balandga ko'taradilar. Vakil sardastaning joyiga keladi, sarjuqa esa qorovulning oldiga boradi".

Keshikchi – (**كشيكچى)** Buxoro amirligida O'rdu, harbiy obyektni qo'riqlovchi posbon. Nizomda keltirilgan quyidagi ma'lumotlardan Keshekchining xizmat vazifalari nimalardan iboratligi oydinlashadi:

-"Har qaysi sardasta o'zining qorovuliga "badush fang" (بَدوش فَنگ) buyrug'ini beradi. Eski qorovulga esa "saf nazdik march" (صَف نَزديك مَرج)
deb buyuradi. Shundan so'ng eski qorovul sarjuqasi kelib, nechta keshikchi kerakligini aytadi. Yangi kelgan qorovul sarjuqasi bilan kelishgan holda yangi kelgan qorovullardan ajratib olinadi. Keshikchini almashtirishda qorovul sarjuqasi buyruq beradi. Keshikchi esa o'zini almashtirishga sarboz kelayotganini ko'rgandan keyin "holt" (حَولْت) qilib turadi.

MUHOKAMA. Keshikchi doimo xabardor va hushyor bo'lib turadi. Keshikida g'aflat bosib, uxlamaydi. Har bir ovozga diqqat bilan quloq soladi. Boshqa keshikchilarning oloviga qarab, hushyorlikni yo'qotmaydi. Mansabdor bergan har qanday topshiriqni so'zsiz bajaradi va unga amal qiladi. Har tunda sarhangi gazma postlarni tekshirishga kelganda keshikchi (posbonlar) kelayotgan odamga qarab, uzoqdan baland ovoz bilan "kim u" deydi. Sarhang unga javoban o'sha kecha uchun maxsus qilingan ismni sekin aytadi. Keshikchi "siyna fang" (سينه فَنگ) holatini qiladi. Qorovullikda turgan sarboz "kim u" deb savol bergan paytida javob o'sha kelishilgan ism bo'lmasa va noto'g'ri aytsa, demak, bu odam tashqaridan begona kishi bo'ladi. Jang o'rdusi oldida bunday voqea sodir bo'lsa, demak, kelayotgan kishi dushmandir. Shuning uchun keshikchi darhol miltig'idan o'q otib, boshqa keshikchilarni ham bu ishdan xabardor qiladi. Barcha qorovullar "hozir bosh" (حاضِر باش) holatiga kiradilar va o'sha odamni ushlab, vakilni xabardor qiladilar. Ushlangan odamni mansabdor oldiga olib boradilar. Uning tanish yoki hurmatli odamligi ma'lum bo'lsa, uni yo'liga qo'yib, qorovullar yonidan o'tkazib yuboradilar. Agar begona bo'lsa, qorovulxonada ushlab turiladi. Tong otgach, sarhangga bildiriladi. U nimani taqozo qilsa, o'sha bajariladi.

XULOSA. Buxoro davlatining harbiy nizomi amir Nasrulloxonning harbiy tarixida sarkardalik, yetakchilik va bilimdonligidan yaqqol namoyon etadi. Amir Nasrulloxon 1852-yilda Rossiya imperiyasining Qo'qon xonligiga bosqini boshlangach amirlikda harbiy islohotlarni yanada kuchaytirdi, zamonaviy qo'shin tuzishga, Angliya, Fransiya kabi Yevropaning yetakchi davlatlari harbiy qonun-qoidalarini, jang uslublarini qo'llashga intildi. Bu esa, sho'rolar tuzumi davrida shakllantirilgan go'yoki, amirlarning yurt taqdiriga befarqligi, maishatbozligi-yu savodsizligi, o'ta mutaassibligi kabi uydirmalarni keskin rad etishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Buxoro davlatining harbiy Nizomi. //Qo'lyozma. O'zR FA ShI. №2793.V- 93.
2. Risolatun nizomiya (Buxoro amirligining harbiy Nizomi). //Qo'lyozma. O'zR FA ShI. №3322. V- 123.
3. Risolatun nizomiya (Buxoro amirligining harbiy Nizomi). //Qo'lyozma. O'zR FA ShI. №2794. V- 193.
4. Мирза Бадиъ Диван. Мажмаъ ул-аркам. (Факсмиле рукописи. Ввдение, перевод и примечание А.Б.Вильдановой. М.: Наука 1981.
5. Семёнов А.А., Бухарский трактат о чинах и званиях и об обязанностях носителей их в средневековой Бухаре // Советское востоковедение. – М.–Л., 1948.
6. Вильданова А.Б. Подлинник Бухарского трактата о чинах и званиях. Писменные памятники Востока. Ежегодник. 1968. М.,1970. -С. 159-163.

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 1 (091) (575. 1)

ФИЛОСОФСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ В НАУЧНО-ТВОРЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ БАБУРА

Гафуров Бахромджон Адхамович, Гулистанский государственный университет, доктор философии (PhD)

BOBURNING ILMIY-IJODIY MEROSIDA FALSAFIY QARASHLAR

Gafurov Baxromjon Adxamovich, Guliston davlat universiteti, falsafa doktori (PhD)

PHILOSOPHICAL VIEWS IN BABUR'S SCIENTIFIC AND CREATIVE LEGACY

Gafurov Bakhromjon Adkhamovich, (PhD), Gulistan State University, Uzbekistan

https://orcid.org/0009-0003-8008-4370
e-mail: bakhrom-gafurov-24@mail.ru

Аннотация: *В статье анализируются философские взгляды Бабура, нашедшие отражение в его произведениях. Подчеркивается значимость изучения его наследия в духовном и нравственном совершенствовании. Человек, по мнению Бабура, должен любить Родину, совершать добрые дела, стремиться к самосовершенствованию, а правитель должен быть мудрым и справедливым в управлении государством.*

Ключевые слова: *научно-творческое наследие, Бабурнаме, Мубаин, справедливость, нравственные воззрения, духовное совершенство.*

Annotatsiya: *Maqolada Boburning asarlarida o'z aksini topgan falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Uning merosini o'rganishning ma'naviy va axloqiy takomildagi ahamiyati ta'kidlanadi. Boburning ta'biricha, inson o'z vatanini sevishi, ezgu ishlar qilishi, o'z-o'zini yuksaltirishga intilishi, hukmdor esa davlatni boshqarishda dono va adolatli bo'lishi kerak.*

Kalit so'zlar: *ilmiy-ijodiy meros, Boburnoma, Mubayin, adolat, axloqiy qarashlar, ma'naviy barkamollik.*

Abstract: *This article analyzes Babur's philosophical views, as reflected in his works. The importance of studying his legacy for spiritual and moral development is emphasized. According to Babur, a person should love his homeland, do good deeds, strive for self-improvement, and a ruler should be wise and fair in governing the state.*

Keywords: *scientific and creative heritage, Baburnama, Mubain, justice, moral views, spiritual perfection.*

ВВЕДЕНИЕ. Захириддин Мухаммад Бабур известен в мировой истории как государственный деятель и искусный полководец, великий поэт и ученый-энциклопедист. Его наследие занимает особое место в формировании нашей национальной культуры, в истории мировой науки и литературы и государственного строительства. В Постановлении Президента Республики Узбекистан от 25.01.2023 г. за № ПП-20 "О

широком праздновании 540-летия великого поэта и ученого, выдающегося государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура”[1] отмечены важность и огромное значение деятельности и творчества нашего выдающегося предка, его значительное воздействие на развитие умственных и нравственных качеств у подрастающего поколения. Сегодня, когда наша Родина вступает в новый этап национального развития, эпоху Третьего Ренессанса и во всех сферах нашей жизни происходят коренные преобразования, всестороннее изучение и популяризация уникального наследия Бабура Мирзо приобретают еще большую актуальность.

Анализ литературы и методология. Научное и литературное наследие Бабура всегда было в центре внимания филологов, историков, этнографов, географов, философов. В последние годы написано много книг, проведено много международных конференций, посвященных жизни, творчеству и богатому наследию Бабура. Рассмотрим лишь некоторые из них.

Р.Хасановым сделан сравнительный анализ исследований, посвященных научно-творческому наследию Бабура, приведены сведения о рукописях, старинных книгах и произведениях искусства, хранящихся в музеях мира [10]. Бабур всегда следовал канонам нравственности, нормам мусульманского права, уважал людей науки и искусства и стремился к совершенствованию, о чем подчеркивает в своей статье Г.С.Гулямова, которая пишет, что «культ знания, взгляд на познание как на одну из существенных функций духовности человека – характерная черта Бабура – государственного деятеля»[8]. Ё.М.Алтмишева рассмотрела религиозные воззрения Бабура на основе сочинения «Бабурнаме». Если смотреть с точки зрения философии, ознакомление всего наследия Бабура «даёт возможность более ярко представить формирование его религиозно-философского мировоззрения как синтеза исламских и суфийских учений»[5]. М.О.Ёриева подчеркнула вклад Бабура в развитие науки и культуры[9].

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ. Если посмотреть на произведения Бабура, то можно увидеть, что он глубоко осмысливает, сравнивает каждое событие, отношения мира и человека, принципы жизни людей. В его строках проскальзывают иногда радость или грусть, иногда удовлетворенность или недовольство, иногда выражение чувства удивления или философское отношение к бытию. Поэтическое наследие Бабура отличается разнообразием жанров (рубаи, газель, китъа, масневи, фард, муамма), богатством изобразительных средств, широкой тематикой. Он возвеличивает настоящего человека, по его мнению, правдивость и справедливость являются главными признаками высокой духовности и нравственности.

Бабур ценил у своих подданных и окружения такие качества, как честность, искренность, справедливость, призывал их не унижать и не обижать простой народ, быть примером для других, заботиться о нуждающихся, быть уважать мнение других и делать добрые дела. То, что он воспевал в своих произведениях и к чему призывал, он стремился воплощать в жизнь в своей деятельности.

«Всё хорошее делай для народа,
Нет лучше этого добра» [4,с.71], писал Бабур.

Как правитель, Бабур стремился к утверждению согласия и мира в своём многоконфессиональном и многонациональном государстве, идеи духовности и просвещения пронизывали его сочинения. Как отметила М.Ёриева, «В его стихотворениях реалистически отражены исторические события той эпохи, его личная жизнь, окружающая среда, отношение к человеку, религии и обычаям»[9,с.45].

Знаменитое сочинение Бабура «Мубайин» отражает в себе наставления, как управлять государством, какие методы использовать, чтобы «способствовать значительной стабилизации государственной системы, а также улучшить положение народных масс и оградить их от бесчинства феодалов» [3,с.18-19]. Это сочинение отражает каноны мусульманского права, так как было

написано знатоком ислама и правоверным мусульманином.

Еще одно произведение «Васият», написанное в 1528 г., является завещанием Бабура своему наследнику Мухаммаду Хумаюну. В этом труде изложены принципы государственной политики, определявшие деятельность Бабура и его преемников. Это завещание признано многими учеными важным историческим свидетельством о развитии государства Бабуридов, о социальной политике Бабура, а также этическим руководством, содержащим нормы и идеалы, актуальные для построения гармоничного общества в странах с разнообразным населением и вероисповеданиями, то есть «в многонациональных, поликонфессиональных государствах» [6,с.59].

В творчестве Бабура, включая такие труды, как «Бабурнаме», «Мубайин» и его версию перевода «Родительского трактата» Ходжи Ахрара, отчетливо видны религиозно-философские и нравственные убеждения автора. Его произведения наполнены исламскими мотивами, демонстрируют глубокую мысль и содержат множество цитат из священного Корана. Бабур размышлял о смысле жизни, о свойствах человеческого бытия и человеческого общества, поднимая в своих сочинениях «такие вечные проблемы как добро, милосердие, благородство, человечность, дружба, стремление достичь любви Аллаха»[5].

Стремление к познанию Аллаха, достижению справедливости определяют духовное и нравственное начало в философских воззрениях Бабура. Его знаменитое на весь мир произведение «Бабурнаме» богато религиозными обрядами, ссылками на шариат. Он приводит имена Османа, Кусама Ибн Аббаса, Шейха Абу Мансура. «Учителя богословия делятся на два толка: одних называют матуридия, других – ашъария; матуридия возводят свое название к этому Шейху Абу Мансуру. Автор «Сахиха Бухари» Ходжа Исмаил-и Хартанг тоже из Мавераннахра» [2,3б]. Бабур характеризует правителей других стран и областей в зависимости от того, как они чтут предписания ислама: «Это (Султан Музаффар) был весьма правоверный государь, любовь к науке у него тоже была; он читал хадисы и постоянно переписывал Коран» [2,271а]. Подобно всем искренне верующим, Бабур осознает непостоянство мира и надеется на вечное блаженство в райских садах. Он осуждает тех, кто «Ради [благ] быстротечной, преходящей земной жизни»[2,28б], ради мимолетных удовольствий земного существования отказывается от божественных заповедей и грешит. Полный тягот и неравенства мир требует великодушия и честности. Свое благородство он проявляет даже к тем, кто когда-то изменил ему: «По закону и обычаю следовало, чтобы такие люди понесли наказание, но так как мы дали обязательство, то вышел приказ, чтобы Хусрау шах увез с собой все, что он может увезти» [2,124б]. Он хвалит тех, кто исправляет свои ошибки и укрепляет свою веру: «Байсункар Мирза... Позднее говорили, что в Самарканде он отказался от этих дурных убеждений и стал чист верой»[2,68б].

Бабур подчеркивает, что политическая и общественная деятельность правителя тесно обусловлена с его моральными принципами и, нравственным обликом. «Беспечность, разгульный образ жизни, пьянство, корыстолюбие, отсутствие моральной ответственности за судьбы людей - причина всех бед и несчастий»[8, с.28]. Идеальный правитель характеризуется образованностью, глубокой внутренней культурой, рассудительностью, а также наличием высоких нравственных принципов – отваги, правдивости, великодушия, открытости, терпения, сострадания и других. Его приоритетом должны быть нужды общества, стоящие выше личных амбиций. В социальной сфере от правителя требуется «все свои способности использовать в интересах общества, в интересах общественного блага. На основе человеколюбия и справедливости должны строиться взаимоотношения правителя с его подданными, осуществляться государственное управление»[8,с.30].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Бабур оставил огромный след в мировой истории, до сих пор его деяниями и научно-творческим наследием восхищаются многие исследователи. В своих

произведениях «он стремился анализировать события и происшествия, мысли и чувства, которые его волновали. Эти мысли и чувства были направлены на служение принципам добра и справедливости, истины и красоты»[10,с.214]. За свою жизнь Бабур написал много сочинений, в которых раскрыл историю и этнографию разных областей и городов, основные законы мусульманского права, содержание искусства поэтики, создал алфавит, развил свои этические воззрения по вопросам морального и духовного совершенства человека. В рубаи он говорит о том, как человек должен воспитывать в себе лучшие моральные качества[9,с.47].

Воспитание доброго, милосердного, справедливого, всесторонне развитого человека, находящегося в постоянном поиске знаний и просвещения всегда является актуальной жизненной необходимостью. Поэтому Изучение жизненного опыта и творческого наследия наших великих предков, усвоение их образцового опыта является одной из актуальных задач, стоящих перед нами.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Постановление Президента Республики Узбекистан от 25.01.2023 г. за № ПП-20 “О широком праздновании 540-летия великого поэта и ученого, выдающегося государственного деятеля Захириддина Мухаммада Бабура” https://lex.uz/docs/6371360
2. Бабурнаме. Записки Бабура. – Ташкент, 1958. - 528 с.
3. Бабур-наме (Записки Бабура). /пер. М.Салье, под общ.ред. и дораб. С.А.Азимжановой. – Ташкент: ин-т востоковедения АН РУЗб, 1993.
4. Бабур З.М. Из поэзии Бабура. – Т., 1982.
5. Алтмишева Ё.М. Отражение религиозных взглядов в прозе Захириддина Мухаммада Бабура. // Вестник магистратуры. 2022. №4-2 (127). – С. 59-62.
6. Гафуров Б.А., Холназарова Д.М. (2016). Отражение социальной и религиозной политики Бабура в его завещании. Наука и образование сегодня, 4(5), 59-60. https://cyberleninka.ru/article/n/otrazhenie-sotsialnoy-i-religioznoy-politiki-babura-v-ego-zaveschanii
7. Гафуров Б. Вопросы социальной политики и защиты населения в индийском государстве Мирзо Бабура // Tamaddun nuri. Avgust 2024. 8(59). 172-176. URL: https://www.researchgate.net/publication/384535926_
8. Гулямова Г.С. Бабур о роли государственного деятеля в историческом процессе // Universum: общественные науки: электрон. научн. журн. 2024. 2(105). URL: https://7universum.com/ru/social/archive/item/16865
9. Ёриева М.О. (2020). Захириддин Бабур – патриот, политик и поэт. Вопросы науки и образования, 7(91), 44-48.
10. Ҳасанов Р. Заҳириддин Муҳаммад Бобур шахси ва унинг илмий-ижодий мероси // Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. UIF-2023: 8.2|2181-3035|№20| B.209-221.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 174.4.4

RAQAMLI JAMIYATDA O‘ZBEK OILAVIY QADRIYATLARI TRANSFORMATSIYASINING IJOBIY VA SALBIY OQIBATLARI

Murotov Akmal Inoyatovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchisi

ПОЗИТИВНЫЕ И НЕГАТИВНЫЕ ПОСЛЕДСТВИЯ ТРАНСФОРМАЦИИ УЗБЕКСКИХ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Муротов Акмал Иноятович,
Независимый исследователь Самаркандского государственного института иностранных языков

POSITIVE AND NEGATIVE CONSEQUENCES OF THE TRANSFORMATION OF UZBEKI FAMILY VALUES IN THE DIGITAL SOCIETY

Murotov Akmal Inoyatovich,
Independent researcher at the Samarkand State Institute of Foreign Languages

e-mail: jamila@gmail.com
Orcid: 0234-0226-0322-0606

Annotatsiya: *Zamonaviy jamiyat raqamli texnologiyalar asosida tub o‘zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiyot, siyosat va ta’lim sohalarida, balki jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti – oila tizimida ham chuqur iz qoldirmoqda. Raqamli transformatsiya oilaviy munosabatlar, qadriyatlar va urf-odatlarga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, o‘zbek oilasiga xos bo‘lgan an’anaviy tamoyillar va ijtimoiy rolining raqamli muhitda qanday evolyutsiyalanayotgani masalasi muhim ilmiy e’tiborni talab qiladi. Ushbu maqolada O‘zbekiston oilaviy qadriyatlarining raqamli davrdagi transformatsiyasi, ijtimoiy moslashuv mexanizmlari, bu jarayonning salbiy oqibatlari tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli inqilob, sun’iy intellekt, bulutli texnologiyalar, kiberxavfsizlik, virtual makon, raqamli tafakkur, oila, qadriyat, vorisiylik.*

Аннотация: *Современное общество переживает глубокие преобразования на основе цифровых технологий. Этот процесс оказывает значительное влияние не только на экономику, политику и сферу образования, но и на основной социальный институт общества — семью. Цифровая трансформация заметно влияет на семейные отношения, ценности и обычаи. Особенно актуальным становится научное осмысление того, как традиционные принципы и социальные роли, присущие узбекской семье, эволюционируют в цифровой среде. В данной статье рассматривается трансформация семейных ценностей Узбекистана в условиях цифровой эпохи, анализируются механизмы социальной адаптации к новым условиям, а также негативные последствия этого процесса.*

Ключевые слова: *цифровая революция, искусственный интеллект, облачные технологии, кибербезопасность, виртуальное пространство, цифровое мышление, семья, ценности, преемственность.*

Annotation: *Modern society is undergoing profound transformations driven by digital technologies. This process significantly affects not only the economy, politics, and education but also the primary social institution - the family. Digital transformation is having a noticeable impact on family relationships, values, and traditions. In particular, the evolution of traditional principles and social roles specific to the Uzbek family in a digital environment requires serious academic attention. This article analyzes the transformation*

of family values in Uzbekistan during the digital era, explores the mechanisms of social adaptation to these changes, and examines the negative consequences of this process.

Key words: *digital revolution, artificial intelligence, cloud technologies, cybersecurity, virtual space, digital thinking, family, values, continuity.*

Kirish. Raqamli davr – bu internet, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya vositalari orqali jamiyat hayotining tubdan o‘zgarishini anglatadi. Ushbu texnologiyalar oilaviy institutning funksiyalarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Masofaviy muloqot, onlayn ish rejimi, raqamli tarbiya vositalari, ma'lumotga tezkor kirish imkoniyati – bularning barchasi oila ichidagi rollar, mas'uliyat taqsimoti va qaror qabul qilish jarayonlariga bevosita ta'sir ko‘rsatmoqda. raqamli inqilob inson ongining o‘zgarishiga, uning real va axborot makonini idrok etish tarziga ta'sir ko‘rsatdi. Axborot ishlab chiqarish, qayta ishlash va tarqatish texnologiyalarining rivojlanish sur'ati ko‘plab odamlarning bilimni o‘zlashtirish salohiyatidan ancha oshib ketdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Internetdagi dunyoni qabul qilishdagi urg‘ular ilmiy, madaniy va ta'limiy yo‘nalishlardan ko‘ngilochar va ensiklopedik yo‘nalishlarga siljidi. Bu esa "klip tafakkuri" deb nomlangan yuzaki axborot idrokini shakllantirdi. Bu shakl inson qarashlari va xulq-atvoriga ta'sir qilishni soddalashtiradi va xatti-harakatning majburiy modellarini shakllantiradi. Bu esa ma'lumotlar tarqatish texnologiyalariga ega bo‘lgan davlatlar va tashkilotlarga iqtisodiy va siyosiy ustunlik beradi.[1]. Avvallari kattalarning tajribasi va an'analari asosiy ijtimoiy boshqaruv elementi bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi raqamli muhitda yosh avlodning texnologik ustunligi oilaviy ierarxiyani qayta shakllantirmoqda. Bu esa oila a'zolari orasidagi axborot oqimining yo‘nalishi va tezligini o‘zgartiradi.

Tahlil va natijalar. O‘zbek jamiyatida oila nafaqat biologik, balki ijtimoiy va madaniy birlik sifatida qaralgan. Unga xos xususiyatlar – ota-onaga hurmat, katta-kichikka bo‘lgan munosabat, mehr-oqibat, avlodlar vorisligi va qadriyatlar uzviyligi bo‘lib kelgan. Raqamli transformatsiya esa bu tamoyillarni qayta shakllanishga majbur qilmoqda.

Birinchidan, an'anaviy ta'lim va tarbiya tizimi yangi raqamli muhitga moslashishga harakat qilmoqda. Endilikda ota-onalar farzandlariga ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini o‘rgatishga, raqamli xavfsizlikni tushuntirishga majbur bo‘lmoqda. Bu esa tarbiya jarayonini faqat axloqiy me'yorlarga emas, balki texnologik savodxonlikka ham bog‘lab qo‘yadi.

Ikkinchidan, mehnat migratsiyasi va onlayn ish imkoniyatlari sababli an'anaviy gender rollari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Ayollarning iqtisodiy faolligi ortgani sari ularning oiladagi qaror qabul qilishdagi ishtiroki kuchaymoqda. Shu bilan birga, erkaklarning ota sifatidagi roli ham ko‘proq emotsional qo‘llab-quvvatlovchi shakliga o‘tmoqda.

Uchinchidan, oila marosimlari va udumlari ham raqamli shaklga o‘tyapti. Masalan, to‘y va boshqa tadbirlar onlayn efirda o‘tkazilishi, taklifnomalarning raqamli shaklga o‘tishi, sovg‘a berish madaniyatining elektron shakllanishi bu jarayonning vizual namunalaridir.

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti inson hayotining barcha sohalarini qamrab olar ekan, u o‘z ta'sirini ijtimoiy institutlarning eng nozik va muhim tizimi bo‘lgan oila muhitiga ham kuchli bosim ostida ko‘rsatmoqda. O‘zbek oilasi tarixan ma'naviy mustahkamlik, avlodlar izchilligi, bir-biriga hurmat va mas'uliyat asosida shakllangan ijtimoiy birlik sifatida qaralgan bo‘lsa, bugungi raqamli sharoitda bu tayanchlar ko‘p jihatdan yemirilish xavfi ostida qolmoqda. Texnologik taraqqiyotning qulayliklari bilan bir qatorda, uning salbiy oqibatlari o‘zbek oilaviy qadriyatlarini jiddiy sinovga solmoqda.[2]

Eng avvalo, raqamli muhit natijasida avlodlararo aloqalarning zaiflashuvi kuzatilmoqda. An'anaviy oilada katta avlod vakillari – bobolar, buvilar, ota-onalar tarbiya beruvchi, hayotiy tajriba va donolikni nasllarga uzatuvchi manba bo‘lib kelgan. Ammo internetga to‘liq integratsiyalashgan bugungi yosh avlod bilimni ko‘proq virtual muhitdan izlaydi. Bu esa ota-ona va farzand o‘rtasidagi muloqot darajasining keskin kamayishiga olib kelmoqda. Natijada, oiladagi tabiiy ierarxiya izdan chiqmoqda, keksalarning maqomi va tajribasi qadrsizlanmoqda, bu esa uzviylikni zaiflashtiradi.[3]. Bundan tashqari, raqamli texnologiyalarning haddan ziyod tarqalishi

individualizmni kuchaytirib, oilaning jamoaviy mohiyatiga salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Har bir a'zo o'z qurilmasi bilan band bo'lib, hissiy va ma'naviy aloqa sustlashadi. O'zaro suhbatlar kamayadi, oilaviy ovqatlanish, ibodat, maslahatlashuv kabi qadimiy ijtimoiy amaliyotlar asta-sekinlik bilan unut bo'ladi. Shu tariqa, oila ichidagi yaqinlik, ishonch va ruhiy sog'lom muhit zaiflashadi. Texnologiyalar tufayli odamlar real munosabatlarga emas, balki virtual aloqalarga ustuvorlik bera boshlaydi.

Raqamli madaniyat o'zbek oilasining milliy qadriyatlariga ham bevosita zarba bermoqda. Global ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlardagi turmush tarzi va g'arbcha estetikaga asoslangan kontent yoshlarda milliy o'zlikdan begonalashish holatlarini kuchaytirmoqda. O'zbekona muloyimlik, kattaga hurmat, ayollar va erkaklar o'rtasidagi axloqiy mezonlar, nikohga bo'lgan jiddiy yondashuv kabi qadriyatlar global "erkinlik" tushunchasi soyasida o'z mazmunini yo'qotmoqda. Shu bois yoshlar orasida nikohdan voz kechish, mustaqil hayot kechirish, ota-onani qariyalar uyiga topshirish kabi holatlar tobora ko'proq uchramoqda. Bu esa oila institutining individualizm yo'lida yemirilayotganidan dalolat beradi.[4]. Raqamli vositalarning tarbiyada tutgan o'rni esa alohida tashvishli. Bugungi kunda ko'plab ota-onalar farzandlariga telefondan foydalanishga ruxsat berib, uni tarbiya vositasi sifatida ishlatmoqda. Bu esa bolalarning axloqiy shakllanishi nazoratsiz va xavfli muhitda kechayotganini anglatadi. Axloqiy cenzuradan o'tmagan kontent, zo'ravonlik, pornografiya va yolg'on g'oyalar tarbiyaviy ifloslanish keltirib chiqaradi. Natijada, yosh ongida tajovuzkorlik, befarqlik, axloqiy mutlaqchilik va ongli rad etish holatlari shakllanmoqda. Bu esa nafaqat oila, balki butun jamiyatni axloqiy izdan chiqaradi.

Yana bir jiddiy muammo – oilaviy hayotning ijtimoiy tarmoqlarda ommalashuvi. Virtual dunyoda insonlar o'zlarini "ideal" tarzda namoyon etishga urinishadi, bu esa oilaviy haqiqat va virtual obraz o'rtasida ziddiyatli holatlarni yuzaga keltiradi. O'z hayotini boshqalarniki bilan taqqoslash, yetarlicha "baxtli" emasligidan norozi bo'lish, turmush o'rtog'ining "ideal" emasligidan shikoyat qilish holatlari ajrimlar sonining oshishiga xizmat qilmoqda. Oiladagi muammolar ommaga havola qilinadi, sir saqlash madaniyati buziladi va bu jamiyatdagi ijtimoiy birlikka ham raxna soladi.[5]

Shu bilan birga, raqamli muhitda yolg'on axborotlar, manipulyativ kontent va algoritmik ta'sir orqali yoshlar ongiga mafkuraviy, g'oyaviy aralashuvlar sodir bo'lmoqda. Bu holat insonlarning ongli tanloviga emas, balki algoritmlar asosidagi sun'iy tavsiyalar orqali shakllanayotgan hayot falsafasiga sabab bo'lmoqda. Oilaning mustaqil axloqiy-ma'naviy makon sifatidagi mavqei tobora cheklanmoqda. Jinsiy madaniyat sohasida esa raqamli vositalar nihoyatda xavfli shaklda axloqiy me'yorlarni buzmoqda. Nikoh instituti zaiflashmoqda, er-xotin o'rtasidagi sadoqat qadrsizlanmoqda, yoshlar esa jinsiy munosabatlarga yengil qaray boshlamoqda. Bu esa nafaqat oilaning barqarorligini, balki jamiyatning axloqiy sog'lomligini ham tahdid ostiga qo'ymoqda. Psixologlar fikricha, jinsiy ozodlik targ'iboti, pornografik kontent va sevgi tushunchasining yengillashtirilishi oila muhitida hissiy sovuqlikka, hatto befarzandlikka olib kelmoqda.[6].

Xulosa. Shunday qilib, raqamli inqilob nafaqat texnologik taraqqiyot, balki madaniy va axloqiy tahdidlar davrini boshlab berdi. O'zbek oilasining asriy poydevorlarini saqlab qolish uchun raqamli transformatsiya sharoitida ongli va mas'uliyatli yondashuv zarur. Aks holda, nafaqat oila, balki butun jamiyat ham bu bosim ostida ijtimoiy va ma'naviy izdan chiqishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Карцхия Александр Амиранович. Цифровая революция: новые технологии и новая реальность // Правовая информатика. 2017. №1.

2. Komilov, r. R. (2021). Breaking of family relationship in period of globalization. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, *1*(2), 56-62.

3. Komilov, R. Z. R. (2023). Marriage: as an object of moral, religious, scientific research.

4. Komilov, R. R. (2018). The aesthetec and moral sides of the family and wedding ceremonies. In *international scientific review of the problems of philisophy, psychology and pedagogy* (pp. 10-14).

5. Komilov, R. R. (2017). The aesthetic significance of the uzbek nation's wedding ceremonies evolution. in *practice of communicative behavior in social and humanitarian researches* (pp. 47-50).

6. Komilov, R. R. (2017). Aesthetic component of wedding ceremonies of the uzbek people. *Theoretical & Applied Science*, (4), 87-89.

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 392.181.151.9

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA TA'LIM-TARBIYA BERISHDA RIVOJLANTIRUVCHI MUHITNING AHAMIYATI

Asanova Gulmira Baxtibekovna,
Toshkent gumanitar fanlar unversiteti assistent o'qituvchisi

THE IMPORTANCE OF A DEVELOPING ENVIRONMENT IN EDUCATING PRESCHOOL CHILDREN

Asanova Gulmira Bakhtibekovna,
Assistant teacher, Tashkent University of Humanities

ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИВАЮЩЕЙ СРЕДЫ В ВОСПИТАНИИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

Асанова Гульмира Бахтибековна,
Ассистент преподавателя Ташкентского гуманитарного университета

e-mail: gulmiraasanova879@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati yoritiladi. Rivojlantiruvchi muhitning mazmuni, asosiy funksiyalari va uning bolaning kognitiv, ijtimoiy-emotsional hamda ijodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik jarayonda bunday muhitni yaratish va samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.*

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, rivojlantiruvchi muhit, ta'lim-tarbiya, bolalar rivojlanishi, pedagogik yondashuvlar, ijodiy rivojlanish, ijtimoiy-emotsional rivojlanish.*

Аннотация: *В данной статье освещается значение развивающей среды в процессе обучения и воспитания детей дошкольного возраста. Анализируется содержание развивающей среды, её основные функции и влияние на когнитивное, социально-эмоциональное и творческое развитие ребёнка. Также представлены практические рекомендации по созданию и эффективному использованию такой среды в педагогическом процессе.*

Ключевые слова: *дошкольное образование, развивающая среда, обучение и воспитание, развитие детей, педагогические подходы, творческое развитие, социально-эмоциональное развитие.*

Annotation: *This article highlights the importance of a developmental environment in the educational and upbringing process of preschool-aged children. It analyzes the content and main functions of such an environment and its impact on the cognitive, socio-emotional, and creative development of the child. The article also provides practical recommendations for creating and effectively utilizing this environment in the pedagogical process.*

Key words: *preschool education, developmental environment, education and upbringing, child development, pedagogical approaches, creative development, socio-emotional development.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Maktabgacha yosh - inson hayotidagi eng muhim, faol o'sish va rivojlanish bosqichlaridan biridir. Bu davrda bola nafaqat jismonan, balki aqliy, ijtimoiy, axloqiy va estetik jihatdan ham shakllanadi. Shu sababli, ushbu yoshda yaratiladigan ta'lim-tarbiya muhiti bolaning keyingi hayoti va shaxs sifatida kamolotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ayniqsa,

rivojlantiruvchi muhitning mavjudligi-bolaning qiziqishlarini qo‘llab-quvvatlash, mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirishda asosiy omillardan biridir.

Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3955-son qarori hamda uning ijrosiga yo‘naltirilgan kompleks chora-tadbirlar maktabgacha ta’lim tizimini jahon talablariga mos tarzda rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar uchun yaratilgan rivojlantiruvchi muhit, ularning jamiyatga moslashuv jarayonida muhim o‘rin tutadi [1].

Shaxsdagi biron sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o‘yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o‘yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o‘yinlarini rivojlantirish uchun esa o‘z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo‘ladi [3].

ADABIYOT TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta’sir etuvchi muhit masalasi zamonaviy pedagogika va psixologiya sohasida keng o‘rganilgan. Lev Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi rivojlantiruvchi muhitning bolaning bilim va ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Shuningdek, Jean Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bola faoliyati va o‘zaro ta’sir jarayonida yangi bilimlarni egallashni yoritadi Zamonaviy maktabgacha ta’limda Montessori va Reggio Emilia yondashuvlari rivojlantiruvchi muhit yaratishning amaliy jihatlarini namoyish etadi. Rivojlantiruvchi muhit nafaqat modda vositalar, balki pedagogik yondashuv va ijtimoiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muhitdagi turli xil o‘yinchoqlar, ijodiy materiallar va farzandning o‘z qiziqishlariga asoslangan faoliyat uning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ota-ona va tarbiyachilarning pedagogik malakasi va bolaning ijtimoiy muhitga kirishi ham muhim ahamiyatga ega.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Maqolada ko‘rsatib o‘tilganidek, maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda rivojlantiruvchi muhitning yaratilishi bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Nazariy manbalar tahlili shuni isbotlaydiki, Vygotskiy va Piaget kabi olimlarning pedagogik nazariyalari rivojlantiruvchi muhitning bolaning aqliy va ijtimoiy rivojlanishidagi markaziy rolini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Montessori va Reggio Emilia kabi zamonaviy pedagogik yondashuvlar muhitning nafaqat modda-texnik bazasi, balki bolaning mustaqillik va ijodiy erkinligini rag‘batlantirishdagi o‘rnini namoyish etadi.

Amaliyotda esa, rivojlantiruvchi muhit yaratish-bu faqatgina o‘yinchoqlar va o‘quv materiallarini taqdim etish emas, balki pedagoglarning bolaga munosabati, o‘zaro muloqot va ijtimoiy muhitni tashkil etishdir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bunday muhitda bolalar mustaqil fikrlashga o‘rgangan, boshqalar bilan hamkorlikda ishlashni o‘zlashtirgan va ijodiy faoliyatga faol kirishgan.

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning ongi, xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayonidir [4.]

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta’lim muassasalari uchun rivojlantiruvchi muhitni doimiy yangilab borish va zamonaviy pedagogik metodlarni qo‘llash zarur. Bu nafaqat bolaning individual rivojlanishi, balki jamiyat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, muhitni yaratishda moddiy resurslarning yetishmasligi, pedagoglarning malaka darajasi va ota-onalar bilan hamkorlikning kamligi kabi muammolar ham mavjud. Kelajakdagi tadqiqotlarda ushbu muammolarni bartaraf etish va rivojlantiruvchi muhitni yanada samarali tashkil etish yo‘llarini izlash muhimdir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Rivojlantiruvchi muhit - bu bola atrofida yaratiladigan jismoniy, psixologik, didaktik va ijtimoiy sharoitlar majmuasidir. U bola shaxsining har tomonlama rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, qiziqishlarini rag‘batlantiradi va o‘z-o‘zini anglashga yo‘naltiradi. Bunday muhitga quyidagilar kiradi: Bolaga moslashtirilgan qulay va xavfsiz makon, yoshiga mos didaktik o‘yinchoqlar va vositalar, mustaqil faoliyatni rag‘batlantiruvchi imkoniyatlar, ijobiy muloqot va emotsional qo‘llab-quvvatlov, o‘yin, ijodkorlik, tajriba va kashfiyotga asoslangan pedagogik yondashuvlar. Maqolada

o‘rganilgan nazariy va amaliy manbalar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati aniqlandi. Rivojlantiruvchi muhit bolaning kognitiv, ijtimoiy-emotsional va ijodiy rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Rivojlantiruvchi muhit bolaning mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bolalar o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga moslashtirilgan faoliyatlarda ishtirok etganda ularning bilim va ko‘nikmalari samarali rivojlanadi. Pedagoglarning faoliyati va ta’lim muhitining tashkil etilishi bolaning ijtimoiy muloqot va hamkorlik ko‘nikmalarini mustahkamlaydi. Rivojlantiruvchi muhit nafaqat modda vositalar bilan, balki pedagogik yondashuv va ijtimoiy-psixologik sharoitlar bilan ham belgilanadi.

Shuningdek, rivojlantiruvchi muhitni yaratishda moddiy bazaning yetishmasligi va pedagoglarning metodik tayyorgarligi kamligi muhim to‘siqlar sifatida aniqlangan.

Rivojlantiruvchi muhitning asosiy funksiyalari: Kognitiv rivojlanishni ta’minlash - bunda bola turli o‘yinlar, mashg‘ulotlar, tajribalar orqali atrofdagi olamni o‘rganadi, sabab-oqibat bog‘liqlarini anglaydi. Rivojlantiruvchi muhit bu jarayonni tabiiy ravishda rag‘batlantiradi. Ijtimoiy-emosional rivojlanishga yordam berish-bunda **g**uruhda faoliyat olib borish, o‘z fikrini ifoda etish, boshqalarni tinglash va hurmat qilish kabi ko‘nikmalar ijobiy muloqot muhiti orqali shakllanadi.

Ijodiy salohiyatni rivojlantirish - ranglar, shakllar, tovushlar bilan tajriba o‘tkazish, musiqa, rasm, drama va boshqa san’at turlari orqali bola o‘zini erkin ifoda etishga o‘rganadi. O‘zini boshqarish va mustaqillikni shakllantirish - o‘z tanlovi asosida faoliyat yuritish imkoniyati bola shaxsining mustaqilligini oshiradi. Bu esa kelajakda mas'uliyatli va o‘z fikriga ega shaxs bo‘lib yetishishiga xizmat qiladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratiladigan rivojlantiruvchi muhit ularning intellektual, ijtimoiy, emotsional va ijodiy jihatdan sog‘lom rivojlanishini ta'minlaydi. Bunday muhit faqatgina moddiy sharoit emas, balki pedagoglarning malakasi, tarbiyaviy yondashuvi va bolaning shaxsiga hurmat bilan qarash kabi omillarni ham o‘z ichiga oladi. Demak, har bir maktabgacha ta’lim muassasasi bolaga o‘zini erkin his qiladigan, izlanadigan va o‘rganadigan rivojlantiruvchi makonga aylanishi lozim. Maktabgacha ta’lim muassasalari pedagoglari zamonaviy metod va texnologiyalarni qo‘llagan holda, bolaning mustaqillik va ijodkorligini rag‘batlantiradigan sharoit yaratishlari zarur. Shu bilan birga, muhitni doimiy ravishda takomillashtirish, ota-ona va jamoatchilik bilan hamkorlikni kuchaytirish ham samaradorlikni oshiradi.

Kelajakda rivojlantiruvchi muhitni yanada rivojlantirish va uning ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiyasini chuqurlashtirish uchun amaliy tadqiqotlar olib borish muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-3955-son qarori (lex.uz).
2. 2024-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori (kun.uz).
3. Fotima Qodirova va boshqalar. Maktabgacha pedagogika. T:. 2019 y.
4. D.Mutalova, G.Tojiboyeva, D.Maxmudova. MAKTABGACHA TA’LIMDA PEDAGOGIKA.
5. Achilova S. Hygienic factors for the development of physical qualities of children in preschool education // International journal of social science & interdisciplinary research, Vol. 12. Date of publication: 04.04.2023. – P.86-89. (IF 7.429)
6. G.M.Nazirova, K.M.Ilxomovna. TARBIYA VA UNING SHAXS KAMOLOTIGA TA’SIRI. Science and innovation 3 (Special Issue 31), 531-534

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 811.161.1

ЭВОЛЮЦИЯ ЖЕНСКОГО ОБРАЗА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ XX–XXI ВВ. (ЛИНГВОСТИЛИСТИЧЕСКИЙ АСПЕКТ)

Ахмадалиева Рухшонабону Мухаммаджоновна,
студентка 4 курса факультета филологии
филиала МГУ в г. Ташкенте

O‘ZBEK ADABIYOTIDA XX–XXI ASRLARDA AYOL OBRAZINING EVOLYUTSIYASI: LINGVOSTILISTIKA TAHLILI

Axmadaliyeva Ruxshonabonu Muhammadjonovna,
Toshkentdagi MDU filialining filologiya fakulteti
4-bosqich talabasi

EVOLUTION OF THE FEMALE IMAGE IN UZBEK LITERATURE OF THE 20TH–21ST CENTURIES (LINGUOSTYLISTIC ASPECT)

Akhmadaliyeva Rukhshona Mukhammadjonovna,
4th year student of the Faculty of Philology of the Moscow State University Branch in Tashkent

https://orcid.org/ 0000-0002-4587-9325
e-mail: rukhshonaahmadaliyeva@gmail.com

Аннотация: *В статье рассматривается эволюция женского образа в узбекской литературе XX–XXI вв. с позиции лингвостилистического анализа. Актуальность темы обусловлена необходимостью изучения языковых способов художественного выражения гендерных представлений, отражающих социальные и культурные изменения эпохи. Цель исследования - выявить особенности лингвостилистического воплощения женского образа и проследить динамику его художественного выражения в произведениях разных периодов.*

Ключевые слова: *женский образ, узбекская литература, лингвостилистика, художественный язык, эволюция образа, гендерная репрезентация.*

Abstract: *The article examines the evolution of the female image in Uzbek literature of the 20th–21st centuries from a linguo-stylistic perspective. The relevance of the study lies in the need for a comprehensive understanding of linguistic means that reflect gender concepts and social transformations of the era. The purpose of the research is to identify the linguistic and stylistic features of the female image and trace its artistic evolution across different literary periods. The novelty of the work consists in a complex analysis of linguistic devices that shape the image of women as a reflection of the ideological and aesthetic paradigms of time.*

Key words: *female image, Uzbek literature, linguostylistics, artistic language, evolution of image, gender representation.*

Annotatsiya: *Maqolada XX–XXI asrlardagi o‘zbek adabiyotida ayol obrazining evolyutsiyasi lingvostilistika tahlil nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi. Mavzuning dolzarbligi zamonning ijtimoiy va madaniy o‘zgarishlarini aks ettiruvchi gender tushunchalarni badiiy ifodalashning til vositalarini o‘rganish zarurati bilan bog‘liq. Tadqiqotning maqsadi - ayol obrazining lingvostilistika xususiyatlarini aniqlash va turli davrlardagi asarlarda uning badiiy ifodasining dinamikasini kuzatish.*

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, o‘zbek adabiyoti, lingvostilistika, badiiy til, obraz evolyutsiyasi, gender reprezentatsiyasi.*

ВВЕДЕНИЕ

Формирование женского образа в узбекской литературе представляет собой один из центральных вопросов филологической науки. Женский персонаж выступает не только элементом художественной структуры, но и выразителем культурных и нравственных ориентиров общества. На протяжении XX–XXI вв. менялось не только содержание женского образа, но и языковые средства, посредством которых он создавался.

Актуальность исследования обусловлена недостаточной изученностью лингвостилистических аспектов образа женщины в узбекской литературе. Если социально-культурная интерпретация темы представлена достаточно широко, то языковая сторона вопроса остаётся менее исследованной. Между тем именно язык - носитель эстетических и мировоззренческих смыслов - раскрывает динамику представлений о женственности и внутреннем мире героини.

Цель исследования - выявить и описать лингвостилистические особенности эволюции женского образа в узбекской литературе XX–XXI вв.

Для достижения цели решались следующие задачи:

1. Определить основные этапы становления и трансформации женского образа в узбекской литературе XX–XXI вв.;
2. Проанализировать языковые средства, используемые для его художественного выражения;
3. Сопоставить лингвостилистические особенности женского образа в произведениях разных эпох;
4. Выявить эстетическую и прагматическую направленность лексико-семантических и стилистических приёмов.

Объектом исследования является женский образ в узбекской литературе XX–XXI вв., а предметом - лингвостилистические средства его художественного воплощения.

Научная новизна работы состоит в том, что женский образ рассматривается как языковое явление, отражающее эволюцию эстетических и культурных ценностей общества.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ

Вопрос репрезентации женщины в узбекской литературе освещался в трудах литературоведов и филологов разных поколений. В произведениях Ойбека, Гафура Гуляма, Абдуллы Каххара женский образ трактовался как символ нравственной стойкости и духовного идеала.

Эти исследования имели культурно-идеологическую направленность и редко касались собственно языковой природы образа.

Современные исследования (Каримова, 2020; Норова, 2021; Хушвактова, 2022; Чутпулатов, 2023; Юлдашева, 2025) демонстрируют переход от описательного анализа к лингвостилистическому подходу. Женский образ рассматривается как дискурсивная и языковая конструкция, формирующаяся под влиянием общественных изменений.

Методология исследования включает:

- лингвостилистический анализ - для изучения художественных приёмов, создающих образ;
- семантический анализ - для выявления ключевых тематических полей;
- дискурсивный подход - для анализа интенций и контекстов, в которых раскрывается женский образ;
- сравнительно-описательный метод - для сопоставления особенностей языка произведений XX и XXI веков.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Лингвостилистический анализ показал, что женский образ в узбекской литературе прошёл три этапа развития, соответствующих изменениям в языке и эстетике художественного текста.

В произведениях первой половины XX века (Ойбек, Каххар, Гулям) образ женщины имел коллективно-символический характер. В языке героинь преобладают лексемы с оценочной семантикой добродетели и верности: «честная», «трудолюбивая», «преданная». Их речь отличается простотой синтаксиса и прямотой выражения, что отражает идеологическую направленность литературы времени.

TAMADDUN NURI

Во второй половине XX века (Зульфия, Саид Ахмад) усиливаются психологизм и индивидуализация образа. Женская речь становится эмоционально насыщенной, а структура повествования - интонационно гибкой. Исследования Хушвактовой (2022) отмечают использование метафор, сравнений, эпитетов, передающих внутренние состояния: «тишина сердца», «свет ожидания», «тяжесть молчания».

В литературе XXI века (Дилбар Саидова, Саломат Вафо, Зульфия Куролбой кизи) женский образ обретает личностное измерение. Он представлен через внутренний монолог, бытовую лексику, сочетание разговорных и поэтических интонаций. По наблюдению Чутпулатова (2023), это отражает расширение коммуникативных границ женской идентичности.

ОБСУЖДЕНИЕ

Изменение лингвостилистического облика женского образа свидетельствует о развитии художественного мышления и углублении эмоциональной выразительности узбекской литературы. Женщина в тексте перестаёт быть символом идеала - она становится носителем личного опыта, внутренней речи, рефлексии.

Языковые средства, формирующие этот образ, показывают движение от статичной морализаторской лексики к динамичной, индивидуализированной речи. Возрастающая роль глагольных форм внутреннего состояния (думала, чувствовала, молчала) отражает новую эстетическую установку - изображение внутреннего мира через язык.

Такое развитие свидетельствует о гуманизации художественного слова. В центре внимания оказывается личность, а язык превращается в средство самопознания и художественного самовыражения.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Эволюция женского образа в узбекской литературе XX–XXI вв. демонстрирует переход от идеализированного к индивидуализированному типу художественного воплощения. Языковые средства, используемые для создания этого образа, становятся всё более психологически тонкими и стилистически разнообразными.

Женская речь отражает глубину внутреннего мира, эмоциональную открытость и личностную свободу. Лингвостилистическая трансформация женского образа выражает гуманизацию литературного языка и расширение эстетических границ узбекской словесности.

Таким образом, художественный язык становится зеркалом культурных и мировоззренческих перемен, а образ женщины - ключом к пониманию национальной поэтики эпохи.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Каримова М. Женский образ в узбекской литературе XX века. -Ташкент: Фан, 2020.
2. Норова Ш. Лингвостилистические аспекты художественного текста. - Ташкент, 2021.
3. Хушвактова У. Лингвопоэтика и гендерная идентичность в современной узбекской прозе // Tadqiqot.uz. - 2022.
4. Чутпулатов М. Гендерные особенности узбекской речи // Open Science Education Journal. - 2023.
5. Юлдашева Д. Языковая репрезентация женского образа в узбекской литературе XXI века // Worldly Journals. - 2025.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 81.44

O‘ZBEK VA INGLIZ TILSHUNOSLIGIDA ANTROPOSENTRIK PARADIGMA

***Pulatova Muhayyo Azimboyevna**, Urganch Davlat Universiteti tayanch doktoranti*

АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Пулатова Мухайё Азимбаевна, докторант Ургенчского государственного университета

ANTHROPOCENTRIC PARADIGM IN UZBEK AND ENGLISH LINGUISTICS

***Pulatova Muhayyo Azimboyevna**, PhD student of Urgench State University*

e-mail: muhayyo_pulatova@mail.ru

***Annotatsiya**: Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida antroposentrik tilshunoslik, uning yo‘nalishlari, adabiyotlar sharhi va sohaga aloqador atamalar izohiga e’tibor qaratilgan.*

***Kalit so‘zlar**: paradigma, antroposentrizm, post antroposentrizm, kognitiv lingvistika, pragmalingvistika.*

Also, the discussion shows that religious vocabulary is not static, it develops along with literary trends and cultural changes. Terms, once associated with a strict spiritual doctrine, now have several layers of meaning, formed depending on the context in which they are used. For example, the word "mercy" is used in one work in the sense of theology, and in another work in the sense of human kindness or dignity. This variability allows the religious vocabulary to go beyond its original boundaries and enter into broader human experiences such as love, suffering, guilt, identity, and transcendence. Moreover, the frequent occurrence of religious vocabulary in the works of writers who do not consider themselves religious indicates that such a language is part of a broader literary and cultural vocabulary. Its aesthetic and philosophical value often outweighs its theological implications, especially in poetry and symbolic prose.

CONCLUSION. Religious lexicology remains an important component of modern English literature not only as a historical relic, but also as a living, flexible linguistic source. Writers use it to deal with moral issues, construct their stories, and establish deeper symbolic connections with readers. Future research may focus on the comparative use of religious vocabulary in non-Christian contexts, including Islamic, Hindu, or Buddhist influences in contemporary English literature. In addition, the study showed that religious lexicology developed over time and became more variable and metaphorical. Contemporary authors do not limit themselves to traditional religious frameworks; on the contrary, they use religious language creatively, often in secular or vague contexts. The presence of religious vocabulary in literature by both religious and non-religious authors illustrates that these words have transcended their doctrinal origins to become part of a shared cultural and literary heritage.

In conclusion, religious lexicology remains an important source of literary imagination. Respectfully, whether used in a critical or symbolic sense, it provides writers with a rich vocabulary to answer eternal human questions in the modern world.

REFERENCES:

1. Eliot, T. S. (1922). *The Waste Land*. London: Faber & Faber.
2. Robinson, M. (2004). *Gilead*. New York: Farrar, Straus and Giroux.
3. Lewis, C. S. (1950). *The Lion, the Witch and the Wardrobe*. London: Geoffrey Bles.
4. Frye, N. (1982). *The Great Code: The Bible and Literature*. Harvest Books.
5. Alter, R. (2019). *The Art of Bible Translation*. Princeton University Press.
6. Abrams, M.H. (1999). *A Glossary of Literary Terms*. Harcourt Brace.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 362.081.162.1

ЁШ ГАНДБОЛЧИ ҚИЗЛАРНИНГ ТЕЗКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАРНИ ҚЎЛЛАШ САМАРАДОРЛИГИ

Бердиева Хуршида Каримовна, Термиз давлат университети "Жисмоний тарбия ва спорт ўйинлари" кафедраси педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

https://orcid.org/0007-0019-1504-2409
e-mail: berdieva.terdu@gmail.com

EFFECTIVENESS OF USING ACTION GAMES IN DEVELOPING THE SPEED OF YOUNG HANDBALL PLAYERS

Berdieva Khurshida Karimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Department of "Physical Education and Sports", Termez State University

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПОДВИЖНЫХ ИГР В РАЗВИТИИ СКОРОСТИ ЮНЫХ ГАНДБОЛИСТОК

Бердиева Хуршида Каримовна, доктор педагогических наук(PhD) кафедры "Физическое воспитание и спорт" Термезского государственного университета

Аннотация: *Тақдим этилаётган мақолада бошланғич тайёргарлик гуруҳларидаги гандболчи қизларнинг ўқув машғулотларида тезкорлик қобилиятларини ривожлантиришда ҳаракатли ўйинлардан фойдаланилган ҳамда махсус тестлар ёрдамида текшириш орқали тайёргарлик даражаси аниқланган. Тадқиқот давомида жисмоний тайёргарлик кўрсаткичлари ўзгариши таҳлил қилинган.*

Калит сўзлар: *жисмоний тайёргарлик, ҳаракатли ўйинлар, жисмоний қобилият, ўқув машғулотлар, тест меъёрлари, ўсиш суръати, тезкорлик, нисбий ўсиш.*

Annotation: *The presented article examines the use of movement games in training sessions with beginner-level female handball players to develop their speed abilities. The level of preparedness was determined using special tests. During the research, the changes in physical fitness indicators were analyzed.*

Key words: *physical training, movement games, physical abilities, training sessions, test standards, growth rates, speed, relative increase.*

Аннотация: *В представленной статье рассматривается использование подвижных игр в учебно-тренировочных занятиях с девушками-гандболистками начальной подготовительной группы для развития скоростных способностей. Уровень подготовленности определялся с помощью специальных тестов. В ходе исследования был проведён анализ изменений показателей физической подготовленности.*

Ключевые слова: *физическая подготовка, подвижные игры, физические способности, учебно-тренировочные занятия, тестовые нормативы, темпы роста, быстрота, относительный прирост.*

КИРИШ. Фундаментал тадқиқотлардан аёнки спорт машғулотлари жараёнида ҳаракатли ўйинлардан шуғулланувчиларнинг интеграл, яъни умумий ва махсус, техник, психофизиологик (спорт мотивацияси) тайёргарлигини такомиллаштирувчи восита сифатида мақсадли фойдаланишга методик ёндашув йўллари ишлаб чиқилган ва амалиётга татбиқ қилинган[3;4;7].

Гандбол машғулотларида ҳаракатли ўйинларни қўллаш спортчиларни ҳар томонлама жисмоний тарбиялашнинг энг самарали воситасидир. Ҳаракатли ўйинларнинг асосий хусусияти шундан иборатки, улар ёш гандболчилар томонидан қувонч билан қабул қилинади хамда катта ҳаяжон ва юқори шодлик даражасида ўйналади. Буларнинг барчаси мураббий учун тарбияланувчилар ташаббусини бошқариш ва уларни аниқ мақсадларга эришишга қаратилган иродани сингдиришнинг чексиз имкониятларини очиб беради[1].

Биз тақдим қиладиган ҳаракатли ўйинлар гандбол спорт турида тезкорлик ва тезкор куч қобилиятларини эртароқ ҳамда тезроқ ўрганиш ҳамда ўзлаштириш учун мўлжалланган.

Улар қуйидагиларни ўз ичига олади : “Ягуар”, “Жамоали югуриш” жамоа бўлиб силжиб ҳаракатланиш тезкорлигини ривожлантиришга ёрдам беради, “Кун ва тун” ўйини старт тезлиги ҳамда мураккаб реакциялар ва ҳаракатланиш тезкорлигини ривожлантиради. “Тўп учун кураш”, “Тўп сардорга”, “Копток талашиш”, “Тўпни олдирма”, “Гандбол мусобақаси ” ва “Тўп билан тўпни уриш” каби ҳаракатли ўйинларда тўпни улоқтириш ва илиб олишда ҳаракат кўникма ва малакаларини шакиллантиб, махсус шарт-шароитларда ҳаракатланиш тезкорлигини ва оқилона тактик ечимларни излаб топиш малакасини ривожлантириб, гандбол ўйинига тайёрлаб, ўйин жараёнида шуғулланувчиларда зийраклик, диққат, мерганлик каби хислатлари ривожланади[5-6].

“Мерганлар”, “Мерган”, “Овчилар”, “Қубба-2” каби ўйинлар қўллар ва панжалар кучи ҳамда нишонга аниқ тегиш малакасини ривожлантиришга ёрдам беради. “Овчилар ва ўрдаклар”, “Тўсатдан нишонга”, “Бургут ва бургутча” ўйинлари ҳаракатлар параметрларини баҳолаш қобилияти, аниқлик, мўлжал олиш ва ҳаракатларни қайта қуриш қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради. “Тўп билан тўпни уриш”, “Мерган”, “Мерганлар” ўйини нишонга олиш ва чамалаш аниқлигини ҳамда ҳаракат амалларининг табақалашган параметрлари аниқлиги қобилиятини ривожлантиради. Машғулот жараёнларида эгилувчанлик кичик ёшдаги гандболчиларнинг кескин, кенг кўламли ҳаракатларида намоён бўлиб, ўйинчи қўлининг, дарвозабон эса оёкларининг алоҳида эгилувчанлиги талаб этилади.

Ҳаракатли ўйинлар орқали кичик ёшдаги гандболчи қизларнинг нафақат тезкорлигини, балки гандбол техникаси элементларини ривожлантиришга қаратилган “Тўпни устунлараро олиб юриш”, “Тўпни қайтариб отиш”, “Тўпни ерга туширма” ва “Тўпни узатиш” каби ҳаракатли ўйинлар шуғулланувчиларда тўпни олиб юриш, турли хил усулларда узатиш ва илиб олиш, нишонга отиш ҳамда тезкорлик, чаққонлик, чидамлилик ва координация каби жисмоний қобилиятларини ривожлантиришга ёрдам беради.

Педагогик тажриба давомида санаб ўтилган ўйинлар муайян жисмоний қобилиятларни устувор ривожлантириш учун қўлланилди. Бу муайян машғулотнинг педагогик вазифасидан келиб чиқиб, шарт-шароитларни ўзгартирган ҳолда турли хил мушаклар гуруҳларига изчил таъсир кўрсатиш имконини берди.

Тадқиқотнинг мақсади. Ёш гандболчи қизларнинг ўқув машғулотлари жараёнида ҳаракатли ўйинларни қўллаш асосида машғулот самарадорлигини оширишдан иборат.

Тадқиқотнинг усуллари. Илмий-услубий адабиётларни ўрганиш ва таҳлил қилиш, педагогик кузатув, педагогик тестлаш, математик статистик усуллар.

Тадқиқотнинг вазифалари. Олдимизга қўйилган мақсадни амалга оширишда қуйидаги вазифалар ҳал этилди:

- мавзуга оид илмий услубий адабиётларни ўрганиш ва таҳлил этиш;

- ёшли гандболчиларни бошланғич тайёргарлик гуруҳлари учун ўқув машғулотларда ҳаракатли ўйинларни қўллаш орқали уларнинг тезкорлик қобилиятларни ошириш;

- тадқиқотдан олинган натижаларни умумлаштириш.

Тадқиқотни ташкил қилиш. Биз педагогик тадқиқотни уч босқичда ташкил этдик. Тадқиқотнинг биринчи босқичи 2024 йил сентябрь – ноябрь ойларида гандбол бўйича ўтказиладиган анъанавий машғулотлар педагогик кузатув остига олинган ва муаммонинг илмий назарий асослари адабиётлар таҳлили асосида ўрганилди, тадқиқотни долзарблиги, бугунги кундаги илмий аҳамияти кўрсатиб ўтилди. Тадқиқотнинг иккинчи босқичда 2025 йил январь – май ойлари педагогик тажрибага доир тадқиқотлар ўтказилган бўлиб, уларга ҳар бири 32 нафардан иборат назорат гуруҳи (НГ) ва 32 нафардан иборат тажриба гуруҳи (ТГ) – жами 64 нафар 10-11 ёшга мансуб гандболчи қизлар жалб қилинган. Тадқиқотнинг учинчи босқичда 2025-йил январь-февраль ойларида ўтказилган тадқиқот натижалари математик-статистика формулалари ёрдамида таҳлил қилинган ҳамда хулосалар матни тайёрланган.

ТАДҚИҚОТНИНГ НАТИЖАЛАРИ ВА МУҲОКАМАСИ. Ҳозирги пайтда амалиёт ва тадқиқотлар томонидан шу нарса исботланганки, шуғулланувчиларнинг ёш хусусиятларини ва жисмоний тайёргарлик даражасини ҳисобга олиб, машғулотларнинг тўғри ташкил этилиб, шунингдек машғулотларда миллий ва ҳаракатли ўйинларнинг қўлланилиши натижасида шуғулланувчиларнинг жисмоний тайёргарлик даражаси ошганлиги тадқиқотларда ўз исботини топган[2].

Жисмоний тайёргарлик замонавий гандболда машғулот жараёнининг ажралмас қисми ҳисобланиб у шундай пойдеворки, ёш гандболчи шаклланишининг илк босқичларида ўз маҳоратини ривожлантиришда зарур бўлган ҳаракат амаллари ва жисмоний қобилиятларнинг ҳар хил турларини ҳосил қилишга ҳамда ҳаракат кўникма ва малакаларини шаклланишига ёрдам беради.

ХУЛОСА. Ёш гандболчи қизларнинг жисмоний тайёргарлигини оширишда асосан ҳозирги талабларга жавоб берадиган восита ва усуллар орқали ривожлантириш олдинга қўйган мақсадга тезроқ етишга имкон яратади. Педагогик тадқиқот давомида натижалар улар борасидаги хулосалар шуғулланувчиларнинг жисмоний қобилиятлари хусусан, тезкорлик ва тезкор-кучини ошириш, амалиётга татбиқ этилиши ҳамда ноанъанавий усул ва ўйин машқларини ўқув машғулотлар жараёнига жорий этиш малакали спортчиларни етиштиришда муҳим роль ўйнайди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Азизова Р.И. Гандбол. БЎСМ ва БЎОСМ лари учун намунавий дастур. Т.: Lider Press нашриёти, 2009 й. – 90 бет. 77.
2. Даниева. Я.Ч. I-II босқич талабаларнинг жисмоний тарбия дарсида халқ ҳаракатли ўйинларни қўллаш самарадорлиги. Пед.фан.ном ... дис.Тошкент, 2009. -110 бет.
3. Тўлаганов. Р.Х. Подвижные игры как средство и метод развития двигательных способностей мальчиков 7-10 лет к занятиям волейболом. Автореф. дисс. ...канд.пед. наук. М.: 1992 г , 34 стр.
4. Тажибаев С.С. Ёш боксчиларни тайёрлаш тизимида ҳаракатли ўйинларни қўллаш методикаси. Педагогика фан.(PhD)… дисс... Чирчиқ: ЎзДЖТСУ, 2017. 87-бет.
5. Усманхўжаев Т.С., Хўжаев Ф. 1001 ўйин. Ташкент:издательство Ибн Сино, 1990г. 168 с.

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 903.42

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA BRONZA DAVRI JAMIYATIDA KECHGAN TARIXIY JARAYONLAR SAHIFASI

Satimov Bahodir, Urganch innovatsion universiteti dotsenti

PAGE OF HISTORICAL PROCESSES IN THE BRONZE AGE SOCIETY IN UZBEKISTAN

Satimov Bakhodir, Associate Professor, Urgench Innovative University

СТРАНИЦА ИСТОРИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ОБЩЕСТВЕ БРОНЗОВОГО ВЕКА УЗБЕКИСТАНА

Сатимов Баходир, доцент Ургенчского инновационного университета

https://orcid.org/0009-0004-5127-2898
e-mail: bsatimov263@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekistonda bronza jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy va etnik-madaniy munosabatlar rivojlanish tarixi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Tolstov S.P., G‘ulomov Y.G‘., Itina. M.A., Asqarov A., Islomov I.I., Normurodov D., Juraqulov M.J., Abdullayev O‘.I., O‘zbekiston, Xorazm, Qizilqum, Qoraqum, Zarafshon, Toshkent, Surxondaryo, Farg‘ona, Selengur, Ko‘lbuloq, Churik, Tozabog‘yob, Zomonbobo, Chust, Sopolli.*

Abstract: *The article analyzes the history of the development of the bronze society in Uzbekistan, its socio-economic and ethnic-cultural relations.*

Keywords: *Tolstov S.P., Gulomov Y.G., Itina M.A., Askarov A., Islamov I.I., Normurodov D., Jurakulov M.J., Abdullayev O.I., Uzbekistan, Khorezm, Kyzylkum, Karakum, Zarafshon, Tashkent, Surkhandarya, Fergana, Selenga, Kolbulok, Churik, Tozabogyob, Zamonbaba, Chust, Sopolli.*

Аннотация: *В статье анализируется история развития бронзового общества в Узбекистане, его социально-экономические и этнокультурные связи.*

Ключевые слова: *Толстов С.П., Гуломов Ю.Г., Итина. М.А., Аскаров А., Исламов. И.Я., Нормуродов Д., Джуракулов М.Дж., Абдуллаев О.И., Узбекистан, Хорезм, Кызылкум, Каракумы, Зарафшон, Ташкент, Сурхандарьинская, Фергана, Селенга, Колбулок, Чурик, Тозабогеб, Замонбаба, Чуст, Сополли.*

KIRISH. Yer sharining geologik taraqqiyoti natijasi O‘zbekiston hududi tuzilishi tog‘, tog‘ oldi, dasht, balandlik va botiqlardan iborat bo‘lib, uning tog‘lik hududlari shimoli-sharqiy, janubiy va janubi-sharqiy hududlarni qamrab olgan, g‘arbiy qismi Qoraqum chegaralari, sharqida Qizilqum sahrosi tashkil qilgan. Orol dengizidan – Janubiy So‘g‘d tog‘i hududigacha bo‘lgan geografik kenglik 300 ming kv km, uning 70-80 foizini tekislik egallagan. Shundan 4,5 mln gektarda Xorazm vohasi joylashgan. Ustyurt platosi ochiq, jarlik va quduqlardan, Quyi Amudaryo Qizilqum va Qoraqum o‘rtasida, Zarafshon vodiysi tog‘ va tekislik; Surxon va Toshkent vohalari tog‘, tog‘ oldi tekisligi, Farg‘ona vodiysi to‘rt Tomoni tog‘, tog‘ yon bag‘ri past tekislikdan iborat. Yuqorida zikr qilingan tarixiy geografik hududlar o‘ziga xos xususiyatlari bilan odamzotning joylashishi, turmush tarzi, antropogen landshafti o‘zgarish

xususiyatlari moddiy madaniyatida o‘z aksini topgan. O‘zbekiston viloyatlarida arxeologik tadqiqotlar olib borilishi natijasida olingan ashyolar Ustyurt, Qoraqum, Churuk, shimoliy Zarafshon vodiysi Toshkent vohasi hududida Ko‘lbuloq, Farg‘ona vodiysi Selengur makonlarida ilk tosh davri, o‘rta tosh davrida Markaziy So‘g‘d (Omonqo‘ton, Qo‘tirbuloq, Zirabuloq, Guldara), Surxon vohasi (Teshiktosh), so‘nggi tosh (Xorazm) davri ibtidoiy ovchilari bosqichma-bosqich tabiiy resurslardan unumli foydalanib, o‘zaro bag‘rikenglikda tabiat hadyasidan geografik kenglikda foydalanib, etnik munosabatlarni olib borib bronza davriga jamiyatning iqtisodiy asosi o‘zlashtiruvchi xo‘jalik bilan bronza davriga yetib kelganlar. Mazkur maqolada, ajdodlarimizning bronza davrida olib borgan bunyodkorlik faoliyatlari natijalarining arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida yoritish nazarga olingan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI. XX asr 50-yilidan boshlab, O‘zbekistonning tabiiy-iqtisodiy hududlarida olib borilgan keng qamrovli arxeologik izlanishlar natijasida olingan moddiy ashyolar bronza jamiyatida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarni yoritishda asosiy manba bo‘lib hisoblanadi. Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma’lumotlarni umumlashtirgan holda nazariy-qiyosiy tahlil asosida bronza davrida yuz bergan urbanistik jarayonlar darajasi natijalarini ikki tarixiy davrga ajratgan holda jamiyatda yuz bergan o‘zgarishlarni izohlash imkoniyati mavjud:

1. Tabiiy-iqtisodiy hududlar: Ustyurt, Quyi Amudaryo havzasi, Zarafshon vodiysi va Toshkent vohasi;
2. Iqtisodiy hudud: Farg‘ona vodiysi va Surxon vohasi.

O‘zbekiston hududida ikki hududda jamiyatning eneolit davrini qamrab olgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar asosida bronza jamiyatining notekis rivojlanishi davom etgan, urbanistik jarayonning issiq shabadalari birinchi tabiiy iqtisodiy hududlarda istiqomat qilgan aholi ma’naviyatiga ta’sir qilgan emas, shu bois bu jarayon turar joylar qurilishida, xo‘jalikning turli sohalarida miqdoriy sifat jihatidan o‘zgarishlar yuz bermagan. Darhaqiqat, mil.avv. II mingyillik birinchi yarmidan boshlab, shimoli-g‘arbiy, Turon tog‘i janubida o‘rnashgan Yog‘ochband va O‘rta Osiyo shimoli-sharqida chorvador-ko‘chmanchi va yarim o‘troq Andronova qabilalarining Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon, Toshkent vohasiga kelib joylashib etnik munosabatlarni faollashtirganlar.

Ustyurt hududi ichki suvlar tabiat hadyasi, Quyi Xorazm vohasi Amudaryo, Quyi Zarafshon va O‘rta Zarafshon Zarafshon daryosi suv tarkibidagi mineral moddalarni yotqizishi natijasida iqtisodiy omillar hosil qilgan bo‘lsa, Toshkent vohasida tog‘lardan oqib tushgan jilg‘alar suvini qamrab olgan Ohangaron daryosi iqtisodiy omillarni hosil qilganligi bois etnik jarayonlar ta’sirida antropogen landshaftlari va ekologik jarayonlar kechgan. Mazkur tabiiy-iqtisodiy hududlarda o‘rnashgan aholi yarim yerto‘la shaklida chayla-qal’alarda yashab bronza jamiyati tadrijiy ravishda rivojlantirganlar. Farg‘ona va Surxondaryo tabiiy-iqtisodiy hududlarida bronza davri ikkinchi yarmi birinchi choragida urbanistik jarayonlar qamrab olinishi munosabatida yuz bergan o‘zgarishlar aholi turar joylarining bunyod qilinishi, moddiy va ma’naviy munosabatlarida aks etgan. Mil.avv. XVII asrdan boshlab, Surxon vohasi, mazkur tarixiy davr birinchi yarmida Farg‘ona vodiysi tub aholisi andronovaliklar bilan omuxtalashgan aholi a’zolari o‘troq hayot, sun’iy sug‘orma dehqonchilik va binokorlik bilimi asosida istehkomli turar joylarni bunyod qilish sari qadam tashlagan, bu esa o‘z navbatida urbanistik jarayonlarning issiq shabadalari kirib kelganligidan dalolat beradi. Shu ma’noda O‘zbekiston hududida bronza davrining so‘nggi rivojlanishida turar joylarni topografik joylashishi, tuzilishida tub o‘zgarishlar yuz berganligi bilan bir-biridan farqlanishi jihatidan ikki hudud shakllangan, bu jarayon keyingi tarixiy davrda davom etgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Quyidagilardan foydalanildi: ilmiy xolislik, tarixiy-xronologik izchillik, nazariy-qiyosiy tahlil, bahs, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa hamda arxeologiya, antropologiya, geografiya, etnografiya fanlari tadqiqotlari natijalaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O‘tgan asr adabiyotlari XXI asr boshlari O‘zbekiston viloyatlarida turli nomada arxeologik

ekspeditsiyalar va tarixchi xodimlarning bronza davriga mansub aholi turar joylarida keng qamrovli tarzda olib borilishi munosabati bilan olingan moddiy ashyolar asosida jamiyatda kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlar rivojlanishi jarayoni tahlil qilindi, shu asosda natijalar qayd qilindi, ya'ni bronza davri jamiyatida kechgan tarixiy jarayonlarning mazmuni va mohiyatidan kelib chiqib, ikki hudud, ya'ni markaziy, shimoliy va shimoli-sharqiy hududlar, Farg'ona va Surxondaryo hududlarida kechgan tarixiy jarayonlar rivojlanishining bir-birini takror qilmaganligi to'g'risida natijalar qayd qilindi. Shu jihatlardan kelib chiqib, quyidagi xulosa va takliflar olg'a surildi.

Mavzu mazmunini qamrab olgan tarixiy ma'lumotlar quyidagi xulosalarni qayd qilish imkonini berdi:

- Ilk tosh davri ibtidoiy odamlarning vorislari, bir guruh vakillari aholi soni miqdori oshganligi sabab, moslashgan geografik doiradan chiqib, tabiiy-iqtisodiy hududlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirib, jamiyatning iqtisodiy tizimi o'zlashtiruvchi xo'jalik bilan bronza davriga shaxdam qadamlar bilan o'zaro hamkorlik, tabiiy kuchlarga bo'lgan e'tiqodlari bilan yetib kelgan;
- Bronza davriga kelganda Quyi Amudaryo, Zarafshon vodiysi quyi havzasi, Toshkent va Farg'ona vodiysi hududlari ko'chmanchi-chorvador qabilalarning kelib joylashish makonlari bo'lgan;
- Mil.avv. II ming yillik ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy munosabatlarda kechgan jarayonlar O'zbekiston hududi shimoliy va markaziy hamda shimoli-sharqiy (Farg'ona vodiysi va Janubiy Surxondaryo) hududlari aholisi olib borgan moddiy madaniyatlari bir-biridan farqlanish xususiyati yakun topgan.

Yuqorida qayd qilingan fikr-mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi takliflar ilgari surildi:

1. O'zbekistonning bronza davrida kechgan jarayonlarning bir-biridan farqlanishidan ijtimoiy-iqtisodiy omillarini o'rganish;
2. Shu asosda tabiiy-iqtisodiy hududlarda xo'jalik-madaniy turlarni vujudga kelishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilish;
3. Xo'jalik-madaniy tiplarda o'rganilgan aholining bir-biri bilan iqtisodiy-etnik madaniy aloqalari tarixini yangicha qarashlar va yondashuvlar asosida o'rganish hozirgi davr ruhiga mos keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта – ИВЛ РАН, - М: Наука, 1962.
2. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи.-Тошкент, Фан, 1959.
3. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья//ТрХАЭЭ – М.: Наука, 1977. Г.Х.
4. Аскаров А. Сополлитепа.Ташкент, Фан, 1973.
5. Аскаров А. Древнеземледельчес-кая культура эпоха бронзы юга Узбекистана. – Ташкент, Фан, 1977.
6. Асқаров А. Культура Заманбаба в низовьях Зарафшана//ОНУ:Ташкент, Фан, 1962. №1.
7. Я.Г.Гулямов, У.Исламов, А.Аскаров. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в низовьях Зарафшана. // Ташкент: Фан, 1966.
8. Нормуродов Д.Р. Қуйи Оҳангарон ҳавзасида Бурганлик маданиятига давр мулоҳазалари// Марказий Осиё тарихи ва археологияси: анъаналар, инновациялар ва истиқболлар. – Тошкент, 2021.
9. Журақулов М.Ж. Самарқанд воҳасининг ибтидоий маданияти тарихи саҳифаси. – Ўзбекистон археологияси. – Самарқанд, 2011 №1(2).
10. Абдуллаев Ў.И. Ўрта Осиёда ибтидоий жамоа тузуми ва илк давлатчилик тарихи. – Тошкент, 2019.

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 930

NAMANGAN VILOYATIDAGI YENGIL SANOAT KORXONALARI ISHCHILARINING MEHNAT MUHOFAZASI MASALALARI VAQTLI MATBUOTDA YORITILISHI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR

(Namangan viloyatida 1985-1988-yillarda chop etilgan vaqtli matbuot nashlarida e'lon qilingan maqolalar tahlili asosida)

Turg'unov Sherzod Abduvositovich, Farg'ona davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrasi tayanch doktoranti

https://orcid.org/0009-001-0570-1020
e-mail: turgunovs979@gmail.com

SOME COMMENTS ON THE COVERAGE IN THE MEDIA OF LABOR PROTECTION ISSUES OF WORKERS IN LIGHT INDUSTRY ENTERPRISES IN NAMANGAN REGION

(Based on the analysis of articles published in periodicals published in Namangan Region in 1985-1988)

Turgunov Sherzod, Doktoral student at the department of History of Uzbekistan Fergana State Universiity

НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ К ОСВЕЩЕНИЮ ВОПРОСОВ ОХРАНЫ ТРУДА РАБОТНИКОВ ПРЕДПРИЯТИЙ ЛЕГКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ В СРЕДСТВА МАССОВЫХ ИНФОРМАЦИИ

(На основе статей опубликованных в периодических изданиях, издававшихся в Наманганской области в 1985-1988 гг)

Тургунов Шерзод Абдувоситович, докторант кафедры Истории Узбекистана Ферганского государственного университета

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'tgan asrning 1985-1988-yillarida Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida mehnat faoliyati bilan shug'ullangan ishchilarning mehnat muhofazasi doirasida amalga oshirilgan tadbirlarning haqiqiy ahvoli haqida, xususan, ularning sog'liklarini saqlash jarayonida muhim o'rin tutuvchi ishchilarni sanatoriyalar, dam olish uylari va sanatoriya-profilkatoriyalarga yuborish haqidagi ma'lumotlarni vaqtli axborot nashrlarida e'lon qilingan maqolalarda yoritilishi haqidagi ma'lumotlar taqdim etilgan.*

Kalit so'zlar: *mehnat muhofazasi, "Avrli" gazlamalar ishlab cbiqarish birlashmasi, Namangan poyafzal fabrikasi, "Namangan haqiqati" gazetasi.*

Abstrakt: *This article discusses the actual state of measures taken within the framework of labor protection of workers engaged in labor activities at light industrial enterprises in the Namangan region in 1985-1988 of the last century, in particular, the information on sending workers to sanatoriums, rest homes and sanatorium-dispensaries, which play an important role in maintaining their health, was covered in articles published in periodicals.*

Key words: *Labor protection, "Avrli" Textile Manufacturing Association, Namangan Shoe Factory, "Namangan Haqiqati" Newspaper.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается фактическое состояние мероприятий, проводимых в рамках охраны труда работников, осуществляющих трудовую деятельность на предприятиях легкой промышленности Наманганской области в 1985-1988 годах прошлого столетия, в частности, в статьях, опубликованных в периодических изданиях, освещены сведения о направлении работников в санатории, дома отдыха и санатории-профилактории, которые играют важную роль в сохранении их здоровья.*

Ключевые слова*: охрана труда, текстильное производственное объединение "Аврли", Наманганская обувная фабрика, газета "Наманган хакикати".*

KIRISH. XX asrning oxirgi choragida O‘zbekiston sanoati, xususan Namangan viloyatidagi to‘qimachilik va tikuv –trikotaj korxonalari sobiq Sovet Ittifoqi iqtisodiyotida muhim o‘rin tutgan. Sobiq Sovet Ittifoqida 1985-yilda boshlangan "qayta qurish" siyosati ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan bir qatorda mehnat muhofazasi masalalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Jumladan,1985-1988-yillarda Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida ishchilarnng mehnat muhofazasida muhim o‘rin tutuvchi jarayon bo‘lgan ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida yo‘qotilgan sog‘liklarini tiklash va ularning mehnat qobiliyatlarini yanada oshirish uchun sihatgohlar, dam olish uylariga yuborish masalasida bir qator amaliy ishlar bajarilgan. Bu jarayonlar o‘z navbatida o‘rganilgan davrda Namangan viloyatida nashr etilgan vaqtli matbuot nashrlarida yoritib borilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ushbu maqolada asosan Namangan viloyat partiya qo‘mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri bo‘lgan "Namangan haqiqati" gazetasida e’lon qilingan maqolalardan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

-Tarixiy-deskriptiv yondashuv – mavjud matbuot materiallarini tavsiflash;

-Qiyosiy tahlililiy metod – Namangan viloyatida1985-yilda va undan keyingi davrda faoliyat olib borgan yengil sanoat tarmog‘iga oid korxonalardagi ishchilarning mehnat muhofazasining holatini sobiq Sovet Ittifoqining boshqa hududlaridagi xuddi shunday sanoat korxonalaridagi holatlar bilan qiyosalash.

TADQIQOTNING AMALGA OSHIRILISHI. Tadqiqot jarayonida Namangan viloyatida 1985-yilda va keyingi davrda faoliyat olib borgan yengil sanoat sanoat korxonalarining xususan oziq ovqat sanoati va to‘qimachilik korxonalarining muhandis va texnik xodimlariga, ishchi va xizmatchilariga va ushbu korxonalarda tibbiy–sog‘lomlashtirish xizmatining holatini yaxshilash asnosida ushbu korxonalarda mehnat faoliyati bilan shug‘ullanayotgan muhandis va texnik xodimlar, ishchi va xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilashda, ularning mehnat muhofazasini ta’minlash borasida mavjud holat bo‘yicha erishilgan yutuqlar va kamchiklar to‘g‘risida Namangan viloyati Davlat arxivida saqlanayotgan sanoat korxonalarining faoliyatiga oid fondlarni va bundan tashqari Namangan viloyati partiya qo‘mitasi va viloyat Kengashining rasmiy nashri hisoblangan "Namangan haqiqati" gazetasining 1985-1988-yillarda nashr qilingan sonlarida e’lon qilingan maqolalarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida zarur ma’lumotlar qo‘lga kiritildi. Bu jarayonda maqolaga oid ma’lumotlarni to‘plash jarayonlari Namangan shahridagi Nodira nomidagi Axborot Kutubxona markazining fondlarida saqlanayotgan o‘tgan asrning 80-90-yillariga oid vaqtli matbuot nashrlari o‘rganildi va ilmiy tadqiqot ishiga oid muhim ma’lumotlar qo‘lga kiritildi.

Bu jarayonda ‘Namangan haqiqati" gazetasining 1985-1988-yillarda nashr etilgan sonlari xronologik tartibda ko‘rib chiqildi. Ushbu gazetalarning deyarli barcha sonlarida sanoat yangiliklari rukni mavjud bo‘lgan. Ushbu ruknda viloyatda sanoat sohasida yuz berayotgan muhim yangiliklar, sanoat korxonalarida ishchilar va xizmatchilar uchun yaratilayotgan mehnat sharoitlarida erishilayotgan yutuqlar va shu bilan

TAMADDUN NURI

bir qatorda mavjud kamchilklar haqida, mehnatkashlarning sog‘liklarini saqlash va mehnat qilish qobilyatini qayta tiklash va ish unumdorligini oshirish yuzasidan bajarilgan tadbirlar hususan sanatoriyalar, kurortlar va dam olish uylarida mehnatkashlarni o‘z sog‘liklarini tiklash va mustahkamlash bo‘yicha bajarilgan amaliy ishlar va sanoat korxonalarining moddiy-texnik holati, ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etilayotgan yangiliklar, sanoat korxonalaridagi novatorlik, ratsionalizatorlik faoliyatlari haqida va shuningdek viloyatdagi zavod va fabrikalarning davlat tamonidan qo‘yilgan mehnat majburiyatlarini bajarish sohasidagi yutuqlari va kamchiliklari haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu ma’lumotlarni o‘rganish jarayonida qiyosiy taqqoslash usullaridan ham foydalanildi. Bu jarayonda xuddi shu davrda Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida, xususan RSFSRdagi sanoat korxonalari yoki Sovet Ittifoqining markaziy hududlarida joylashgan Ukraina SSR, Belorussiya SSR kabi respublikalardagi sanoat korxonalarida ishchilar uchun yaratilgan mehnat sharoitlari va mehnatkashlarning mehnat muhofazasi haqida va ushbu hududlardagi zavod va fabriklarda ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilgan eng yangi jihozlar va uskunalar va ularning afzalliklari, ishchilarning mehnat muhofazasini ta’minlashdagi ahamiyati haqida ushbu gazetada berilgan ma’lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Qayta qurish yillarida Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida ishchilarnng mehnat muhofazasida muhim o‘rin tutuvchi jarayon bo‘lgan ishchilarning sog‘liklarini tiklash va ularning mehnat qobiliyatlarini yanada oshirish uchun sihatgohlar, dam olish uylariga yuborish masalasida bir qator amaliy ishlar bajarilgan. Bu jarayonlar o‘z navbatida o‘rganilgan davrda Namangan viloyatida nashr etilgan vaqtli matbuot nashrlarida yoritib borilgan. Xususan, “Namangan haqiqati” gazetasida e’lon qilingan maqolalarda viloyatdagi sanoat korxonalaridagi ishchilarning mehnat muhofazasi jarayonlarida mavjud ijobiy o‘zgarishlar va shu bilan bir qatorda mavjud muammolar ham aks etgan

Masalan, Namangan viloyat partiya qo‘mitasi va viloyat soveti rasmiy nashri hisoblangan “Namangan haqiqati” gazetasining 1985–1988-yillarda nashr etilgan sonlarida hududdagi sanoat ishchilarining moddiy turmush tarzi, sanoat korxonalaridagi mehnat muhofazasi hamda sharoitlarning haqiqiy ahvolini yoritib beruvchi maqolalar ko‘p marotaba e’lon qilindi. Xususan, ushbu gazetaning 1985-yil 15-yanvardagi 9-sonida R.Sulaymonovning “O‘zaro tajriba almashildi” deb atalgan maqolasi e’lon qilingan. Ushbu maqolada O‘zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligi tasarrufidagi sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi, ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha tajriba almashish maqasadida Namangan shahrida tashkil etilgan amaliy seminar jarayonlari yoritib berilgan. Maqolada keltirilishicha, 1985-yil 10-yanvarda Namangan shoyi ishlab chiqarish birlashmasida O‘zbekiston SSR Yengil sanoat vazirligi tarkibidagi korxonalar direktorlari, bosh hisobchilari va kasaba uyushma qo‘mitasi raislari ishtirokida respublika amaliy seminari bo‘lib o‘tgan. Ushbu seminarda shoyi ishlab chiqarish korxonalarida ishchilarning mehnat muhoafazasini yanada yaxshilash, mahsulot ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish, buning natijasida ishchilarning mehnat sharoitlari sifatini oshirish bo‘yicha ilg‘or tajribalar almashilgan. Mazkur amaliy seminarda SSSR Yengil sanoat vazirligining mehnat, ish haqi, ishchi kadrlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari S.S.Terkarnetov ham ishtirok etgan[1.3-bet].

“Namangan haqiqati” gazetasi sahifalaridagi maqolalarda nafaqat yengil sanoat korxonalari, balki viloyatdagi qurilish va binokorlik sanoatiga oid korxonalarda 1985–1986-yillarda mehnatkashlar uchun sog‘liqni saqlash va tiklashga doir o‘zgarishlar ham yoritib borilgan. Masalan, gazetaning 1986-yil 22-yanvardagi 14-sonida A.Yoqubov muallifligida e’lon qilingan “Mehnat kishisi – ardoqda” nomli maqolada Kosonsoy tumanida joylashgan beton zavodida ishchi-xizmatchilar sog‘lig‘ini saqlash masalasida amalga oshirilgan ijobiy o‘zgarishlar haqida to‘xtalingan. Maqolada berilgan ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu zavodda 1981–1983-yillarda ishchi-xizmatchilarni o‘z sog‘lig‘ini tiklash maqsadida dam olish uylari va sanatoriyalarga borishi uchun ajratilgan yo‘llanmalar soni oz miqdorni tashkil etgan, buning natijasida sog‘lig‘ida muammolar bor ko‘plab ishchilar dam olish uylari hamda sanatoriyalarda davolanish imkoniyatiga ega

bo‘lmagan. Qayta qurish yillarida mazkur zavodda mehnatkashlar sog‘lig‘ini saqlash va ularga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatish borasida bir qator ijobiy o‘zgarishlar yuz bergan.

Xususan, zavod ma’muriyati va mahalliy kasaba uyushma qo‘mitasi tashabbusi bilan ishchi-xizmatchilar uchun dam olish uylari hamda sanatoriyalar uchun ajratilayotgan yo‘llanmalar miqdori ko‘paytirilgan. Masalan, 1985–1986-yillarda zavodda mehnat qilayotgan ishchilar uchun dam olish uylari va sanatoriyalar uchun 37 ta, O‘zbekiston SSR hamda Sovet Ittifoqi bo‘ylab amalga oshiriladigan sayohatlar uchun esa 50ta yo‘llanma taqdim etilgan. Masalan, ushbu zavodda chilangar bo‘lib mehnat qilgan S.Sayidjalilov yo‘llanma bilan Yaltadagi “Yasnaya polyana” sanatoriyasida davolanib kelgan bo‘lsa, elektrik X.Uzoqov Ukraina SSRda, buldozerchi A.Hatamov esa Boltiqbo‘yi respublikalari bo‘ylab tashkil etilgan sayohatda qatnashgan. Bundan tashqari, zavod ma’muriyati tomonidan turar joyga ehtiyojmand ishchilardan 4 nafariga 1985-yilda ko‘p qavatli uylardan xonadonlar ajratilgan[2.3-bet].

“Namangan haqiqati” gazetasining 1986-yil sonlarida ham viloyatdagi yengil sanoat tarmog‘iga mansub korxonalarda mehnatkashlar uchun ish sharoitlarini takomillashtirish borasida joriy etilgan ijobiy tadbirlar haqida ham turkum maqolalar e’lon qilib borilgan. Masalan, ushbu gazetaning 1986-yildagi 24-sonida R.Akbaraliyev muallifligidagi “G‘amxo‘rlik tufayli” sarlavhali maqola e’lon qilingan. Ushbu maqolada viloyat markazida faoliyat olib borayotgan Namangan avrli shoyi gazlamalar kombinatida ishchi-xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash masalasida amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar haqida ma’lumotlar berilgan.

Maqolada keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, Namangan avrli shoyi gazlamalar kombinatida 1986-yil yanvarida 1010 nafar ishchiga mo‘ljallangan oshxona, bir vaqtning o‘zida 320 nafar bemorga tibbiy xizmat ko‘rsatish quvvatiga ega tibbiyot punkti, 100 o‘rinli sanatoriy-profilkatoriya faoliyat ko‘rsatgan. Shuningdek, kombinatning “Oromgoh” dam olish uyi ham mavjud bo‘lib, bu yerda kombinatning muhandis-texnik xodimlari va ishchi-xizmatchilari dam olish vaqtlarini mazmunli o‘tkazgan. Ushbu dam olish uyining umumiy maydoni 15 gektardan iborat bo‘lib, bu yerda kombinat mehnatkashlari hordiq chiqarishi uchun yuqori darajali sharoitlar tashkil etilishi bilan bir qatorda ular uchun turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar ham tashkil qilingan.

Maqolada shuningdek, kombinatning boshqaruv ma’muriyati va mahalliy kasaba uyushma qo‘mitasi tomonidan ishchi-xizmatchilarga 1985-yil davomida 758 dona sanatoriyalar va dam olish uylariga yo‘llanmalar taqdim etilganligi keltirilgan. Kombinatda mehnat qilayotgan ishchilarning asosiy qismini xotin-qizlar tashkil etganligi bois korxonada ayollar uchun mehnat qonunchiligida belgilangan barcha talablarga amal qilingan. Xususan, kombinatda ayollar uchun talab darajasida jihozlangan gigiyena xonasi faoliyat olib borgan. Shuningdek, yosh farzandi bor ayol ishchi-xizmatchilar uchun 5ta, jami 100 o‘rinli bolalar bog‘chasi faoliyat ko‘rsatgan. Kombinatda ishchi-xizmatchilarning sog‘lom turmush tarziga amal qilib o‘z sog‘lig‘ini mustahkamlash jarayonlariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Ushbu jarayonda kombinatda faoliyat olib borayogan ko‘ngilli sport klubining xizmatlari katta bo‘lgan. Mazkur sport klubida kombinat muhandis-texnik xodimlari va ishchi-xizmatchilardan 3100 nafari sportning turli yo‘nalishlari bilan shug‘ullangan. Mazkur maqolada Namangan avrli shoyi gazlamalar kombinatida ishchi-xizmatchilarning mehnat sharoitlarini yaxshilash jarayonida erishilayotgan yutuqlar bilan bir qatorda kombinatda mavjud bir qancha kamchiliklar ham bayon etilgan. Ana shunday kamchiliklardan biri kombinatda uy-joyga ehtiyoji mavjud ishchilarning ehtiyojlari to‘la qondirilmayotganligi va kombinatning transport bo‘limidagi ishchilarga transport xizmatini ko‘rsatadigan avtobuslarni ma’nan eskirganligi hamda yangilari bilan almashtirilmayotganligi bo‘lgan[3.3-bet].

Keyingi yillarda ham Namangan viloyatida nashr etilayotgan matbuot nashrlarida sanoat ishchilarining mehnat sharoitlarini yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar to‘g‘risida maqolalar e’lon qilinib borilgan. Masalan, “Namangan haqiqati” gazetasining 1988-yil 3-fevraldagi 24-sonida e’lon qilingan “Insonga g‘amxo‘rlik – muhim omil” nomli maqolada viloyatdagi sanoat korxonalari ishchi-xizmatchilari uchun haftaning shanba-yakshanba kunlari tashkil etilgan dam olish tadbirlari haqida ma’lumotlar

berilgan. Ushbu maqolada berilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1988-yil yanvar-fevral oylarida Namangan shahrida faoliyat olib borayotgan sanoat korxonalari mehnatkashlari Yangiqo'rg'on tumanidagi "Ko'ksaroy" dam olish maskaniga hordiq chiqarish uchun tashrif buyurgan. Ushbu dam olish maskaniga kelayotgan ishchi-xizmatchilar uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Xususan, dam oluvchilar uchun velosiped va chang'ilar ijarasi joriy etilgan. Bundan tashqari, bu yerdagi oshxonada dam oluvchilar uchun mazali taomlar tayyorlab berilgan. Ushbu dam oish uyiga tashrif buyurgan Namangan noto'qima matolar ishlab chiqarish birlashmasi sex boshlig'i X.Usmonovning bergan ma'lumotlariga ko'ra, ushbu korxona ma'muriyati va mahalliy kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan ishchi-xizmatchilar uchun sayohatlar, sog'lig'ini tiklash uchun sanatoriya hamda kurortlarga yo'llanmalar taqdim etib kelingan. Korxona vakili bergan ma'lumotlarga ko'ra, Namangan noto'qima matolar ishlab chiqarish birlashmasi ishchi-xizmatchilari 1987-yil davomida Toshkent va Samarqand shaharlari, shuningdek, Leninobod (hozirda Tojikiston Respublikasining So'g'd viloyati), Arslonbob hududlari (hozirgi Qirg'iziston Respublikasi Jalolobod viloyati)ga sayohatga olib borilgan[4.3-bet].

XULOSA. Ushbu maqolada XX asrning 80-yillari oxirida Namangan viloyatidagi yengil sanoat korxonalarida ishchilarning mehnat muhofazasi masalalari o'rganildi. Tadqiqot davomida viloyatda o'rganilgan davrda nashr qilinga "Namangan haqiqati" gazetasi sahifalarida e'lon qilingan maqolalar asosida ishchi-xizmatchilarning sog'lig'ini tiklash, dam olish uylari va sanatoriyalarga yuborish, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilashga oid ma'lumotlar tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, qayta qurish yillarida Namangan viloyati sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi masalasida ayrim ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. Sanoat korxonalarida mehnat sharoitlari nisbatan yaxshilangan, korxonalarda ishchilar uchun sanatoriya-profilkatoriyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan, dam olish maskanlari ishchilar ixtiyoriga berilgan.

Shu bilan bir qatorda vaqtli matbuotda e'lon qilingan materiallar asosida bu davrda viloyatdagi sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi masalasida bir qator muammolar mavjud bo'lganligi ham ma'lum bo'ldi. Jumaladan, ushbu maqolalarda viloyatdagi ayrim yengil sanoat korxonalarida ishchilarni uy-joy bilan ta'minlash tadbirlari va ishchilarni tashishda transport bilan ta'minlash yetarli darajada bo'lmaganligim, transport vositalarini talabga javob bermaslik holatlari ham yoritilgan.

Maqolada ilgari surilgan natijalar quyidagi ilmiy va amaliy xulosalarga olib keladi:

1.Ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqotda Sovet davri sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi muammolarini aks ettiruvchi mahalliy matbuot materiallari tahlil qilinib tarix fanida kam o'rganilgan manba "Namangan haqiqati" gazetasining 1985-1988-yillarda nashr qilingan sonlari ilk bor ilmiy muomalaga kiritilgan.

2.Amaliy ahamiyatiga ko'ra, maqolada o'rganilgan tarixiy tajriba bugungi kunda O'zbekiston Respublikasidagi sanoat korxonalarida mehnat muhofazasi tizimini takomillashtirish, ishchi-xizmatchilar salomatligini muhofaza qilish, ularning ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishda qo'shimcha manba sifatida xizmat qilishi mumkin.

Umuman olganda, maqoladan olingan ilmiy natijalar O'zbekistonda mehnat muihofazasi tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, mehnat sharoitlarini yaxshilash bo'yicha olib borilayotgan zamonaviy islohotlarning tarixiy ildizlarini anglashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Sulaymonov. O'zaro tajriba almashdilar. //Namangan haqiqati gazetasi. 15.01.1985-y. 9-son. 3-bet.
2. A.Yoqubov. Mehnat kishisi ardoqda. //Namangan haqiqati gazetasi. 22.01.1986-y.14-son.3-bet.
3. R.Akbaraliyev. G'amho'rlik tufayli. //Namangan haqiqati gazetasi. 5.02.1986-y. 24-son. 3-bet.
4 Insonga g'amho'rlik – muhim omil. //Namangan haqiqati gazetasi. 3.02.1988-y. 24-son. 3-bet.

Qabul qilindi: 05.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 82.09

НАЦИОНАЛЬНЫЕ И УНИВЕРСАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ В ДЕТСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ КОРНЕЯ ЧУКОВСКОГО И ХУДОЙБЕРДИ ТУХТАБОЕВА

Мурадова Хуршида Бахтиёровна, преподаватель кафедры иностранных языков университета “Турон”

KORNEY CHUKOVSKIY VA XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV BOLALAR ADABIYOTIDA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR

Muradova Xurshida Baxtiyorovna, ***Toshkent “Turon” universiteti xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi***

NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN CHILDREN’S LITERATURE OF KORNEY CHUKOVSKY AND KHUDOYBERDI TUKHTABOYEV

Muradova Khurshida Bakhtiyorovna, ***Lecturer, Department of Foreign Languages, Turon University***

https://orcid.org/0009-0007-5566-8525
e-mail: xurshidamuradova1977@gmail.com

Аннотация: *В статье проводится сравнительный анализ произведений Корнея Чуковского и Худойберди Тухтабоева. Рассматриваются национальные и универсальные ценности, отражённые в их детской литературе, а также педагогический потенциал их творчества.*

Ключевые слова: *детская литература, национальные ценности, универсализм, гуманизм, воспитание, фантазия, фольклор, сопоставление.*

Annotatsiya: Maqolada Korney Chukovskiy va Xudoyberdi To‘xtaboyev asarlari qiyosiy tahlil qilinadi. Bolalar adabiyotida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, ularning tarbiyaviy ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: *bolalar adabiyoti, milliy qadriyatlar, umuminsoniylik, gumanizm, tarbiya, fantaziya, folklor, taqqoslash.*

Abstract: The article presents a comparative study of Korney Chukovsky and Khudoyberdi Tukhtaboyev’s works, focusing on national and universal values, humanism, and the educational function of children’s literature.

Keywords: *children’s literature, national values, universalism, humanism, education, imagination, folklore, comparison.*

ВВЕДЕНИЕ. Детская литература – это зеркало культуры, через которое ребёнок впервые осознаёт мир ценностей и идеалов. Как отмечал К.И.Чуковский, *«литература для детей должна быть не проповедью, а праздником духа»* (10,с.15). Творчество Корнея Чуковского и Худойберди Тухтабоева – пример того, как национальная художественная традиция может стать носителем универсального гуманистического смысла.

Несмотря на различие культурных кодов, оба писателя создают мир, в котором ребёнок учится различать добро и зло, дружбу и предательство, истину и ложь. Их произведения формируют эмоциональный интеллект ребёнка, приучая к состраданию и ответственности.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ. Исследование основано на **сравнительно-типологическом подходе**, который позволяет выявить общие и специфические черты художественного мира Корнея Чуковского и

Худойберди Тухтабоева. Сопоставление их произведений помогает определить, как национальные элементы соединяются с универсальными гуманистическими идеалами.

Материалом исследования послужили произведения, наиболее ярко отражающие мировоззренческие установки таких авторов, как К.Чуковский – *«Муха-Цокотуха»*, *«Айболит»*, *«Федорино горе»* (10) и Х.Тухтабоева – *«Sariq devni minib» («На жёлтом дэве»)*, *«Sehrli qalpoqcha» («Волшебная шапочка»)*, *«Ajabo qovoq»* (*«Удивительная тыква»)* (7,8). Применены три основных метода анализа: к**ультурологический анализ** – для выявления национальных мотивов и символики (4, с. 64); л**итературоведческий анализ** – для исследования жанровой специфики, композиции и художественных приёмов; п**едагогический подход** – для определения воспитательного потенциала образов и сюжетов (9, с. 47). Использование данных методов позволило комплексно рассмотреть произведения Чуковского и Тухтабоева как явления национальной и мировой детской литературы, где в гармонии сосуществуют культурная самобытность и общечеловеческие ценности.

ОБСУЖДЕНИЕ. Мир Чуковского – это пространство сказочной логики, где добро всегда торжествует, а зло обличается через смех. В *«Айболите»* врач помогает животным не ради выгоды, а из внутреннего нравственного побуждения: *«Он добрый доктор Айболит, он под деревом сидит…»* (10, с.57). Этот образ воплощает идею врачевания не только тела, но и души, которая имеет универсальное значение – сострадание и альтруизм как основа человеческой природы. В *«Федорино горе»* героиня постигает значение труда и порядка: *«Бежит, бежит посуда по полям, по лугам...»* (там же, с.102). Через комическую ситуацию писатель воспитывает в ребёнке чувство ответственности и уважения к вещам – ценности, которые объединяют эстетику и этику.

Худойберди Тухтабоев в повести *«Sariq devni minib»* создаёт восточную модель нравственного становления ребёнка. Главный герой Камол не боится фантастических существ, потому что движим добром и верой в справедливость. *«Yaxshilik qilgan odam hech qachon yolg'iz qolmaydi»* ("Тот, кто делает добро, никогда не останется один") – утверждает автор (7,с.48). В отличие от рационально-ироничного Чуковского, Тухтабоев опирается на притчевую традицию Востока, соединяя реализм и волшебство. Его сказки напоминают народные масалы – короткие поучительные истории, где фантастика служит раскрытию нравственного конфликта. В обоих художественных мирах дети становятся носителями истины. Как писал В.Пропп, *«в сказке герой не просто побеждает зло — он восстанавливает нарушенную гармонию мира»*(6,p.79). И Чуковский, и Тухтабоев стремятся именно к восстановлению гармонии — между человеком и природой, ребёнком и обществом, национальной традицией и универсальной моралью.

РЕЗУЛЬТАТЫ. Проведённый сравнительный анализ позволил выявить устойчивые закономерности, отражающие как общечеловеческие, так и национально-специфические аспекты художественного мира Корнея Чуковского и Худойберди Тухтабоева.

1. Универсальные ценности как основа мировоззрения. Центральное место в системе идей обоих писателей занимают универсальные категории – любовь, сострадание, труд и дружба, формирующие нравственный фундамент их произведений. У Чуковского эти ценности выражаются в контексте европейской гуманистической традиции, где добро побеждает зло через деятельное участие, взаимопомощь и оптимизм. Его персонажи действуют не из страха, а из чувства внутренней доброты и веры в справедливость. У Тухтабоева та же гуманистическая идея воплощается через духовно-нравственные категории восточной педагогики – духовность, где внутреннее очищение, честность и уважение к старшим являются главными критериями человеческой зрелости (4,с.64).

2. Национальный компонент как форма поэтического выражения. Национальная специфика каждого автора проявляется прежде всего в поэтике и стилистике. У Чуковского – это игра звуков и ритмов, повтор, гипербола и комизм, делающие текст легко запоминающимся и музыкально окрашенным. Например: *"Бармалей, Бармалей, Бармалей страшный злодей!"* (Чуковский,1983,т.2,с.41). У

Тухтабоева – фольклорная образность, афористичность и притчевая форма, отражающие народное мировоззрение. Его изречение *“Inson qalbining pokligi uning eng katta boyligidir”* (“Чистота человеческого сердца — его величайшее богатство”) (8,с.61) передаёт дух восточной мудрости и внутренней гармонии.

3. Эмоциональная педагогика и воспитание через чувства. Оба писателя используют эмоции как средство формирования нравственного опыта ребёнка. Чуковский воспитывает через смех, ритм и абсурд, превращая сказку в игру, а Тухтабоев — через сопереживание и моральное осмысление поступков героев. Такая «эмоциональная педагогика» (по определению 9,с.47) способствует развитию эмпатии, чувства справедливости и эстетического вкуса.

4. Фантазия как инструмент познания внутреннего мира. В обоих художественных мирах воображение выполняет не только развлекательную, но и психологическую функцию — помогает ребёнку осознать себя, преодолеть страх и научиться различать добро и зло. Как отмечал М.Бахтин, *«смех освобождает человека от страха и делает его человечнее»* (2,с.284). Именно поэтому элементы комического у Чуковского и Тухтабоева выполняют роль духовного очищения и внутреннего освобождения.

Shuningdek, L.V.Shcherba, V.V.Vinogradov, va G.A.Zolotova kabi olimlarning tadqiqotlarida til birliklari, xususan, paronimlar chuqur tahlil qilingan. Ular paronimlarni fonetik va morfologik o‘xshashliklari, semantik differensiatsiyasi, hamda til funksiyalaridagi o‘ziga xos o‘rniga ko‘ra tasniflashga harakat qilishgan. L.V.Shcherba paronimlar fenomenini til birliklarining shakl va ma’no o‘ziga xosliklari nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilgan. U fonetik jihatdan o‘xshash so‘zlarning kontekstga bog‘liqligini va ularning semantik farqlarini o‘rganishni til madaniyatining muhim qismi deb bilgan. G.A.Zolotova paronimlarni morfologik va fonetik o‘xshashlik, shuningdek, semantik farq jihatidan sinflarga ajratishga harakat qilib, ularning nutqdagi o‘rni va lingvistik vazifalarini tahlil qilgan. V.V.Vinogradov rus va nemis tillaridagi paronimlarni keng o‘rganib, ularning til funksiyalaridagi o‘rni va nutqda yuzaga keladigan chalkashliklarga e’tibor bergan[6;6-13]. U paronimlarni nutqdagi xatoliklarning asosiy sababi deb hisoblagan. Uning qarashicha, paronimlarning fonetik jihatdan o‘xshashligi, biroq ma’nosi farqli bo‘lishi nutqda so‘zlarni noto‘g‘ri ishlatishga olib kelishi mumkin. Misol uchun, rus tilida “адресат” (qabul qiluvchi) va “адресант” (yuboruvchi) paronim so‘zlar hisoblanadi, ular noto‘g‘ri ishlatilganda ma’noda tushunmovchilik yuzaga keladi. Ushbu olimlarning tadqiqotlari paronimlarni tilshunoslikda alohida mustaqil birlik sifatida o‘rganish va ularni nutq madaniyatida to‘g‘ri ishlatishni ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Ularning yondashuvi paronimlarning shakl va ma’no jihatlarini birgalikda ko‘rib, nutqdagi chalkashliklarni kamaytirish uchun asos yaratadi.

O‘z navbatida, olmon tilshunosligida ham paronimlar muhim lingvistik hodisa sifatida tahlilga tortilgan. Paronimlar nemis tilida, ayniqsa, XX asrda keng o‘rganila boshlangan bo‘lib, tilning semantik va pragmatik xususiyatlari bilan bog‘liq tadqiqotlar olib borilgan. K.G.M.Gotlib (1972) nemis va rus tillaridagi ifoda planiga ko‘ra o‘xshash, lekin mazmun jihatidan turlicha bo‘lgan so‘zlarni “Tarjimonning soxta do‘stlari” (“Ложные друзья переводчика”) deb atashni taklif qiladi. Biroq,

ushbu termin talaffuzi o‘xshash, ma’nosi turlicha bo‘lgan so‘zlarni tadqiq qilishda ham, tarjimada nazariy va amaliy nuqtayi nazardan ham, ma’qul ko‘rilmadi. U rus va nemis tillaridagi talaffuz va shakl jihatidan o‘xshash, lekin lingvistik ma’noda farq qiluvchi so‘zlarni ko‘rib chiqadi va “tillararo analogizmlar” (“междуязычные аналогизмы”) terminini qo‘llashni maqbul deb hisobladi. Bu termin so‘zlarning tashqi shakl jihatidan o‘xshashligini ko‘rsatadi, ammo mazmun asimmetriyasini (farqliligini) ta’kidlaydi. Gotlibning fikriga ko‘ra, “tillararo analogizmlar” (“междуязычные аналогизмы”) termini aniqroq va ma’noda farq qiladigan so‘zlarni ifodalash uchun to‘g‘riroqdir. Keyinchalik, Wolfgang Müller o‘zining “Leicht verwechselbare Wörter” (1973) nomli asarida paronimlar haqida batafsil to‘xtalib o‘tgan[4;334]. “Paronimlar talaffuzi yoki yozilishi juda o‘xshash bo‘lgan, ammo ma’nosi turlicha so‘zlardir. Ular tilning murakkab va ko‘p qirrali fenomeni bo‘lib, ko‘pincha nutqda chalkashlikka sabab bo‘ladi. Lingvistik nuqtayi nazardan, paronimlar omonim, sinonim, antonim kabi til birliklaridan aniq ajratib ko‘rsatilishi kerak, chunki ular o‘ziga xos xususiyatlarga ega”.

Müller paronimlarni 3ta katta guruhga ajratgan hamda fonetik va morfologik o‘xshashlik asosida, ularning semantik farqlari bilan birga tahlil qilgan. U paronimlarning nutqdagi noto‘g‘ri qo‘llanilishiga e’tibor qaratib, bunday xatolarni kamaytirish uchun til madaniyatini oshirish zarurligini ta’kidlab o‘tgan. Tadqiqotlar orasida Petra Storjohann Germancaning paronimlarga oid amalga oshirgan ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. U paronimlarning ma’no o‘zgarishi, masalan, korpus tadqiqotlari orqali hamda ularning lug‘atshunoslikdagi roli borasida tahlillar qilgan. U paronimlarga shunday ta’rif beradi: “Morfologik ildizlari bir-biriga bog‘liq va ma’nosi jihatdan o‘xshash leksik ifodalar paronimlar sanaladi va effektif/effizient/effektvoll, scheinbar/anscheinend va formal/formell kabilar bunga misol bo‘ladi” [5;401-418].

Petra Storjohanning ta’kidlashicha, paronimlar yuqori darajada polisemantiklikka ega bo‘lib, ularning nutq va matndagi qo‘llanilishi kontekstga bog‘liqdir. U paronimlar o‘rtasidagi nozik semantik farqlarni aniqlashda korpus lingvistikasi usullarining samaradorligini alohida ta’kidlaydi. Storjohanning tadqiqotlarida paronimlarning murakkab tabiati tilshunoslikda yirik ilmiy izlanish predmeti sifatida tilga olingan, chunki ular shakl va ma’no jihatidan yaqin bo‘lganligi tufayli nutqda chalkashliklarni keltirib chiqaradi. Ioan Lazarescu esa tarjima va romanistika kontekstida paronimlarga oid bir qancha tadqiqotlar qilib, ularni tasniflash bo‘yicha ilmiy ishlarni amalga oshirgan. I.Lazarescu o‘z ishlarida korpus semantikasining afzalliklariga e’tibor qaratadi. Uning fikricha, paronimlarning fonetik va morfologik o‘xshashliklari ularning semantik farqlarini qamrab olishda qiyinchiliklar tug‘diradi. Korpus metodlari esa bu farqlarni aniqlash, paronimlarning tilda qanday ishlatilishini chuqur anglash imkonini yaratadi. I.Lazarescu paronimlarni til ichidagi ma’no o‘zgarishi va funksional o‘rni nuqtayi nazaridan o‘rganishni taklif qilgan, bu esa ularning yanada aniqroq tasniflanishi va amaliy lingvistikada qo‘llanilishiga xizmat qiladi.

P.Shtoryohan va I.Lazarescu zamonaviy paronimlar tadqiqotida muhim shaxslardir va hozirgi kunda ular tomonidan paronimlar fenomeni, ayniqsa, ma’no o‘zgarishi va korpus semantikasi doirasida faol o‘rganilmoqda. O‘zbek tilshunosligida paronimlar xususidagi dastlabki fikrlar Y.D.Pinxasov tomonidan berilgan. Tilning leksikologiya, frazeologiya va lingvodidaktika sohalarida ilmiy ishlar olib borgan tilshunos Pinxasov o‘z tadqiqotlarida o‘zbek tilshunosligidagi paronimlar va boshqa leksik hodisalarni chuqur o‘rganishga e’tibor qaratgan. U paronimlarni til birligi sifatida o‘rganishda ularning fonetik va leksik xususiyatlarini, shuningdek, tarjima va til o‘rgatishda yuzaga keladigan muammolarni ko‘rib chiqqan. Uning ishlari o‘zbek tilining zamonaviy adabiy tili leksikologiyasini rivojlantirishga xizmat qilgan.

M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili leksikologiyasi” asarida paronimlar so‘z shaklida bir-biriga o‘xshash, ammo ma’nosi va leksik tarkibi jihatidan farq qiluvchi so‘zlar sifatida qaraladi. Ular o‘zaro fonetik jihatdan yaqin va talaffuzi o‘xshash

bo‘lishi mumkin, ammo semantik jihatdan aniq farq qiladi. Mirtojiyev paronimlarni o‘zaro leksik-semantik munosabatda bo‘lgan leksik birliklar deb hisoblaydi, ularning ma’nolari kontekst yordamida aniqlanadi. Shuningdek, muallif o‘zbek tilida paronimlar nafaqat bir xil o‘zakka ega so‘zlar, balki turli o‘zakka ega, ammo talaffuz jihatdan o‘xshash so‘zlar ham paronim deb hisoblanishini bildiradi. Bundan tashqari, A.Ma’rufovning 1974-yilda nashr etilgan 240ta paronimik juftlikni qamrab olgan “Paronimlar lug‘ati” o‘zbek tili tarkibidagi paronimlarni o‘rganish uchun nazariy va amaliy asos yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Jahon tilshunosligida paronimlar nazariy jihatdan keng ilmiy asoslangan, tilshunoslikning fonetika, morfologiya, leksikologiya va semantika sohalarini o‘z ichiga olgan kompleks tadqiqot yo‘nalishidir. Paronimlar tilning leksik tizimida o‘ziga xos pozitsiyaga ega bo‘lib, fonetik yaqinlik va semantik farqlik o‘rtasidagi nozik chegara sifatida tadqiq etiladi. Paronimlar tabiatini to‘laqonli ochib berish maqsadida tilshunos olimlar ularni boshqa til hodisalari – omonimiya, sinonimiya, polisemiya kabilar bilan ham aloqasini o‘rganishgan. Paronimlar ikonografik va grafik jihatdan har doim ham to‘liq mos kelmasligi mumkin, bu esa ularning til tizimidagi murakkab o‘rnini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Umuman, tilshunoslikda paronimlarning nazariy tadqiqi til birliklarining shakli va ma’no munosabatlarini chuqur o‘rganishga, ularning nutq madaniyati doirasida to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlashga qaratilgan. Bu tadqiqotlar nutqdagi chalkashliklarni kamaytirish, tilning funksional tizimini yaxshilash hamda lug‘atshunoslik va til o‘qitishda samarali yondashuvlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad — paronimlarni nafaqat tilshunoslik nazariyasida, balki amaliy lingvistikada ham chuqur va tizimli tahlil qilish, ularning pedagogika, tarjima va kompyuter lingvistikasi sohalarida qo‘llanilishiga yo‘l ochishdir. Shu tarzda, paronimlarning shakl va ma’no o‘xshashliklari hamda farqlari aniqlanib, tilning aniqligiga xizmat qiluvchi fundamental birliklar sifatida o‘rganiladi.-

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Paronimlarning nazariy tadqiqi tilshunoslikda so‘z birligi va uning mazmunini chuqur anglash, tilning funksional tizimini yaxshilash imkonini beradi. Paronimlarning shakli va ma’nosi o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlarni to‘g‘ri aniqlash tilning izchil rivojlanishiga, nutq va yozuvda aniqlikni ta’minlashga xizmat qiladi. Jahon tilshunos olimlari paronimlarni til birliklari tizimida mustaqil fenomen sifatida ko‘rib, ularni fonetik o‘xshashlik bilan birga semantik farqlariga asoslanib tahlil qilishga ahamiyat berishgan. Paronimik birliklarni paradigmatik nuqtayi nazardan tahlil qilib, ularning nutqdagi funksional roli, uslubiy didaktik jihatlarini ko‘rsatib berishga harakat qilishgan. Bu sohadagi izlanishlar tilshunoslik, uslubshunoslik va leksikografiya fanlari uchun o‘zaro uzviy bog‘lanishini ta’minlab, ma’naviy va madaniy merosni saqlashga hissa qo‘shadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
2. Jamolxonov H.A. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Nizomiy nomli TDPU bosmaxonasi, 2004.
3. Jamolxonov H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005.
4. Müller W. Leicht verwechselbare Wörter. Mannheim: Bibliographisches Institut (=DudenTaschenbücher 17).Dudenverlag, 1973.
5. Petra Storjohann. Korpuslinguistische und lexikografische Ansätze zur Beschreibung deutscher Paronyme. – Mannheim, 2013.
6. Виноградов В.В. История русского литературного языка. – М., 1959.
7. Вишнякова О.В. Паронимы в русском языке. (Учебное пособие для пединст. по спец. Русский язык и литература). – М.: Высшая школа, 1974.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 821.512.133

НАВОИЙ ТАЛҚИНИДА РЕАЛИЗМ МАСАЛАСИ

Бобожонов Ғулом, Янги аср университети "Шарқ филологияси" кафедраси доценти, филология фанлари бўйича фалсафа доктори

THE ISSUE OF REALISM IN NAVOI'S THEORY

Bobozhonov Gulom, Associate Professor of the Department of "Oriental Philology" of Yangi Asr University, Doctor of Philosophy in Philological Sciences

ПРОБЛЕМА РЕАЛИЗМА В ТРАКТОВКЕ НАВОИ

Бобожонов Гулом, доцент кафедры "Восточная филология" университета Янги Аср, доктор философии по филологическим наукам

https://orcid.org/0000-0001-6527-9784
e-mail: gbobojonov34@gmail.com

Аннотация: *Мақолада бадиий адабиётнинг энг йирик ўзига хос хусусиятларидан бири – воқеликни бадиий акс эттириш масаласидаги айрим баҳсталаб жиҳатлар таҳлилга тортилади. Воқелик, хабар етказувчи ва хабар орасидаги узвийликни тўла таъминлашда шарқ мумтоз адабиётида қандай назарий тамойилларга таянилганига эътибор қаратилади. Шунингдек, бундай вазиятда Алишер Навоий ҳазратларининг қандай йўл тутганлари бир байт воситасида илмий мушоҳада қилинади. Натижада, бадиий асарни идрок этишда, унинг матни ёки муаллифи борасида хулоса чиқаришда соф илмий-назарий асослар етакчилик қилиши таъкидланади.*

Калит сўзлар: *олий реализм, сидқ, мухотоб, айнул ҳаёт, мажоз, ҳақиқат.*

Abstract: *This article explores certain debatable aspects of one of the most distinctive features of fiction — the artistic representation of reality. Special attention is given to the theoretical principles underlying classical Eastern literature in ensuring the organic connection between reality, the narrator, and the recipient. The study also analyzes how Alisher Navoi approached this issue, using the interpretation of a single bayt as a case study. As a result, the paper emphasizes the importance of a strictly scientific and theoretical framework in perceiving a literary work and in drawing conclusions about its text or author.*

Keywords: *supreme realism, sincerity, addressee, living truth, figurative language, truth.*

Аннотация: *В статье рассматриваются отдельные дискуссионные аспекты одной из важнейших и специфических черт художественной литературы — художественного отражения действительности. Особое внимание уделяется тому, на каких теоретических принципах основывалась классическая восточная литература при обеспечении органической связи между реальностью, автором (передающим содержание) и адресатом. Также исследуется, каким образом к данной проблеме подходил Алишер Навои, на примере анализа одного байта. В заключение подчёркивается значимость строго научно-теоретического подхода при восприятии художественного произведения и формулировании выводов о его тексте или авторе.*

Ключевые слова: *высший реализм, искренность, адресат, живая истина, троп, истина.*

КИРИШ. Бадиий матнни идрок этиш бир қанча мураккаб жараёнларни ўз ичига олиши билан аҳамиятлидир. Матн қатларига муаллифнинг катта илмий-ижодий тафаккури маҳсули сифатида сингдирилган маъноларни кашф қилиш асносида муаллиф нуқтаи назарига етиб бориш ҳам катта масъулият талаб қилади. Баъзан поэтик матнни шунчаки – мукҳазои зоҳирга кўра, тушуниш муаллиф мақсадини том маънода ифодалаб беролмаслиги мумкин.

Бадиий асарда муаллиф ўз мақсадини ўқувчига етказиш асносида қандай йўл тутиши алоҳида аҳамиятга эга. Унда фикрни тўғридан-тўғри тақдим этиш ёки бошқа муқобил воситалардан фойдаланган ҳолда ифодалаш имкони мавжуд. Фикрни тўғридан-тўғри етказиш – реал воқеликни бадиий асарда ифода этиш масаласида унча катта тафовут кузатилмайди. Аммо муқобил воситалар борасида айрим мулоҳазалар борки, бу бадиий ижод моҳиятини идрок этишда муҳим ўрин тутади [Қазвиний,2020,114].

Бадиий асар хусусида фикр юритиш, унинг назарий асослари, меъёр ва мезонлари, доимий такрорланиб турувчи ўзгармас қонуниятларини белгилашда биз ҳамиша барча масалаларга ҳаққоний жавоб ва оқилона ечим топишимизга имкон берувчи бадиий матнларга таянишга эҳтиёж сезамиз. Бугунгача яратилган жаҳон адабиётининг нодир намуналари саналган кўплаб асарлар ўша эҳтиёжимизни бутлашга хизмат қилади. Бундай асарлар сирасида, ҳеч шак-шубҳасиз, Алишер Навоий асарлари етакчилик қилади [Жўракулов,2015,145]. Навоий ижодини ўрганиш орқали адабиётшунослик илмида ечимини кутаётган бир қанча назарий масалаларга асосли жавоб топиш иложи юзага келади. Шулардан бири – узоқ даврлардан бери илмий тадқиқ этилиб келинаётган долзарб муаммо – Навоийнинг бадиий ижодда воқеликни ифода этиш йўли хусусида мулоҳаза юритишга эҳтиёж сезилади.

ТАҲЛИЛ ВА МУҲОКАМАЛАР. Навоийнинг ижодий методи нимага асосланишини жиддий тадқиқ этган устоз навоийшунослар бу улкан меросни романтизм маҳсули деб талқин қилишга кўпроқ мойил экани кўринади [Маллаев,1974,90]. Навоий ижодида учрайдиган дев, аждар, жинлар, фаришталар, тўққиз осмон, инсоннинг коинотга сафари, қаҳрамонларга юклатилган фавқулодда хусусиятлар талқинида тахайюлий фикр сиёғи – романтизмни кўришган бўлиши эҳтимолдан холи эмас. Бу каби ёндашув нафақат Навоий, балки унгача яшаб ўтган Шарқ мумтоз адабиёти намояндаларида ҳам кўп кузатилади. Шарқ – Ислом илм-фани муаллиф матнида акс этаётган ҳар бир хабарнинг воқеликка мувофиқ бўлиши заруратини тақозо этади [Саккокий, 2006, 151]. Воқеликка мувофиқлик «сидқ» тушунчаси билан ифода этилади ҳамда ҳаётда ҳам, бадиий ижодда ҳам инсоннинг барча ўй-фикри, сўзи, феъли, хатти-ҳаракатлари тўғриликка уйғун бўлиши бош омил сифатида қаралади. Бундай қараш асрлар давомида инсон умрининг моҳиятини ташкил этувчи омиллардан бири ва бирламчиси сифатида қабул қилинган. Ҳазрат Навоийнинг *«Улки шиор айлади ёлғон демак, / Бўлмас ани эру мусулмон демак»; «Неча зарурат аро қолғон чоғи, / Чин демас эрсанг, дема ёлғон доғи», «Сўзда, Навоий, не десанг чин дегил, / Рост наво нағмаға таҳсин дегил»* [Навоий,1970] каби байтларида айни шу мустаҳкам назарий ва амалий таомил ўз ифодасини топганининг гувоҳи бўлиш мумкин.

Жаҳон адабиётининг бир қанча вакиллари «бадиий ижод воқеликдаги ҳар бир ҳодисани худди ўзидек қилиб бадиий асарда акс эттириш» тарзида қабул қилишгани кузатилади [Quronov,2018]. Шунга кўра, бундай асарларда муҳим-номуҳим, керакли-кераксизни саралаш-ажратиш, ўз навбатида умумэътироф этилган этик ва эстетик меъёрларга мувофиқлигига эътибор қаратиш каби тамойиллар учрамайди. Бундай ижодкорлар *«Хирадманд чин сўздин ўзгани демас»* мисрасидаги маънони ўз идрокича мустаҳкам тутадиганлардир. Бу қабилдаги асарлар – гарчи жаҳон адабиётида юқори нуфузга эга бўлса-да, адабиётнинг асл мезонлари билан ўлчанганда етуклик мартабасини забт эта олмаслиги мумкин. Боиси, уларда юқоридаги байтнинг иккинчи мисрасида кўзда тутилган меъёр инобатга олинмаганидир. Мана ўша мисра: *«Вале бари чин ҳам дегулик эмас»* [Навоий,2019,38].

Айни сабабга кўра, бадиий асарларда воқеликнинг зарарли қиёфаси – инсон онг-

тафаккури, қалби, ҳаёти учун хавфли оқибатлар келтириб чиқарадиган хусусиятлар юзага келган. Шарқ мумтоз адабиётида бадиий асар инсоннинг ҳамиша юксакликка интилишига сабаб бўлиши, дунёқарашининг кенгайиши, хулқининг такомил топиши, борлиқдаги буюк ҳақиқатлар моҳиятини англашга кўмаклашиши, қалбидаги нафис туйғулар ва сезимларига заҳа етказмасдан парвариш этишга хизмат қилиши зарурлигини кўзда тутади. Бадиий асар ўз-ўзини ислоҳ қилиш воситасида руҳий-маънавий юксакликларга эришиш йўлидаги бир омил сифатида кўрилади. Табиийки, бундай юксак мақсадга ёлғон, уйдирма, тўқима каби бир қадар қуйи воситалар билан етиб бўлмайди. Шунинг учун ҳар турли ёлғонлардан холи ҳаёт ва ижод уйғунлиги мумтоз асарлар етуклигининг асл мезонларидан деб қаралади.

Ростлик ҳақидаги илмий-назарий қараш мустаҳкам ва қатъий асосларга эга бўлган ҳаётий зарурат эканини асрлар давомида қайта-қайта исбот қилиб келди. Ҳозир бу инкор қилиб бўлмас даражага етди. Шарқ мумтоз адабиётининг баъзи бир мураккаб англамлари қаршисида баъзан чорасиз қолган мардум кичик қайиқ билан уммон ўтасида қолган киши каби ҳолатга тушади.

Шундай ўринлардан бири Навоий ижодида келтирилган Қуёшнинг бутун коинотдан йўқ бўлиши ҳодисасидир. Тасаввур қилингки, коинотда Қуёш йўқ ва бутун борлиқ зим-зиё. Бундай пайтда нимани кўриш мумкин? Ҳақиқатни қаердан қидириш, қандай идрок этиш маъқул? Албатта, бу каби мураккаб масалага ҳар бир инсон ўзича жавоб топиши анча мушкул. Бизда эса, ҳазрат Навоийнинг бу муаммога қандай ёндашгани ва қай ҳолда ечим топганини кузатиш имкони бор.

Қуёшнинг йўқолиши ҳақидаги масала «Хамса»нинг илк достони «Ҳайратул аброр»нинг ўн биринчи бобидан ўрин олган [Навоий, 1970]. Навоий асарларида поэтик ифода ва тасвир этилган айрим воқеликлар инсон тафаккури сарҳадларидан анча олисдаги ҳодисалардир. Уларни ўқувчига қай тарзда ва қандай яқинлаштириш масаласида муаллифнинг катта бадиий маҳорати ҳамда ўзига хос поэтик салоҳияти кўзга ташланади. Мазкур асарда китобхон учун фавқулодда янгилик бўлмаган, баъзан анъанада мавжуд бўлган бир қанча ўринлар борки, уларнинг ифода ва тасвир йўсинида муаллиф албатта янги, фавқулодда ва ўзига хос йўл тутгани кузатилади. Айниқса, достоннинг энг мураккаб боблари бўлган меърож ва катми адам тасвирида мазкур жиҳат янада яққолроқ акс этганини кузатиш мумкин.

«Ҳайратул аброр»да асосий мухотоб (нутқ қаратилган шахс) – асар воқелигида тириклик сафарига чиққан аброр-одамга мувозий равишдаги инсон – ўқувчидир. Унинг инсонлигини таъмин этувчи бош омил муаллиф нуқтаи назарига кўра шундай ифода этилади: *«Кимки жаҳон аҳлида инсон эрур, / Билки, нишоне анга иймон эрур»* [Навоий,1970]. Муаллифнинг асар ўқувчиси ҳақидаги қараши шу билан чекланмайди. Мазкур инсон достонда ўртага қўйилган асосий масалалар, хусусан, кириш қисми ва мақолотлардаги муаммолар юзасидан тизимли равишда таълим олган, етарли даражада маълумот ва илмга эга бўлган инсондир. Шунингдек, у матннинг поэтик қонуниятларидан хабардор бўлиши ҳам муҳим эътиборга эга. Бунинг устига муаллиф матнини идрок этиш ўқувчининг бир неча фан соҳалари бўйича билимга эга бўлишини ҳам тақозо этади. Бундан хулоса чиқариш мумкинки, матнни поэтик идроклаш ўқувчига муайян вазифа юклайди. Мазкур вазифа ўқувчини муаллиф матнини тўғри ва тўлақонли идрок этиш учун имкон яратади. Ўз навбатида, муаллиф матнни қабул қилувчининг энг юқори ва энг қуйи даражасини тўла ҳисобга олган ҳолда энг мувофиқ тарзда йўл тутиб етказиб бериш йўлидан боради. Ўқувчи ҳолатига муаллифнинг муайян риояси топилмаса, матн сиёғидаги етуклик ўз аҳамиятини йўқотади. Демак, матннинг ўзига хос етуклигида муаллифнинг ўз поэтик маслагини ўқувчи ҳолатига айни мутобиқ тарзда етказиб бериши етакчи аҳамиятга эга ҳисобланади.

Мазкур асардаги «Меърож кечаси таърифи...»даги бобда меърож кечасининг тасвири муаллиф учун ҳам, ўқувчи учун ҳам жуда мураккаб воқелик экани шубҳасиз. Айниқса, ундаги замон-макон тасвири энг мураккаб жиҳат десак, муболаға бўлмайди. Бунга муаллифнинг *«Ақл бу мансубада ҳайрон ўлуб...»* мисраси ёрқин далолат қилади. Ҳақиқатан, меърож воқеасидаги

вазият, ҳолат ва замон-маконни тасвир ва ифодада қамраб олиш ҳамда уни тўлалигича ўқувчига етказиб бериш ўта мураккаб жараёндир. Муаллиф бу ўринда ўта ишончли маълумотлар тақозосига таянади. Аммо шу билангина чекланиб қолмасдан, ўзининг илмий-ижодий салоҳияти, ақлий-мантиқий мушоҳадаси ҳамда поэтик маҳоратини қўллайди. Бу билан бир қарашда ўқувчига етказиб бериш амримаҳол бўлган воқелик бағоят усталик билан ифода этилади.

Бобларнинг сарлавҳаси боб мазмуни ва ундаги масалаларни тўла қамровчи хусусиятга эга. Сарлавҳадан ташқари, бобнинг айрим байтлари шу қисмнинг умумий мазмуни учун қамровчи байт вазифасини ўтайди. Бундай байтларнинг, асосан, боб ёки бобларнинг муайян қисмлари бошида келиш ҳолатлари учрайди. Мазкур бобда қамровчи-умумлаштирувчи байт қуйидагича ифода этилган:

Бир кеча зулматқа қолиб коинот,
Меҳр ниҳон, ўйлаки, айнул ҳаёт
[Навоий,1970]**.**

Байтда меърож кечасида Ернинг эмас, бутун коинотнинг зулматда қолганига эътибор қаратилади. Бунга Меҳр (Қуёш)нинг кўринмай қолиши сабаб сифатида кўрсатилади. Астрономик илмлар Қуёш Ер сайёраси учун буткул кўринмай қолиши мумкин эмаслигини далиллайди. Зулмат нафақат Ер сайёраси, балки Қуёш тизими учун нисбий ҳодиса бўлиб, у фақат сайёраларнинг бир ярим шари учун бир муддат давомида характерлидир. Байтда ифода этилганидек, бутун борлиқнинг бир муддат зулматда қолиши реал ақлий илмларга кўра асоссиз экани мулоҳаза қилинади. Зулмат астрономик жиҳатдан бутун коинотда эмас, унинг муайян ҳудудларида акс этувчи ҳодисадир.

Алишер Навоий мансуб шарқ мумтоз адабиётида матнда асоссиз фактни келтириш мумкин бўлмай, у ҳатто поэтик асар қонуниятларига ҳам уйғун кўрилмайди. Бу, аввало, матннинг сидқ қонуниятига зид бўлса, иккинчидан, асар мавқеини туширувчи, балоғатига путур етказувчи иллат саналади. Аммо муаллиф нима сабабдан воқеликка номувофиқ бўлган маънони ўз асарида ифода этган, деган жиддий ва ўринли мулоҳаза туғилади. Бу каби ҳолатларда замонавий адабиётшунослик илми ўзининг бир қадар фараз ва қарашларини билдирганига гувоҳ бўлиш мумкин. Уларда бадиий асардаги воқелик реал воқелик билан айнан бир хил бўлиши шарт қилинмагани, асарда муаллиф бадиий тўқимадан фойдаланишини инобатга олиш лозимлиги ҳамда адабиёт ёлғонни чиройли тарзда ифодалай олиш санъати экани ҳақидаги фикрлар ўртага ташланади.

Шарқ-Ислом илм-фани намояндалари бадиий матнни ўрганишни биринчи навбатда унинг муаллифини тадқиқ этишдан бошлайди. Муаллиф сўз айтишга қай даражада салоҳиятли ёки ҳақдор эканини текшириш катта аҳамият касб этади. Ҳаётда ҳам, бадиий ижодда ҳам асли пуч, маънисиз, ёлғонга асосланган, нохолис йўллар билан бошқалар диққатини жалб қилишга қаратилган, моддий-маънавий ғаразгўйлик маҳсули бўлган ижод намуналарига ўрин бермаслик юксак тамойил саналади. Буни далиллашда борлиқдаги табиий яратиқларнинг умумий низоми, башариятнинг умумэътироф этилган юксак келишув-қоидалари, инсоният гултожи бўлган шахсиятларнинг ҳаёт ва ижод тарзи асос қилиб олинади. Бошига қилич келганда ҳам ёлғонга яқин йўламаслик ҳақидаги таълимотлар фақат ривояту ҳикоятларда келадиган халқ тахайюлининг маҳсули бўлган, ўйлаб топилган ҳодисалар эмаслигини тарихий воқелик яққол кўрсатиб турибди.

Илм-фанни энг муҳим манбаларига нафақат ёлғон, ҳатто озгина иштибоҳ ҳам аралашиб қолмаслиги учун бутун умрини тиккан аждодларимиз ҳаёти асрлар давомида биз учун гўзал ўрнак ва юксак намуна бўлиб келаётир. Ўз шахсида биргина шубҳа сояси акс этмаслиги учун бор сармояси (минг динор!)ни ҳеч иккиланишсиз денгизга улоқтирган Имом Бухорий каби зотлар нафақат муҳаддис олим, балки Шарқ мумтоз адабиётининг йирик вакилларидан бири эканини ҳам унутмаслик лозим.

Алишер Навоий ана шундай анъаналарга сидқидилдан риоя қилиб яшаб ижод этган сиймо сифатида машҳурдир. Асарларида ҳаммани ёлғон гапиришдан қайтарган, ростликни шиор билган, ўз ҳаётини шунинг асосига қурган инсоннинг ўзи

ҳақиқатга зид маъноларни тарғиб қилиши имконсиздир.

Ҳазрат Навоий ижодида ўқувчига бироз номувофиқ бўлиб кўринган бу каби ўринлар кўплаб топилади. Аммо уларнинг ечими – идрок жараёнида ўқувчи шуурига қанчалик мувофиқ экани жиддий илмий тадқиқ этилиши зарур. Қуёшнинг ниҳон бўлиши, Каъбанинг зиёратга кетиши, дунёнинг одамдан буткул холи ҳолати, инсоннинг ўсимликдан ҳаё қилиши кабилар бир қарашда ўқувчи тасаввурига том уйғун эмасдай таассурот қолдириши мумкин. Бу каби ўта мураккаб жараёнларни ифода этишда муаллиф қандай йўл тутганини кўриб чиқишга катта эҳтиёж мавжуд.

Матнни идрок этиш тўғридан-тўғри ҳақиқат воситасида амалга ошмаганда, унга матн тадқиқидаги иккинчи усул – мажоз сифатида қараш ўринли бўлади. Бунда матн хусусияти ҳақиқатдан мажозга томон силжийди. Унда матндаги сўз ёки образ мажозий хусусият касб этади. Поэтик матннинг бошқаларидан катта фарқли жиҳати ҳамда улкан имконияти ҳам бошқа матнларда ифодалаш мумкин бўлмаган воқеликни поэтик тарзда ифода эта олиш имконияти билан ажралиб туради. Аммо матннинг маъно-мазмуни ҳақиқатнинг ўзини ҳам ёки унинг мажоз сифатидаги бирон муқобилини ҳам ифода этмаслиги поэтик имконият ҳисобланмайди. Ҳар иккисидан бирига таянмаслик ёлғон сифатида қаралади.

Шунга кўра, мазкур байтдаги сўзларни ҳақиқатнинг муайян муқобили ўлароқ идрок этиш босқичига ўтиш ўринлидир. Байтнинг иккинчи мисрасида *«Меҳр ниҳон, ўйлаки, айнул ҳаёт»*, дейилиши билан Қуёшнинг кўринмай қолиши тасвирланяпти. Юқорида кўриб ўтганимиздек, ҳақиқатан, бу мумкин бўлмаган ҳодисадир. Аммо мисранинг давомидаги поэтик хусусият мазкур «номумкин»ни «мумкин»га айлантира олади. У Қуёшнинг мажозий аҳамият касб этиши – ҳаётнинг кўзига ўхшатилиши билан боғлиқ. Қуёш энди мажоз ўлароқ асл маъносидан кўз маъносига томон кўчди ҳамда ўзида асл ҳақиқат (қуёшлик хусусияти) билан бирга, кўзга оид хусусиятларни ҳам ифода эта бошлади. Бу ўринда муаллиф кўзга оид энг дақиқ хусусиятни Қуёшда акс эттирадики, бу, бир қарашда, ўқувчи идрокига жойлашиши анча мушкул.

Мумтоз адабиёт намуналарида адиблар улкан нақлий ҳақиқатлар маъноларини англаш-англатиш йўлидан боришгани эътироф этилади. Ижод жараёнида борлиқдаги инсон тафаккуридан юксакда бўлган ўзгармас ҳақиқатлар маъноларини нозик фаҳмлаб, уни ҳар бир давр ўқувчисига ўзига хос тарзда етказиб бериш уларнинг бадиий ижоддан кўзлаган асосий мақсади эди. Шу боис мумтоз асарларда асл матнларга бевосита ёки билвосита таяниш ҳоллари кўп учрайди. Юқоридаги байт асосида ҳам айни шундай ҳолатнинг гувоҳи бўламиз.

ХУЛОСА. Байтда Қуёш ҳаётнинг кўзи сифатида қаралар экан, аввало, бу талқин қандай юзага келганини ўрганиш эътиборлидир. Инсонда борлиқ ҳақидаги тасаввурнинг аксарияти кўзнинг мияга етказган хабари орқали намоён бўлади. Кўзнинг маълумот етказиши учун унда кўриш қувватининг мавжудлигигина етарли эмас. Унга яна етарли миқдордаги ёруғлик ҳам лозим бўлади. Коинотда табиий ёруғликнинг асл манбаи Қуёш ҳисобланади. Коинотдай улкан кўламни кўриб идрок этиш учун унга Қуёшдан бошқа жисмнинг ёруғлиги кифоя қилмайди. Бундан коинот ёритқичи фақат Қуёш экани маълум бўлади. Ҳатто Ойнинг ёруғи ҳам Қуёш шуъласи таъсирида юзага келади.

Демак, борлиқ тасвирининг инсон шуурида гавдаланишида кўз ва Қуёшнинг ўзига хос ҳиссаси мавжудлиги маълум бўлади. Юқоридаги байтда Қуёшнинг қайси жиҳатдан ҳаёт кўзига ўхшатилиши, у муаллифнинг қайси мақсадига мувофиқ келиши эътиборни тортади. Кўздаги қайси хусусият мажоз ўлароқ Қуёшга кўчирилганда муаллиф назарда тутган маънога етиб бориш мумкинлиги аҳамиятлидир.

Шарқ мумтоз адабиёти намояндалари бадиий матнда сидқ ҳодисасини мукаммал таъмин этмоқ нақлий воқеликка ҳам катта аҳамият қаратишади. Буни адабиётшунос олимлар баъзан олий реализм сифатида кўришади. Нақлий хабар борлиқнинг ўзгармас қонуниятларидан дарак берувчи, илк маншаи инсон бўлмаган содиқ хабар ҳисобланади. Чунончи, илк одамдан бошлаб энг охирги расулгача етказилган илоҳий хабарлар гарчи инсон онг-шуури, ақли доирага қамраб

TAMADDUN NURI

олиниши бирон мураккаб бўлса-да, асрлар давомида олий ҳақиқат сифатида эътироф этиб келинган. Ҳазрат Навоий мансуб мумтоз адабиётимиз адиблари буни ҳамиша эътиборда туришгани исбот талаб қилмас ҳақиқатдир.

Юқоридаги байтни идроклаш жараёнида ҳам биз айни ҳақиқатга зарурат сезамиз. Зеро, байтни бошқа йўл билан идрок этиш имконсиз бўлиши мумкин. Сидқ қонуниятини таъмин этувчи биринчи манба – Қуръони каримнинг бир қанча ўринларида кўзнинг бир марта юмилиб-очилиши («торфатул айн») ҳодисаси акс этганини учратамиз. Бу шунчаки одатий биологик хусусиятдан ташқари, муайян замонни ифодалаш учун ҳам хизмат қилади. «Торфатул айн» вақтнинг энг кичик ўлчови тарзида қаралади. «Кўз юмиб-очгунча ўтган фурсат» тушунчаси биз ўрганаётган байт учун муҳим аҳамиятга эгадир. Шу тушунча моҳияти инобатга олинмас экан, нафақат байтни тушуниш, ҳатто муаллиф мақсадини идрок этиш ҳам имконсиз қолади. Муаллиф байтда «торфатул айн» (ёки «ламҳул басор»)нинг замон ўлчови сифатидаги энг кичик бирлик эканига таянгани кузатилади. Бу шунчалик кичик бирликки, ҳатто уни илғаш имконсиз бўлиши мумкин. Байтда Қуёш «ҳаётнинг кўзи» сифатида мажозлаштирилар экан, унга кўзнинг хусусияти юкланиши (кўз юмиб-очиш) табиий ва ўқувчи учун одатий ҳолдир. Аммо бунда Қуръони каримга таянган ҳолда мазкур вазиятдаги энг дақиқ хусусият асос қилиб олиниши муаллифнинг юксак миқёсий тафаккур эгаси, матнга илмий-ижодий ёндашуви ҳамда улкан бадиий салоҳиятидан дарак беради. Ниҳоят, муаллиф Қуёш ниҳон бўлиб, коинот зулматга чўмганини мажозий тарзда, олдин Қуёшни кўзга ўхшатиб («айнул ҳаёт»), сўнг унга кўзга оид энг дақиқ хусусиятни бериб, меърож воқеаси содир бўлган замон тушунчасини кўз юмиб-очгунча ўтган фурсатда юз берганини ўзига хос тарзда ўқувчига етказиб беради. Бу «замон» шу қадарки, ҳатто унинг ўтганини (Қуёшнинг ниҳон бўлганини) бутун коинотда ҳеч ким пайқамайди. Шу сабабли унга гувоҳлик берувчи – Қуёш тизими – Сомон йўлида ва ундан ташқарида ҳам ҳеч ким йўқ. Фақат Набий алайҳиссаломнинг мазкур хабарларини тасдиқлашга «икки гувоҳи содиқ» (икки оят) нозил қилинганига боб сарлавҳасида ишора берилади. Ниҳоят, муаллифнинг байтда ўртага қўйган фикри қуйидагича намоён бўлади: бир кеча ҳаётнинг кўзи ҳисобланган Қуёш ниҳон бўлди, унга сабаб «торфатул айн» эди. Шу муддатда коинот зулматда қолди ва меърож воқеаси юз берди.

Вақтнинг энг кичик бирлигини ифодалашда муаллиф борлиқдаги асл ҳақиқатларга таянган ҳолда Қуёш, кўз ва ниҳон бўлиш ҳолатларини фавқулодда гўзал ва асосли ифода этгани ўқувчини ҳайратда қолдиради. Қуёшнинг коинотни зулматда қолдирувчи ниҳонлигидан ҳам забардаст адиб ёруғлик топа олгани ўқувчини қайта-қайта ҳайрат уммонига ғарқ қилади. Қуёш ниҳонлигида муаллиф шуурини ёритган шуъла қайси Қуёшдан таралгани эса яна бир мураккаб кашфиётдир.

Бундай миқёсий тафаккур маҳсули ўқувчини коинотдаги биз билган оламлардан-да буюкроқ сарҳадлар хусусида янада теранроқ мушоҳада юритиб кўришга чорлайди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдуҳармон Қазвиний. Талхис ал-мифтоҳ: (нутқ илмига оид рисола) [Матн] / Одилжон Раҳматуллаев. – Тошкент: Qamar-media nashriyoti, 2020. – 321 б.
2. Алишер Навоий. Хамса. Ҳайратул аброр. Илмий-танқидий матн. Тошкент. Фан. 1970. – Б. 24.
3. Алишер Навоий. Маҳбубул қулуб. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2019. – Б. 24.
4. Жўрақулов У. Назарий поэтика масалалари: Муаллиф. Жанр. Хронотоп. – Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2015. – 145 б.
5. Маллаев Н. Алишер Навоий ва халқ ижодиёти. – Т.: Ғафур Ғулом. 1974. – Б. 90.
6. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari [Matn]/ D.Quronov. — Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 480.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 81-23

THE GENERAL OVERVIEW ON UZBEK ONOMASTIC UNITS

Matyakubov Khakimboy Khamidjanovich, doctoral student of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

O‘ZBEK ONOMASTIK BIRLIKLARI HAQIDA UMUMIY MA’LUMOT

Matyakubov Xakimboy Xamidjanovich, Xorazm Ma’mun akademiyasi doktoranti, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: greathakim9091@mail.ru

ОБЩИЕ СВЕДЕНИЯ ОБ ОНОМАСТИЧЕСКИХ ЕДИНИЦАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Матякубов Хакимбой Хамиджанович, докторант Хорезмской академии Маъмуна, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

Annotatsiya: *Ushbu maqolada onomastik birliklarning turlari umumiy tahlilga tortildi. Ushbu turlar shakllanishida har bir jamiyatdagi madaniyat, urf-odat, ishonch va e’tiqodlari, geografik xususiyatlari qanday o‘rin tutishiga umumiy nazar tashlandi.*

Kalit so‘zlar: *etnonim, etnotoponim, ideonimlar, gidronimiya, xrononim.*

Аннотация: *В данной статье проводится общий анализ типов ономастических единиц. Рассматривается, какое значение имеют культура, обычаи, верования и географические особенности каждого общества в формировании этих типов.*

Ключевые слова: *этноним, этнотопоним, идеонимы, гидронимия, хрононим.*

Annotation: *This article provides a general analysis of the types of onomastic units. It examines the role of culture, traditions, beliefs, and geographical features of each society in the formation of these types.*

Keywords: *ethnonym, ethnotoponym, ideonyms, hydronymy, chrononym.*

INTRODUCTION. It is known that although humanity is a biological whole, it develops on the basis of general sociological laws and is divided into countless groups and groups. People live in society and are engaged in socially useful labor by uniting in associations such as clans, tribes, peoples, and nations. Among them, the tribe occupies a special place. A tribe is an ethnic unit in a classless society, a socially organized group, a community. A tribe is a linguistic, territorial, economic, and cultural unity of people, and is a stage preceding a nation. A nation is a form of social development based on a stable historical unity of people, a common economic life, and the uniqueness of language, territory, culture, consciousness, and psychology. From ancient times to the 20th century, the clans and tribes such as Barlos, Naiman, Saray, and Kun'gorat, which were part of the Uzbeks, were divided into a number of branches, such as top, tira, shox, avlod, and qavm. Each of these ethnic divisions has its own name. The names of top, topar, shox, tira, komma, toifa, avlod, qavm, urg, kabila, elat, halq, millat are ethnonyms The word ethnonym is Greek and is formed from the words ethnos - people + onoma. The name of any ethnos (tribe, tribe, people, nation, etc.), the set, collection, list of ethnonyms existing in one language is called

ethnonymy, and the branch of onomastics, as well as history and ethnography that studies ethnonyms is called ethnonymics. A number of disciplines such as linguistics, history, ethnography, geography are engaged in the study of ethnonyms, and their deeper study helps to determine the origin and ethnogenesis of the people and nation. Tribal and tribal names - ethnonyms gradually become the name of the territory where that community lives. This is called ethnotoponymy. Sometimes, based on ethnonyms, it is possible to find out which tribe or tribe lived in which territory. For example, Literature Analysis and Methodology. There are villages called Jaloyir in several parts of Uzbekistan[1][1].

In fact, representatives of the Jaloyir tribe lived in the Ahangaran basin and the vicinity of Khujand in the 10th-11th centuries. In 1375, representatives of the Jaloyir tribe strongly resisted Amir Temur, so by his decree, the Jaloyir leader was executed and representatives of this tribe were resettled to different regions. After that, not only the Jaloyers, but also the ethnic groups under their control were called by the same name. In the field of studying Uzbek ethnonyms, historians such as I.I. Umnyakov, K. Shoniyozov, B. Ahmedov, A. Askarov, and linguists such as Kh. Doniyorov, S. Qoraev, E. Begmatov, T. Nafasov, N. Okhunov, A. Turobov, K. Markaev, N. Begaliev have done a lot of work. For example, K. Shoniyozov's "Ketnicheskoy istorii uzbekskogo naroda" (1974), "The process of formation of the Uzbek people" (2001), and B. Ahmedov's "Uzbek ulus" (2002) have been published. N.A. Baskakov identified the presence of a number of Turkic ethnonyms in the work "The Battle of Igor" such as topchak, tatran, mogut, ovar, and studied their etymology. Academician A. Askarov's work "Ethnogenesis and Ethnic History of the Uzbek People" is recommended as a textbook for students studying history. Kh. Doniyorov's work "Genealogy and Dialects of the Uzbek People" consists of two parts. Initially, this work presents interesting information about the use of tribal and clan names of the Uzbek people in the works of M. Koshgari's "Devonu lug'otit turk", Rashididdin's "Jome'uttavorikh", Alisher Navoi, and Abulgozi Bahodirkhan.The next chapter of the work analyzes the views expressed in manuscript sources and linguistic studies about Uzbek ethnonyms. S.Qoraev's treatise "Ethnonyms" contains comments on the formation of ethnonyms and ethnotoponyms and their meaning.

THE ANALYSIS OF LITERATURES AND METHODOLOGY. Also, works such as M.Mamedov's "Khalqnomlari joy nomlarida"(1981), U.Sanakulov's "The formation and naming of the Uzbek people and language" (1991), G.Abdurakhmanov's "On the formation of the Uzbek people and language" (1999), Z. Ziyotov's "Turonqavmlari" (2008), A. Turobov's "Samarkand ethnonyms and ethno-oikonoms" (2004), A. Shukurov's "On the origin of the term "Uzbek" (2010) are devoted to the analysis of the problems of Uzbek ethnonyms. N. Begaliev's work "From the History of Uzbek Ethnonyms" contains a 92-chapter list of Uzbek clans (pp. 23-25), a genealogy of the Kun'gorat tribe and its clans (pp. 51-56), and interesting information on the etymology of a number of Turkic clan and tribal names. K. Markaev conducted a linguistic study of Uzbek ethnonyms based on materials from the territory of Southern Uzbekistan[2][2].

The first chapter of this candidate's thesis is entitled "The Place of Ethnonyms in the Onomastic System". The next chapter covers the spiritual and thematic classification of ethnonyms. Most importantly, this section provides an etymological analysis of some obscure ethnonyms that have now fallen into disuse. For example: Yobu is the name of a tribe and clan, and this word meant a simple horse. The use of the lines "Yobidema, shu at tulpor ekande" in Uzbek epics is also evidence of this. The name of the horse later became the name of the ethnos. Results of the analysis. Bahrin - this word in the ancient Turkic language meant a large bird of prey, a type of falcon, which was trained and used in hunting, and later this word also became the name of the ethnos. The last third chapter of K.Markaevich studies the grammatical structure and formation features of ethnonyms. The

[1]https://en.wikipedia.org/wiki/White_Stone,_Virginia

[2]https://www.google.com/search?q=white+house+usa&rlz

majority of names in Uzbek ethnonyms are root, simple ethnonyms.

At the same time, among ethnonyms there are also ethnonyms formed by two-component syntactic methods, such as top (like boytop, badaltop), toda (like saroytoda, bektoda), bachcha (like gulbachcha, jilonbachcha), tuvgon (like türkhidin tuvgon, like devonadin tuvgon), türkçın (like koktirnoq, aqtirnoq), bas (like jortibaş, olmabas), öğil (like beshögül, uchogül), boy (like bazartukhum, usta tümukh), kalla (like chorkalla, karakalla), qara (like karakaltak, qarakoz), aq (like aqmangit, aqtelpak), besh (like beshbola, beshkal), yetti (like yettiuyli, yetti ürug), uch (like uchkara, uchuruv // uchurug), ola (like olatop, olachopon). In general, Turkic The comprehensive collection and study of ethnonymic wealth in languages, including all regions of Uzbekistan, is of great scientific-theoretical and scientific-practical importance not only for linguistics, but also for the history, ethnography, culture, and spirituality of the people.

THE RESULTS OF ANALYSIS. As is known, cosmonym (Greek xochmos – cosmos, universe, universe + onoma – a proper noun) is a proper noun of celestial objects located in cosmic space, one of the types of onomastic scope. Cosmonyms are the names of the universe, objects of the universe, the moon, the sun and other space bodies, the collective name of which is cosmonomy, and the name of the field of study is cosmonomics. For example: Shield, Big Dipper, Sun, Sextant, Southern Fish, Northern Crown, White Star, Red Star (Mirrix) etc. Cosmogony combines two aspects of the science of astronomy. One of these is the science of astronomy, and the other is the science of astrology, astrology. In the science of astronomy, the location of celestial bodies, their directions of movement are studied, and in astronomy, the various effects of this movement on the Earth and human fate are studied. In the East, astronomy is given special importance[3][3].

The first views on the scientific community and certain aspects of astronomy date back to very ancient times. In particular, the representatives of the fire-worshiping religion knew 18 planets and their names, seven of which were the Sun, the Moon, Utarid, Venus, Mercury, Jupiter and Saturn, which in ancient times led to the deification of the number seven. Or in Zoroastrianism, fire was considered a part of the Sun. In ancient Indo-Iranian mythology, the movement of the Sun, which rises above the horizon in the morning and travels across the sky until sunset, was imagined as the movement of Mithras, riding a chariot radiating golden light. The resemblance of the thunder god to the wheels of his chariot is considered a remnant of these celestial myths that has come down to us as a religious belief. From this it can be seen that one of the four elements considered sacred in fire worship, fire, was also understood in the sense of the heavenly body - the Sun. The proper names of historical works and documents are called ideonyms (Greek idea - idea, idea + onoma - proper name). The name (title) given to any artistic, scientific, religious, political work is called biblionym (Greek biblio - book + onoma - proper name).

Biblionyms are a type of ideonyms. Ideonyms are considered an important element of written speech, a component of a particular work of art that they name. Because, firstly, they serve as the name, the term of the work they represent, and secondly, they also perform the function of defining the content of this work. First of all, the name of the work attracts the reader's attention Only after reading the work, the meaning of the title (ideonym) of that work, the content assigned to it, is fully and clearly realized. For example, the historical tetralogy “The Great Empire” by the writer Muhammad Ali is dedicated to the image of the empire of the great conqueror Amir Temur. This work consists of four books, and each book (historical novel) is named after the sons of Amir Temur (“Jahongir Mirzo”, “Umarshaykh Mirzo”, “Mironshoh Mirzo”, “Shohruh Mirzo”). Or The title of the novel “Shinelli iylar” by the writer Shuhrat is also interesting. As soon as the reader hears the name of this work, he clearly imagines that the events of the work take place during the Second World War. Similarly, the names

3 https://www.newacropol.ru/Alexandria/symbols/vulf/

(ideonyms) of the three-book "Ufq" trilogy by writer Said Ahmad (the novels "Forty Days", "Days of Hijran", and "On the Threshold of Ufq"), the novel "Jimjitlik", and the comic story "G'idelik" also have deep meaning[4][4].

Naming a work is a unique art. Because the name is chosen based on the content and meaning of the work. For example, the writer Erkin Samandar named one of his historical novels "The Well of God". We read the following thoughts about the content of this name in the work: "The well of God, which was revealed from the depths of the sky before the Khiva fortress with the prayer of the Prophet Muhammad (peace be upon him), was always full of fresh water. The first brick of Khiva was laid with its water. The clay of the Akshaykh Baba furnace was soaked in its water. Since the appearance of the fortress, the people of Khiva have begun their holidays by tasting the water of the well of God, babies are given its water after breast milk, they consider it obligatory to wash the dead with it, a young man who is getting married goes to the well with his companions before the wedding, circumambulates it, takes drops of the water in his hand and drinks it, and takes a cup of the water of God to the bride[5][5].

In such a sacred well, today there is blood instead of water... People have never seen or heard of such atrocities..." Ideonyms serve to perform a number of functions in a literary text, such as nominative, distinguishing, and informative. In this respect, ideonyms of a literary work are very close to newspaper headlines. Ideonyms and biblionyms are only just being studied in Uzbek linguistics.The Uzbek language vocabulary is rich in proper nouns, but not all of their forms are sufficiently, completely collected, and although they are mentioned in one way or another in scientific sources, they have not been specially studied. One of such insufficiently studied types of proper nouns is chrononyms. A chrononym (Greek: chronvog - time, duration + onoma - proper noun) is a proper noun of concepts related to historical periods, stages. For example, the Renaissance, the Timurid era, the period of Independence, etc. The set, collection of chrononyms in the language is called chrononymy.

In the composition of chrononyms, appellatives expressing the concept of time, such as day, month, year, era, century, are always used - simple words, and are connected to specific words without any grammatical means - based on collocations, which serve as a means for their formation as chrononyms. According to their spiritual structure, chrononyms always have a sociolinguistic meaning, that is, current Uzbek chrononyms are the product of the policy, measures and reforms of the Republic of Uzbekistan in the political, economic, cultural, and educational spheres, and are considered linguistic units that serve to express the ethno-historical traditions and customs of the Uzbek people.. In general, chrononyms, including the chrononyms of the Uzbek language, are very rich and diverse, and they have not been specially collected and deeply studied to this day. Therefore, the collection of historical chrononyms in the Uzbek language and their study in a monographic direction is considered one of the urgent tasks of Uzbek onomastics[6][6].

In general, in Uzbek onomastics, a number of onomastic units such as ideonyms, biblionyms, ktematonyms, chrononyms, geortonyms are waiting for their researchers. The word hydronym (Greek hudor – water + onoma – proper noun) means the proper noun, toponym type of any (natural and artificial) objects in the water body. In the territory of our republic, water bodies such as rivers, streams, ditches, canals, streams, rivulets, springs, waterfalls, cisterns are very widespread. In particular, it has been determined that there are about 6,500 rivers, streams, and ravines in the Fergana Valley, about 120 streams in the middle reaches of the Zarafshan River, 3,120 in

[4] Yeates S. (2006). River names, Celtic and Old English: their dual medieval and post-medieval personalities.Journal of the English Place-Name Society. – Pp.33, 38, 63-82.

[5] Nicolaisen W.F.H. Place-name legends: An onomastic mythology // Folklore. 1976. Vol. 87/2. – Pp.146–159.

[6] Gelling M. The Word church in English Place-names // Bulletine of the Council for British Archaeology Churches committee. – Dee, 1981.Vol. 15. – Pp.4-9.

Kashkadarya, and more than 2,200 in Surkhandarya. At the same time, currently in Uzbekistan, 53 reservoirs, 41 hydroelectric power plants, 1,456 pumping stations, about 140,000 km of ditches, and more than 30,000 km of internal canals have been built, which irrigate 4.3 million hectares of land serves for. All these water bodies have their own special name - hydronym[7][7].

Research in the field of Uzbek hydronyms has a very ancient and long history. For example, S.Qoraev, along with toponyms, gave explanations of many hydronyms in his toponymic dictionaries. In several works by Kh.Hasanov, such as "From the History of Central Asian Place Names" (1965), "Language of the Earth" (1977), "Secret of Geographical Names" (1985), the issue of explanations of hydronyms was also studied. For example, the scientist gives interesting facts about the etymology of hydronyms such as the Tuyatortar Canal, the Topalang River, and Lake Hubbon. In his treatise "Toponyms and their naming features", N. Okhunov describes hydronymic objects such as river names (such as Amudarya, Syrdarya, Karadarya, Okdarya, Zarafshon), reservoir names (such as Kattakurgan reservoir, lake names (such as Orkakul, Devonkul, Okchakul), spring names (such as Kotirbulok, Kairakchibulok, Beshbulok, Okbulok), ditch names (such as Zhidaarik, Shorarik, Chinorarik), well names (such as Tashkuduk, Kyzylkuduk, Otkuduk), pool names (such as Tashkhovuz, Molkhovuz), ditch names (such as Kokzovur, Karayogzovur), dam and pipe names (such as Kumtogon, Beshquvur, Tashquvur)classifies and etymologically interprets some of these hydronyms. For example, the name of the Bulungur canal is based on a Mongolian word. "Theonym" (Greek theog - god (God) + onoma - a proper noun) - means a proper noun of the name and attributes of God. "Theonymy" is a collection, sum of such proper nouns, "theonymics" means the field that studies proper nouns belonging to such an onomastic scope.

CONCLUSION. It is known that onomastic material makes up a large part of the vocabulary of any developed language. Accordingly, onomastic material requires special study, just like such subjects as history, geography, astronomy. Such study should begin in secondary schools and be systematically continued in academic lyceums, colleges, and higher educational institutions. Teaching onomastic material requires great preparation from the teacher, a clear idea of the place of onomastic units in the lexical system of the language. It should be taken into account that the content of such subjects as the native language and literature, the Russian language and literature, geography, history, astronomy, biology, and physics is distinguished by its richness in onomastic material.

REFERENCES:

1.https://en.wikipedia.org/wiki/White_Stone,_Virginia
2.https://www.google.com/search?q=white+house+usa&rlz
3.https://www.newacropol.ru/Alexandria/symbols/vulf/
4. Yeates S. (2006). River names, Celtic and Old English: their dual medieval and post-medieval personalities.Journal of the English Place-Name Society. – Pp.33, 38, 63–82.

TAMADDUN NURI jurnali/journal THE LIGHT OF CIVILIZATION FALSAFA

Qabul qilindi: 20.09.2025 **Chop etildi: 31.10.2025** UDK: 314.42:001

[7] Leighly J. Town names of colonial New England in the West. // published by: Taylor & Francis Ltd., Association of American Geographers. vol.68, –№ 2. – P.25-42.

JAMIYAT VA TEXNIK TARAQQIYOT MUVOZANATINING FALSAFIY TAHLILI

Aliyev Nozimjon Nurullajon o‘g‘li, Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ БАЛАНСА ОБЩЕСТВА И ТЕХНИЧЕСКОГО ПРОГРЕССА

Алиев Назимжон Нурулладжан оглы, преподаватель Наманганского государственного педагогического института

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE BALANCE BETWEEN SOCIETY AND TECHNOLOGICAL PROGRESS

Aliev Nozimjon Nurullajon ugli, Teacher at Namangan State Pedagogical Institute

https://orcid.org/0009-0004-9549-6527
e-mail: nozimjonoff@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jamiyat va ilmiy-texnik taraqqiyot o‘rtasida yuzaga keladigan ziddiyatlar falsafiy tahlil qilingan. Fan-texnika taraqqiyotining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va ma’naviy hayotiga ta’siri turli davr faylasuflarining nazariy qarashlari asosida yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *jamiyat, ilmiy-texnika taraqqiyot, dialektika, ekologik barqarorlik, postmodernizm, globallashuv, ma’naviy qadriyatlar.*

Abstract: *This article provides a philosophical analysis of the contradictions that arise between society and scientific-technological progress. The impact of scientific and technological advancements on the socio-economic, ecological, and spiritual life of society is examined through the lens of theoretical perspectives from philosophers of various eras.*

Keywords: *society, scientific and technological progress, dialectics, ecological sustainability, postmodernism, globalization, spiritual values.*

Аннотация: *В данной статье философски анализируются противоречия, возникающие между обществом и научно-техническим прогрессом. Влияние научно-технического прогресса на социально-экономическую, экологическую и духовную жизнь общества освещается на основе теоретических воззрений философов различных эпох.*

Ключевые слова: *общество, научно-технический прогресс, диалектика, экологическая устойчивость, постмодернизм, глобализация, духовные ценности.*

KIRISH. Jamiyat taraqqiyoti va insoniyatning ilm-fan hamda texnika sohasidagi yutuqlari bugungi kunda kundalik hayotimizning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi. Bu masalani ham nazariy, ham amaliy jihatdan o‘rganish lozim. Ayniqsa, ilm-fan va texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq ijtimoiy o‘zgarishlarning kutilgan va kutilmagan oqibatlarini falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilish zarurati paydo bo‘lmoqda. Bunday tahlil jarayoni, avvalo, jamiyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, so‘ngra ularni bartaraf etishning g‘oyaviy, mafkuraviy va amaliy yo‘nalishlarini belgilash maqsadi bilan uyg‘unlashadi. Ilm-fan va texnika taraqqiyoti yangi g‘oyalar, texnologiyalar, innovatsiyalarni kashf etish va ularni ishlab chiqarishga joriy etish orqali jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga ta’sir ko‘rsatadi. Biroq shu bilan birga, ijtimoiy muhitda turli ziddiyatlar, noroziliklar, manfaatlar to‘qnashuvi ham yuzaga kelishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Qadimgi davrda falsafiy tafakkurning asosiy e’tibori tabiat va inson o‘rtasidagi nisbat masalasiga qaratilgan edi. Platon inson aqli tabiatda mavjud bo‘lgan ideal shakl va g‘oyalarni kashf etishini ilgari surgan. Uning

fikricha, biz bugun “ilmiy-texnik taraqqiyot” deb ataydigan jarayonning asosida inson ongining tabiiy qonunlarga bo‘ysunmasdan ishlashi yotadi. Platon nazarida har qanday ijtimoiy faoliyat, jumladan fan va texnika bilan bog‘liq ishlar ham “ideal shakl” yoki “g‘oyalar”ga qanchalik yaqin bo‘lsa, shunchalik mukammal bo‘ladi[1]. Shu sababli, Platon qarashlariga ko‘ra, agar fan, maqsadli faoliyat yoki ijtimoiy amaliyot koinot muvozanatini buzsa, u ideal shakldan chetga chiqadi. Aristotel esa insonning amaliy faoliyatini, shu jumladan uning texnik mahoratini “techne” tushunchasi orqali ifodalagan. U “techne”ni ma’lum maqsad yo‘lida ijodkorona harakat qiluvchi shaxs sifatida ta’riflagan holda, amaliy faoliyatda doimo o‘rtachalik (me’yor) tamoyiliga amal qilish zarurligini ta’kidlaydi[2]. Ya’ni, ijtimoiy-siyosiy tizimning haddan tashqari keskinlashuvi yoki biror ixtiro, texnologik kashfiyot jamiyat hayotida nomutanosibliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Binobarin, Aristotel yondashuvida jamiyat va ilmiy-texnik taraqqiyot o‘rtasidagi ziddiyatlarning paydo bo‘lishi zamirida muvozanat tamoyilidan chekinish yotadi. Qadimgi davr faylasuflari qarashlarida tabiat - jamiyat - inson faoliyati uyg‘unligi tamoyili mujassam bo‘lib, bu holat keyinchalik boshqa Sharq va G‘arb falsafiy oqimlariga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

O‘rta asrlarda ilohiy g‘oyalar ustunlik qilgan bir paytda, ko‘plab olimlar ilm-fan erkinligiga to‘sqinlik qilayotgan mafkuraviy cheklovlardan norozilik bildirdilar. Xususan, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd kabi Sharq mutafakkirlari ilm-fanni rivojlantirish va uni jamiyat taraqqiyotiga xizmat qildirish kerakligini ilgari surdilar. Fanni mukammallikka yetaklovchi qudratli kuch sifatida tan olib, Forobiy uni amaliy hayotda qo‘llashda aql-idrokdan foydalanish, jamiyat ehtiyojlarini chuqur anglash va shu orqali ijtimoiy farovonlikni ilg‘or usullar bilan ta’minlash zarurligini uqtiradi. Shu bilan birga, o‘rta asrlar G‘arb falsafasida diniy ta’sir kuchli bo‘lgan davrlarda ixtirolar va ilmiy kashfiyotlar ba’zan xurofot sifatida qoralanib, olimlar ta’qib ostiga olingan. Biroq, bu jarayonda F.Akvinskiy yoki keyinchalik R.Bekon kabi mutafakkirlar falsafiy tafakkur va fan taraqqiyotini targ‘ib qilishga harakat qildilar, shu yo‘l bilan din va fan o‘rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga intildilar. Bu holat qadimgi davrning “tabiiy qonun”ini saqlab qolish zarurati bilan bog‘liq bo‘lib, muvozanatli jamiyat me’yorlari bilan kelishishni talab qiladigan oraliq yechimni topish harakati sifatida namoyon bo‘ldi.

MUHOKAMA. Volter, Russo, Didro kabi ma’rifatparvar mutafakkirlar ilmiy tafakkur va oqilona fikrlash orqali jamiyatning ijtimoiy hayotini yaxshilash, insonlarni jaholatdan xalos etish mumkinligini isbotlaganlar. Xususan, Russo ta’kidlashicha, inson tabiatan erkin va teng yaratilgan bo‘lsa-da, jamiyatdagi siyosiy-iqtisodiy munosabatlar tufayli bu tenglik buzilishi, ba’zan esa bu buzilish taraqqiyot niqobi ostida sodir bo‘lishi mumkin[3]. Shu bois, sanoat inqiloblari jarayonida jamiyat va ilmiy-texnik taraqqiyot o‘rtasidagi ziddiyat negizida inson erkinligi va texnik mahsulotlarga egalik o‘rtasidagi nomutanosiblik yotadi, deb taxmin qilish mumkin. Volter esa o‘z satiralarida mutaassiblik va jaholatni, ilm-fan yutuqlaridan bexabarlikni tanqid qilib, ayni paytda bu yutuqlardan noto‘g‘ri foydalanish jamiyatga zarar yetkazishi mumkinligidan ogohlantirib o‘tadi. Sanoat inqiloblari jarayoni Yevropada zavodlar, mashinalar, paroxodlar, temir yo‘llar kabi yangiliklar paydo bo‘lishiga olib keldi. Natijada iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tubdan o‘zgardi. Bir tomondan, xalq farovonligining oshishi, ish o‘rinlarining yaratilishi kabi ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ikkinchi tomondan esa, mehnatkashlarni ekspluatatsiya qilish, tengsizlik, shahar aholisining ijtimoiy ahvoli og‘irlashuvi kabi muammolar kelib chiqdi. Bu jarayon, shubhasiz, ijtimoiy-falsafiy tafakkurda ham o‘z aksini topdi. Shu tariqa ijtimoiy taraqqiyotga nisbatan mutlaq ijobiy (optimistik) yoki mutlaq salbiy (pessimistik) qarashlar shakllana boshladi.

F.Gegel jamiyat taraqqiyotini dialektik jarayon sifatida talqin etadi. Uning fikricha, har qanday rivojlanish qarama-qarshiliklar orqali sodir bo‘ladi; antiteza va sintez tamoyillari doimiy kurash jarayonida yangi xususiyatlarning paydo bo‘lishini ta’minlaydi[4]. Binobarin, fan o‘z tabiatiga ko‘ra avvalgi an’anaviy qarashlar bilan to‘qnashadi, ulardan yangi nazariya, yangi texnologiya tug‘iladi. Gegel jamiyatdagi ziddiyatlarni ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy tarkibiy qismi deb hisoblaydi. Demak, jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti o‘rtasidagi ziddiyat ham o‘z navbatida taraqqiyot kuchi sifatida namoyon bo‘lishi mumkinligi e’tirof etiladi.

NATIJALAR. Texnologik taraqqiyot jamiyatga ulkan imkoniyatlar berishiga qaramay, har bir ixtironing jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga va tabiatga ta’sirini chuqur tahlil qilish, nizolarni erta aniqlash va oldini olish zarur. Bu borada dunyo faylasuflari ilgari surgan g‘oyalar – metafizik yoki dialektik, ekzistensial yoki postmodern yondashuvlar

o‘zaro hamkorlik qilishi, turli jihatlardan bir-birini to‘ldirishi mumkin. Masalan, Gegelning dialektik tamoyilini “har qanday global loyihaga shubha bilan qarash” postmodernistik yondashuvi bilan uyg‘unlashtirish orqali biz ham taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan ziddiyatni tan olamiz, ham bu ziddiyatni sun’iy ravishda barcha muammolarning yagona yechimi deb hisoblamaymiz.

Ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar taklif etadigan nizolarni hal qilish strategiyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1. Oqilona boshqaruv: ilm-fan yutuqlarini ijtimoiy hayotga joriy etishda davlat siyosati va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, huquqiy cheklov va me’yorlarni ishlab chiqish. Maqsad – bozor yoki shaxsiy manfaat yo‘lida tabiat va ijtimoiy barqarorlikka xavf soluvchi amaliyotlardan saqlanish.

2. Tanqidiy fikrlash va demokratik muhit: ommaviy axborot vositalari, ilmiy markazlar, jamoat tashkilotlari o‘rtasida ochiq muloqot bo‘lishi zarur. Yangi texnologiya yoki kashfiyot taqdim etilganda, uning ijtimoiy va ekologik oqibatlari tanqidiy nuqtayi nazardan muhokama qilinishi lozim.

3. Ma’naviy qadriyatlarni mustahkamlash: insonni faqat moddiy boylikka intiluvchi mavjudot sifatida emas, balki ma’naviy-axloqiy tamoyillar asosida yashovchi zot sifatida tarbiyalash. Bu esa, o‘z navbatida, fan-texnika taraqqiyotidan foydalanishda ham qalbdan ma’naviy vazminlik va mas’uliyatni his etishni ta’minlaydi.

4. Globallashuv sharoitida hamkorlik: texnologiya ta’siri chegaralarni tan olmaydi. Ekologik muammolar, iqtisodiy inqirozlar, kiberxavfsizlik masalalari – bularning barchasi faqat bitta davlatning muammosi emas. Shu bois xalqaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, innovatsiyalar almashinuvini tashkil etish, qo‘shma monitoring mexanizmini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Yuqoridagi fikrlar shuni ko‘rsatadiki, insoniyat o‘z tarixi davomida bir necha bor “taraqqiyot to‘lqini”ga duch kelgan, bunda ba’zan inqirozlar va qiyinchiliklar ham yuzaga kelgan. Biroq aynan shu ziddiyatlarni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish va ularga yechim izlash jarayonida yangi g‘oyalar, zamonaviy mafkuraviy va konseptual qarashlar paydo bo‘lgan. Bularning barchasi bizga saboq beradi: faqatgina ilm-fan, madaniy-ma’naviy qadriyatlar va ijtimoiy uyg‘unlik bilan hamohang bo‘lgandagina haqiqiy taraqqiyot sari mustahkam qadam qo‘yishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Платон. Государство/Пер. с древнегреч. А.Н.Егунова. Вступ.ст. Е.Н.Трубетской проект, 2015. – 398 с.
2. Аристотель. Политика. – М.: Издательсвто АТС, 2022. – 384 с.
3. Руссо Ж. Социальный договор. – М.: Издательсвто Наука, 2005. – С. 53.
4. Азарова Н. М. Переводы “Феноменологии духа” Гегеля и язык русских философских текстов XX века. Известия РАН, 2008. – С. 46-53.
5. Aliyev N.N. Philosophical aspects of the use of the scientific and technical potential of young people in the development of society. American journal of social sciences and humanities reaserch. Vol-4, Issue-12, 2024. – P. 282-286.
6. Aliyev N.N. Ilmiy-texnik taraqqiyot tushunchasi va uning ijtimoiy-falsafiy tahlili. NamDU ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024. - № 12. – B. 304-308.
7. Aliyev N.N. Yangi davr falsafasida texnologik taraqqiyot va ekologik muvozanat masalasining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Tamaddun Nuri. – Qoraqalpog‘iston, 2025. – № 1. – B. 309-312.
8. Aliyev N.N. Fan-texnika taraqqiyotining ijtimoiy-ma’naviy muhitga ta’siri // O‘zMU xabarlari. – Toshkent, 2025. – № 1/1. – B. 39-41.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 37.025

JADID MATBUOTINING YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Samadova Sarvinoz Samad qizi, Buxoro davlat universiteti "Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE IMPORTANCE OF THE JADIDS PRESS IN THE SPIRITUAL EDUCATION OF YOUTH

Samadova Sarvinoz Samad kizi, Associate Professor of the Department of "Socio-Political Sciences" of Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD)

ЗНАЧЕНИЕ ДЖАДИДСКОЙ ПРЕССЫ В ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ

Самадова Сарвиноз Самад кызы, доцент кафедры "Социально-политических наук" Бухарского государственного университета, доктор философии по педагогическим наукам (PhD)

https://orcid.org/0000-0002-1486-8340
e-mail: sarvinoz56646@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jadid matbuotining o'zbek milliy ma'naviyatini shakllantirish va yoshlar tarbiyasidagi tutgan o'rni tahlil qilinadi. Jadidlar faoliyati, ularning nashr etgan gazeta, jurnallari va bu nashrlar orqali ilgari surilgan taraqqiyparvar, ma'rifiy g'oyalar yoritiladi. Yosh avlod ongiga mustahkam axloqiy qadriyatlarni singdirishda jadid matbuotining roli, o'sha davrda berilgan ma'naviy, ilmiy va milliy g'oyalar bugungi kunda ham dolzard ahamiyatga ega ekanligi haqida fikr yurutilgan. Maqolada jadid matbuotining yoshlar ma'naviy kamolotini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Jadid matbuoti, ma'naviyat, "Tarjimon" gazetasi, Ismoil Gaspirali, "Oyna" jurnali, "Taraqqiy "gazetasi, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy.*

Annotation: *This article examines the role of the Jadid press in shaping Uzbek national spirituality and educating the younger generation. It highlights the activities of the Jadids, their published newspapers and journals, as well as the progressive and educational ideas promoted through these publications. The paper discusses the contribution of the Jadid press to instilling strong moral values in young people and emphasizes that the spiritual, scientific, and national ideas expressed during that period remain relevant today. The study also analyzes the significance and impact of the Jadid press on the spiritual development of youth.*

Keywords: *Jadid press, spirituality, Tarjimon newspaper, Ismail Gasprinsky, Oyna journal, Taraqqiy newspaper, Mahmudkhoja Behbudi, Abdulla Avloni.*

Аннотация: *В статье анализируется роль джадидской прессы в формировании узбекской национальной духовности и воспитании молодежи. Рассматривается деятельность джадидов, издаваемые ими газеты и журналы, а также прогрессивные и просветительские идеи, продвигаемые через эти издания. Подчеркивается значение джадидской прессы в привитии молодому поколению устойчивых нравственных ценностей. Отмечается, что духовные, научные и национальные идеи того времени сохраняют свою актуальность и в наши дни. В статье также*

рассматриваются роль и значение джадидской прессы в формировании духовного совершенства молодежи.

Ключевые слова: *джадидская пресса, духовность, газета «Таржимон», Исмаил Гаспринский, журнал «Ойна», газета «Тараккий», Махмудходжа Бехбуди, Абдулла Авлоний.*

KIRISH. Jadidchilik XIX asr oxiri XX asr boshlarida turkiy dunyoda vujudga kelgan islohotchilik harakatidir. U G‘arb taraqqiyotini kuzatish orqali ta’lim, til va madaniyatni modernizatsiya qilishni maqsad qilgan edi. Ismoil Gaspirali bu harakatning asoschisi sifatida maydonga chiqdi. Bu harakatning keng tarqalishida Gaspiralining “Tarjiman” gazetasi va boshqa nashrlarning xizmati katta bo‘ldi.

Jamiyatni yangilash maqsadi yangi avlodlar orqali amalga oshishini bilgan jadidlar o‘zlari ochgan maktablar orqali Turkistonda ta’lim tizimini va kadrlar tayyorlashni yaxshilashga intildilar. 1905-1914-yillarda matbuot va nashr ishlari ham ma’lum bir tamoyillar doirasida tartibga solindi. Gazeta va jurnallar, jadid maktablarida foydalanish uchun darsliklar tayyorlash va nashr etish, umuman, turli kitoblarni nashr etish orqali jamiyatning bugungi holati, jumladan, siyosat, boshqaruv, ilm-fan, madaniyat, maorif, kadrlar tayyorlash kabi masalalardan jamoatchilikni xabardor qilish jarayonini boshlab yubordilar. Bu sa’y-harakatlar asosida jadidlar “Turkiston xalqlarida milliy ongni shakllantirishni” maqsad qilganlar[2.36].

NATIJA VA MUHOKAMA. Jadidlar Turkiston madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlari, turmush tarzidagi zarur o‘zgarishlarni xalqqa ko‘rsatib, mustamlakachilik siyosati orqali yo‘qotilgan tili, dini, madaniyatini qayta tiklash maqsadi yo‘lida kurashga chaqirdi. O‘zbek jadidchilari xalqqa milliy o‘zligini, milliy qadriyatlarini, ma’naviyati va madaniyatini saqlab qolish yo‘llarini ko‘rsatib berdilar.

Jadidchilik harakatining mazmun-mohiyatini millat va Vatanni anglash, yurt va xalq manfaatlari uchun kurash tashkil etadi. Bu harakatga a’zo bo‘lgan jadidlar xalq ta’limini asosiy o‘ringa qo‘ydilar. Chunki ozodlik va mustaqillik, millat va vatanning yashashi, taraqqiyoti uchun ta’lim tizimini isloh qilish zarur ekanligini anglab yetdilar. Shuning uchun ular xalqning uyg‘onishi va milliy ongini shakllantirishga alohida ahamiyat berdilar. Huquqlar, qonunlar, milliy davlat va suverenitet kabi siyosiy masalalar bilan ongli va muntazam ravishda mashg‘ul bo‘lgan jadidlar barcha darajadagi ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish zarurligiga e’tibor qaratdilar va bunga erishish uchun harakat qildilar. Ular xalqning milliy ongini rivojlantirishga ko‘maklashish maqsadida milliy matbuotni barpo etdilar, teatrni shakllantirdilar, milliy adabiyotni yaratdilar va shu bilan zamon sharoitiga mos keladigan, kelajakni belgilovchi yangicha g‘oyani taqdim etdilar. Bu g‘oya millatning o‘zligini anglashi va istiqlol g‘oyasi edi [3.5].

Ma’rifatchilik harakati, eng avvalo, ta’lim-tarbiyaga yangilik olib keldi. An’anaviy madrasa ta’limidan tashqari, dunyoviy ilmlarni ham o‘z ichiga olgan “Usul-i Jadid” maktablari ochildi. Bu maktablarda savodxonlik, ona tilida ta’lim, zamonaviy o‘quv dasturi kabi yangiliklar joriy etildi. Boshlang‘ich ta’limni isloh qilish va yangi ta’lim tizimini joriy etish g‘oyasining yetakchi targ‘ibotchisi Ismoil Gaspirali edi.

Turkistonga “Usul-i Jadid” maktablarini olib kelgan Ismoil Gaspirali “Tilda, ishda, fikrda birlik” shiori asosida ta’lim faoliyati bilan birga turkiy dunyoda birlashtiruvchi vazifani ham o‘z zimmasiga oldi. Bu doirada, ayniqsa, ta’lim va matbuotga e’tibor qaratgan Gaspirali, o‘zi ochgan maktablarda ta’lim faoliyatini davom ettirar ekan, ayni paytda o‘zi chop etgan “Tarjimon” gazetasi bilan Qozondan Kavkazga, Qrimdan Turkistonga qadar juda keng bir geografiyada keng o‘quvchilar auditoriyasiga ega bo‘ldi. Matbuotdagi faoliyati bilan ham nom qozongan Ismoil Gaspiralining tashabbuslari ortidan Turkistonning turli viloyatlarida yangi avlod maktablari paydo bo‘la boshladi. Turkistonda salmoqli o‘rin egallagan jadidchilar orasida Munavvar qoridan tashqari Mahmud Xoja Behbudiy, Abdurrauf Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab siymolar bor edi. Bu siymolar matbuot faoliyati orqali jadidchilik sohasidagi kurashlarini davom ettirdilar. Bu

faoliyatlar Turkistonda vujudga kelgan milliy ongga hissa qo‘shdi.

Turkiston o‘lkasida jadidchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ayrim shaxslar tomonidan qiziqish bilan kuzatilgan. Ushbu modernizatsiya jarayonlari matbuot faoliyatida ham o‘zini namoyon qildi. Turkistonda jadidchilik bilan bog‘liq matbuotning rivojlanishida bu hududda o‘zbek turk tilida nashr etilgan “Turkiston viloyati gazetasi”, shuningdek, Usmonli turkiy, Kavkaz va Volga bosma nashrlarining xizmatlari katta bo‘lgan[3.37]. Bu gazetalarni misol qilib olgan jadidchilar asta-sekin o‘z gazetalarini chiqarishni boshladilar va shu orqali o‘z g‘oyalarini kengroq ommaga yetkazish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

1913-yilda matbuot bilan shug‘ullana boshlagan Behbudiy o‘sha yilning aprel oyida “Samarqand” gazetasini chiqaradi. Dastlab haftada ikki marta turk va fors tillarida nashr etilgan bu gazeta keyinchalik ikki, keyin to‘rt sahifaga kengaytirildi[3.52]. Garchi bu gazetaning sahifalar soni zamonaviy jurnalistik amaliyotdan uzoqdek bo‘lsada, uni davr sharoitini hisobga olgan holda hal qiluvchi qadam deb hisoblash kerak. “Samarqand” gazetasi chor hukumati tomonidan yopilgach, Behbudiy ikki haftada bir marta chiqadigan “Oyna” jurnalini chiqara boshlaydi. O‘sha davr siyosiy arboblari tanqidiga uchragan bu matbuot faoliyati islohotchilar tomonidan qiziqish bilan kutib olindi. Jadidchilik harakatiga hissa qo‘shgan yana bir shaxs Abdulla Avloniydir. Ma’rifat va matbuot faoliyati bilan kurashini davom ettirgan Avloniy 1907-yilda “Shuhrat” nomli gazeta chiqardi[3.56]. Turkiston o‘lkalarida chiqadigan bu gazetalarning barchasi fikr bildirish bilan birga yangiliklar yetkazishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Matbuotdagi faoliyati bilan ta’lim-tarbiya sohasidagi g‘oyalarini mustahkamlab, ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal etgan Abdulla Avloniy 1905-yilda “Adabiyot” darsligini nashr ettirdi. Bu nihoyatda mashhur kitob 1917-yilda ko‘p marta qayta nashr etilgan. Avloniy o‘z asarlarida og‘zaki nutq va o‘quvchilarning o‘qish va diksiyasini rivojlantirishga alohida urg‘u bergan[1.81]. Bu faoliyatlarning barchasi jadidchilarning tilni rivojlantirish, ta’limni hozirgi sharoitga moslashtirish borasidagi talab va sa’y-harakatlarining aniq ko‘rsatkichlari edi. 1906-yil yanvar oyida Ismoil Obidov tomonidan nashr etilgan “Taraqqiy” gazetasi Turkiston xalqining milliy uyg‘onishiga hissa qo‘shishga intildi. “Xurshid” gazetasining asoschisi Munavvarqori va Mahmudxo‘ja Behbudiy ham chor tuzumiga, ham konservativ doiralarga qarshi maqolalar yozgan. Behbudiy Turkistonning yangi davr tarafdorlari uchun dastur taklif qilib, barcha musulmonlarni birlashishga chaqirgan. O‘sha davrning siyosiy faollari tomonidan yopilgan ommaviy axborot vositalarining o‘rnini yangilari bilan to‘ldirish kerakligini ta’kidlagan jadidlar shu yo‘l bilan g‘oyalar tarqalishiga hissa qo‘shishni maqsad qilgan.

Jadidchilik harakatining muhim namoyandalaridan bo‘lgan Munavvarqori 1906-yil yanvar oyidan nashr etila boshlangan “Taraqqiy” gazetasida yozgan maqolalari orqali jadidchilik sohasida faol rol o‘ynagan. Turkiston milliy kurashiga hissa qo‘shgan eng muhim matbuot vositalaridan yana biri “Sado-i Turkiston” edi. Gazetaning birinchi soni 1915-yil 4-aprelda chiqqan. Milliy uyg‘onish yo‘lida muhim vositalardan biri bo‘lgan bu gazetalarning barchasi ijtimoiy hayotning shakllanishiga hissa qo‘shgan.

“Sado-i Turkiston” gazetasining asoschisi Xo‘jayev rus maktablarida tahsil olgan va advokatlik bilan shug‘ullangan. Xo‘jayev do‘sti Vadim Chaykin bilan birga ushbu gazetaning ruscha tarjimasi “Golos Turkestana”ni ham nashr ettirdi. Turkiston islohotchilarining ko‘pchiligi bu gazetalar atrofida to‘plangan edi. Bu gazetalar ta’lim islohoti bilan boshlangan modernizatsiya jarayonlarining intellektual asosini tashkil etib, keng ommaga yetib borishi bilan islohotchilik g‘oyasini ilgari surishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Maorifda islohotlar zarurligini ifodalash orqali rivojlangan jadidchilik harakati tez orada matbuotda aks-sado berish imkoniyatini topdi va milliy uyg‘onishning yagona vakiliga aylandi. Yirik matbuot idoralari atrofida to‘plangan bu shaxslarning barchasi Turkistonda matbuotning paydo bo‘lishiga katta hissa qo‘shgan.

Jadid matbuoti va uning faoliyatini umumlashtirgan holda quyidagilarni ayta olamiz:

- Jadid matbuoti XX asr boshidagi Turkistonning ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi yangilanishning o'ziga xos bir ko'rinishi sifatida namoyon bo'ldi va millatning uyg'onishida muhim rol o'ynadi.

- Jadid matbuotining maydonga kelishida yoshlarning xizmati katta bo'ldi. O'lkada chuqur tomir otgan bosh-boshdoqlik, urug'-aymoqchilik, isrof, xurofot, mutaassiblik kabi salbiy odatlarga barham berish, xalqni milliy birlik, mustaqillik, ma'rifat va adolat bayrog'i ostida birlashtirish taraqqiyparvar jadid yoshlari intilishlarining maqsad-mazmunini tashkil qiladi.

- Turkiston matbuot vositasida qardosh, tildosh, dindosh turk olamiga chiqdi. Ular bilan o'z taqdirini bir ko'rdi, o'tmishning achchiq tajribalaridan saboq chiqarishga, kelajak uchun bir tan, bir jon bo'lib kurashish zaruriyatiga ishonch hosil qildi.

- O'zbek jadid matbuoti yangi o'zbek adabiyotining shakllanishi va taraqqiy topishida oltin beshik vazifasini o'tadi. Behbudiydan Cho'lpongacha bo'lgan jadid adabiyotining barcha vakillari fikrlarini ham, qalamlarini ham ilk gazeta jurnallarda charxladilar.

- Jadid matbuotining eng muhim xizmati millatni uyg'otish va uni mustaqillik uchun tayyorlash edi. Matbuot buni sharaf bilan bajardi[3.64].

XULOSA o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, Turkiston modernizatsiya jarayonlari kuzatilgan eng ko'zga ko'ringan joylardan biridir. Ta'lim islohoti bilan shakllangan g'oyalar pirovardida milliy ongning shakllanishiga olib keldi. Matbuot orqali ommaga yetkazilgan bu g'oyalar jadidchilik harakatini qo'llab-quvvatlashga zamin yaratdi. Dastlab ta'lim islohotini targ'ib qilgan ziyolilar milliy ongni rivojlantirish yo'lida muhim qadamlar tashladilar, dunyoviy fanlarni o'zlari ochgan maktablar o'quv dasturlariga kiritdilar va shu tariqa an'anaviy ta'lim tizimiga jiddiy o'zgarishlar kiritdilar.

Milliy ongni shakllantirish, maorif islohotini amalga oshirish maqsadini ko'zlagan Turkiston islohotchilari siyosiy tazyiqlarga qaramay, o'z fikrlarini aytishdan tortinmadilar. Bu g'oyalarni o'zlari tashkil etgan matbuot vositalari orqali xalqqa yetkazish orqali Turkistonda milliy matbuotning paydo bo'lishiga zamin yaratdilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Güngör, E. Türkistan'da Fikir Akımları Ceditçilik Türkçülük İslamcılık,İ stanbul: IQ Kültür Sanat Yayıncılık. 2011-y.
2. Veli Savaş Yelok. Özbek cedit hareketi ve cedit matbuatı üzerine: tespit ve değerlendirmeler. Akademik Bakış. Cilt18. 2025-y.
3. Qosimov. B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. T.: Ma'naviyat, 2002-y.
4. Samadova S.S. The significance of the Jadids' scientific heritage in developing the spirituality of yourth in New Uzbekistan // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. Indonesia. Volum 1. Number 4.2025.
5. Samadova S.S. The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan// Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1.2025.
6. Samadova.S.S. Jadidlarning ma'rifiy qarashlari va ta'lim tizimiga qo'shgan hissasi.// Pedagogik mahorat. 2-son. 2025-y.
7. Samadova S.S. The role of Jadid theater in the development of youth spirituality.// Journal of Multidisciplinary Academic Business Studies(JoMABS). Indonesia.Volume 2, Number 3, 2025.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 81-13

SPORT DISKURSI NUTQ PRAGMATIKASINING OBYEKTI SIFATIDA

Xasanov Zafar Baxtiyorovich, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz tili 2-fakulteti yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan muovini

SPORT DISCOURSE AS THE OBJECT OF PRAGMATICS

Khasanov Zafar Bakhtiyorovich, Deputy Dean for Youth Affairs and Spiritual and Educational Affairs, 2nd Faculty of English Language, Uzbek State University of World Languages

СПОРТИВНЫЙ ДИСКУРС КАК ОБЪЕКТ ПРАГМАТИКИ

Хасанов Зафар Бахтиёрович, заместитель декана по работе с молодёжью и духовно-просветительской работе 2-го факультета английского языка Узбекского государственного университета мировых языков

https://orcid.org/0009-0007-2545-5027
e-mail: xasanovzafarw088eb@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola sport nutqining pragmatik tahlilini o'rganadi. Sport nutqi voqealarni tasvirlashdan tashqari, ijtimoiy birlik va emotsional birdamlikni shakllantiradi. Maqolada sport nutqining uchta yo'nalishi: institutsional kontekst, shaxsiy kommunikatsiya va auditoriya diskursi ko'rib chiqiladi. Futbol muxlislari nutqidagi qichqiriqlar va shiorlar diskursiv-pragmatik kuchga ega kommunikativ akt sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari sport diskursining jamiyatdagi identitet va kollektiv birlashishni ta'minlashda ahamiyatli ekanini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *sport diskursi, pragmatik tahlil, illokutiv kuch, perlokutiv kuch, emotsional birlashuv, milliy identitet, shiorlar, diskurs markerlari, ijtimoiy birlashuv, madaniy qadriyatlar.*

Annotation: *This article focuses on the pragmatic analysis of sports discourse. Sports language not only describes events but also plays a crucial role in shaping social cohesion and emotional solidarity. The article identifies three main directions of sports discourse: institutional context, personal communication, and audience discourse. Football fans' chants, slogans, and online comments are analyzed as discursive-pragmatic acts. The findings of the study show that sports discourse has a layered structure, and its illocutionary and perlocutionary forces contribute to the construction of identity and collective unity within society.*

Keywords: *sports discourse, pragmatic analysis, illocutionary force, perlocutionary force, emotional unity, national identity, slogans, discourse markers, social unity, cultural values.*

Аннотация: *Данная статья посвящена прагматическому анализу спортивного дискурса. Спортивный язык не только описывает события, но и играет важную роль в формировании социальной сплоченности и эмоциональной идентичности. В статье выделены три основных направления спортивного дискурса: институциональный контекст, личная коммуникация и дискурс аудитории. Кричалки, лозунги и онлайн-выражения болельщиков футбола рассматриваются как дискурсивно-прагматические акты. Результаты исследования показывают, что спортивный дискурс имеет многослойную структуру, а его иллокутивные и перлокутивные силы способствуют построению идентичности и коллективной солидарности в обществе.*

TAMADDUN NURI

Ключевые слова: *спортивный дискурс, прагматический анализ, иллокуторная сила, перлокуторная сила, эмоциональное единство, национальная идентичность, лозунги, дискурсивные маркеры, социальное единство, культурные ценности.*

KIRISH. Sport diskursi zamonaviy lingvistikaning muhim tadqiqot sohalaridan biri bo‘lib, uning pragmatik xususiyatlarini tahlil qilish nafaqat leksik-semantik qatlamni, balki kommunikativ-strategik jihatlarni ham o‘rganishga imkon beradi. Sport nutqi ijtimoiy va madaniy kontekstda keng o‘rganilgan, bu esa uning kommunikativ kuchini va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyatini yanada oshiradi. Tony Schiratoning ta’kidlashicha, sport nutqi faqatgina sport voqealarini aks ettiruvchi matnlar yig‘indisi emas, balki ijtimoiy kuch va identitet qurilishining faol maydoni sifatida talqin qilinadi. Shu sababli, sport nutqi faqat ma’lum bir voqeani tasvirlash bilan cheklanmay, balki ijtimoiy birlik va emotsional birdamlikni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada futbol muxlislari nutqi va uning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi, xususan, muxlislar nutqidagi illokutiv va perlokutiv funksiyalar o‘rganiladi[1][1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Maqolada sport diskursi pragmatik tahlil usullari asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda sport nutqining uchta asosiy yo‘nalishi ajratilgan[2][2]: 1)institutsional kontekst (masalan, matbuot anjumanlari, sharhlar); 2)shaxsiy kommunikatsiya (murabbiy va futbolchi nutqi); 3)auditoriya diskursi (muxlislar va jamoatchilik muloqoti). Tadqiqot metodlari orasida diskurs tahlili, pragmatik analiz va lisoniy korpuslarni tahlil qilish kiritilgan. Maqolada, xususan, futbol muxlislari nutqidagi shiorlar, qichqiriqlar va onlayn fikrlar diskursiv-pragmatik kuchga ega bo‘lgan kommunikativ akt sifatida izohlanadi.

MUHOKAMA. Sport nutqining pragmatik tahlili, uning turli illokutiv maqsadlarda ishlatilishini chuqurroq ko‘rsatib beradi, bu esa sport diskursining ko‘p qatlamli va dinamik xususiyatlarini ochib beradi. Masalan, sharhlovchilarning nutqi informatsion va analitik bo‘lib, ular o‘yinlarni tizimli tahlil qilish va tomoshabinlarga voqealarni aniq tushuntirish orqali ma’lumotni etkazishadi. Bu nutq odatda rasmiy va obyektiv bo‘lib, uning asosiy maqsadi – o‘yinning barcha jihatlarini izohlash, statistikani taqdim etish va o‘yinchilarni baholashdir. Boshqa tomondan, muxlislarning nutqi ko‘proq emotsional va ekspressiv xususiyatlarga ega bo‘lib, ular o‘z hissiyotlarini, sevgi yoki nafratni ochiq tarzda namoyish etadilar. Muxlislar o‘z guruhining yoki sevimli jamoasining g‘alabasini nishonlash, mag‘lubiyatni rad etish yoki biror qarorga qarshi norozilik bildirishi mumkin, bu esa sportning ko‘proq psixologik va ijtimoiy tomonlarini ta’kidlaydi.

Bunday farqlar sport diskursining ijtimoiy ahamiyatini yanada oydinlashtiradi, chunki u nafaqat voqealarni tasvirlash, balki sportdagi ijtimoiy munosabatlarni ham aks ettiradi. Muxlislarning o‘rtasidagi o‘zaro suhbatlar, hayqiriqlar yoki shiorlar – masalan, “Hakam, ko‘rmayapsanmi?!” kabi ta’riflar faqat biror bir shaxsiy fikr yoki xabarni yetkazishdan tashqari, kommunikativ strategiyani amalga oshirgan holda, illokutiv kuchga ega bo‘lishi mumkin. Bu holatni tahlil qilish, sport diskursining atrof-muhitga ta’sirini va unda ishtirok etuvchilarning xatti-harakatlarini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Muxlislar o‘z qichqiriqlari va shiorlari orqali sudyaga bosim o‘tkazishga, yoki o‘yinchilarga ko‘proq motivatsiya berishga harakat qiladilar, bu esa sportda ijtimoiy kuchlarning bir shakli sifatida ko‘rinadi.

Muxlislar orasidagi suhbatlar, shuningdek, sport jurnalistikasiga qaraganda ko‘proq dialogik, interaktiv va jonli xususiyatlarga ega. Bu suhbatlar nafaqat o‘yin va o‘yinchilarga oid fikrlarni almashish, balki auditoriyaning emotsional holatini shakllantirish va birlashtirishga ham xizmat qiladi. Muxlislarning shiorlari va hayqiriqlari kommunikativ maydonni kengaytiradi, chunki ular tomoshabinlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqada bo‘lib, umumiy birlashuvni, ya’ni “bir jamoa” hissini yaratadi. Ushbu birlashuv o‘zgaruvchan va

[1] Ayaqulov N.A. Sport Terms Borrowed from Different Languages into Uzbek // International Journal of Linguistics, Literature and Translation. – 2019. – Vol. 2. – № 4. – P. 159-160.

[2] Xudayberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 17.

teskari ta'sirlarni yuzaga keltiradi, chunki bir muxlisning ijobiy yoki salbiy hissiyoti boshqalar tomonidan tezda qabul qilinishi va kuchayishi mumkin.

Shuningdek, sport nutqi milliy va madaniy qadriyatlarni o'z ichiga olib, o'ziga xos bir madaniy kod sifatida ishlaydi. Masalan, futbol va boshqa sport turlarida o'yinchilarga qarshi aytilgan shiorlar yoki muxlislarning qichqiriqlari ko'pincha ma'lum bir milliy identifikatsiya bilan bog'liq bo'ladi, ular o'z milliy jamoalari yoki yurtlari uchun kurashayotganini anglatadi. Shunday qilib, sport nutqi nafaqat o'yinlar haqida ma'lumot beradi, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini ham aks ettiradi. Bu nutq, o'z navbatida, milliy identitetni yaratishda va shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki sportda g'alaba yoki mag'lubiyat, ko'pincha, butun millatning g'alaba yoki mag'lubiyatiga tenglashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, sport nutqi bu nafaqat voqealarni tasvirlash, balki ijtimoiy birlik va emotsional birdamlikni shakllantirishning kuchli vositasidir. Uning pragmatik tahlili, kommunikativ strategiyalarni amalga oshirish orqali, jamiyatdagi identitetni yaratish va kuchaytirishning eng samarali usullarini ko'rsatadi.

NATIJALAR. Tahlil natijalariga ko'ra, sport diskursi pragmatik jihatdan qatlamli tuzilishga ega. Bir xil termin yoki ibora turli vaziyatlarda turlicha illokutiv kuchga ega bo'lishi mumkin[3][3]. Masalan, "Biz yutamiz!" degan jumla murabbiy og'zidan direktiv-komissiv akt sifatida ifodalansa, muxlislar hayqirig'ida u ekspressiv xarakter kasb etadi. Bu, sport nutqining vaziyatga bog'liqligini va uning turli ijtimoiy kontekstlarda qanday farqlanib ishlashini ko'rsatadi. Shuningdek, futbol muxlislari nutqining emotsional-ekspressiv xarakteri va shiorlarning jamiyatdagi milliy identifikatsiya va birdamlikni shakllantiruvchi roli ham o'rganildi. Muxlislarning "O'zbekiston, olg'a!" kabi qichqiriqlari nafaqat rag'batlantiruvchi, balki birlashgan kollektiv identitetni yaratishga xizmat qiladi[4][4].

XULOSA. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sport diskursi nutq pragmatikasining obyekti sifatida kommunikativ, emotsional va identitet quruvchi funksiyalar bilan ajralib turadi. Sport nutqining diskurs markerlari, metaforalar, eponimlar va qisqa undovlar uning pragmatik kuchini ta'minlovchi asosiy vositalar sifatida namoyon bo'ladi. Sharhlovchilar, murabbiylar, sportchilar va muxlislarning nutqlari turlicha illokutiv maqsadlarga ega bo'lsa-da, ularning barchasi auditoriyani jalb etish va muloqot maydonini kengaytirishga xizmat qiladi. Mahalliy sport diskursi global xususiyatlarni o'zlashtirgan holda, milliy qadriyatlar va madaniy kodlarni nutqiy amaliyotga singdiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ayaqulov N.A. O 'sha asar.
2. Ayaqulov N.A. Sport Terms Borrowed from Different Languages into Uzbek // International Journal of Linguistics, Literature and Translation. – 2019. – Vol. 2. – № 4. – P. 159-160.
3. Xudayberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 17.
4. Schirato T. Sports Discourse. – London–New York: Bloomsbury Academic, 2013. – P. 14.
5. Putra R.P. Figurative Language in Football Commentaries: A Neutrality Bias Analysis of the 2022 FIFA World Cup Final: Thesis. – Padang: Universitas Negeri Padang, 2024. – P.18.
6. Meszaros M. Lexicological View of the Language of the Sport Commentaries: Diploma Thesis. – Brno: Masaryk University, 2014. – P.29.
7. Caldwell D., Walsh J., Vine E.W., Jureidini J. (eds.). The Discourse of Sport: Analyses from Social Linguistics. – London–New York: Routledge, 2017. – P.37.

[3] Meszaros M. Lexicological View of the Language of the Sport Commentaries: Diploma Thesis. – Brno: Masaryk University, 2014. – P. 29.

[4] Caldwell D., Walsh J., Vine E.W., Jureidini J. (eds.). The Discourse of Sport: Analyses from Social Linguistics. – London–New York: Routledge, 2017. – P. 37.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 141.3

DIALOG VA ILMIY-IJODIY FAOLIYATNING METODOLOGIK JIHATLARI

Maxkamov Ulug'bek Abdugapporovich, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti "Falsafa" kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ДИАЛОГА И НАУЧНО-ТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Махкамов Улугбек Абдугаппорович, доцент кафедры "Философия" Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека, (PhD)

METHODOLOGICAL ASPECTS OF DIALOGUE AND SCIENTIFIC CREATIVE ACTIVITY

Makhkamov Ulugbek Abdugapporovich, Associate Professor of the Department of Philosophy, National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, Doctor of Philosophy in Philosophical Sciences (PhD)

e-mail: ulke 01659@ mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada dialog fenomeni falsafiy va ilmiy-ijodiy faoliyat kontekstida tahlil etilgan. Dialog ontologiyasi inson mavjudligining universal shakli sifatida, "Men" va "Sen" munosabati orqali mavjudlikni anglash usuli sifatida izohlangan. Suqrotning mayevtika usuli, M.Baxtinning dialogik ontologiyasi hamda zamonaviy muloqot nazariyalari asosida ilmiy ijodning intersubyektiv tabiati yoritilgan. Maqolada nutqiy muloqotning verbal va noverbal ko'rinishlari (mimika, imo-ishora, ohang, yuz harakatlari va boshqalar)ning ilmiy hamda falsafiy tafakkurdagi ahamiyati ochib berilgan. Shuningdek, dialogning ma'no yaratish, fikr almashish va haqiqatni anglash jarayonidagi metodologik o'rni hamda inson tafakkurining shakllanishidagi ta'siri ilmiy asosda tahlil qilingan.*

Tayanch so'zlar*: dialog, ontologiya, falsafiy muloqot, ilmiy ijod, intersubyektivlik, verbal va noverbal aloqa, nutq falsafasi, ma'no yaratish, muloqot madaniyati, Suqrot mayevtikasi.*

Annotation: *In this article, the phenomenon of dialogue is analyzed in the context of philosophical and scientific-creative activity. Dialogue ontology is interpreted as a universal form of human existence, a way of knowing existence through the "I" and "You" relationship. The intersubjective nature of scientific creativity is illuminated based on Socrates' maivetic method, M.M. Bakhtin's dialogic ontology, and modern communication theories. The article reveals the significance of verbal and nonverbal forms of speech communication (facial expressions, gestures, intonation, facial expressions, etc.) in scientific and philosophical thinking. Also, the methodological role of dialogue in the process of creating meaning, exchanging ideas, and understanding the truth, as well as its influence on the formation of human thinking, is analyzed on a scientific basis.*

Keywords*: dialogue, ontology, philosophical communication, scientific creativity, intersubjectivity, verbal and nonverbal communication, philosophy.*

Аннотация: *В данной статье феномен диалога анализируется в контексте философской и научно-творческой деятельности. Онтология диалога интерпретируется как универсальная форма человеческого существования, как способ познания существования через отношения "Я" и "Ты". Освещена интерсубъективная природа научного творчества на основе майевтического метода Сократа, диалогической онтологии М.М. Бахтина и современных теорий общения. В статье раскрывается значение вербальных и невербальных форм речевого общения (мимика,*

жесты, интонация, мимика и т.д.) в научном и философском мышлении. Также на научной основе анализируется методологическая роль диалога в процессе создания смысла, обмена идеями и понимания истины, а также его влияние на формирование человеческого мышления.

***Ключевые слова**: диалог, онтология, философская коммуникация, научное творчество, интерсубъективность, вербальная и невербальная коммуникация, философия речи, создание смысла, культура общения, сократовская майевтика.*

KIRISH. Dialog ontologiyasi insonning mavjudligi va uning dunyodagi o‘rni bilan uzviy bog‘liqdir. Suqrotdan to zamonaviy falsafa va germenevtika maktablarigacha bo‘lgan davrda muloqot inson ma’naviyatining asosiy manbai sifatida talqin qilingan. Suqrot “mayevtika” usuli orqali shogirdlar bilan savol-javob qilib, haqiqatga yaqinlashish yo‘lini topgan. Bu jarayonda haqiqat bir yoqlama emas, balki ikki yoqlama jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. M.M.Baxtinning ta’kidlashicha, inson o‘z mohiyatiga ko‘ra dialogik mavjudot hisoblanadi. Ya’ni insonning ichki nutqi doimo “boshqasi” bilan munosabatga kirishgan holda rivojlanadi. Ontologik jihatdan dialog bu “Men” va “Sen”ning, subyekt va boshqa subyektning o‘zaro munosabati orqali mavjudlikni anglash usulidir[1]. Ontologiyada dialog shuningdek inson va jamiyat munosabatlarida o‘z ifodasini topadi. Ilmiy-ijodiy faoliyat nuqtayi nazaridan qaralsa, har qanday kashfiyot yoki yangilik hamisha “yakkalik” mahsuli emas, balki ijtimoiy muloqotning natijasidir. Masalan, I.Nyuton o‘z davrida “Men buyuk kishilar yelkasidan turib atrof-muhitni ko‘rmoqdaman” degan so‘zlari bilan ilm-fanning dialogik tabiatini ifodalagan. Demak, dialog ontologik jihatdan fanning barcha tarixiy bosqichlarida undan ajralmas jarayondir. Bu esa dialogni nafaqat bilim almashish, balki ma’nolar va qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlovchi universal asos sifatida talqin etish imkonini beradi[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Maqolada Suqrot, Aflotun va Aristotel asarlari dialog nazariyasining ilk manbalari sifatida ochib berilgan. Suqrot dialogni haqiqatni izlash usuli sifatida talqin etgani ta’kidlangani holda uning “savol-javob” uslubi bilimni muloqot orqali faollashtirishga qaratilgani ko‘rsatilgan. Aflotun dialog formasi orqali falsafiy fikrni ifoda etgan va uni inson ma’naviyatini shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘rgan bo‘lsa, Aristotel dialogni mantiqiy bilish va ritorikaning asosiy usuli sifatida tavsiflagani tahlili berilgan. Shu jihatdan, dialog nafaqat muloqot, balki fikrni tuzish va isbotlash jarayoni sifatida ham namoyon bo‘ladi. Sharq falsafasida Abu Nasr al-Forobiyning qarashlarida muloqot jamiyatning ma’naviy va siyosiy barqarorligi uchun asosiy shart sifatida baholangan. Ali ibn Sino esa dialogni bilish va axloqiy kamolot vositasi sifatida talqin qilgani holda ilm va falsafa faqat bahs va mulohaza orqali rivojlanishi to‘g‘risidagi qarashlari ochib berilgan. Shuningdek, zamonaviy falsafada dialog mavzusi uning asoschilari Martin Buber va Mixail Baxtin asarlari orqali tahlil qilingan.

MUHOKAMA. XXI asrda fan va texnologiyalar jadal sur’atlar bilan rivojlanib, insonning borliqqa munosabatida yangi bosqichni boshlab berdi. Ilmiy-ijodiy faoliyat faqat nazariy bilimlar yoki amaliyotiy tadqiqotlar yig‘indisi emas, balki butunlay intersubyektiv jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayonda dialog fenomeni markaziy o‘rin tutadi. Chunki har qanday ilmiy yangilik, nazariy kashfiyot yoki innovatsiya hamisha muloqot, fikr almashish, bahs va tortishuv orqali shakllanadi.

Dialog bu ikki yoki bir nechta subyektning munosabati emas, balki butun ijtimoiy-madaniy makonda ma’nolar yaratish jarayonidir. M.M.Baxtin ta’kidlaganidek, dialog mavjudlikning universal shakli, insonning ma’naviy hayotining asosiy qonuniyatlaridan biridir. Shu nuqtayi nazardan dialog ilmiy ijodiy faoliyatning ontologik, epistemologik va metodologik qirralarini ochib beruvchi universal vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Dialog falsafiy fikr yuritishning zaruriy sharti hisoblanadi. Shuning uchun dialog olib borishning samaradorligini oshiruvchi sharoitni aniqlab olish lozim. Zero dialog o‘zaro umumiy hamkorlik vositasi bo‘lib, u orqali faylasuflarning o‘ziga xos dunyoqarashi namoyon bo‘ladi. Odatda falsafiy dialog qatnashchilari umumiy xislatlarga ega bo‘lib, ulardan birinchisi falsafiy xislatdir. U qatnashchilardan nafaqat bir xillikni, balki umumiy aloqadorlikni talab etadi. Maqsadga yaqinlashish uchun mavjud o‘zaro harakat “intensiya” deb ataladi. Intensiya bu dialogning me’yoridir.

Falsafiy fikr yuritish qandaydir yangi, umuman kutilmagan mulohaza bilan ifodalanadi. Yangi fikrni qabul qilgan kishi unga e'tibor bermasligi, yoki o'zicha u bilan ish olib borishi mumkin. Bu fikr shaxs o'ylagan, ma'lum darajada sezgan, voqelikning o'ziga xos ifodasi hisoblanadi. Ammo shunga qaramasdan dialog jarayonida ilgari surilgan yangi fikr butunlay boshqacha bo'lishi ham mumkin. Bunday holat esa suhbatdoshdan "boshqacha so'zlar" bilan aytilgan yangi fikrga nisbatan tanqid qilish, inkor va shubha qilish istagini tug'diradi.

Причинами подобных ошибок являются характерные особенности языковых моделей, в частности:

-Обучение на вероятностных текстовых паттернах без критической верификации информации.

-Ограниченность доступа к специализированным академическим базам данных.

-Отсутствие способности к глубокому историко-лингвистическому анализу.

Результаты проведённого анализа позволяют сделать ряд важных наблюдений о специфике обработки этимологической информации искусственным интеллектом.

Прежде всего, выявленная неоднородность качества ответов свидетельствует о том, что искусственный интеллект может достаточно уверенно воспроизводить стандартные и часто встречающиеся этимологии, опираясь на имеющиеся в его корпусе данные. В случаях, когда фамилии известных писателей хорошо документированы в популярной литературе и доступны в электронных базах, ИИ демонстрирует высокую степень точности и способности передавать корректные этимологические сведения. Примеры с фамилиями Пушкин и Толстой подтверждают данное наблюдение.

Важно подчеркнуть, что тенденция к «галлюцинациям» в ответах ИИ (Bender et al., 2021) особенно ярко проявляется в сферах, требующих не только интерпретации текстов, но и знания исторической динамики языковых изменений, что характерно для этимологических исследований. Проблема усугубляется отсутствием у ИИ механизмов критической проверки достоверности собственных утверждений и дифференциации между научно обоснованными фактами и вероятностными гипотезами.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Проведённое исследование позволило выявить специфику функционирования искусственного интеллекта при интерпретации этимологии фамилий известных русских писателей. Анализ полученных ответов показал, что языковые модели способны воспроизводить базовую информацию при наличии чётких данных в обучающем корпусе, однако часто демонстрируют ошибки в случаях, требующих глубокого лингвистического анализа и историко-культурной осведомлённости.

Таким образом, использование искусственного интеллекта в области этимологии представляет собой интересное, но требующее осторожности направление современной цифровой филологии, открывающее новые горизонты для взаимодействия традиционной науки и технологий.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Аристотель. Сочинения: в 4-х т. М.: Мысль, 1978. Т. 2. 530 с.
2. Платон. Диалоги. М.: Наука, 1986. 547 с.
3. Петровский Н. А. *Словарь русских личных имён*. - М.: АСТ, 2005. -512 с.
4. Суперанская А. В. *Общие вопросы ономастики*. - М.: Наука, 1973. - 272 с.
5. Тимохович А.Н., Самоходкина Е.Г., Самоходкин Е.В., Эльзон А.А. Проблематика цифровых технологий и искусственного интеллекта в научных работах // Цифровая социология. 2023. Т. 6. No 1. С. 13–20.
6. Унбегаун Б.О**.** *Русские фамилии*. - М.: Прогресс, 1989. - 280 с.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 510.01: 510.92

MATEMATIK TAFAKKUR TARAQQIYOTI: MOZIY VA HOZIRGI ZAMON (FALSAFIY TAHLIL)

Bobojonov Dilmurod Rejapboy o'g'li, Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU akademik litseyi matematika fani o'qituvchisi

DEVELOPMENT OF MATHEMATICAL THOUGHT: PAST AND PRESENT TIME (PHILOSOPHICAL ANALYSIS)

Bobojonov Dilmurod Rejapboy oglu, teacher of mathematics at the Academic Lyceum of UrDU named after Abu Rayhon Beruniy

РАЗВИТИЕ МАТЕМАТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ: ПРОШЛОЕ И НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ (ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ)

Бободжонов Дилмурод Реджапбой оглы, учитель математики Академического лицея УрГУ имени Абу Райхона Беруни

https://orcid.org/0009-0008-1815-1970
e-mail: bobojonovdilmurod20@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada matematik tafakkurning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari, shuningdek, uning falsafiy-metodologik asoslari tizimli tahlil etilgan.*

Kalit so'zlar: *matematik tafakkur, algoritm, islom matematik merosi, falsafiy tahlil, sifr tushunchasi (nol), arab raqam tizimi, uchinchi renessans.*

Abstract: *This article systematically analyzes the stages of the formation and historical development of mathematical thought, as well as its philosophical and methodological foundations.*

Keywords: *mathematical thinking, algorithm, Islamic mathematical heritage, philosophical analysis, concept of zero, Arabic numeral system, third Renaissance.*

Аннотация: *В данной статье системно анализируются этапы становления и исторического развития математической мысли, а также её философские и методологические основы.*

Ключевые слова: *математическое мышление, алгоритм, исламское математическое наследие, философский анализ, концепция нуля, арабская система счисления, третье Возрождение.*

KIRISH. Insoniyat tafakkuri taraqqiyotida falsafaning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Qadimgi davr faylasuflaridan to hozirgi kungacha rivojlanib kelgan bu fan rivojiga aniq fanlar sohasida taniqli bo'lgan мatematik olimlar – bu mutafakkirlar bo'lib, ularning faoliyati matematik tadqiqotlar va falsafiy g'oyalar bilan chambarchas bog'liqdir. Ko'zga ko'ringan faylasuflar qatorida matematikaga fan sifatida asos solgan Pifagor va «Elementlar» asari bilan mashhur Evklid kiradi. Shuningdek, ushbu turkumga Karl Fridrix Gauss va Sofiya Kovalevskaya kiradi, ularning ilmiy ishlari matematikaning rivojlanishiga va uning falsafiy tushunchasiga katta ta'sir ko'rsatdi[4]. Aynan Pifagor matematik faylasuf sifatida olamning asosida sonlar turadi, ya'ni substansiya

sonlar ekanligini ta'kidlagan olim sifatida ma'lumdir. Matematik sifatida u «sonlarning otasi» yoki birinchi sof matematik sifatida tanilgan va to'g'ri burchakli uchburchak tomonlari nisbati haqidagi Pifagor teoremasi, kvadrat sonlar va kvadrat ildizlar tushunchasi va oltin nisbatning kashfiyoti bilan mashhur. Pifagorning asl yozuvlaridan hech biri saqlanib qolmagan va uning izdoshlari odatda uning nomi bilan o'z asarlarini nashr etishgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Uning ta'limotini keyinchalik rivojlantirgan olimlardan biri vatandoshimiz Muhammad ibn Muso al-Xorazmiyning hisob usullarini, jamlash, taqsimlash, ko'paytirish, bo'lish va kasr chiqarish kabi ilmi hisobni bayon qiluvchi boshqa bir kitobi XXII asrda ispan va lotin tillariga tarjima qilindi. Bu kitob 1143-yilda olmon tiliga tarjima qilindi. Ana o'sha vaqtdan boshlab, olmonlar u kishini Algorezimus nomi ila atay boshladilar va lotin tilida u zotning sha'niga va nazariyalariga atab she'rlar bitildi. U kishining boshqa kitoblari ham lotin va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Matematika tushunchasini sharhlashda olim shunday e'tirofni keltiradi: "Ushbu ajnabiy istilohni "hisob ilmi" desak ham bo'ladi. Chunki bu boradagi barcha ilmlarda nomi turlicha bo'lsa ham, ularda hisoblash bor. Hisoblash uchun raqamlar kerak. Hozirgi kunda hisoblashda Dunyo qanday raqamni ishlatadi? Albatta, arab raqamlarini. Chunki hisobni bilgan odam biror narsaning hisobini yozmoqchi bo'lsa, albatta o'sha arab raqamlariga murojaat etadi. Lekin menga qolsa, mazkur raqamlarni arab raqamlari emas, balki Islom raqamlari deb atagan bo'lar edim. Chunki Islomdan oldin arab raqami deb atalayotgan narsa bo'lgan emas. Hatto Islom olamida ham avval yunon raqamlari ishlatilar edi. Islomning fazli bilan ilm rivojlandi. Asli arab millatidan bo'lmagan, Movarounnahrlik musulmon olim Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy hindiy raqamlar asosida hamma uchun qulay bo'lgan hozirgi raqamlarni ishlatishni yo'lga qo'ydi. U kishi bir kitob yozib, unda avval hindiy hisob nizomini bayon qildi. Keyin esa uni amalga tatbiq qilish bo'yicha o'z uslublarini misollar bilan ko'rsatdi. Hammaga hisob-kitob yuritishni o'rgatdi. Ayniqsa, meros bo'lishni juda ham aniq qilib ko'rsatdi" [1, 225]. Aytish joizki, Muso al-Xorazmiyning aynan "Al-jabr val muqobala" asari matematik hisoblash ilmini tartibga solib bergan mukammal asar bo'lib, hozirgi algebra fanining yuzaga kelishiga asos aynan shu olimning xizmatidir. Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy yozgan kitoblar ichida eng mashhurlaridan biri "Al-Jabr va al-muqobala" bo'lib, bu kitob ilmi hisobdagi yevropaliklar hozirda algebra nomi bilan ataydigan fanga asos bo'ldi. Zotan, "algebra" arabcha "al-jabr"ning yevropachalashtirilgan talaffuzidir. Bu kitob o'rta asrlarda lotin tiliga tarjima qilinib, butun Yevropada darslik vazifasini o'tadi.

Aynan bugungi kunda algoritm tushunchasining fanga kiritilganligi ham Algorizmus nomidandir. Eng mukammal hisoblash mashinalarining asosini ham yaratilishida al-Xorazmiyning hisoblash dasturidan foydalaniladi.

Xorazmiy, to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, insoniyatni hozirgi formal matematik tafakkur tarziga (demak, umuman, tafakkurning hozir qo'llanilayotgan shakliga) o'rgatgan dahodir. Masalan, algoritm nazariyasining ildizi bevosita al-Xorazmiyning ilmiy uslubiga, obyektivlashtirish va formallashtirish tamoyiliga borib taqaladi. U arifmetikani tubdan isloh qildi. Algebra faniga asos soldi, butun dunyoda qo'llanilayotgan "arab raqamlari"ni – 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 0 – fanga kiritdi, o'nlik tartibini (sistemasini) joriy qildi. Xorazmiy ismidan nafaqat "algoritm" atamasi yasalgan, shuningdek, uning asari nomidan "algebra" tushunchasi hosil bo'lgan. Xorazmiygacha ayrim algebraik masalalar va ularniig yechimi mavjud bo'lsa-da, algebra yaxlit tizimga keltirilgan fan sifatida shakllanmagan edi. Xorazmiygacha hind matematikasida raqamlarning ba'zi birlari va o'nlik tartibining ayrim unsurlari bo'lgan. Xorazmiy ularni tubdan qayta ishlab, yangi sistema yaratdi. Darhaqiqat olim A.Erkayevning ushbu e'tirofi har bir o'zbekistonlik ilm fidoyilarining qalbida g'urur-iftixor uyg'otadi. Zero, bugungi ilm-fanda, ayniqsa matematika taraqqiyotida Muso al-Xorazmiyning ushbu kashfiyoti matematika ilmida katta inqilob edi.

NATIJALAR. Boshqa bir xorazmlik olim Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy rahmatullohi alayhi ham ilmi hisob bo'yicha ulug' kashfiyotlar qilgan.

Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy rahmatullohi alayhi 976-yilda o'zining

“Mafotiyhul ulum” nomli kitobida hisob amaliyotlarida o‘nliklarda bo‘sh joy qolsa, kichkina doira shaklidagi alomat qo‘yishni taklif etadi. U kishi o‘sha doirani “sifr”, ya’ni “hech narsa” deb nomlaydi. Xuddi mana shu “sifr” nazariyasi insoniyatning ilmlar bo‘yicha eng buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Bu narsa bizda ruslarga ergashib, “nol” deyiladi. Bu ham “hech narsa” ma’nosini beradi. Yevropa xalqlari ham Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiy rahmatullohi alayhining “sifr”ini tarjima qilib, “zero” deydilar[1,226].

MUHOKAMA. Darhaqiqat, “nol” bo‘lmasa, hisob-kitob qilish mumkin emas holga kelib qoladi. Bu kashfiyotning qadri elektron hisoblash mashinalari – kompyuterlar chiqqanda yana ham ortdi. Hozir ulardagi hamma narsa aynan “nol” asosida amalga oshiriladi. Hamma raqamlarning asosida “nol” bo‘ladi. Uning ba’zi qismini ishlatib, ba’zisini ishlatmaslik yo‘li bilan qolgan raqamlar barpo qilinadi.

Shuningdek, inson tushunchasiga matematika olim sifatida baho berganda Al-Xorazmiyning ajoyib tenglamasi bo‘lib, bu har bir ilm ahlini tafakkur qilishga chorlaydi.

Riyoziyot olimi al-Xorazmiydan inson haqida so‘rashdi [3]. Olim shunday dedi:

“Agar inson yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, u 1 ga teng.

Agar inson husn sohibi bo‘lsa, birning yoniga nolni qo‘sh = 10 bo‘ladi.

Agar inson boy bo‘lsa, yana bir nolni qo‘sh = 100 bo‘ladi.

Agar nasl-nasabli bo‘lsa, yana bir nolni qo‘sh = 1000 bo‘ladi.

Agar 1 raqami, ya’ni xulq yo‘q bo‘lib ketsa, insonning qiymati yo‘qqa chiqib, nollarning o‘zi qoladi = 000”.

Ushbu tenglama har bir ziyolini o‘zini taftish qilishga chorlaydigan kashfiyot bo‘lib, bobokalonimiz Xorazmiyning o‘zlari aynan shu ifodani o‘zida aks ettirgan alloma ekanligiga shubha yo‘q. Zero har kim o‘zida borini namoyon etadi.

XULOSA. Tadqiqot natijasida xulosa qilib aytsak, murakkab tafakkur taraqqiyoti – matematik tafakkurning daho allomalari bizning yurtimizdan chiqqanligi, G‘arb olimlari tomonidan bugungi kunda e’tirof etilayotganligi bugungi yosh avlodni ularga munosib avlod bo‘lishga undaydi. Tarixi ulug‘ bo‘lgan xalqning kelajagi buyuk bo‘ladi. Kelgusi avlod, ya’ni Uchinchi Renessans bunyodkorlari moziy sahifalarida oltin harflar bilan qayd etilgan alloma mutafakkirlarimizning boshlagan ezgu ishlarini, ularning ilmini kelgusida yanada yuksak cho‘qqilarga olib chiqishga burchlidirlar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф. Ҳадис ва ҳаёт. -Т:Ҳилол нашр, 2016. -Б 225-226.
2. The Compendious Book on Calculation by Completion and Balancing (Kitāb al-Muḫtaṣar fī Ḥisāb al-Jabr wa-l-Muqābala).
3. https://t.me/s/QDPI_adabiy_muhiti=2023Buyuk
4. https://theosophy.kr.ua/?p=4026

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 1/159.9.07

DESTRUKTIV EMOTSIONAL HOLATLAR O‘RTASIDAGI INTERAKTIV MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Abdug‘aniyeva Diyora Abdurashid qizi, O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi tayanch doktoranti

https://orcid.org/0009-0001-8214-626X
e-mail: abduganiyevadiyora2@gmail.com

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF INTERACTIVE RELATIONSHIPS BETWEEN DESTRUCTIVE EMOTIONAL STATES

Abduganieva Diyora Abdurashid kizi, Doctoral student of international islamic academy of Uzbekistan

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ИНТЕРАКТИВНЫХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ ДЕСТРУКТИВНЫМИ ЭМОЦИОНАЛЬНЫМИ СОСТОЯНИЯМИ

Абдуганиева Диёра Абдурашид кызы, базовый докторант международной исламской академии Узбекистана

Annotatsiya: *Shaxs bir vaqtning o‘zida bir nechta shu jumladan qarama-qarshi emotsiyalarni ham boshdan kechirishlari mumkin, ko‘pincha bir toifadagi emotsiyalar aralashadi: “salbiy” (qayg‘u, g‘azab, zerikish) yoki “ijobiy” (quvonch, zavq, qoniqish). Bir vaqtda kuzatiluvchi aralash destruktiv emotsional holatlar shaxs psixologik salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, destruktiv emotsional holatlar o‘rtasidagi interaktiv munosabatlar muammosining psixologik tahlili masalasi dolzarbligini oshiradi.*

Kalit so‘zlar: *shaxs, emotsiya, emotsional holat, psixologik salomatlik, maniakal holat, simptom, xavotir, depressiya.*

Abstract: *An individual can experience several, including contradictory, emotions simultaneously. Emotions of the same category often intermingle, such as “negative” (sadness, anger, boredom) or “positive” (joy, pleasure, satisfaction). The simultaneous occurrence of mixed destructive emotional states negatively affects psychological well-being, increasing the relevance of psychological analysis of the interactive relationships between destructive emotional states.*

Key words: *personality, emotion, emotional state, psychological health, manic state, symptom, anxiety, depression.*

Аннотация: *Личность может одновременно испытывать несколько, в том числе противоположных эмоций. Часто смешиваются эмоции одной категории: “негативные” (печаль, гнев, скука) или “положительные” (радость, удовольствие, удовлетворение). Одновременное проявление смешанных деструктивных эмоциональных состояний оказывает негативное влияние на психологическое здоровье личности, что повышает актуальность психологического анализа проблемы интерактивных взаимосвязей между деструктивными эмоциональными состояниями.*

Ключевые слова: *личность, эмоция, эмоциональное состояние, психологическое здоровье, маниакальное состояние, симптом, тревога, депрессия.*

TAMADDUN NURI

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Klassik psixologik adabiyotlarda destruktiv emotsional holatlar – emotsional farovonlik yetishmasligi, murakkab yechimli shaxsiy nizolar va boshqaruv malakalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi fonida yuzaga keladigan salbiy holat hisoblanadi[8]. Emotsional buzilishlarning o‘ziga xosligi temperament xarakteristikasi, xavotirlanish darajasi, ijtimoiy tajriba bilan belgilanadi. Bugungi kunga qadar destruktiv emotsional holatlarning qonuniyatlari va xususiyatlarini o‘rganish uchun barcha zaruriy nazariy shartlar yaratilgan, emotsiyalarning kelib chiqishi va rivojlanishi, ularning filogenezdagi roli aniqlangan[10].

Shaxsning yetuklik fazilatlari yetarli darajada barqaror bo‘lmasa, hayotiy vaziyatlarni idrok etishdagi patogenlik oshadi. Bunday holatda, murakkab hayotiy vaziyat sifatida idrok etilayotgan vaziyat – destruktiv emotsional holatlar yuzaga kelish jarayonida “harakatlantiruvchi mexanizm” rolini o‘ynashi mumkin. Aynan destruktiv emotsional holatlar ijtimoiy dezadaptatsiya, nevrotik, psixosomatik kasalliklar, nerv-psixik buzilishlar chegarasidagi kasalliklar tabiatini belgilaydi[10]. Destruktiv emotsional holat tushunchasini nerv-psixik zo‘riqishda namoyon bo‘ladigan, atrofdagi voqelik bilan adekvat munosabatda bo‘lishda qiyinchiliklarga olib keladigan, funksional zahiralarning kamayishiga va odatiy farovonlikni idrok etishning o‘zgarishiga olib keladigan maxsus turdagi emotsional hodisalar sifatida tushunish lozim[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Psixologik adabiyotlarda, xususan, Z.Freyd, K.Xorni, A.Bandura, R.Mey kabi olimlarning asarlarida emotsional holatlarning bir-biriga ta’siri va ularning shaxs ichki konfliktlari bilan bog‘liqligi chuqur tahlil qilingan. Masalan, Z.Freyd fikricha, maniakal epizodlar – bu ongsiz darajadagi tushkunlikka qarshi hosil bo‘lgan psixik himoya shaklidir[5]. Bu esa maniakal holatni depressiyadan ajralgan, lekin unga bog‘langan deb ko‘rishga asos beradi. Ayniqsa, bipolyar affektiv buzilish (BAB) kontekstida maniakal holatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Shaxsda qisqa muddatli yuksalgan kayfiyat, haddan tashqari faollik, tanqidiy fikrlashning pasayishi, impulsiv harakatlar, megalomaniya kabi belgilar bilan birga real voqelikdan uzoqlashish kuzatiladi [2]. Bu holat o‘z navbatida boshqa destruktiv holatlar – xavotirli kutish, g‘azab portlashlari yoki qayta tushkunlik bilan almashib borishi mumkin.

Aralash holat – maniakal (yoki gipomaniakal) va depressiv simptomlarning aralashmasi yoki tez almashinuvi kuzatiluvchi affektiv holatdir. Aralash epizodda ushbu simptomlarning ikkala to‘plami ham holatning ko‘pgina qismida ahamiyatli darajada namoyon bo‘ladi. Aralash holatlar bipolyar buzilish doirasida keng tarqalgan[9] va bu holat kuzatiluvchi mijozlarning 40% ida uchraydi[4]. Aralash holatlarning muhim tarkibiy qismi, bu og‘ir affektiv simptomlarning mavjudligi bilan bog‘liq bo‘lgan xavotirlanishdir[7]. Hatto aralash holatlarni maniakal-depressiv psixoz (bipolyar buzilish)ning ajralmas qismi sifatida tavsiflagan E.Kraepelin ham bu holatlarga ega bo‘lgan shaxslarni xavotirlanishga moyil, “yuqori darajadagi asabiylashish va qo‘zg‘aluvchanlik” sifatlari bilan tavsiflaydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Amerika xavotir buzilishlari assotsiatsiyasi (GAD) ma’lumotlariga ko‘ra, bu kabi psixik buzilishlar (jumladan, umumiy xavotir buzilishi, vahima va ijtimoiy xavotir buzilishi) amerikalik katta yoshdagi shaxslar orasida eng keng tarqalgan ruhiy salomatlik muammosi bo‘lib, har yili aholining 18,1 foizida bu holat uchraydi. Kayfiyat buzilishi, jumladan, depressiya, bipolyar buzilishlar va mavsumiy affektiv buzilish mehnat qobiliyatini yo‘qotishning asosiy sababidir. Bundan tashqari, xavotirlanishga qo‘shimcha ravishda depressiya holatlari yoki aksincha, xavotirlanish kuchaygan odamlarda depressiyaning paydo bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Og‘ir depressiyaga uchragan ko‘plab odamlar og‘riqli va doimiy xavotirlanishdan aziyat chekadilar. “Ba’zi mutaxassislarning fikriga ko‘ra, xavotirlanish mavjud shaxslarning 60 foizi depressiya belgilariga ega”, deb xabar beradi Amerika ruhiy kasalliklar bo‘yicha milliy alyansi (NAMI).

Xavotirlanish – bu hayot siklining turli bosqichlari, ayniqsa bolalik va o‘smirlik davrida keng tarqalgan salbiy emotsional holat[3]. Shuningdek, xavotirlanish va boshqa destruktiv emotsional holatlar, jumladan, depressiya o‘rtasida

TAMADDUN NURI

kuchli aloqa mavjud. Xavotirlanish va depressiya o‘xshash emotsional profillarga ega bo‘lsa-da, ular bir necha jihatdan farqlanadi. Blumberg va Izardning ta’kidlashicha, xavotirlanish paytida qo‘rquv va cho‘chish ustun bo‘lsa-da, qayg‘u va energiya yetishmasligi depressiyaning markaziy belgilaridir.

Xavotirlanish buzilishlari va katta depressiya davriy taraqqiyot davomida yuzaga keladi, xavotirlanish buzilishlari odatda o‘smirlik davridan avval va erta o‘smirlik davrida, katta depressiya esa o‘smirlik va erta o‘rta balog‘at yoshida (16-18) paydo bo‘ladi. Ularning birgalikda kechishi evolyutsiyasiga kelsak, tadqiqotlar xavotirlanish buzilishi odatda asosiy depressiv buzilish boshlanishidan avval yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Yevropa hamjamiyati tadqiqoti 15 yoshdan boshlab taraqqiyot davomida ijtimoiy fobiyaga (DSM-IV mezonlari asosida) qaratilgan xavotirlanish va katta depressiya o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqladi[6]. Natijalar ushbu holatlar o‘rtasida 19% aloqadorlikni ko‘rsatdi, 65% hollarda esa ijtimoiy fobiya katta depressiv buzilishdan kamida 2 yil oldin kuzatiladi. Bundan tashqari, ijtimoiy fobiyaning dastlabki boshlanishi katta depressiv buzilishlarning rivojlanish xavfini 5,7 baravar oshirishi mumkin. Xavotirlanish va depressiya o‘rtasidagi bu bog‘liqliklar hatto bundan ham erta yosh davrlarida kuzatilishi mumkin. Bu holat, masalan, yangilikka yoki begonalarga yoki haddan tashqari xavotirlanishli temperamentga javoban bola xatti-harakatlarida ijtimoiy xavotirlanish buzilishi rivojlanishi ehtimolining 3-4 baravar oshishi bilan, bu esa o‘z navbatida asosiy depressiv buzilish va xavfli psixoaktiv moddalarni iste’mol qilish xavfi oshishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Xavotirlanish va depressiyaning sabab-oqibat munosabatlari (ya’ni, xavotirlanish depressiyani keltirib chiqaradimi yoki aksincha) va xavotirlanish va depressiya bilan bog‘liq bo‘lgan komorbidlik to‘g‘risidagi munozaralar hali ham olimlar orasida davom etmoqda. Bir tomondan, xavotirlanish depressiyadan avval yuzaga kelishini ko‘rsatuvchi bir nechta konseptual modellar mavjud. Barlou xavotir buzilishlarining uch tomonlama zaiflik modelini taklif qildi. Ushbu modelga ko‘ra “umumiy biologik zaiflik” bilan birgalikda “umumiy psixologik zaiflik” (masalan, avvaldan taxmin va nazorat qilishning zaif hissi) va xavfni o‘rganishning dastlabki tajribalariga asoslangan “o‘ziga xos psixologik zaifliklar” stressga olib kelishi mumkinligi taxmin qilinadi, bu holat esa umumiy xavotirlanish va depressiyaga olib keladi.

Bolalik va o‘smirlik davridagi ichki muammolarning rivojlanish trayektoriyalari va munosabatlarini tushuntirish uchun Koen va boshqalar bolalik davridagi xavotirlanishlar o‘smirlik davridagi depressiya simptomatikasini shakllantirishini taklif qiluvchi “geterotipik uzilish” modelini ilgari surdilar. “Geterotipik davomiylik” simptomining namoyon bo‘lishi psixopatologiyaning yangi shakliga zamin yaratganda yuzaga keladigan bo‘lsa, “uzilish” bir xil simptom rivojlanishning turli bosqichlarida turlicha ishlashini bildiradi. O‘z tadqiqotlarida ular bolalik davridagi xavotirlanish o‘smirlik davridagi xavotirlanishga, shuningdek, bu davrdagi xavotirlanish va depressiya o‘smirlikda depressiya yuzaga kelishiga ta’sir etishini aniqladilar. Boshqa nazariy asosda Sinarovskiy va boshqalar ayollardagi “depressogen zaifliklarni” o‘rgandilar. Ular ta’kidlashicha, “ota-ona bilan ishonchsiz aloqa”, “xavotirlanuvchan/tormozlangan temperament” va “quyi instrumental kurash qobiliyatlari”ning mustaqillik (va o‘zaro ta’sir) bilan uyg‘unligi, shaxslarni “o‘smirlik davrida qiyin o‘tish” xavfiga, bu esa “xavotirlanish”ga olib keladi. Shu bilan birga, ayollarga xos “balog‘at davridagi gormonal o‘zgarishlar”, “balog‘at yoshidagi affiliatsiyaga bo‘lgan ehtiyojning ortishi”, “ayol jinsining sotsializatsiyasi” ayollarning ushbu jarayon davomida ko‘proq zaiflashuviga olib keladi, bu esa uning asosida xavotirlanish bilan birga kuchliroq “depressogen diatez”ni keltirib chiqaradi. Natijada, “yuqori affiliativ fokus, quyi bog‘lanish xavfsizligi va quyi vositalilik” bilan birga yuqori xavotirlanishga ega bo‘lgan, yuqori tavakkalchi ayollar “salbiy hayot hodisalari” bilan kurashishda depressiyaga moyil bo‘ladilar.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Destruktiv emotsional holatlarning interaktiv tabiati ularni tizimli va multidisiplinar o‘rganishni talab qiladi. Depressiya va xavotirlanish o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘zaro bog‘liqlik shaxsning ruhiy jarayonlari va tashqi ijtimoiy omillar ta’siri ostida shakllanadi. Ular

ko‘pincha bir-birini kuchaytiruvchi, kechikkan yoki yasalgan ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun bu holatlarni tahlil qilishda faqat individual psixologik yondashuv emas, balki ijtimoiy va madaniy komponentlarni ham hisobga olish zarur. Destruktiv emotsional holatlarning profilaktikasi ijtimoiy barqarorlik va iqtisodiy taraqqiyot uchun zaruriy omildir. Emotsional muvozanatsizlikning yuqori darajasi shaxsiy va ijtimoiy darajadagi muammolarga olib keladi: ish unumdorligi pasayadi, oila muammolari, zo‘ravonlik holatlari va hatto ekstremistik kayfiyatlar kuchayadi. Shu sababli, bunday holatlarning barvaqt aniqlanishi va psixoprofilaktikasi, nafaqat psixologik sog‘lomlikni, balki iqtisodiy va ijtimoiy muvozanatni ta’minlashda ham muhim rol o‘ynaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdug‘aniyeva D. Destruktiv emotsional holatlar – psixologik fenomen sifatida //News of the NUUz. – 2024. – T. 1. – №. 1.8. – C. 1.
2. American Psychiatric Association. (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (5th ed.; DSM-5).
3. Blumberg S.H., Izard C.E. (1986). Discriminating patterns of emotions in 10- and 11-yr-old children’s anxiety and depression. J. Pers. Soc. Psychol. 51, 852–857.
4. Fagiolini A., Coluccia A., Maina G., Forgione R.N., Goracci A., Cuomo A., Young A.H. Diagnosis, Epidemiology and Management of Mixed States in Bipolar Disorder. (англ.) // CNS Drugs. — 2015. — September (vol. 29, no. 9). — P. 725—740.
5. Freud S. The Ego and the Id. Standard Edition of the Complete Psychological Works of Sigmund Freud. 1923 p. 45.
6. Ohayon M.M., Schatzberg A.F. Social phobia and depression: prevalence and comorbidity. J Psychosom Res 2010; 68, p. 235–243.
7. Swann A.C., Steinberg J.L., Lijffijt M., Moeller G.F. Continuum of depressive and manic mixed states in patients with bipolar disorder: quantitative measurement and clinical features. (англ.) // World Psychiatry : Official Journal Of The World Psychiatric Association (WPA). – 2009. – October (vol. 8, no. 3). – P. 166-172.
8. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология: теория, история, библиография. М.: Дом Советов, 1996. С.5 (143 с.)
9. Воробьев Р.В. Клиническая типология смешанных маниакальных состояний при биполярном аффективном расстройстве : [арх. 16 марта 2022] // Российский психиатрический журнал. — 2014. — № 1.
10. Ефремова Диляра Набиулловна. Психологические особенности совладающего поведения личности при деструктивных эмоциональных состояниях: диссертация ...кандидата психологических наук: 19.00.01 / Ефремова Диляра Набиулловна. - Москва, 2012. - 236 с.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 17.023.36:316.356.2(519)"20"

JANUBIY KOREYA JAMIYATIDA AN'ANAVIYLIK VA ZAMONAVIYLIK DIALEKTIKASI KONTEKSTIDA OILAVIY QADRIYATLAR RIVOJLANISHI

Tolibov Abdurauf Nuriddin o'g'li, xalqaro Nordik universiteti katta o'qituvchisi

DEVELOPMENT OF FAMILY VALUES IN THE CONTEXT OF THE DIALECTIC OF TRADITION AND MODERNITY IN SOUTH KOREAN SOCIETY

Tolibov Abdurauf Nuriddin oglu, senior lecturer at the International Nordic University

РАЗВИТИЕ СЕМЕЙНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В КОНТЕКСТЕ ДИАЛЕКТИКИ ТРАДИЦИОННОСТИ И СОВРЕМЕННОСТИ В ЮЖНОКОРЕЙСКОМ ОБЩЕСТВЕ

Толибов Абдурауф Нуриддин оглы, старший преподаватель международного университета Нордик

https://orcid.org/0000-0003-3121-5293
e-mail: a.tolibov@nordicuniversity.org

Annotatsiya: *Maqolada Konfutsiyning patriarxal iyerarxiyasiga asoslangan Janubiy Koreya oilaviy qadriyatlarining modernizatsiya sharoitidagi dialektikasi ko'rib chiqiladi. Dialektik, germenevtik va qiyosiy usullar orqali an'ananing saqlanishi hamda zamonaviy tendensiyalar tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, garchi an'anaviy vertikal aloqalar ustun bo'lsa-da, gender tengligi kuchayib, nikohga bo'lgan munosabat keskin o'zgargan. Tadqiqot oilaning ma'naviy davomiyligini ta'minlash va o'zgaruvchan sotsial me'yorlarga moslashuv muammolarini falsafiy jihatdan yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Janubiy Koreya, oilaviy qadriyatlar, Konfutsiy an'anaviyligi, modernizatsiya, dialektika, individualizm, gender tengligi, "filial piety", transformatsiya.*

Abstract: *This article performs a socio-philosophical analysis of the dialectic between traditional Confucian family values (hierarchy and filial piety) and modern transformations in South Korea. Using dialectical and comparative methods, the study examines the influence of modernization, individualism, and gender equality on family structure. Results indicate the persistence of vertical kinship ties despite a sharp decline in the view that marriage is necessary. The paper discusses the philosophical challenge of maintaining moral continuity amidst rapidly changing social norms and family roles.*

Key words: *South Korea, family values, Confucianism, modernization, dialectics, individualism, gender equality, filial piety, transformation.*

Аннотация: *В статье проводится социально-философский анализ диалектики традиционных конфуцианских семейных ценностей (иерархии и сыновней почтительности) и современных трансформаций в Южной Корее. С использованием диалектического и сравнительного методов исследовано влияние модернизации, индивидуализма и гендерного равенства. Результаты показывают сохранение традиционных вертикальных связей при резком падении представления о необходимости брака. Обсуждается философская проблема сохранения моральной преемственности в условиях быстро меняющихся социальных норм.*

Ключевые слова: *Южная Корея, семейные ценности, конфуцианство, модернизация, диалектика, индивидуализм, гендерное равенство, сыновняя почтительность, трансформация.*

KIRISH. Zamonaviy globallashuv jarayonlari juda murakkab va ziddiyatli bo‘lib, ular ishlab chiqarish – iqtisodiy, sotsio-siyosiy va madaniy sohalarda, shuningdek, turmush tarzi va oilaviy munosabatlarda sezilarli o‘zgarishlar bilan tavsiflanadi. Janubiy Koreya jamiyatida oila instituti va oilaviy qadriyatlar ushbu o‘zgarishlarga duch kelgan holda, Konfutsiyning chuqur ildiz otgan an’anaviy axloqiy me’yorlari va zamonaviy g‘arb individualizmi va feminizm g‘oyalari o‘rtasidagi keskin dialektikani namoyish etmoqda.

Oila har qanday jamiyatning poydevori hisoblanib, inson hayotining barcha bosqichlari va eng dolzarb muammolari aynan oila ichidagi munosabatlarda aks etadi. Konfutsiy ta’limoti oilani jamiyatning markaziy ustuni deb bilgan va davlatning mustahkamligi uchun oila birligi va davomiyligini asosiy poydevor sifatida qabul qilgan. An’anaviy Koreya oilasi patriarxal hokimiyat va qat’iy iyerarxiya bilan belgilanadi[1.b.17]. Bu modelda *er/ota* eng oliy qaror qabul qiluvchi bo‘lib, xotinidan itoat va sevgiga javoban hukmronlik va mehribonlik ko‘rsatishi, farzandlaridan esa ota-onaga hurmat (filial piety [1]) va itoat olishi kutilgan. Koreyada aynan Konfutsiy an’analariga xos bo‘lgan intizom, sadoqat va kattalarga hurmat kabi yuqori kasbiy madaniyat mamlakatning “Iqtisodiy mo‘jizasi” va tezkor modernizatsiyasiga imkon bergan tarixiy omillar sirasiga kiradi [2.b.20].

Biroq, Koreya urushidan keyingi davrda va ayniqsa XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan shiddatli globallashuv, sanoatlashtirish va urbanizatsiya natijasida bu an’anaviy me’yorlar shubha ostiga olindi. Individualizm mafkurasining kirib kelishi va feminizm g‘oyalarining ta’siri an’anaviy oilaviy qoidalar va funksiyalarga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatdi. Zamonaviy oilalar tobora ko‘proq yadroviy oila [2] (nuclear family) shakliga o‘tmoqda va bolalar mustaqilroq bo‘lib ulg‘aymoqda.

Ushbu transformatsiya sharoitida oilaviy munosabatlar inqirozi, ajralishlarning ko‘payishi, yoshlar va qariyatlarning izolyatsiyasi kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa Konfutsiy an’analariga asoslangan ma’naviy o‘zlikni (moral identity[3]) saqlab qolish va ijtimoiy o‘zgarishlarga moslashish o‘rtasidagi fundamental ziddiyatni o‘rganishni ijtimoiy-falsafiy tahlilning markaziga olib chiqadi[1.b.18]. An’anaviylik va zamonaviylikning bu to‘qnashuvi Koreya jamiyatining barqaror kelajagini ta’minlash uchun nihoyatda muhimdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Oilaning ijtimoiy-falsafiy tahlili uni ijtimoiy dunyoning fundamental kategoriyasi va jamiyatning bir quyi tizimi sifatida ko‘rib chiqishni talab qiladi. Sharqda, jumladan, Koreyada oila masalalari Konfutsiy ta’limoti, uning axloqiy kodeksi va qadriyatlari nuqtayi nazaridan o‘rganilgan. Konfutsiy oilani eng muhim qadriyat deb hisoblagan.

Koreys oilasi bo‘yicha zamonaviy tadqiqotlar XX asr oxiri – XXI asr boshlarida oilaviy qadriyatlarning tubdan qayta ko‘rib chiqilishiga sabab bo‘lgan yangi madaniy va tarixiy voqeliklarga javoban dolzarb bo‘lib qoldi. Tadqiqotlar “oilaviylik” (familism) tushunchasiga e’tibor qaratadi, bu yerda shaxsiy manfaatdan ko‘ra, oila jamoasi manfaati ustun hisoblanadi (kollektivistik jamiyatning xarakteristikasi). Biroq, modernizatsiya tezlashgani sari, ayniqsa 1990-yillardan keyin, individualizm kuchayib, oila a’zolarining xohish-istaklari va shaxsiy baxti an’anaviy qoidalar ustidan ustunlik qilmoqda[3.b.46].

Tadqiqotlar koreys oilasining dualistik tabiatini ko‘rsatadi: bir tomondan, an’anaviy patriarxal tizim va avlodlar vorisligi (ota-o‘g‘il munosabati markaziy) saqlanib qolgan, boshqa tomondan, nikohga bo‘lgan munosabat va gender rollari sezilarli darajada o‘zgargan (masalan, ayollarning yuqori ijtimoiy mavqei).

Ushbu ijtimoiy-falsafiy maqolani tayyorlashda Konfutsiy an’analari va modernizatsiya nazariyasining o‘zaro ta’sirini tahlil qilish uchun quyidagi asosiy usullardan foydalanildi:

1. *Dialektik usul:* An’anaviylik va zamonaviylik o‘rtasidagi munosabatlarning ziddiyatli va murakkab tabiatini o‘rganish uchun

[1] Filial piety — bu insonning ota-onasi va ajdodlariga nisbatan axloqiy sadoqati, u orqali shaxs o‘zining ijtimoiy va ma’naviy mavjudligini tasdiqlaydi. U Konfutsiy falsafasida insoniylik (ren) va ijtimoiy uyg‘unlikning (li) asosiy sharti sifatida talqin qilinadi.

[2] Yadro oilasi — bu ijtimoiy birlik bo‘lib, odatda ikki ota-ona (er va xotin yoki ikkala jinsi bo‘lishi mumkin) va ularning bir yoki bir nechta farzandlaridan iborat hamda birligi bilan boshqa qarindoshlar, keng oila a’zolaridan nisbatan alohida yashaydigan oilaviy shakldir.

[3] Moral identity — bu shaxsning axloqiy qadriyatlar va tamoyillarni o‘z “men”i bilan uyg‘unlashtirgan o‘zligini anglash shakli, ya’ni insonning axloqiy me’yorlarni ichki e’tiqod va shaxsiy identifikatsiya sifatida qabul qilish darajasidir.

qo‘llaniladi. Bu usul Koreya oilasidagi mavjud qadriyatlar (masalan, oilani kollektiv sifatida qabul qilish) va yangi paydo bo‘lgan qadriyatlar (individual huquqlar, shaxsiy tanlov) o‘rtasidagi tortishuv (antagonizm)ni tahlil qilish imkonini beradi.

2. *Germenevtik usul:* Bu usul oilaviy qadriyatlar va munosabatlarning zamonaviy kontekstdagi chuqur ma’nosini tushunish va izohlashga yordam beradi. Xususan, an’anaviy Konfutsiy ta’limotining (masalan, *Hyo*) kundalik hayotdagi qoldiqlari va ularning ma’naviy-axloqiy jihatlari qanday transformatsiyalashganligini falsafiy jihatdan ochib berishda muhimdir[4.b.62].

3. *Qiyosiy tahlil usuli:* Bu Koreya oilasidagi transformatsiya jarayonlarini boshqa jamiyatlar (masalan, G‘arb yoki O‘zbekiston oilasi misolida) bilan solishtirishga imkon beradi. Koreyada iyerarxik an’analardan Avstraliyaning zamonaviy oila dinamikasi[4]ga o‘tish tendensiyasi shunga misol bo‘la oladi.

4. *Aksiologik yondashuv:* Ushbu yondashuv oilaviy qadriyatlarning iyerarxiyasidagi o‘zgarishlarni baholashga xizmat qiladi. U yosh avlodning estetik tafakkurida va oilaviy munosabatlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar muvozanatini ta’minlash muammolarini aniqlashtirishga yordam beradi[4.b.68].

Ushbu metodologik asos Janubiy Koreya Statatistika qo‘mitasi (Kostat) ma’lumotlaridan olingan statistik natijalarni Konfutsiy axloqiy asoslari bilan falsafiy sintez qilish uchun ishlatilgan.

NATIJALAR. Janubiy Koreya oilasining zamonaviy transformatsiyasini tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy Konfutsiy qadriyatlari saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar oila institutining funksional va ideologik jihatlariga chuqur ta’sir ko‘rsatdi. An’anaviy ravishda Koreys oilasi Konfutsiy munosabatlari orqali aniqlangan patriarxal ierarxiyaga asoslangan edi, bu yerda ota-o‘g‘il munosabatlari er-xotin munosabatlaridan ko‘ra markaziy hisoblangan. Bu iyerarxiyada ota-onaga hurmat (filial piety) eng ulug‘ Konfutsiy fazilati sanaladi. Garchi modernizatsiya tufayli katta oilalar yadroviy oilalarga aylangan bo‘lsa-da, bu qadriyat butunlay yo‘qolmagan. 2018-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, Koreyaliklarning 51.5%i er-xotin munosabatlaridan ko‘ra oilaviy munosabatni (avlodlararo aloqani) muhimroq deb hisoblagan, bu 2016-yilga nisbatan 3,5% p ga ko‘paygan. Bu holat Koreya jamiyatida vertikal avlodlararo bog‘lanishning gorizontal (er-xotin) bog‘lanishdan ustunligi haqidagi an’anaviy Konfutsiy tushunchasining saqlanib qolayotganini ko‘rsatadi.

Biroq, bu hurmatning amaliy shakli o‘zgargan: keksa ota-onalarni boqish majburiyati kamaymoqda. 2008-yilda ota-onalarning 38,0%i farzandlari bilan yashagan bo‘lsa, 2018-yilga kelib bu ko‘rsatkich 27,1% ga tushgan. Shu bilan birga, 2010-yilgi ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, garchi ota-onalarni boqish mas’uliyatini davlat va oila birgalikda zimmasiga olishi kerak degan fikr tez tarqalayotgan bo‘lsa-da (2002-yildagi 70,7% o‘rniga 2010-yilda 36,0% oilaning asosiy mas’uliyatini ta’kidlagan), farzandlarining moliyaviy yordamiga tayanadigan ota-onalar soni yuqori darajada qolmoqda [5. b.78].

Koreya iqtisodiyotining tezkor sanoatlashtirilishi va urbanizatsiya jarayonlari oila tuzilishining yadroviylashuviga olib keldi[9.b.6]. Bu avlodlararo munosabatlarni o‘zgartirdi. An’anaviy patrilokal “o‘zak oila” (stem family[5]), ya’ni ota-onalar turmush qurgan to‘ng‘ich o‘g‘li va uning bolalari bilan birga yashaydigan oila ideali zaiflashdi[6.b.50]. Yangi turmush qurgan juftliklar shaharlarga ko‘chib o‘tish va yangi turar joylarda yashash tendensiyasi natijasida mustaqil yashashni afzal ko‘rmoqda.

Modernizatsiya jarayonlari ayollarning jamiyatda va oilada mavqeini sezilarli darajada oshirdi. Hukumat ham ayollar va erkaklarning teng huquqliligini nazorat qilishga e’tibor qaratmoqda.

- Nikohga munosabat: 2018-yil holatiga ko‘ra, koreyaliklarning 56,4% i (13 va undan katta yoshdagilar) erkak va ayol turmush qurmasdan birga yashashi mumkin deb hisoblagan, bu ko‘rsatkich birinchi marta 50,0% dan oshgan (2010-yildagi 40,5% dan ko‘tarilgan). Shuningdek, xuddi shu yili (2018) atigi 48,1%i turmush qurish kerak deb hisoblagan, bu esa birinchi marta 50,0% dan pastga tushgan[1.b.83]. Bu, ayniqsa, yosh avlod va ayollar

[4] Avstraliyaning zamonaviy oila dinamikasi — bu oila institutining madaniy erkinlik, gender tengligi va ko‘p madaniyatli jamiyat sharoitida doimiy o‘zgarishdagi falsafiy va ijtimoiy harakatidir.

[5] Stem family modeli — keng (extended) oila va yadro (nuclear) oila o‘rtasidagi oraliq shakl. Uning asosiy falsafiy mohiyati — avlodlar davomiyligi, axloqiy vorislik va qadriyatlarning barqaror uzatilishi. Bu turdagi oila Konfutsiy an’analarida, Yevropa feodal jamiyatlarida (ayniqsa Fransiya, Germaniya, Yaponiyada) keng tarqalgan bo‘lib, oilaviy tartib, avlod shon-shuhrati va ijtimoiy muvozanatni saqlash vositasi sifatida qaralgan.

orasida nikohning zaruriy ijtimoiy me'yor sifatidagi qadriyatining pasayganini ko'rsatadi.

- Maishiy rollar: uy ishlarini taqsimlashga bo'lgan munosabat keskin o'zgargan. 1998-yilda respondentlarning 44,9%i uy yumushlari faqat ayolning vazifasi deb hisoblagan bo'lsa, 2010-yilga kelib bu atigi 6,4%ga tushgan; 36,8% esa adolatli taqsimlashni yoqlagan [3.b.86]. Bu gender tengligi ongining sezilarli darajada oshganligini ko'rsatadi.

Globallashuv va G'arb individualizmi mafkurasining ta'siri, ayniqsa erkaklarning xarakteriga ta'sir qilgan, oilaviy qadriyatlarning inqiroziga olib kelmoqda. Shaxsiy tanlov huquqining kuchayishi (erkinlik) oilaning kollektiv jamoa sifatidagi tushunchasini zaiflashtirib, uni "suv kabi oquvchan jamoa" (fluid group) sifatida ko'rish tendensiyasini oshirdi, bu yerda a'zolik shartlari emas, balki aloqa va muloqot muhimdir.

MUHOKAMA. Janubiy Koreya jamiyatidagi oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi Konfutsiy an'anaviyligi va zamonaviy modern o'rtasidagi doimiy moslashuv va to'qnashuv jarayonini aks ettiradi.

An'anaviy Konfutsiy qadriyatlari butunlay yo'qolmagan, aksincha, ular yangi sotsial shakllarga moslashgan. Masalan, oilaviy munosabatlarning er-xotin munosabatlaridan ustun qo'yilishi (2018-yilda 51,5%) yadroviy oila keng tarqalgan bo'lsa-da, Konfutsiyning vertikal avlodlararo bog'lanish (ota-bola)ga ustuvorlik berish tamoyili saqlanib qolayotganini ko'rsatadi[8].

Keksalarni parvarish qilish majburiyatining o'zgarishi ham moslashuvning yorqin namunasidir. Ota-onani yolg'iz oilaning emas, balki oila, jamiyat va davlatning birgalikdagi mas'uliyati deb hisoblash tendensiyasining kuchayishi (2010-yilda 47,4% ko'rsatkichi) uzoq umr ko'rish sharoitida oilaning an'anaviy axloqiy burchini (Hyo) saqlab qolish, ammo iqtisodiy yukni jamiyatga taqsimlashga qaratilgan pragmatik moslashuvni ifodalaydi [3.b.91].

Falsafiy jihatdan, Koreya oilasidagi o'zgarishlar "madaniy kechikish" (cultural lag [6]) holatini aks ettiradi. Ijtimoiy tuzilmalar (iqtisodiyot, siyosat, qonunchilik) modernizatsiya qilingan bo'lsa-da, Koreys xalqining chuqur psixologik ongi Konfutsiy kollektivizmi ta'sirida qolmoqda, bu esa heterogen qadriyatlar tizimini keltirib chiqaradi.

1. Gender ziddiyati: ayollar (ayniqsa yosh ayollar) o'z-o'zini anglash va ijtimoiy ishtirok etishni birinchi o'ringa qo'yib, nikohni majburiy deb bilmaslikda erkaklarga nisbatan faolroq bo'lib chiqmoqda. Erkaklarning bir qismi esa an'anaviy oilani saqlashga moyil, bu esa er-xotin munosabatlarida kuchli gender tafovutini yuzaga keltiradi.

2. Avlodlar ziddiyati: keksa va o'rta yoshli avlodlar an'anaviy oilaviylikni qat'iy himoya qilsa, yosh avlodlar individual tanlov va erkinlikni afzal ko'radi. Biroq, ushbu ziddiyat to'liq ajralish emas, balki qadriyatlarning "sinxron mavjudligi" shaklida namoyon bo'ladi. Yosh avlodning o'zi ham, garchi nikohdan tashqari munosabatlarga nisbatan ochiqroq bo'lsa-da, nikohsiz farzand ko'rishga nisbatan salbiy munosabatini saqlab qoladi (ayollarda ayniqsa kuchli). Bu ularning o'z hayotida onalik va farzand tarbiyasi bilan bog'liq ijtimoiy qiyinchiliklarni (ijtimoiy stigma [7] ni) anglashidan kelib chiqqan pragmatik himoya mexanizmi sifatida talqin etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, modernizatsiya Konfutsiy patriarxiyasini zaiflashtirgan bo'lsa-da, oilaning ijtimoiy-madaniy funksiyasi to'liq yo'qolmagan. Endilikda oila nasl davomiyligi va kollektiv yuz (collective face) kabi Konfutsiy ideallarini emas, balki shaxsiy baxt va o'z-o'zini anglash yo'lidagi faol subyektlar uyushmasi tushunchasiga o'tmoqda. Janubiy Koreya jamiyatidagi oilaviy qadriyatlarning rivojlanishidagi an'anaviylik va zamonaviylik dialektikasi juda murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy-falsafiy jarayonni anglatadi. Bir tomondan, Konfutsiy ta'limotining uch avlod iyerarxiyasi (ruler and subject, parent and child, husband and wife) va otalik hokimiyati tamoyillari Koreya madaniyatiga singib ketgan, bu esa jamiyatning barqarorligi va tezkor iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratgan. Boshqa tomondan, globallashuv, sanoatlashtirish va g'arbona ideologiyalar tufayli oilaviy munosabatlar tubdan transformatsiyaga uchradi: yadroviy oila dominant bo'lib, ayollarning ijtimoiy mavqei oshib, shaxsiy tanlov ustunlik qilmoqda.

[6] Cultural lag — bu jamiyatda texnologik va ijtimoiy o'zgarishlar qadriyatlardan tezroq ketganida yuzaga keladigan axloqiy va madaniy nomuvofiqlikdir.

[7] "Stigma" so'zi qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib, "tamg'a", "belgi" degan ma'noni anglatadi. Falsafiy jihatdan bu tushuncha insonning ijtimoiy mavjudligi va axloqiy qadr-qimmatining jamiyat tomonidan buzilishi yoki so'ndirilishi jarayonini ifodalaydi. Erving Goffman (1963) uni "normal ijtimoiy maqomdan og'ish" deb talqin qilib, shaxsning jamiyatdagi identitetini "ifloslangan" yoki "kamroq qadrli" sifatida ko'rishga olib keladigan ijtimoiy mexanizm deb tushuntirgan.

XULOSALAR: -An'anaviylikdan voz kechish o'rniga, Koreya jamiyati ma'naviy davomiylikni (moral continuity) saqlash uchun Konfutsiy qadriyatlarini funksional jihatdan moslashtirmoqda. Masalan, ota-onaga hurmat (Hyo) saqlanib qolgan bo'lsa-da, keksalarni boqish majburiyati endi yadroviy oila bilan birga ijtimoiy institutlar (davlat/jamiyat) tomonidan ham taqsimlanmoqda. Bu moslashuv oilaning beqarorlik sharoitida ham o'z funksiyasini minimal darajada saqlab qolishga xizmat qiladi.

-Zamonaviy Koreyada yagona, bir xil oilaviy ong yo'q. Aksincha, turli avlodlar va gender guruhlari o'rtasida ziddiyatli va tabaqalashgan qadriyatlar mavjud. Yosh avlod (ayniqsa ayollar) nikoh va oilaviy rollarga nisbatan ancha liberal (erkin) qarashlarni qabul qilgan bo'lsa, ular non-institutsional farzand ko'rishga nisbatan an'anaviy ehtiyotkorlikni saqlab qolishadi, bu esa ularning kundalik ijtimoiy cheklovlarni anglashidan kelib chiqadi. Bu an'ana va modernlikning sintez kombinatsiyasi emas, balki ularning ijtimoiy ongda va harakatlarda birgalikda yashovchi, ko'pincha to'qnashuvchi tabiati ekanligini anglatadi.

-Oilaning ma'nosi kollektiv manfaat va nasl davomiyligidan (Konfutsiy) shaxsiy avtonomiya va munosabatlar sferasi (post-modern) tomon o'tgan. Oilani endi a'zolik shartlari bilan emas, balki o'zaro muloqot va aloqa asosida tuzilgan "oquvchan jamoa" sifatida qabul qilish trendi mustahkamlanmoqda.

Kelajakdagi falsafiy va madaniy tadqiqotlar istiqbollari:

-Kelajakdagi tadqiqotlar gender (ayol va erkak) va avlodlararo (yoshlar va keksalar) qadriyatlar ziddiyatining ijtimoiy oqibatlarini chuqur tahlil qilishga qaratilishi kerak, chunki bu ziddiyatlar jamiyatning qarishi tufayli keskinlashish xavfi ostida.

- Konfutsiyning majburiy iyerarxiyasi o'rniga, zamonaviy Koreya oilasi uchun o'zaro konsensus, empatiya va konstruktiv nizolarni hal qilish kabi umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan yangi axloqiy me'yorlar konsepsiyasini falsafiy asoslash talab etiladi[7.b.110].

-Oilaviy qadriyatlarning nazariy o'zgarishi va kundalik amaliy harakatlar o'rtasidagi madaniy kechikish holatini bartaraf etish uchun uzoq muddatli (longitudinal[8]) tadqiqotlar o'tkazish zarur. Bu esa oila siyosatlarini samarali ishlab chiqishga xizmat qiladi.

-

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tolibov A.N. (2019). Comparative Analyze of Uzbek and Korean Modern Families. *Wschodnioeuropejskie Czasopismo Naukowe (East European Scientific Journal)*, #10 (50), 80-84.
2. Tolibov A.N. (2019). O'zbek va Koreys oilalarining ijtimoiy-falsafiy tahlili. Tamaddun nuri jurnali. 6-son (23). 20-23.
3. Kim, H. Y., Kim, S. D., & Park, S. A. (2012). *가족관련 가치 의식의 변화와 가족의 미래 (The Transformation of Korean's Family Consciousness and Family Future).*
4. Allamuratova N.T. (2024). O'zbek oilalarida yoshlar estetik tafakkuri shakllanishida milliy qadriyatlarning o'rni. (Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.
5. Tolibov A.N. (2020). Uzbek and Korean families: importance of familyism and social benefit. Maqola. Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. Toshkent.
6. Mi-Jeong Jo. (2018). The Intersectionality of Gender and Ethnicity in (Social) Mobility: Migration of Koryŏ saram Women from Uzbekistan to South Korea. S/N Korean Humanities, Volume 4 Issue 1 (March 2018) pp.49~72|ISSN 2384-0668 / E-ISSN 2384-0692. Goethe University of Frankfurt.
7. Inoyatova, S.J. (2025). Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oilaviy munosabatlar transformatsiyasi (ijtimoiy-falsafiy tahlil) (Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati). Toshkent.
8. Materials of South Korea Statistic committee. Marriage and Divorce Statistics in 2018. http://kostat.go.kr/portal/eng/pressRelease
9. Lee Kwan Sung. (2010). Социально-философский анализ семьи (на примере корейской семьи). *Философия и общество*, № 3.

[8] "Longitudinal" (lotincha longitudo — uzunlik, davomiylik) — bu vaqt o'qi bo'ylab uzluksizlikni anglatadi. Falsafiy nuqtayi nazardan, longitudinal yondashuv inson yoki jamiyatdagi rivojlanish, o'zgarish va barqarorlik dialektikasini o'rganish uchun ishlatiladi.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 908

QORAQALPOG'ISTONDAGI E KOLOGIK VAZIYAT VA MO'YNOQ BALIQ-KONSERVA KOMBINATINING FAOLIYATI (1970-1980- YILLARDA)

Bekimbetov Konisbay Mirzabayevich, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti

THE ECOLOGICAL SITUATION IN KARAKALPAKSTAN AND THE ACTIVITIES OF THE MOYNAK FISH CONSERVE COMBINE (IN THE 1970-1980S)

Bekimbetov Konisbay Mirzabaevich, Karakalpak Research Institute of Humanities of the Karakalpak Branch of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

https://orcid.org/0009-0006-0445-1206
e-mail: kunus_bekim@mail.ru

ЭКОЛОГИЧЕСКАЯ СИТУАЦИЯ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ И ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ МУЙНАКСКОГО РЫБОКОНСЕРВНОГО КОМБИНАТА (В 1970 – 1980 - ГОДЫ)

Бекимбетов Конысбай Мырзабаевич, Каракалпакский научно-исследовательский институт гуманитарных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан

KIRISH. Har bir xalqning o‘zligini saqlash va rivojlantirishda medianing o‘rni beqiyosdir. Mediamarkazlar nafaqat axborot tarqatuvchi, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash hamda jahon miqyosida o‘zaro anglashuvni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Qoraqalpog‘iston kabi ko‘pqirrali va boy madaniy merosga ega hududlarda media muhiti milliy va umuminsoniy axborot madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Qoraqalpog‘iston mediamarkazlari o‘ziga xos tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarda shakllangan bo‘lib, ular orqali mahalliy axborot, urf-odat va til qadriyatlari keng tarqatiladi. Shu bilan birga, bu markazlar umuminsoniy axborot maydonida ham milliylik va globallikning uyg‘unlashuvi uchun ko‘p qirrali platformalar vazifasini bajaradi. Mediamarkazlar ushbu tarixiy-madaniy rivojlanish jarayonlarida shakllangan birlikka nafaqat tayanadi, uni davr talablariga muvofiq mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mediamarkazlarning samarali ishlashi uchun ushbu tarixiy-madaniy tajribaga tayanish, uni zamonaviy texnologiya vositalari bilan targ‘ib etish yetarlidir. Masalan, Qoraqalpog‘iston Respublikasida olib borilayotgan umumiy ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim va oliy ta’lim tizimlarida o‘quv-tarbiya jarayonlarida axborot texnologiyalardan foydalanishga o‘tishda deyarli hech qanday umuminsoniy yoki milliy xususiyatga ega bo‘lgan to‘siq uchramadi.

Mustaqillikning ilk yillarida boshlangan “zamonaviy pedtexnologiya” deb atalgan axborot-kommunikatsiya vositalarining joriy etilishi yangilanish sifatida qabul qilindi.

Davlatimiz tomonidan qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida” (1997), “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” (1997), “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi (2004) Qonunlar, Prezidentning “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2011) hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2002–2010-yillarda kompyuterlashtirish va axborot texnologiyalarini rivojlantirish dasturi to‘g‘risida” (2002) kabi ko‘plab qarorlarida milliy ta’lim tizimini zamonaviy axborot ta’lim vositalari bilan qurollantirish, xorijda allaqachon umuminsoniy madaniy taraqqiyot ko‘rsatkichlari sifatida qo‘llanilayotgan interfaol, masofaviy va raqamli ta’lim usullarini joriy etish strategik vazifalar sifatida kun tartibiga qo‘yilgan.

MUHOKAMA. Ularda zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarining umuminsoniy mediamakon yaratish imkoniyatlari e’tirof etilgan va ular ta’lim sohasida keng integratsiyani amalga oshirishga olib kelishdek muhim maqsad belgilab olingan. Natijada ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimida Moodle platformasidagi Forms, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group Work, Student Tracking, IMS, SCORM kabi modullar va standartlar paydo bo‘ldi.

Masalan, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida 90-yillarning o‘rtalaridayoq zamonaviy pedtexnologiyalarni joriy etish bilan birga kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, talabalarda axborot vositalarini ishlatish ko‘nikmasini shakllantirish bo‘yicha alohida kurslar va darslar tashkil etilgan.

Universitet kutubxonasidagi adabiyotlar, darslik va o‘quv qo‘llanmalar, gazeta va jurnallar, Axborotnomalardagi ahamiyatli maqolalarning elektron nusxalarini tayyorlash yo‘lga qo‘yilgan[1]. Ammo ta’lim tizimining moddiy texnika bazasi yetarli rivojlanmagani, ayniqsa zamonaviy axborot kommunikatsiya vositalari bilan yetarli ta’minlanmagani tufayli bu borada sezilarli o‘zgarish bo‘lgani kuzatilmaydi. Mamlakatimizdagi umumiy ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy-madaniy jarayonlar mustaqillikni asrashga qaratilgan, ta’lim tizimiga oid qonunlar va Prezident hamda Markaziy hukumat qarorlari qabul qilingan bo‘lsa ham, sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini joriy etish jahon talablari darajasida emas edi.

Sh.M.Mirziyoyevning davlatimiz rahbari etib saylanishi va 2017-yilda Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi bilan bu sohada innovatsion o‘zgarishlar ro‘y bera boshladi. 2020-yil 23-sentabrda “Ta’lim to‘g‘risida”gi yangi Qonun, Prezidentning “Oliy ta’lim tizimini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2017-yil, 20-aprel), “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (2018-yil, 19-fevral), “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” (2018-yil, 5-iyun), “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” (2019-yil, 8-oktabr) kabi 200 dan ziyod rasmiy hujjatlar qabul qilindi.

2020-yilda boshlangan pandemiya barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’lim tizimida ham masofaviy o‘qitish usullaridan keng foydalanishga undadi. Masofaviy o‘qitish mohiyatan zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish texnologiyasidir. U ta’lim jarayonini, har qanday sharoitda ham, uzluksiz va bardavom voqelikka aylantirishga xizmat qiladi.

Bu tizim Ikkinchi jahon urushi, ayniqsa AQShning Vyetnamga agressiyasi davrida yurtiga qaytgan nogiron shaxslarni ijtimoiy hayotga va ta’limga jalb etish, ularga turli xizmatlar ko‘rsatish texnologiyasi sifatida yuzaga kelgan, keyinchalik sirtqi ta’lim jarayonlariga to‘la tatbiq etilgan. Yevropani bosib ketgan nogironlarni nima bilandir band etish zarur edi, ushbu vaziyat davlatlarni inklyuziv va masofaviy ta’lim tizimini yaratishga undagan.

XXI asrga kelib amalga oshirilgan ilmiy-texnik kashfiyotlar inklyuziv va masofaviy ta’limni, ayniqsa umuminsoniy inqirozni keltirib chiqargan COVID-19 davrida, global voqelikka aylantirdi. Butun dunyo masofaviy ta’lim va masofaviy xizmatlar ko‘rsatishga o‘tdi, bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalarini umuminsoniy artefaktga aylantirdi.

Natijada, insoniyat ilmiy-texnik kashfiyotlardan foydalanishning yangi-yangi platformalarini, dasturlarini va modullarini yaratdi. Bugun global internet makonida ularning soni va hajmi qancha ekanini hech kim aniq bilmaydi, chunki har kuni yuzlab, minglab, hattoki millionlab kishilar interaloqaga kirishadi, o‘z saytlarini tashkil etadi, “Facebook”lar ochib, kommunikatsiya doiralarini kengaytiradi.

Ko‘pgina davlatlar ularni monitoring va nazorat qilishga intilayotgan bo‘lsa-da, bu borada hali biror samarali natija ko‘rinmayapti. Milliy internet makonini shakllantirish muammo bo‘lib qolmoqda. Lekin davlat va jamoatchilik nazoratidagi ta’lim va tarbiya sohasida milliy internet makonni yaratishga harakatlar mavjud.

Masalan, internet materiallaridagi g‘ayriaxloqiy pornografiyaga, zo‘ravonlik va agressiv kayfiyatni shakllantiruvchi saytlarga qarshi milliy-ma’naviy va axloqiy qadriyatlarimizni targ‘ib etuvchi “Telegram”dagi “Oqibat”, “Qarindoshlar”, “Sinfdoshlar”, “Choyxona” va “Qadrdonlar” kabi sahifalarni keltirishimiz mumkin.

NATIJALAR. Bundan tashqari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyasidan samarali foydalanish ayrim yoshlarmizga internetda milliy segment yaratish imkonini bermoqda. Prezidentimiz O‘zbekiston yoshlari bilan muloqotida Mehrinoz Abbosova boshchiligidagi bir guruh yoshlar “Vikipediya”ga 10 mingdan ziyod o‘zbek tilidagi maqolalarni joylashtirganini faxr bilan tilga olgan[2].

Umuminsoniy mediamakon milliy xususiyatlar va imkoniyatlarni rad etmaydi, unga har qanday axborotni, standart va modulni joylashtirish mumkin. Yuqorida keltirilgan Web va on-line rejimiga muvofiqlashtirilgan Moodle platformasi bugun Qoraqalpog‘istondagi oliy ta’lim tizimida o‘z ifodasini topmoqda.

Mazkur platforma — “o‘quv jarayonini boshqaruvchi va samarali qiluvchi Webga yo‘naltirilgan maxsus ta’lim tizimi” bo‘lib, internet tarmog‘ida foydalanishga mo‘ljallangan. Tizimni yaratishda ochiq kodli dasturiy ta’minotlardan foydalaniladi.

Uni ishlatish uchun ma’lumotlar omborini boshqarish dasturi (MySQL yoki PostgreSQL), PHP protsessori, Web xizmati dasturi (Apache, IIS) sozlangan server zarur. Operatsion tizim sifatida ixtiyoriy keng tarqalgan tizimlardan biridan foydalanish mumkin (Windows, Linux, Mac OS X, Novell NetWare).

O‘quv moduli yozilayotgan paytda tizimning barqaror versiyasi Moodle 2.5 bo‘lgan. Tizimning rasmiy internet manzili: http://www.moodle.org.

Moodle atamasi inglizcha Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment (“modulli obyektga yo‘naltirilgan dinamik o‘qitish muhiti”) so‘zlarining qisqartmasidir. GNU GPL

litsenziyasi bo‘yicha erkin foydalanish mumkin bo‘lgan veb (web ga yo‘naltirilgan) ilova hisoblanadi. Moodle tizimi “ijtimoiy konstruktivizm pedagogikasi” asos qilib olingan[3]. Moodle platformasi dunyoning 160 davlatida, 72 tilda, shu jumladan, o‘zbek tilida ham 37000 versiya orqali tarqalgan. Bu o‘rinda platformaning umuminsoniy va milliy resurslarni uyg‘unlashtirish imkoniyatlari mavjudligi ko‘zga tashlanadi.

XULOSA. Qoraqalpog‘istonda ushbu imkoniyatlardan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanayotgan filologiya fanlari nomzodi, dotsent J.Xoshniyazov, N.Dauqaraev nomidagi Til va adabiyot instituti xodimi Q.Smamutov, O‘zbekiston Fanlar akademiyasining Qoraqalpog‘iston bo‘limining yetakchi ilmiy xodimlari A.Muratov va E.Oteniyazovlarning qoraqalpoq tilidagi ilmiy maqolalar, innovatsion ishlanmalar hamda o‘lka etnografiyasiga oid manbalarni internetga joylashtirib borayotgani bizga ma’lum.

Ilmiy-tadqiqot natijalarining xorijiy jurnallarda nashr etilayotgani ham, internet aloqalari orqali, qoraqalpoq etnomadaniyati va ilm-fanining umuminsoniy mediamakonda o‘z o‘rnini topayotganini ko‘rsatadi.

Ayniqsa “BFE Studio and Median Systeme” firmasi yordami bilan ommaviy axborot vositalari va o‘quv markazlari kompyuterlashtirila boshlandi. “Erkin Qaraqalpaqstan” gazetasi tahririyati, “Qaraqalpaqstan” televideniyesi, “Mäwrit”, “Däwir”, “Qoraqalpoqstan”, “Assalawma aleykum, Qaraqalpaqstan!”, “Diydar” teleko‘rsatuvlarining zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari bilan jihozlangani darrov tomoshabinlar e’tiborini tortgan.

Mazkur jarayonlarga nazar tashlasak, ularda mediamarkazlarning axborot tarqatish vazifasi ustuvorlik qilayotganini kuzatish mumkin. Kommmunikatsiya asosan tor doiradagi ziyolilar o‘rtasida kechmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Berdaq atindag’i Qaraqalpaq ma’mleketlik universitetinin’ Xabarshisi, 2002, №2. 32-b; Atajanov H. Qoraqalpoq matbuotida umuminsoniy va milliy ma’naviy qadriyatlarning yoritilishi.
2. Mediabank. 54 K 10.46.
3. Samigova G.A. Innovatsion ta’lim texnologiyalari: interaktiv elektron ta’lim muhitini shakllantirish. Monografiya. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. 25-b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 14.08

TAMADDUN NURI / THE LIGHT OF CIVILIZATION ISSN 2181-8258 IF-9.347 DOI 10.69691
2025-yil, 10-son (73) Ilmiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy-ma’rifiy, adabiy-badiiy jurnal

ISLOMIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAXS MA'NAVIYATINING SHAKLLANISHI VA UNING IJTIMOIY-FALSAFIY TALQINI

Sultonov Muhammad Yoqub o'g'li, Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

FORMATION OF PERSONAL SPIRITUALITY ON THE BASIS OF ISLAMIC VALUES AND ITS SOCIAL-PHILOSOPHICAL INTERPRETATION

Sultanov Muhammad Yakub oglu, basic doctoral student of Jizzakh State Pedagogical University

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОСТИ ЛИЧНОСТИ НА ОСНОВЕ ИСЛАМСКИХ ЦЕННОСТЕЙ И ИХ СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКОГО ИНТЕРПРЕТИРОВАНИЯ

Султанов Мухаммад Якуб оглы, докторант Джизакского государственного педагогического университета

https://orcid.org/: https://orcid.org/0009-0003-0817-3563
e-mail: sultonovmuhammad@gmail.com

***Annotatsiya**: Mazkur ilmiy ishda islomiy qadriyatlarning shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rni, ahamiyati hamda ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyati tahlil qilingan. Unda insonning ma'naviy kamoloti, axloqiy barkamolligi va ijtimoiy ongining shakllanish jarayonida Qur'on, hadis hamda islom tafakkuri manbalarida ilgari surilgan g'oyalarning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, islomiy qadriyatlar tizimi orqali shaxsda ezgulik, halollik, adolat, bag'rikenglik, vatanparvarlik va mas'uliyat tuyg'ularini rivojlantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari tahlil etilgan.*

***Kalit so'zlar:** Islomiy qadriyatlar, shaxs ma'naviyati, ma'naviy kamolot, axloqiy barkamollik, ijtimoiy ong, falsafiy tahlil, Qur'on va hadis, ma'naviy yangilanish, ijtimoiy barqarorlik, ma'naviy qadriyatlar tizimi.*

***Annotation:** This scientific study analyzes the role and significance of Islamic values in shaping individual spirituality, as well as their socio-philosophical essence. It highlights the importance of ideas presented in the Qur'an, Hadith, and Islamic intellectual tradition in the processes of human spiritual and moral perfection and the formation of social consciousness. The study also examines the socio-philosophical foundations for developing such qualities as virtue, honesty, justice, tolerance, patriotism, and responsibility through the system of Islamic values.*

***Keywords:** Islamic values, individual spirituality, spiritual perfection, moral excellence, social consciousness, philosophical analysis, Qur'an and Hadith, spiritual renewal, social stability, system of spiritual values.*

***Аннотация:** В данной научной работе проанализирована роль и значение исламских ценностей в формировании духовности личности, а также их социально-философская сущность. Раскрыто значение идей, изложенных в Коране, хадисах и источниках исламской мысли, в процессе духовного и нравственного совершенствования человека, формирования его социального сознания. Также исследованы социально-философские основы развития в личности таких качеств, как добродетель, честность, справедливость, терпимость, патриотизм и чувство ответственности через систему исламских ценностей.*

***Ключевые слова:** исламские ценности, духовность личности, духовное совершенствование, нравственное совершенство, социальное сознание, философский анализ, Коран и хадисы, духовное обновление, социальная стабильность, система духовных ценностей.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Bugungi globallashuv va axborot oqimlari shiddat bilan kengayib borayotgan davrda shaxs ma'naviyatining mustahkam asoslarda shakllanishi jamiyat taraqqiyotining eng muhim omillaridan biriga aylanmoqda. Insonni ma'naviy jihatdan yetuk, e'tiqodli, halol va mas'uliyatli etib tarbiyalash – nafaqat ma'rifiy, balki falsafiy, axloqiy va ijtimoiy zaruratdir. Shu nuqtayi nazardan, islomiy qadriyatlar tizimi shaxs ma'naviy kamolotining eng muhim manbalaridan biri sifatida inson tafakkuri, axloqi va hayotiy qarashlarini shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi. Islom dini insonni olamdagi eng oliy mavjudot sifatida e'tirof etib, uning ruhiy, axloqiy va ijtimoiy kamolotiga alohida e'tibor qaratadi. Qur'on va hadislar ta'limotida insonning ma'naviy barkamollikka erishuvi, o'z nafsini poklash, jamiyatda ezgulik, adolat va mehr-oqibatni qaror toptirish g'oyalari markaziy o'rinni egallaydi. Aynan shu jihatlar islom qadriyatlarining falsafiy mazmunini belgilab beradi.

Zamonaviy davrda islomiy qadriyatlar asosida shaxs ma'naviyatini shakllantirish masalasi milliy o'zlikni anglash, ma'naviy yangilanish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Chunki ma'naviy barkamol inson – jamiyatning ma'naviy poydevorini mustahkamlovchi kuchdir. Islom qadriyatlarining ijtimoiy-falsafiy tahlili orqali shaxs va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik, ma'naviy mas'uliyat va ezgulik g'oyalari o'zaro bog'liq holda namoyon bo'ladi.

Mazkur tadqiqotda islomiy qadriyatlarning shaxs ma'naviyatini shakllantirishdagi fenomenologik mohiyati, ularning ijtimoiy-falsafiy ildizlari hamda bugungi globallashuv sharoitida insonni ma'naviy inqirozdan asrashdagi o'rni ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shu orqali islom qadriyatlari zamiridagi ruhiy poklik, halollik, sabr-toqat, adolat, bag'rikenglik va mehr-oqibat tamoyillari shaxs ma'naviy dunyosining poydevorini tashkil etishi asoslab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Islomiy qadriyatlar va shaxs ma'naviyatining o'zaro bog'liqligi musulmon mutafakkirlarining asarlarida markaziy o'rin tutgan. Forobiy "Fozil odamlar shahri"da ma'naviy kamolotni ilm, axloq va adolatga tayanib tushuntirgan bo'lsa, Ibn Sino insonning ruhiy barkamolligini Allohni bilish bilan bog'laydi. G'azzoliy "Ihyo ulumiddin"da qalb pokligi, sabr, taqvo va halollikni ma'naviyat mezoni sifatida ko'rsatadi.

Tasavvuf namoyandalari – Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Jaloliddin Rumiy kabi allomalar inson komilligini muhabbat, sabr va halollik orqali izohlaganlar. O'zbek olimlari M.Xayrullayev, T.To'laganov, N.Jo'rayev va boshqalar islomiy qadriyatlarni shaxs axloqiy ongi va ijtimoiy mas'uliyatining asosi sifatida talqin etganlar. I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida inson ma'naviyati millat taraqqiyotining asosi ekanini ta'kidlaydi, Sh.M. Mirziyoyev esa "Yangi O'zbekiston" g'oyasida inson qadri va ma'naviy barqarorlikni bosh maqsad sifatida belgilaydi. Xorijiy faylasuflar M.Weber, E.Fromm, A.Toynbee va C.Taylor diniy qadriyatlarni mehnatsevarlik va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi omil sifatida talqin etganlar. Zamonaviy musulmon mutafakkirlari Seyyid Huseyn Nasr, Fazlur Rahmon va Muhammad Iqbol esa islomiy qadriyatlarning global axloqiy ahamiyatini ta'kidlaydilar.

MUHOKAMA. Mustaqillik yillarida O'zbekiston jamiyatining eng muhim maqsadlaridan biri insonni ma'naviy jihatdan kamol toptirish, milliy qadriyatlarimizni tiklash va ularni hayot tarzimizning ajralmas qismiga aylantirishdan iborat bo'ldi. Yangi davrda milliy tiklanish jarayoni mamlakatni ma'naviy sog'lomlashtirish, xalqning ichki birligi va ruhiy yaxlitligini ta'minlash zaruriyatini kun tartibiga chiqardi. Shu nuqtayi nazardan, islomiy qadriyatlarning inson hayoti va shaxs ma'naviy olamida tutgan o'rni yangicha ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida qayta talqin etilmoqda.

Islom dini qadimdan xalqimiz dunyoqarashi, turmush tarzi, axloqiy me'yorlari va ruhiy dunyosining uzviy tarkibiy qismi bo'lib kelgan. Inson ma'naviyati, aslida, tashqi sharoit yoki ijtimoiy ta'sir natijasi emas, balki ichki e'tiqod, vijdon uyg'oqligi va ilohiy qadriyatlarga tayanish orqali shakllanadi. Islom qadriyatlari esa ana shu ichki ruhiy uyg'oqlikni, iymon, poklik va halollikka asoslangan hayot tamoyillarini mustahkamlovchi kuchdir. Shu bois, ularni shaxs ma'naviyatining falsafiy asosi, insonni o'zini anglashga, ruhiy poklanishga va jamiyat oldidagi mas'uliyatni his etishga yo'naltiruvchi manba sifatida o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Islom dini – avvalo, tinchlik va do‘stlik, ahillik va birdamlik, bilim va ma’rifat dinidir”. Bu fikr islom qadriyatlarining mohiyatan insonparvarlik, bag‘rikenglik va bunyodkorlik ruhiga tayanishini ko‘rsatadi. Shunday ekan, shaxs ma’naviyatini shakllantirishda islomiy qadriyatlarning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini chuqur tahlil qilish zamonaviy falsafaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda islom qadriyatlariga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga bir qancha omillar sabab bo‘lmoqda. Avvalo, jamiyatda ma’naviy mezonlarning zaiflashuvi, moddiy manfaatning ustuvor bo‘lishi natijasida insonlar ruhiy tayanchga va ruhiy sokinlikka intilmoqda. Texnologik rivojlanish, shaxsiy hayot va kasbiy faoliyat o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, oilaviy qadriyatlarning zaiflashuvi ham insonning ruhiy bo‘shliqdan chiqishi uchun islomiy qadriyatlarga murojaat etishga undaydi. Islom esa insonni ruhiy uyg‘oqlikka, halollikka, poklikka, sabr va qanoatga chaqiradi.

Islomiy qadriyatlarning shaxs ma’naviyatini shakllantirishdagi ahamiyatini quyidagi toifalarda ko‘rish mumkin:

Birinchidan, shaxsiy mas’uliyat – bu insonning o‘z e’tiqodi, niyati, axloqi va amallariga nisbatan javobgarligidir. Islom insonni faqat tashqi ko‘rinishda emas, balki ichki olamida ham pokiza bo‘lishga undaydi. Namoz, ro‘za, zakot kabi amal va ibodatlar shaxsda o‘zini nazorat qilish, vijdon uyg‘oqligini mustahkamlaydi.

Ikkinchidan, oilaviy mas’uliyat – islom ta’limotida oila eng muqaddas ijtimoiy institut sifatida talqin qilinadi. Ota-ona farzand oldida, farzand ota-ona oldida mas’uldir. Ma’naviy tarbiya kuchaygan sari oilaviy birdamlik va mehr-muhabbat mustahkamlanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy mas’uliyat – bu jamiyatdagi adolat, totuvlik, hamjihatlik va yordam ko‘rsatish tamoyillariga asoslanadi. Islom kishini boshqalarning og‘rig‘ini his etishga, kambag‘allarga madad berishga, nohaqlikka qarshi turishga chorlaydi.

To‘rtinchidan, kasbiy va iqtisodiy mas’uliyat – halol mehnat qilish, sohada fidokorlik ko‘rsatish, jamiyat manfaati uchun xizmat qilish islomiy e’tiqodning amaliy ko‘rinishidir. Halollik va adolat tamoyillariga asoslangan mehnat shaxsning ham, jamiyatning ham farovonligini ta’minlaydi.

Shu tariqa, islomiy qadriyatlar inson shaxsini ma’naviy kamolot sari yo‘naltirib, unda mas’uliyat, vijdon, halollik va mehr-oqibat kabi fazilatlarni uyg‘unlashtiradi. Bu qadriyatlar insonni o‘zini anglash, o‘z burchini ado etish, jamiyatga foyda keltirish va bunyodkorlik faoliyatini yuksak darajada tashkil etish ruhida tarbiyalaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, islomiy qadriyatlarga ehtiyoj insonning hayotda ma’no topish, ruhiy osoyishtalik va adolatli jamiyat barpo etishga intilish ehtiyoji bilan uzviy bog‘liqdir. Bu qadriyatlar insonning shaxsiy hamda ijtimoiy mas’uliyatini mustahkamlab, uning axloqiy va ma’naviy barkamolligini ta’minlaydi. Islom insonni nafaqat ichki poklik va komillikka chorlaydi, balki oila, jamiyat va umuminsoniyat oldidagi burchlarini anglashga, ularni mas’uliyat bilan ado etishga undaydi. Shu bois, islomiy qadriyatlarga amal qilish shaxs kamoloti va jamiyat farovonligining muhim falsafiy-ma’naviy omili sifatida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент.: O‘zbekiston нашриёти, 2021. 310- б.
2. Abdullayev A. Ma’naviyat va qadriyatlar falsafasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 280 b.
3. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент.: Маънавият, 2008. – Б. 24.
4. Ramadan Tariq. *Islam, the West and the Challenges of Modernity***.** – Leicester: The Islamic Foundation, 2001. – 376 p.
5. Schuon Frithjof. *Understanding Islam.*– Bloomington: World Wisdom Books, 1994. – 248 p.
6. Turayev A. Islom axloqi va shaxs kamoloti. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 220 b.
7. Boboxo‘jayev O. Islom va inson qadriyati. – Toshkent: Fan, 2013. – 192 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 811.161.1

«BIR ÚYDE EKI ÓMIR» DRAMASINDAǴI OBRAZLARDIŃ MONOLOGI HÁM REMARKASI

Qádirniyazova Nargiza Keńesbay qızı,
Berdaq atındaǵı QMU magistrantı

THE MONOLOGUES AND STAGE DIRECTIONS OF CHARACTERS IN THE DRAMA "TWO LIVES IN ONE HOUSE"

Qadirniyazova Nargiza Kenesbay qizi,
Master's Student at Berdakh Karakalpak State University

МОНОЛОГИ И РЕМАРКИ ОБРАЗОВ В ДРАМЕ «ДВЕ ЖИЗНИ В ОДНОМ ДОМЕ»

Кадирниязова Наргиза Кенесбаевна,
Магистрант Каракалпакского государственного университета имени Бердаха

nargizaqadirniyazova@icloud.com

Annotaciya: *Maqalada Q.Mátmuratovtıń «Bir úyde eki ómir» dramasında qollanılǵan remarka hám monologtıń kórkemlik xızmeti, bul kórkem ámeller boyınsha alımlardıń ilimiy pikirleri keltirilgen.*

Tayanısh sózler: *drama, remarka, monolog, obraz, saxna, teatr, qaharman, perde, kórinis, kartina.*

Аннотация: *В статье рассматривается художественная функция ремарок и монологов, использованных в драме К. Матмуратова «Две жизни в одном доме». Приводятся научные мнения исследователей по данным художественным приёмам.*

Ключевые слова: *драма, ремарка, монолог, образ, сцена, театр, герой, акт, картина.*

Annotation: *The article analyzes the artistic function of monologues and stage directions (remarks) used in Q. Matmuratov's drama "Two Lives in One House." It also presents scholars' scientific views on these artistic techniques.*

Key words: *drama, stage direction, monologue, character, stage, theatre, hero, act, scene, picture.*

Kirisiw. Q.Mátmuratovtıń «Bir úyde eki ómir» draması – házirgi zaman adamınıń obrazın, xarakterin sáwlelendiriwshi turmıslıq drama. Demek avtordıń bul draması 1981-jılı «Jaslar parwazı» dep atalǵan kitabında jarıq kórdi. Al, Berdaq atındaǵı akademiyalıq muzıkalı teatrında 1980-jılı N.Ańsatbaev, A.Sharipovlardıń rejissyorlıǵında, 1991-jılı A.Sharipovtıń rejissyorlıǵında qayta islenip tamashagóyler názerine usınılıp jaqsı kútip alındı. Bul dramalıq shıǵarma tiykarınan eki bólimli, bes kórinisli drama.

Metodologiya. Bul izertlew metodologiyası deskriptiv hám analitik metodlar tiykarında izertlenildi. Bárinen burın, monolog teoriyası hám remarkanıń teoriyalıq tiykarları ilimpazlardıń miynetleri tiykarında tallandı.

Dramalıq shıǵarmalarda qaharmanlardıń ishki dúnyasın, ruwxıy halatın, tolǵanısların, dramatizmge tolı momentlerin ashıp beretuǵın kórkem ámellerdiń jáne biri qaharman monologı. Bunda qaharman óz-ózi menen sóylesip, ishki debdiwlerin sırtqa tógip saladı. Ózine ózi soraw qoyıp, ózi juwap beredi. Biraq, olardı átiraptaǵı adamlarǵa aytıp pikirlese almaydı [3,95].

Haqıyqatında da monolog dramalıq shıǵarmalarda áhmiyetli ról oynaydı. Óytkeni dramalıq shıǵarmalar monolog hám dialogsız bolmaydı. Bunıń ayqın dálili sıpatında dramaturg Q.Mátmuratovtıń «Bir úyde eki ómir» shıǵarmasın atap ótiwimizge boladı.

«Bir úyde eki ómir» draması tiykarınan saxna ushın qolaylastırılıp jazılǵanlıǵın hám de

mámleketimiz teatrlarında bir neshe mártebe qaytalanıp qoyılǵanlıǵın kóriwimizge boladı. Bul dramanıń kórkemlik máselelerine toqtap ótpekshimiz.

Dialog, monolog, remarka, ekspoziciya sıyaqlı syujetlik elementler hám qaharman obrazın jasaw usılları ónimli hám óz ornında qollanılǵanda ǵana dramalıq shıǵarmanıń kórkemlik qunı artıp bara beredi. «Bir úyde eki ómir» dramasında da olar óz ornı menen qollanılǵan.

Qatnasıwshılar:

– *Hámire - soqır kempir, 90 jasta.*
– *Palzada - Xámireniń kelini, 55 jasta.*
– *Baxıt - Xámireniń aqlıǵı, 30 jasta.*
– *Jeńisbay - Xámireniń aqlıǵı, 26 jasta.*
– *Ulbosın - Baxıttıń kelinshegi, 25 jasta.*
– *Gúlzar - Jeńisbaydıń kelinshegi, 23 jasta.*
– *Sáwle - Ulbosınnıń anası, 50 jasta.*
– *Biybigúl - Gúlzardıń anası, 50 jasta.*
– *Tilewbay - awıllas ǵarrı, 78 jasta.*
– *Zernegúl - awıllas kelinshek, 30 jasta* [2,203].

«Bir úyde eki ómir» dramasındaǵı qaharmanlardıń obrazın ashıp beriwde monologtıń xızmeti úlken. Óytkeni, monolog arqalı qaharmannıń pikir-kózqarasların bayanlawda, ruwxıy keshirmeleri, xarakteri, ishki dúnyası ashıp beriledi.

Monologlar dramalıq shıǵarmalarda sırtqa shıǵarıp aytıladı yamasa massovka formasında perde artında oqıladı. Al muzikalı dramalarda bul usıl qollanbaydı. Onda aktyordıń ózi ishindegi sózlerdi sırtqa shıǵarıp, ózi atqaradı. Máselen, «Bir úyde eki ómir» dramasınıń birinshi bólim úshinshi kórinisinde bas qaharman Baxıttıń monologında ókiniwshilik, narazılıq, óziniń oy-keshirmelerinde Ulbosınǵa degen jerkenishli bir sezimlerdi bir ózi otırıp, ózi menen ózi sóylesip, aytqan monologı sózimizdiń dáliyli.

Baxıt. Men ómirdi bir tusip alsań, zıńǵıp kete beretuǵın guzar jol shıǵar dep pámler edim. Joq olay emes eken. Ulbosındı súyip onıń menen turmıs qurǵanımda, dúńyada eń qádirdan, eń qımbat, pútkil ómirin men ushın, men dep jasaǵan analarıma, bunday húrmetsizlik penen qaraydı dep oylap pa edim?! Aytıp atırman, tusindirip atırman bári-bir aqıbeti mine (oylanıp)! Ne qılıw kerek? Múmkin Jeńisbay aytqanday, ósh dep tiklengenim de, kúl bolıp sóngendey etip ǵázebimdi tigiwim kerek shıǵar. Ya dağısıw kerek pe? Bilmedim, bilmey turman, hesh nársege aqılım jetpey tur? [2,224].

Bul qatarlar, Baxıttıń ómirde bir jolǵa túsip ketseń izi bir tegis dawam etip kete bermeytuǵınlıǵına, Ulbosınǵa ókpeli ekenligin, analarına qılǵan húrmetsizlikke aqılı hayran ekenligin, endi ne islew kerekligi haqqındaǵı óziniń oylarında ne júz berip atırǵanlıǵın ashıp bere alǵan.

Tilewbay. Wáy, ońbağır júwermek-áy. Ya, o nesi áy onıń, ya ol ǵana júwernemektiń, tap meniń joramday ol ne degeni, ya, ol ne degeni?! (Dógeregine qaranıp) Hámire, há Hámire kishe. Yapırmay bala, mına ǵana júwernemektiń gápiniń jeti júyremnen ótiwin-áy. Mushtay ǵana júwermek-aw, mushtay, meniń mına hasam menen jas-aw, hasam menen... [2,204].

Tilewbaydıń házirgi jaslardıń tárbiyasınıń buzılǵanlıǵına, sóylegen sózleriniń turpayılıǵına, jeti júyrińnen ótip ketetuǵınlıǵına tań qalıp, oylanıp kiyatırǵanlıǵın, onı kishesi Xámre menen bólisiwge kiyatırǵanlıǵın kóriwimizge boladı.

Nátiyjeler. Bul dramalıq shıǵarmada qaharman obrazlarınıń xarakterlerin ashıp beriwde monologtı ónimli paydalana alǵanlıǵın kóriwimizge boladı. Monologtı qollanıw arqalı dramalıq shıǵarmanıń sapasın elede arttıra alǵanlıǵı belgili.

Remarka

Avtordıń túsindirme sózi yamasa avtor remarkası waqıya bolıp ótetuǵın orındı, personajlardı olardıń kásip-kárin, halatların túsindirip beriwde qollanıladı. Bul kórkem ámel prozalıq, dramalıq shıǵarmalarda da qollanıladı, biraq dramalıq shıǵarmada onıń atqaratuǵın xızmeti úlken. Remarka oqıwshınıń kóz aldına bolajaq saxnadaǵı kórinislerdiń sebeplerin túsindirip, personajlardı olar menen tanıstırıwǵa ayrıqsha xızmet atqaradı [3,88].

«Remarka (fransuzcha remargus – túsinik mánisinde) – dramalıq shıǵarmalardaǵı avtordıń túsindirme sózi» [1,47].

Biz bul qatarlar arqalı remarkanıń dramalıq yáki prozalıq shıǵarmalarda áhmiyetli ról oynaytuǵınlıǵın kóremiz. Dramalıq shıǵarmalarda remarka júdá áhmiyetli bolıp, olar saxna háreketi, qaharmanlardıń ruwxıy jaǵdayı, orın hám atmosfera haqqında maǵlıwmat beredi. Dramalıq shıǵarmada dialoglarda aytılmaǵan, biraq sezilerli

TAMADDUN NURI

ishki halatlar, háreketler yáki mimikalar remarkalar arqalı belgili boladı.

Remarkalardıń dramalıq hám prozalıq shıǵarmalardaǵı ornı boyınsha rus, ózbek hám qaraqalpaq ádebiyatında da kóriwimizge boladı. Máselen, qaraqalpaq ádebiyatında Z.Bekbergenova, M.Palimbetovalardıń miynetlerinde keltirilgen.

Jeńisbay. Keshiriń ata. Amanlıq emes! Búgin bir opasızdıń sebebinen ar-namıs tolqıwında, ǵázep penen qaynaǵan júregim tebirenip, hesh nárseni sezbey tur. Júregimnen ayrıldım juregimnen! Júreksiz adam, adam ba? Men soqırman, hesh nerseni kóre almaytuǵın górmen! (qaltasınan araǵın shıǵarıp). Búginnen baslap, tek mınadan basqa hesh nárseni kóre almayman [2,206].

Biz, bul qatarlardan «qaltasınan araǵın shıǵarıp» sózi qawsırma ishine alıp jazılǵan. Yaǵnıy bul avtor sózi yamasa remarka dep ataladı. Bunda, drama saxnaǵa qoyıwǵa maslastırılǵanı ushın is-háreketler avtor sózi arqalı berilip atır.

Saxnada úy jay, úy jaydıń tórinde keń sıpa. Sıpanıń dál ortasında kát. Úy jaydıń oń tárepinen eki ójireniń esigi kórinip turadı [2,204].

Máselen, remarka usı dramasında berilgen. Bunı mına qatarlarda, Baxıttıń úyin kóz aldımızda sáwlelendirip kóriwimizge boladı. Keń sıpa, úy-jay, kát, ójirelerdiń qapıları súwretlengen.

– *PERDE- Ekinshi kórinis - Birinshi kartinadaǵı kórinis.*

***Úy-sol Baxıttıń úyi. Ulbosın sıpanıń ústin tósestirip, dasturxan jayıp, gúybeńlep, kewilli ıńıldap júr. Ekinshi qapı pát penen ashılıp, tars jabıladı da ashıw menen shıqqan Jeńisbay, kóyleginiń túymelerin júre ildirip tasıraqlap baratır* [2,212].**

Bul jerde perde, ekinshi kórinis, birinshi kartinadaǵı kórinis (yaǵnıy Baxıttıń úyi), Ulbosınnıń is-háreketleri, kewilli ıńıldap qosıq aytıp júrgenleri, Jeńisbaydıń qılıqları berilgen.

Talqılaw. Q.Mátmuratovtıń «Bir úyde eki ómir» dramasın tallaw nátiyjesinde dramaturg dramalıq shıǵarmalarda monologlar arqalı óz pikirlerin jetkerip beriwleri ayqın kózge taslandı. Máselen, Baxıt, Tilewbay obrazlarınıń monologlarında jaslardıń tárbiyası, ómirdiń bir tegis ózin qálegendey kete bermeytuǵınlıǵın, kelinshegi Ulbosınnıńda xarakterine túsinbey, ózinin tuwǵan anasına qılǵan jaǵımsız háreketleri ashıq aydın kórsetilgen. Sonday-aq, dramalıq shıǵarmalardaǵı remarkanı tallaw nátiyjesinde baspa júzinde yamasa kitap betlerinde jarıq kórilgen dramalıq shıǵarmalarda obrazlardıń is-háreketlerin túsindiriw maqsetinde remarkanıń áhmiyeti úlken ról oynaydı.

Juwmaq. Ulıwmalastırıp aytqanda, maqalamızda monolog penen remarkalardıń dramalıq shıǵarmalardaǵı áhmiyetin, tásirin túsindirip beriwge háreket ettik. Olar saxnadaǵı ómirdi janlandırıwshı, obrazlardı toldırıwshı hám shıǵarmanıń ishki mánisin ashıp beriwshi arnawlı qural. Dramalıq shıǵarmalarda remarkalar saxna shıǵarmasınıń kórkem, emocional hám mánawiy táreplerin bayıtadı. Olar arqalı qaharmanlardıń ishki dúnyası, saxna háreketi hám avtor poziciyası ańlatıladı. Usı sebepli, remarkalar dramalıq shıǵarmalardıń ajıralmas hám arnawlı bólimi esaplanadı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Бекбергенова 3. Қарақалпақ романларында көркем сөз поэтикасы (1980-2010-жыллар). –Нөкис: Илим, 2016. - Б. 205.
2. Мәтмуратов Қ. Жаслар парўазы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1981. –Б. 203-243.
3. Палимбетова М. Ғәрезсизлик дәўири қарақалпақ драматургиясы. – Ташкент: Импресс медиа, 2023. –Б. 120.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 342.15

INSONLARNING EKOLOGIK HUQUQLARINI TARTIBGA SOLISHNING MUAMMO VA YECHIMLARI

Otakova Mahbuba Alisherovna,
Qoraqalpoq davlat universiteti 2 - kurs magistranti

PROBLEMS AND SOLUTIONS TO THE REGULATION OF HUMAN ENVIRONMENTAL RIGHTS

Otakova Mahbuba Alisherovna, 2nd year master's student of Karakalpak State University

ПРОБЛЕМЫ И РЕШЕНИЯ РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА

Отакова Махбуба Алишеровна, студентка 2 курса магистратуры Каракалпакского государственного университета

e-mail: mahbubaotakova@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada toza, sog'lom va barqaror atrof-muhitga bo'lgan huquq insonning asosiy huquqlaridan ekanligi ta'kidlanadi. Insonlarning ekologik huquqlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirishda jamoatchilik ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo'lib, u jarayonning shaffofligini ta'minlash, qarorlar qabul qilish sifatini oshirishga, korrupsiya xavflarini kamaytirishga xizmat qiladi. Maqolada atrof-muhitga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtirokidan samarali foydalanish orqali qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni ta'minlash mexanizmlari yaratishga, takomillashtirilishga qulay atrof-muhitga bo'lgan huquqni amalga oshirishga va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bir qatorda barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga hamda ekologik boshqaruvda mas'uliyatni oshirishga xizmat qilishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *qulay atrof-muhitga bo'lgan huquq, ekologik muammolar, insonlarning ekologik huquqlari, jamoatchilik ishtiroki, ekologik boshqaruv, qarorlar qabul qilish*

Annotation: *The article emphasizes that the right to a clean, healthy, and sustainable environment is one of the fundamental human rights. Public participation is important in improving and increasing the effectiveness of human environmental rights, which serves to ensure the transparency of the process, improve the quality of decision-making, and reduce corruption risks. The article focuses on creating mechanisms to ensure the right to a favorable environment through the effective use of public participation in environmental decision-making, improving and implementing the right to a favorable environment. and environmental protection, as well as supporting sustainable development and increasing responsibility in environmental management.*

Key words: *right to a favorable environment, environmental issues, human environmental rights, public participation, environmental governance, decision-making.*

Аннотация: *В статье подчеркивается, что право на чистую, здоровую и устойчивую окружающую среду является одним из основных прав человека. Участие общественности играет важную роль в совершенствовании и повышении эффективности экологических прав человека, что способствует обеспечению прозрачности процесса, повышению качества принятия решений и снижению коррупционных рисков. В статье говорится о создании механизмов обеспечения права на благоприятную окружающую среду путем эффективного использования участия*

общественности в принятии экологических решений, совершенствовании и реализации права на благоприятную окружающую среду и охраны окружающей среды наряду с поддержкой устойчивого развития и повышением ответственности в экологическом управлении.

Ключевые слова: *право на благоприятную окружающую среду, экологические проблемы, экологические права человека, участие общественности, экологическое управление, принятие решений.*

KIRISH. Iqlim o‘zgarishi, atrof-muhit ifloslanishi sharoitida insonning toza, sog‘lom va barqaror atrof-muhitga bo‘lgan huquqini himoya qilsih va ta’minlash XXI asrdagi eng dolzarb masalaga aylangani bejiz emas. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, 2016-yilda global miqyosda 24% o‘limlar (5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘rtasida esa 28%) o‘zgartirish yoki oldini olish mumkin bo‘lgan ekologik omillar sababli yuz bergan[1]. Bundan xulosa qiladigan bo‘lsak, jahon hamjamiyatida insonlarning ekologik huquqlarini yanada mustahkamlash, davlatlar oldiga bu borada qilinishi lozim bo‘lgan juda ko‘plab masalarni ko‘ndalang qilish davr talabidir.

Rivojlangan davlatlarning aksariyati, atrof-muhit ifloslanishini inobatga olmagan holda turli ishlab chiqarish korxonalari, zavodlarni qurish va ishga tushirishdan to‘xtayotgani yo‘q (Moss Landing Battery Energy Storage System (Vistra)- AQSH, EnBW Hydrogen-ready CHP Plant, Stuttgart-Münster - Germaniya, Dogger Bank Offshore Wind Farm (Phases A–C) - Buyuk Britaniya), to‘g‘ri har bir davlatning moliyaviy omillarini mustahkam bo‘lishi pul bilan bog‘liq biroq hech bir davlat insonlarsiz rivojlanishi yoki fuqarosiz mavjud bo‘lmasligi isbot talab qilinmaydigan teorema ekanligi sir emas.

Yangi ishga tushirilgan zavod va fabrikalarning atrof-muhitga zarari: 2022-2025-yillar davomida yangi sanoat va energetika obyektlarining ko‘payishi aralash ekologik muammolarga sabab bo‘lgan: qazilma boyliklariga asoslangan loyihalar havoning ifloslanishi va issiqxona gazlari chiqindilarining ko‘payishiga olib keldi, qayta tiklanadigan manbalarni tezda ishga tushirish esa yoqilg‘idan foydalanish va emissiyalarning o‘sishini kamaytirdi. Okean va dengizlarda qurulgan yangi zavodlar esa suv osti dunyosini nobut bo‘lishiga olib kelayotgani achinarli holatdir.

Dunyo bo‘yicha 2025 yilda eng muhim ekologik muammo — **iqlim o‘zgarishi** (climate change) hisoblanadi[2]. Yer yuzining o‘rtacha harorati davomli oshib bormoqda, bu muzliklarning erishi, dengiz sathining ko‘tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalari — qurg‘oqchilik, toshqin, bo‘ronlar — ko‘payishiga olib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Yevropa atrof-muhit agentligining (EEA) yaqinda e’lon qilingan hisoboti shuni ko‘rsatdiki, 2021-yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida yashovchi yarim milliondan ortiq odam zaharli ifloslantiruvchi moddalar ta’siri bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sog‘liq muammolaridan vafot etgan. Jadal urbanizatsiya havoning ifloslanishiga olib keldi, shaharlar havo sifati standartlariga javob bera olmayapti. Sog‘liqqa ta’sir darhol va jiddiy bo‘lib, butun dunyo bo‘ylab millionlab odamlarga, ayniqsa sanoat o‘sishi atrof-muhitni tartibga solishdan ustun bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’sir ko‘rsatadi[3].

Havoning ifloslanishi nafaqat inson salomatligiga ta’sir qiladi, balki ekotizimlarga

[1] Preventing disease through healthy environments: a global assessment of the burden of disease from environmental risks, A Prüss-Ustün, J Wolf, C Corvalán, R Bos and M Neira, World Health Organization 2018, https://www.who.int/publications/i/item/9789241565196.

[2] Climate tipping points are being crossed, scientists warn ahead of COP30 By Alison Withers. October 13, 20254:36 AM GMT+5Updated 7 hours ago

[3] THE BIGGEST ENVIRONMENTAL CHALLENGES IN 2025. By Climate Cosmos Team July 9, 2025

zarar yetkazadi va iqlim o‘zgarishiga hissa qo‘shadi. Plastikni yoqish har bir tonnaga ko‘mir yoqishdan ko‘ra ko‘proq karbonat angidrid chiqarishi mumkin, bu esa iqlim o‘zgarishini yanada kuchaytiradi. Atmosfera ifloslanishining o‘zaro bog‘liqligi shuni anglatadiki, mahalliy manbalar global ta’sirga ega bo‘lishi mumkin, bu esa xalqaro miqyosda muvofiqlashtirilgan harakatlarni talab qiladigan chinakam sayyoraviy muammodir - deb Kofi Annan bejizga o‘z nutqida ta`kidlab o‘tmagan edi.

MUHOKAMA. Rivojlangan mamalakatlardagi eng dolzarb muammolardan yana biri bu oziq-ovqat mahsulotlarining isrofgarchiligi hisoblanmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri bo‘lmish AQShda oziq-ovqatning 40 foizi isrof bo‘ladi. Bu atrof-muhit uchun juda katta muammo. Chiqindixonalarda isrof bo‘lgan oziq-ovqatlar iqlim o‘zgarishiga hissa qo‘shadigan issiqxona gazi bo‘lgan metanni chiqaradi. Oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish chiqindilarni kamaytirishga va ko‘proq odamlarni boqishga yordam beradi. Dunyo miqyosida ishlab chiqarilayotgan barcha oziq-ovqat mahsulotlarining uchdan bir qismi isrof bo‘lib, bu issiqxona gazlari chiqindilari va resurslarning kamayishiga olib keladi. 2025-yilda oziq-ovqat chiqindilari asosiy ekologik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu kabi oziq-ovqat isrofgarchiligi muammolarni oldini olish borasida O‘zbekiston hukumati 2019-yilda **“To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi** [4] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati kengashining qo‘shma qarori qabul qilingandi. Bu qo‘shma qaror bo‘yicha bosqichma - bosqich amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalar belgilab berilgan bo‘lib, aynan 2025-yil avgust oyigacha barcha vazifalar to‘liq bajarilishi belgilangan edi, aynan 2025-yil avgust oyidan boshlab O‘zbekiston hududida “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorning talablaridan kelib chiqqan holda barcha tadbirlar o‘tkazilishi qattiq tartibga solinmoqda. Bu tadbir oziq-ovqat isrofgarchiligi natijasida kelib chiqayotgan ekologik muammolarni oldini olish uchun muhim qadam desak yanglishmaymiz.

Dunyo sog‘liqni saqlash tashkilotlarining 2025-yilgi dolzarb ekologik muammolar sirasiga kiritayotgan havoning ifloslanishi muammosi XXI asr muammosi desak xato bo‘lmaydi, chunki, bu muammo yangilik emas, XX asrning 80-yillaridan beri ko‘plab davlatlarda bu kabi muammolarga qarshi kurashish bo‘yicha dasturlar amalga oshirilgan. 2025-yilga kelib ham bu muammo o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi, chunki birgina Eronda havo ifloslanishi o‘tgan 2024-yili bo‘yicha 40 mingdan ortiq odamning o‘limiga sabab bo‘ldi, dedi sog‘liqni saqlash vaziri o‘rinbosari Alirizo Raisiy, bu o‘tgan yillarga nisbatan 10 foizdan 12 foizgacha keskin o‘sishdir. "Ushbu o‘limlarning aksariyati yurak-qon tomir kasalliklari, insultlar, nafas olish muammolari va saraton kasalliklaridan kelib chiqqan," - dedi Raisiy bergan intervyusida. U o‘sib borayotgan to‘lovni sog‘liqni saqlash inqirozi sifatida baholab, havo sifatini yaxshilash uchun zudlik bilan choralar ko‘rishga chaqirdi. Erondagi havo ifloslanishi, ayniqsa Tehron, Ahvoz va Isfahon kabi yirik shaharlarda, aholi salomatligi uchun muhim muammoga aylandi. Bunga transport vositalarining yuqori darajadagi chiqindilari, sanoat faoliyati, past sifatli yoqilg‘iga tayanish va chang bo‘ronlari kabi tabiiy hodisalar sabab bo‘lmoqda. Bu kabi juda ko‘plab dolzarb ekologik muammolar haqida gapirsak gap tugamaydi, buni har birimiz juda yaxshi bilamiz, “XXI asr insoniyatning eng katta dushmani uning o‘zidir” deb bejizga aytilmaydi, fan texnologiyalardagi rivojlanish yoki ishlab chiqarish sohalarining taraqqiy etayotganligi yutuq bilan birga insoniyatga katta muammolarni ham keltirayotganligi achchiq haqiqat. Har bir sohada qilinayotgan yangi kashfiyotlar kabi atrof muhitni yaxshilash borasida ham yangiliklar qilish lozim.

Masalan: eng katta innovatsiyon yangiliklar qilinayotgan yoqilg‘i sanoatidagi rivojlanish

[4] O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo‘shma qarori, 14.09.2019 yildagi 2736-III-son

natijalari bo‘yicha atrof muhitni asrab-avaylash uchun shahar markazlarini ko‘kalamzorlashtirish bo‘yicha majburiyat yuklatilsin, yoki har bir tonna yoqilg‘i uchun 250 ta daraxt yetishtirish vazifasi zimmasiga yuklatilsin. To‘g‘ri bu shunchaki farz hisoblanadi, biroq shu kabi kichik o‘zgarishlar insoniyatning toza atrof-muhitda yashash huquqi davlat tomonidan kafolatlanishining isboti deyishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 2-bo‘limiga tegishli 9–bobi “Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ekologik huquqlari” deb nomlangan bo‘lib insonlarning ekologik huquqlari ham alohida ko‘rsatib o‘tilganligi, juda quvonarli holatdir.

Konstitutsiyamizning 49-moddasida keltirilgan huquqiy normalarning har biri, insonlarning ekologik huquqlarini davlatimiz tomonidan kafolatlanganligini ta’kidlaydi.

“Har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega.

Davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta’minlash va atrof-muhitga zararli ta’sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Shaharsozlik hujjatlarining loyihalari qonunda belgilangan tartibda jamoatchilik muhokamasidan o‘tkaziladi.

Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Davlat Orolbo‘yi mintaqasining ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan choralar ko‘radi”[5].

Mana shu yuqorida ta’kidlangan huquq normalarini hayotga tadbiq qilish har bir O‘zbekiston fuqarosining davlat oldidagi majburiyati desak, yanglishmaymiz. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta prokurori Turdiyev Bobir Sobirovichning “Yurist axborotnomasi” jurnaliga bergan ilmiy maqolasidan qo‘yidagi firklarni keltirib o‘tishni joiz deb bildim.

NATIJALAR. “Ekologik xavf va muammolarning oldini olishda fuqarolarning qulay atrof muhitga bo‘lgan huquqini ekologik nazorat vositasida amalga oshirish va ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Atrof-muhitga ta’sirni baholash (ekologik ekspertiza) eng keng tarqalgan ekologik nazorat shakllaridan biri bo‘lib, BMT a’zo davlatlarining 193 tasidan 191 tasining milliy qonunchiligida yoki ular tomonidan imzolangan xalqaro huquqiy hujjatlarda mazkur nazorat mexanizmlari nazarda tutilgan. Tadqiqotlar ekologik muammolar atrof-muhitga ta’sirni baholashni (AMTB) yuzaki amalga oshirishning salbiy oqibati ekanligini ko‘rsatadi. Bunda atrof-muhitga ta’sirni baholashda jamoatchilik ishtiroki eng muhim zanjirlardan sanaladi. Shuni inobatga olib, maqolada insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqini AMTBda jamoatchilik ishtiroki mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali ta’minlash masalasi ko‘rib chiqiladi. Ilmiy adabiyotlarda AMTB samaradorligini oshirishda jamoatchilik ishtiroki eng muhim vosita sifatida qayd etilgan. Bunda jamoatchilik ishtiroki taklif etilayotgan loyiha, dastur, reja yoki siyosat bo‘yicha qaror ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan yoki shundan manfaatdor shaxslar va guruhlarni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etishni anglatadi. Ekologik boshqaruvda ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash samarali jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, davlat idoralari va yuridik shaxslarning mas’uliyatini oshirish, shuningdek atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan qarorlar qabul qilinishining oldini olishda muhim hisoblanadi. Tadqiqotlar AMTB jarayonida jamoatchilik ishtirokiga jiddiy e’tibor qaratish ekologik ekspertizaning samaradorligini oshirish bilan birga, loyihalarning ijtimoiy foydasini va qarorlar sifatini oshiradi. AMTB shaffof qaror qabul qilish jarayonini rag‘batlantiradigan va korrupsion ta’sirlarni cheklaydigan vosita hisoblanib, jarayonda barcha manfaatdor shaxslarning qatnashishi imkoniyatini berishi AMTBning muvaffaqiyati omillaridan hisoblanadi”[6].

[5] 30.04.2023. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.

[6] ТУРДИЕВ Б.С. “Қулай атроф-муҳитга бўлган ҳуқуқ: экологияга оид қарорлар қабул қилишда

XULOSA. Maqolada ilgari surilgan “Jamoatchilik nazorati” ekologik huquqlarni ta’minlashdagi eng muhim jarayoni sifatida ko‘rsatilgani bejizga emas, har bir inson o‘z huquqini o‘zi himoya qilishi, atrofda bo‘layotgan hodisalarga befarq bo‘lmasligi, faol huquqiy hulq – atvorga ega bo‘lishi O‘zbekiston kabi ijtimoiy, huquqiy va demokratik davlat fuqarosi degan sharafli nomga loyiq bo‘lishini taqoza qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlamoqchimanki, har bir inson o‘z huquqlarini o‘zi himoya qilishni o‘rganmog‘i, bu yo‘lda, huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirmog‘i juda muhim. Zero, insoniyatning kelajagi va avlodlarimizning toza, sog‘lom sharoitda yashashlari uchun har bir inson ma’suldir. Hozirgi kunda mamlakatimiz tomonidan qilinayotgan har bir ekologik muammolarni bartaraf qilishga qaratilgan chora-tadbirlar insonlarni ekologik toza muhitda yashashlarini ta’minlashga qaratilgan. Mazkur chora-tadbirlar asosiy qismi ekologik boshqaruv jarayonida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, axborotning ochiqligi va shaffoflikni ta’minlash, qarorlarning samaradorligini oshirish hamda davlat boshqaruvi organlari va barcha ishtirokchilarning mas’uliyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa insonning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish va ta’minlash, barqaror rivojlanishga erishish, ekologik muammolarning oldini olish va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, yangi tahrirda, 49-modda, 2023-yil, http://lex.uz/docs/6445145.

1. TURDIEV B.S. Qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquq: ekologiyaga oid qarorlar qabul qilishda jamoatchilik ishtiroki masalalari // Yurist axborotnomasi – Vestnik yurista – Lawyer herald. № 1 (2025) B. 8-20.
2. Preventing disease through healthy environments: a global assessment of the burden of disease from environmental risks, A Prüss-Ustün, J Wolf, C Corvalán, R Bos and M Neira, World Health Organization 2018, https://www.who.int/publications/i/item/9789241565196.
3. Climate tipping points are being crossed, scientists warn ahead of COP30 By Alison Withers. October 13, 20254:36 AM GMT+5Updated 7 hours ago
4. THE BIGGEST ENVIRONMENTAL CHALLENGES IN 2025. By Climate Cosmos Team July 9, 2025
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-sonli qarori. https://lex.uz/docs/4984499.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Jamoatchilik nazorati to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘RQ-474-son, 2018 yil, 10-modda.
7. “To‘ylar, oilaviy tantanalar, ma’raka va marosimlar o‘tkazilishini tartibga solish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qo‘shma qarori, 14.09.2019 yildagi 2736-III-son.

жамоатчилик иштироки масалалари // Юрист ахборотномаси – Вестник юриста – Lawyer herald. № 1 (2025) Б. 8-20.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 811.161.1

AKSIOLOGIK QADRIYATLAR EVOLYUTSIYASI: AKSIOMADANIYATDA AYOL ROLINI AKS ETTIRUVCHI MAQOLLAR TAHLILI

Xudaykulova Shaxnoza,
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

EVOLUTION OF AXIOLOGICAL VALUES: ANALYSIS OF PROVERBS REFLECTING THE ROLE OF WOMEN IN AXIO-CULTURE

https://orcid.org/0009-0009-7734-9458

Khudaykulova Shakhnoza,
University of World Economy and Diplomacy
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

e-mail: sh.suvanovna@gmail.com

ЭВОЛЮЦИЯ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ: АНАЛИЗ ПОСЛОВИЦ, ОТРАЖАЮЩИХ РОЛЬ ЖЕНЩИН В АКСИОКУЛЬТУРЕ

Худайкулова Шахноза,
Университет мировой экономики и дипломатии
Доктор философии (PhD) по филологии, доцент

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek xalq og'zaki ijodidagi maqollar asosida ayol obrazining lingvomadaniy va aksiomadaniy jihatlari, ayol bilan bog'liq qadriyatlarning mehr, sadoqat, iffat, sabr, poklik, or-nomus va xalq donishmandligini aks ettiruvchi aksiologik konsept ekanligi, aksiologik qadriyatlarning tarixiy, ijtimoiy, madaniy jarayonlar ta'sirida o'zgarishi, qadriyatlar har bir xalqning madaniy xotirasi, mentaliteti va til tafakkuri asosida shakllanlanishi o'rganilgan. O'zbek xalq maqollari qadriyatlar xazinasi bo'lib, ularni o'rganish orqali xalqning tarixiy-madaniy dunyoqarashi, gender munosabati va axloqiy me'yorlari aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *aksiologik qadriyatlar, evolyutsiya, ijtimoiy-madaniy, ayo.*

Аннотация: *В данной статье исследуются лингвокультурологические и аксиокультурные аспекты образа женщины на материале пословиц в узбекском народном устном творчестве, рассматривается тот факт, что ценности, связанные с женщинами, являются аксиологическим концептом, отражающим любовь, верность, целомудрие, терпение, чистоту, честь и народную мудрость, изменение аксиологических ценностей под влиянием исторических, социальных и культурных процессов, а также формирование*

ценностей, основанных на культурной памяти, менталитете и языковом мышлении каждого народа. Узбекские народные пословицы – кладезь ценностей, изучение которых позволяет раскрыть историко-культурное мировоззрение, гендерные отношения и моральные устои народа.

Ключевые слова: *аксиологические ценности, эволюция, социокультурное, женщина.*

Abstract: *This article studies the linguo-cultural and axio-cultural aspects of the image of women based on proverbs in Uzbek folk oral literature, the fact that values associated with women are an axiological concept reflecting love, loyalty, chastity, patience, purity, honor and folk wisdom, the change of axiological values under the influence of historical, social and cultural processes, and the formation of values based on the cultural memory, mentality and linguistic thinking of each people. Uzbek folk proverbs are a treasure trove of values, and their study reveals the historical and cultural worldview, gender relations, and moral standards of the people.*

Key words: *axiological values, evolution, socio-cultural, woman.*

Aksiologiya – qadriyatlar nazariyasi bo‘lib, u jamiyatning ruhiy-ma’naviy asoslarini o‘rganadi. Har bir xalqning qadriyatlar tizimi maqollar, afsonalar va urf-odatlar orqali ajdodlardan avlodlarga o‘tib keladi. O‘zbek maqollarida ayollarning oila va jamiyatdagi o‘rni alohida o‘rin tutadi. Ular og‘zaki nutqning ajralmas qismi sifatida nafaqat badiiy obrazlarni, balki ijtimoiy-madaniy qadriyatlar, mafkuraviy qarashlar va gender munosabatlarini ham o‘zida mujassam etadi.

Quyida o‘zbek aksiologik madaniyatida ayollarning rolini ifodalovchi qadriyatlarning evolyutsiyasi turli tasnifiy jihatlarda ko‘rib chiqildi.

1. AYOL – ONA OBRAZI. Ayol obrazi o‘zbek aksiologik madaniyatida, avvalo, ona timsolida muqaddas qadriyat sifatida namoyon bo‘ladi. Xalq maqollari va hikmatlarida onaga nisbatan bo‘lgan yuksak ehtirom alohida o‘rin egallaydi. Masalan: “Ona bilan bola gul bilan lola”, “Onaning bir qo‘li beshikni, bir qo‘li dunyoni tebratadi”, “Bola ham ona deydi, ona ham ona deydi”, “Onasin suyganning bolasin suy”, “Onangni uch marta Makkaga opichib oborsang ham, oq sutini oqlolmaysan”, “Onangning yaxshiligini bemor bo‘lsang bilarsan” kabi maqollar ona sha’nining beqiyosligini ifodalaydi. Bunday maqollar onaning biologik emas, balki ijtimoiy-ma’naviy tayanch sifatida qadrlanishini ko‘rsatadi.

2. AYOL – OILA USTUNI VA UY BEKASI. Ayol “uy bekasi” va “oila tayanchi” sifatida tasvirlanadi. O‘zbek madaniyatida ayol oilaning asosiy tayanchi sifatida qaraladi. Uning zimmasiga farzandlarni tarbiyalash, oila a’zolariga g‘amxo‘rlik qilish, uy-ro‘zg‘orni boshqarish va tinchlik-totuvlikni ta’minlash kabi ijtimoiy vazifalar yuklatilgan. Bir turkum maqollarda ayollarning roli uy-ro‘zg‘or yumushlarini bajarishda, farzand tarbiyasida muhim ekanligi ta’kidlanadi, ularning qadriga yetish, izzat-hurmat qilish, aslo va aslo xo‘rlamaslik zarurligi uqtiriladi: “O‘tinsiz qozon qaynamas, xotinsiz uy yayramas”, “Uyni qirq erkak to‘ldirolmaydi, bir ayol to‘ldiradi”, “Tog‘ning ko‘rki qor bilan, erning ko‘rki yor bilan”, “Xotin-qizinig ishini tovuq cho‘qib bitirolmas”, “O‘rta yo‘lda oting o‘lmasin, o‘rta yoshda xotining”, “Xotini o‘lganning xonasi kuyar”.

3. AYOL – AQL, DONISHMANDLIK, MEHNATKASHLIK VA OR-NOMUS RAMZI

O‘zbek madaniyatida ayolning ma’naviy-axloqiy fazilatlari, xususan, iffat, hayo va or-nomus alohida qadrlanadi. Bu xislatlar ayolning

ichki go‘zalligi, pokligi va kamtarligini ifodalaydi. “Or-nomusli ayol” tushunchasi uning o‘z shaxsiyati va oilasiga bo‘lgan sadoqatini, shuningdek, ijtimoiy qadr-qimmatini yoritadi. Qizlarning odobli, iffatli, hayo bilan yashashi jamiyat tomonidan eng zarur fazilat sifatida e’tirof etiladi. Shu munosabat bilan xalq og‘zaki ijodida quyidagi maqollar shakllangan: “Pardali qiz pariga teng”, “Qiz qilig‘i bilan issiq”, “Mevani pardasi saqlaydi”. Ushbu maqollar oilaviy munosabatlarda tomonlarning bir-biriga ta’siri va o‘zaro mukammallashuvini ifodalab, ayolning oilaviy hayotga ijobiy ta’sirini yuksak qadrlaydi. Umuman olganda, yuqoridagi maqollar xalq donoligining ifodasi bo‘lib, ular orqali o‘zbek jamiyatida shaxsiy emas, balki oilaviy va jamoaviy qadriyatlar ustuvorligi aks etadi. Xalq donishmandligi yoshlarga turmush qurishda mas’uliyatli yondashish, shoshqaloqlikka yo‘l qo‘ymaslik, tajribaga tayanish zarurligini ta’kidlaydi.

4**. Qiz tug‘ilish fenomeni.** Farzandning qiz tug‘ilishi fenomeni o‘zbek jamiyatining qadriyatlar tizimida muhim o‘rin tutib, an’anaviy qarashlarda ko‘pincha salbiy talqin qilingan. O‘g’il farzand – hayot mazmuni sifatida ulug‘langan bo‘lsa, qiz farzand ko‘pincha “mehmon” yoki vaqtinchalik shaxs sifatida baholangan. Masalan, “qayta chopgan yov yomon, qayta kelgan qiz yomon”, “chiqqan qizdan ota uyidagi supurgi ham qo‘rqadi”, “qulunli biya ovulga sig‘mas” kabi. Farzandning jinsiga nisbatan qarashlar o‘zbek xalqining qadimiy dunyoqarashida chuqur ildiz otgan bo‘lib, ular milliy qadriyatlar tizimida asosiy o‘rin egallaydi. Qiz tug‘ilishi va ularning ijtimoiy bahosi patriarxal jamiyatda o‘ziga xos stereotiplarni shakllantirgan. Bugungi kunda esa bu stereotiplar qadriyatlar evolyutsiyasi jarayonida qayta ko‘rib chiqilmoqda. Shu bilan birga, qiz tug‘ilishi fenomeni patriarxal qadriyatlar tizimida ko‘pincha salbiy talqin qilingan: “Qiz tug‘ildi g‘am tug‘ildi”, “Qiz boqquncha, qisir boq”, “Yapaloq-yapaloq qor yog‘ar, yomon xotin qiz tug‘ar”, “O‘g‘il tug‘magan xotindan o‘g‘loqlagan echki ortiq” kabi maqollarda qiz tug‘ilishi salbiy baholangan, baxtsizlik deb hisoblanilgan, qiz tuqqan ayollar kamsitilgan, xo‘rlangan. Sandra Bemning gender polarizatsiyasi nazariyasiga (Bem, 1993) ko‘ra, bunday qarashlar erkak va ayol rollarini mutlaq qarama-qarshi kategoriyalar sifatida shakllantirib, ayollarning ijtimoiy imkoniyatlarini cheklab qo‘ygan. Biroq qadriyatlar evolyutsiyasi jarayonida bu stereotiplar asta-sekin o‘z ta’sirini yo‘qotib, qiz farzand ham ijtimoiy qadriyat sifatida yangicha talqin qilina boshladi.

5. Gender polarizatsiyasi nazariyasi. Gender masalalarini tadqiq etishda Sandra Bemning qarashlari muhim nazariy poydevor hisoblanadi. Bem (1981) tomonidan ishlab chiqilgan “Gender Schema Theory”da gender polarizatsiya tushunchasi asosiy o‘rin egallaydi. Olimaning fikricha, gender polarizatsiya – bu madaniyat tomonidan erkak va ayolni o‘zaro istisno qiluvchi kategoriyalar sifatida qurish jarayonidir. Natijada, jamiyat “erkakka xos” va “ayolga xos” rollarni keskin farqlaydi va ularni ijtimoiy ongga singdiradi. Jumladan, erkak – kuch, hukmronlik, ayol – zaiflik, itoatkorlik kabi qiyosalar paydo bo‘lgan. Bu o‘zbek maqollarida “Er – tog‘, ayol – soyasi”, “Xotinning sochi uzun, aqli kalta”, “Xotin boshlagandan to‘y bo‘lmas”, “Xotin degan erdan to‘rt enlik pastda yurishi kerak” tarzida ifodalangan. Bem nazariy yondashuviga ko‘ra, gender polarizatsiyasi nafaqat shaxsiy identifikatsiya jarayoniga, balki ijtimoiy munosabatlar va qadriyatlarning shakllanishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayol ko‘pincha oilaviy, ichki dunyo bilan bog‘liq rollar bilan chegaralanadi, erkak esa tashqi faoliyat, hokimiyat va kuch bilan bog‘lanadi [1].

6. Ayol evolyutsiyasi jarayoni. Shu nuqtayi nazardan, ayol evolyutsiyasi fenomeni Bem nazariyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Agar gender polarizatsiya ayolning imkoniyatlarini cheklash mexanizmi bo‘lsa, evolyutsiya bu cheklovlarni asta-sekin yemirish jarayonini anglatadi. Tarixiy bosqichlarda ayol avvalo “ona” va “uy bekasi” sifatida ko‘rilgan bo‘lsa, keyingi davrlarda ta’lim, mehnat, siyosiy va ilmiy, ijtimoiy sohalarda olima, tadbirkor, rahbar sifatida faol subyekt sifatida tanila boshlandi.

7. **Ayol obrazi adabiyot va madaniyatda.** Mumtoz adabiyotda ayolning ma'naviy barkamollik, sabr-toqat va fidoyilik kabi fazilatlar bilan uyg‘unlashtirilgan holda tasvirlanishi milliy mentalitet va ma'naviy qadriyatlarning shakllanishida muhim rol o‘ynagan [2]. Masalan, mumtoz adabiyotda ayol o‘z jamiyatida tinchlik va mehr-muhabbatni ta’minlovchi, naslning tarbiyachisi, axloqiy fazilatlar targ‘ibotchisi sifatida ko‘rsatiladi. Navoiy asarlarida ayolga faqatgina sevgi va go‘zallik timsoli emas, balki ma'rifat va ruhiy yetuklikning asosiy manbayi sifatida qaraladi. Jadid adabiyotida ayol – millat taraqqiyotining garovi, jumladan, Cho‘lpon ijodida ayol obrazi ozodlik va ichki kuch timsoli, zamonaviy asarlarda esa ayol – ijtimoiy faollik, ma’rifat va o‘zini anglash qadriyatlari bilan bog‘liq hisoblanadi.

8**. Zamonaviy o‘zgarishlar va yangi assotsiatsiyalar.** Mustaqillik davridan boshlab o‘zbek jamiyatida ayol shaxsining ijtimoiy va aksiologik maqomi yangi mazmun kasb etdi. Til tizimida shakllanayotgan “tadbirkor ayol”, “rahbar ayol”, “olima ayol” kabi yangi nominativ birliklar ijtimoiy hayotdagi real o‘zgarishlarning lingvistik ifodasi sifatida namoyon bo‘lib, milliy qadriyatlar tizimida ayol obrazining semantik kengayishini ta’minlamoqda. Mazkur jarayon ayolning jamiyatdagi funksional roli faqat an’anaviy oilaviy doira bilan cheklanib qolmasdan, uning iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, madaniy va badiiy sohalardagi faol ishtirokini aks ettiradi. Bu esa, o‘z navbatida, milliy aksiologik madaniyatning evolyutsiyasini, ya’ni qadriyatlar tizimining ichki semantik transformatsiyasini ko‘rsatuvchi muhim ko‘rsatkichdir. Demak, o‘zbek maqollarida ayol obrazi qadriyat sifatida ikki yo‘nalishda – an’anaviy (ona, uy bekasi) va zamonaviy (bilimli, faol, mustaqil shaxs) qiyofalar sintezida namoyon bo‘lib, bu holat o‘zbek aksiomadaniyatining dinamik rivojlanishini ifodalaydi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bem, S. L. (1993). The lenses of gender: Transforming the debate on sexual inequality. Yale University Press.
2. Inglehart, R., & Norris, P. (2003). Rising tide: Gender equality and cultural change around the world. Cambridge University Press.
3. Scott, J. W. (1986). Gender: A useful category of historical analysis. The American Historical Review, 91(5), 1053–1075. https://doi.org/10.2307/1864376
4. Scott, J. W. (1986). Gender: A useful category of historical analysis. The American Historical Review, 91(5), 1053–1075. https://doi.org/10.2307/1864376
5. Shomaqsudov, S., Shorahmedov, S. (1990). Hikmatnoma: O‘zbek xalq maqollarining izohli lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti.
6. Xudaykulova, Sh. (2019). O‘zbek tilining aksiologik leksikasining maqollarda aks etishi. “Zamonaviy filologiya taraqqiyotida innovatsiyalarining roli” mavzusidagi xalqaro konferensiya.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 233-3231.4-222-1

TARIXIY MANBALAR VA ILMIY ADABIYOTLARDA QO‘NG‘IROT ETNOSINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHINING YORITILISHI

Normamatov Maqsud Jonuzoq o‘g‘li,
Kasbi tumani 5-umumta’lim maktabi
tarix fani o‘qituvchisi

COVERAGE OF THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF THE KUNGROT ETHNOS IN HISTORICAL SOURCES AND SCIENTIFIC LITERATURE

Normamatov Maqsud Jonuzaq oglu,
Kasbi district secondary school No. 5
History teacher

ОСВЕЩЕНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЭТНОСА КУНГРОТ В ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКАХ И НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Нормаматов Максуд Джонузаг оглу,
средняя школа № 5 Касбийского района,
учитель истории

e-mail: nmaqsud2025@mail.com

https://orcid.org/0009-0005-0793-2278

Annotatsiya: *Maqolada tarixiy manba va adabiyotlarda qo‘ng‘irotlar etnosining kelib chiqishi, shakllanish bosqichlari va madaniy xususiyatlari ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda tarixiylik, obyektivlik va manbashunoslik tamoyillari asosida qo‘ng‘irotlarning o‘zbek xalqining etnik tarkibidagi o‘rni yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *qo‘ng‘irot, etnos, etnografik guruh, tarixiy manba, o‘zbek xalqi, etnik tarix.*

Аннотация: *В статье научно анализируются происхождение, этапы формирования и культурные особенности этноса кунгрот в исторических источниках и литературе. В исследовании, основанном на принципах историчности, объективности и источниковедения, освещается место кунгротов в этнической структуре узбекского народа.*

Ключевые слова: *кунгрот, этнос, этнографическая группа, исторический источник, узбекский народ, этническая история.*

Abstract: *The article scientifically analyzes the origin, stages of formation and cultural characteristics of the Kungrot ethnos in historical sources and literature. The study, based on the principles of historicity, objectivity and source studies, highlights the place of Kungrots in the ethnic structure of the Uzbek people.*

Key words: *Kungrot, ethnos, ethnographic group, historical source, Uzbek people, ethnic history.*

Kirish. Kishilik jamiyati paydo bo‘lgan davrdan boshlab insoniyat tarixini o‘rganish masalalari doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan. Tarixiy haqiqatni anglash, tarixiy jarayonlarga ilmiy asosda va xolislik bilan baho berish, ularni falsafiy hamda mantiqiy tahlil etish inson tafakkurining muhim yo‘nalishlaridan biridir. Tarixni o‘rganish faqat voqealar ketma-ketligini emas, balki ularning mazmun-mohiyatini, ijtimoiy, siyosiy va madaniy jarayonlar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashni ham taqozo etadi.

Etnografik tadqiqotlarda tarixiy haqiqatni bir tomonlama yoritish, ma’lum bir xalq yoki davlat tarixini asossiz ravishda buyuklashtirish ilmiy natijalarning xolisligiga putur yetkazadi. Shuning uchun ham etnoslar tarixini tahlil etishda

obyektivlik, dalillarga tayanish va tarixiy manbalarni tahliliy yondashuv asosida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalqining kelib chiqishi va etnik shakllanish jarayoni uzoq tarixiy davrlarni qamrab olgan murakkab jarayon bo‘lib, bu jarayonda turli urug‘ va elatlar faol ishtirok etgan. Shulardan biri — qo‘ng‘irotlar bo‘lib, ularning Markaziy Osiyo mintaqasidagi etnosiyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni alohida ilmiy qiziqish uyg‘otadi.

Tarixiy manbalarda bu haqda qimmatli ma’lumotlar uchraydi. Masalan, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida (1425-y.) Amir Temurning dastlabki siyosiy faoliyatida qo‘ng‘irot sulolasi bilan aloqalarni mustahkamlashga intilgani qayd etiladi. Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” nomli asarida esa Chingizxonning buvisi onasi — Quvoqaroq — qo‘ng‘irot urug‘iga mansub bo‘lgani haqida yozilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy ham o‘z ijodida bir qator turkiy qabilalar qatorida qo‘ng‘irotlarni tilga olib, ularning o‘z davridagi ijtimoiy mavqeini e’tirof etgan.

Demak, tarixiy manbalar va adabiyotlarda qo‘ng‘irot etnosining nomi, faoliyati hamda ijtimoiy nufuzi muntazam qayd etilib kelgan bo‘lib, bu holat ularning o‘zbek xalqining etnik shakllanish jarayonidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi. Mazkur maqolada ana shu tarixiy manbalar tahlili asosida qo‘ng‘irotlar etnik tarixining yoritilish darajasi ilmiy jihatdan o‘rganiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Qo‘ng‘irotlar etnosining XV–XVII asrlardagi tarixiga oid ma’lumotlar ko‘plab yozma manbalarda uchraydi. Xususan, Muhammad Solihning (taxm. 1455–1535) “Shayboniynoma”, Hofiz Tanish Buxoriyning (1549–1589) “Sharafnomayi shohiy”, Mahmud ibn Valining (tug‘. 1596) “Bahr al-asror fi manoqib ul-ahyor” (“Olijanob kishilarning jasorati haqida sirlar dengizi”, 1634–1640), Abulg‘ozixonning (1603–1664) “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” hamda “Shajarayi tarokima”, Mir Muhammad Amin Buxoriyning (tug‘. 1645) “Ubaydullanoma”, Muhammad Yusuf Munshiyning “Tarixi Muqimxoniy” (1697–1704), Abdurahmon Davlat Tole’ning (XVIII asr 1-yarmi) “Tarixi Abulfayzxon”, va Mirzo Abduazim Somiy Bo‘stoniyning (1838/39–1914) “Tarixi salotini Mang‘itiya” (“Mang‘it hukmdorlarining tarixi”) kabi asarlari qo‘ng‘irotlar etnik tarixini o‘rganishda muhim manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi[1].

Mazkur manbalar nafaqat qo‘ng‘irotlarning siyosiy hayotdagi faolligini, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va etnik jarayonlardagi rolini ham yoritadi. Tadqiqotda tizimli yo‘nalishni amalga oshirish asosida o‘rganilayotgan mavzuga oid ilmiy nashrlar va adabiyotlar tahlili dissertatsiyaning birinchi bobida keng yoritilgan bo‘lib, tarixshunoslik jihatidan ular quyidagi to‘rt asosiy davrga bo‘lingan:

1. Rossiya imperiyasi davriga oid adabiyotlar – bu davrda qo‘ng‘irot urug‘ining kelib chiqishi, joylashuvi va xo‘jalik faoliyatiga oid dastlabki tavsifiy ma’lumotlar keltirilgan;
2. Sovet davri tadqiqotlari – marksistik metodologiya asosida o‘rganilgan etnik jarayonlar, ijtimoiy sinf va millatlararo munosabatlar doirasida qo‘ng‘irotlar faoliyati tahlil qilingan;
3. Mustaqillik yillarida yaratilgan adabiyotlar – milliy tarixshunoslikda etnosiyosiy yondashuv kuchayib, qo‘ng‘irotlar o‘zbek xalqining subetnik tarkibidagi muhim komponent sifatida o‘rganilgan;
4. Xorijiy tadqiqotlar – asosan turkologiya, etnografiya va manbashunoslik doirasida olib borilgan xalqaro izlanishlardir[2].

O‘zbek xalqining etnik tarixini o‘rganishda bu manbalar bilan bir qatorda ko‘plab ilmiy tadqiqotlar, etnografik kuzatishlar va arxeologik topilmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilarning e’tirof etishicha, o‘zbeklarning yirik subetnoslaridan biri bo‘lgan qo‘ng‘irotlar haqidagi ma’lumotlar turli ilmiy manbalarda “etnografik guruh” yoki “subetnos” sifatida talqin qilingan[3]. Elshunos olim K.Shoniyozovning ta’kidlashicha: “Etnografik guruh — ma’lum bir etnosning tarkibiy qismi bo‘lib, u til lahjasi, xo‘jalik faoliyati, turmush tarzining ayrim jihatlari bilan farqlanadi”[4].

[1] Muhammad Solih. Shayboniynoma. — T.: Fan, 1961.; Hofiz Tanish Buxoriy. Sharafnomayi shohiy. — T.: Fan, 1991.; Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarayi turk va mo‘g‘ul. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.

[2] Tolstov S.P. Drevniy Khorezm. — Moskva: Nauka, 1948.; Bartold V.V. Turkestanskiye issledovaniya. — M:, 1963.; Sagdullaev A. O‘zbekiston xalqlari etnik tarixi. — T.: O‘zbekiston, 2001.

[3] Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. — T.: Fan, 2001.

[4] Shoniyozov K. Etnografik guruhlar va ularning etnik xususiyatlari haqida. // Etnologiya masalalari to‘plami, T., 1995.

Etnografik guruh odatda bir elatning yoki millatning boshqa xalq bilan aralashib, shu hududda yashab kelishi natijasida shakllanadi. Shu jihatdan qaraganda, o‘zbek xalqining tarkibidagi qo‘ng‘irotlar ana shunday etnografik guruh sifatida ko‘riladi.

K. Shoniyozov yana shunday yozadi: “Etnografik guruhdan etnik guruhning farqi shundaki, o‘z xalqidan ajralib chiqqan guruh boshqa xalq tarkibiga kirib, uzoq muddat yashab, uning tili, xo‘jaligi va urf-odatlarini qabul qilib, unga singib ketadi. Shu bilan birga, o‘tmishdagi etnik mansubligini va ba’zi an’analarini saqlab qoladi”[5].

Qo‘ng‘irotlar XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida o‘zbek xalqining tarkibida o‘ziga xos lahja, turmush tarzi va madaniy xususiyatlarini saqlab qolganliklari sababli etnografik guruh sifatida tavsiflanadi. Ammo qozoq, qoraqalpoq, turkman va boshqird xalqlari tarkibida esa ularning etnik belgilarining ko‘proq assimilyatsiyalashgani sababli etnik guruh sifatida ko‘riladi[6].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda qo‘ng‘irot etnosining tarixiy shakllanishi va u haqidagi ma’lumotlarning tarixiy manbalarda yoritilish darajasini o‘rganishda tarixiy–manbashunoslik, etnografik–tahliliy va qiyosiy–tarixiy yondashuvlardan foydalanildi.

Tadqiqotning asosiy metodologik asosi tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga tayanadi. Tarixiylik tamoyili asosida qo‘ng‘irot etnosiga oid fakt va dalillar o‘z davri kontekstida tahlil qilindi, ularning siyosiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan bog‘liqligi aniqlab borildi. Obyektivlik esa har bir tarixiy ma’lumotni daliliy manbalarga tayanib, ilmiy xolislikda yoritishni ta’minladi.

Shuningdek, tadqiqotda manbashunoslik tahlili muhim o‘rin egalladi. Muhammad Solihning *“Shayboniynoma”*, Hofiz Tanish Buxoriyning *“Sharafnomayi shohiy”*, Abulg‘ozi Bahodirxonning *“Shajarayi turk va mo‘g‘ul”*, Mir Muhammad Amin Buxoriyning *“Ubaydullanoma”*, Muhammad Yusuf Munshiyning *“Tarixi Muqimxoniy”* kabi asarlar tarixiy asos sifatida tanlab olindi. Ushbu manbalar yordamida qo‘ng‘irot urug‘ining XV–XVII asrlardagi siyosiy va ijtimoiy hayotdagi o‘rni, ularning boshqa turkiy qabilalar bilan etnik aloqalari o‘rganildi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, qo‘ng‘irotlar o‘zbek xalqining etnik tarkibida muhim o‘rin tutgan yirik subetnoslardan biridir. Tarixiy manbalar — “Shayboniynoma”, “Sharafnomayi shohiy”, “Shajarayi turk va mo‘g‘ul” kabi asarlarda qo‘ng‘irotlar siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarda faol qatnashganligi qayd etilgan. Etnografik va tilshunoslik tahlillari ularning o‘ziga xos urf-odatlari, lahjasi va madaniy qadriyatlarini hozirgacha saqlab kelganini ko‘rsatadi. Bu esa qo‘ng‘irot etnosining tarixiy barqarorligi va madaniy izchilligidan dalolat beradi. Qo‘ng‘irotlar tarixini manbashunoslik asosida tizimlashtirish va raqamli formatda targ‘ib etish. Ularning etnik va madaniy merosini o‘zbek xalqining umumiy etnogenetik jarayoni bilan bog‘liq holda o‘rganish. Hududiy dala tadqiqotlarini kengaytirish va xalqaro qiyosiy tahlillarni amalga oshirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhammad Solih. Shayboniynoma. — T.: Fan, 1961.; Hofiz Tanish Buxoriy. Sharafnomayi shohiy. — T.: Fan, 1991.; Abulg‘oziy Bahodirxon. Shajarayi turk va mo‘g‘ul. — T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1992.
2. 2. Толстов С.П. Древний Хорезм. — Москва: Наука, 1948.; Бартолд В.В. Туркестанские исследования. — М:, 1963.; Sagdullaev A. O‘zbekiston xalqlari etnik tarixi. — T.: O‘zbekiston, 2001.
3. Shoniyozov K. O‘zbek xalqining shakllanish jarayoni. — T.: Fan, 2001.
4. Shoniyozov K. Etnografik guruhlar va ularning etnik xususiyatlari haqida. // Etnologiya masalalari to‘plami, T., 1995.
5. Shoniyozov K. Etnogenez va etnik tarix masalalari. — T.: Fan, 1994.
6. Karimov B., Nazarov N. O‘zbek xalqining etnik tarkibi. — Samarqand, 2010.

[5] Shoniyozov K. Etnogenez va etnik tarix masalalari. — T.: Fan, 1994.

[6] Karimov B., Nazarov N. O‘zbek xalqining etnik tarkibi. — Samarqand, 2010.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 811.161.1

TILSHUNOSLIKDA LINGVOKULTUROLOGIYANING O‘RNI VA QORAQALPOQ TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Bekbosinova Gauxar Maxambetbaevna, Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti

THE PLACE OF LINGUOCULTUROLOGY IN LINGUISTICS AND ITS STUDY IN KARAKALPAK LINGUISTICS

Bekbosinova Gaukhar Makhambetbaevna (PhD student at Karakalpak State University

МЕСТО ЛИНГВИСТИКИ В ЯЗЫКОЗНАНИЕ И ЕЁ МЕСТО В КАРАКАЛПАКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Бекбосынова Гаухар Мажамбетбаевна, аспирант Каракалпакского государственного университета

e-mail: bekbosinovagauxar1@gmail.com

Maqola taqrizchisi: Abdinazimov Shamshet Najimovich - Qoraqalpoq davlat universiteti Qoraqalpoq tilshunosligi kafedrasi o‘qituvchisi, professor

Annotatsiya: *Zamonaviy tilshunoslikdagi eng dolzarb masalalarning biriga aylanib borayotgan lingvokulturologiya fani deyarli hamma tilshunoslarni qiziqtira olgan fanlardan hisoblanadi. Maqolada tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi, lingvokulturologiyaning maqsadi va qoraqalpoq tilshunosligida o‘rganilishi haqida so‘z boradi.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, antropotsentrik paradigma, konsept, til, madaniyat.*

Abstract: *Linguacultural studies, which is becoming one of the most pressing issues in modern linguistics, is one of the disciplines that attracts the attention of virtually all linguists. This article examines the emergence of linguacultural studies—one of the new fields in linguistics—its purpose, and the specific features of its study in Karakalpak linguistics.*

Key words: *linguaculture, anthropocentric paradigm, concept, language, culture.*

Аннотация: *Лингвистика, становясь одной из самых актуальных проблем современного языкознания, является одной из дисциплин, привлекающих внимание практически всех лингвистов. В данной статье рассматривается возникновение лингвистики – одного из новых направлений в языкознании, её предназначение и особенности изучения в каракалпакском языкознании.*

Ключевые слова: *лингвистика, антропоцентрическая парадигма, концепт, язык, культура.*

Article reviewer: *Abdinazimov Shamshet Najimovich, Professor, Department of Karakalpak Linguistics, Karakalpak State University*

Kirish. Dunyo tilshunosligi XXI asrda ham rivojlanib, yangi va dolzarb muammolar yuzaga kelmoqda. Ularning biri antroposentrik nuqtayi nazardan o‘rganishdir, bunda asosan, etnolingvistika, lingvistik semantika, neyrolingvistika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo‘lgan. Linvokulturologiya tilshunoslikdagi antroposentrik paradigmaning asosiy qismlaridan biri hisoblanib, so‘nggi o‘n yillikda rivojlanishi

tobora ko‘zga tashlandi. Antroposentrik paradigmada inson asosiy obyekt hisoblanadi. Bu teoriyada lingvistik tadqiqot predmetlarini tahlil qilish tamoman o‘zgarib, tadqiqotning umumiy qoidalari va metodlarini tanlab olishga o‘tilmoqda. Ko‘rinib turganidek, antroposentrik teoriyaning rivojlanishi tilshunoslikning tadqiqot yo‘nalishini odamga, uning madaniyatdagi o‘rniga o‘zgartirdi. Uning rivojlanishi til egasi - so‘zlovchi shaxs faktorini tahlil qilish bilan bog‘liq.

Tilshunoslikda antroposentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilda tadqiq qilishning “o‘zida va o‘zi uchun” e’tiqodini chetga olib, asosiy e’tiborini shaxsga qaratdi [9, 64]. Professor Sh.Abdinazimov antoposentristlik teoriyani “tadqiqot obyektining subyektda o‘rganilishi, boshqacha qilib aytganda, til insonda, inson tilda o‘rganiladi” deb tushintiradi [1, 10-b].

Odamlarning o‘z xalqining o‘tmishi, madaniyatining ildizlariga qiziqishlari uni o‘zining ona tiliga diqqat bilan yondoshishiga, o‘rganishiga undaydi. Qadim davrlarning belgilari oradan qancha asrlar o‘tishiga qaramasdan hozirgi vaqtda maqollar, iboralar, o‘qshatishlar va paremiyalar, anomastik materiallar bilan miflarda saqlanib qolganligining guvohi bo‘lamiz. Tilimizdagi saqlanib qolgan bu materiallarni o‘rganish orqali qadimgi ajdodlarimizning o‘zligini taniymiz. Bu kabi tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fan – lingvokulturologiya fani vujudga keldi. Lingvokulturologiya (lotincha lingua – til, gultura (lot) ishlov berish, logos (yunoncha) talimot) jonli kommunikativ holatlarni va ularda qo‘llaniladigan tilning sinxron harakatdagi xalq mentaliteti bilan bog‘liqligini o‘rganadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bu sohaga XIX asrda V.fon Gumbold o‘zining “Odamzod tilining ko‘pturliligi va uning, xalqning ruhiy rivojlanishiga ta’siri” kitobi bilan asos solingan bo‘lib, bunda til va millat aloqasi haqida aytilgan edi. Lingvokulturologiya atamasi V.N.Teliya asos solgan frazeologik iboralar maktabi tadqiqotlarida XX asrning oxirlarida Yu.I.Stepanov, A.D.Artyunova, V.V.Vorovyov, V.Shaklein, V.A.Maslova va boshqa olimlarning ishlarida namoyon bo‘la boshladi. V.A.Maslovaning asarlarida bu lingvokulturologiyaning rivojlanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glins, X.Xols, D.Uitni, D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbiskaya, D.Xaymz singari olimlarning fikrlari soha uchun salmoqli ekanligi haqida aytilgan [4, 15-b]. Ushbu maqolada chog‘ishtirma analiz, sinxron va emperik metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Lingvokulturologik tadqiqning obyekti madaniy xabarning tarjimasi bo‘lgan tilning o‘z aro aloqalarini o‘rganishdir. Bu obyekt birqancha fundamental ilm – tilshunoslik va madaniyatshunoslik, etnografiya va psixolingvistikaning kesishgan nuqtasida paydo bo‘lgan.

Til va madaniyatning bog‘liqligi, madaniyatning tilda o‘z aksini topish muammosi bilan bog‘liq masalalarning metodologik asosining tarixi uzoq davrlarga borib taqalmaydi, ya’ni yaqin yillardan boshlanadi. Rus tilshunosligida V.A.Maslovaning darsliklarida lingvokulturologik tadqiqotning zamonaviy yo‘nalishlari o‘rganilib, metodologik asoslar ko‘rsatib berilgan [5]. Shuningdek, bu sohaning paydo bo‘lish tarixi, nazariy asoslari, madaniy konnotasiya, til birliklari haqida so‘z boradi. V.A.Maslovaning fikriga ko‘ra lingvokulturologiya – tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan va xalq madaniyatining tilda aks etgan va mustahkamlanib borayotgan ko‘rinishlarini o‘rganadigan bo‘limdir [5, 9-b]. V.V.Pestova “Lingvokulturologiya jonli milliy tilda mujassamlangan va lingvistik jarayonlarda namoyon bo‘ladigan moddiy va ma’naviy madaniyatni o‘rganuvchi gumanitar fandir. Tilning asosiy funksiyalaridan biri – yaratish, rivojlantirish, saqlash va uzatish vositasi madaniyat orqali amalga oshiriladi. Uning maqsadi lingvokulturologik birliklarda madaniyatni o‘zida mujassamlashtirgani, saqlanishi va uzatish usullarini o‘rganishdir” deb yozadi [6, 10-b].

V.V.Vorobyovning asarida gumboldlik nazariyaga asoslanib, madaniyatning tilda o‘z aksini topish masalasini o‘rganish Sepir-Uorf gipotezasi asosida amalga oshirilib, L.Veysgeyber atamalaridan faol foydalanilgan. U lingvokulturologik tahlilning asosiy birligi lingvokulturema atamasini ilmga kiritadi va uni

“tillik va tillik bo‘lmagan (tushuncha va predmet) mazmunining dialektik birligi deb tarif beradi”.

Tilshunoslikda lingvokulturologik birliklarga simvol, mifologema, etalon, metafora, iboralar, o‘xshatishlar, paremiologik birliklar, lakunalar, steriotiplar, precedent birliklar, etiketlar tushiniladi. Ular shu millatning boshqa millatlardan farqlanishini ko‘rsatuvchi asosiy elementlardan hisoblanadi. Ya’ni bir millatga xos bo‘lgan, etalon bo‘lsin, iboralar bo‘lsin, boshqa xalq bilan taqqoslaganda o‘ziga hos xususiyatlari yaqqol nomoyon bo‘ladi.

Olim Sh.Safarov insonning madaniyat bilan chambarchas bog‘liqligi haqida quyidagicha fikrlarni bildiradi: “Insonning inson sifatida shakillanishining o‘zi ham madaniyat bilan bog‘liqdir. Uning nafaqat intelektual faoliyati, balki oddiy hayotiy xatti-harakatlarining barchasi ham milliy madaniyat ko‘zgusida aks topadi va ushbu madaniyat qonun-qoidalari “nazorati”da bo‘ladi”, - deb yozadi [7,62-b]. Shuningdek olim til va madaniyatning farqi haqida “Til va madaniyat o‘rtasidagi umumiylik qanchalik darajada bo‘lmasin, ularni farqlovchi xususiyatlar ham yetarlidir. Bu farq birinchi navbatda ushbu ikki hodisaning tizimiylik ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi, madaniyat ham belgilar sistemasidir. Ammo bu sistema, til tizimidan farqli o‘laroq, o‘z-o‘zidan tartiblashish, tizimlashish xususiyatiga ega emas” deydi [7, 64-b].

Har bir xalqqa xos bo‘lgan umumiy xususiyatlar, qon-qoniga singib ketgan odatlar shu xalqning madaniyatida va steriotiplarda namoyon bo‘ladi. Stereotip – muayyan guruhning yoki jamoaning soddalashgan, sxemalashgan, emotsional bo‘yoqdor va favqulodda barqaror bo‘lgan obrazidir va shuni aytish joiz ki turli madaniyat vakillarining tili va tafakkurining o‘ziga xosligidir. Masalan: *Alańnıń aldı qıtaydıń qızıl gúli, oramalday jayılǵan kan gúlleri kózge tústi, gúllerge shlanga menen suw sewip, shańın juwıp júrgen qırıqlar shamasındaǵı adam, shlangasın taslay berip, qolın kókiregine basıp sálemlesti de: “Ziyaratıńız qabıl bolsın xojayın”, dedi* ***ózbeklerge tán sıpayılıq hám álpayımlıq penen*** (Sh.Seytov). ***Evreyden aqıllı xalıq joq****, házir kór, evreylerdiń esi pútinleri CCCRdı tárk etip, kóship atır, jaqsı bolsa evrey tárk etpes edi!* (Sh.Seytov). *Kelgenlerdiń birewi orıs eken,* ***“orıs chestnıy boladı!”*** *dep, sonnan pitegene úmit etti* (Sh.Seytov). *Bir kúlisip almasa, Diyxan salı ormaydı,* ***Wahahası bolmasa, Qaraqalpaq bolmaydı*** (T.Mátmuratov). Yuqorida berilgan misollarda qoraqalpoq xalqi o‘zbek xalqini mehmondo‘st, hurmat-izzatni joyiga qo‘yadigan xalq sifatida e’tirof etishi, evrey xalqi aqlliligi bilan, rus xalqi odilona baholovi bilan, qoraqalpoq xalqi esa o‘zlarini hazillari bilan boshqa millatlardan ajralib turishi badiiy adabiyotlarda o‘z tasdig‘ini topgan. Bu kabi etnomadaniy steriotiplar har bir xalqning o‘ziga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlarini bildiradi.

Tilshunoslikda lingvokulturologik tadqiqotlarda asosan quyidagi masalalar o‘rganiladi: 1) ma’lum bir xalqning miflari, og‘zaki ijod namunalari tilining lingvokulturologik jihati o‘rganiladi; 2) ma’lum bir uslubda yozilgan asarlardagi lingvokulturologik konseptning qo‘llanilishi; 3) chog‘ishtirma tadqiqotlar (bunda ko‘pincha rus tili bilan ingliz, nemis, fransuz tillari o‘rganiladi) 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog‘liq taraflari o‘rganiladi. Bunda ijtimoiy fanlarda o‘quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil qilish maqsad qilib olingan.

Bu soha yangi fan, yangi tadqiqot obyekti sifatida o‘zbek va qoraqalpoq tilshunosligida oxirgi o‘n yillikda rivojlana boshladi. Qoraqalpoq tilshunosligida Sh.Abdinazimov va X.Tolibaevlarning muallifligida “Lingvokulturologiya” o‘quv qo‘llanmasi qoraqalpoq tilshunosligida dastlabki izlanishlardan hisoblanadi. Til muammolarini lingvokulturologik aspektda X.Tolibaev, Sh.Qunnazarova, Z.Daniyarova, E.Iskenderovalarning ilmiy ishlarida maxsus o‘rganildi. X.Tolibaev qoraqalpoq xalq dostonlarida uchraydigan toponimlarning uslubiy imkoniyatlarini o‘rganib, mifolingvistik tahlil qilgan. Sh.Qunnazarova esa, qoraqalpoq xalq ertaklarini leksik-semantik va lingvomadaniy tahlil qilib, undagi turkiy so‘zlar qatlami, o‘zlashgan so‘zlar, iboralar, qo‘llanilishiga qaray chegaralangan so‘zlar, ertaklarda uchraydigan

metaforalar, etnografizmlarni o‘rgangan. E.Iskenderova qoraqalpoq tilidagi zoonimlarni lingvomadaniy tahlil qilib, insonlarning xarakter xususiyatlariga bog‘liq hayvonlarning ba‘zi o‘xshash xususiyatlarini turg‘un o‘xshatishlarda misollar bilan ko‘rsatib bergan.

Chog‘ishtirma tilshunoslikda ya‘ni qoraqalpoq tili va ingliz tilida lingvokulturologik izlanishlar ilgarilab borayotganini ko‘rishimiz mumkin. Masalan, bu kabi tadqiqotlarga S.Arzımbetova, A.Sadullaeva, G.Babayeva, G.Usenova, V.Usenova, G.Kdirbaevalarning ilmiy izlanishlarini atab o‘tish o‘rinlidir. Ulardan S.Arzımbetovaning izlanishlarida dunyo til bilimi kartinasida, qoraqalpoq va ingliz tilida “head/bas” komponentli frazeologizmlarni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilgan. Bunda olima folklor asarlaridagi, epik asarlardagi va badiiy asarlardagi “head/bas” komponentli frazeologizmlarni o‘rgangan. Bunda obyektga aylangan frazeologizmning asosi aqliy qobiliyat, aqlli-aqmoq singari binar ma‘nolarda ko‘proq uchrashganligi aniqlangan. G.Babayeva “Hushmuamilalik” konseptini nemis, o‘zbek, qoraqalpoq tillarida qo‘llanilishini o‘rganib, bu konseptning lingvokulturologiyadagi semantik holatini o‘rganib, ularning og‘zaki diskursda va iboralarda, badiiy asarlarda qo‘llanilishini o‘rganib, bu tillardagi obyektga aylangan konseptning farqli va o‘xshash tomonlari o‘rganilgan. V.Usenova ingliz va qoraqalpoq tillarida odamning xususiyatlarini gavdalantiruvchi mifologik konsept birliklarini ertaklar diskursida lingvomadaniy jihatdan maxsus o‘rgangan. Ilmiy ishda astral mifologik birliklar, mifologik konsept birliklarining odam ko‘rinishidagi tipi va uslubiy troplarni analiz qilgan. Sehrli buyumlar, sakramental sonlar, mifologik qahramonlar, yolmog‘iz kampir, jeztirnoq, alvasti, dev, podishoh, botir obrazlari ikki tilda farqlari ko‘rsatilib, yoritib berilgan. G.Usenova ingliz va qoraqalpoq tillarida “Mother/ona” konseptini iboralar tarkibida, paremiologik va badiiy asarlar tilida lingvokulturologik jihatdan tahlil qilgan.

Xulosa va takliflar. Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkin-ki, XX asr boshlariga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligida yetakchi sohalarning biriga aylangan bo‘lsa, hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan sohalardandir. Bu ilmning qardosh xalqlar tilshunosligidagi rivoji juda ilgarilab ketgan. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib shuni aytish mumkin-ki, lingvomadaniyatshunoslik qoraqalpoq tilshunosligida yanada chuqurroq o‘rganilishi kerak bo‘lgan sohalardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sh.Abdinazimov, X.Tolıbaev. Lingvokulturologiya. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2020, 99, 10-b.
2. Iskenderova E.K. Qoraqalpoq tilidagi zoonimlarning lingvomadaniy tahlili. Filol. fanl. bo‘yicha fals. dokt. (PhD)... diss. avtoreferati. – Nukus, 2023.
3. Қунназарова Ш. Қарақалпақ халық ертеклериниң лексикалық-семантикалық хәм лингвомәдений анализи. Филол.илим.бойынша филос.док. (PhD)… дисс. Нөкис , 2021.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика.- М.,1987.Стр.15
5. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. -- М.: «Академия», 2001. – 9 с.
6. Пестова В. В. Лингвокультурология: учебно-методическое пособие / сост. – Электронные текстовые данные. – Самара: 2022. 10-с
7. Сафаров Ш. Когнетив тилшунослик. – Жиззах : «Сангзор», 2006, 62-б.
8. Толыбаев Х. Қарақалпақ дәстанлары топонимлериниң лингвомәдений анализи. Филол.илим.бойынша филос.док. (PhD)… дисс. Нөкис , 2023.
9. Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 821.109.0214

O‘ZBEK TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘QITISHDA INTERAKTIV METODLARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Xabibullayeva Shoira Shukurillayevna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasi o‘qituvchisi

GOALS AND OBJECTIVES OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING UZBEK AS A SECOND LANGUAGE

Khabibullayeva Shoira Shukurillayevna, Termez University of Economics and Service Teacher of the Department of Uzbek Language and Literature

ЦЕЛИ И ЗАДАЧИ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ПРЕПОДАВАНИИ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА КАК ВТОРОГО

Хабибуллаева Шоира Шукуруллаевна, Термезский университет экономики и сервиса, преподаватель кафедры узбекского языка и литературы

_shoiraxabibullayeva@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-9326-5199

Annotatsiya*: Ushbu maqolada o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda interaktiv metodlarning maqsad va vazifalari xususida so‘z yuritiladi. Interaktiv metodlarning til o‘qitish jarayonidagi kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish, o‘quvchilarni ruhlantirish, shuningdek, tandiqiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishdagi samaradorligi masalalari tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tili, ikkinchi til sifatida o‘qitish, interaktiv metod, samaradorlik, maqsad va vazifa.*

Abstract*: This article discusses the goals and objectives of interactive methods in teaching Uzbek as a second language. The issues of the effectiveness of interactive methods in the process of language teaching in the formation of communicative competencies, motivating students, as well as improving critical thinking skills are analyzed.*

Key words*: Uzbek language, teaching as a second language, interactive method, effectiveness, goals and objectives.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются цели и задачи интерактивных методов обучения узбекскому языку как второму. Анализируются вопросы эффективности интерактивных методов обучения языку в формировании коммуникативных компетенций, мотивации учащихся, а также развитии навыков критического мышления.*

Ключевые слова: *узбекский язык, обучение как второму языку, интерактивный метод, эффективность, цели и задачи.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda jahon hamjamiyatida sodir bo‘layotgan globalizatsiya jarayoni o‘z ta’sirini til o‘qitish sohasida ham namoyon etmoqda. Xususan, mamlakatimizning xalqaro maydondagi faolligining oshishi natijasida o‘zbek tilini ham ikkinchi til sifatida o‘qitish chora-tadbirlari kunning dolzarb masalasiga aylanib ulgurdi. Zamonaviy til ta’limida o‘zbek tilini ikkinchi til sifatidagi o‘qitishning barqaror xususiyatlari faqatgina darsning sifat darajasiga ta’sir etuvchi omil bo‘lib qolmasdan, balki o‘quvchilarni ham dars jarayoniga jalb eta oluvchi kuchli vosita bo‘lib xizmat qila olishi ko‘zda tutiladi.

An'anaviy til ta'limida til o'qitishda foydalaniladigan metodlar faqatgina grammatik qoidalar va lug'at bilan tanishishga qaratilgan bo'lib, bu o'quvchilarni faqatgina nazariy bilimlar bilangina cheklaydi, biroq uning amaliy-empirik vosita sifatidagi roli ahamiyatsiz qoldiriladi [1]. Ushbu metodika cheklangan xarakterga ega bo'lib, olingan bilimlarning kommunikatsiya jarayoniga tatbiqisiz holda qolishiga sabab bo'ladi. Shu sababli til o'qitishda muvaffaqiyatli natijaga erishish uchun til va interaktiv metodlarning ham zamonaviy, ham faol shakllarini ishlash chiqish ta'limning dolzarb masalasiga aylanib ulgurdi va bu masala bizning ushbu tadqiqotimizda ham o'z aksini topgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish qator tadqiqotlarning diqqat markazidan o'rin olgan masalalardan biri hisoblanadi. S.Xurramova "O'zbek tili xorijiy til va ikkinchi til sifatida o'qitish xususida" nomli maqolasida esa o'zbek tilining xorijiy til sifatidagi maqomini hamda ikkinchi til sifatidagi maqomini ilmiy jihatdan talqin qiladi hamda o'zbek tilining ikkinchi til sifatida maqomotini "ikkinchi tildan ish yuritish yoki ta'lim olish maqsadida foydalanish mumkin. Masalan, O'zbekiston hududida yashovchi o'zga millat vakillari uchun o'zbek tili ham davlat tili ham ikkinchi tildir. O'zbeklar uchun rus tili, turk tili, qozoq tili ikkinchi til bo'lishi mumkin", [5] deya talqin qiladi.

X. Muhitdinovaning "O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish metodikasi" nomli qo'llanmasida ham bevosita ushbu masala alohida o'rganib chiqilgan. Muallif bu borada qator omillar zarurati xususida fikr yuritgan: "Ona tilimizning respublikamiz hududida millatlararo asosiy muloqot vositasiga aylanib borishi ko'p jihatdan umum ta'lim maktablari, akademik litseylar, kollejlar hamda oliy ta'lim tizimida o'zga tilli guruhlarda o'zbek tilining o'qitilishi, ularda amal qilinayotgan o'quv dasturlari va darsliklar mazmuniga bog'liq" [4]. Demak, o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitish "o'qituvchi – o'quvchi" tuzilmasi asosida amalga oshiriladigan invidual shakl emas, balki "davlat – ta'lim – o'quvchi" strukturasiga asoslangan ko'pshaklli muhim jabha hisoblanadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish an'anaviy metodlarga nisbatan samaradorroqdir. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitilishidagi kommunikativ yondashuvlar tilning amaliy va nazariy jihatlarini o'zaro umumlashtirib, til o'rganishning faqatgina nazariya bilan cheklanmay, balki uning amaliyotga ham joriylanishiga zamin yaratadi. Bu esa til o'qitishning kommunikativlik funksiyasiga, asosan, urg'u beradi. O'zbek tilini o'qitishdan ko'zlangan asosiy maqsad unga xos nazariy qoidalar bilan o'quvchilarni tanishtirish emas, balki o'rganilgan nazariy masalalarning real hayotga tatbiqini amalga oshirishdan iboratdir [4]. Ushbu jarayonga xos qator interaktiv metodlar mavjud bo'lib, ularni quyidagi bayon etamiz:

1-metod. Maqsadli debat. *Bajarilish jarayoni*: guruh o'quvchilari ikkiga bo'linadi ("Plyus" va "minus" tomonlar). O'qituvchi o'quvchilarga munozaraga asoslangan *mavzu tadqim etadi* (Masalan, "Jamiyatimizda yoshlarning roli" mavzusida). O'quvchilar ushbu mavzuni yoritishda og'zaki kommunikatsiyadan foydalanib, o'z fikrlarini o'zbek tilida ifodalashda ham *nutqiy pragmatikadan* foydalanadilar, ham *fikr almashish jarayoni* yuzaga keladi. Shuningdek, o'quvchilar qarshi guruh fikrlarini tinglagan holda o'zlarining tandiqiy munosabatini bildirish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar. Ushbu metoddan ko'zlangan asosiy vazifalar esa quyidagilardir:

- o'zbek tilidagi lug'at va grammatik qoidalarning nazariy asoslarini izolyatsiyalash (ajratib o'rganish) o'rniga, ularni tahlil qilish, tezkor qaror qabul qilish va argumentatsiya uchun butun nutq birliklari sifatida birlashtirish (gaplar, murakkab jumlalar) kompetensiyasini shakllantirish;
- o'zbek tilini tezkor anglash va tezkorlik bilan javob qaytarish (reaksiya bildirish);
- munozara uslubiga xos yuqori darajali leksik va sintaktik konstruksiyalarni amaliyotga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirish.

2-metod. "Simulyatsiya va situativ immersiya" metodi. *Bajarilish tartibi:* O'qituvchi o'quv xonasida aniq ijtimoiy muhitni shartli ravishda yaratishi lozim. Bu usul, ko'pincha, tilni madaniy kontekstda o'rgatishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, "Hukumat idorasida fuqarolik muammolarini hal qilish" situatiyasini tanlash mumkin. Tadriji:

O'qituvchi tomonidan ma'lum vaziyat belgilanadi, jumladan, "Xorijlik insonning

O‘zbekiston hududida yashash joyini belgilash” mavzusida.

O‘quvchilar toifalarga ajratiladi (*mijoz* – o‘z nutqida iltimos va savol shakllaridan foydalanadi; *xodim* – rasmiy muloqot uslubidan foydalanadi; *kuzatuvchi* – ishtirokchilarning nutqiy etiketini kuzatadi va baholaydi).

Simulyatsiya davomida faqat o‘zbek tilidan foydalanish qat’iy talab sifatida qo‘yiladi. Har bir talaba rollarni almashtirib chiqiladi. Ushbu metoddan ko‘zlangan asosiy vazifalar:

o‘zbek tilidagi nutqiy pragmatikaning rasmiy va norasmiy usullarini farqlash;

rasmiy va qiyin vaziyatlarda (masalan, hujjatlarni to‘ldirish yoki xizmat ko‘rsatuvchi xodim bilan noaniq masalani hal qilish) mos so‘zni topish va grammatik xato qilishdan qo‘rqmagan holda nutqni uzluksiz davom ettirish qobiliyatini rivojlantirish;

darsliklarda kam uchraydigan, ammo rasmiy muloqot yoki kundalik turmush uchun zarur bo‘lgan maxsus so‘z birikmalari va terminlarni (masalan, *ariza, blanka, imzo, tasdiqlash, ro‘yxatdan o‘tish*) faol lug‘atga kiritish.

muloqot va madaniyat integratsiyasining amaliy tatbiqini o‘rganish.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Tadqiqot jarayonida qo‘llash tavsiya etilgan metodik yondashuvlar o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning maqsad va vazifalarini tizimlashtirishga yordam beruvchi asosiy omillar hisoblanadi:

interaktiv metodlar o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishning kommunikativlik xususiyatlarini mustahkamlaydi. O‘quvchilar “Maqsadli debat” metodi orqali grammatik qoidalarni alohida shakllarda o‘rganmay, ularni amaliy jarayonga tatbiq etish qobiliyatlarini mustahkamlaydilar;

“Simulyatsiya va situativ immersiya” metodi esa o‘quvchilarning psixolingvistik moslashuvchanligiga xizmat qiladi. Ushbu metodni dars jarayoniga tatbiq etish o‘quvchilarning tilni amaliy tatbiqini hech qanday bosimlarsiz o‘rganishlariga zamin yaratadi hamda moslashuvchanlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi;

ijtimoiy muloqot normalari va tilning madaniy xususiyatlarini o‘rganish jarayoni ham bevosita ushbu interaktiv metodlar asosida amalga oshiriladi. Natijada, o‘quvchilar tilni shunchaki lug‘at va grammatik qoidalar yig‘indisi sifatida emas, balki o‘zbek madaniy etikasi, urf-odatlari va nutqiy normalari bilan chambarchas bog‘liq ijtimoiy faoliyat sifatida o‘zlashtiradi. Bu esa o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini real hayotdagi integratsiyasi uchun zarur bo‘lgan sotsiopragmatik kompetensiyalarini rivojlantiradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda interfaol metodlardan foydalanish globalizatsiyaning muhim talabidir. Ushbu jarayonga mos interaktiv metodlarni tanlay bilish esa o‘qituvchilarning pedagogik mahoratiga bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki davlat tuzilmasining ham ta’limga berayotgan e’tibori, yaratilayotgan shart-sharoitlarga bog‘liq jihat sanaladi. Umuman olganda, o‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda tanlangan interfaol metodlar o‘quvchilarning kommunikativlik kompetensiyalari, tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari hamda lingvomadaniy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beruvchi muhim omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Canale M., & Swain M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1-47, 1980.
2. Denzin N. K., & Lincoln Y. S. The SAGE handbook of qualitative research (5th ed.). SAGE Publications, 2018.
3. Dörnyei Z. Teaching and Researching Motivation. (3rd ed.). Routledge, 2020.
4. O‘zbek tilini ikkinchi til sifatida o‘qitish metodikasi [Matn]: o‘quv qo‘llanma / X. Muxitdinova. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – 312 b.
5. Xurramova S. O‘zbek tilini xorijiy til va ikkinchi til sifatida o‘qitish xususida. Академические исследования в современной науке, 4(6), 132–134, 2025.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK:1:111:378 (575.16)

ABDURAHMON JOMIYNING MA'NAVIY MEROSIDA FALSAFIY QARASHLAR

Oyatulloh Ayniddin, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markaziy bo'lim boshlig'i, Imom Termiziy o'rta maxsus islom ta'lim muassasasi o'qituvchisi

PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF ABDURAHMAN JAMI

Oyatulloh Ayniddin, Head of the Imam Termizi International Scientific Research Center, Lecturer at the Imam Termizi Secondary Special Islamic Educational Institution

ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АБДУРАХМАНА ДЖАМИ

Оятуллох Айниддин, начальник Международного научно-исследовательского центра имени Имам Термизи, преподаватель среднего специального исламского образовательного учреждения имени Имам Термизи

e-mail: oyatulloh@gmail.com

https://orcid.org/0009-0002-8514-8284

Annotatsiya: *Ma'lumki, Abdurahmon Jomiy mashhur mutafakkir o'z davrida ham, bugungi kunda ham she'riyat olamida ulkan shaxsiyat sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Bu kishining asarlari hech qachon dolzarbligini yo'qotmaydi. Shu o'rinda ta'kidlash lozim-ki, Jomiyning asarlari faqat til, adabiyot, she'riyat yo'nalishida emas, balki falsafa nazariyasi, go'zal axloq namunalari va ruhiy rivojlanish bosqichlari o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatgan. Ushbu maqola Abdurahmon Jomiyning ulkan ilmiy salohiyatini manbalarga asoslangan holda namoyon qilishga qaratiladi. Ma'lum bo'lishicha, mazkur allomaning asarlari o'z yurtida yozilgan bo'lib, o'sha paytdagi ko'p ulamolar e'tirof etganlar.*

Kalit so'zlar: *falsafa, tarix, riyozat, falakiyot, adabiyot, vohid, silsila, fazoil, axloq, aqliy, naqsh, mantiq, tasavvuf, "Haft avrang".*

Аннотация. *Хорошо известно, что Абд ар-Рахман Джами является выдающимся мыслителем, который как в своё время, так и сегодня признаётся великим деятелем в мире поэзии. Его труды не теряют своей актуальности. Следует подчеркнуть, что произведения Джами охватывают не только сферу языка, литературы и эпической поэзии, но и отражают взаимосвязь между философской теорией, образцовым нравственным поведением и этапами духовного совершенствования. Цель данной статьи – представить обширный научный потенциал Джами на основе источников. Известно, что труды этого великого учёного были написаны на его родине и получили признание многих учёных его времени.*

Ключевые слова: *философия, история, аскетическая практика (риязат), астрономия, литература, единство, происхождение, добродетели, этика, разум, узор (накш), логика, суфизм, «Хафт авранг».*

Abstract: *It is well-known that Abd al-Rahman Jami is a celebrated thinker who, in his time and today, is recognised as a great figure in the world of poetry. His works never lose their relevance. It should be emphasised that Jami's works are not only in the domain of language, literature and epic poetry, but also show the interconnection between philosophical theory, exemplary moral conduct and the stages of spiritual development. This article is aimed at presenting Jami's vast scholarly potential on the basis of sources. It is known that the works of this great scholar were written in his homeland and were acknowledged by many scholars of his time.*

Key words: *philosophy, history, ascetic practice (riyāẓat), astronomy, literature, unit, lineage, virtues, ethics, intellect, pattern (naqsh), logic, Sufism, "Haft Awrang".*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Abdurahmon Jomiyning to‘liq ismi – Nuriddin Abdurrahmon ibn Ahmad ibn Muhammad Jomiy bo‘lgan. U kishi Movarounnahrning Jom shahrida milodiy 1414-yil 7-noyabrda tavvallud topgan. Jomiyning ota-bobolari asli Dashtdan bo‘lib, keyinchalik Jom shahriga ko‘chib kelishgan. Necha yillar shu Jom shahrida yashab umrguzaronlik qilgan. Keyinchalik esa, Hirotga ko‘chib kelishgan. Jomiy yoshligida otasidan ilk ta’limni, ya’ni odob-axloqqa oid masalalarni o‘rgangan. Hirot shahrida maktab-madrasalarda tahsil olgan. O‘sha davrda Hirotdagi "Dilkash" madrasasiga kirib o‘z davrining taniqli til, adabiyot olimlari va mudarrislari qo‘lida tahsil olgan. Shu davrdayoq u arab tilini mukammal o‘rgana boshlagan. Keyinroq Jomiy o‘z bilimini oshirish uchun Samarqandga keladi va Ulug‘bek madrasasida buyuk falakiyotshunos Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi, fiqhshunos Fazlulloh Abullays kabilardan ta’lim olgan. Bu yillar davomida u til va adabiyotgina emas, riyoziyot, falakiyot, falsafa, huquqshunoslik fanlari, din asoslari, hadis va tafsir ilmlarini chuqur o‘rgangan. Jomiy Hirotga qaytgach, hayoti davomida ilm-fanning turli sohalarida ijod qilgan — adabiyot, tasavvuf, falsafa, san’at va musiqa va boshqa fanlar bilan shug‘ullangan. Tasavvuf yo‘liga kirishni, o‘z bilim va faoliyatini shu yo‘lga, qolaversa, ijodga, ilm-fanga bag‘ishlashni afzal ko‘radi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo‘lib, ularda shoir islom dini va sharq falsafasining bir qator masalalarini o‘z nuqtai nazari bo‘yicha talqin etadi. U kishi asarlari bugungi kunda ham o‘z dolzabligini yo‘qotmay kelmoqda. Markaziy Osiyo sharqshunos, tilshunos va manbashunoslari u kishining asarlarini ilmiy, madaniy tadqiqot predmeti sifatida katta qiziqish bilan o‘rganadi. Masalan, Bugungi kunga qadar yurtimizda alloma merosiga bag‘ishlangan bir qator xalqaro konferensiyalar o‘tkazilgan. Asarlari falsafiy tasavvufiy yo‘nalishlarni o‘zida namoyon etadi [2].

Jomiyning falsafiy qarashlari asosan islom falsafasi va tasavvufiy ramzlar orqali ifodalangan. U Jaloliddin Rumiy va Fariduddin Attorning ta’limot va g‘oyalaridan ko‘proq foydalangan. U Ibn Arabiyning "vahdat ul-vujud", ya’ni "Mavjudot yagona haqiqatning zohir bo‘lishidir" degan g‘oyasini chuqur o‘rgangan. Uning fikricha dunyodagi barcha narsa va mavjudotlar Allohning zohir bo‘lish shakllaridir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Jomiy o‘z asarlarida komil inson g‘oyasini ilgari suradi. Uning falsafasi markazida inson va uning kamoloti turadi. Uning fikricha, insonda ikki jihat bor: bu moddiy va ma’naviy jihatlardir. Moddiy jihat insonning organizmi, hissiyotlari, undagi hayot, jism bilan tanishlik, dunyo bilan bog‘langanlik, ya’ni insonning jamiyatdagi vazifasi, faoliyati va jismoniy ehtiyojlarini o‘z ichiga qamrab oladi. Ma’naviy jihat esa insonning ilohiy tomondan berilgan ruhi, aqli, ma’rifatga intilishi, irfoniy kamolot sari intiluvchanligi, ya’ni nafsini tarbiyalash orqali ma’rifiy, axloqiy kamolotga intilishidir [3].

Jomiyning nazarida, inson shunchaki jismoniy mavjudlik emas, balki ma’naviy darajada ham barkamol bo‘lishi zarur. Masalan, «inson o‘zida so‘z va amal, ilm va axloqni birlashtirishi»ga e’tibor beriladi. Bundan kelib chiqadiki, inson o‘zida bu ikki jihatni uyg‘unlashtirsa, ya’ni jismoniy va ma’naviy jihatlarda kamol topsa, u komil inson bo‘ladi. Jomiy bu g‘oyani o‘z falsafiy, tasavvufiy qarashlari doirasida ko‘rib chiqadi. Jomiy nazdida «Inson» tushunchasi ikki ma’noga ega: birinchisi, yaratilgan mavjudotlar ichida eng mukammal mavjudot; ikkinchisi insoniyat ichida eng komil inson, ya’ni, inson bashariyat ichidagi bir mavjudot bo‘lib, uning eng yuksak shakli komil inson idealidir. Jomiy uchun insonning jismoniy hayoti, jamiyatdagi faoliyati, material-dunyo bilan bog‘liqlik muhim bo‘lsa-da, undan ham muhimroq ruhiy va ma’naviy kamolotga intilishdir [4].

Jomiyning falsafiy merosi Sharqda, ma’naviyat va islom tafakkurida muhim ahamiyat kasb etadi. U tasavvuf falsafasini badiiy so‘z bilan xalqqa yaqinlashtirib, falsafani inson qalbi va ruhiyati bilan bog‘ladi. Uning asarlaridagi falsafiy

TAMADDUN NURI

qarashlar inson kamoloti, ilohiy ishq, ma'rifat va vujud haqidagi chuqur mulohazalarni ifodalaydi. U falsafani nazariy bilim sifatida emas, balki ruhiy tarbiya va ma'naviy tarbiya vositasi sifatida ko'radi. Uning fikricha, falsafa insonni komillikka, Yaratuvchiga yaqinlashishga, olamning haqiqiy ma'nosini anglab yetishga chorlovchi ta'limot hisoblanadi. Jomiyning bunday qarashlari keyingi asrlardagi ko'plab mutafakkirlarning ijodiga ijobiy tasir ko'rsatgan [5].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Jomiyning "Haft avrang" asarida falsafiy qarashlari yaqqol namoyon bo'ladi. Ushbu asar tarkibiga kiruvchi dostonlar ro'yxati quyidagilardir:

Silsilat uz-zahab;
Tuhfat ul-ahror;
Subhat ul-abror;
Yusuf va Zulayho;
Layli va Majnun;
Salomon va Absol;
Xiradnomayi Iskandariy [3].

"Silsilat uz-zahab" asarida mo'tadil axloq va ma'rifat falsafasi, namunaviy hikmatlar keltirilgan. Bunda inson nafsi hoyu havas ta'siridan tozalanib, ma'naviy yuksalishga intilish zarurligi uqtirilgan. Alloma "Salomon va Absol" hamda "Yusuf va Zulayho" masnaviylarida "vahdat ul-vujud" masalasi, ya'ni borliqning yagona manbai Alloh ekanini ta'kidlaydi. Barcha mavjudot Allohning zohir bo'lishidir. Inson o'z "men"ligini yo'qotib, haqiqiy vujudni – Ilohiy vujudni anglashi lozim. Alloma "Layli va Majnun" hamda "Yusuf va Zulayho" asarlarida ilohiy ishq falsafasini bayon qilgan. Unga ko'ra ishq vujudning mohiyatidir. Ishq Allohni olamni yaratishga undagan ilohiy kuchdir. Inson ham ishq orqali haqiqiy kamolotga erishadi. "Suhbat ul-abror" asarida ham komil inson falsafasi yoritilgan. Bunga ko'ra inson borliqning eng yuksak namunasidir. Komil inson Allohning sifatlarini o'z jonida mujassam etgan shaxsdir. Komil inson bo'lish uchun nafsni poklash, ilm va ishq orqali ma'rifatga intilish zarur. "Tuhfat ul-ahror" hamda "Suhbat ul-abror" asarlarida falsafaning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan. Jomiy ilmni ilohiy haqiqatga yetkazuvchi yo'l deb biladi. Bu yerdagi ilmdan murod zohiriy ilm emas, balki botiniy ilmdir. Alloma dunyoviy va ruhiy hayot muvozanatini bayon qilib keltiradiki, inson dunyoviy hayotdan uzilgan holda emas, balki uni ma'naviy boylikni o'stirish maqsadida xizmat qildirgan holda yashashi kerak. Ya'ni, Jomiy moddiyat olamini inkor etmaydi, unga yopishib ham olmaydi, balki inson dunyodan foydalanib oxiratini obod qilishi kerak. "Suhbat ul-abror" asarida go'zal axloq va insoniy fazilatlar falsafasini inson kamoloti uchun asosiy shartlardan biri deb hisoblaydi. Shundan ma'lum bo'ladiki, Jomiyning "Haft avrang" asari – bu faqat do'stlik yoki ishq haqidagi doston emas, balki tasavvufiy-falsafiy ta'limotlar ensiklopediya hisoblanadi.

Unda quyidagi tushunchalar markaziy o'rin egallaydi:

Ishq – vujudning mohiyati;
Ilm – kamolotga yetaklovchi nur;
Axloq – insoniylikning o'zagi;
Ozodlik – nafsdan xalos bo'lish;
Xirad – davlat va hayotning asosi [4].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Abdurahmon Jomiyning ilmiy asarlari tarixan ko'proq xalq va jamiyat manfaatiga asos bo'lib xizmat qilgan. Alloma yoshlarni tarbiyalash, go'zal axloqqa yetaklash masalasiga katta e'tibor qaratgan. Bugungi hayotimizda ham uning falsafiy qarashlari tadqiqotchilar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. Asarlarini o'qigan kishi o'zida ma'rifiy va axloqiy jihatlar bilan bir qatorda, do'stlik, muhabbat, poklik, jamiyatdagi mas'uliyat kabi sifatlarni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. – Tehron. 1983.
2. Abdurahmon Jomiy. Silsila az-zahab. – Tehron. 1983.
3. Hamidov N. Jomiy va tasavvuf falsafasi. – Toshkent. 2005.
4. Shimmel A. Islomdagi irfoniy an'analar. – Lubnon. 1982. – 543 b.
5. Zohidov H. Sharq falsafasida inson masalasi. – Toshkent. 2011.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 1751

ZAMONAVIY RUS TILI LEKSIKASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Arabova Muxiba Bazarovna,
"Rus tili va adabiyoti" kafedrasi katta o'qituvchisi
Termiz davlat pedagogika instituti

TRENDS IN THE DEVELOPMENT OF MODERN RUSSIAN VOCABULARY

Arabova Mukhhiba Bazarovna,
Senior Lecturer, Department of Russian Language and Literature
Termez State Pedagogical Institute

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ЛЕКСИКИ СОВРЕМЕННОГО РУССКОГО ЯЗЫКА

Арабова Мухиба Базаровна, старший преподаватель кафедры русского языка и литературы, Термезский государственный педагогический институт

elektron pochta: arabova7688@gmail.com
https://orcid.org/0009-0006-6729-8974

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada zamonaviy rus tili leksikasining shakllanishi, uning ijtimoiy, texnologik va madaniy omillar ta'sirida boyib borish jarayoni tahlil qilinadi. Maqolada yangi so'zlarning paydo bo'lish sabablari, neologizmlar va o'zlashmalar xususiyatlari, internet, siyosat, moda, texnologiyalar ta'sirida leksik qatlamdagi o'zgarishlar o'rganiladi.*

***Kalit so'zlar**: zamonaviy rus tili, leksika, neologizm, o'zlashma, axborot texnologiyalari, internet nutqi, globalizatsiya.*

***Аннотация**: В статье анализируется формирование лексикона современного русского языка, его обогащение под влиянием социальных, технологических и культурных факторов. Изучаются причины появления новых слов, особенности неологизмов и заимствований, изменения лексического пласта под влиянием Интернета, политики, моды и технологий.*

***Ключевые слова:** современный русский язык, лексика, неологизм, заимствование, информационные технологии, интернет-речь, глобализация.*

***Abstract**: This article analyzes the formation of the lexicon of the modern Russian language, its enrichment under the influence of social, technological and cultural factors. The article studies the reasons for the emergence of new words, the characteristics of neologisms and borrowings, changes in the lexical layer under the influence of the Internet, politics, fashion, and technology.*

***Key words**: modern Russian language, vocabulary, neologism, borrowing, information technology, Internet speech, globalization.*

Kirish. XXI asr boshidan boshlab rus tili leksikasi tez sur'atlarda o'zgarib, yangi mazmuniy qatlamlar bilan boyimoqda. Bunga sabab — jamiyatdagi ijtimoiy, siyosiy, texnologik va madaniy o'zgarishlardir. Globalizatsiya jarayonlari, internet va ommaviy madaniyatning kengayishi natijasida rus tili lug'at tarkibida ko'plab yangi so'zlar — neologizmlar va o'zlashma birliklar paydo bo'ldi.

Rus tili har doim o'zining ochiqligi, boshqa madaniyatlar bilan faol aloqadorligi bilan ajralib turgan. Shu bois, hozirgi kunda rus tilining leksik tizimida ingliz, fransuz, koreys, hatto o'zbek tilidan kirib kelgan birliklar ham uchramoqda. Masalan, "блогер", "лайкать", "стрим", "контент", "хайп", "саммит", "брендинг", "кофешоп" kabi so'zlar bu jarayonning yaqqol misolidir.

Leksikaning o'zgarishi faqat so'z qo'shilishi emas, balki tilning ma'nodagi dinamikasini ham

bildiradi. Yangi so‘zlar tildagi semantik tizimni qayta shakllantiradi, yangi uslubiy yo‘nalishlar yaratadi. Shu bois, zamonaviy rus tili leksikasini o‘rganish nafaqat lingvistik, balki sotsiokultural ahamiyatga ega.

Asosiy qism.

1. Zamonaviy rus tili leksikasining umumiy xususiyatlari

Zamonaviy rus tili leksikasi o‘zining dinamikasi va ochiqligi bilan ajralib turadi. Har yili yuzlab yangi so‘zlar ommaviy axborot vositalari, internet tarmoqlari va ijtimoiy media orqali tilga kirib kelmoqda. Bu jarayon tabiiy leksik o‘sishning belgisi bo‘lib, tilning jamiyatdagi o‘zgarishlarga moslashuvchanligini ko‘rsatadi.

Leksikaning o‘sishiga sabab bo‘layotgan asosiy omillar:

Texnologik inqilob – internet, mobil aloqa, sun’iy intellekt, raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq terminlarning kirib kelishi.

Globalizatsiya – madaniyatlararo aloqalarning kuchayishi, xalqaro terminlarning faol qo‘llanilishi.

Siyosiy va ijtimoiy jarayonlar – yangi siyosiy tushunchalar, atamalar, ijtimoiy harakatlar bilan bog‘liq so‘zlar paydo bo‘lishi.

Ommaviy madaniyat – kino, musiqa, moda, internet-memlar tildagi yangi birliklarni shakllantiradi.

Tilshunos A. A. Reformatskiy fikricha, “til tizimi tirik organizmga o‘xshaydi: u doimiy ravishda yangilanadi va moslashadi”. Demak, yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi — tilning sog‘lom rivojlanish jarayonidir.

2. Neologizmlar va ularning shakllanish sabablari

Rus tilidagi neologizmlar ikki asosiy yo‘l bilan yuzaga keladi:

Ichki resurslar asosida — mavjud so‘zlar asosida yangi ma’no yoki shakl paydo bo‘ladi (masalan, “зашквар”, “топчик”, “вируситься”).

Tashqi manbalardan — boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zlar (“лайкать”, “стримить”, “фейк”, “кейс”).

So‘nggi yillarda ingliz tilidan kirgan so‘zlar eng ko‘p uchraydi. Ular, odatda, IT, biznes, marketing, ijtimoiy tarmoqlar va texnologiyalar sohasiga taalluqlidir. Masalan:

“фриланс”, “контент-мейкер”, “блогинг”, “чат-бот”, “стартап”, “промо”.

Neologizmlar faqat leksik yangilik emas, balki madaniy yangilanish belgisi hamdir. Ular yangi ijtimoiy hodisalarni nomlash uchun zaruratdan tug‘iladi.

3. Leksik o‘zlashmalar: integratsiya va adaptatsiya

Rus tili leksik tizimiga o‘zlashmalar kirib kelganda, ular odatda fonetik va morfologik jihatdan moslashtiriladi. Masalan:

“фейк” (fake), “лайкать” (to like), “трендовый” (trendy) kabi so‘zlar rus fonetik tizimiga mos shaklga ega bo‘lgan.

O‘zlashmalar ikki bosqichda tilga singadi:

Chetdan kirish bosqichi — so‘z hali yangilik bo‘lib, faqat ma’lum auditoriya tomonidan ishlatiladi;

Normativlashuv bosqichi — so‘z ommaviylashib, adabiy tildagi maqomga ega bo‘ladi.

Masalan, “интернет” yoki “маркетинг” kabi so‘zlar 1990-yillarda yangilik bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda ular rus tilining normativ leksikasiga aylangan.

4. Internet va media nutqining leksik ta’siri

Internet va ijtimoiy tarmoqlar rus tili leksikasiga eng kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan soha hisoblanadi. “Мем”, “хайп”, “краш”, “флексить”, “зумер”, “реакшн”, “видос”, “постить” kabi so‘zlar internet-madaniyat mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

Bu so‘zlar nafaqat yoshlar nutqida, balki ommaviy axborot vositalarida, hatto rasmiy matnlarda ham uchramoqda. Natijada rasshov o‘rni kengaygan ijtimoiy dialekt — “internet leksikasi” shakllandi.

Tilshunos M.Krongauz bu holatni “tildagi yangi ijtimoiy kodlar paydo bo‘lishi” deb ataydi. Chunki internet tili orqali kommunikatsiya tezkor, qisqa va emotsional xarakter kasb etgan.

5. Semantik o‘zgarishlar va metaforik yangilanishlar

Zamonaviy rus tili leksikasining rivojlanishida faqat yangi so‘zlarning paydo bo‘lishi emas, balki mavjud so‘zlarning semantik yangilanishi ham muhim o‘rin tutadi. Ya’ni, eski so‘zlar yangi ma’no qatlami bilan boyiydi. Bu hodisa semantik kengayish deb ataladi.

Masalan, “токсичный” so‘zi ilgari faqat kimyoviy zaharli moddalar uchun ishlatilgan bo‘lsa, hozirda u metaforik tarzda “salbiy energiyaga ega

inson”, “psixologik jihatdan zararli shaxs” ma’nosida qo‘llaniladi. Xuddi shuningdek, “вирусный” so‘zi ham avval tibbiy termin bo‘lgan, bugungi kunda esa internetda tez tarqaladigan kontentga nisbatan (“вирусный ролик”) ishlatiladi.

Bu jarayon tilning metaforik tafakkur orqali boyishini ko‘rsatadi. Har bir yangi ijtimoiy voqelikni ifodalash uchun til eski so‘zlarga yangi semantik yuklamalar beradi. Natijada so‘zning ma’nosi kengayadi va tilning obrazlilik darajasi ortadi.

Rus tilida semantik o‘zgarishlar quyidagi yo‘nalishlarda faol kechmoqda:

Metaforik kengayish – “токсичный”, “вирусный”, “заражаться идеей”, “прогореть в бизнесе”.

Metonimik o‘tish – “Кремль заявил”, “Вашингтон решил”, “Брюссель поддержал” kabi so‘zlar geografik nomlardan siyosiy markaz ma’nosiga o‘tgan.

Jargonizatsiya – rasmiy so‘zlarning norasmiy nutqda emotsional tus olishi (“зашел”, “улетел”, “поймал вайб”).

Bu jarayonlar natijasida rus tili yanada jonli, ifodali va ko‘p qatlamli tus olmoqda. Shu bilan birga, tilshunoslar oldida yangi muammo – semantik normani belgilash masalasi paydo bo‘lmoqda.

Rus tilida yoshlar tili — tilning eng tez o‘zgaruvchi qatlami hisoblanadi. Bu qatlamda sleng, jargon, internet-so‘zlashuv unsurlari ustunlik qiladi. Ularning asosiy vazifasi — guruh ichida identifikatsiya (ya’ni “o‘zimizniki” bo‘lish hissi) yaratishdir.

Masalan, so‘nggi yillarda paydo bo‘lgan “краш” (yoqtirgan inson), “флексить” (maqtanish), “зумер” (yosh avlod), “вкатиться” (yangi jamoaga kirish), “зашквар” (uyatli holat) kabi so‘zlar yoshlar nutqining emotsional va ekspressiv tabiati bilan bog‘liq.

Bu leksik birliklarning ko‘pchiligi ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki fonetik adaptatsiya orqali kirib kelgan. Ularning ishlatilish sohasi dastlab internet tarmog‘i va ijtimoiy media bo‘lgan bo‘lsa, bugun ular hatto televidenie, reklama va badiiy asarlarda ham uchramoqda.

Tilshunos Y.Karaulovning fikricha, yoshlar tili – bu “tildagi eksperiment laboratoriyasi”dir. Chunki aynan yoshlar tili orqali yangi leksik birliklar paydo bo‘ladi, sinovdan o‘tadi va keyinchalik umumxalq tili tarkibiga kiradi.

Shunga qaramay, yoshlar slengining haddan tashqari kengayishi til madaniyatining pasayishi xavfini ham keltirib chiqaradi. Shu sababli o‘qituvchilar va tilshunoslar uchun muhim vazifa — tilning jonliligini saqlagan holda, adabiy norma chegarasini aniqlashdir.

7. Rus tilida leksik normaning o‘zgarishi

Til tizimi doimo o‘zgarishda bo‘lgani kabi, leksik norma ham statik hodisa emas. Avvallari “normadan chet” deb hisoblangan so‘zlar bugun adabiy tildan o‘rin olayotganini ko‘rish mumkin.

Masalan, 2000-yillarda “гуглить”, “лайкать”, “твитить” kabi fe’llar norasmiy deb qaralgan bo‘lsa, hozirda ular hatto Rus tili akademik lug‘atlariga kiritilgan.

Bu hodisa tilshunoslikda “normaning demokratlashuvi” deb ataladi — ya’ni til xalq hayotidagi real foydalanish tajribasiga moslashmoqda. Biroq bu jarayon bilan birga purizm (tilni begona so‘zlardan tozalash g‘oyasi) tarafdorlari ham mavjud. Ular o‘zlashmalarni rus tilining “asl” tabiatiga tahdid deb bilishadi.

Tilshunos V. Kostomarov bu borada shunday yozadi:

“Tilni begona ta’sirlardan himoya qilish kerak, biroq uni hayotdan ajratib bo‘lmaydi. Yashovchan til har doim jamiyat bilan birga o‘zgaradi.”

Shunday qilib, normaning o‘zgarishi — bu tilning zaifligi emas, balki moslashuvchanligi va hayotiy kuchining belgisidir.

Xulosa. Zamonaviy rus tili leksikasining rivojlanish tendensiyalari shuni ko‘rsatadiki, til bugungi globallashgan, raqamli, madaniy xilma-xil dunyoda faol moslashmoqda. Neologizmlar, o‘zlashmalar, internet leksikasi va yoshlar slengi tilning jonliligi va hayotiyligini ta’minlamoqda.

Bu jarayonning ijobiy tomoni — tilning ifoda imkoniyatlari kengaymoqda, yangi ijtimoiy hodisalarni ifodalash uchun vositalar paydo bo‘lmoqda. Salbiy tomoni esa — tilning normativligi va madaniy soflligi muvozanatini saqlash zarurati.

Kelgusida tilshunoslar, o‘qituvchilar va tarjimonlar uchun asosiy vazifa — rus tili leksikasidagi yangiliklarni ilmiy asosda o‘rganish, ularni tahlil qilish va ta’lim tizimiga integratsiya qilishdir. Faqat shundagina rus tili o‘zining boy

TAMADDUN NURI

madaniy merosini saqlagan holda zamon bilan hamnafas bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кронгауз М. Русский язык на грани нервного срыва. — Москва: Лингвистика XXI век, 2020.
2. Костомаров В. Г. Языковая норма и её динамика в современном обществе. — Санкт-Петербург, 2018.
3. Караулов Ю. Н. Русский язык и языковая личность. — Москва: Наука, 2019.
4. Реформатский А. А. Введение в языкознание. — Москва: Просвещение, 2008.
5. Сафаралиев Р. Современные процессы в лексике русского языка. — Ташкент: Университет, 2022.
6. Горелов И. Н. Социолингвистика и современный язык. — Санкт-Петербург: Филологический факультет, 2021.
7. Сафаров Ш. С. Прагмалингвистика. — Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK:392.35

АЙБИЙКЕ BEKMURATOVANÍŃ IZERTLEWLERINDE «MURÍNDÍQ ATA-ENE» DÁSTÚRI HAQQÍNDA

Paxratdinov Ajiniyaz Quralbaevich, Ózbekstan Respublikası Ilimler akademiyası Qaraqalpaqstan bólimi Qaraqalpaq gumanitar ilimler ilimiy-izertlew institutı doktorantı

THE CUSTOM OF «MURYNDYK ATA-ENE» IN AYBIYKE BEKMURATOVA'S RESEARCH

Pakhratdinov Ajiniyaz Kuralbaevich, doctoral student, Karakalpak Institute of the Humanities, Karakalpak Branch of the Akademy of Sciences of Respublic of Uzbekistan

ОБЫЧАЙ «МУРЫНДЫК АТА-ЕНЕ» В ИССЛЕДОВАНИЯХ АЙБИЙКЕ БЕКМУРАТОВОЙ

Пахратдинов Ажинияз Куралбаевич, докторант Каракалпакского научно-исследовательского института гуманитарных наук Каракалпакского отделения Академии наук Республики Узбекистан

https://orcid.org/0009-0002-2397-517X

e-mail: ajiniyazpaxratdinov@gmail.com

Annotaciya: *Maqalada qaraqalpaqlardağı «murındıq ata-ene» dástúri haqqında sóz etiledi. Úyreniw dawamında etnograf A.Bekmuratovanıń qaraqalpaqlardağı murındıq ata hám ene haqqında aytqan pikirleri analizlendi. Bul dástúrdiń payda bolıwı, áhmiyeti, wazıypaları hám basqa da máselelerdi tereń izertlew talap etiledi.*

Tayanısh sózler: *Etnografiya, murındıq ata, murındıq ene, jasalma tuwısqanlıq, qıyametlik ata, qıyametlik ana.*

Аннотация: *В статье рассматривается традиция каракалпаков посаженый отец, посаженая мать. В ходе исследования были проанализированы взгляды этнографа А.Бекмуратовой на роль посаженых отца и матери в каракалпакской культуре. Происхождение, значение, функции и другие аспекты этой традиции требуют глубокого изучения.*

Ключевые слова: *Этнография, посаженый отец, посаженая мать, искусственное родство, "қыяметлик ата", "қыяметлик ана".*

Abstract: *The article examines the Karakalpak tradition of the "murındıq ata" and "murındıq ene". The study analyzes the views of ethnographer A. Bekmuratova on the role of these adoptive parents in Karakalpak culture. The origin, significance, functions, and other aspects of this tradition require in-depth research.*

Key words: *Ethnography, honorary father, honorary mother, fictive kinship, "murındıq ata", "murındıq ene".*

KIRISIW (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Qaraqalpaqlardağı murındıq ata hám ene dástúriniń ózgeshelikleri hám insan tariyxınıń hár qıylı dáwirlerinde hár qıylı tariyxıy-mádeniy tarawlarda hám ayırım etnikalıq toparlarda payda bolıw formaları ayrıqsha qızığıwshılıq oyatadı. Házirgi kúnge shekem bul institut qaraqalpaqlarda jasalma tuwısqanlıq sıpatında tolıq izertlenilmey kiyatır. Bul máselege baylanıslı ayırım pikirler qaraqalpaq ilimpazlarınıń miynetlerinde jol-jónekey aytılǵan.

ÁDEBIYATLAR ANALIZI HÁM METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS).

Murındıq ata hám ene dástúri

boyınsha maǵlıwmatlar jergilikli ilimpazlardan U.Shalekenov, U.Kusekeev, X.Esbergenov, A.Bekmuratova, T.Esbergenova, A.Bijanova, M.Davletiyarov, M.Utebaevlardıń izertlewlerinde ushırasadı.

Maqalada A.Bekmuratovanıń 1970-jılı baspadan shıqqan «Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем» degen miyneti úyrenilip, úyreniw dawamında qaraqalpaqlardaǵı murındıq ata hám ene dástúri haqqında bahalı maǵlıwmatlar alındı. Sonday-aq, onıń ilimiy maqalaları hám etnografiyalıq dala jazıwlarında toplaǵan arxiv materiallarınan da keń paydalanıldı.

A.Bekmuratovanıń dástúrge baylanıslı miynetleri jergilikli ilimpazlardıń miynetleri menen salıstırmalı túrde úyrenildi hám analizlendi.

DODALAW (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION).

A.Bekmuratova ózinıń izertlewlerinde qaraqalpaqlardaǵı tuwısqanlıq terminlerdi arnawlı izertlep, olardıń shańaraqlıq-tuwısqanlıq qatnasları sistemasındaǵı ornın hár tárepleme anıqlap bergen [7]. Ilimpaz murındıq ata-ene dástúri boyınsha da bahalı maǵlıwmatlar bergen.

A.Bekmuratova qaraqalpaqlardaǵı murındıq ata-ene dástúrin erte dáwirden kiyatırǵan dástúr sıpatında qarap, onı “Alpamıs” dástanında ushırasatuǵın “qıyametlik ata”, “qıyametlik ana” degen túsinikler menen baylanıstırıp úyrengen.

“Alpamıs” dástanında ushırasatuǵın qıyametlik ata, qıyametlik ana túsiniklerinıń murındıq ata menen murındıq ene túsinigine uqsas mánide qollanılǵan degen pikirdi M.Davletiyarovtıń miynetinde de kóriwge boladı [3].

“Alpamıs” dástanında Áshim Arzayımǵa úylengende, olar ushın "qıyametlik ata" (murındıq ata) Baysarı, al “qıyametlik ana” (murındıq ene) Altınshash bolǵan. Baysarı Áshimdi ózine ul, Arzayımdı qız dep esaplaǵan. Altınshash: “Áshim – meniń ulım, Arzayım – qızım”, – dep, kóyleginiń kókirek tárepin sheship, Áshim menen Arzayımdı kókiregine basadı [6]. Usı háreketi arqalı Áshim menen Arzayımǵa tuwısqanlıq, analıq sezimlerin bildirgen.

A.Bekmuratova “qıyametlik ata” hám “qıyametlik apa” túsiniklerin din menen baylanıslı dep qaraǵan [1]. Haqıyqatında da bul túsinikler kóbirek diniy-ruwxıy mazmunda qollanıladı, yaǵnıy, perzentin tárbiyalap, haqıyqıy atalıq wazıypasın orınlaǵan adam qıyamette de perzenti menen birge boladı, degen diniy túsinikke tiykarlanadı.

Informatorlardıń bergen maǵlıwmatlarında “eger murındıq balańdı tuwǵan perzentińdey teń kórmeseń, “qıyamet kúni juwabı bar” dep túsinedi [12].

X.Esbergenov bılay jazǵan: “murındıq ata hám enege baylar, atqa minerler, ruwxaniyler belgilenip, biraq olardıń hayalları balalı bolıwı shárt bolǵan. Murındıq ene balasız bolsa, onıń murındıq qızı da perzentsiz boladı dep túsingen. Bulay bolıwınıń sebebi, áyyemgi jámiyettegi adamlardıń túsinigi boyınsha, adamnıń jınıs qatnası haqqındaǵı háreketi tábiyattıń qanday da bir «jasırın kúshi» tásirinen payda bolǵan. Sonlıqtan, jınıs qatnasları diniy xarakter alıp, bul qudayǵa sıyınıwdıń bir túri bolıp kelgen. Demek, murındıq atanıń dáslepki mánisi diniy xarakterde «tábiyattan tıs kúsh», «qudaydıń wákili» retinde túsinilip, sońınan oǵan sociallıq, teńsizlik, ǵárezsizlik, taǵı basqa da mániler qosılǵan” [4].

Kelin kúyewdiń úyine jaqınlaǵanda, awıldıń qızları, jigitleri hám hayalları onı qarsı alıwǵa shıǵatuǵın bolǵan. Kúyewdiń jeńgesi yaǵnıy onıń ákesiniń tuwısqan aǵasınıń yamasa uzaǵıraq tuwısqanınıń hayalı "murınlıq ene" dep atalǵan. Ol kelindi kútip alıp, oǵan birinshi ret kiymeshek kiygizip, betin oramal menen japqan. Sońınan murındıq ene kelinshekti kúyewdiń úyine alıp kirip usı waqıttan baslap kelin hám onıń kúyewi ushın ekinshi anası bolıp esaplanatuǵın bolǵan. Onıń kúyewi bolsa, "murındıq ata" bolıp sanalǵan [1].

Bunday maǵlıwmat X.Esbergenov hám T.Atamuratovlardıń miynetinde de keltirilgen [5]. Onda “kelindi birinshi qarsı alıwshı murındıq ene boladı. Ol kelindi qarsı alıp, onıń betine aq oramal jawıp, "aq salıw"dı ámelge asırǵan hám usı waqıttan baslap onıń ekinshi anası bolıp esaplanǵan, – dep aytılǵan.

A.Bekmuratovanıń toplaǵan dala materiallarında “erterekte murındıq enesi túsken kelinniń basına kiymeshek kiygizip, qız etip qabıl etip alatuǵın bolǵan. Kiymeshek kiyiw kelin bolǵannıń belgisi dep esaplaǵan [9]. Jáne bir arxiv materiallarında kiymeshek boyınsha qızıqlı maǵlıwmatlar berilgen. Máselen, qız uzatılıp kiyatırǵanda qızdıń jeńgesi kiymeshekti birge alıp kelip, kúyewdiń úyine kelgen jerde kelinniń murındıq enesine bergen hám murındıq ene

kelinniń basına kiymeshekti salıp, qız etip alǵan. Kelin kiymeshegin enesi qashan ruxsat bermegenshe sheshpey júre bergen [8].

Arxiv dala materiallarına súyenip pikir bildiretuǵın bolsaq, murındıq eneniń kelinge kiymeshek jabıwı shama menen 1950-jıllarǵa shekem dawam etken. Keyininen kiymeshek qalıp, tek aq oramal jawıp baslaǵan [10].

Ellikqala rayonı turǵını Janieva Nargul apanıń maǵlıwmatı boyınsha usı awılǵa 1969-jılı qaraqalpaq shańaraǵına kelin bolıp túskenimde, murındıq apam meniń basıma shashaqlı aq oramaldı jawıp, mańlayımnan súyip, “endi meniń qızımsań” dep kúyewdiń úyine alıp kirdi. Murındıq apam japqan oramaldı házirgi kúnge shekem arshaǵa salıp saqlap qoyıppan. Házirgi kúnge shekem qońsılarım kelin túsirgende usı oramaldı jaqsı niyette “Sizlerge uqsaǵan baxıtlı erli-zayıplı bolıp uzaq ómir keshirgey” dep alıp turadı [11].

A.Bekmuratova óziniń izertlewlerinde murındıq ata-ene menen murındıq balalar arasındaǵı tuwısqanlıq qatnaslar haqqında bahalı maǵlıwmatlar keltirgen [1]. Ilimpazdıń aytıwınsha, jas kelin-kúyew, olarǵa basqa shańaraqtan (kúyewdiń uruwınan) ekinshi áke hám ekinshi ana saylanadı, olar jas kelin-kúyew ushın shártli túrde óz ata-anasınday bolıp qaladı. Jas kelin-kúyew ushın murındıq eneniń balalarıózleriniń tuwısqan aǵa-inisi hám apa-qarındaslarınday bolıp esaplanadı. Olar bir-birine tuwısqanlıqtı bildiretuǵın sózler menen múrájat etip, tuwısqan ekenligin bildiredi. Murındıq bala menen murındıq ata-ene bir-birine jaqın tuwısqanlıq termin sózler menen múrájat etedi [2].

A.Bekmuratovanıń kórsetiwi boyınsha, murındıq ata-ene murındıq balaların óz perzentlerindey jaqsı kóriwi, olarǵa ǵamxorlıq etiwi, járdem kórsetiwi kerek. Óz gezeginde murındıq balalar da murındıq ata-anasınıń keńeslerin húrmet penen tıńlap, olarǵa boysınıwı tiyis ekenligi aytılǵan [1]. Bunday jaqın tuwısqanlıq qatnasıqlar hám wazıypalar haqqında basqa dereklerden de kóriwge boladı [3].

Dala jazıwları materialların analizlep qaraǵanımızda, erterekte murındıq ata-eneni saylawda olardıń jasına ayrıqsha áhmiyet qaratqanlıǵın kóriwimizge boladı.

A.Bekmuratovanıń maǵlıwmatlarına qara-ǵanda, murındıq ata-eneniń jası murındıq bala hám qızdan úlken bolıwı shárt bolǵan. M.Davletiyarovtıń pikirinshe, murındıq atanıń jası murındıq balasınan keminde 5-6 yamasa 10 jas úlken bolıwı kerek [3]. Bunıń sebebin úyrengenimizde ata-ana ózlerinen keyin de balasına ata-analıq etetuǵın ǵamxorshı adam (murındıq ata-ene) qalıwın qáleydi.

NÁTIYJELER (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Etnograf A.Bekmuratovanıń izertlewlerinde aytılǵan murındıq ata-ene dástúriniń payda bolıwı, áhmiyeti, wazıypaları, tuwısqanlıq qatnasları hám ertedegi hám házirgi waqıttaǵı dástúrdegi ózgeshelikler boyınsha bahalı maǵlıwmatlar beredi.

Qaraqalpaqlardaǵı murındıq ata-ene dástúri erte dáwirden kiyatırǵan dástúr sıpatında bul "qıyametlik ata", "qıyametlik ana" degen túsinikler menen baylanıslı ekenligi hám onıń din menen baylanıslı ekenligi úyrenildi. Bunnan tısqarı, A.Bekmuratovanıń izertlewlerindegi murındıq ata hám ene menen murındıq balalar arasındaǵı tuwısqanlıq qatnaslar hám olardıń bir-birine qanday tuwısqanlıq terminler menen múrájat etetuǵınlıǵı haqqındaǵı maǵlıwmatlar hám murındıq ata-ene menen murındıq balaları arasındaǵı húrmet salıstırmalı analiz etildi.

JUWMAQ (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/ CONCLUSION)

Etnograf A.Bekmuratovanıń izertlewlerinde aytılǵan murındıq ata-ene dástúriniń payda bolıwı, áhmiyeti, wazıypaları hám tuwısqanlıq qatnasları boyınsha maǵlıwmatlar ertedegi hám házirgi waqıttaǵı dástúrdegi ózgeshelikler analizlendi. Bul másele, aldaǵı waqıtları murındıq ata-ene dástúrin jasalma tuwısqanlıq institutı sıpatında úyreniwge tiykar bola aladı.

ÁDEBIYATLAR DIZIMI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. *Бекмуратова А.* Быт и семья каракалпаков в прошлом и настоящем. Нукус, «Каракалпакстан», 1970. Б. 76, 78–80.
2. *Бекмуратова А.* Семейно-бытовой уклад каракалпаков в прошлом и задача преодоления его вредных пережитков. Диссертация на соискание ученой степени кандидата исторический наук. М., 1967. Б. 66–67.
3. *Давлетияров М.* Традиционные социальные институты каракалпаков. Нукус., «Илим», 2019. Б. 86 – 92.

TAMADDUN NURI

4. *Есбергенов Х.* Салтанатлы турмысымызға мәдениятлы дәстүр. // “Әмиўдәрья”, 1966, №10. Б.109–123.

5. *Есбергенов Х.*, *Атамуратов Т.*. Традиции и их преобразование в городском быту каракалпаков. Нукус: «Каракалпакстан», 1975. Б. 86.

6. Қарақалпақ фольклоры. 2-том. Нөкис, 2007. Б. 221.

7. *Утебаев М.Б.* Терминология родства у каракалпаков и ее отражение в этикетном поведении // Историческая этнология. Т. 7, 2022. № 3. Б.398–413.

Dala jazıwı (Полевая запись / Field record).

8. Arxiv dala jazıwı. Bekmuratova A. №5 1986-j. Informator: P.Bekmuratova, Kegeyli rayonı.

9. Arxiv dala jazıwı Bekmuratova A. №12, 1988-j. Informator: Berdimuratova Gulaysha, 70 jasta. Shımbay rayonı.

10. Arxiv dala jazıwı. Bekmuratova A. №7, 1988-j. Informator: Mambetkarimova Salima 73 jasta. Shımbay rayonı.

11. Avtordıń dala jazıwı. №18, 2025-j. Informator: Janieva Nargul, 1952-j, Ellikqala rayonı.

12. Avtordıń dala jazıwı. №19, 2025-j. Informator: Janshukirova Rayxan, 1971-j. Ellikqala rayonı.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK:912.1/913.8

OILADA MA'NAVIY MUHITNI MUSTAHKAMLASHDA ZO'RAVONLIKKA QARSHI HUQUQIY CHORALARINING AHAMIYATI

Xakimova Inobatxon Marksovna, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti mustaqil izlanivchisi

THE IMPORTANCE OF LEGAL MEASURES AGAINST VIOLENCE IN STRENGTHENING THE SPIRITUAL ENVIRONMENT IN THE FAMILY

Khakimova Inobatkhon Marksovna, Independent Researcher at the University of World Economy and Diplomacy

ЗНАЧЕНИЕ ПРАВОВЫХ МЕР ПРОТИВОДЕЙСТВИЯ НАСИЛИЮ В УКРЕПЛЕНИИ ДУХОВНОЙ СРЕДЫ СЕМЬИ

Хакимова Инобатхон Марксовна, независимый исследователь Университета мировой экономики и дипломатии

e-mail: inobat.x.m@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-4889-8908

Annotatsiya: *Mazkur maqolada xotin-qizlarga nisbatan zo'ravonlikning huquqiy-ijtimoiy tahdidi, uning oilaviy barqarorlik va jamiyat taraqqiyotiga ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida mazkur muammoga qarshi qonunchilik sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar tanqidiy-huquqiy tahlil etilib, Konstitutsiyaning tegishli moddalar, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun hamda Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga kiritilgan o'zgartishlar asosida mavjud huquqiy mexanizmlar ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *gender tengligi, zo'ravonlikka qarshi huquqiy kafolatlar, xotin-qizlar huquqlari, gender-huquqiy ekspertiza, profilaktika.*

Аннотация: *В статье анализируется правовая и социальная угроза насилия в отношении женщин, его влияние на стабильность семьи и развитие общества. Критически анализируются реформы, реализуемые в законодательной сфере для борьбы с этой проблемой в Республике Узбекистан, раскрываются существующие правовые механизмы на основе соответствующих статей Конституции, Закона «О защите женщин от домогательств и насилия», а также поправок в Кодексы об уголовной и административной ответственности.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, правовые гарантии против насилия, права женщин, гендерно-правовая экспертиза, профилактика.*

Abstract: *This article analyzes the legal and social threat of violence against women, its impact on family stability and social development. The reforms being implemented in the legislative sphere to combat this problem in the Republic of Uzbekistan are critically analyzed, and the existing legal mechanisms are revealed based on the relevant articles of the Constitution, the Law "On the Protection of Women from Harassment and Violence", and the amendments to the Codes of Criminal and Administrative Responsibility.*

Key words: *gender equality, legal guarantees against violence, women's rights, gender-legal expertise, prevention.*

KIRISH. Jamiyat barqarorligi va rivoji, avvalo, oilalardagi sog'lom muhit va ma'naviy Qadri-yatlarning mustahkamligiga bevosita bog'liqdir. Oila — faqatgina ijtimoiy birlik emas, balki inson ma'naviyati shakllanadigan, axloqiy me'yorlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asraladigan muqaddas maskandir. Shu boisdan ham oilaning ma'naviy poydevorini mustahkamlash

jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik – jamiyatdagi jiddiy ijtimoiy muammolardan biri bo‘lib, inson huquqlari, gender tengligi va oilaviy barqarorlikka tahdid soluvchi omillardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo miqyosida har uchinchi ayol hayoti davomida jismoniy yoki ruhiy zo‘ravonlikka duch keladi. O‘zbekistonda ham bu muammoni hal qilish, ayollarning huquqlarini himoya qilish va jamiyatda zo‘ravonlikka murosasiz munosabatni shakllantirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar va profilaktik mexanizmlar bu boradagi harakatlarni institutsional darajaga olib chiqdi [5]. Shuningdek, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi [1] va “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi [2] qonunlar O‘zbekiston tarixida mazkur sohadagi ilk kompleks huquqiy hujjatlar sifatida e’tirof etildi. Ushbu hujjatlar xotin-qizlarning qadr-qimmati, daxlsizligi va teng huquqliligini ta’minlashni kafolatlovchi muhim huquqiy poydevor hisoblanadi. Bu me’yoriy asoslar oilada va jamiyatda zo‘ravonlikka qarshi kurashish, xotin-qizlarni himoya qilish hamda ularning jamiyatdagi o‘rni va nufuzini mustahkamlashga xizmat qiladi. 2023-yil 11-aprelda “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan va Jinoyat hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodekslar oiladagi zo‘ravonlikni nazarda tutuvchi moddalar bilan to‘ldirilgan [3]. Bundan tashqari, xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish, jumladan, himoya orderlarini berish va barcha normativ-huquqiy hujjatlarni majburiy gender-huquqiy ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha huquqiy asoslar joriy etildi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlaridan (BRM) beshinchisi – gender tenglikni ta’minlash va xotin-qizlarga nisbatan har qanday shakldagi zo‘ravonlikni to‘xtatishni nazarda tutadi.

MUHOKAMA. Bugungi kunda dunyodagi ko‘plab mamlakatlar mazkur maqsadga erishish yo‘lida izchil ish olib borayotgan bo‘lsa, O‘zbekiston ham ushbu jarayonda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini oldini olish maqsadida qonunchilik isloh qilinmoqda, davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Har yili an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinayotgan “16 kun davomida xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash” kompaniyasi mazkur sohadagi muhim tashabbuslardan biri hisoblanadi. Kompaniya doirasida tashkil etilayotgan ma’rifiy tadbirlar, amaliy seminarlar, ijtimoiy aksiyalar orqali jamiyatda xotin-qizlarning o‘rni va qadri yuqori darajada namoyon etilmoqda. Shu bilan birga, ushbu tashabbuslar aholi ongida zo‘ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, xotin-qizlarga nisbatan hurmat va e’tiborni kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

NATIJALAR. Amalga oshirilayotgan islohotlar va chora-tadbirlar natijasida xotin-qizlar uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Avvalo, ularning huquqiy himoyasini ta’minlash bo‘yicha mexanizmlar takomillashtirilib, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan ayollar uchun bepul huquqiy va psixologik yordam ko‘rsatadigan maxsus markazlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bunday markazlar ayollarga nafaqat yordam berish, balki ularni jamiyatga qayta moslashtirish va mustaqil hayotga qaytarishda muhim rol o‘ynamoqda. Bundan tashqari, “Ayolni e’zozlash — ezgulik va adolat mezoni” degan ezgu g‘oya amaliyotga joriy etilib, xotin-qizlarga ijtimoiy, huquqiy, psixologik va tibbiy yordam ko‘rsatish, ularning qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha samarali mexanizmlar shakllantirildi. O‘tgan yilning o‘zida tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishga qaratilgan 2 ta qonun, Prezidentning 1 ta qarori va Vazirlar Mahkamasining 2 ta qarori qabul qilindi. 2024-yilda esa “Xavfsiz oila” moduli orqali 156 mingdan ortiq oiladagi nizolar hal etildi, 74 mingdan ortiq oila yarashtirildi va 13 057 nafar xotin-qizga himoya orderlari berildi. Ushbu amaliy choralar nafaqat zo‘ravonlik holatlarining oldini olish, balki xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini yaxshilash, oilaviy barqarorlikni ta’minlash va gender tenglikni qaror toptirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlarga yordam ko‘rsatish, maslahat berish

hamda tazyiq va zo‘ravonlik holatlari haqida axborot olish imkoniyatini ta’minlash uchun 1146 raqamidagi tun-u kun, bepul faoliyat yurituvchi ishonch telefon liniyasi joriy etilgan. Bu tizim jabrlanuvchilar uchun tezkor va xavfsiz murojaat imkonini yaratib, ularga huquqiy va psixologik maslahat olish, tegishli idoralarga yo‘naltirilish uchun muhim vosita hisoblanadi [6].

Ayni paytda, og‘ir holatga tushib qolgan xotin-qizlar uchun 1169 raqami orqali Respublika reabilitatsiya va moslashtirish markazi faoliyat yuritmoqda. Bu markaz ayollarning huquqiy, psixologik va ijtimoiy jihatdan tiklanishiga ko‘maklashadi va ularni jamiyatga qayta moslashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, joriy yilning 9-aprel kuni “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi 1053-son Qonun bilan O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga qo‘shimcha kiritilib [4], unga muvofiq nikohdan ajratish to‘g‘risidagi ishlar ko‘rib chiqilayotganda sud oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan jabrlangan shaxsning talabiga ko‘ra yarashish uchun muhlat tayinlamasligi belgilandi. Amaliyotda “yarashtirish muddati”ning mavjudligi ba’zi holatlarda zo‘ravon muhitda yashovchi shaxsni uzoq muddatli tahdid va tajovuzlar davomida yashashga majbur qilgan, ayniqsa ayollar va bolalarning xavfsizligi ta’minlanmasdan qolgan. Qonunchilikka kiritilgan mazkur o‘zgarish, birinchi navbatda, sud-huquq tizimida inson xavfsizligini ustuvor qadriyat sifatida belgilashga xizmat qiladi. Bu o‘zgarish nafaqat ayollarning, balki ana shunday sharoitda o‘sib kelayotgan bolalarning ham xavfsiz, sog‘lom muhitda yashash huquqini ta’minlashga xizmat qiladi [7].

Ermatov,I. (2025). Prefixes in the Uzbek language. *Journal of Linguistic Studies*.
5. Bloomfield, L. (1984). *Language*. George Allen & Unwin LTD.
6. Aronoff,A.(1976). *Word formation in generative grammar*. The MIT Press.
Narzullayeva, M. (2022). Hybrid terms in Uzbek language. *Science and Society Journal*.
7. Sumiati, S., & Marliasari,S.(2018). A Contrastive Analysis of Suffixes between English and Uzbek Languages. Channing: Journal of English Language Education and Literature, 3(2), 60-69.
8. Sharopov,S.(2019). A comparative study of the role of suffixes in the english and uzbek languages (Doctoral dissertation, Universitas Muhammadiyah Malang).
9. Shakhnoza,T., & Asal,R.(2025). Prefixes and suffixes in the construction of grammatical categories in french and uzbek: a morphological and morphemic study. Western European Journal of Modern Experiments and Scientific Methods, 3(03), 19-25.
10. Хамроев, М. А. (2020). The role of prefixes and suffixes in the organization of english words and their equivalents in tajik language. Вестник Педагогического университета, (4), 65-69.
11. Nuritdinovna,R.G. (2023). Comparative analysis of derivational processes in english and uzbek vocabulary systems. Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research, 1(7), 30-34.
12. Худойназарова,Д. (2025). Comparative analysis of word formation systems in English and Uzbek languages. Лингвоспектр, 1(1), 139-145.
13. Toshhonov,L.T.(2020). Statistical analysis of negative prefixes in uzbek and english prose. Синтез науки и образования как механизм перехода. 150.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 101.1

"SABOTUL OJIZIYN" ASARIDAGI TASAVVUFIY QARASHLAR

Mamirov Azizjon Niyozmuxamedovich, Alfraganus university dotsenti v.b.

SUFISTIC VIEWS IN THE WORK "SABOTUL OJIZIYN"

Mamirov Azizjon Niyozmuxamedovich, Acting Associate Professor at Alfraganus University

СУФИЙСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ПРОИЗВЕДЕНИИ "САБОТУЛ ОЖИЗИЙН"

Мамиров Азизжон Ниязмухамедович, и.о. доцента университета Альфраганус

https://orcid.org/0009-0009-2108-4978
e-mail: Aziz_nm@list.ru

Annotatsiya: *"Sabotul Ojiżin" asari o'zbek mumtoz adabiyotining eng muhim ma'naviy manbalaridan biridir. Unda tasavvuf ta'limotining asosiy g'oyalari – insonning ruhiy poklanishi, nafsni tiyish, ilohiy muhabbatga erishish, sabr va tavakkul kabi fazilatlar badiiy ifoda topgan. Asar muallifi o'z zamonasining tasavvufiy maktablari bilan uzviy aloqada bo'lib, ilohiy haqiqatni inson qalbi orqali anglashni targ'ib etadi. Tadqiqotda asardagi tasavvufiy timsollar, ramziy obrazlar va ularning ma'naviy-ma'rifiy ahamiyati tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *Tasavvuf, "Sabotul Ojiżin", ilohiy muhabbat, nafs, sabr, tavakkul, ma'naviyat, sufiylik.*

Аннотация: *Произведение "Саботул Ожизийн" является одним из значимых духовных источников узбекской классической литературы. В нём отражены основные идеи суфизма — духовное очищение человека, борьба с "нафс"ом, достижение божественной любви, терпение и упование на Всевышнего. Автор, будучи связанным с суфийскими школами своего времени, пропагандирует постижение Божественной истины через сердце человека. В статье анализируются суфийские символы, аллегории и их духовно-просветительское значение.*

Ключевые слова: *суфизм, "Саботул ожизийн", божественная любовь, нафс, терпение, таваккул, духовность, суфийская философия.*

Abstract: *The work "Sabotul Ojiżin" is one of the key spiritual sources of Uzbek classical literature. It embodies the core ideas of Sufism—spiritual purification, self-restraint, attainment of divine love, patience, and trust in God. The author, deeply connected to the Sufi schools of his time, emphasizes understanding divine truth through the human heart. This study analyzes the mystical symbols, allegorical imagery, and their moral and spiritual significance within the text.*

Keywords: *Sufism, Sabotul Ojiżin, divine love, nafs (ego), patience, trust in God, spirituality, Sufi philosophy.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). "Sabotul ojiziyn" asari So'fi Allohyor qalamiga mansub bo'lib, ahli sunna val jamoa e'tiqodini nazmiy uslubda bayon etgan mo'tabar asar hisoblanadi. "So'fi Allohyor" nomi bilan ham mashhur bo'lgan ushbu asar XX asr boshlarigacha o'rta osiyo madrasalarida o'qitib kelingan.

Ilm dargohlarida talabalarning savodlari ma'lum darajada chiqarilgandan so'ng "Sabotul ojiziyn" asari yodlatilgan. Chunki bu asarda aqoid masalalari bilan birga axloqiy fazilatlar ham sodda va ravon uslubda bayon qilingan. Shuning uchun

ham ulug‘ ustozlardan biri bu asarni: “Sabotul ojiziyn” mag‘zi Qur’ondir”, deya ta’riflagan. Ushbu mavzuni o‘rganish dolzarb muammolardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). “Sabotul ojiziyn” asari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Qozon, Boku, Toshkent va Buxoro shaharlarida qayta-qayta nashr etilgan. Bu esa asarga talab juda katta bo‘lganiga dalolat qiladi. “Sabotul ojiziyn” asari ahli ilmlarni doimo o‘ziga jalb qilib kelgan. Shu sababli unga ko‘plab sharhlar yozilgan va yozilmoqda. Jumladan “Risolai aziza”, “Irshadul’aiziyn” va “Hidayatut tolibiy singari asarlar “Sabotul ojiziyn”ning eng mashhur sharhlari hisoblanadi. “Sabotul ojiziyn” asari muallifi So‘fi Allohyor o‘zbek millatiga mansub bo‘lgan mashhur faqih va ahli tasavvuf adibdir. So‘fi Allohyorning tug‘ilgan yili aniq ma’lum emas. Eng mashhur qarashga ko‘ra milodiy 1630-1650 yillar oralig‘ida Samarqanddagi kattaqo‘rg‘on bekligiga qarashli minglar qishlog‘ida tavallud topgan.

TADQIQOTNING USULLARI. Maqolada tarixiylik, umumiylik va xususiylik, analiz va sintez hamda mantiqiylik kabi ilmiy usullari qo‘llanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). So‘fi Allohyor fors tilida ham, turkiy tilda ham mahorat bilan ijod etgan ko‘plab ilmlar bo‘yicha yetuk olim hisoblanadi. Ilm darajasining juda yuqori bo‘lgani yozgan asarlaridan bilinib turadi. So‘fi Allohyorning turli ilmlarga oid ko‘plab asarlari bo‘lgan. **So‘fi Allohyorning asarlari:**

- “Maslakul muttaqiyn”, (fors tilida) aqoid va fiqh ilmiga bag‘ishlangan;
- “Murodul orifiyn”, (fors tilida) tasavvuf ilmiga bag‘ishlangan;
- “Maxzanul muti’iyn”, (fors tilida) aqoid va fiqh ilmiga bag‘ishlangan;
- “Sabotul ojiziyn”, (o‘zbek tilida) aqoid ilmiga bag‘ishlangan.

So‘fi Allohyor umrining so‘nggi yillarida hozirgi Surxondaryo viloyati hududida yashagan. Vafot etgan sanasi ham aniq ma’lum emas. Ko‘pchilik tadqiqotchilar 1721-yilda vafot etgan, deyishgan. Qabri Surxondaryo viloyatining hozirgi Oltinsoy tumaniga qarashli Katta Vaxshivor qishlog‘idadir. So‘fi Allohyorning ko‘plab avlodlari hozirda ushbu qishloqda yashaydilar.

“Sabotul ojiziyn” asari so‘zlarining qisqa va lo‘ndaligi hamda ko‘plab ma’nolarga dalolat qilishi bilan ajralib turadi. Asarda ahli sunna val jamoaning e’tiqodiy qarashlari o‘zbek tilida nazmiy uslubda bayon etilgan. Shu sababli dalillar keltirilmasdan ulardan kelib chiqqan xulosalar nazmga terilgan. Bu haqida muallifning o‘zi quyidagicha yozgan:

Aqiyda so‘zlarin qildim isbot,
Anga qo‘ydim “Sabotul ojiziyn” ot.

Ya’ni ushbu kitobda aqoid masalalarini turkiy o‘zbek tilida bayon qildim va unga “Sabotul ojiziyn” (ojizlar matonati) deb nom qo‘ydim.

Asarda aqoid ilmini o‘rganish zarurligi shunday bayon qilingan:

Aqiyda bilmagan shaytona eldur,
Agar ming yil amal deb qilsa eldur.

Ya’ni zaruriy aqoidni bilmagan kishilar har qancha ibodat qilsalar ham sof aqidani bilmaganlari sababli qilgan ibodatlari ularga naf bermaydi.

Ya’ni sakkizta sifat subutiy sifatlar deyiladi. Ushbu sifatlar Alloh Taoloning zotining ayni ham emas, zotidan bo‘lak ham emas, deb e’tiqod qilinadi. Bu baytning ma’nosi moturidiya mazhabidagi mo‘tabar asarlardan biri bo‘lgan “Bad’ul amoliy” matni bilan deyarli bir xildir: صِفَاتُ اللهِ لَيْسَتْ عَيْنَ ذَاتٍ وَلاَ غَيْرًا سِوَاهُ ذَا انْفِصَالِ

Allohning sifatlari zotining ayni emas, hamda undan ajraladigan boshqa ham emas [1,38-b].

Keyingi baytda subutiy sifatlar birma-bir bayon qilingan:

Hayot, ilm, qudrat ham basoru sam’
Iroda va kalom takviyndur ey sham’.

Bu yerda “Ey sha’m” so‘zi “Ey chirog‘im”, ya’ni “Ey bolaginam” ma’nosida qo‘llangan.

Mazkur sifatlarning sakkizinchisi bo‘lgan “takviyn” sifati haqida moturidiya mazhabidagi eng mo‘tabar kitoblardan biri bo‘lgan “Aqoidun nasafiy”da shunday deyilgan: التَّكْوِينُ صِفَةُ اللهِ تَعَالَى اَزَلِيَّةٌ

Takviyn aAlloh Taoloning azaliy sifatidir [2, 68-b].

Asarda iymonning ziyoda va noqis bo‘lmasligi quyidagicha bayon qilingan:

Yaqin bilgilki iymon bo‘lmag‘ay kam,
Erur birdek ziyoda bo‘lmag‘ay ham.

Bu qarash moturidiya mazhabining asli bo‘lgan “Fiqhul akbar” asaridagi quyidagi matn asosida yozilgan: إِيْمَانُ أَهْلِ السَّمَاءِ وَالأَرْضِ لاَ يَزِيدُ وَلاَ يَنْقُصُ

Osmon va yer ahllarining iymoni ziyoda ham, kam ham bo‘lmaydi [3, 183-b].

Asarda farishtalar va insonlar orasidagi afzallik haqidagi masala ham moturidiya ta’limotiga asosan bayon qilingan:

Dedilar ommai farzandi odam,
Malakning ommasidin fazli ko‘p ham.

Ya’ni payg‘ambar bo‘lmagan insonlar payg‘ambar bo‘lmagan farishtalardan afzaldirlar. Ushbu “ommai farzandi odam” dan kimlar nazarda tutilgani keyingi baytda bayon qilingan:

Kitobi “Kofiy” kim pur bosafodir, dedi: “omma bu erda atqiyodur”.

Ya’ni mo‘tabar kitoblardan bo‘lgan “Kofiy” kitobida “omma farzandi odam”dan taqvodor insonlar nazarda tutilgan, deyilgan.

Bu haqida moturidiya mazhabidagi mo‘tabar asarlardan biri bo‘lgan “Usulud din” kitobida shunday yozilgan: عَوَامُّ بَنِي آدَمَ وَهُمْ الأَتْقِيَاءُ أَفْضَلُ مِنْ عَوَامِّ الْمَلاَئِكَةِ

Oddiy insonlar, ular taqvodorlardir oddiy farishtalardan afzaldirlar [4, 156-b].

“Sabotul ojiziyn” asari butun turkiy xalqlar adabiyotida o‘ziga xos o‘rin tutishidan tashqari moturidiya ta’limotini talqin etuvchi mo‘tabar manzumadir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Moturidiya mazhabining O‘rta Osiyo va boshqa o‘lkalarga keng yoyilishiga xizmat qilgan asarlardan biri so‘fi Allohyor bobomizning ‘Sabotul ojiziyn” asaridir. “Sabotul ojiziyn”, ya’ni “Ojizlar matonati” ma’nosini anglatuvchi ushbu asar aqoid ilmiga bag‘ishlangan bo‘lib o‘zbek tilida yozilgan. Asarda arab va fors tilidagi so‘zlardan ham keng foydalanilgan. Bu esa asar yozilgan vaqtda mazkur tillar ham omma xalqqa yaxshi tanish bo‘lganidan darak beradi. Muallif bu asarini “Maslakul muttaqiyn” kitobini yozib ommaga taqdim qilganidan keyin ta’lif qilgan. Fors tilida yozilgan “Maslakul muttaqiyn” asari yaxshi qabul qilinib xalq orasida mashhur bo‘lib ketgach muallifning yaqin kishilari undan o‘zbek tiliga o‘girib berishini so‘rashadi. Bu haqida So‘fi Allohyorning o‘zi shunday yozgan:

Yozildi forsiy til birla maktub,
Aqiydatu furu’ qurbi mahbub.

“Ya’ni mahbub zotga muqarrab bo‘lish majmu’asi bo‘lgan aqiyda va unga ta’alluqli far’iy masalalar avvalda fors tilida yozilgan edi”.

Anikim ko‘rdilar turkiy yoronlar,

Dedilar: “Gar duo qilsa eranlar,
Bitilsa turki til birla aqiyda,
Ko‘ngullar bo‘lsa andin oramiyda”.

Ya’ni fors tilida yozilgan mazkur kitobni ko‘rgan fors tilini bilmaydigan turkiy do‘stlar: “Ulug‘larning duolarini olib harakat qilsangiz va aqiyda kitobini turkiy tilda yozib bersangiz. Turkiy xalqlar ham undan bahra olib ko‘ngillari taskin topsa, dedilar. Mazkur so‘rovlar qattiq iltimoslar bilan bo‘lgani shunday bayon qilingan:

Tamalluq qildilar chun bir necha yor,
Qalam tortay, Xudo bo‘lsun madadkor.

Ya’ni bir qancha do‘slarim qattiq turib iltimos qildilar va men ularning iltimoslarini qabul qilib Allohdan madad so‘rab qalam tortdim.

“Sabotul ojiziyn” asari o‘quvchilar tomonidan juda ham yaxshi qabul qilingan. Bu asar o‘tgan uch yuz yildan ortiq vaqt mobaynida maktab-madrasalarda darslik, qo‘llanma sifatida o‘qitib kelingan. Xalqimiz orasida alohida “ollohyorxonlik” kechalari o‘tkazilishi, uning baytlari hatto oddiy xalq tillarida yoddan o‘qib yurilishining o‘zi uning manzur bo‘lganiga va xalq ko‘nglidan joy olgan muhim asar ekaniga yaqqol dalildir. Shuning uchun ham bu asar turli davrlarda ko‘plab davlatlarda qayta-qayta nashr qilingan: Toshkentda 1882, 1884, 1905, 1915-yillarda, Qo‘qonda 1890-yilda, Kogonda 1910-yilda, Toshkentda yana 1991, 2007-yillarda qayta nashr qilingan. Bulardan tashqari “Sabotul ojiziyn” asari Pokiston, Hindiston, Eron, Iroq, Afg‘oniston, Tatariston, Saudiya Arabistoni, Misr, Turkiya, Xitoy, Vengriya va Rossiya davlatlarida ham nashr etilgan.

“Sabotul ojiziyn” asarining saqlanayotgan nusxalari orasida turli tafovutlar mavjuddir. Shunga ko‘ra O‘zbekistonda taniqli olim Rashid Zohid tomonidan 94 qo‘lyozma va 61 toshbosma matnlarini o‘zaro qiyoslab asarning eng ishonchli matni tayorlangan[5,170-b]. Bu matn hozirda nashr etilgan. Tabiyki “Sabotul ojiziyn” asari qo‘lma-qo‘l o‘tib o‘qib yuriladigan mashhur asar bo‘lganidan unga ko‘plab sharhlar yozilgan. Hozircha bizga ma”lum bo‘lgan sharhlar quyidagilardir:

1. Tojuddin Yolchiqul o‘g‘li “Risolai aziza sharhu “Sabotul ojiziyn”. Bu sharh 1835-yilda Qozonda, 2000-yil O‘zbekistonda nashr etilgan.

2. Saloiddin Ibn Rovil Salimiy Qozoniy “Irshodul 'oiziyn”. Bu sharh 1911-yilda Qozonda nashr etilgan. Ushbu asarning toshbosma nusxasi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 9320 raqami ostida saqlanmoqda.

3. Sayyid Habibulloh Ibn Sayyid Yahyoxon Farg‘oniy, Qobuliy “Hidayatut tolibiyn sharhu “Sabotul ojiziyn so‘fi Allohyor”. Bu sharh 1928-yilda Pokistonda, 2009-yilda Toshkentda nashr etilgan.

4. Shayx Muhammad Sa’iyd Turkistoniy “Sabotul ojiziyn sharhi”. Bu sharh damashqdagi “Taraqqiyot” matbaasida 1967-yilda nashr etilgan.

5. To‘ra Xo‘Ja Ibn Mulla Soriy Xo‘ja O‘gandiy “Sharhu sabotul ojiziyn”. Bu sharh arab tilida yozilgan. O‘zbek tilidagi asarni arab tilida sharhlaganining sabablari haqida muallif quyidagilarni yozgan: فلما كان ثبات العاجزين المنسوب لشيخ الكامل سراج ملة الخليل كتابا بديعا في ايدي الطلبة متداولا وجامعا لكثير من النصائح و اللطائف المدون بأنواع اللغات من العربية الشريف والفارسية و التركية الظريف فالتمس بعض الاصحاب من هذا الضعيف ان اشرح شرحا يبين لغاته ويشرح مراده شرحت بالعربية لانها افصح البيان وبه نزل القران... “Xalil (sollallohu alayhi vasallam) millatining chirog‘i, komil shayxga nisbat berilgan “Sabotul ojiziyn” kitobi tolibi ilmlar qo‘llarida qo‘lma-qo‘l bo‘lgan, ko‘plab nasihatlar va latif so‘zlarni o‘zida jamlagan, ulug‘vor arab tilidagi hamda yoqimli tillar bo‘lgan fors va turkiy tillardagi so‘zlar bilan bitilgan kitob bo‘lgani uchun ba’zi do‘stlar bu zaif bandadan ushbu kitobning tilini bayon qilib beradigan, undan iroda qilingan ma’nolarini ochib beradigan sharh yozishni iltimos qildilar. Men bu kitobni arab tilida sharhladim. Chunki arab tili bayoni ochiq-oydin bo‘lgan va Qur’on nozil bo‘lgan tildir”(qisqartirib olindi). Arab tilida yozilgan ushbu sharhning qo‘lyozma nusxasi O‘zbekiston Musulmonlari idorasining kutubxonasida 1427 raqam ostida saqlanmoqda.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). “Sabotul ojiziyn” asarini moturidiya mazhabidagi eng mo‘tabar matnlardan biri Najmiddin Nasafiyning “Aqoidun nasafiya” matni asosida yozilgan deyish mumkin. Demak moturidiya va ash’ariya mazhablari orasidagi mazkur masaladagi farq iymonga ikki xil ta’rif berilishidan kelib chiqqan va “Sabotul ojiziyn” asarida bu masala Moturidiya mazhabiga ko‘ra bayon qilingan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Shihobiddin Ahmad ibn IbrohimTunisiy. Nashrul la’aliy bisharhi bad’il amaliy, Darul Bayrutiy, 2007-yil. - 38-bet.
2. Mas’ud ibn Umar ibn Abdulloh Sa’duddin Taftazoniy. Sharhu aqoidin-Nasafiy, Maktabatul Azhariyyatu litturos, 2000-yil. - 68-bet.
3. Mulla Ali ibn Sulton Muhammad Qoriy. Sharhu fiqhil akbar, Darun Nafais, 2009-yil. - 183-bet.
4. Shayx Jamoliddin Ahmad ibn Muhammad G‘aznaviy Hanafiy. Kitabu usulid din, Darul bashairil islamiya, 1998-yil. - 156-bet.
5. Masharipova G.K. Education Of Youth Of New Uzbekistan By Studying The Heritage Of Thinkers. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol. 11, Issue 12, December (2023). - Pp. 169-174.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK:1:111:378 (575.16)

DAVLAT XIZMATLARIDA FUQAROLIK JAMIYATINING ISHTIROKI VA NAZORATI

Abdimitalov Davronbek Abdug'ani o'g'li,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

CIVIL SOCIETY'S PARTICIPATION AND OVERSIGHT IN PUBLIC SERVICES

Abdimitalov Davronbek Abdugani ugli,
Researcher at Namangan State University

УЧАСТИЕ И КОНТРОЛЬ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА В ГОСУДАРСТВЕННЫХ УСЛУГАХ

Абдимиталов Давронбек Абдугани оглы,
исследователь Наманганского государственного университета

e-mail: DavronbekA@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada davlat xizmatlari tizimida fuqarolik jamiyatining ishtiroki va nazorati masalasi keng ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, fuqarolik jamiyati institutlarining davlat boshqaruvi tizimidagi o'rni, ularning manfaatlarni ifodalash va himoya qilishdagi mexanizmlari hamda davlat xizmatlari sifatini oshirishdagi ta'siri yoritiladi. Fuqarolik jamiyatining ishtiroki nafaqat xizmat ko'rsatish jarayonida jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi, balki davlat va fuqarolar o'rtasida ochiq muloqot, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlash orqali ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi.*

Kalit so'zlar: *davlat xizmatlari, fuqarolik jamiyati, jamoatchilik nazorati, manfaatlar uyg'unligi, barqaror taraqqiyot, shaffoflik, hisobdorlik.*

Abstract: *The article provides a comprehensive scientific analysis of civil society's participation and oversight in the system of public services. In particular, it examines the role of civil society institutions within the system of public administration, their mechanisms for expressing and protecting interests, and their impact on improving the quality of public services. Civil society's participation not only strengthens public oversight in the service delivery process but also reinforces social trust by ensuring open dialogue, transparency, and accountability between the state and citizens.*

Keywords: *public services, civil society, public oversight, harmony of interests, sustainable development, transparency, accountability.*

Аннотация: *В статье проводится всесторонний научный анализ участия и контроля гражданского общества в системе государственных услуг. В частности, рассматривается роль институтов гражданского общества в системе государственного управления, их механизмы выражения и защиты интересов, а также влияние на повышение качества государственных услуг. Участие гражданского общества не только усиливает общественный контроль в процессе оказания услуг, но и укрепляет социальное доверие посредством обеспечения открытого диалога между государством и гражданами, прозрачности и подотчётности.*

Ключевые слова: *государственные услуги, гражданское общество, общественный контроль, гармония интересов, устойчивое развитие, прозрачность, подотчётность.*

Kirish. Hozirgi globallashuv jarayonida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi va shaffofligi masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, davlat xizmatlari sifatini oshirish, ularning ochiqligini ta'minlash hamda aholining real ehtiyojlariga moslashtirish jarayonida fuqarolik jamiyatining ishtiroki va nazorati muhim o'rin tutadi[1]. Chunki fuqarolik jamiyati institutlari — nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, tashabbuskor guruhlar va jamoatchilik kengashlari — davlat xizmatlarining sifatini baholash, ularning fuqarolar ehtiyojlariga mosligini nazorat qilish hamda davlat organlari faoliyatining hisobdorligini oshirishda faol ishtirok etadilar.

Fuqarolik jamiyatining davlat xizmatlari tizimidagi ishtiroki nafaqat jamoatchilik nazoratining kuchayishiga, balki davlat va jamiyat o‘rtasida o‘zaro ishonchning mustahkamlanishiga olib keladi. Shu jihatdan qaraganda, bu jarayonni demokratiya rivojining asosiy ko‘rinishi sifatida talqin qilish mumkin[2]. O‘z navbatida, nazorat mexanizmlarining samarali ishlashi davlat xizmatlarini shaffof va sifatli tashkil etish, korrupsion holatlarning oldini olish, fuqarolarning ijtimoiy manfaatlarini kengroq ta’minlash imkonini beradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, uni davlat xizmatlari tizimiga faol jalb etish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasida ham davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish, ularning ochiqligini va shaffofligini kuchaytirish, eng asosiysi, jamoatchilik nazoratini tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish alohida vazifa sifatida belgilangan. Bu esa, o‘z navbatida, davlat xizmatlari tizimini xalq manfaatlariga moslashtirish va fuqarolarning davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyatining davlat xizmatlaridagi ishtiroki barqaror rivojlanishning ajralmas qismidir. Masalan, Skandinaviya mamlakatlarida jamoatchilik nazorati mexanizmlarining keng qo‘llanishi xizmatlarning yuqori sifati va davlatga nisbatan ishonchning mustahkamligiga olib kelgan[3]. AQSh va Yevropa Ittifoqi davlatlarida esa ommaviy axborot vositalari, fuqarolik kengashlari va mustaqil nazorat organlari davlat xizmatlarini muntazam monitoring qilish orqali ularning samaradorligini oshirib kelmoqda. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, unda davlat xizmatlari tizimida fuqarolik jamiyatining ishtiroki va nazoratining nazariy asoslari chuqur tahlil qilinadi, xalqaro tajribalar bilan qiyosiy o‘rganiladi hamda O‘zbekiston sharoitida mavjud bo‘lgan islohotlar doirasida ularning amaliy mexanizmlari ochib beriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — davlat xizmatlarining samaradorligi, shaffofligi va hisobdorligini ta’minlashda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va rolini ilmiy jihatdan asoslab berishdan iboratdir. Davlat xizmatlari tizimida fuqarolik jamiyatining ishtiroki va nazoratini kuchaytirish nafaqat xizmatlar sifatini oshirish, balki davlat va jamiyat o‘rtasida barqaror hamkorlikni ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashni samarali tashkil etish va ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtirish uchun zaruriy shart hisoblanadi. Shu boisdan, ushbu masalani ilmiy jihatdan o‘rganish bugungi kunda dolzarbdir. Hozirgi globallashuv sharoitida davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi bevosita fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati va ularning davlat xizmatlari jarayonlariga qo‘shgan hissasi bilan chambarchas bog‘liq. Davlat xizmatlarida shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni ta’minlash uchun fuqarolik jamiyati subyektlarining ishtiroki, jamoatchilik nazorati hamda ijtimoiy hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, “Yangi O‘zbekiston” taraqqiyot strategiyasi doirasida davlat xizmatlari sifatini oshirish, byurokratik to‘siqlarni kamaytirish va fuqarolarga qulaylik yaratish borasida sezilarli natijalarga erishilmoqda. Shu bilan birga, xalqning davlat xizmatlaridan qoniqishini ta’minlash, korrupsiyaga qarshi kurashish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotga erishishda fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki dolzarb masalaga aylanmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Davlat xizmatlari tizimida fuqarolik jamiyatining ishtiroki va nazorati masalalari bo‘yicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud. Avvalo, G‘arb mamlakatlari olimlari davlat xizmatlarini samarali tashkil etishda fuqarolik jamiyati institutlarini “ijtimoiy hamkor” sifatida ko‘radilar. Masalan, J.Habermasning “fuqarolik jamiyati — davlat va jamiyat o‘rtasida vositachi” degan konsepsiyasi davlat boshqaruvida ochiqlik va ishonchning asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi[4]. Boshqa ko‘plab tadqiqotchilar ham jamoatchilik nazorati davlat xizmatlarining shaffofligi va hisobdorligini ta’minlashda muhim vosita ekanligini alohida ta’kidlaganlar. Rossiya va MDH mamlakatlari olimlari ham bu masalaga o‘z e’tiborini qaratib, davlat xizmatlari tizimida fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini demokratik institutlar rivoji bilan bog‘lab o‘rganmoqdalar. Jumladan, A. Kirpichnikov, V.Lapayeva va boshqa tadqiqotchilar jamiyat manfaatlarini ifoda etishda nodavlat tashkilotlarning davlat bilan hamkorligini dolzarb deb biladilar[5]. Ularning fikriga ko‘ra, jamoatchilik nazorati samarali ishlamagan taqdirda, davlat xizmatlari sifati va fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi pasayadi. O‘zbekistonda so‘nggi

yillarda ushbu yo‘nalishda keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev asarlarida fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish, ularni davlat xizmatlari tizimiga faol jalb qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan[6]. Ilmiy adabiyotlarda ham davlat boshqaruvida fuqarolik jamiyati institutlarining roli, ularning nazorat mexanizmlari va davlat xizmatlari sifatini oshirishdagi ta’siri alohida o‘rganilgan. Xalqaro tashkilotlar, jumladan, BMT, Yevropa Ittifoqi, YUNESKO va Jahon bankining turli hisobotlarida ham davlat xizmatlarining shaffofligi, hisobdorligi va fuqarolik jamiyati ishtirokining demokratik boshqaruvdagi o‘rni chuqur tahlil qilingan. Masalan, Jahon bankining “Governance Indicators” hisobotida davlat xizmatlarining samaradorligi bevosita fuqarolik jamiyati faoliyatiga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tiladi [7].

Metodologiya. Ushbu tadqiqotda davlat xizmatlarida fuqarolik jamiyatining ishtiroki va nazorati masalasini ilmiy jihatdan yoritish maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Avvalo, **sistemali tahlil** metodidan foydalanilib, davlat boshqaruvi, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoatchilik nazorati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik keng qamrovda o‘rganildi. Shuningdek, **qiyosiy tahlil** metodi orqali O‘zbekiston tajribasi xorijiy mamlakatlar amaliyoti bilan solishtirilib, o‘xshash va farqli jihatlar aniqlab berildi. Bundan tashqari, **normativ-huquqiy tahlil** usuli yordamida O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari, davlat xizmatlarini tartibga soluvchi normativ-me’yoriy hujjatlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatiga oid huquqiy asoslar ko‘rib chiqildi. Shu bilan birga, **empirik kuzatuv va hujjatlar tahlili** asosida davlat xizmatlari sifatiga oid amaliy ma’lumotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari hamda milliy statistika ko‘rsatkichlari ilmiy muomalaga kiritildi. Umuman olganda, metodlar uyg‘unligidan foydalanish tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta’minladi va mavzu bo‘yicha aniq xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat xizmatlarida fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki va samarali jamoatchilik nazorati tizimi mavjud bo‘lganda xizmatlar sifati ortadi, davlat organlarining shaffofligi va hisobdorligi ta’minlanadi, fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi kuchayadi, xalqaro tajriba bilan uyg‘un holda O‘zbekiston amaliyotida ham fuqarolik jamiyati institutlari davlat xizmatlari samaradorligini oshirish va barqaror ijtimoiy taraqqiyotni ta’minlashning muhim kafolati sifatida namoyon bo‘lishi ilmiy asosda tasdiqlandi.

Muhokama. Davlat xizmatlarida fuqarolik jamiyatining ishtiroki va nazorati masalasi xalqaro ilmiy doirada keng muhokamalarga sabab bo‘lib kelmoqda. Bu borada turli olimlar o‘z nazariy qarashlarini ilgari surib, ularning o‘zaro bahs-munozaralari fuqarolik jamiyatining davlat boshqaruvi tizimidagi o‘rni va ta’siri haqida muhim ilmiy xulosalarga olib keladi. Masalan, amerikalik siyosatshunos Robert Dahl o‘zining “polyarchiya” konsepsiyasida fuqarolik jamiyatining davlat xizmatlari ustidan nazorati demokratik tizimning asosiy shartlaridan biri ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, agar fuqarolik jamiyati institutlari faol bo‘lsa, davlat organlari ko‘proq shaffof va hisobdor bo‘ladi, fuqarolar esa davlat xizmatlaridan teng va adolatli foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [8]. Dahlning yondashuvi fuqarolik jamiyatini demokratik boshqaruvning ajralmas qismi sifatida talqin qiladi va uning mavjudligi davlat xizmatlarining samaradorligini oshiruvchi omil sifatida baholanadi. Biroq, fransuz olimi Pyer Rozanvallon bu masalaga nisbatan biroz boshqacha yondashadi. U fuqarolik jamiyati nazoratining kuchayishi davlat xizmatlarini haddan tashqari byurokratik va murakkablashtirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Rozanvallonning fikricha, jamoatchilik ishtirokining ko‘payishi ba’zan qarorlar qabul qilish jarayonini cho‘zadi va davlat boshqaruvida operativlikni kamaytiradi. Shu nuqtai nazardan, u fuqarolik jamiyati institutlarini davlat xizmatlari faoliyatida “balanslovchi mexanizm” sifatida ko‘rishi lozimligini ilgari suradi, ammo ularning haddan tashqari kuchaytirilishini maqsadga muvofiq emas, deb hisoblaydi. Shu o‘rinda ingliz olimi Entoni Giddens ham o‘z pozitsiyasini bildiradi. U “refleksiv modernizatsiya” nazariyasi doirasida davlat xizmatlari va fuqarolik jamiyati o‘rtasidagi hamkorlikni ijtimoiy barqarorlikning kafolati sifatida ko‘radi[9]. Giddensning fikricha, fuqarolik jamiyati nafaqat nazorat funksiyasini bajaradi, balki ijtimoiy innovatsiyalarni ilgari suruvchi va davlat xizmatlarini takomillashtirishga ko‘maklashuvchi subyekt sifatida maydonga chiqadi. Shu bois, uning qarashlarida fuqarolik

jamiyati davlat xizmatlarini nafaqat tekshiruvchi, balki rivojlantiruvchi kuch sifatida talqin etiladi. Nemis faylasufi Yurgen Habermas esa “kommunikativ harakatlar nazariyasi” orqali bu masalaga yondashib, davlat va fuqarolar o‘rtasidagi ochiq muloqot mexanizmlarini kuchaytirishni asosiy omil deb biladi. Uning fikricha, fuqarolik jamiyati nazorati samarali bo‘lishi uchun davlat xizmatlarida shaffoflik va axborotga erkin kirish huquqi to‘liq ta’minlanishi lozim. Habermas Dahlning demokratik yondashuviga yaqin turadi, biroq u nazorat mexanizmlarini asosan kommunikativ muloqotga asoslash zarurligini ilgari suradi[10]. Ushbu bahs-munozaralardan ko‘rinib turibdiki, fuqarolik jamiyatining davlat xizmatlari tizimidagi o‘rni masalasida yagona yondashuv mavjud emas. Bir guruh olimlar fuqarolik jamiyatini davlat xizmatlarini takomillashtiruvchi va samaradorligini oshiruvchi asosiy kuch sifatida talqin qilsalar, boshqa olimlar (Rozanvallon va uning izdoshlari) bunday ishtirokni ehtiyotkorona cheklash zarurligini ta’kidlaydilar. Biroq barcha pozitsiyalar umumiy bir xulosaga olib keladi: fuqarolik jamiyati ishtirokisiz davlat xizmatlari tizimi samarali ishlashi mumkin emas, ammo u me’yoriy balans va institutsional uyg‘unlik asosida yo‘lga qo‘yilishi lozim.

Xulosa. Ushbu olib borilgan ilmiy tahlillar va bahs-munozaralar asosida xulosa qilish mumkinki, davlat xizmatlari tizimida fuqarolik jamiyatining ishtiroki va nazorati zamonaviy boshqaruvning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatining faol mexanizmlari davlat xizmatlarida shaffoflikni ta’minlaydi, hisobdorlikni kuchaytiradi va eng muhimi, fuqarolarning davlat organlariga bo‘lgan ishonchini mustahkamlaydi. Xalqaro nazariy qarashlar ham shuni ko‘rsatadiki, kuchli fuqarolik jamiyatisiz davlat xizmatlari samaradorligi yuqori bo‘lishi mumkin emas, biroq bu jarayon institutsional uyg‘unlik, huquqiy asos va me’yoriy balansni talab etadi. O‘zbekiston tajribasi ham so‘nggi yillarda shuni tasdiqlamoqdaki, davlat xizmatlarini modernizatsiya qilish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va fuqarolik jamiyatini faol jalb etish milliy taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Shu bois, davlat xizmatlari sifatini oshirishda fuqarolik jamiyatining ishtirokini kengaytirish, xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish va samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish barqaror taraqqiyot va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishning muhim kafolati sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Нишанов А., Саидрасулов Ш. Электрон давлат хизматлари //digital transformation and artificial intelligence. – 2024. – т. 2. – №. 1. – с. 112-119.
2. Abdusattarovna, O. R. X., & Shohbozbek, E. (2025). Ijtimoiy falsafada zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 175-182.
3. FM M., Odiljonovich S. N. Davlat xizmatlarini rivojlantirishda sun'iy intellektning o‘rni //Scientific Conference on Multidisciplinary Studies. – 2024. – С. 118-123.
4. Ергашбаев, Ш. (2025). O'zвекiston sharoitida uzluкsiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.
5. Muzaffar o'g'li E. X. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi: e-gov tizimi va aholiga qulayliklar //«за наивысшие заслуги». – 2024. – Т. 1. – №. 1.
6. Muruvvat, A., & Shohbozbek, E. (2025). O‘zbekistonda ma'naviy va ahloqiy qadryatlarda maktabgacha ta'limning roli. Global Science Review, 3(2), 246-253.
7. Хабибуллаева Д. Давлат хизматларини кўрсатишда инсон ҳуқуқларини таъминлаш механизмлари //Общественные науки в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2025. – Т. 4. – №. 5. – С. 105-108.
8. Atxamjonovna, B. D., & Shohbozbek, E. (2025). Respublikamizda maktabgacha ta'limda yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish. Global Science Review, 4(5), 221-228.
9. Эркинов И. Э. Ў. Давлат хизматлари кўрса-тиш тизимини ислоҳ қилиш ва унинг ўзига хос хусу-сиятлари //Academic research in educational sciences. – 2022. – Т. 3. – №. 5. – С. 700-708.
10. Diloram, M., & Shohbozbek, E. (2025). O‘zbekistonda yoshlarning ma’naviy dunyo qarashini rivojlantirishning pedagogik asoslari. Global Science Review, 4(5), 207-215.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 398.541

JONIVORLAR HAQIDAGI MIFLAR

Qayumova Gulnora Nuraliyevna,
Toshkent amaliy fanlar
universiteti katta o‘qituvchisi

MYTHS ABOUT ANIMALS

Kayumova Gulnora Nuralievna,
Senior Lecturer,
Tashkent University of Applied Sciences

МИФЫ О ЖИВОТНЫХ

Каюмова Гульнора Нуралиевна,
старший преподаватель
Ташкентского университета прикладных наук

e-mail:
olimq@mail.ru

Filologiya fanlari doktori,
professor M.Raxmonova
taqrizi asosida

Annotatsiya: *Mazkur maqolada folklorning eng arxaik janri bo‘lgan miflar haqida mulohazalar yuritiladi. Miflarning ichki guruhlarga bo‘linishini tasniflagan muallif jonivorlarning kelib chiqishini izohlovchi o‘zbek miflari ularning o‘ziga xosliklari borasida qiziqarli ilmiy xulosalarni olg‘a suradi. Jonivorlarning paydo bo‘lishini izohlashda ilohning o‘rni va odamning kamchiliklarini ko‘rsatishga qaratiladigan g‘oyalar, mif va dunyo ibtidosi borasida fikr yuritiladi. Asosiy fikr mifning og‘zaki nasriy asar ekanligini isbotlashga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar*: mif, jonivor, tip, qush, burgut, bulbul.*

Annotation*: This article discusses myths, the most archaic genre of folklore. The author, who classified the division of myths into internal groups, puts forward interesting scientific conclusions about the peculiarities of Uzbek myths explaining the origin of animals. The ideas aimed at showing the role of God and the shortcomings of man in explaining the appearance of animals, as well as the myth and the beginning of the world are discussed. The main idea is to prove that myth is an oral prose work.*

Key words*: myth, animal, type, bird, eagle, nightingale.*

Аннотация*: В данной статье рассматривается миф – наиболее архаичный жанр фольклора. Автор, классифицировавший деление мифов на внутренние группы, выдвигает интересные научные выводы об особенностях узбекских мифов, объясняющих происхождение животных. Обсуждаются идеи, направленные на показ роли Бога и недостатков человека в объяснении появления животных, а также мифа и начала мира. Основная идея – доказать, что миф – это устное прозаическое произведение.*

Ключевые слова*: миф, животное, тип, птица, орёл, соловей.*

Kirish. Folklor asarlari xalqimiz badiiy tafakkuri taraqqiyotini o‘rganish uchun muhim bo‘lgan ob’yek sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Xalq epik tafakkurining ibtidosi qadimgi ajdodlarimizning odam va olamning yaratilishi, jonivorlarning paydo bo‘lishi sabablarini mo‘jizaviy tasvirlash orqali izohlashga qaratilgan og‘zaki nasriy hikoyalari mif sifatida ommalashgan.

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati. Miflarni og‘zaki ijod namunasi sifatida tadqiq etish badiiy tafakkur tadrijiy takomilini aniqlash, ijodkor xalq tafakkur taraqiyotidagi evolyutsion jarayon, epik voqelikni badiiy tasvirlash an’anasining maydonga kelish omillarini oydinlashirish

imkonini beradi. Bu esa jahon folklorshunosligining doimiy dolzarb masalalari sirasiga kiradi. Shunday ekan o‘zbek miflarini folklorisik aspektda tadqiq etish, ularni og‘zki epik matn sifatida tahlil qilish o‘zbek folklorshunosligida yechimini kutayotgan ilmiy muammolardan biridir. Hozirgacha o‘zbek folklorshunosligida mif alohida tadqiqot obyekti sifatida, xususan, folklor janri sifatida tadqiq etilmagan.

Adabiyotlar tahlili. Miflar arxaik folklorning mustaqil janri sifatida o‘zidan keyingi afsona, ertak, doston singari epik janrlarning paydo bo‘lishiga zamin tayyorlagan [2.– C. 67]. Mifik tasavvurlar xalq taffakkurida g‘ayri tabiiy voqea va hodisalarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq motivlarning maydonga kelishiga asos bo‘lib xizmat qilgan [5.–B.38; 1.–B.12]. Mif matnlari orasida jonivorlarning paydo bo‘lishini izohlashga qaratilgan miflar alohida ajralib turadi. J.J.Frezerning fikriga ko‘ra, ibtidoiy odam uning atrofidagi dunyoga sehrli ta’sir o‘tkazish ularni o‘ziga bo‘ysundirishiga ishongan. Ijtimoiy va madaniy rivojlanishning ancha keyingi bosqichida inson o‘zining sehrli qobiliyatiga ishonchini yo‘qotib, tabiat hodisalari va umuman uning atrofidagi butun dunyo xudolar va ruhlarning injiq irodasiga bo‘ysunishga qaror qilgan va ularga sig‘ina boshlagan. Shunday qilib, sehr fazasi din fazasi bilan almashtirilgan. Nihoyat, sivilizatsiya rivojlanishining uchinchi bosqichida, ilm-fan bosqichi boshlanadi: inson atrofdagi dunyoni ruhlar va xudolar emas, balki tabiat qonunlari boshqarishini tushunadi. Yer va kosmos qaysi biri hukmronligini anglay boshlaydi. Shu tariqa mif matnlari, mifologik syujetlarning shakllanishi maydonga kelgan [3. – S. 85].

Tadqiqotni amalga oshirish. Bu tipdagi miflar odatda qushlarning va boshqa jonivorlarning paydo bo‘lishini izohlashda ilohning o‘rni va odamning kamchiliklarini ko‘rsatishga qaratiladi. Qushlar va ularning paydo bo‘lishini izohlovchi miflar (musicha, boyo‘g‘li, qaldirg‘och va boshqalarning paydo bo‘lishini izohlaydi. Ko‘pchilik hollarda mif syujetida jonivor dastlab odam bolasi bo‘lganligi va keyin ilohiy hodisa sabab qushga evrilganligiga urg‘u beriladi:

“Boyo‘g‘li” haqidagi mifda aytilishicha, “Keksalarning naql qilishlaricha, qadimda bir boyning yetti o‘g‘li bo‘lgan ekan. Otasi boy-badavlat bo‘lsa ham, kambag‘allarga beva-bechoralarga qayishar, ularga mehribonchilik qilar, ochlarning qornini to‘yg‘azar ekan. Ammo bolalari judayam xasis bo‘lib, hatto eshigiga tilanib kelgan gadoyga bir burda nonni ham ravo ko‘rmas ekanlar. Qishloq ahli boyning saxiyligidan qanchalik minnatdor bo‘lsalar, boyvachchalarning xasisligidan shunchalik g‘azablanishar ekan. Bir yili bahor qurg‘oqchilik bo‘libdi-da, hamma odamlarning ekin-tikinlari qovjirab, qurib qolibdi, dov-daraxtlar bargi bevaqt sarg‘ayib, dumbul bo‘lmagan mevalari yerga duvva to‘kilibdi. Kambag‘al bechoralar ochlikdan sillasi quriy boshlabdi. Shunda boy qishloq oqsoqollarini huzuriga chaqirib, omboridagi hamma don-dunlarini hamqishloqlariga bo‘lib berajagini, bisotidagi bor tillalariga ham oziq-ovqat sotib olib, beva-bechoralarga ulashajagini aytibdi. Oqsoqollar boyning saxovatiga qoyil qolib:

– Yoshingiz uzun bo‘lsin, boy ota! Ilohim, yaxshiligingizga ming hissa yaxshilik qaytsin, bu savobli xayriyangizni hech qachon unutmaymiz! – deb alqabdilar.

Boy xursand bo‘lib uyida dam olib yotgan ekan, tun yarimdan oshganda yetti o‘g‘li otasining hobxonasiga bostirib kirib:

– Hali bizga qarashli mol-mulkni yalangoyoqlarga bo‘lib bermoqchimisan?! – deb do‘pposlab, otalarini o‘ldirib qo‘yibdilar. Boy o‘limi oldidan, bolalarining yovuzligidan jahli chiqib:

– Ilohim odamlarga aralasholmay, yakkamoxov bo‘lib, dala-dashtda kun kechirgaysizlar! Hech qachon yaxshilik ko‘rmanglar! – deb qarg‘agan ekan. Bolalari o‘sha zahotiyoq boyo‘g‘liga aylanib, har tomonga uchib ketishibdi. Shundan buyon ular odamlar ko‘ziga ko‘rinishdan uyalib, vayronalarda, tashlandiq joylarda yashashar, elga sira qo‘shilolmas emishlar”[4. –B. 73].

Bulbul bilan laylakning nega turlicha ovoz chiqarib sayrashiga bag‘ishlangan mifda qushlar xuddi inson singari payg‘ambardan saboq olishi hikoya qilinadi: “Bir kuni bulbul bilan laylak surudi Dovudga shaydo bo‘lib musiqa o‘rganish uchun bu payg‘ambarning bog‘iga uchib kelibdilar va so‘ri yaqinidagi daraxlardan biriga qo‘nishibdi. Laylak “Dovud qachon kelar ekan, qachon kuy chaladi-yu biz o‘rganib olarkanmiz”,- deb betoqatlanib, u yoqdan bu yoqqa uchaveribdi.

Bulbul esa bitta shoxga qo‘ngancha sabr-toqat bilan Dovudning kelishini kutaveribdi. Oqshom cho‘kib, atrofga qorong‘ulik cho‘kkach, Dovud qo‘liga sozini olib so‘riga kelib o‘tiribdi va orombaxsh bir kuyni chala boshlabdi. Kun bo‘yi bog‘ ustida uchaverib tinka-madori qurigan laylak birpasda pinakka ketib qolibdi. Bulbul esa Dovud chalgan hamma kuylarni oxirigacha tinglab, barini o‘rganib olibdi va payg‘ambar soz chalishni to‘xtatib uyquga ketganidan keyingina uxlabdi.

Dovud erta tongda uyg‘onib, xizmatkorlaridan chilim keltirishni so‘rabdi. Chilim keltirishgach, “qurr-qurr” etib chilim torta boshlabdi. Shu payt laylak uyg‘onib qolib qarasaki, bulbul dong qotib uxlayapti, Dovudning so‘risidan esa qandaydir ovoz eshitilyapti. “Bulbulning uxlab qolgani juda soz bo‘libdi-da! – deb o‘ylabdi laylak, – u uyg‘onguncha birorta yaxshiroq kuyni o‘rganib olay, qushlar yig‘inida zam-zama qilib yurarman”. U shunday deb Dovudning chilim chekishiga quloq tutibdi. Bir mahal quyosh nurlari bog‘ni nurafshon qilibdi, bulbul ham uyg‘onib, qarasa laylak bo‘yini cho‘zib bir nimani tinglab turganmish.

– Ha, do‘stim, nima qilyapsan? – deb so‘rabdi bulbul.

Shunda laylak maqtanib, “qurr-qurr” deb hozirgina Dovuddan o‘rgangan “nag‘ma” sini aytib bera boshlagan ekan, bulbul kulib yuboribdi va:

– Oqshom sen uxlab yotganingda bundan ham chiroylisini o‘rgandim, – deb chunonam sayrabdiki, ovozining jozibadorligiga hamma jonivorlar qoyil qolishgan ekan. Laylak “nega meni uyg‘otmading! Endi seni o‘ldiraman!” – deb bulbulni quvlabdi, u o‘rmonga qochib ketibdi. O‘shandan beri laylak bulbulni tutolmay dog‘da qolib yurarkan”[4. –B. 76].

Boshqa bir mifda bulbul bilan to‘rg‘ayning sarguzashtlari hikoya qilinadi: “Aytishlaricha, bir zamonlar to‘rg‘ay aslida so‘fi ekan, bir paytlar xudoga shak keltirgani uchun to‘rg‘ayga aylantirilgan ekan. To‘rg‘ay, Bulbul aslida odam zotidan bo‘lib, bir-birlari bilan qalin do‘st, oshna-og‘ayni ekan. Xudoyi taolo ularga qo‘shiq ayttirib, musobaqa qildiribdi. “Kimda-kim ko‘p va xo‘b kuy va qo‘shiq aytsa, el orasida qoladi, kuy-qo‘shig‘ini bog‘u rog‘larda aytadigan bo‘ladi, yengilgan esa cho‘l-u biyobonga chiqib ketib, u yerda bo‘zlab o‘tadi”, – debdi u.

Shundan keyin Bulbul bilan To‘rg‘ay navbatma-navbat kuy kuylab, qo‘shiq ayta boshlashibdi. Bulbul ming bittaga yetkazibdi, To‘rg‘ay bo‘lsa mingtaga yetkaza olibdi. Shunda xudoyi taolo:

– Bulbul, sening makoning shu yerda – odamlar orasida bo‘lsin, bog‘-rog‘larda kuylab yuraver. To‘rg‘ay, sening makoning esa cho‘l bo‘lsin, to mahshar kunigacha u yerlarda bo‘zlab yuravergin, – debdi. Shu-shu bulbul gullar orasida, bog‘-rog‘lar ichida ishq-muhabbat, vafo va sadoqatdan kuylasa, to‘rg‘ay cho‘lu biyobonlarda alamidan bo‘zlagani bo‘zlagan emish”[4. –B. 77].

Olingan natijlar tahlili. Burgutning paydo bo‘lishini izohlovchi mifda hukmdorning atrofidagi nomardlar qilmishi ortidan burgutga aylangan yigit haqida hikoya qilinadi: “Bir bor ekan, bir yo‘q ekan, qadim zamonlarda bir podsho bo‘lgan ekan. Uning mamlakati tinch mehnat qilib, farog‘atda yashar ekan. Kunlardan bir kuni bu mamlakat fuqarolarining tinchi buzilib, boshiga og‘ir kulfat tushibdi: kunbotar tomondagi baland tog‘ orasidan chiqqan yetti boshli ajdaho odamlar hayotiga xavf sola boshlabdi. Podsho yuborgan ne-ne botirlar ajdaho komida nobud bo‘lib ketishibdi. Shunda hukmdor vazir-u vuzarolarini yig‘ib ajdahodan qutilish yo‘llarini axtara boshlashibdi. Vazirlardan biri:

– Olampanoh, falon tog‘dagi qishloqlardan birida Burgut ismli ovchi yigit istiqomat qiladi. Bu yovuz ajdarni o‘ldirish faqat o‘shaning qo‘lidan kelishi mumkin, – deb maslahat beribdi. Podsho darhol Burgutni saroyga oldirib kelibdi. Burgutning vajohatidan, kuch yog‘ilib turgan bilaklarining haybatidan hatto arslon ham qo‘rqar ekan. U ajdarni o‘ldirishga rozi bo‘lib, yarog‘-aslahani sozlab yo‘lga tushibdi. Yo‘l yuribdi, yura-yura oxiri ajdarning makoniga yetib boribdi. Uch kecha-uch kunduz jang qilib ajdarning yetti kallasini ham chopib tashlabdi. Va g‘oyatda charchaganligi uchun uxlab qolibdi.

Podsho Burgutning ajdarni o‘ldira olishiga ishonqiramasdan yigitning orqasidan uchta vazirini ham yuborgan ekan. Ular yetib kelib ko‘rishsa-ki, ajdar o‘lib yotibdi, Burgut esa bamisoli o‘likdek uxlayapti. Shunda vazirlar nomardlik qilib ajdarning belidan bitta tasmalik kesib olibdilar-da, Burgutning yuragiga qilich solib otga qamchi bosibdilar. Podshoning oldiga yetib kelib, ajdar belidan kesib olingan tasmani tashlab:

– Olampanoh, ajdarni o‘ldirib keldik, mana bu isboti. Burgut esa bizni aldab, ajdarning

makoniga borish o‘rniga qo‘rqoqlik qilib boshqa tarafga juftakni rostlamoqchi bo‘lib turgan ekan, orqasidan quvib borib o‘ldirdik! – deyishibdi.

Podsho ham ajdar balosidan osongina qutilganiga shukronalar qilib, “botir” vazirlarini har xil sovg‘a-salomlar bilan siylabdi.

Burgutning yuragidan qon sizib chiqib turgan vaqtda xudo osmondan bir o‘simlikni tashlabdi, u to‘ppa-to‘g‘ri qilich urilgan joyga kelib tushibdi-da, yaradan nom-nishon qolmabdi. Burgut bir aksa urib, o‘rnidan turibdi. Vazirlarning nomardligidan xafa bo‘lib xudoga:

– Ey xudo! Bunday nomard odamlar orasida yashagandan ko‘ra boshqa bir narsaga aylanganim yaxshiroq! – deb iltijo qilibdi.

Xudo uning mardligicha, shijoatkorligiga qoyil qolib yurgan ekan, shu bois, uni ulkan qushga aylantiribdi. Shundan buyon burgut o‘zining baquvvat panjalari va tumshug‘i bilan dushmanlaridan o‘ch olib, baland osmonda uchib yurar, hamon o‘sha yuragiga tig‘ urgan uch vazirni axtarar emish”[4. –B. 78].

Xulosa. Xullas, qushlar haqidagi miflar mif mantlari orasida alohida guruhni tashkil etib, qushlarning kelib chiqishi, ayni bir nasldagi qushning paydo bo‘lishida ilohning rolini oydinlashtirishni izohlashga qaratiladi. Bu tipdagi miflar asosida yaratilish paydo bo‘lishning g‘ayri tabiiy holda maydonga kelishi izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jo‘rayev M. O‘rayeva D. O‘zbek mifologiyasi. Darslik. – Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti. 2019.– 558 b.
2. Пропп.В.Я. Исторические корни волшебной сказки. – Л: ЛГУ, 1986 – 370 с.
3. Фрэзер Дж. Дж. Золотая ветвь. Исследование магии и религии: В2 т. Т. 1. Пер. с англ. М.Рыклина. – Москва: Терра – Книжный клуб, 2001. – 528 с.
4. Ўзбек мифлари. Тўпловчи: Ж.Мавланова, сўзбоши муаллифи: М.Жўраев. – Навоий: Ёғдуполиграфия, 2014. –140 б.
5. Қаюмов О. Ўзбек шомон маросим фольклори. – Тошкент: Iqtisod-moliya, 2020. – 245 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 398.541

ADABIYOT DARSLARIDA BADIIY TAHLIL METODLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI

[1]Samandarova Lola Sultonovna, Alfraganus universiteti "Sharq filologiyasi" kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
[2]Samandarova Muhayyo Sultonovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi stajor-o'qituvchisi

e-mail: lolaxonsamandarova1971@gmail.com

METHODS OF LITERARY ANALYSIS IN LITERATURE LESSONS AND THEIR EFFECTIVENESS

[1]Samandarova Lola Sultonovna, Associate Professor of the Department of Oriental Philology at Alfraganus University, Candidate of Philological Sciences
[2]Samandarova Mukhayyo Sultonovna, Trainee Lecturer at the Department of Uzbek Language and Literature, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

e-mail: muhayyosultanovna277@gmail.com

ЛИТЕРАТУРНЫЕ АНАЛИТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ И ИХ ЭФФЕКТИВНОСТЬ

[1]Самандарова Лола Султоновна, доцент кафедры «Восточной филологии» Алфраганусского университета, кандидат филологических наук
[2]Самандарова Мухайё Султоновна, стажёр-преподаватель кафедры узбекского языка и литературы Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

Annotatsiya: *Ushbu maqolada adabiyot darslarida badiiy tahlil jarayonining mazmuni, maqsadi hamda o'quvchilarning badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni ilmiy-metodik nuqtayi nazardan yoritiladi. Badiiy tahlil metodlarining o'quvchi dunyoqarashiga, matnni anglash qobiliyatiga hamda adabiy asar mazmun-mohiyatini chuqur idrok etishiga ta'siri tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *badiiy tahlil, metod, adabiyot ta'limi, badiiy asar, estetik tafakkur, o'quvchi kompetensiyasi, idrok, obrazlilik.*

Annotation: *This article explores, from a scientific and methodological perspective, the content and objectives of the process of literary analysis in literature lessons, as well as its role in developing students' artistic and aesthetic thinking. The impact of literary analysis methods on students' worldview, text comprehension skills, and deep perception of the meaning and essence of literary works is examined.*

Key words: *literary analysis, method, literature education, literary work, aesthetic thinking, student competence, perception, imagery.*

Аннотация: *В данной статье с научно-методической точки зрения раскрывается содержание и цель процесса художественного анализа на уроках литературы, а также его роль в развитии художественно-эстетического мышления учащихся. Анализируется влияние методов художественного анализа на формирование мировоззрения учащихся, их способность понимать текст и глубоко воспринимать смысл и сущность литературного произведения.*

Ключевые слова: *художественный анализ, метод, литературное образование, литературное произведение, эстетическое мышление, компетенция учащихся, восприятие, образность.*

TAMADDUN NURI

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida adabiyot fanining o'rni faqatgina ma'lumot berish yoki matnni o'qitish bilan cheklanib qolmay, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlashni, estetik idrokni, ma'naviy qadriyatlarni anglash va badiiy dunyoqarashni shakllantirish bilan ham belgilanadi. Adabiyot o'qitishning mazmun-mohiyati shundaki, u o'quvchining nafaqat bilim darajasini, balki tafakkur qobiliyatini ham yo'naltiradi. Shu bois badiiy matnni tahlil qilish jarayoni adabiyot darsining asosiy metodik komponenti sifatida qaraladi. Badiiy tahlil o'z mohiyatiga ko'ra murakkab jarayon bo'lsa-da, u o'quvchining asar mazmunini tushunishi, obraz va g'oyalarni anglagan holda asar tagma'nosini to'g'ri sharhlashiga xizmat qiladi. Hozirgi ta'lim islohotlari adabiyot darslarida faqat tayyor ma'lumotlarni aytib berish emas, balki o'quvchini ijodiy fikrga yo'naltirish, talqin qilish, munosabat bildirishga o'rgatish vazifasini ilgari surmoqda.

Shu nuqtayi nazardan qaralganda, badiiy tahlil metodlari orqali adabiyot darsining samaradorligini oshirish, o'quvchining mustaqil fikrlash darajasini yuksaltirish, asarda yashirin g'oya va ma'no qatlamlarini anglatish zamonaviy metodikaning dolzarb masalalaridan biridir.

Metodologiya. Adabiyotshunoslikda "badiiy tahlil" tushunchasi asarning badiiy, mazmuniy hamda g'oyaviy qatlamlarini ochish jarayoni sifatida izohlanadi. Tahlil o'quvchidan asar mazmunini yuzaki emas, balki ichki mantiq va estetik yaxlitlikda anglashni talab qiladi. Bu jarayonning bosh maqsadi — o'quvchida badiiy matnga nisbatan ongli yondashuvni shakllantirish, estetik mezonlar asosida baholash ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Badiiy tahlilning nazariy manbalari uch asosiy qatlamga tayanadi:

1. Poetika va stilistika;
2. Adabiy tipologiya va obrazshunoslik;
3. Pedagogik-psixologik yondashuvlar.

Natija va muhokama. Bugungi ta'lim konsepsiyasida badiiy tahlil reproduktiv bilim olish shaklidan kreativ, interpretativ yondashuvga ko'chirilmoqda. Ya'ni, tayyor ma'lumotlarni olish emas, balki o'quvchining mustaqil xulosaga kelishi ustuvor sanaladi. Shu bois tahlil metodlari o'quvchining yosh xususiyatlari, bilish qobiliyati va matnning badiiy murakkabligidan kelib chiqib tanlanishi lozim.

Badiiy tahlil samaradorligining nazariy asosi shundaki, u o'quvchini **faol subyektga** aylantiradi. O'quvchi matnni "eshituvchi" emas, balki "fikrlovchi" sifatida qabul qiladi. Shu orqali badiiy asar mazmuni faqat o'qish va eshitish emas, balki ongli idrok qilish natijasida o'zlashtiriladi.

Adabiyot darslarida qo'llaniladigan badiiy tahlil metodlari mazmunan turlicha bo'lib, ular asar matnining qanday jihatiga urg'u berilishiga qarab farqlanadi. Har bir metod o'quvchi tafakkurining ma'lum bosqichini rivojlantiradi va matnni turli qirralardan yoritishga xizmat qiladi. Zamonaviy metodikada tahlilning quyidagi asosiy turlari ajratib ko'rsatiladi:

1. Mazmuniy-tahliliy metod. Bu metod asarning syujet rivoji, voqealar ketma-ketligi, qahramonlarning harakatlari va asosiy mazmuniy chiziqni tahlil qilishga qaratiladi. U boshlang'ich bosqich o'quvchilari uchun qulay bo'lib, matnning tashqi qatlamini anglashga yordam beradi. Mazmuniy tahlil o'quvchiga "nima bo'ldi?" savoliga javob topish imkonini beradi.

2. Obrazli tahlil. Bu metod asardagi qahramonlar xarakteri, psixologiyasi va ularning badiiy timsol sifatidagi vazifasini ochib beradi. Obraz tahlili vaqtida o'quvchi syujetdan ma'no qatlamiga o'tadi, qahramonning ichki kechinmasi, ruhiy olami ustida mushohada yuritadi. "Qahramon nega shunday yo'l tutdi?" degan savol markazga chiqadi.

3. G'oyaviy-estetik tahlil. Mazkur metod asarning asosiy maqsadi – yozuvchining badiiy g'oyasini anglashga xizmat qiladi. Bu bosqichda adibning estetik ideali, asar orqali berilgan tarbiyaviy xulosa, badiiy ifoda vositalarining qiymati aniqlanadi. O'quvchi matnning ichki falsafasini anglay boshlaydi.

4. Interfaol (dialogik) tahlil. Bugungi kundagi eng samarali metodlardan biridir. Unda o'qituvchi va o'quvchi, yoki o'quvchi-o'quvchi o'rtasida muloqot tashkil etiladi. Bahs-munozara, klaster, konseptual xarita, "aqliy hujum", savol-javob kabi shakllar qo'llaniladi. Matn yodlash emas, balki fikrlashga o'rgatiladi.

5. Ijodiy-talqin tahlili. Bu metodda o'quvchi matndan kelib chiqib yangi g'oya, yangi talqin yaratadi. Muallif nuqtayi nazarini o'quvchi o'z shaxsiy qarashlari bilan solishtiradi. Shu jarayon

o‘quvchini matnga nisbatan muallif emas, **muloqotdosh** sifatida yondashishga olib keladi.

Yuqoridagi metodlarning barchasi o‘zaro bog‘liq bo‘lib, ular tahlilning bosqichma-bosqich rivojlanishiga xizmat qiladi. Avval syujet va mazmun, so‘ng obraz, undan keyin g‘oya tahlili amalga oshiriladi. Metodlarning bunday ketma-ketligi o‘quvchining bilish faoliyatini tabiiy ravishda chuqurlashtiradi.

Shu bois badiiy tahlil faqat bitta metodni qo‘llashga emas, balki ularning uyg‘unlashuviga asoslanishi lozim. Tahlilning har bir turi o‘quvchida matnga nisbatan turlicha qiziqish uyg‘otadi, natijada o‘qish jarayoni ichki motivatsiya bilan qo‘llab-quvvatlanadi.

Adabiyot darsining samaradorligini oshirishda badiiy tahlil metodlarining tutgan o‘rni beqiyosdir. Chunki ushbu metodlar orqali o‘quvchi matnni nafaqat o‘qiydi, balki o‘z tafakkuri orqali qayta kashf etadi. Badiiy tahlil jarayonida o‘quvchining ichki kuzatuvchanligi kuchayadi, voqelikni estetik idrok etish darajasi rivojlanadi. Bu esa shaxsning ma’naviy olamiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Birinchidan, badiiy tahlil o‘quvchini **passiv tinglovchi** emas, balki **faol ishtirokchi**ga aylantiradi. O‘quvchi fikr bildiradi, solishtiradi, tahlil qiladi, o‘z nuqtayi nazarini himoya qiladi. Natijada, mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Ikkinchidan, tahlil metodlari o‘quvchida **matnni tushunish bosqichlarini** izchil rivojlantiradi. Dastlab mazmuniy anglash, keyin obrazli idrok, so‘ng esa g‘oyaviy-estetik xulosa chiqarish jarayonlari amalga oshiriladi. Ushbu izchillik orqali asarning badiiy butunligini ko‘ra olish qobiliyati shakllanadi.

Uchinchidan, tahlil jarayoni o‘quvchida **ma’naviy-emotsional tajriba**ni boyitadi. Badiiy asar orqali u insoniy fazilatlar, axloqiy qarashlar, hayotiy tanlovlar va qadriyatlar haqida chuqurroq mushohada yurita boshlaydi. Natijada, adabiyot fani faqat bilim emas, balki tarbiya vositasi sifatidagi rolini ham to‘liq bajaradi.

To‘rtinchidan, badiiy tahlilning samaradorligi uning **interfaollik** xususiyatida namoyon bo‘ladi. Munozara, savol-javob, ijodiy talqin jarayonlari darsni monotondan interfaol bosqichga olib chiqadi. Bu esa ta’lim jarayonining motivatsion jihatlarini kuchaytiradi.

Zamonaviy pedagogik qarashlarga ko‘ra, tahlil o‘quvchini “matnni yodlash”ga emas, balki **matn ustida fikrlash**ga o‘rgatadi. Shunday ekan, badiiy tahlil adabiyot ta’limining markaziy metodik tamoyili sifatida baholanadi. U adabiyot darsini oddiy matn o‘qish jarayonidan chiqarib, ongli, estetik va ma’naviy anglash jarayoniga aylantiradi.

Xulosa. Adabiyot darslarida badiiy tahlil metodlarini to‘g‘ri tanlash va maqsadga muvofiq qo‘llash o‘quvchi tafakkurini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega. Tahlil jarayoni orqali o‘quvchi asar matnining tashqi mazmunigina emas, balki uning ichki ma’no qatlamlarini, obrazlar olamini, yozuvchi estetik idealini ongli ravishda idrok etadi. Badiiy tahlilning nazariy asoslari va amaliy ko‘rinishlari uyg‘unlashtirilganida, darsning samaradorligi ortadi, o‘quvchining matnga bo‘lgan munosabati faol va mustaqil xarakter kasb etadi.

Zamonaviy adabiyot ta’limida tahlilning asosiy vazifasi o‘quvchilarni tayyor ma’lumotni eslab qolishga emas, balki matn ustida fikrlashga, ijodiy talqin qilishga va estetik baholashga yo‘naltirishdir. Shuningdek, badiiy tahlil metodlari shaxsning ma’naviy olamini kengaytirib, kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli, adabiyot o‘qituvchilari har bir asarning badiiy xususiyatidan kelib chiqib eng mos metodlarni tanlashlari, tahlil jarayonini izchil, bosqichma-bosqich va mantiqiy asosda olib borishlari zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov A. *Adabiyot o‘qitish metodikasi.* – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
2. Jo‘rayev M. *Badiiy tahlil asoslari.* – Toshkent: Fan, 2017.
3. Qosimova K. *Adabiy ta’lim nazariyasi.* – Toshkent: NMIU, 2020.
4. Karimov N. *Adabiyotshunoslikka kirish.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2019.
5. Nurmonov A. *Poetika va tahlil.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016.
6. Umurov A. *Adabiy asar tahlili metodikasi.* – Toshkent: Ilm ziyo, 2021.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiyaga yondashuvni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-sonli qarorlari (amaldagi me’yoriy hujjatlar).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 392.181.151.9

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA BADIIY ASAR O‘QISH KO‘NIKMASINI SHAKLLANTIRISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI VA METODLARI

[1]Xo‘janiyozova Gulhayo Ilhom qizi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi
[2]Sobirova Sevara, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

e-mail: xojaniyazovagulhayo96@gmail.com

MODERN PRINCIPLES AND METHODS OF DEVELOPING LITERARY READING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

[1]Khojaniyozova Gulhayo Ilhom qizi, Lecturer, Department of Primary Education Methodology, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni
[2]Sobirova Sevara, Lecturer, Department of Primary Education Methodology, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni



e-mail: sevarasabirova09@gmail.com

СОВРЕМЕННЫЕ ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАВЫКОВ ЧТЕНИЯ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

[1]Ходжаниязова Гулхаё Илхам кызы, Преподаватель кафедры методики начального образования Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни
[2]Собирова Севара, Преподаватель кафедры методики начального образования Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy asarni o‘qish, anglash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning mazmun-mohiyati, zamonaviy pedagogik yondashuvlar hamda metodik tamoyillari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *boshlang‘ich ta’lim, o‘qish savodxonligi, badiiy asar, metodika, adabiyot ta’limi, kommunikativ yondashuv, integratsiya, matn tahlili, badiiy tafakkur, innovatsion metodlar.*

Abstract: *This article reveals the essence and content of developing the skills of reading, understanding, and analyzing literary works among primary school students.*

Key words: *primary education, reading literacy, literary work, methodology, literature teaching, communicative approach, integration, text analysis, artistic thinking, innovative methods.*

Аннотация: *В данной статье раскрывается сущность и содержание формирования у учащихся начальных классов навыков чтения, понимания и анализа художественных произведений.*

Ключевые слова: *начальное образование, читательская грамотность, художественное произведение, методика, литературное образование, коммуникативный подход, интеграция, анализ текста, художественное мышление, инновационные методы.*

Kirish. Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimiga qo'yilayotgan asosiy talablar orasida o'quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish, mustaqil fikrlashga undash va matn bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish masalalari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida berilgan bilimlar o'quvchining kelgusidagi intellektual salohiyati va ma'naviy olamini belgilab beradi. Badiiy matnni o'qish va anglash esa nafaqat savodxonlik, balki estetik did, til sezgisi va ma'naviy tarbiyaning ham poydevori hisoblanadi.

Badiiy asarni o'qish jarayoni oddiy matnni o'qishdan tubdan farq qiladi. Chunki uning ichida obrazlilik, badiiy vositalar, muallifning estetik dunyoqarashi hamda g'oyaviy mazmun mujassam bo'ladi. Shu sababli o'quvchini matn ustida ishlashga o'rgatish, uning mazmunini his etishga yetaklash o'qituvchidan puxta metodika va yuksak pedagogik mahoratni talab etadi. Bu jarayon faqat texnik jihatdan o'qish bilan emas, balki badiiy dunyoni tushunish, personajlar bilan birga yashash, ularning his-tuyg'ulariga daxldorlikni shakllantirish bilan chambarchas bog'liqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarni o'qish ko'nikmasini shakllantirish zamonaviy metodikalarning qo'llanishi orqali yanada samarali kechadi. O'qituvchi darsni faqat matn mazmunini tushuntirish vositasi sifatida emas, balki ijodiy tafakkurni rivojlantirish, nutq boyligini oshirish, bola ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatish maydoni sifatida tashkil etishi lozim. Shu ma'noda, ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ va shaxsga yo'naltirilgan metodlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Psixolog olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, bola matnni idrok etishda avvalo obrazni tasavvur qiladi, keyin uni o'z tajribasi bilan solishtiradi va shundan keyingina mazmuniy xulosa chiqarishga intiladi. Bu jarayonning tabiiy rivojlanishi uchun o'qituvchi o'quvchiga erkin fikrlash, asar personajlari bilan "ruhiy muloqot"ga kirisha olish imkonini yaratishi zarur. Aks holda, matn ustida ishlash faqat mexanik eslab qolish darajasida qolib ketadi.

Badiiy asarni o'qishga bo'lgan ehtiyoj va ichki motivatsiya ham juda muhimdir. Agar bola matnni faqat baho olish uchun o'qisa, bunda ijodiy tafakkur va estetik zavq shakllanmaydi. Shu bois tarbiyaviy omillar, o'qituvchining matnga bo'lgan munosabati, darsdagi emotsional muhit ham o'quvchi qiziqishining barqaror bo'lishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik nuqtayi nazardan qaraganda, badiiy asar o'qish ko'nikmasi o'quvchining nafaqat adabiy bilimini, balki uning kommunikativ, axloqiy, estetik va ijodiy kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchi muloqotga kirishadi, savol beradi, qo'shimcha fikr bildiradi, muallif bilan muloqotga kirishgandek his qiladi. Shu yo'sinda u mustaqil o'ylashga o'rganadi va nutq boyligi ortadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar badiiy o'qish faoliyatining ikki asosiy yo'nalishda kechishini ko'rsatadi: birinchisi — mazmunni anglash, ikkinchisi — emotsional idrok etish. Mazmuniy idrok etish orqali o'quvchi syujet va g'oyani tushunsa, emotsional idrok orqali obrazlar dunyosi bilan bog'lanadi, his qiladi, tasvirni "ko'radi". Shu ikki jarayon uyg'un bo'lgandagina haqiqiy badiiy idrok yuzaga keladi.

Birinchi navbatda **kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv**ning ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Bu yondashuvda o'quvchi tayyor bilim oluvchi emas, balki matnni o'z tajribasi bilan bog'laydigan, unda o'z munosabatini shakllantiradigan faol ishtirokchiga aylanadi. Masalan, matndagi obrazlar harakati bilan o'quvchining kundalik hayotidagi voqea-hodisalar taqqoslanadi, bu esa idrok jarayonini faollashtiradi.

Shuningdek, **kommunikativ yondashuv** matn ustida ishlashni jonli suhbat, savol-javob, tahliliy muloqot shaklida olib borish orqali bola nutqining rivojlanishiga xizmat qiladi. O'quvchi muallif bilan go'yoki "suhbatga kirishadi", personajlar nomidan fikr bildiradi, ularning ish-harakatini baholaydi. Natijada mantiqiy fikrlash, mustaqil xulosa chiqarish va nutqiy faollik ortadi.

Badiiy matnni o'qitishda **interfaol metodlar** — "Aqliy hujum", "Klaster", "Venn diagrammasi", "Insert", "Rolga kirish" va "Drama metodi" juda samarali natija beradi. Ayniqsa dramatizatsiya usuli kichik yoshdagi bolalar uchun matn mazmunini jonlantirish, personajlar ruhiy holatini his qilish, voqeani tasavvurda jonlantirish imkonini beradi. Bu metod matnni shunchaki "anglash" emas, balki uni "his etish" darajasiga ko'taradi.

Bugungi pedagogik tajribada **integratsiya** ham muhim o'rin tutmoqda. Badiiy asar o'qish

jarayonini rasm, musiqa, teatr, axloq, tabiatshunoslik yoki tarix bilan bog‘laganda matn yanada mazmunli, hayotiy tus oladi. Masalan, Erkin Vohidovning “Ona tilim” she’rini musiqiy ohang yordamida o‘qish yoki A. Qodiriyning asarlaridagi tarixiy lavhalarni batafsil tushuntirish orqali o‘quvchi tasavvur dunyosi kengayadi.

Yana bir zamonaviy yondashuv — **media-matn va vizual materiallardan foydalanish**dir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi ko‘proq ko‘rgani, eshitgani orqali mazmunni o‘zlashtiradi. Shu bois asar qahramonlariga oid rasmlar, qisqa animat-siyalar, sahna ko‘rinishlari qo‘llansa, matn qiziqarli, jonli va ta’sirchan bo‘ladi. Bu esa badiiy kitobga bo‘lgan mustaqil qiziqishni kuchaytiradi. Ko‘rina-diki, zamonaviy metodlarning barchasi o‘quvchini faol subyekt sifatida dars jarayoniga jalb etishga qaratilgan. Bunday yondashuv bolada matnni o‘qish ehtiyojini uyg‘otadi, badiiy idrokni mustahkamlaydi va kitobxonlik madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Badiiy asarni o‘qitish jarayonida o‘qituvchi markaziy shaxs hisoblanadi. Chunki o‘quvchi matnni asosan o‘qituvchi orqali idrok etadi: u asar ruhini sezadi, o‘qituvchining ohangidan ta’sirlanadi, uning munosabatidan ilhomlanadi. Shu sababli badiiy matn bilan ishlashda o‘qituvchining nutqi, talaffuzi, ifodali o‘qishi va asardagi g‘oyani bolalar qalbiga yetkazish mahorati bevosita ta’lim sifatiga ta’sir qiladi.

O‘qituvchi darsni shunday tashkil etishi ke-rakki, o‘quvchi matnni nafaqat o‘qib, balki eshitib, ko‘rib, his qilib idrok etsin. Bu yerda muallimning badiiy matnga bo‘lgan shaxsiy munosabati ham muhim ahamiyatga ega. Agar o‘qituvchi o‘zi badiiy asarni sevsa, u unga hurmat va qiziqish bilan yondashsa, bolada ham shu ishtiyoq uyg‘onadi. Aksincha, quruq, majburiy yondashuv bolada matnga nisbatan loqaydlik tug‘diradi.

Shuningdek, o‘qituvchi o‘quvchiga tayyor fikr bermasdan, uni mustaqil topishga undashi lozim. “Nima bo‘ldi?” degan savoldan ko‘ra “Nega shunday bo‘ldi?”, “Agar sen bo‘lsang nima qilarding?”, “Qahramonning joyida sen qanday qaror qabul qilarding?” kabi savollar orqali tafakkur faoliyati rag‘batlantiriladi. Bu o‘quvchini ichki suhbatga chorlaydi, obrazlar bilan ruhiy bog‘lanishini kuchaytiradi.

Badiiy o‘qish jarayonida o‘qituvchi tarbiyachi hamdir. Chunki asarlardagi voqelik orqali bola ezgulik va yovuzlikni ajratishni, mehr-shafqat, halollik, fidoyilik kabi axloqiy fazilatlarni anglab boradi. Demak, badiiy matn ustida ishlash nafaqat nutq va tafakkurni rivojlantiradi, balki shaxs kamolotiga ham xizmat qiladi.

Bundan tashqari, o‘qituvchining kuzatuvchanligi ham juda muhim. Har bir o‘quvchi matnni o‘zicha qabul qiladi, uning idroki va qiziqish darajasi ham boshqacha bo‘lishi tabiiy. Shu bois o‘qituvchi differensial yondashuvni tanlashi, zaifroq o‘quvchiga qo‘shimcha tushuntirish, faol va qiziqqan o‘quvchini esa ijodiy topshiriqlar bilan qo‘llab-quvvatlashi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda badiiy asar o‘qish savodxonligining muvaffaqiyatli shakllanishi ko‘p jihatdan o‘qituvchining pedagogik mahorati, darsni tashkil etish uslubi va o‘quvchi bilan o‘rnatilgan psixologik muloqotga bog‘liqdir. O‘qituvchi qanchalik mehr bilan yondashsa, o‘quvchi ham shunchalik ishtiyoq bilan kitobga murojaat qiladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida badiiy asar o‘qish ko‘nikmasini shakllantirish — ularning kelgusidagi ma’naviy dunyosi, tafakkuri, nutq madaniyati va estetik didi rivojlanishining asosiy garovidir. Badiiy matn bola ruhiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, uning tasavvur doirasini kengaytiradi, fikrni mustaqil bayon etish, obrazli fikrlash va hayotiy holatlarni baholash ko‘nikmasini shakllantiradi. Shu bois boshlang‘ich ta’limda badiiy asarni o‘qitish jarayoniga yondashuv faqat mazmunni tushuntirish bilan cheklanmasdan, balki bolani ichki kechinmalar olamiga yetaklash, uni matn “ichida yashash”ga undash asosida olib borilishi zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdullayeva M. Pedagogik innovatsiyalar va interfaol ta’lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2020.
2. To‘raqulova M.X. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
3. Ziyodova T., Hamroyev G‘. Innovatsion pedagogika asoslari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021.
4. Xolmatova D. Boshlang‘ich ta’limda AKT vositalaridan foydalanish metodikasi. – Toshkent, 2020.
5. Qo‘ziyev R. Pedagogik texnologiyalar va ularning o‘qituvchilar kasbiy malakasini oshirishdagi ahamiyati. – Samarqand: SamDU, 2021.
6. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. — Toshkent, 2018.
7. Jalolova S. Badiiy asarni idrok etish psixologiyasi. — Buxoro, 2017.

Qabul qilindi: 20.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 281.23.22

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA MATEMATIKA FANINI O‘YIN ORQALI O‘QITISHNING SAMARADORLIK OMILLARI

Rapikov Ibrayimjon G‘aniyevich,
Namangan davlat universiteti
“Pedagogika” fakulteti katta o‘qituvchisi, (PhD)

ORGANIZING MATHEMATICS LESSONS IN PRIMARY SCHOOL BASED ON GAME TECHNOLOGIES

Rapikov Ibrayimjon Ganiyevich,
Namangan State University
Senior Lecturer, Faculty of Pedagogy, (PhD)

ОРГАНИЗАЦИЯ УРОКОВ МАТЕМАТИКИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ НА ОСНОВЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Рапиков Ибрагимджон Ганиевич,
Наманганский государственный университет
Старший преподаватель факультета педагогики, (PhD)

rapikovibrayimjon@gmail.com
https://orcid.org/0009-0003-5807-4491

Annotatsiya: *Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga mos ravishda matematika darslarini o‘yin texnologiyalari orqali tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy metodlari tahlil qilinadi. O‘yin faoliyatining kognitiv rivojlanish, motivatsiya oshirish va bilim o‘zlashtirishga ta'siri psixodidaktik nuqtai nazardan ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘yin texnologiyalari boshlang‘ich ta'limda matematikani o‘rgatishning samarali vositasi ekanligi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *vizual fikrlash, differensial yondashuv, konstruktiv metod, kommunikativ kompetensiya, psixodidaktika, ta'lim sifati, raqamli o‘yin, refleksiya*

Annotation: *This article analyzes the theoretical foundations and practical methods of organizing mathematics lessons in primary school through game technologies, taking into account the age characteristics of students. The impact of play activities on cognitive development, motivation enhancement, and knowledge acquisition is examined from a psychodidactic perspective. Research findings demonstrate that game technologies serve as effective tools for teaching mathematics in primary education, fostering analytical thinking and sustained student engagement.*

Keywords: *visual thinking, differential approach, constructive method, communicative competence, psychodidactics, quality of education, digital game, reflection*

Аннотация: *В статье анализируются теоретические основы и практические методы организации уроков математики в начальных классах посредством игровых технологий с учетом возрастных особенностей учащихся. Влияние игровой деятельности на когнитивное развитие, повышение мотивации и усвоение знаний рассматривается с психодидактической точки зрения. Результаты исследования подтверждают, что игровые технологии являются эффективным средством обучения математике в начальной школе.*

Ключевые слова: *визуальное мышление, дифференцированный подход, конструктивный метод, коммуникативная компетенция, психодидактика, качество образования, цифровая игра, рефлексия*

KIRISH (INTRODUCTION). Zamonaviy ta'lim tizimida boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish masalasi pedagogika va psixologiya nuqtayi nazaridan dolzarb ahamiyatga ega. An'anaviy metodlar ko‘pincha o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini to‘liq hisobga olmaydi, bu esa bilimni o‘zlashtirishda muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, 6-10 yoshli bolalar bilimni asosan konkret, vizual va amaliy faoliyat orqali o‘zlashtiradilar. Shu bois o‘yin faoliyati bu yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy va samarali o‘qitish shaklidir. O‘yin texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarda darsga qiziqishni oshiradi, kognitiv jarayonlarni faollashtiradi va mustaqil fikrlashni shakllantiradi. Biroq ularni samarali joriy etish uchun o‘yin metodlarining ilmiy-nazariy asoslarini chuqur o‘rganish zarur. Ushbu maqolaning maqsadi - boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini o‘yin texnologiyalari asosida tashkil etishning psixologik, didaktik va metodik jihatlarini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ilmiy yangilik shundan iboratki, unda o‘yin texnologiyalarining ta'limiy, psixologik va ijtimoiy rivojlanishga ta'siri kompleks tarzda yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

O‘yin texnologiyalarining ta’limdagi o‘rni bo‘yicha bir qator o‘zbek va rus olimlari tadqiqotlar olib borgan. D.B. Elkonin o‘yinni bolaning psixologik rivojlanishidagi muhim bosqich sifatida baholagan, L.S. Vygotskiy esa uni “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytiruvchi vosita sifatida talqin etgan. O‘zbekistonlik olimlar Sh.A. Sharipov va N.A. Muslimov boshlang‘ich ta’limda interfaol metodlarning, jumladan, o‘yin texnologiyalarining milliy ta’lim tizimiga moslashtirilish yo‘llarini o‘rgangan. Rus pedagoglari P.I. Pidkasistiy va Zh.S. Xaydarov o‘yin didaktikasining nazariy asoslarini ishlab chiqqan. Biroq boshlang‘ich matematika darslarida o‘yin texnologiyalarini qo‘llashning yagona metodik tizimi hali to‘liq shakllanmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY).

Boshlang‘ich maktab yoshi (6-10 yosh) bolaning psixologik rivojlanishidagi muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda tafakkur konkret-obrazli bo‘lib, abstrakt fikrlash hali to‘liq shakllanmagan. J. Piaget ta'kidlaganidek, bolalar bu bosqichda bilimni kuzatish, amaliy harakat va tajriba orqali o‘zlashtiradilar. Shu bois matematik tushunchalarni mavhum formulalar orqali emas, balki vizual va amaliy faoliyat yordamida o‘rgatish samaraliroqdir. L.S. Vygotskiy nazariyasiga ko‘ra, o‘yin bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytiruvchi vosita bo‘lib, unda bola o‘z imkoniyatlaridan yuqoriroq natijalarga erisha oladi. O‘yin jarayoni xatodan qo‘rqishni kamaytiradi, ijodkorlikni faollashtiradi va muammoni tahlil qilish hamda to‘g‘ri yechim topish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, bu yoshdagi o‘quvchilarning e'tibori tez chalg‘ishi tabiiy holatdir. O‘yin texnologiyalari esa bu muammoni hal etib, darsga qiziqish uyg‘otadi va faol ishtirokni ta'minlaydi. Xotira bu davrda mexanikdan mantiqiy shaklga o‘tadi, shuning uchun o‘yin orqali o‘rganilgan matematik bilimlar emotsional tajriba orqali mustahkam esda qoladi.

O‘yin texnologiyalari ta’limning uch asosiy funksiyasini bajaradi: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi. Ta’limiy funksiya o‘quvchilarda matematik bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, nazariy tushunchalarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash imkonini beradi. Tarbiyaviy funksiya esa mas’uliyat, intizom, hamkorlik va hurmat kabi fazilatlarni rivojlantiradi. Rivojlantiruvchi funksiya mantiqiy fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi. O‘yinlarni darsga kiritishda ularning maqsadga muvofiqligi, qoidalarining oddiy va tushunarli, ammo qiziqarli bo‘lishi hamda barcha o‘quvchilarni faol ishtirokga jalb etish muhimdir. O‘yinlar shakliga ko‘ra didaktik, rolli, musobaqa, simulyatsion va raqamli interfaol turlarga bo‘linadi. Didaktik o‘yinlar o‘quv materiali bilan bog‘liq, rolli o‘yinlar hayotiy vaziyatlarda qo‘llaniladi, musobaqa o‘yinlari esa o‘quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshiradi.

Boshlang‘ich matematika darslarida o‘yin texnologiyalarini qo‘llash o‘quvchilarning bilim, tafakkur va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Masalan, "Matematik domino" amallarni mustahkamlab, raqamlar orasidagi bog‘lanishni tushunishga yordam beradi, "Raqamli kvest" esa sabr va hamkorlikni rivojlantiradi. "Sonli labirint" algoritmik fikrlashni, "mantiqiy jumboq"lar esa ijodkorlikni faollashtiradi. "Matematik viktorina" musobaqaviy ruh orqali bilimlarni mustahkamlaydi. Raqamli interfaol o‘yinlar individual yondashuvni ta'minlab, darhol fikr-mulohaza olish imkonini beradi va darsni qiziqarli qiladi. Shu bilan birga,

o‘yin metodlari tahliliy fikrlashni kuchaytirib, o‘quvchini faol bilim yaratuvchiga aylantiradi. Ammo raqamli texnologiyalar an'anaviy o‘yinlarni to‘liq almashtirmasligi lozim, chunki bevosita muloqot va amaliy faoliyat bolalarning ijtimoiy hamda emotsional rivojida muhim o‘rin tutadi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). O‘yin texnologiyalarini qo‘llagan darslarning samaradorligini baholash maqsadida bir nechta boshlang‘ich sinflarda kuzatishlar o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, o‘yin elementlari kiritilgan darslarda o‘quvchilarning faollik darajasi o‘rtacha yigirma besh foizga oshdi. Darsga qiziqish ko‘rsatuvchi o‘quvchilar soni sezilarli darajada ko‘paydi va ular matematik masalalarni yechishga ijobiy munosabat bildirishdi. Bilim o‘zlashtirish sifati jihatidan ham ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. O‘yin metodlaridan foydalanilgan guruhlarda nazorat ishlari natijalari an'anaviy usullar qo‘llanilgan guruhlardan o‘n besh foizga yuqori bo‘ldi. Bu asosan o‘yinda o‘zlashtirilgan bilimlarning amaliy qo‘llanilishi va emotsional bo‘yoqqa ega bo‘lganligi bilan izohlanadi. O‘quvchilar o‘yin jarayonida o‘rganilgan tushunchalarni yaxshiroq eslab qoladilar, chunki ular bu bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo‘llash tajribasiga ega bo‘ladilar. Motivatsiya jihatidan ham muhim natijalarga erishildi. So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, o‘yin texnologiyalari qo‘llangan darslarda o‘quvchilarning saksondan ortiq foizi matematikani qiziqarli fan deb hisoblashlari ma'lum bo‘ldi. Bu ko‘rsatkich an'anaviy darslar uchun oltmish foiz atrofida edi. O‘quvchilar o‘yin orqali o‘rganishni xohlaydigan mashg‘ulot turi sifatida ko‘rsatdilar va ular uyda ham shunga o‘xshash o‘yinlar o‘ynashni xohlashlari aniqlandi. O‘yin texnologiyalarining ijtimoiy-psixologik ta'siri ham e'tiborga loyiq. O‘quvchilar o‘rtasida hamkorlik, bir-biriga yordam berish va muloqot ko‘nikmalari sezilarli darajada yaxshilandi. Guruhli o‘yinlar o‘quvchilarni bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga, fikrlarini baham ko‘rishga va umumiy maqsadga erishish uchun birga ishlashga o‘rgatdi. Bu kuzatishlar Vigotskiyning ijtimoiy o‘rganish nazariyasi asoslarini tasdiqlaydi va o‘yin jarayonida bolalarning nafaqat kognitiv, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishi ham amalga oshishini ko‘rsatadi. Boshqa tadqiqotchilarning xulosalari bilan solishtirganda, bizning natijalarimiz umumiy tendensiyalarni tasdiqlaydi. Elkonin va Pidkasistiy ham o‘z ishlarida o‘yin texnologiyalarining ta'lim samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning faol ishtiroki va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdagi muhim rolini ta'kidlagan edi. Biroq, bizning tadqiqotimiz ayniqsa boshlang‘ich matematika darslariga nisbatan aniq amaliy tavsiyalar va konkret metodlar to‘plamini taqdim etish bilan ajralib turadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS)

Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, darsga qiziqishni kuchaytiradi hamda muloqot va ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘yinli yondashuv ta’lim jarayonini yanada samarali, interaktiv va shaxsga yo‘naltirilgan qiladi.

1. O‘qituvchilar uchun o‘yin texnologiyalari bo‘yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish. Bu kurslar o‘qituvchilarga zamonaviy pedagogik o‘yin turlari, ularni dars jarayoniga qo‘llash metodikasi hamda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlariga moslashtirish yo‘llarini o‘rgatadi.

2. Matematika darslari uchun milliy mentalitetga mos raqamli o‘yin platformalarini ishlab chiqish. Bunday platformalar o‘quvchilarga tanish hayotiy misollar va milliy qadriyatlar asosida o‘yin orqali matematik tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirish imkonini beradi.

3. O‘yin metodikasini darsliklar va o‘quv dasturlariga tizimli ravishda integratsiya qilish. Bu yondashuv ta’limni faollashtirib, o‘quv jarayonida ijodkorlik, mustaqil fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi hamda o‘quvchilarning fanga qiziqishini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Elkonin D.B. Psixologiya: bolalik. Moskva: Akademiya, 1995. 348 b.
2. Vygotskiy L.S. O‘yin va uning bolaning psixik rivojlanishidagi roli. Moskva: Pedagogika, 1991. 276 b.
3. Muslimov N.A. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari. Toshkent: Fan, 2008. 189 b.
4. Pidkasistiy P.I., Xaydarov Zh.S. Didaktik o‘yinlar texnologiyasi. Moskva: Rossiyskoe pedagogicheskoe agentstvo, 1996. 268 b.
5. Davletshin M.G. Boshlang‘ich maktabda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2012. 256 b.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 371.372.881

LINGVOMADANIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA O‘QUVCHILARNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Jumamuratova Sevara Saparbaevna, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi o‘zbek tili ixtisosligi 3-kurs doktoranti

https://orcid.org/0009-0003-0670-9889
e-mail: sjumamuratova@list.ru

PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF LINGUISTOCULTURAL COMPETENCE

Jumamuratova Sevara Saparbaevna, Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyoz, 3rd year doctoral student in the field of Theory and Methodology of Education and Training, Uzbek language

ПЕДАГОГИКО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ СТУДЕНТОВ В РАЗВИТИИ ЛИНГВОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ

Жумамуратова Севара Сапарбаевна, Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, докторант 3-курса по направлению “Теория и методика воспитания и обучения”, узбекский язык

Annotatsiya: *Ushbu maqolada lingvomadaniy kompetensiyaning mazmuni, nazariy asoslari va lingvomadaniy kompetensiyaning til ta’limida tutgan o‘rni, lingvomadaniy yondashuvning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida atroflicha bayon qilingan. Lingvomadaniy kompetensiyani rivojlantirishning samarali usullari haqida ma’lumot berilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvomadaniyat, lingvomadaniy kompetensiya, til, ta’lim, pedagogika, psixologiya.*

Annotation: *This article provides a detailed description of the content, theoretical foundations, and role of linguocultural competence in language education, as well as the pedagogical and psychological characteristics of the linguocultural approach. Information is provided on effective methods for developing linguocultural competence.*

Key words: *linguistic culture, linguistic competence, language, education, pedagogy, psychology.*

Аннотация: *В статье подробно рассматриваются содержание, теоретические основы и роль лингвокультурологической компетенции в языковом образовании, а также педагогические и психологические особенности лингвокультурологического подхода. Приводятся сведения об эффективных методах формирования лингвокультурологической компетенции.*

Ключевые слова: *лингвокультура, лингвокультурная компетентность, язык, образование, педагогика, психология.*

TAMADDUN NURI

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimi insonni har tomonlama rivojlantirishga, uni faqat bilim egasi emas, balki madaniy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan. O'zbek tili ta'limida esa bu maqsad lingvomadaniy yondashuv orqali amalga oshiriladi. Lingvomadaniy kompetensiya — bu shaxsning tilni o'rganish jarayonida o'sha tilda mujassam milliy qadriyatlarni, xalqning dunyoqarashini, urf-odatlarini anglash va ularni muloqotda to'g'ri qo'llay olish qobiliyatidir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Lingvokulturologiya antroposentrik tilshunoslikning rivojlangan yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning taraqqiyotida V.V.Vorobyov[1], V.M.Shaklein[2], V.N.Teliya[3], V.A.Maslova[4] kabi olimlarning hissasi katta. Hozirgi kunda o'zbek til ta'limida ham bir qator ishlar ma'lum. Jumladan, N.Mahmudov[5], D.Xudoyberganova[6], Sh.Usmonova[7]larning ilmiy tadqiqotlari o'zbek tilshunosligida lingvomadaniyatning rivojiga katta hissa qo'shdi. Mamlakatimiz ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual salohiyatini o'stirish, og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, til ta'limida kompetensiyaviy yondashuv orqali o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini shakllantirish, lug'at boyligini oshirish masalalari A.G'ulomov, K.Qosimova, S.Matchonov, B.To'xliev, R.Niyozmetova, Sh.Yusupova, B.Abdullaeva, R.Yo'ldoshev, T.Ziyadova, A.Hamroev, T.Yusupova, Sh.Yuldasheva, N.Sh.Turdiyev, K.Mavlonova, G.Yusupovalarning ilmiy tadqiqotlarida tadqiq etilayotgan muammoning ba'zi qirralari ochib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotning metodologik asosini til va madaniyatning uyg'unligi, ya'ni lingvomadaniy qarashlar tashkil etadi. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, lingvomadaniy, komponent va konseptual tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'zbek tili ta'limida lingvomadaniy kompetensiyaning mazmuni va til ta'limida tutgan o'rni, pedagogik-psixologik xususiyatlari so'nggi yillarda pedagoglar va metodistlar tomonidan o'rganilmoqda[8.278].

O'zbek tili ta'limida lingvomadaniy yondashuvning pedagogik-psixologik xususiyatlari til o'rgatish jarayonida nafaqat til bilan birga milliy madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlarga urg'u berish, balki ijtimoiy psixologik holatlarni o'rgatish masalalariga ham uzviy bog'lanadi. Bu esa til o'rgatish jarayonida o'quvchilarning psixologik holati, motivatsiyasi, madaniy kompetensiyasi va lingvistik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar va ularning yo'nalishlarini aniqlashtirish, muvaffaqiyatli, samarador tavsiyalar va natijalarni saralashni taqozo qiladi. E.G'oziyev, Z.Nishanova, M.G.Davletshin, Sh.Do'stmuhamedova, M.Mavlonov, S.To'ychieva, M.Djumabaeva ishlarida ta'lim jarayonida va tarbiya sohasida **milliy madaniy qadriyatlar**ni singdirishning psixologik va pedagogik asoslari tadqiq qilingan. Nazariy qarashlar va amaliy tavsiyalar o'zbek tilini o'rgatishning psixologik va pedagogik muammolarini hal qilishga uzviy bog'lanadi.

Bola ham emas, katta ham emas, deb sanaladigan 6–7-sinf o'quvchilarining lingvomadaniy kompetensiyalarini shakllantirish masalasini zamonaviy psixologiya yutuqlaridan ayri holda o'rganish mumkin emas. Adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, 6–7-sinf o'quvchilarini yosh davrlari psixologiyasi nuqtayi nazaridan aynan qaysi davrga kiritish borasida tadqiqotlarda yakdillik ko'rinmadi (1.2.1-jadvalga qarang).

1.2.1-jadval.

Psixologik tabaqalanish bo'yicha 6–7-sinf o'quvchilari mansub deb qaraladigan davr xususiyatlari (E.G'oziyev tahlillari bo'yicha[9.70-77-b)

Tasnif mualliflari	Davr nomlanishi	Muhim xususiyatlari
Amerikalik psixolog E.Erikson	Maktab yoshi	Asosiy o'zgarishlar ko'zlagan maqsadga erishish qobiliyati, uddaburonlik va mahsuldorlikka intilish tuyg'usi kuchli bo'ladi, mehnatga nisbatan individual munosabat; muammolarni yechishda aql-zakovatning yetishmasligi, bilimlarni o'zlashtirishda qoloqligi

G.Grimmning shaxs rivojlanish bosqichi bo‘yicha	13-16 (o‘g‘il bola), 12-15 (qiz bola)	
J.Piaje	7-8 – 11-12 yosh	konkret operatsiyalar davri
Fransuz psixologi A.Vallon	farqlash davri, 6 – 11 yosh	
fransiyalik yirik psixolog R.Zazzo	To‘rtinchi bosqich, 9 – 12 yosh	
Dj.Birron	o‘spirinlik davri, 12 – 17 yosh	
D.Bromley	Ilk o‘spirinlik, 11 – 15 yosh	
L.S.Vigotskiy	Maktab yoshi davri, 8 – 152 yosh	13 yasharlik inqiroz
L.I.Bojovich	beshinchi bosqich 12 – 14 yosh	o‘z-o‘zini anglash davri
D.B.Elkonin	kichik o‘smirlik davri, 10 – 15 yosh	shaxsiy ichki (intim) muloqot
A.A.Lyublinskaya	O‘rta sinf o‘quvchisi davri (o‘smirlik) - 13 – 15 yosh	
V.A.Kruteskiy	o‘smirlik yosh davri 11 – 15 yosh	
A.V.Petrovskiy	o‘rta sinf o‘quvchisi (o‘smirlik) davri, 11 – 15 yosh	
D.I.Feldshteyn	o‘smirlar, 10 – 15 yosh	o‘ziga munosabatni kashf qilishdan iborat bo‘lib, o‘zini shaxs sifatida his qilish va qat’iy qarorga kelish bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich 12-13 yoshdagi o‘smirlarni o‘z ichiga olib, bir tomondan, o‘zini shaxs sifatida tan olish, ikkinchi tomondan, o‘ziga salbiy munosabatda bo‘lish xususiyatiga ega.

Jadvaldan ko‘rinadiki, aksariyat olimlar bizning tadqiqot obyektimiz bo‘lgan 6–7-sinf o‘quvchilarini o‘smirlik davriga kiritishadi. Shunga ko‘ra, biz ham shu termindan foydalanishni to‘g‘ri deb hisoblaymiz.

O‘zbek psixolog olimlari o‘smirlik davrini shunday tavsiflashadi: “Nutqi rivojlangan, xilma-xil va boy tafakkur esa o‘zining barcha ko‘rinishlari: harakatli, obrazli, mantiqiy darajasida rivojlanadi. O‘smirlarni endi turli amaliyot va aqliy faoliyatlarga o‘rgatish mumkin. Shuningdek, bu davrda umumiy va maxsus layoqatlar shakllanadi va rivojlanadi[10.66]. O‘smirlik aksariyat psixologik adabiyotlarda qayd qilinganidek, 5-sinfdan boshlanadi. Z.Nishanova bu davrni nafaqat psixologik chegaralaydi, balki o‘smirlarning o‘tmishdoshlaridan muhim farqlarini ham ajratib ko‘rsatib beradi: “O‘smirlik davri 10-11 yoshlardan 14-15 yoshlargacha bo‘lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o‘smirlar o‘tmishdoshlarida nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o‘sish oldinroq namoyon bo‘lmoqda”[11.322]. Bu jihatning o‘zi ta’limda shu bugungi kungacha dasturulamal bo‘lib qolgan mavjud metodika yangicha nigoh bilan

takomillashtirish zaruriyatini tasdiqlaydi.

O‘smirlik yoshida rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari haqida so‘z yuritilar ekan mutaxasisslar “o‘smir barcha o‘rnatilgan me’yorlarni o‘zlashtirib boradi, shuning uchun ham o‘smir shaxsining ijtimoiylashuv jarayonida ota-onalari, qarindoshlari, ular bilan bevosita ishlaydigan mutaxassislarning (psixolog, pedagog va shu kabilar) ta’siri katta bo‘lib, o‘smirlarni hayotda zarur ijtimoiy bilimlarning ertaroq va chuqurroq o‘zlashtirishi, ularni hayotda qo‘llashga intilishlari aynan ularga bog‘liq”[12.21] bo‘lishini ta’kidlashadi.

“Men” davrining anglashilgan shakllari va ko‘rinishlarining namoyon bo‘lishi o‘smirlik davriga to‘g‘ri keladi [9.163]. E.G‘oziyev “8-12 yosh oralig‘ida o‘sish davri o‘smiroldi yoshidan iborat bo‘lib, yovvoyilikning oxiri va sivilizatsiyaning boshlanishidagi kamolot cho‘qqisiga hamohangdir”[9.68], degan o‘xshatish keltiradi.

O‘smirlarda so‘zlarning kelib chiqish tarixiga, ularning aniq mazmuni va mohiyatiga qiziqishning[11.322] kuchayishi til mashg‘ulotlarini tashkil qilish, til materiallarini tanlashda alohida e’tiborni talab qiladi. Og‘zaki nutqida mulohaza yuritish, fikr bildirish, mustaqil nutq so‘zlash, yozma matn uchun reja tuzib, unga amal qilib yozma ishlar yozish, yozma ishlarning baholanishida so‘z boyligi, qanday til bilan bayon qilganligi inobatga olinishini biladi. Bu esa lingvokulturemalarni lingvomadaniy birliklarni samarali o‘rgatishning ayni davri ekanligini anglatadi.

O‘zbek tilini o‘rganayotgan 6–7-sinf o‘quvchilari uchun atrof-olamdagi bog‘lanishlar mazmunini yuqori darajada bilishga intilishning ortishi bois qiyosiy lingomadaniy til birliklarini til materialiga ko‘proq qamrab olish zaruratini paydo qiladi. Maktabda o‘qitilayotgan boshqa fanlar qatorida o‘zbek tili fani ham o‘smir uchun o‘z taxminlarini qilish va ularni tekshirib ko‘rish uchun sharoit bo‘lib xizmat qilishi lozim. O‘smirning kattalar kabi keng qamrovli tahlilga intilishi uning intellektual faolligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa tahlilga mos, qulay lingvomadaniy hodisalar bilan boyitilgan o‘quv materialiga ehtiyoj paydo qiladi.

O‘smir shaxsi shakllanishida ommaviy axborot vositalari va madaniyatning ta’siri, bizning davrimizda ijtimoiy tarmoqlarning, internet olamining ta’siriga berilish kuchayadi. Bu ta’sirni boshqarish oson emas. Bu holat raqamli dunyoda yashayotgan o‘smirga o‘zbek tili darslarida dars va darsdan tashqari mashg‘ulotlarda muayyan ijtimoiy qarashlar, madaniyat va estetik did shakllanishiga xizmat qiladigan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy voqealar haqida suhbat, tushuntirish, tahlil qilinishini muntazam yo‘lga qo‘yishni taqozo qiladi. Bu esa ularda kitobga, OAVga, Internetga, madaniyatga murojaat qilish ehtiyojini vujudga keltiradi. Albatta, o‘smir faoliyati, psixologiyasi va raqamli dunyo masalalari fan o‘qituvchilarini raqamli resurslar ustida ishlash ko‘nikma va malakalarini rivojlantirishga undaydi. “V.Kessel tadqiqotlarida o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga bog‘liq holda o‘qituvchilarning mashhurlik va mashhur emaslik motivlari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘qituvchining mashhurligi ko‘p jihatdan uning materiallarni ko‘rgazmali, jonli va muammoli tarzda yetkaza olish qobiliyatiga bog‘liq ekan”[11.541].

E.G‘oziyev “O‘tmishning boy merosi, uning ijtimoiy-tarixiy an’analari, rasm-rusumlari, marosimlari milliy istiqlol tufayli o‘z egalariga qaytarilishiga qaramay, xalq uning hukmdoriga aylanishiga ruhiy jihatdan tayyor emas”[9.92], deganida haqli edi. Yer kurrasida ijtimoiy garmoniyaning (muvofiqlashuvning) mavjudligi, yoshlar o‘rtasida g‘arb sivilizasiyasiga (kiyinish, raqs, qo‘shiq, xulq-atvor, begonalashish, ayrim hirslarga) nisbatan muvaqqat qiziqish, intilish, eshtiyojning hukm surishi milliylikni 25 – 30 yilga kechiktirish xavfini tug‘diradi.

Mavjud aksariyat tadqiqotlarda muloqot va **diskursni** psixolingvistik nuqtayi nazardan tahlil qilish orqali til va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi aniqlangan. Til ta’limida **lingvomadaniy yondashuvning psixologik xususiyatlari** sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar esa, asosan, o‘quvchilarning til o‘rgatish jarayonidagi psixologik holati, motivatsiyasi, madaniy kompetensiyasi va lingvistik tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan.

Umuman, dunyoda va mamlakatimizda lingvomadaniy yondashuvning psixologik xususiyatlari sohasida olib borilgan tadqiqotlar **madaniy va psixolingvistik komponentlarni o‘rganishda,** til o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarning madaniy va psixolingvistik jihatlarini hisobga olishda muhim omil sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda **lingvomadaniy birliklarning, xususan,**

o‘zbek tilidagi maqollar, frazeologik birliklar, madaniy va psixolingvistik xususiyatlarni o‘rganish va ularning natijalarini ta’lim jarayoniga tatbiq qilish zaruriyati ham ortib bormoqda.

Tilshunoslik, **madaniyatshunoslik**, **psixologiya**, **pedagogika** fanlari chorrahasida shakllangan lingvomadaniy yondashuv ilmiy asoslari ko‘plab olimlar (Kostomarov, Vereshchagin, Karaulov) tomonidan yaratilgan.

XULOSA. Lingvomadaniy yondashuv o‘zbek tili ta’limida nafaqat lingvistik bilimlarni egallashga yordam beradi, balki o‘quvchilarda shaxsiy, ijtimoiy va madaniy kompetensiyalarni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv o‘quvchilarga tilni chuqurroq o‘zlashtirish va uni madaniy kontekstda to‘g‘ri qo‘llay olishga qaratiladi. Lingvomadaniyatshunoslik va lingvodidaktikada talabalarning, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvomadaniy kompetensiyalarini shakllantirish uchun muayyan tavsiya va qo‘llanmalar yaratilganligiga qaramasdan bir qator muammolar o‘z yechimini kutib turibdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Воробьев В.В. Лингвокультурология. М., Тзд-во РУДН, 2008.
2. Шаклеин В.М. Лингвокультурологический аспект общеславянского культурного наследия. Славянские языки и культуры в современном мире. М., МАКС Пресс, 2009.
3. В.Н.Телия. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Языки русской культуры, 1996.
4. Маслова В.А. Лингвокультурология. Учеб.пособие для студ.высш.учеб, заведений, М.: Издательский центр Академия, 2001.
Mazkur bosqichda tarbiyalanuvchilarda nutqiy kompetensiyani tarkib toptirishda ta’limiy faoliyatlardan tashqari tarbiyaviy ishlar integratsiyasini ta’minlashga harakat qilindi. Ayniqsa, bu jarayonda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni artpedagogik yondashuv asosida tashkil etishga alohida e’tibor qaratiladi. Chunki ko‘plab maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-tadbirlarda shaklan bir xillik mavjud. Bu holat o‘z-o‘zidan bolajonlarda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga bo‘lgan qiziqishning pasayishiga olib keladi. Bu esa tarbiyalanuvchilarda pedagogik faoliyatga nisbatan qiziqishning pasayishiga sabab bo‘lmoqda. Zero, bolalardagi nutqiy faollikni shakllantirishdagi asosiy kompetensiyalaridan biri tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ijodkorlik. Bu haqda mashhur pedagog olimlardan biri bo‘lgan J.Bruner shunday degan: “Bolalar tilni faol muloqot, rolli o‘yinlar va ijtimoiy ishtirok etish orqali eng samarali o‘rganadilar” [2;15]. Albatta, bu kabi kompetensiyalar tarbiyalanuvchilardada turli-tuman tadbirlar, kechalar, ko‘rik-tanlovlarda ishtirok etish jarayonida rivojlanib boradi.

Shu bilan birga, tadqiqot ishimizda artpedagogik yondashuv asosida maktabgacha yoshdgi bolalarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida qaraladi. Shu maqsadda tajriba-sinov ishlari jarayonida bolalar bilan artpedagogik yondashuv asosida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish muhim sanaladi. Bolajonlar o‘z qiziqishlari va imkoniyatlariga ko‘ra tadbirlarda ishtirok etishadi. Shunday qilib, bu tadbir orqali bolajonlar nutqiy madaniyatning qanchalik muhim ekanligini bilib oladilar. Ayniqsa, bu jarayonda yetuk shaxs irodali va sabrli bo‘lishi, halol va vijdonli bo‘lishi kerakligini tushunadilar. Albatta, bolajonlarda bu his-tuyg‘ularning hosil bo‘lishida tadbir turlarining qiziqarli va variativ bo‘lishi xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. John Dewey. Art as experience. New York. 1980. 445p
2. Bruner J. Child’s Talk: Learning to Use Language. Oxford: Oxford University Press, 1983. – P 144
3. Montessori M. The Absorbent Mind. New York: Holt, 1995. – P. 302
4. Vygotsky L.S. Thought and Language. Cambridge, MA: MIT Press, 1986. – P.287
5. Цейтлин С.Н. Yазык и ребёнок.Лингвистика детской речи. – М., 2000. 240с.
6. Xo`jamberdiyeva.Sh.K, Abdusamatova.N.J, Isabayeva.A.Y “Bolalarni nutqini o`stirish” darslik. Toshkent – “Fan ziyosi” - 2023y 238b
7. Зеленцова.Н.В. – Пешкова. Элементы песочной терапии в развитии детей раннего возраста. Санкт-Петербург Детство-пресс-2015 – С 17.
8. O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi /Takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent – 2022. 100b
9. G‘oziyev.E. Psixologiya. Kasb-hunar kollejlari uchun darslik. Ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. – 352 b.
10. G‘ofurova N. Maktabgacha ta’limda nutq o‘stirish metodikasi. – Toshkent, 2021. – B. 144
11. Xamrakulova Maftunaxon Shuxratovna, Kurbanbayeva Mukaddas Kozibayevna. Maktabda art-terapiya: psixolog uchun qo‘llanma. Tafakkur-tamaddun nashriyoti. 2025 yil.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 371.3-00

ANTROPOSENTRIK PARADIGMANING ZAMONAVIY TILSHUNOSLIKDA TUTGAN O‘RNI

Sayitqulova Zilola Xusniddin qizi,
Samarqand davlat chet tillar instituti (PhD) assistent o‘qituvchi

THE PLACE OF THE ANTHROPOCENTRIC PARADIGM IN MODERN LINGUISTICS

Sayitkulova Zilola Khusniddin kizi
Assistant Lecturer, Samarkand State Institute of Foreign Languages (PhD)

МЕСТО АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКОЙ ПАРАДИГМЫ В СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

Саиткулова Зилола Хусниддин кызы,
ассистент Самаркандского государственного института иностранных языков (PhD)

https://orcid.org/2234-0280-0325-0646
e-mail: Saidqulovazilola21@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslik paradigmasining shakllanishi va rivojlanish jarayoni, xususan, antroposentrik paradigmaning mohiyati, uning fanlararo va tekstosentrik tamoyillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda T.Kun, Y.S.Kubryakova, V.A.Maslova, D.U.Ashurova, M.V.Pimenova kabi olimlarning ilmiy qarashlari asosida paradigmalarning o‘zaro aloqasi, evolyutsiyasi hamda tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganish masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *paradigma, antroposentrizm, fanlararo yondashuv, tekstosentrizm, kognitiv tilshunoslik, badiiy matn, lingvomadaniyat.*

Annotation: *This article analyzes the formation and development of the modern linguistic paradigm, in particular, the essence of the anthropocentric paradigm, its interdisciplinary and text-centric principles. The study, based on the scientific views of such scientists as T. Kun, Y. S. Kubryakova, V. A. Maslova, D. U. Ashurova, M. V. Pimenova, covers the issues of the relationship, evolution of paradigms, and the study of language in relation to the human factor.*

Key words: *paradigm, anthropocentrism, interdisciplinary approach, textocentrism, cognitive linguistics, literary text, linguistic culture.*

Аннотация: *В статье анализируется становление и развитие современной лингвистической парадигмы, в частности, сущность антропоцентрической парадигмы, её междисциплинарные и текстоцентрические принципы. В исследовании, опирающемся на научные взгляды таких учёных, как Т. Кун, Ю. С. Кубрякова, В. А. Маслова, Д. У. Ашурова, М. В. Пименова, рассматриваются вопросы соотношения, эволюции парадигм, а также изучения языка во взаимосвязи с человеческим фактором.*

Ключевые слова: *парадигма, антропоцентризм, междисциплинарный подход, текстоцентризм, когнитивная лингвистика, художественный текст, лингвокультура.*

Kirish. Zamonaviy tilshunoslik paradigma muammosiga, xususan, antroposentrik paradigmaga qiziqishning ortishi bilan tavsiflanadi. Bu esa tilshunoslik taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi turli xil g‘oyalar, tushunchalar va yondashuvlarni o‘rganishda faqatgina alohida maktablarning fundamental farazlarinigina emas, balki zamonaviy tilshunoslikning strategik yo‘nalishlarini ham o‘rganishni talab qiladi [2005:17]. Hozirgi tilshunoslikning go‘ya va tushunchalarini tahlil qilish ilmiy-nazariy maktablar va zamonaviy strategik yo‘nalishlarning hamkorligi zaruratini ko‘rsatadi. Til tadqiqining har bir davrida obyektga bo‘lgan yondashuv tamoyilining o‘zgarishi “paradigma” atamasi bilan bog‘liqdir. Mazkur atama amerikalik olim T. Kun tomonidan yaratilgan

bo‘lib, u fan obyektiga umumiy nazar, nazariy qoidalar va metodlar tizimini bildiradi [2003:17]. T. Kun ilmiy inqilob orqali bir paradigmadan boshqasiga o‘tish fan taraqqiyotining muhim omili ekanini ta’kidlaydi [2003:37]. Y.S. Kubryakova esa paradigmaning kelib chiqish sabablarini ilmiy nuqtai nazarlar o‘rtasidagi farq va ilmiy inqiloblar bilan izohlaydi [2008:6-9]. Inson tafakkuri o‘z mohiyatiga ko‘ra dinamik hodisa bo‘lib, u fan rivojining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Inson ongining rivojlanishi natijasida ilmiy tafakkurda yangi metodologik yondashuvlar shakllanadi, bu esa ilmiy paradigmalar almashinuvi jarayonida yaqqol namoyon bo‘ladi va ularni yangicha talqin etish orqali ilmiy taraqqiyotga turtki beradi. Tahlil usullari. Tadqiqot metodologiyasi sifatida paradigmatik, kognitiv, kommunikativ, qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik yondashuvlardan foydalanildi. D.Shifrin, Y.S.Kubryakova, V.A.Maslova, M.V.Pimenova, D.U.Ashurova, S.V.Grinev-Grinevich va N.S.Bolotnova kabi olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinib, zamonaviy tilshunoslikdagi paradigmalarning o‘zaro bog‘liqligi va antroposentrik paradigma ustunligi asoslab berildi. Ushbu maqolada shuningdek **fanlararo integratsiya** va **tekstosentrizm** tamoyillari asosida badiiy matnning lingvomadaniy, kognitiv va kommunikativ xususiyatlari o‘rganildi. Natijalar. Zamonaviy tilshunoslikda paradigmalar miqdorini belgilash borasida turli fikrlar mavjud. D.Shifrin rasmiy va funksional paradigmalarni farqlaydi [1995:20-43]. Y.S.Kubryakova esa an’anaviy, generativ, kognitiv va kommunikativ paradigmalarni ajratib ko‘rsatadi. Keyinchalik u kognitiv va kommunikativ paradigmalarni birlashtirib, **kognitiv-diskursiv paradigma**ni ilgari suradi [Kubryakova 2004:406]. Mazkur paradigma tilni bilish va muloqot chorrahasida tahlil qiladi. V.A.Maslova tomonidan ajratilgan **qiyosiy-tarixiy, sistem-struktur va antroposentrik paradigmalar** tilshunoslikdagi zamonaviy mulohazalarni eng yaqqol ifodalaydi [2001:7]. Qiyosiy-tarixiy paradigma tillarning kelib chiqishi va evolyutsiyasini o‘rganishga, sistem-struktur paradigma esa tilning sinxron tahliliga asoslanadi. Antroposentrik paradigma esa ularning kamchiliklarini bartaraf etgan holda, tilda **inson omilini markazga qo‘yadi**. Maslova qayd etganidek, XX asrning 60–70-yillarida “semantik hujum”, 80-yillarda “kommunikativ yondashuv”, so‘nggi chorakda esa “kognitiv davr” kuzatilgan [2001:8]. Yangi asrda esa til subyekti – insonning o‘zi diqqat markaziga chiqdi [2020:12]. Shu tariqa tilning mohiyatini ochishda uning psixik, estetik va madaniy jihatlarini hisobga olish zarurati paydo bo‘ldi [2017:50]. Tilshunoslikdagi ushbu bosqichlar fan taraqqiyotining evolyutsion jarayonini aks ettiradi. “Semantik hujum” davrida tilning asosiy tadqiqot obyekti ma’no va uning tuzilish mexanizmlariga qaratilgan bo‘lsa, “kommunikativ yondashuv” insonlar o‘rtasidagi muloqot jarayonini markazga chiqardi. “Kognitiv davr”da esa til inson tafakkuri va bilish faoliyatining mahsuli sifatida talqin etila boshlandi. Yangi asrda tilni o‘rganishda inson shaxsi, uning individual idrok jarayonlari va madaniy tajribasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, zamonaviy tilshunoslik tilni psixik, estetik va madaniy omillar bilan birgalikda tahlil qilishni talab etuvchi murakkab, integrativ tizim sifatida qaraydi.

Antroposentrik paradigma tilni yaratuvchi va foydalanuvchi inson faoliyatiga tayanadi. V.A.Maslova, N.D.Artyunova, S.V.Grinev-Grinevich kabi olimlar insonning til orqali o‘z ichki holati, his-tuyg‘ulari, tafakkuri va dunyoqarashini aks ettirishini ta’kidlaydilar [Artyunova 1999:3; Grinev-Grinevich 2008:5-10]. Inson omiliga asoslangan antroposentrik paradigma tilni faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri va ruhiy dunyosining in’ikosi sifatida talqin etadi. Natijada, tilshunoslikda insonning individual va madaniy tajribasini aks ettiruvchi kognitiv hamda pragmatik yo‘nalishlar shakllanadi.

Hozirgi zamon tilshunosligida antroposentrik paradigma **fanlararolik, funksionalizm, ekspansionizm, semantikasentrizm va tekstosentrizm** kabi metodologik asoslarga ega. D.U.Ashurova ta’kidlaganidek, fanlararo bog‘liqlik ikki yoki undan ortiq fanlarning samarali hamkorligi, tushunchalar va metodlarning integratsiyalashuvini bildiradi [Ashurova 2015:7-8]. Fanlararo yondashuv antroposentrik paradigmaning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, u tilni inson faoliyati va tafakkuri bilan uzviy bog‘liq holda tahlil etishga imkon beradi. Bu jarayonda tilshunoslik psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va falsafa kabi fanlar bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi. Funksionalizm esa til birliklarini ularning

kommunikativ vazifasi va nutqiy kontekstdagi roliga ko‘ra o‘rganishni nazarda tutadi. Ekspansionizm yondashuvi tilshunoslik doirasini kengaytirib, uni inson bilimlari, kognitiv jarayonlar va madaniy omillar bilan bog‘laydi. Semantikasentrizm va tekstosentrizm esa tildagi ma’no va matnning yaxlit kommunikativ tuzilma sifatidagi o‘rnini chuqur tahlil etishga xizmat qiladi.

Muhokama. Antroposentrik paradigma doirasida **matn** tahlili alohida ahamiyatga ega. M.V.Pimenova fikricha, matnni uning yaratuvchisi va qabul qiluvchisidan ajratib o‘rganish mumkin emas [Pimenova 2011:13]. Matn inson tafakkurining dinamikasini, dunyoqarashini va ularni ifodalash usullarini aks ettiradi. Shu bois, **tekstosentrizm** antroposentrik paradigmaning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. Badiiy matnning shaxs bilan bevosita bog‘liqligi uning antroposentrikligini ko‘rsatadi. Muallif, asar xarakterlari va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir matnning kognitiv, kommunikativ va lingvomadaniy qatlamlarini shakllantiradi [2014:176-179]. N.S. Bolotnova ta’kidlaganidek, matn jamiyat tarixidagi madaniyat, an’ana, mentalitet va muallif shaxsiyatining ko‘zgusidir [2009:15-16]. Shu bois, tekstosentrizm tilshunoslikda matnni nafaqat lingvistik, balki kognitiv va madaniy fenomen sifatida o‘rganishni nazarda tutadi. Natijada, matn inson tafakkuri va madaniy ongining dinamik ko‘rinishini ifodalovchi universal kommunikativ model sifatida qaraladi.

Shu nuqtayi nazardan, antroposentrik paradigma lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika, lingvopragmatika, psixolingvistika va sotsiolingvistika kabi yo‘nalishlarni birlashtiruvchi asosiy metodologik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi. U til hodisalarini semantik, stilistik, pragmatik va kognitiv xususiyatlarining o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda tahlil qilish imkonini beradi [Ashurova, Galiyeva 2016; Safarov 2018; Normurodova 2020].Badiiy matn, ayniqsa, insonning ruhiy va madaniy dunyosini aks ettiradi, uning estetik va hissiy tajribasini namoyon etadi [Maslova 2008:87; Ashurova 2021:43-44]. Shu sababli, tilning antroposentrik paradigmasi **til – inson – madaniyat** tizimini yagona ilmiy kontekstda o‘rganishni ta’minlaydi. Antroposentrik paradigma zamonaviy tilshunoslikning integrativ mohiyatini ifodalaydi, chunki u tilni inson faoliyatining barcha ko‘rinishlari bilan uzviy bog‘liq holda talqin etadi. Bu paradigma asosida shakllangan lingvomadaniyatshunoslik, kognitiv lingvistika, lingvopragmatika, psixolingvistika va sotsiolingvistika yo‘nalishlari tilning turli qirralarini yagona inson omili orqali tahlil qilishga xizmat qiladi. Til hodisalarining semantik, stilistik, pragmatik va kognitiv jihatlarini birgalikda o‘rganish natijasida inson tafakkuri, hissiyati va madaniy tajribasi o‘rtasidagi murakkab munosabatlar ochib beriladi. Badiiy matn ana shu munosabatlarning eng yorqin ifodasi sifatida insonning ruhiy olamini, estetik didini va madaniy qadriyatlarini mujassamlashtiradi. Shunday qilib, antroposentrik paradigma til – inson – madaniyat uchligini yagona tizim sifatida o‘rganishga imkon beruvchi metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy tilshunoslik paradigmasining asosiy yo‘nalishi sifatida **antroposentrik paradigma** tilni inson faoliyati, tafakkuri va madaniyati bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga asoslanadi. Ushbu paradigma tilshunoslikning turli sohalarini birlashtirib, tilni faqat tizim sifatida emas, balki insoniyatning ruhiy va ijtimoiy tajribasining ifodasi sifatida talqin etadi. Badiiy matnning antroposentrik tahlili esa inson dunyoqarashi, hissiyoti va estetik tafakkurini chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1.Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно-смысловые пространство языка. – Москва: Изд.Флинта-Наука, 2010. – 224 с.

2. Кубрякова Е.С. Язык и знание: на пути получения знаний о языке: части речи с когнитивной точки зрения. Роль языка в познании мира. – Москва: Языки славянской культуры, 2004. – 560 с.

3. Кун Т. Структура научных революций. – Москва: ООО Издательство АСТ, 2003. –605 с.

4. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. – Москва: Издательский центр “Академия”, 2001. – 208 с.

5. Ашурова Д.У. Производное слово в свете коммуникативной теории языка. – Ташкент: Фан, 1991. – 100 с.

6. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. – Т: Мумтоз сўз, 2017. – 50 б.

7. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 92 б.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 398.22:299.4(575.1)

AFSONAVIY YADA TOSHI VA UNING KOSMOGONIK MIFOLOGIYADAGI O‘RNI XUSUSIDA

Jabborova Malohat Valijonovna, BuxDPI “O‘zbek tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi, BuxDU mustaqil izlanuvchisi

ON THE LEGENDARY YADA STONE AND ITS PLACE IN COSMOGONIC MYTHOLOGY

Jabborova Malohat Valijonovna, Lecturer, Department of Uzbek Language and Literature, BuxDPI, Independent researcher, BuxSU

https://orcid.org/0009-0005-5355-0318

О ЛЕГЕНДАРНОМ КАМНЕ ЯДА И ЕГО МЕСТО В КОСМОГОНИЧЕСКОЙ МИФОЛОГИИ

Джабборова Малохат Валиджоновна, преподаватель кафедры узбекского языка и литературы, БухГПИ Независимый исследователь, БухГУ

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “yada toshi” timsolining qadimgi turkiy kosmogonik mifologiyada tutgan o‘rni, shakllanish genezisi va semantik strukturasi tahlil qilinadi. Tadqiqotda “Devonu lug‘otit-turk”, “To‘rt ulus tarixi”, “Sharafnomayi shohiy” kabi manbalar hamda Alisher Navoiy asarlarida “yada toshi” haqidagi qarashlar ilmiy-nazariy asosda sharhlanadi. Ushbu timsol turkiy xalqlarning tabiat hodisalariga bo‘lgan qadimiy e’tiqodlarini, inson va koinot o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalovchi mifologik arxetip sifatida talqin qilinadi. Shuningdek, Navoiy ijodida “yada toshi” obrazining poetik-falsafiy talqini ochib berilib, uning mikrokosmos va makrokosmos o‘rtasidagi ruhiy aloqani ifodalovchi badiiy ramzga aylangani ko‘rsatiladi.*

Kalit so‘zlar: *yada toshi, kosmogoniya, turkiy mifologiya, shomonizm, mifologik arxetip, poetik timsol, zadin chuluu, Oyrot urug‘i.*

Abstract: *This article analyzes the place of the “yada stone” symbol in ancient Turkic cosmogonic mythology, the genesis of its formation and semantic structure. The study analyzes the views on the “yada stone” in sources such as “Devonu lug‘otit-turk”, “Tor‘rt ulus tarikhi”, “Sharafnomayi shahiy” and the works of Alisher Navoi on a scientific and theoretical basis. This symbol is interpreted as a mythological archetype expressing the ancient beliefs of the Turkic peoples in natural phenomena, the harmony between man and the universe. Also, the poetic and philosophical interpretation of the image of the “yada stone” in Navoi’s work is revealed, showing how it has become an artistic symbol expressing the spiritual connection between the microcosm and the macrocosm.*

Key words: *yada stone, cosmogony, Turkic mythology, shamanism, mythological archetype, poetic symbol, zadin chuluu, Oyrat clan.*

Аннотация: *В данной статье анализируется место символа «камень яда» в древнетюркской космогонической мифологии, генезис его формирования и семантическая структура. В исследовании на научно-теоретической основе анализируются воззрения на «камень яда» в таких источниках, как «Девону луготит-тюрк», «Торт улус тарихи», «Шарафномайи шахий» и произведениях Алишера Навои. Данный символ трактуется как мифологический архетип, выражающий древние верования тюркских народов в явления природы, гармонию человека и вселенной. Также раскрывается поэтико-философская интерпретация образа «камень яда» в*

творчестве Навои, показывающая, как он стал художественным символом, выражающим духовную связь микрокосма и макрокосма.

Ключевые слова: *камень яда, космогония, тюркская мифология, шаманизм, мифологический архетип, поэтический символ, задин чулуу, род ойратов.*

Kirish. Qadimgi turkiy yodnomalarda kosmogonik mif obrazlari ko‘p hollarda sinkretik tarzda kuzatiladi. Ko‘k tangri, yadachilar, yada toshi bilan bog‘liq mifologik arxetiplar shular jumlasidandir. “Yada toshi” turon xalqlarining qadimiy va muhim ramzlaridan biri bo‘lib, u haqidagi tasavvurlar, asosan, xalqning tabiat hodisalariga, suv, shamol, yomg‘ir, bo‘ron kabi kuchlarga bo‘lgan e’tiqodlari bilan bog‘liqdir. Bu tosh haqidagi afsonalar xalq ongida nafaqat sehrli qudrat belgisi, balki inson va koinot o‘rtasidagi bog‘liqlik timsoli sifatida ham shakllangan. O‘rta asr sharq manbalarida yada toshlaridan faqatgina turkiy xalqlar foydalanganligi haqida ma’lumotlar uchraydi.

Asosiy qism. Yada (jodu) XX asrgacha yomg‘ir chaqirishda ishlatiladigan tosh bo‘lib, buning uchun sigir, ot yoki to‘ng‘iz oshqozonidan olingan toshga afsun o‘qitilgan. Turkiy qavmlardan biri sanalgan Oyrot urug‘i bu toshni “zadin chuluu” deyishgan. U oqqush oshqozonidan yoki taymen (losos balig‘i turi) bosh qismidan olishgan va ular ham bu toshlardan yomg‘ir chaqirishda foydalanishgan. Xuddi shunday marosim oltoy, buryat, tuva va yoqut xalqlarida ham mavjud[1].

Mahmud Koshg‘ariy «Devonu lug‘otit-turk» kitobida Yada toshi va u bilan bog‘liq g‘ayrioddiy voqyeaga guvoh bo‘lganligini keltirib o‘tadi: “Qulbaq – turklardan bir taqvodor kishi ismi, u Balasog‘un tog‘larida yashar edi. Aytishlariga ko‘ra, u qo‘li bilan katta qora toshga tэŋri qulï qulbaq deb yozsa, oq xat yozilar, agar oq toshga yozsa, qora xat paydo bo‘lar edi. Uning izlari haligacha ham turibdi deydilar”[2].

Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi” asarida ham Yada toshi haqida fikrlar keltirilgan. Unda “… Yofas ibn Nuh alayhissalom Judi tog‘idan nuzul etilgach, Hazrati haq Jalli alo amri bilan Mashriq tomon jo‘nadi. O‘z padari buzrukvoridan ruxsat olish hangomida, undan duo o‘rgatishlarini so‘radi. To Hazrati Qodir alo alatloqdan yomg‘ir yog‘ishni so‘ragay. Nuh alayhissalom unga ismi a’zamni o‘rgatdi. U ismi a’zamni bir toshga naqsh qilib Yofas alayhissalomga topshirdi. Yofas alayhissalom ul ismi a’zam barakoti sirlarin o‘sha Hazrati taolloning buyuk nomi naqsh qilingan toshni har choq yomg‘ir yog‘ishini istaganlarida keltirar edilar. Bugungi kunda ham turklar orasida yomg‘ir yog‘diruvchi tosh mavjud. Ul toshni Jada toshi, Yada toshi deb atayladilar. U arabchasiga Hajarul-mutur deyiladi. Hozir unday toshlarni hayvon qornidan oladilar. Ba’zi hayvonlarning oshqozonidan, ba’zilarning yuragi, jigari va go‘shtidan, kindigi hamda po‘sti ostidan, xullasi jamiki a’zolaridan topishadi. Qaysi haqiqatligi no‘ma’lum[3]. Yada toshi va yadachilar haqidagi qiziqarli ma’lumotlar V.Radlov, F.Ko‘prulu, S.Malov, F.Sumer, B.Sarimsoqov, L.Gumilev, M.Jo‘rayev kabi turkolog olimlar tadqiqotlarida ham uchraydi.

L.N.Gumilev “Qadimgi turklar” asarida “Firdavsiyning “Shohnoma”sida Hirotda turqutlar (qabila noni-R.Q.) bilan fors sarkardasi Bahrom Cho‘bin askarlari jangi hikoya qilinadi. Firdavsiyning bayoni Tabariy, Saalibiy, Ba`lamiy, Mirxond, Sebeos asarlari, VII asrga oid Suriya anonimi, X asr fors anonimi kabi ko‘plab manbalardagi bayonlar bilan qiyoslab aniqlandiki, Firdavsiy ham, zikr etilgan mualliflar ham bir manbadan foydalanib, u manbada, voqea hatto bulardan ko‘ra mufassalroq bayon qilingan. Firdavsiyda boshqa mualliflar tashlab ketgan, biz uchun juda qimmatli bo‘lgan tafsilotlar bor. Firdavsiy turqut jodusi va jodugarlikni tasvir etadi. Bu hal qiluvchi jang arafasida Bahrom Cho‘binning tush ko‘rishidan boshlanadi. Tushida turklar arslonlarga aylanib, uning qo‘shini yengiladi. Ktezifon yo‘lini dushman egallaydi, uning o‘zi oyoqyalang shafqat so‘rab yurgan emish. Tushning xosiyatsizligiga qaramay,

[1]Эрдэнэболд Лхагвасурэн, Традиционные верования ойрат-монголов (конец XIX – начало XX в). – Б.19.

[2] Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk, uch jildlik, I jild. Toshkent. “Fan”, 1960. – Б.440.

[3] Мирзо Улуғбек, Тўрт улус тарихи. – Б.35.

Bahrom jang boshlaydi. Turklar forslarni cho‘chitish uchun jodu yo‘lini tutadilar. Jodugarlar osmonga olov purkab, shamol va qora bulut chorlaydilar, qora bulutdan forslar ustiga o‘q yog‘diriladi. Shunda Bahrom baqirib, buning hammasi aldov, avrash ekanligini, hech qanday o‘q yo‘qligini aytadi. Jodu ta’sir kuchini yo‘qotadi. Forslar g‘alaba qiladi, jangdan so‘ng jodugar asir olinadi. Bahromga tushni u o‘zi yuborganligini tan oladi. Agar hikoyaning turk zaminiga ega ekanligi etnografik ma`lumotlar bilan tasdiqlanmasa edi, Firdavsiydagi bu parchani fors rivoyatlaridan biri deb qo‘ya qolardik. XIX asrdan to shugunga qadar bu mavzu haqida yuzdan ortiq maqolalar e’lon qilingan. Keyinchalik Yada toshi bilan bog‘liq ma’lumotlar xalq afsona va rivoyatlariga singishgan holda bizgacha yetib kelganligi uning turkiy adabiyotda muhim ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi. Yuebani haqidagi hikoyalarda sovuqni va yomg‘irni chaqira oladigan jodugarlar ustida ham gap ketadi. Jujanlar bilan bir urush kezida yueban jodugarlari qorli bo‘ron chaqirib, uni jujanlarga yo‘naltirishadi. Oqibatda, ular orasidan katta qismini sovuq urib, jangdan voz kechib orqaga chekinishga majbur bo‘ladilar. Xuddi shunga o‘xshash rivoyatni Grigoriy Turskiy ham hikoya qiladi. Avarlar bilan franklar o‘rtasida jang bo‘lganida, avar jodugarlari chaqmoqli bo‘ron chorlaydilar, yashin franklar qarorgohiga tushadi, natijada franklar yengiladi. Nihoyat, bunday jodugarlik qobiliyati naymanlarda ham bo‘lgan deyiladi[4]. Umuman olganda, yada toshi timsoli kosmogonik mifologiya poetikasida olamlar modelini aks etish jarayonida ko‘zga tashlanadi. Yada toshi fenomeni turkiy xalqlar kosmogoniyasining eng qadimiy qatlamlariga mansub bo‘lib, inson va tabiat, ruh va moddiyat o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalovchi mifologik arxetip sifatida namoyon bo‘ladi. Bu ramz dastlab shomonistik marosimlar va afsonaviy e’tiqodlarda shakllangan bo‘lsa-da, keyinchalik xalq ongida tabiat hodisalarini boshqaruvchi, ilohiy qudratni mujassamlashtiruvchi timsol sifatida mustahkam o‘rnashgan.

Alisher Navoiyning yada toshi haqidagi qarashlari ham o‘ziga xos. Shoir ijodida yada toshi “yada”, “jada”, “yado” tarzida qo‘llanilgan. Navoi asarlarida yada toshi haqida ma’lumot borligini birinchi bo‘lib Abduqodir Inon “Tarixda va bugun shomonizm” asarining “Yada (jada, yat) Yoshi va yomg‘ir tilsimlari” bo‘limida keltirib o‘tadi[5]. “Favoyid ul-kibar” devonining 31- fardida yada toshi bilan bog‘liq misralar uchraydi.

Qotiq ko‘nlungdin oqdi xalq yoshi,
Kim yamg‘ur boisidir jada toshi[6].

Misra mazmuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, ya’ni bunda shohning ko‘ngli qattiqligidan xuddi jada toshi yog‘dirgan qalin yomg‘ir kabi xalqning ko‘z yoshi oqdi, degan ma’no anglashiladi. Fardda Navoiy yada toshining yomg‘ir yog‘dirish xususiyatiga ega ekanligiga urg‘u beradi.

Yana bir misol, “Badoye ul-vasat” devonining 595-g‘azalida ham keltiriladi:

Sellarkim to‘kar ko‘zim Yoshi,
Soyning toshidir yado toshi[7].

Tarixdan ma’lumki, yadachilar yada amalini bajarish uchun yada toshiga qon surtishgan va uni suvga solishgan, quyoshda quritishgan. Mazkur baytda ham yada toshi suvda turibdi. Bundan ko‘zimning Yoshi sel kelganda soylar to‘lib toshib oqqani kabi to‘kiladi, degan mazmun chiqadi.

Yuqoridagi baytlardan ma’lum bo‘ladiki, yada toshi haqidagi afsonalar va yadachilarning marosim amallaridan Alisher Navoiy to‘liq xabardor bo‘lgan.

Bundan tashqari, bir qancha tarixchilar asarida ham yada toshi bilan bog‘liq ma’lumotlar keltiriladi. Xususan, Hofiz Tanish Buxoriyning “Sharafnomayi shohiy” asarida “Tarix ahli Movarounnahr ajoyibotlaridan quyidagilarni (ham) yozganlar: u yerda bir tog‘da g‘or bor, g‘ordan bir buloq qaynab oqib turadi. (Buloq suvi) qishda shu qadar issiq bo‘ladiki, unga tushgan kishi haroratiga bardosh berolmaydi. Yozda u shu qadar sovuq

[4] L.N.Gumilev. Qadimgi turklar.-T.: Fan. 2007.–B. 93-95.

[5] Жўрақпўзиев Н. Қадимги туркий ёзма ёдгорликлар ва туркий фолклорда космогоник мифология. Филол. фанлари номз... дисс..– Тошкент, 2018. – Б.75.

[6] Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘rtinchi jild. Favoyid ul-kibar. G‘afur G‘ulom nashriyoti.– T.:2011.–B.745.

[7] Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Uchinchi jild. Badoye ul-vasat. G‘afur G‘ulom nashriyoti. –T.:2011.–B.600.

bo‘ladiki, (hatto) muzlab qoladi. Turkiston bilan Movarounnahr o‘rtasidagi tog‘da bir xil qora tosh bor. (U) ko‘mirga o‘xshab yonadi. Uni eshaklarga ortib shaharlarga keltiradilar. Xalq uni sotib oladi. Agar yondirilganda, kuli oq bo‘ladi. Uni kiyim va sallani oqartirishda ishqor o‘rnida ishlatadilar. (U tog‘da) yana bir xil tosh ham borki, uni suvga tashlaganda shamol, bulut, chaqmoq va yog‘in paydo bo‘ladi. Hikmat ahli (buni) u toshning xossalaridan, deb biladilar [8] ” degan fikrlar keltiriladi.

O‘rta asr manbalari – Mahmud Koshg‘ariy, Mirzo Ulug‘bek, Hofiz Tanish Buxoriy kabi tarixchilarning asarlarida bu toshning tabiat kuchlariga ta’sir etish qobiliyati haqida yozilganligi, uning kosmogonik xarakterini ilmiy jihatdan isbotlaydi. Shu jarayonda “yada toshi” obrazining asosida olamning energetik birligi haqidagi qadimiy turkiy tasavvurlar yotadi.

Alisher Navoiy ijodida esa bu timsol badiiy-falsafiy ramz sifatida yangi ma’no kasb etadi. Shoir “yada”, “jada”, “yado” so‘z shakllarini ishlatgan holda, insoniy his-tuyg‘ularni tabiat unsurlari bilan uyg‘unlashtirib, mikrokosmos (inson qalbi) va makrokosmos (koinot) o‘rtasidagi uyg‘unlikni poetik shaklda ifodalaydi. Navoiy nazarida “yada toshi” nafaqat sehrli predmet, balki olamni uyg‘unlikda ushlab turuvchi kosmik kuch timsolidir.

Demak, “yada toshi” obrazi Navoiy ijodida kosmogonik olam modelining badiiy ko‘rinishiga aylangan bo‘lib, u orqali shoir inson, tabiat va ilohiy qudrat o‘rtasidagi bog‘liqlikni poetik tarzda ochib beradi. Bu jihatdan Navoiy tafakkuri xalq mifologiyasi va Sharq falsafasining metafizik uyg‘unlik konsepsiyasini ifoda etadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, yada toshi obrazi qadimgi turkiy kosmogonik tafakkurning muhim unsurlaridan biri bo‘lib, u inson va koinot o‘rtasidagi uyg‘unlikni ifodalovchi mifologik arxetip sifatida shakllangan. Ushbu timsolning mazmunida tabiat hodisalarini – shamol, yomg‘ir, bo‘ron va momaqaldiroqni boshqaruvchi sehrli kuch haqidagi e’tiqodlar mujassamdir. Bu esa qadimgi turkiy xalqlarning kosmogoniyasida olamning energetik yaxlitligi va insonning tabiat bilan ruhiy aloqasi haqidagi qadimiy tasavvurlarni aks ettiradi. Mahmud Koshg‘ariy, Mirzo Ulug‘bek, Hofiz Tanish Buxoriy kabi manbalarda yada toshi haqida berilgan ma’lumotlar, shuningdek, L.N. Gumilev, F. Ko‘prulu, M. Jo‘rayev singari olimlar tadqiqotlari bu timsolning kosmogonik mohiyatini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ushbu manbalarda yada toshi orqali tabiat kuchlarini boshqarish, olamdagi muvozanatni saqlash, ruhiy va moddiy olam o‘rtasida vositachilik qilish g‘oyasi ilgari suriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Эрдэнэболд Лхагвасурэн, Традиционные верования ойрат-монголов (конец XIX – начало XX в). – Б.19.

2. Mahmud Koshg‘ariy. Devonu lug‘otit turk. Uch jildlik, I jild. Toshkent. “Fan”, 1960. – Б.440.

3. Мирзо Улуғбек, Тўрт улус тарихи. Чўлпон нашриёти, Тошкент: 1994. – Б.35.

4. L.N.Gumilev. Qadimgi turklar. -T.: Fan. 2007.– B. 93-95.

5. Жўрақпўзиев Н. Қадимги туркий ёзма ёдгорликлар ва туркий фолклорда космогоник мифология. Филол. фанлари номз... дисс.. – Тошкент, 2018. – Б.75.

6. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. To‘rtinchi jild. Favoyid ul-kibar. G‘afur G‘ulom nashriyoti.–T.: 2011.–B.745.

7. Alisher Navoiy. To‘la asarlar to‘plami. O‘n jildlik. Uchinchi jild. Badoye ul-vasat. G‘afur G‘ulom nashriyoti.–T.: 2011.–B. 600.

[8] Hofiz Tanish ibn Mir Muhammad Buxoriy. Sharafnomayi shohiy. 1-jild. T.: Fan, 1966. –B. 271-272.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 81'322:34(520+575.1)

LINGUISTIC INVESTIGATIONS OF ENGLISH LEGAL TERMINOLOGY BY JAPANESE SCHOLARS: A CASE STUDY OF JAPAN-UZBEKISTAN COLLABORATION

Turaeva Umida Shukhratovna,
Alfraganus University Doctor of philosophy in philology (PhD), Associate Professor

https://orcid.org/0009-0006-7044-0978

e-mail: turaevaumida2@gmail.com

INGLIZ YURIDIK TERMINLARINI YAPON OLIMLARI TOMONIDAN LINGVISTIK TAHLIL QILISH: YAPONIYA–O'ZBEKISTON HAMKORLIGI TAJRIBASI MISOLIDA

Turayeva Umida Shuxratovna,
Alfraganus Universiteti Filologiya fanlari bo`yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ЮРИДИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ ЯПОНСКИМИ ИССЛЕДОВАТЕЛЯМИ НА ПРИМЕРЕ СОТРУДНИЧЕСТВА ЯПОНИИ И УЗБЕКИСТАНА

Тураева Умида Шухратовна,
университет Альфраганус, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Abstract: *This article explores the linguistic investigation of English legal terminology conducted by Japanese scholars, with particular attention to the activities of the Japan Association for Language and Law (JALL) and its academic cooperation with Uzbekistan. The study analyses how Japanese researchers integrate linguistic, pragmatic, and forensic approaches in the study of legal English and how their experience contributes to the development of multilingual legal communication and interpreter training.*

Key words: *Legal linguistics, legal terminology, Legal English, forensic linguistics, Japan Association for Language and Law (JALL).*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yapon olimlari tomonidan ingliz yuridik terminologiyasi bo'yicha olib borilgan lingvistik tadqiqotlar, xususan Japan Association for Language and Law (JALL) tashkiloti faoliyati va uning O'zbekiston bilan ilmiy hamkorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda yapon tilshunoslarining yuridik ingliz tili sohasida lingvistik, pragmatik va sud tilshunosligi (forensik lingvistika) yondashuvlarini qo'llash tajribasi, hamda bu tajribaning ko'p tilli huquqiy muloqot va tarjimonlar tayyorlashdagi ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *yuridik lingvistika, yuridik terminologiya, Legal English, forensik lingvistika, JALL.*

Аннотация: *В статье рассматриваются лингвистические исследования английской юридической терминологии, проводимые японскими учёными, особенно в рамках деятельности Японской ассоциации языка и права (Japan Association for Language and Law – JALL) и её сотрудничества с Узбекистаном. Анализируется, каким образом японские исследователи применяют лингвистические, прагматические и форензические методы при изучении юридического английского языка, а также как их опыт способствует развитию многоязычного правового общения и подготовке судебных переводчиков.*

Ключевые слова: *юридическая лингвистика, юридическая терминология, юридический английский, судебная лингвистика, JALL.*

INTRODUCTION

In the contemporary era of globalization, law is no longer confined within national borders. Legal practitioners, scholars, and policymakers increasingly operate in an internationalized environment where English has become the dominant medium of legal communication. This development has made the study of *legal terminology*–and particularly *Legal English*–a matter of both theoretical and practical importance. Legal terminology represents not only a set of technical words but also the conceptual framework through which legal systems express rights, duties, and institutional relationships. Therefore, understanding the linguistic structure, semantic nuances, and cross-cultural equivalence of legal terms is essential for effective international dialogue, legal translation, and comparative research.

Up to the present, most linguistic studies of English legal terminology in Uzbekistan and the wider post-Soviet academic environment have relied primarily on Russian and English theoretical frameworks. The contributions of scholars such as V. K.Bhatia, M.Coulthard, P.Tiersma, and L.Solan from English-speaking forensic linguistics, as well as Russian theorists like N.Baranov and E.Kubryakova, have shaped the dominant understanding of legal discourse, terminology formation, and translation equivalence.

The field of *legal linguistics* has expanded considerably in recent decades, integrating methods from linguistics, translation studies, and comparative law. Within this field, the analysis of English legal terminology occupies a central role, as it serves as a bridge between different legal traditions–common law and civil law–and between Western and non-Western legal systems. Japanese scholars, in particular, have made significant contributions to this interdisciplinary area.

Japan's academic community, represented by institutions such as the *Japan Association for Language and Law (JALL)*, has been at the forefront of linguistic studies of law. Recent international cooperation, including JALL's collaboration with universities and legal institutions in Uzbekistan, demonstrates the growing recognition that comparative linguistic research in law is not merely an academic pursuit but a practical necessity for legal harmonization and cross-cultural understanding.

METHODS AND RESULTS

This study employed a qualitative descriptive method grounded in comparative and linguistic analysis. The aim was to examine how Japanese scholars, particularly members of the *Japan Association for Language and Law (JALL)*, have investigated English legal terminology and how these scholarly approaches are being extended through collaborative activities with Uzbekistan.

Linguistic–semantic analysis was used to identify how specific English legal terms–such as confession, consent, liability, jurisdiction, and apology–are conceptualized or re-interpreted in Japanese legal scholarship. Comparative discourse analysis evaluated the pragmatic and cultural shifts that occur when English legal expressions are translated into Japanese or Uzbek contexts.

DISCUSSION

The present study has revealed that the linguistic investigation of English legal terminology in Japan is no longer confined to theoretical debates on translation equivalence but has evolved into an applied, interdisciplinary field bridging linguistics, legal practice, and pedagogy. Japanese scholars–particularly those affiliated with the Japan Association for Language and Law (JALL) – have established a robust methodological framework that integrates corpus linguistics, pragmatics, interpreting studies, and comparative law. Their focus on the *semantic precision*, *functional equivalence*, and *pragmatic adequacy* of English legal terms has contributed significantly to improving bilingual legal communication and interpreter-mediated justice.

The discussions with Uzbek partners, as observed in JALL's 2024–2025 collaborative activities, demonstrated that linguistic research can directly inform legal reform and professional training. The May 2025 international seminar in Termez, for example, highlighted how the theoretical concepts developed by Japanese scholars could be applied in real educational contexts. Presentations by Professor Makiko Mizuno and Andrew Right Meehan revealed the practical challenges of conveying not only lexical meaning but also *tone, register, and speaker intention* when translating or interpreting legal discourse between English and Japanese. The participation of Uzbek academics in this event indicated that similar issues of terminological accuracy and discursive fidelity

are equally relevant to the Uzbek legal environment, where English legal terminology is gaining prominence through international education and law reform.

Prof. Mizuno's research covers court interpreting/translator mediated communication, legal terminology equivalence, courtroom discourse in Japan. Makiko Mizuno's work shows how interpreter-mediated criminal proceedings can reshape legal meaning and lawyers' strategies–an issue directly impacting term equivalence. Her article in *Comparative Legilinguistics* synthesizes Japan's criminal-case interpreting practice and future needs; KAKEN project pages document a study on lawyers' language and interpreter-induced alterations in court.

Richard Powell's profile highlights forensic linguistics, Legal English, and comparative legal culture, linking language-law interface issues to pedagogy and policy. His researcher pages emphasize socio-/educational-linguistics for law and comparative frameworks that matter when calibrating English legal terms for non-Anglophone settings[1].

Mami Hiraike Okawara's articles provide linguistic analyses of Japanese trademark cases and a broader overview of forensic linguistics in Japan, including plain-language implications. This has direct spillover to English term clarity and cross-border brand disputes.

A significant dimension in the Japanese scholarly investment in legal linguistics is the international outreach and collaboration featuring JALL. In particular, the joint engagement with Uzbek legal-educational institutions provides a concrete example of how Japanese expertise in the study of English legal terminology is being extended across jurisdictions. In April 2024 the Law Enforcement Academy of the Republic of Uzb ekistan in Tashkent hosted a delegation from JALL. The meeting served to exchange views on legal linguistics, legal terminology, and its application in practice and legislation[2].

A complementary strand of Japan–Uzbekistan cooperation emerged in Termez. In 2024, Termiz university of economics and service reported multiple engagements with Japanese counterparts that are directly relevant to capacity-building for language and law. In continuation of Japan's expanding role in the linguistic investigation of legal terminology and its practical application, a significant academic event took place on 31 May 2025 at Termiz University of economics and service. The university hosted an international online seminar titled *"Understanding the Role of Court Interpreters through Experience in Different Translation Fields"*. The seminar concluded with closing remarks from Richard Powell, Secretary-General of JALL and Professor at Nihon University, who highlighted the importance of continued collaboration with Uzbekistan's academic and legal institutions. Powell underlined that such partnerships can foster *shared standards* in Legal English terminology, contribute to professional training for court interpreters, and encourage comparative linguistic research across civil-law and common-law traditions.

CONCLUSION

Japanese scholars have made meaningful contributions to legal linguistics and terminology research; the focus on English legal terminology is growing due to globalization of law, translation, cross-border legal education. The investigation of English legal terminology in Japan increasingly draws upon the theoretical and methodological foundations established by English-speaking forensic linguists. Forensic linguistics, as a discipline, examines how language functions within legal and judicial contexts–covering authorship analysis, courtroom discourse, evidential communication, and the linguistic interpretation of legal meaning.

LIST OF REFERENCES

1. Gérard-René de Groot. Translation in law. Edward Elgar Publishing 2000. 239 p. www.e-elgar.com
2. Cornelis Sandrini. "Translation and Normative Texts"
3. Turaeva U. Comparative study of Uzbek and English legal terms legal linguistics: historical foundations, basic concepts and aspects //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.6 Philological sciences.

[1] ukm.my+2researcher-web.nihon-u.ac.jp+2

[2] https://proacademy.uz/en/news/view?alias =2052&utm_source =chatgpt.com

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 811.512.133

SINONIM FRAZEMALARNING BADIIY ADABIYOTDAGI USLUBIY XUSUSIYATLARI

Xaytbayev Oybek Allambergenovich, assistent o'qituvchi
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИНОНИМИЧНЫХ ФРАЗ В ЛИТЕРАТУРЕ

Хайтбаев Ойбек, ассистент преподаватель
Нукусский государственный педагогический института имени Ажинияза

STYLISH FEATURES OF SYNONYMOUS PHRASES IN LITERATURE

Khaytbayev Oybek Allambergenovich – assistant teacher
Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz

https://orcid.org/0009-0000-0875-1552
e-mail: xaytbayev_oybek@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada o'zbek tilidagi sinonim frazemalarning badiiy adabiyotdagi uslubiy xususiyatlari tahlil qilingan. Yozuvchilar va shoirlar tomonidan qahramonlarni tasvirlashda ularning obrazliligini, ta'sirchanligini oshirishda ifoda vositalaridan mohirona foydalanishi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Frazema, frazeologizm, ekspressiv vositasi, konstruksiya, kontekst, sinonim frazema.*

Аннотация: *В статье анализируются стилистические особенности синонимичных фразеологических единиц в узбекской литературе, показывается умелое использование писателями и поэтами средств выразительности при описании персонажей для усиления их образности и выразительности.*

Ключевые слова: *Фразема, фразеологизм, выразительные средства, конструкция, контекст, синонимичная фразема.*

Abstract: *The article analyzes the stylistic features of synonymous phraseological units in Uzbek literature. It shows the skillful use of expressive means by writers and poets in describing characters to enhance their imagery and expressiveness.*

Key words: *Phraseme, phraseologism, expressive means, construction, context, synonymous phraseme.*

Kirish (Introduction). Frazemalarning asosiy vazifasi kommunikatsiya a'zolarining aytilayotgan fikrga har xil bahosini, munosabatini ifodalash bo'lib hisoblanadi. Bu esa frazeologik ma'noning asosiy komponentidir. Frazemalar juda o'tkir tasvirlash vositasi bo'lganligi bois, uni tilning gavhariga o'xshatadilar. Hech mubolag'asiz aytish mumkinki, har qanday tilning boyligi – bu uning frazeologizmlarining boyligi. Ko'pincha bunday birimalar, iboralar mazmunida tarixiy davr – ota-bobolarimiz yashagan zamondagi hayot, real voqealar, ularning turmush tarzi, kasb-kori haqida faktlar aks etadi. Shuning uchun hech bir yozuvchi o'zining asarlarda mana shunday tilimizning boyliklaridan, nutqimizga ko'rk bag'ishlaydigan ifoda vositalaridan foydalanmay qolmaydi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mahoratli yozuvchilar o'zining asarlarida ota-bobolarimiz yashagan zamondagi hayot, real voqealar, ularning turmush tarzi, kasb-kori shu bilan birga qahramonlarni tasvirlashda ularning obrazliligini, ta'sirchanligini oshirishda ifoda vositalaridan mohirona foydalanganligi misollar asosida keltirilgan.

Tahlil va natijalar: **(Analysis and results).** Frazemalar – bu yorqin, obrazli ifodalar. Shuning

uchun u tilning ekspressiv vositasi sifatida yozuvchilar va shoirlar tomonidan tayyor obrazli ifoda sifatida qahramonlarni tasvirlashda unumli foydalaniladi. Mahoratli yozuvchilar hamma vaqt ham tayyor iboralardan foydalanmasdan, ba'zi hollarda ularga ma'lum o'zgarishlar ham kiritadilarki, bu ularning obrazliligini, ta'sirchanligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar, jumladan, rus tilshunoslari, shuningdek, turkiy tilshunoslar ham bu haqda o'z fikrlarini bildirishgan. Qirg'iz tilshunosi N.Osmonova frazemalarning quyidagi stilistik xususiyatlarini ta'kidlaydi:

"Yonma-yon (parallel) qo'llanilgan frazemalarning badiiylik yaratish imkoniyatlari. Yonma-yon qo'llanish ko'pincha sinonimlashgan frazemalarni qator, yonma-yon qo'llash orqali amalga oshadi. Ikki yoki undan ortiq ma'nolari bir-biriga yaqin, yoki biri ikkinchisini to'liq almashtirishga imkon beradigan frazemalarni qo'llangani uchun bayon qilinayotgan holat qahramonlarning har xil fikrlari, ichki his-tuyg'usi ham tasvirlanayotgan ko'rinish estetik zavq beradi.

Alohida turganda leksik-semantik jihatdan hech qanday yaqinligi bo'lmagan frazeologizmlarning kontekst vositasida sinonimlashib ketganini ko'rishga bo'ladi. Ko'pchilik holatda bunday frazeologizmlar uyushiq bo'lak holida kelib, bir xil grammatik shakllanadi.

Badiiy asarda frazeologizmlarning yonma-yon kelishi bir jumlaning ichida emas, kontekst (mikrokontekstning) ichida ham amalga oshadi.

O'rtasiga so'zlar qo'shilib qo'llanilgan frazeologizmlarning uyushib kelishi.

Tushuntiruvchilari (izohlovchilari) bilan yonma-yon qo'llanilgan frazeologizmlar poetikasi.

Muallifga xos individual frazeologizmlar" [1; 16-19].

Tilshunoslar frazeologik birliklarning struktur-semantik o'zgarishlarining kiritma va ayirma kabi ikki tipini ko'rsatadilar [2; 87].

Tilshunos B.Boltayeva ham kiritmaning so'z va so'z birikmasi kiritilishi kabi ikki ko'rinishini e'tirof etadi. Kiritmalar birikmaning shaklini o'zgartirish asosida yangi strukturali va yangicha ma'no qirralariga ega bo'lgan frazeologik birliklarni shakllantirishga xizmat qiladi.

"Umumtildagi *boshini bukmoq* iborasining tarkibiga "yerga" so'zini qo'shish bilan *boshini yerga bukmoq; betini sidirib* iborasining tarkibiga "terisini" so'zini kiritish bilan yangi strukturali *betining terisini sidirib; burnidan chiqmoq* iborasi tarkibiga "buloq bo'lib" so'z shaklni qo'shish bilan *burnidan buloq bo'lib chiqmoq* frazeologik birliklari yuzaga keladi.

Qovog'i osildi frazeologik birligi "o'zining ranjiganini, xafa bo'lganini qovoqlarini quyiroqqa tushirib, boshini egib bildirmoq"(O'TFL, 349) ma'nosini anglatadi. *Shundan so'ng agar otasi istasa, uni mudom qo'rquv changalida tutib turishga qodirligini qayta idrok etarkan, nochorligi alam qilib, qovog'i to'rvaday_osilib ketdi* (N.Norqobilov. "Qoyalar ham yig'laydi"). To'rvaning "kichkina qopchiq, xalta" ma'nolarini anglatishini [O'TIL.4, 244] inobatga olsak, "to'rvaday" kiritmani keltirish bilan qovoqning nihoyatda osilganini anglash mumkin. Kiritilgan "to'rvaday" so'zi oddiy kiritmaga misol bo'ladi, chunki birikma tarkibiga turli so'z turkumlariga oid leksemalarning kiritilishi oddiy kiritma deb e'tirof etiladi. Murakkab kiritmada esa frazeologik birlik tarkibiga so'z birikmalari, ikki yoki undan ortiq komponentli o'xshatishli konstruksiyalar kiritiladi: *Yolg'oningni borib enangga ayt! – do'rilladi tabiatan qo'polroq, ammo qalbi yomg'irdan so'nggi tiniq osmondek musaffo Bakir* (U.Hamdam. "Sabo va Samandar"). Bunda umumtildagi *qalbi toza* [O'TFL,160] iborasining tarkibiga "yomg'irdan so'nggi tiniq osmondek" murakkab kiritma kiritilgan. Bunda birikmaning ma'nosi o'zgarmaydi, balki shakli o'zgaradi va yangi strukturali birliklar shakllanadi.

Darhaqiqat, kiritmalar frazeologik birliklarning: a) ma'nosini kuchaytiradi; b) ma'nosini konkretlashtiradi; v) stilistik vazifani bajaradi; g) tashqi shaklini o'zgartiradi" [3; 14-15].

S.Ahmad yuqorida keltirilgan "boshini egmoq" frazemasining tarkibiga "yurt oldida" komponentini qo'shishi bilan ma'noning yanada kuchaytirilishiga erishgan: *Butun qishloqda birovga gapini bermagan, o'tirgan o'rnini sotib oladigan, do'ppisi tushib ketsa pul berib oldiradigan mag'rur yigitning* ***boshi yurt oldida egilib qoldi*** (S.Ahmad).

Umumtilda "o'z yog'iga o'zi qovurilmoq" frazemasi mavjud bo'lib, u izohli lug'atda shunday izohlangan:

O'z yog'(i)ga o'z(i) qovurilmoq *kim?* ruhan azoblanmoq, ezilmoq (fikr-o'yini boshqalarga

aytmay). Varianti: **o‘z yog‘(i)da o‘z(i) qovurilmoq.**

“Bo‘ta – xotinboz. Bo‘ta – xotin-qizlar ozodligining dushmani. Bo‘ta Salomatni bir kechada yo‘q qilib yuborgan...” Bu gaplar uchlik komissiya a’zosi Nizomiddinov yig‘gan materiallar. Bo‘taboy ko‘chaga chiqolmay qoldi... Uch kundirki, Bo‘taboy ***o‘z yog‘iga o‘zi qovurilib*** *uyda o‘tiribdi.* (S.Ahmad. “Hukm”). [O‘TFL, 324].

S.Ahmad mazkur frazemadan mohirona foydalanadi: *Zirillama yo‘lida dili vayron bo‘lgan bir yigit* ***o‘z yog‘iga o‘zi qovurilib borardi*** (S.Ahmad). Shuningdek, u mazkur frazemaga sinonim bo‘lgan yangi frazema yaratadi: *O‘shanda egningda qora ko‘ylak edi. Ha, motam ko‘ylagi edi.* ***O‘z o‘tingga o‘zing yonib turgan*** *payting edi. O‘sha gapim uchun haligacha o‘zimni kechira olmayman.*

Bu ikki frazema ikki har xil obrazga asoslangani uchun ikki mustaqil frazema hisoblanadi.

Umumtilda “xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik, bezovta bo‘lavermoq” semalariga ega bo‘lgan ***paytava(si)ga qurt tushmoq*** frazemasi mavjud. O‘.Hoshimov mazkur frazemaning transformatsiya asosida bir komponentini o‘zgartiradi va ifodaning ta’sirchanligini oshirish uchun san’atkorona qo‘llanadi: *Valijon tushmagur shu gapni eshitdi-yu,* ***patagiga qurt tushib qoldi*** (O‘. Hoshimov).

S.Ahmad mazkur frazemani transformatsiya asosida bir komponentini almashtirib, yangicha uslubda ishlatadi: *Nemisning* ***kavushiga qurt tushib,*** *chiqib kelgan tarafga qarab taraqaylab qochyapti* (S.Ahmad).

Frazemaning prototipi asosida qaraydigan bo‘lsak, oyoqqa dastlab paytava o‘raladi. Paytavada qurt bo‘lsa, u g‘imirlab, oyoqqa tezda seziladi. Patak esa oyoq kiyimning ichki tomon pastida bo‘lganligi sababli, uning g‘imirlashi paytavadan ham o‘tib oyoqqa sezilishi kerak. S.Ahmad ishlatgan frazemada esa u patak va paytava orqali o‘tib, oyoqqa sezilishi zarur. Bu bilan yozuvchi frazemaning ma’nosini kuchaytirishga erishgan.

Birikmaning bo‘lak shaklida ishlatilib, umumtildagi birikma obrazining anglashilishiga allyuziya deyiladi [4; 120]. Darhaqiqat, allyuziya (lot. Allusion – ishora, hazil) – barchaga tanish deb hisoblangan real siyosiy, maishiy, tarixiy yoki adabiy faktga ishora qilishga asoslangan stilistik usuldir [5; 216]. I.R.Galperinning fikricha, allyuziya tarixiy, adabiy, afsonaviy tayyor manbadan parcha keltirishdir. [6] Frazeologik birlikning bo‘lak shaklida qo‘llanishi badiiy tasviriylikni kuchaytiradi, matnning emotsional ekspressiv imkoniyatini oshiradi.

–Tolibdagi pulingni bobolarmas, prokuror undirib beradi, tentak!

–Prkuroring lag‘monni undirib beradi, g‘uldiradi Yoqub yuzini chetga burib (N.Abbosxon. “Sho‘rqishloq”). Matnda umumtildagi *qulog‘iga lag‘mon osmoq* frazeologik birligining “lag‘mon” komponenti bo‘lak shaklida ishlatilib frazeologik birlikning obrazini anglatadi.

Frazeologik birliklarning allyuziyasi uning tuzilishini o‘zgartiruvchi usullardan biridir. Albatta, transformatsiyalashgan frazeologik birlikning umumtildagi to‘liq variantini anglash uchun o‘quvchining shu frazeologik birliklarning tildagi an’anaviy shaklini yaxshi bilmog‘i lozim bo‘ladi [7; 16].

Umumtilda “kayfini surmoq” frazemasi mavjud. U lug‘atda shunday izohlangan:

Kayfini surmoq *kim? nimaning?* yaxshi ta’siridan vujudi yayrab rohatlanmoq

O‘shanda dehqon ko‘klam, yoz bo‘yi qilgan mehntining ***kayfini surib,*** *qimtinib, bir oz junjikib uxlab qoladi*. (S.Abdulla. “Iqbol”). [O‘TFL, 125].

Yozuvchi mavjud frazemaning tuzilishini transformatsiya qiladi, unga bir komponent qo‘shadi va yangi frazema yaratadi: *Saida Kozimbekdan otasining sog‘lig‘ini so‘ragan edi, Kozimbek miyig‘ida kulib: –* ***Gaplarning kayfini surib yotibdi****, – dedi* (A.Qahhor).

Umumtildagi ***ta’bi xira*** frazemasi lug‘atda quyidagicha izohlangan:

Ta’b(i) xira *kimning?* kayfiyati yomon, xafa Varianti: **ta’b(i) namozshom, tabiat(i) xira.** Sinonimi: **kayf(i) buzuq** *kimning?* **ta’b(i) tirriq** *kimning?*

Tojiboy g‘ayirligi kelib dedi: “Ish bitmadimi, ***ta’bingiz xira*** *ko‘rinadi?”– “Ha, – dedi Xolmurod sekingina, sizdek odam yordam bermasa, axir...”* (P.Tursun. “O‘qituvchi”). [O‘TFL, 250-251].

A.Qahhor umumtildagi “ta’bi xira” frazemasining komponentini o‘zgartirib, “ta’bi kir” frazemasini hosil qiladi. Mazkur frazemaning denotativ semasidagi belgi “xira”ga qaraganda “kir”da kuchliroq ifodalangan. Shuningdek,

umumtildagi “ko‘ngliga g‘ashlik tushdi” frazemasini “ko‘nglim g‘ash” tarzida transformatsiya qiladi va kontekstual sinonim bo‘lgan ikki frazemani yonma-yon qo‘llash orqali tasvirning yana kuchliroq bo‘lishiga, qahramon xarakterini yanada oydinroq tasvirlashga erishadi: *Bir kuni besh-oltita ochiq xotin orasiga kirib qolib, ne vaqtgacha **ko‘nglim g‘ash, ta’bim kir bo‘lib yurdim*** (A.Qahhor).

Umumtilda “ko‘ziga qon to‘lmoq” frazemasi mavjud bo‘lib, uning semantik taribida “kuchli g‘azablanganidan ko‘zlari qizarib, alamini, o‘chini olish holatiga yetmoq” semalari mavjud [O‘TFL, 137]. Shuningdek, “ko‘zini kosa qilmoq” frazemasi mavjud bo‘lib, uning semantik komponentida “g‘azabdan ko‘zlarini katta ochib, chaqchaytirmoq” semalari mavjud [O‘TFL, 139]. O‘.Hoshimov mazkur ikki frazemaning komponentlarini transformatsiya qilish orqali birmuncha o‘zgartiradi va ularni ketma-ket qo‘llash orqali tasvirning yanada aniq, ifodaning ta’sirchan bo‘lishiga erishadi: *Jumanovning **qon quyilgan ko‘zlari kosasidan chiqib** hayqirdi*. (O‘. Hoshimov).

O‘zbek tilida “ko‘ngli buzilmoq” frazemasi, hamda “yuragini qon qilmoq” frazemasiga sinonim bo‘lgan “yuragini ezmoq” frazemalari mavjud. Frazemaning semantik tarkibida “ruhan me’yoridan ortiq azoblamoq” semalari mavjud. S.Ahmad ma’nolari o‘zaro yaqin bo‘lgan ikki frazemani yonma-yon keltirish orqali gradatsiya hosil qiladi, hamda qahramon ruhiy holatini o‘quvchiga yetkazishda ulardan mahorat bilan foydalanadi: *Salga ko‘ziga yosh keladigan, muhtoj-nochor odamlar oldidan o‘tganda **ko‘ngli buzilib, yuraklari ezilib** ketadiganlardan biri* (S.Ahmad).

Xulosa (Conclusion). Umuman olganda atoqli o‘zbek adiblari umumtildagi frazemalarning nutqda ta’sirchanligini oshirish, konnotatsiyani kuchaytirish maqsadida ularning ba’zi komponentlarini almashtiradi, transformatsiya usuli asosida ularni qayta ishlaydi. Natijada qahramonlar obrazlarini tasvirlashda, voqea-hodisalarni yetkazishda samarali qo‘llanilgan iboralar o‘zbek tili frazeologiyasini boyitishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

1. Osmanova N.I. K.Osmonaliyevning “Көчмөндөр кагылышы” romanidagi frazeologizmlarning semantik-stilistik tabiati. Filol. fan. nomz. …diss. avtoref. –Bishkek, 2013. – B. 16-19.
2. Кунин А.В. Фразеология современного английского языка. – М.: 1986. – С. 87;
3. Boltayeva B.I. O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil). Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – S. 14-15.
4. Mamatov A.E. Frazeologik stilistika masalalari. – Toshkent: fan va texnika, 1991. – S. 120.
5. Quronov D., Mamajanov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –Toshkent: Akademnashr, 2010. – S. 216.
6.Лексико-фразеологические стилистические средства/http://www. prekrasnakraina.com/my–english/
7. Boltayeva B. I. O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil). Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. diss. avtoref. – Samarqand, 2019. – S. 16.
8. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K., O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2022.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 81'373.71

"OSHIQ ALBAND" DOSTONINI 5E HAMDA 4K MODELLARI ASOSIDA TAHLIL QILISH

[1]*Sabirova Nasiba Ergashevna, Urganch davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori (DSc)*
[2]*Atadjanova Roziyajon Xudaybergenovna, Urganch davlat universiteti magistranti*

ANALYSIS OF THE EPIC "OSHIQ ALBAND" BASED ON 5E AND 4K MODELS

[1]*Sabirova Nasiba Ergashevna, Professor at Urgench State University, Doctor of Philological Sciences (DSc)*
[2]*Atadjanova Roziyajon Khudaybergenovna, Master's Student at Urgench State University*

АНАЛИЗ ЭПОСА «ОШИК АЛБАНД» НА ОСНОВЕ МОДЕЛЕЙ 5E И 4K

[1]*Сабирова Насиба Эргашевна, профессор Ургенчского государственного университета, доктор филологических наук (DSc)*
[2]*Атаджанова Розияджон Худайбергеновна, магистрант Ургенчского государственного университета*

https://orcid.org/0000-0002-1236-283X
e-mail:sabnas1@yandex.ru

Annotatsiya: *Mazkur metodik tavsiya oliy ta'limning amaliy mashg'ulot darslariga mo'ljallangan bo'lib, unda "Oshiqnoma" turkumining "Oshiq Alband" dostonini o'rganishga yordam beradigan interfaol o'yinlar va ushbu dostonni bugungi zamonaviy pedagogikamizga singib ulgurayotgan 5E hamda 4K modellari asosida tahlil qilish yo'llari haqidagi ma'lumotlar va tavsiyalar borasida so'z boradi. Ushbu tavsiyadagi yangi metodlar mavzuni o'qitishda o'qituvchilarga qator yengilliklar beradi.*
Kalit so'zlar: *5E modeli, 4K modeli, interfaol o'yinlar, xatolarni to'g'rilash, o'yin metodlari, lug'atli tahlil metodlari.*

Abstract: *This methodological recommendation is intended for practical training classes in higher education, and it contains information and recommendations on interactive games that help to study the epic poem "Oshiq Alband" from the "Oshiqnoma" series, and on ways to analyze this epic based on the 5E and 4K models that are being integrated into our modern pedagogy. The new methods in this recommendation provide teachers with a number of conveniences in teaching the subject.*
Keywords: *5E model, 4K model, interactive games, error correction, game methods, lexical analysis methods.*

Аннотация: *Данная методическая рекомендация предназначена для проведения практических занятий в высших учебных заведениях и содержит информацию и рекомендации по интерактивным играм, помогающим изучать эпос "Ошик Албанд" из серии "Ошикнома", а также способы анализа этого эпоса на основе моделей 5E и 4K, которые все больше интегрируются в нашу современную педагогику. Новые методы, изложенные в данной рекомендации, предоставляют учителям ряд преимуществ при преподавании предмета.*
Ключевые слова: *модель 5E, модель 4K, интерактивные игры, исправление ошибок, игровые приемы, методы лексического анализа.*

KIRISH. Hozirgi globallashgan zamonda, ta'lim tizimini yuksaltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar jamiyatning ma'naviy va madaniy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bugun yurtimizda jahon talablari darajasida ta'lim olish, kasb egallash uchun barcha sharoitlar

yaratilgan. O‘quvchilarning har tomonlama yetuk bilim olishlari uchun hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan yangi qonun loyihalari bunga misol bo‘la oladi. Buyuk bobolarimiz, ulug‘ jadid ma’rifatparvarlari: Behbudiy, Fitrat, Qodiriy, Cho‘lponlar orzu qilgan zamon –yoshlarining davri keldi. Yurtboshimiz ta’biri bilan aytganda, “Agar buyuk bobolarimizning ruhini shod qilib, jadid bobolarimiz qilgan ishlarning davomchilari bo‘lib, bugungi g‘oyamizni — Yangi O‘zbekistonning ostonasi maktabdan boshlanadi, degan ulug‘ harakatni amalga oshirishda belimizni mahkam bog‘lab harakat qilsak, albatta, natija bo‘ladi”[1].

Darvoqe, raqamlashgan texnologiyalar avj olayotgan zamonamizda, o‘quvchilarni darslarga endi oddiy yo‘llar bilan qiziqtira olish ancha mushkul. Shu bois ham yosh avlodni fanga qiziqtira olish, tafakkur dunyosini boyitish, asosiysi, mavzuni tushunarli va esda qolarli qilib tashkil etish o‘qituvchi oldidagi dolzarb masaladir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda ta’lim jarayonini samarali tashkil etish maqsadida pedagogik innovatsion yondashuvlar, xususan, **4K (kommunikatsiya, kollaboratsiya, kreativlik, kritik fikrlash)** va **5E (Engage, Explore, Explain, Elaborate, Evaluate)** modellariga asoslangan interfaol metodlar qo‘llanildi. Metodologiyada kuzatish, tajriba, interfaol o‘yinlar, suhbat va tahlil usullari orqali o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirish darajasi, nutqiy faolligi, ijodiy fikrlashi va hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari o‘rganildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Xalqaro reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagan davlatlar ta’limida o‘quvchilarda “4K” va “5E” modellarini o‘z ichiga olgan muloqot, tadqiqot, yaratuvchanlik kabi ko‘nikmalarga alohida urg‘u berilgan va shuning uchun ham ular xalqaro reytinglarda katta natijalarga erishishyapti. Shu bois ushbu tavsiyada o‘quvchilarning mavzuni yaxshi o‘zlashtirishlari va o‘qituvchiga qulaylik yaratish maqsadida mavzuni 4K va 5E modellariga asoslangan interfaol usullar yordamida ko‘rib chiqamiz.

5E va 4K modellari orqali tashkil qilingan o‘yinlar o‘quvchilarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ular o‘yin davomida o‘zlarini erkin his qiladilar, qobiliyatlarini namoyish etadilar. Shu o‘rinda, dars jarayonini qiziqarli o‘tishiga va o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligini keng yo‘lga qo‘yilishiga yordam beradigan bir necha metodlarni taqdim qilamiz.

TAHLIL VA NATIJALALAR. “Oshiqnoma” turkum dostonini o‘rganish uchun 1-metodimizni qo‘llaymiz. Bu dostonda qahramonlarning ismlari ko‘p berilganligi uchun eslab qolish ancha murakkab[2]. Shu bois bu asarni o‘quvchilarga 5E va 4k modellari asosida interfaol metodlar bilan o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

1-metodimizni 5E modelining 1-bosqichi “Engage”, (qiziqtirish) bosqichi uchun moslangan **“Voqeani eslaymiz!”** metodi bilan boshlaymiz. Ya’ni o‘quvchilarga yangi mavzu bo‘yicha qiziqish uyg‘otish maqsadida , ularni mavzuga jalb qilish uchun **“Oshiq Alband”** dostonining xalfalar tomonidan kuylangan variantidan parcha namoyish etiladi. Voqea jarayonlaridan efirga berilgan parchada o‘quvchilar nimani anglab olganliklarini turli xil savollar orqali bilib olamiz.



Yoki aynan o‘qituvchi tomonidan PDF holatda quyidagi ma’lumotlar tushirilgan lavha talabalarga ko‘rsatiladi. Shuningdek, asarning to‘liq matni QR kod yordamida taqdim etiladi.

1.Tayyorlanish:
* O‘qituvchi talabalarni kichik guruhlarga bo‘ladi.
* Har bir guruhga tarqatmalar tayyorlanadi. Bu tarqatmada asar haqida qisqacha ma’lumot yozilgan bo‘ladi.
2. Metod jarayoni.
3. Har bir guruh uchun qiziqarli va qisqa savollar beriladi.
Javoblar asosida talabalarning mavzu haqidagi bilimlari sinovdan o‘tkaziladi.
4. Tekshirish va baholash:
O‘qituvchi talabalarnig savollarga bergan javoblarini baholaydi, har bir to‘g‘ri javob uchun ball qo‘shib boriladi.
Foydali tomonlari:
- o‘quvchilarni mavzuni to‘liq o‘zlashtirishlariga va so‘z boyligini oshirishiga yordam beradi;
- eng avvalo, darsga qiziqishi ortadi, hamkorlikda ishlay oladi;
- o‘quvchi o‘z bilimini sinovdan o‘tkazadi ;
- tezkorlikka ahamiyat beradi (ma’lumotlarni tez va to‘g‘ri aytish ko‘nikmasi ortadi).
2-bosqich Explore (o‘rganish) bosqichi uchun esa “Ketma-ket” usuli. Ushbu usulni qo‘llashdan maqsad talabalarning og‘zaki va yozma nutqini shakllantirish, lug‘at boyligini oshirish, sof o‘zbek adabiy tilida so‘zlashishni o‘rgatishdir. Usul talabalarning dars jarayonida olgan bilimlarini hayotda tatbiq etishiga imkoniyat yaratadi va o‘quvchilarning nutq malakalarini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.
Usuldan quyidagi maqsadlar uchun foydalanish mumkin:
-iboralar tuzishda;
-maqollar yozishda;
-gaplar tuzishda;
-matn yaratishda;
-lug‘at ustida ishlashda foydalanish mumkin.
Bu metodni mavzumizga quyidagicha moslashtira olamiz. Ya’ni talabalar guruhlarga bo‘linib olishadi va ketma-ketlikda “Oshiq Alband” dostoni voqealarini bayon etishadi. Buning uchun ularga qog‘oz va marker taqdim etiladi. Guruhlar navbat bilan doston haqidagi ma’lumotlarni yozib namoyish etishadi. Qaysi guruh ketma-ketlikkka rioya qilmasa yoki uzilish bo‘lib qolsa , o‘sha guruh mag‘lub bo‘ladi.
Masalan, shartni quyidagi ko‘rinishda ishlash mumkin.

1-guruh:

Ammo roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, Ganji Qorabog‘da bir podsho bor edi. Otig‘a Shamsiqamar podsho der edilar. Aning bir o‘g‘li bor erdi, otig‘a Albandjon der erdilar. Albandjon bir kuni otasining yonig‘a kelib uzr qildi.

Ey, ota mango javob bering, man shikor qilurman. Anda podsho o‘g‘lig‘a yugurik ot berib, olg‘ir qush berib, ovg‘a yubordi. Anda otasi qirq yigitni yonig‘a qo‘shib, fotiha berib yubordi. Bular shikorg‘a yurish qildilar.

Avvalo, **4K modelining kommunikativlik tamoyili 5E modelining o‘rganish bosqichi** bilan uyg‘unlashib talabalarga nima bera oladi?
-Darsga qiziqishi ortadi;
-talabalar vaqt reglamentiga amal qilishga o‘rganadilar;
-Mavzuni kuchli mustahkamlashga erishadilar;
-Ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi;
-Yakka tartibda va guruh bo‘lib ishlash ko‘nikmasi oshadi;
- Yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun imkoniyat yaratiladi

3-bosqich EXPLAIN (Tushuntirish) bosqichi.
Bu bosqichda o‘qituvchi o‘quvchilarga o‘rganilgan materialni tushuntiradi. Talabalar o‘zlarining fikrlarini ifodalashadi va o‘qituvchi mavzuga oid tushunchalarni to‘liqroq izohlaydi. Bu bosqichni amalga oshirishda **“Xatosini top”** metodidan foydalaniladi. Dastlab o‘qituvchi aytgan to‘g‘ri ma’lumotlar keyin xatosi bor ma’lumotlar bilan aralashtirilib tarqatma ko‘rinishida o‘quvchilarga tarqatiladi, o‘quvchilar esa mana shu tarqatmalar ichidan to‘gri ma’lumotlar yozilganini jadval ko‘rinishida ifoda etishadi.
Xatosini top!

To‘g‘ri ma’lumotlar:

1.Albandning otasi-Shamsiqamar
2.Bibitarlixonning kanizi Gulchehra
3.“Oshiq” turkum dostonlarining asosini ertaklar tashkil qiladi

Noto‘g‘ri ma’lumotlar:

1. Albandning asl ismi Odilbek
2. Dostonning 10tadan ortiq turi bor
3. Bibitarlixonni kofirlar o‘ldiradi

Ushbu bosqichni amalga oshirishda o‘qituvchi yana bir metoddan **“Xotirangni sina!”** metodidan foydalanishi ham mumkin. Buning uchun o‘qituvchi doston qahramonlari tasvirlangan suratlarni o‘quvchilarga namoyish etadi va aynan ular haqida ma’lumotlarni bayon qiladi. Bu ma’lumotlarni o‘quvchilar eslab qolishi va o‘qituvchi qaysi rasmni ko‘rsatsa, o‘sha qahramon haqida ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi.

Albandjon

Bibitarlixon

4-bosqich ELABORATE (kengaytirish): bu bosqich o‘quvchilarga bilimlarni yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatini beradi. Bunda o‘quvchilar o‘z bilimlarini turli vaziyatlarda qo‘llashadi, masalan, yangi vaziyatlarga moslashtirish , boshqa mavzular bilan bog‘lash yoki murakkabroq masalalar yechishni boshlash. Bu bosqich uchun **“Kim topqir?”** metodini qo‘llash mumkin. Ya’ni bu metodda o‘quvchilarga dostondan parchalar (to‘rtliklar) yozilgan tarqatmalar tarqatiladi. Talabalar bu parcha kimning nutqidan ekanligini yoki kimga xos ta’rif berilayotganligini aytishlari kerak bo‘ladi. So‘najon xalfa Xonqa. Qirqyop. “Oshiq” turkum dostonlarining barchasini yoddan bilgan[3].

5-bosqich EVALUATE (BAHOLASH) BOSQICHI. Bu bosqichda ma’lumki, **modelining kreativlik va kritik tamoyilini** o‘z ichiga oladi. Ya’ni bu metod orqali o‘quvchilar nimalarga erishadi?

-O‘quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o‘z fikri

Tarqatmalar oddiy ko‘rinishda emas, o‘quvchi e’tiborini yanada mavzuga jalb qilish uchun baxshilarning rasmlari tushirilgan rasm ko‘rinishida bo‘ladi. Bunda bizga quyidagi xalfalarning suratlari yordam beradi.

Shukur xalfa 1929-yil Xonqada tug‘ilgan. “Oshiq Alband”, “Oshiq Mahmud” dostonlarini yoddan bilgan:

“Arzim eshit, jonim ota,
Man yora qurbona galdim.
Bu so‘zimda yo‘qdur xato,
Albanda qurbona galdim”.

Bu metodlar **5E modelining kengaytirish tamoyili bilan birgalikda 4K**

-O‘quvchilar o‘z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganadi;
-Innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi[5];
va mulohazalarini shakllantirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.
o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi baholanadi. Ya’ni bu bosqichda endi, **“Fikr, tahlil, xulosa”**

TAMADDUN NURI

metodidan foydalanamiz. Buning uchun o‘quvchilarga katta A4 formatda qog‘oz tarqatiladi va har bir guruh o‘quvchisi aynan mavzu yuzasidan qanday fikrda bo‘lganliklarini, mavzuni o‘rgana boshlagandan keyin bu mavzu haqida qanday fikr yuritib, tahlilga ega bo‘lganliklarini, natijada qanday xulosaga kelganliklarini yozishlari kerak bo‘ladi. O‘qituvchi esa o‘sha yozilgan ma’lumotlar asosida o‘quvchilarni baholaydi. Buning uchun guruh diagrammasini yaratadi.

Keyingi metodimiz **“Aktyorlikka kasting**” deb nomlanadi. Bu metod orqali o‘quvchilar “Oshiq Alband” dostonidan parcha namoyish etib berishlari kerak bo‘ladi. Buning uchun o‘quvchilar bosh qahramon Oshiq Alband va So‘na obrazlariga tasdiqlanib o‘tishlari uchun kastingdan, ya’ni sinovdan o‘tishlari kerak. Buning uchun ularga oldindan asardan olingan biron bir parchani sahnalashtirish topshiriladi. Qaysi o‘quvchida aktyorlik mahorati, obrazga kirish qobiliyati kuchli bo‘ladigan bo‘lsa o‘sha o‘quvchi bosh qahramon roliga tasdiqdan o‘tgan hisoblanadi.

Keyingi **“Lug‘at tahlil”** deb nomlangan metod orqali darslikdagi asar matnida uchraydigan lug‘atlar ustida ishlash mumkin bo‘ladi. Bu lug‘atlarni yodlash uchun o‘quvchilarga vaqt berilgan bo‘lib o‘qituvchi doskaga 2 xil jadvalni ilib qo‘yadi. Bittasida lug‘at so‘zlarning izohi to‘g‘ri keltirilgan, ikkinchisida esa noto‘g‘ri izohlar berilgan bo‘ladi. O‘quvchilar guruhlarga bo‘linib, to‘g‘ri jadvaldagi izohlarning to‘g‘ri berilganlarini topishlari va yoddan so‘zlarni aytib berishlari kerak bo‘ladi.

Foydalanish uchun darslikdagi lug‘atlar:

So‘zlar	**Izohi**
Xoliq	Yaratguvchi
Qirq chiltan	afsonaviy kuchga ega qirq ruh
Sinchi	otlarning zoti, nasli, fe’l-atvorini yaxshi biladigan odam
Tamiz	fahm, farosat

Ushbu metodning uzviy davomi sifatida **“O‘zbegimning shevasidan aylanay”** metodini qo‘llash mumkin. Buning uchun dostonning Xorazm varianti matnidagi Xorazm shevasiga xos so‘zlar lug‘at qilib o‘quvchilarga tarqatiladi[6]. Aynan shu so‘zlarning sinonimlarini o‘quvchilar topishlari kerak bo‘ladi.

Xorazm shevasidagi variant	**Adabiy tildagi muqobili**
Do‘radi	Tug‘ildi
Ap-kupsiz, salav	uquvsiz
O‘rnina	O‘rniga
Nera	Qayerga
Alinnan	qo‘lidan
Cheshib	yechib
Mangzar	o‘xshash

Bu metod orqali **4K modelining tanqidiy fikrlash tamoyili** amalda qo‘llanganini ko‘rishimiz mumkin bo‘ladi. Mavzu yuzasidan yana bir metodimiz **“Baxshi shogirdi”** metodi hisoblanadi. Bu metod orqali o‘quvchilar doston matnidan she’riy parchalarni baxshi yo‘lida ijro etishga harakat qilib ko‘rishadi, buning uchun o‘quvchilar musiqa o‘qituvchisidan yordam olishlari mumkin bo‘ladi. Ya’ni o‘qituvchi tomonidan tarqatma materiallarga doston matni yozib tarqatiladi, o‘quvchilar o‘sha matndagi she’riy parchani baxshi yo‘lida ijro etishlari kerak bo‘ladi[7].

Bu metod orqali o‘quvchilar fanlararo bog‘liqlikni, musiqa va adabiyot olamining ajralmasligini anglab oladilar. Tarqatma materiallar rangli rasmlar va turli shakllar ko‘rinishida tarqatilsa, bu o‘quvchida mavzuga bo‘lgan qiziqishni yanada orttiradi. O‘sha tarqatma asosida o‘quvchilar asardan parcha ijro etishadi. O‘quvchilar baxshi yo‘lida asar matnidan parchalarni ijro etishadi.

XULOSA. Adabiyot olami sirli bir dunyo. Bu sirli dunyo tilsimotlarini ochish uchun o‘qituvchi doimo o‘qitishning yangi usullarini izlab topmog‘i kerak. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonini o‘quvchilarga o‘rgatishda interfaol o‘yinlardan foydalanish ta’lim jarayonini samarali va qiziqarli qilishga katta yordam beradi. Ushbu metodlarning asosiy ahamiyati o‘quvchilarning qiziqishini oshirish, darslarda faol ishtirok etish va jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. Shuningdek, ta’lim tizimida yangilik sifatida e’tirof etilayotgan 4K va 5E modellarining mavzu yuzasidan tahlil qilinishi o‘quvchining olgan bilimlarini hayotda ham qo‘llay olish ko‘nikmasini yaratadi. Shuningdek, bu usullar o‘quvchilarning ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantiradi. O‘quvchilar o‘yin davomida bir-birlari bilan samarali muloqot

TAMADDUN NURI

qilishni, jamoa bo‘lib ishlashni va muammolarni hal qilishni o‘rganadilar. Interfaol o‘yinlar nafaqat bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarning psixologik va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[8].**Yurtboshimiz Sh.Mirziyoyevning “Maktabda o‘qitish metodikasini o‘zgarmasa, ta’lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o‘zgarmaydi”** degan so‘zlarini biz ustozlar qalbdan his qilib, har bir darsga ijodiy yondashishimiz, yosh avlodni bilimli va har tomonlama yetuk bo‘lishlari uchun bor imkoniyatimizni safarbar etmog‘imiz lozim. **4 K va 5 E modellariga** asoslangan interfaol o‘yinlardan foydalanib tashkil qilish o‘quvchilarni dars jarayonida faol ishtirok etishlariga va bilimlarini mustahkamlashlariga yordam beradi. Ushbu metodlar ta’lim jarayonini yanada boyitadi va samaradorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O‘zbekiston-2016.
2. Yo‘ldoshev, Usmonov. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar.T-2014 .
3. Ro‘zimboyev,S. Xorazm dostonlari. – Toshkent: Fan:1985.
4. Oshiqnoma, I kitob. Nashrga tayyorlovchilar S.R.Ro‘zimboyev, S.S.Ro‘zimboyev, G.Eshchanova, Urganch, 2006.
   Oshiqnoma, II kitob. Nashrga tayyorlovchilar S.R.Ro‘zimboyev, S.S.Ro‘zimboyev, G.Eshchanova, Urganch, 2008.
5. Ro‘zimboyev.S, Sabirova.N Xorazm xalfachiligi an’analari. Uslubiy qo‘llanma. Urganch 2020.
6. Yo‘ldoshev, Usmonov. Ilg‘or pedagogik texnologiyalar. T-2014.
7. M.Nazirova, X.G‘aniyeva. Ta’lim metodlari va vositalari. T-2022.
8. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: Sano-standart nashriyoti, 2017.
9. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi.: Nasaf, 2000.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 81-2

AMUDARYO TUMANI TOPONIMLARINING SEMANTIK, GRAMMATIK VA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

Karimboyeva Shohida Baxtiyor qizi, Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti assistenti

SEMANTIC, GRAMMATICAL AND NATIONAL-CULTURAL FEATURES OF TOPONYMS OF THE AMU DARYA DISTRICT

Karimboyeva Shohida Bakhtiyor qizi, Assistant of the Nukus State Pedagogical Institute named after Ajinyoz

СЕМАНТИЧЕСКИЕ, ГРАММАТИЧЕСКИЕ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ТОПОНИМОВ АМУДАРЬИНСКОГО РАЙОНА

Каримбоева Шохида Бахтиёр кызы, ассистент Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

https://orcid.org/
e-mail: shoxidakarimboyeva1@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Amudaryo tumani toponimlarining semantik, grammatik va milliy-madaniy xususiyatlari o‘rganilib, ularning turlari, etimologiyasi, leksik-semantik xususiyatlari hamda ma’nosi tadqiq etilgan. Toponimik nomlar qiyoslab o‘rganilgan va misollar orqali ko‘rsatilgan.*

Kalit so‘zlar: *Amudaryo, toponim, oykonim, etimologiya, tarixiy nomlar, semantik tahlil.*

Annotation: *This article studies the semantic, grammatical and national-cultural features of toponyms of the Amu Darya district, examines their types, etymology, lexical-semantic features and meaning. Toponymic names are studied comparatively and illustrated with examples.*

Key words: *Amu Darya, toponym, oikonym, etymology, historical names, semantic analysis.*

Аннотация: *В данной статье исследуются семантические, грамматические и национально-культурные особенности топонимов Амударьинского района, рассматриваются их типы, этимология, лексико-семантические особенности и значение. Топонимические названия изучаются в сравнительном аспекте и иллюстрируются примерами.*

Ключевые слова: *Амударья, топоним, ойконим, этимология, исторические названия, семантический анализ.*

KIRISH. Tilshunoslik ilmida nomlar, xususan, toponimlar tarixiy, milliy, madaniy-ma’rifiy va ijtimoiy-siyosiy jihatdan ahamiyatga ega bo‘lgan tushuncha hisoblanadi. Chunki toponimlar, ya’ni geografik joylarning nomlari, insoniyat tarixida va hayotida muhim rol o‘ynaydi. Ular mamlakatlar va hududlarning identiteti (kishi, guruh va jamiyatning o‘ziga xosligi, kimligi va shaxsiyati)ni belgilaydi, madaniy an’analarni aks ettiradi. Va albatta, toponimlarda xalqning milliy belgilari, madaniy-ma’rifiy salohiyati va qarashlari, tabiat va jamiyatga mehr-muhabbati, e’tirofi mujassamlashgan bo‘ladi. Toponimlar qadimdan yurtimizda yashagan urug‘, qabila, elatlarning etnik nomlarini joy nomlariga berish bilan bog‘liq an’analari, ma’naviy merosi, turmush tarzi, milliy qadryatlari to‘g‘risida ma’lumot saqlaydigan muhim lisoniy, tarixiy va geografik atamalardir. Zero Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, tarixiy merosni asrab-avaylash, o‘rganish va avlodlarga qoldirish, davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Jahon tilshunosligida toponimlarga va ularni o‘rganish masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu qatorda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi joy nomlarining o‘rganilishi ham tilshunoslar nazaridan chetda qolayotgani yo‘q. Ya’ni,

yurtimizdagi toponimlarning ma'lum bir qismi talqin, tasnif va sharhlar berilishi asosida ilmiy tahlilga tortilgan va bu jarayon davom etmoqda. Xususan, tilshunos G.Abishov o'zining "Shimboy tumani toponimlar" nomli monografiyasi, I.O.Xolmuradovning "Janubiy Qoraqalpog'iston oykonimlarining talqini, tasnifi tahlili" monografiyalarida va Qoraqalpog'iston gidronimlari haqida esa G.Mambetovalarning ilmiy ishlarida o'rganilganligini e'tirof etishimiz joiz. Bundan tashqari ushbu mavzu yuzasidan tilshunos S.Qorayev toponimlarni turlarga ajratib tahlil qilib bergan bo'lsalar, M.Qurbonov tomonidan toponimlar turlaridan biri hisoblangan oykonimlar haqida ko'plab ilmiy ishlar olib borganlar va mavzu doirasida maqolalar e'lon qilingan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Maqolada janubiy Qoraqalpog'iston aynan, Amudaryo tumani toponimlari maxsus ilmiy, maqsadli va aniq shaklda o'rganilmagan jihatlari muhokama qilinadi. Ya'ni, Amudaryo tumani toponimalarini ilmiy va amaliy jihatlardan katta yo'nalishda ma'naviy meros, madaniy va umuminsoniy boyliklarimizni toponomik va lingvogeografik nuqtayi nazardan ilmiy-amaliy asoslarda tadqiq etish zaruriyati sezilmoqda.

Ma'lumki, toponimlarni o'rganish – geografiya, tilshunoslik, tarix va madaniyat fanlari kesishgan nuqtada joylashgan ilmiy sohadir. Toponimlar, o'z navbatida, o'ziga xos semantik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lib, ularning ma'nosi va tarixi o'zaro bog'liq.

Toponimlarni ma'no turlariga ko'ra bir necha toifaga bo'lib o'rganamiz, ya'ni:

- Tabiiy toponimlar: tog'lar, daryolar, ko'llar kabi tabiiy obyektlar nomlari.

- Sun'iy toponimlar: odam tomonidan yaratilgan obyektlar, masalan, shaharlar, qishloqlar, ko'chalar.

- Madaniy toponimlar: tarixiy yoki madaniy ahamiyatga ega joylar, ma'naviy merosni aks ettiradi.

Amudaryo tumani toponimlari asosan tabiiy va madaniy aspektlarni aks ettiradi, bu jihat ularning xarakterini yanada boyitadi. Misol uchun, "Dengiz qoshidagi qishloq" – bunday nomlar, tabiiy muloqot va odamlarning tabiati bilan bog'liq. "Amudaryo" so'zi ota-bobolarimizdan qolgan nom bo'lib, daryo atrofidagi yashovchi xalq tushunchasi natijasida hosil bo'lgan toponimlarni aks ettiradi. Tumanning obi-hayot timsoli bo'lgan qadim Amudaryo nomi bilan atalishi ham bu hududda yashovchi xalq ildizlari birligi va katta tarixga ega ekanligini isbotlab turibdi. Ba'zi toponimlarning atalishida, nomlar oykonimik asosga aylanib, onomastik leksik birlik sifatida toponimlashuv tufayli yangi obyektga nom bo'lib keladi: "Jiydali qulon", "Kuyik ko'pir", "Oq oltin" (Bobur fuqarolar yig'ini ovuli) nomlari ham o'z tarixiy ma'nosiga ega, o'ziga xos nomlangan. Bu nom orqali xalqqa xos bo'lgan an'anaviy qishloq turmush tarzi va iqlim sharoitlari aks ettiriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Tildagi mavjud so'zlar majmuini topoobyektlarni nomlash va nomlanishiga ko'ra ham apellyativ, ham onomastik deb ikki guruhga bo'lib o'rganishni, albatta, tilshunoslik – lingvistika fani ilmiy-amaliy jihatlardan tadqiq etadi. Amudaryo tumani toponimlari, o'zining geografik mahalliyati bilan birga, xalqning urf-odatlari va an'analari bilan bog'liqdir. Ularning apillyativligi, ya'ni nomlanishning qanday uslublar asosida amalga oshirilganini o'rganish, kelib chiqishi, xalq tilida foydalanish tarzi va ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Nukus shahridan 20 km janubda, Amudaryo sohili bo'ylab katta-kichik tepalar joylashganligi bois, mahalliy xalq tomonidan Beshtepa nomi berilgan. Lekin ushbu atamaning qachon berilganligi hozircha bizga noma'lum.

Tabiatan go'zal Sulton Uvays tog'ining shimoliy-g'arbidan Amudaryo yoqalab Chilpiq, Qoratepa va Beshtepa singari bo'lak-bo'lak tepalar cho'zilib yotibdi. Qoratov kabi ushbu tepalarning ham o'ziga xos sir-sinoati, tarixi mavjud. Jumladan, "Chilpiq" yodgorligi nafaqat yurtdoshlarimizni, yurtimizga tashrif buyurgan xorijliklarni ham qiziqtirayotgan ajoyib tarixiy meroslarimizdan biri sanaladi. 1902-yili Chilpiq bilan yaqindan tanishgan rus olimi A.E.Rossikova yodgorlikning daryo bo'yida go'zal, baland joyda joylashganligini, mahalliy xalqning so'zlariga ko'ra, qo'rg'on arxitekturasi Chilpiq ismli Bahodir tomonidan yaratilganligini yozadi [1.59].

Amudaryo tumani toponimlari, ularning semantik va grammatik xususiyatlari, shuningdek, milliy-madaniy ahamiyati o'rganilganda, nafaqat geografik obyektlarni bilish, balki xalqning madaniyatini va tarixini o'rganish imkonini beradi. Bu toponimlar orqali biz xalqlar o'rtasidagi aloqalarni, ularning dunyoqarashini va urf-odatlarini anglashimiz mumkin. Tarjimonlikda har bir toponim muayyan bir tarixiy va semantik ma'no olib kelishi muhimdir. Ya'ni, urug'-aymoq, mahalla-elat, joy nomlari va laqablar o'tmish tariximizning unsiz guvohlari hisoblanadi. Ba'zan birgina tarixiy atama-

TAMADDUN NURI

arxaik so‘z ming yillik o‘tmishidan xabar berishi mumkin. Shuning uchun ham tarixchi va elshunos (etnograf) olimlar ham xalq og‘zaki ijodi (folklor) durdonalari – ertak, dostonlar, maqollar, matallar, laqab va joy nomlarini to‘plab tahlil etadilar va ilmiy xulosalar chiqaradilar. Darhaqiqat, har bir elatda, mahalla yoki tuman, o‘lkada o‘ziga yarasha tarixiy, jug‘rofiy joy nomlari (toponimlar), laqablar mavjud. Masalan: Oltintepa, Miyonkul, Toshqal’a, Suvyorgan yoki Qappon kabi atamalar, avlodlar allaqachonlar yo‘q bo‘lib ketgan bo‘lsa ham, xalq orasida tildan-tilga o‘tib aytilib kelinaveradi. Xususan, tilshunos va tarixchi olimlar o‘rtasida “Kuyik ko‘pir” atamasi haqida bahs va munozaralar hamon davom etadi. Ba’zilar uni quyi (quduq) ko‘prik, Kiyik ko‘prik, Kuygan ko‘prik, Quyoq ko‘prik deb izohlamoqchi bo‘ladilar. Aslida, unisi ham, bunisi ham to‘g‘ri emas, XIII-XVI asrlardagi mo‘g‘ullar hukmronligi davrida O‘rta Osiyoga, shu jumladan, Orolbo‘yiga, Xorazmga ko‘plab mo‘g‘ul, uyg‘ur, xitoy, tanas, uychin, jaloyir qavmiga mansub navkar yigitlar kelishgan va mahalliy xotin-qizlarga uylanib, shu zaminni vatan tutib yashab qolganlari tarixdan ma’lum. Markaziy Osiyoning, shu jumladan, Xorazm viloyatining Xonqa, Yangibozor, Gurlan tumanlarida kuyuklar qavm, Abdulla kuyuk, Otash kuyuk laqabli fuqarolar avlodi hozir ham barhayot. Shundan kelib chiqib dadil aytish mumkinki, tumanning “Qizilcholi”, “Alamchi”, “Eshon ovul”, “Jamolxo‘ja”, “Qishliq”, “Qitay ovul” qavm va elatlarini turkiy qavimlardan biri – kuyuklar nomi bilan ataladi. Demak “Kuyuk ko‘prik” – urug‘ nomidan olingan qavm - qishloqning hozirgi atalishidir.

XXI asr boshlarida tuman hududlaridagi 20 ovul va fuqarolar yig‘inining tarkibida 124 aholi yashash o‘rinlari joylashgan. Ularning nomlanishini, til va urf-odatlariga qarab aytish mumkin, aholi yashash mazillaridan atigi 20 tasi Xorazm tarixining arablar istilosi davrida, 8 tasi eng qadimgi 2-3 ming yillik tarixga ega bo‘lgan elat va qishloqlar turkumiga mansubdir. Qolganlari esa Chingizxon bosqini va undan so‘ng mahalliylashgan urug‘ va aymoqlar, el-elatlardir. Masalan: Qumsangar, Og‘izboy, Toryob, Qangli, Pishkakli, Vaxum, Alamchi, Osovul, Arnaboyi, Panashim, Chorlara, Taqir qal’a mahallalari tumanning eng qadimgi makonlaridir[2.59].

Qadimgi xorazmiylar tili namunalarini o‘zida saqlab kelgan “Qumsangar” atamasi tekshirib ko‘rilganda, uch komponentdan so‘z birikmasi bo‘lib, “qum” – chaga (pesok), “sang” – (tosh) va “gar” (qor) qum, toshga ishlov beruvchi, tog‘ toshlariga sayqal-jilo beruvchi, uy-imorat quruvchi, me’mor ustalar elati degan ma’noni anglatadi. Tuman, o‘lka kundalik hayotidan, ayniqsa, tarixdan bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Shuning uchun ham tumandagi ko‘pgina joy nomlari va kishilarning laqablari insonga o‘tmish tarixni eslatib turadi. Ayniqsa, olchin, chaloyir, nayman, qipchoq, qiyot, xitoy, qangli, do‘rmon, tilov, shirin, uyg‘ur, ochamayli, ming, yuz, qatag‘on singari, qishloq, ovul, yop, dala, laqablar Amudaryo tumanida o‘zbek urug‘lari ko‘pligidan darak beradi va o‘zlarining nomlarini toponim, oykonimlashtirganligini ko‘rishimiz mumkin.

XULOSA. Mamlakatimiz tarixi, tilshunosligidagi noma’lum sahifalarini ishonchli hamda asosli dalillar bilan tez va osonroq bilish yo‘llaridan biri bu hududimizdagi toponimlarning ma’nolarini bilish, ya’ni ishonarli dalillar bilan amalga oshirilgan toponimik tahillarni o‘qib, o‘zlashtira bilishimiz kerak. Har bir toponim bir olam tarix va taqdirni, tilning fonetik, leksik va morfologik imkoniyatlariga oid, biroq unutilgan noyob lisoniy va onomastik xususiyatlarini hamda inson va uning faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy-siyosiy, tarixiy jarayonlarning taraqqiyotini ifodalaydi[3.98].

Istiqlol tufayli tumandagi yuzlab elat va qavmlarning, maktab, xiyobon va xo‘jaliklarning asl o‘zbekcha (turkiy) nomlari qayta tiklandi. Yoshlar o‘z urug‘-aymog‘i, tiyra, qavmlarining yetti avlodi nomlarini bilishga intilib, o‘qib, o‘rganmoqdalar. Bu bizning nafaqat farzandlik burchimiz, balki ota-ona va o‘tgan ajdodlar ruhi oldidagi qarzimiz hamdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Komil Nurjonov, G‘ayriddin Xo‘janiyazov. Amudaryo. –Toshkent: Mirius, 2009.
2. I.O.Xolmuratov. Janubiy Qoraqalpog‘iston oykonimlarining talqini, tasnifi, tahlili. – Toshkent: Firdavs-shoh, 2020.
3. Sa’dullayeva A. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
4. K.Maqsetov. Qoraqalpoq folklori. –Nukus,1989.
5. T.Nafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 82-343

XALQ DOSTONLARIDAGI XALOSKOR OBRAZLAR: ULARNING TURLARI VA TASNIFI

Xudayberganova Dilafruz Usmanovna, Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI 1-bosqich tayanch doktoranti

LIBERATOR IMAGES IN FOLK EPICS: THEIR TYPES AND CLASSIFICATION

Khudayberganova Dilafruz Usmanovna, Basic doctoral student of the 1st stage of the Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

ОБРАЗЫ СПАСИТЕЛЕЙ В НАРОДНЫХ ЭПОСАХ: ИХ ВИДЫ И КЛАССИФИКАЦИЯ

Худайберганова Дилафруз Усмановна, докторант 1- курса Нукусского ГПИ имени Ажинияза

e-mail: dilafruzxudoybergenova956@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada xalq ogʻzaki ijodidagi qahramon obrazlarning evolyutsiyasi, ularning oʻzbek adabiyotida aks etishi va milliy ong-idrokdagi oʻrni tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida qahramonlik dostonlari hisoblangan "Alpomish", "Goʻroʻgʻli", "Rustamxon" va boshqa asarlardagi xaloskor obrazlar oʻrganiladi.*

Kalit soʻzlar: *folklorshunoslik, xalq dostoni, xaloskor obraz, badiiy talqin, milliy kolorit.*

Abstract: *This article analyzes the evolution of heroic images in folk folklore, their reflection in Uzbek literature and their place in the national consciousness. The research examines the savior images in heroic epics such as "Alpomish", "Gorogly", "Rustamkhan" and other works.*

Keywords: *folklore, folk epic, savior image, artistic interpretation, national color.*

Резюме: *В статье анализируется эволюция героических образов в народном фольклоре, их отражение в узбекской литературе и место в национальном сознании. В исследовании рассматриваются образы спасителей в героических эпосах, таких как "Алпомиш", "Гёроглы", 'Рустамхан" и других.*

Ключевые слова: *фольклор, народный эпос, образ спасителя, художественная интерпретация, национальный колорит.*

KIRISH. Xalq ogʻzaki ijodining eng mukammal namunalaridan biri boʻlgan dostonlar milliy adabiyotning boy merosini tashkil etadi. Oʻzbek xalq dostonlaridagi xaloskor obrazlar nafaqat badiiy jihatdan mukammal yaratilgan, balki milliy ong-idrok va qadriyatlar tizimining ham ifodachisi sifatida namoyon boʻladi. Xaloskor obrazlar xalq hayotidagi ideal insonning mujassamlanishi boʻlib, ular orqali milliy mentalitetning eng yaxshi jihatlari aks etadi. Bu obrazlar asrlar davomida xalq tomonidan yaratilgan va takrorlangan boʻlib, har bir avlodga oʻz ijtimoiy-ma'naviy tajribasini yetkazib bergan.

Dostonlardagi xaloskor obrazlarning badiiy talqini zamonaviy adabiyotshunoslik va folklorshunoslik uchun dolzarb masala hisoblanadi, chunki bu obrazlar orqali xalqning estetik ideali va ma'naviy qadriyatlari oʻrganiladi.

Tadqiqotning maqsadi xalq dostonlaridagi xaloskor obrazlarning badiiy xususiyatlari, ularning yaratilish usullari va zamonaviy adabiy jarayondagi ta'sirini tahlil qilishdan iborat.

Folklorshunoslikda dostonlardagi xaloskor obrazlar ijtimoiy-siyosiy xaloslkorlar va ma'naviy-axloqiy xaloskorlar sifatida talqin qilinadi. Nazarimizda, xalq dostonlaridagi xaloskor obrazlarni yanada keng o'rganish, mazkur obrazlarni turli jihatdan tasnif qilish ehtiyoji mavjud. Chunki bunday obrazlar bosh qahramonlarni har jihatdan chuqur o'rganish imkonini beradi.

Xalq dostonlarida ba'zan bosh qahramonlar xaloskor obraz sifatida tasvirlansa, ayrim dostonlarda yordamchi qahramonlar bosh obrazning xaloskori sifatida beriladi. Masalan, Alpomish Barchinning xaloskori, qalmoqlar qo'lidan qutqaruvchi obraz sifatida gavdalansa, Qorajon obrazi poygada Alpomish nomidan qatnashib, unga katta yordam beradi, haqiqiy do'stlikni namoyon qilib, bosh qahramonning xaloskori sifatida beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Xalq og'zaki ijodinining yetuk tadqiqotchilaridan biri G'.Jalolov esa xaloskor obrazlar haqida shunday fikr bildirgan: "Yordamchi xarakterlar, ko'pincha, markaziy qahramonning maqsadiga erishuvida katta yordam ko'rsatadi. Yordamchi obrazlarning qahramonga yordam berishlari, maqsad sari kurashda unga ko'maklashishlarining ajoyib namunasini "Malikayi ayyor"dagi Shoqalandar, Shozargar kabi obrazlarda ko'rish mumkin"[1:70].

Darhaqiqat, "Go'ro'g'li" turkum dostonlari majmuasi xaloskor obrazlarning o'rganilishi uchun qimmatli manba hisoblanadi. Ushbu to'plamdagi dostonlarda afsonaviy xalq qahramonining tug'ilishi, uning bahodirona yoshligi, jasoratlarga to'la hayoti tasvirlanar ekan, bosh qahramonning turli sifatlarini ko'rsatishda xaloskor obrazlar ham muayyan darajada badiiy-estetik vazifa bajaradi. Masalan, "Go'ro'g'lining tug'ilishi" dostonida onasining qabrida o'ynab yurgan uch yashar Go'ro'g'liga sher hamla qilganida Xizr yordam beradi: "Qarasa, Bibi Hilolning go'ri yop-yorug' bo'lib ketdi. Shunda bir bola Bibi Hilolning go'ridan chiqdi, juda suluv, o'n to'rt kunlik oyga o'xshaydi. Shunda bir sher mozoristonda yotgan ekan, bolaga qarab tashlandi. Shunda hazrati Xizr kelib sherni bir tarsaki urdi. Sher nimta-nimta bo'lib, tirqirab ketdi"[2:63].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu tadqiqotda **struktur-semantik** va **folklor-poetik** metodlardan foydalanildi. Dostonlardagi xaloskor obrazlar badiiy funksiyasi, turlari va ularning milliy qadriyatlarni ifodalashdagi roli jihatidan tahlil qilindi. Shuningdek, **tekst tahlili** orqali "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon" kabi dostonlardagi qutqaruvchi obrazlar o'rganilib, ularning **tasnifi va badiiy ifodasi** aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. O'zbek xalq dostonlaridagi xaloskor obrazlar bir nechta asosiy xususiyatlarga ega bo'lib, bu obrazlar milliy mentalitetning ifodachisi sifatida namoyon bo'ladi va xalqning ideal insoniy fazilatlarini o'zida mujassam etadi. "Alpomish" dostonidagi Alpomish obrazi shaxsiy jasorat, vatanparvarlik va adolat tuyg'ularining mukammal ifodasidir. U nafaqat jismoniy kuch-qudratga ega qahramon sifatida tasvirlangan, balki aql-idrok, hikmat va rahm-shafqat kabi ma'naviy fazilatlarning ham egasidir. Dostonda u Barchinning xaloskori sifatidagina emas, balki, bo'lingan urug'ning xaloskori sifatida namoyon bo'ladi. "Go'ro'g'li" dostonidagi asosiy qahramon ham xuddi shunday xususiyatlarga ega bo'lib, u xalqning erkinlik va mustaqillik uchun kurashuvchi obraz sifatida tasvirlanadi.

Dostonlardagi xaloskor obrazlar ko'pincha g'ayritabiiy kuchlarga ega bo'lib, bu ularning oddiy insondan yuqori maqomda turganligini anglatadi. "Rustamxon" dostonidagi Rustamxon obrazida ham bu xususiyat yaqqol ko'rinadi: "Rustam qizning oldiga borib, "Belgisi, ishonar" deb, ajdahordan olgan tasmani qizning oldiga tashladi. Oftoboy ajdahorning terisidan olingan tasmani ko'rib, ajdahor o'lib, o'zining omon qolganini bilib, quvondi" [3:76].

Shuningdek, ayrim dostonlarda pirlar, chiltanlar va eshonlar ham xaloskor obraz sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, "Alpomish" dostonida poygada qalmoqlar tomonidan qo'l-oyog'i bog'lab ketilgan Qorajonga Rajapxo'ja eshon yordamga keladi:

Falak titrar Qorajon nolishiga,
Banda ko'nar tangri qilgan ishiga,
Boboxonda yig'lab edi Qorajon,
Rajabxo'ja piri yetdi qoshiga.
Karomatman kelib xabar oladi,

Qorajonning qo'lin chechib ko'radi,
Qorajonni pir tarbiyat qiladi,
Qorajonbek bul o'rnidan turadi,
Kim chechganin o'zi bilmay qoladi [4:200].

Mazkur dostonda Alpomishning oti Boychibor ham dostonning turli o'rinlarida xaloskor sifatida ko'rinadi. Alpomish qalmoqlar tomonidan zindonband qilinganda Boychiborning yordami bilan zindondan xalos bo'ladi:

Jonivor zo'r urib shu zamon tortdi,
Boychiborga pirlar berdi quvvatdi,
Hakimbek u zamon zindondan chiqdi.
Dunyoni ko'rganday bo'lib qoladi,
Hakimbek otini tavof qiladi [4:413].

"Rustamxon" dostonda itlar ham qutqaruvchi obraz sifatida tasvirlanganligini ko'rish mumkin. Xuroyimni jallodlar osmoqchi bo'lganida uning tozilari va o'g'li Rustam yordamga keladi: "Dor ko'tarilib ketgan, arqonning uchi yetmaydi. Jallodlar ancha vaqt ne qilarini bilmay qoldi. Shu vaqtda Rustam yaqinlab yetdi. Rustamdan burun ikki tozi dorning ostiga borib qolib, jallodlarning qo'lidan arqonini tishlab, tortib oldi" [3:56].

Xalq dostonlarida nafaqat insonlar, pirlar, chiltanlar, hayvonlar, balki qushlar, o'simliklar ham xaloskor obraz sifatida namoyon bo'ladi. Misol tariqasida, "Ravshan" dostonidagi Ravshan zindonband qilingandan keyin uni qutqarish uchun Zulxumor Ravshanning ota-onasiga mayna orqali xat yuborganini keltirishimiz mumkin:

Jonivor shu mayna qistab xezlaydi,
O'zini uchmoqqa jonvor sozlaydi.
Tomosha qing haqiqatli maynaga,
Yetsam deydi, Chambilbelni izlaydi.
Jonvor mayna unutgandir o'zini,
Chambil qarab tikkan ikki ko'zini,
Qorong'ida jonvor mayna uchadi,
Haqlayman deb Zulxumorning tuzini.
Ot chopillar baland tog'ning pastiga,
Quloq soling gapimning payvastiga,
Sahar bordi mayna Chambilbeliga,
Borib qoldi bir hovlining ustiga.
Uchmoqdan maynada armon qolmadi,
Biror yerda mayna damin olmadi,
Borib qo'ndi bir hovlining ustiga,
Har paridan chakillab ter tomadi [5:136].

Yuqoridagi tahlillardan xaloskor obrazlarni dostondagi vazifasiga ko'ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1.Bosh obrazlar xaloskor obraz sifatida;
2.Yordamchi obrazlar xaloskor obraz sifatida;
3.G'ayritabiiy obrazlar xaloskor obraz sifatida;
4.Diniy-tasavvufiy obrazlar xaloskor sifatida;
5.Hayvon-jonivorlar xaloskor sifatida;
6.O'simliklar xaloskor sifatida.

Dostonchilikning og'zaki an'anasida xaloskor obrazlari ham xuddi bosh obrazlar singari asarda muayyan vazifa bajarar ekan, baxshi-jirovlar ular bilan bog'liq tasvirlarni ham yuqori pardalarda kuylashadi va turli ifoda-tasvir vositalaridan foydalangani holda ohoriy tasvirlar yaratishgan. Masalan, Alpomish bergan isiriq-nishonni Tovkaoyim tutatgach, Boychibor Hakimbekning tirikligidan xabar topadi. Shundagi ot tasvirida mubolag'a va so'z takrori asosida go'zal tasvir yaratiladi:

Yerga solgan boshin balandga olib,
Jonivorning ko'ngli ravshan bo'ladi,
Bu tablada duvlab hayvon kishnadi.
G'ulu zanjir mayda-mayda bo'ladi [4:410].

Ko'rinadiki, baxshilar xaloskor obrazlarni ta'riflashda ham alliteratsiya, ritmik takrorlar kabi fonetik vositalarni va turli tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalanadi. Bu vositalar nafaqat badiiy-estetik ta'sir yaratish, balki muayyan darajada xotirada saqlash va og'zaki uzatish vazifasini ham bajargan.

Xaloskor obrazlarining atalishi ham alohida e'tiborga loyiq: ularning ismlari ko'pincha ma'lum semantik maydonlarga tegishli bo'lib, kuch-quvvat, yorug'lik, poklik kabi tushunchalar bilan bog'liq. "Alpomish" dostonidagi Alpomishga berilgan ta'rifda metaforaning go'zal namunasini ko'rishimiz mumkin. "Qorajon Murodtepaning ostiga kelib qoldi. Shunday tepaning boshiga qaradi. Tepaning boshida Yusuf tal'atli, Rustam sifatli, bir chovkar otli birov yonboshlab yotibdi"[4:139]. Ko'rinadiki, epitet va metaforalar tizimi xaloskor obrazlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA. Xalq dostonlaridagi xaloskor obrazlarning badiiy talqini shuni ko'rsatdiki, bu obrazlar nafaqat adabiy jihatdan mukammal yaratilgan, balki milliy mentalitet va qadriyatlar tizimining ham muhim tashuvchilaridir. Ular orqali

xalqning estetik ideali, ma’naviy qadriyatlari va ijtimoiy orzulari o‘z aksini topadi. Xalq dostonlaridagi xaloskor obrazlarning chuqur o‘rganilishi milliy adabiyotning boy merosini to‘la anglashga yordam beradi va kelajakdagi adabiy rivojlanish yo‘llarini belgilashda ahamiyati katta. Bu obrazlar orqali o‘zbek xalqining ma’naviy boyligini anglash va uni keyingi avlodlarga yetkazib berish imkoniyati yaratiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Jalolov,G‘. O‘zbek folklorida janrlararo munosabat.-Toshkent: Fan nasriyoti, 1979.
2. Xalq og‘zaki ijodi. Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” / doston / “Go‘ro‘g‘li” dostoni turkumidan /- T:. Ilm-ziyo-zakovat, 2021.
3. Xalq og‘zaki ijodi. Rustamxon / doston / Xalq og‘zaki ijodi turkumidan /- T:. Zukko kitobxon, 2021.
4. Xalq og‘zaki ijodi. Alpomish dostonlari turkumidan /- Toshkent: Zukko kitobxon nashriyoti, 2023.
5. Xalq og‘zaki ijodi. Ravshan /doston / Go‘rog‘li‘ dostonlari turkumidan /- T.: Oltin qalam , 2024.
6. Курбанбаева, М. (2024). Использование русских народных сказок в процессе изучения языка и формирования гуманизма у детей. Tamaddun nuri jurnali, 5(56), 520-522.
7. Kurbanbayeva, M. (2024). O‘zbek xalq og ‘zaki ijodiyotida adolatli jamiyat to‘g‘risidagi ilk tasavvurlar ifodasi. Tamaddun nuri jurnali, 8(59), 78-81.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 393 (575.1)

ТРАДИЦИИ И ОБЫЧАИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА, СВЯЗАННЫЕ С ТРАУРНЫМИ ЦЕРЕМОНИЯМИ

Джиемуратов Еркин, магистрант 2-го курса отдела магистратуры по специальности "Этнография, этнология и антропология" КГУ имени Бердаха

O'ZBEK XALQINING MOTAM MAROSIMLARIGA OID AN'ANALARI VA URF-ODATLARI

Jiyemuratov Erkin, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti "Etnografiya, etnologiya va antropologiya" yo'nalishi 2-bosqich magistranti

TRADITIONS AND CUSTOMS OF THE UZBEK PEOPLE RELATED TO MOURNING CEREMONIES

Jiyemuratov Erkin, 2nd-year Master's Student in "Ethnography, Ethnology, and Anthropology" at Berdakh Karakalpak State University

https://orcid.org/0009-0008-8731-9781
e-mail: erkinidrisovich@gmail.com

***Аннотация**: В данной статье рассказывается о религиозных верованиях, новых обычаях и преобразованиях, которые сохраняются на похоронах узбекского народа.*

***Ключевые слова:** похороны, молитвы, обычаи и обряды.*

***Annotatsiya**: Mazkur maqolada o'zbek xalqining dafn marosimlarida eng ko'p saqlanib kelayotgan diniy e'tiqodlar, yangi odatlar, o'zgarishlar haqida bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** dafn marosimi, urf-odatlar, o'lim bilan bog'liq an'analar.*

***Annotation:** This article discusses the religious beliefs, new customs, and transformations that persist in Uzbek funerals.*

***Key words:** funerals, prayers, customs and rites.*

ВВЕДЕНИЕ. С обретением Узбекистаном национальной Независимости внимание ученых нашей страны все больше привлекают проблемы, связанные с духовной сферы жизни общества.

«Каждый из нас должен еще раз осознать: мы – народ с великой историей, великой культурой, который не боится никаких испытаний и с честью преодолевает любые трудности на пути к свободной и благополучной жизни. Если мы будем вместе, сплоченно и добросовестно трудиться, то сможем покорить самые высокие рубежи, открыть новую славную страницу в истории нашего народа», - писал Президент Республики Узбекистан Ш.М Мирзиёев[1]. Естественно, одной из важных особенностей каждого народа, отличающих его от других народов, являются его традиции и обряды. Обычаи и обряды, связанные со смертью человека, является важным характерным чертом всего человечества. Все народы мира имеют разные религиозные представления и взгляды на проблему смерти человека и его души, существования души. Обычаи и традиции являются одним из основных этнографических особенностей народа. Как известно, обычаи и обряды носят общественный характер и тесно связаны с жизнью и бытом семьи. Вместе тем, любой обычай или обряд является одним из важных показателей, отражающих этноспецифические черты определенного этноса. Большую часть обрядов, которые совершает человек на протяжении всей своей жизни, составляют комплекс семейно-бытовой обрядности. Среди них особенно место занимает погребальные и поминальные обряды.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД. Информация об узбекских семейных обрядах, передаваемых от предков к поколениям, отражена в древних ранних письменных источниках и является

ценным источником для изучения и понимания их культуры и традиций. Устные предания, летописи, архивы семейных документов, а также исследования учёных и этнографов помогают сохранять и передавать из поколения в поколение сведения о различных ритуалах, сопровождающих жизнь узбекской семьи.

«Авеста», древнейшая священная книга зороастризма, является бесценным источником информации о семейных обрядах и традициях. Этот древний источник содержит подробные описания семейных, брачных, родильных и погребальных церемоний [2].

В данной статье мы проанализируем и сравним существующие источники и литературу, чтобы рассмотреть наиболее сохранившиеся религиозные верования, становление новых обычаев и существенные изменения в погребальных обрядах узбекского народа.

ОБСУЖДЕНИЕ. Похороны – это обряд, связанный с погребением умершего. С момента возникновения человечества погребальные обряды менялись в зависимости от географической среды, общественного уклада и возможностей людей, а также от их естественного и научного воображения и мировоззрения.

Похоронный обряд имеет свои обычаи и правила у всех народов. У узбеков похороны – это большое собрание. Умершего кладут головой в сторону Юга. Если глаза открыты, их закрывают, связывают запястья и большие пальцы ног. Родственников покойного ждут (иногда целый день или ночь), пока они не соберутся издалека и из ближних мест. О времени похорон сообщают в округе и кишлаках. Собираются близкие родственники, и те, кто находится в доме, присоединяются к каждому новому родственнику и плачут, восхваляя покойного, говоря о его добродетелях и плача[3].

Несмотря на то, что погребальные обряды по своей природе наиболее консервативны, они также претерпели значительные изменения. Одна из таких традиций – оставлять покойного дома на одну-две ночи. До начала XXI века покойного оставляли дома на срок до трёх дней. Конечно, для этого было несколько причин. Например, ждали приезда дальних родственников. Кроме того, по словам информаторов, этот акт был своего рода проявлением уважения к покойному. Если у покойного было три-четыре сына, каждый из них готовил обеды для пришедших[4]. Однако эта традиция подвергается резкой критике со стороны религиозных деятелей и считается противоречащей нормам шариата. Как говорится в хадисах, когда человек покидает этот мир, его следует похоронить как можно скорее[5].

В настоящее время принято хоронить умершего в течение двадцати четырёх часов. Исследователь М.Х.Пайзиева пишет: «В некоторых случаях среди узбеков Ташкента в начале и середине XX века существовал обычай принимать усопшего у себя дома на одну ночь. Например, в 1960-х годах, когда в Ташкенте умирал пожилой человек, даже когда всё было готово к погребению, они принимали усопшего у себя дома на один день из уважения к нему. Однако к 1980-м годам обычай принимать усопшего в Ташкенте исчез»[6]. У узбеков, живущих в Каракалпакстане, покойников держат в домах по несколько дней. Конечно, несмотря на то, что это противоречит исламским верованиям, такой обычай всё ещё существует в народе. Конечно, такое сохранение покойников осуждается в нашей религии, и говорится, что если человек умирает утром, его хоронят в тот же день, а если вечером, то на следующий день[7].

Обычай хранить тело в течение нескольких дней унаследован от обычаев кочевых народов и также распространён среди каракалпаков, казахов и туркмен, проживающих в регионе. Однако в научных трудах этнографов, проводивших исследования погребальных обрядов у узбеков, говорится, что если тело умирало рано утром, его хоронили в тот же день, а если вечером, то на следующее утро[8]. Основываясь на этих этнографических данных, стоит отметить, что узбеки региона, в отличие от узбеков других регионов, чётко отличаются тем, что хранят тело в течение нескольких дней. Например, когда в Ташкенте умирает пожилой человек, даже если всё готово к погребению, они «гостят» покойного у себя дома в течение дня из уважения к нему[9]. Обычаи угощения умершего сохранились и у узбеков других регионов[10].

У казахов и каракалпаков также существует традиция оставлять тело умершего дома на день-два, а затем несколько дней, чтобы попрощаться

с ним. После смерти больного родственники умершего закалывают барана (кучкар) и готовят из него суп. Обычаи, связанные с жертвоприношением этого животного и приготовлением супа, часто встречаются в погребальных обрядах народов Центральной Азии.

Узбеки Каракалпакстана также приносят в жертву одно животное в честь души умершего. Поскольку умерший остаётся в доме несколько дней, в северо-западных районах региона в день смерти больного готовят баранину, а узбеки, живущие в южных районах, приносят в жертву барана при выносе тела из дома. По традиционным верованиям народа, этот зарезанный баран перенесёт умершего в загробный мир. То есть, по выражению узбеков, его режут со словами: «Да будет жизнь душе!» Аналогичное представление существует и у хорезмских узбеков, и связано оно с тотемом этого животного у древних хорезмийцев.

Известный учёный Г.П.Снесарев, основываясь на своих научных исследованиях, даёт следующую классификацию причин выбора именно этого домашнего животного для погребальных обрядов и жертвоприношений вообще. Он писал, что, принося в жертву барана, душа умершего спускается на небо, поэтому он отмечает, что его приносят в жертву во время погребальной процессии[11]. У туркмен также есть похожие обычаи, и даже во время посещения покойного приносят в жертву барана или овцу. Н.В.Басилов пишет: «Когда режут козла, он шумит и беспокоит духов в загробном мире, но когда приносят в жертву барана, он никого не беспокоит». По этой причине известный этнограф отмечал, что это рогатое животное выбирают для погребальных обрядов[12].

РЕЗУЛЬТАТЫ. Существуют региональные различия в захоронении умерших, которые мы определили на основе наших полевых исследований. Узбеки Ходжейлийского и Кунградского районов, где узбеки проживают смешанно с представителями других национальностей, хоронят умерших под землей. Несмотря на общую глубину могилы в полтора метра, есть некоторые различия в могилах двух полов. Например, могилы женщин считаются более глубокими, чем могилы мужчин. Когда мы спросили о причинах различий в могилах двух полов, наши информаторы ответили следующим образом: «Могилы женщин должны быть более глубокими, потому что, когда придут вопрошающие ангелы, умершие будут сидеть и отвечать на их вопросы. В это время, когда женщины сидят, их волосы торчат из земли. Именно поэтому их могилы глубже, чем у мужчин». В южных районах Каракалпакстана сохранился древний способ погребения умерших, при котором умерших хоронят не под землей, а поверх неё. Обычно для этого выкапывают землю глубиной около двадцати-тридцати сантиметров и укладывают семь рядов жжёного кирпича. Затем на этой земле выкапывают двадцать рядов кирпича шириной девяносто сантиметров и длиной более двух метров, и в вырытую могилу кладут умерших. «Во время наших полевых исследований и наблюдений за процессом погребения в южных районах стараются ни в коем случае не допускать соприкосновения тела умершего с землёй. Если тело умершего коснётся земли, это тяжкий грех», – говорит один из наших пожилых информаторов, пишет М.Ходжанов [13]. По этой причине в южных регионах в середине 20-го века и по сей день для покрытия тела такими материалами, как кирпичи или цемент, используются семь фруктовых деревьев, чтобы предотвратить его соприкосновение с землей.

У бухарцев погребальная церемония начинается в день смерти. Один из родственников покойного берет на себя подготовку к погребению. Список задач длинный: посещение кладбища, договоренность с могильщиком (гуркавом), оповещение близких родственников и друзей, получение свидетельства о смерти от врачей и сообщение сотрудникам мечети о том, что погребальная молитва состоится в полдень. Кроме того, назначается человек, который проводит церемонию, расставляет стулья и столы у входа и ставит самовар на улице. Дом покойного делится на две части: женскую и мужскую. Прощаясь с покойным, женщины должны быть одеты в белые траурные одежды. С раннего утра родственники покойного встречают гостей у дверей слезами. Принято обнимать пришедших на похороны, и обязательны громкие плачи, длящиеся в среднем 3 минуты. Посетители

должны войти в комнату, заранее застеленную простынями и скатертью, и сесть по периметру. Всю еду приносят родственники, и готовить в доме покойного запрещено. Затем наступает время новой молитвы, и гости произносят простые слова утешения. Остаются только близкие родственники, которые поддерживают семью покойного. Они покидают дом только после захода солнца. Женщине, пришедшей попрощаться с покойным, раздают небольшие платочки. В платочки насыпают 3-4 грана сахара и горсть изюма. В первый день ничего не разрешается готовить, а в течение двух-трёх дней еду в дом покойного приносят близкие родственники[14].

Одна из общинных традиций заключается в том, что в кварталах присутствовал хранитель дастархана, чтобы не беспокоить родственников и членов семьи покойного во время похорон и поминок. В определённом смысле это представляло собой социальную поддержку, основанную на материальной поддержке скорбящих, сближая нуждающихся людей во время похорон. Соседи и друзья помогают семье покойного в проведении таких обрядов, как «эхсон» и «амримаъруф», которые являются частью траурных обрядов. Накануне большой трапезы проводится церемония «сабзи тугграш», в которой участвуют только мужчины[15]. В селах Маргилана и близлежащих районов Ферганской области, если человек умирает вечером, его не оставляют до следующего дня, а сразу хоронят при свете факела. Причина столь поспешного погребения заключается в том, что «покойный должен ответить перед ангелами». Если покойного приходится оставить на ночь, его тело омывают родственники. Это называется «махрам суви» вода-махрам[16].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. В заключении можно сказать, что, изучая узбекскую погребальную обрядность, мы становимся свидетелями того, как обычаи, правила и традиции, унаследованные от прошлого нашего народа, формировались в соответствии со временем.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Мирзиёев Ш.М. От национального возрождения- к национальному прогрессу. Ташкент: ИПТД «Узбекистан», 2020. – С. 49
2. Аширов А. Ўзбек халқи мотам маросимларида зардуштийлик излари // O‘zbekiston tarixi. – Toshkent, 2002. -№1. -65 б.
3. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 3-jild. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2002. -214 б.
4. Turekeev Q.J. Qoraqalpoqlarning hozirgi kundagi an’anaviy e’tiqodlari va tasavvurlari // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссетрация. Н.: 2022 -106 б.
5. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. (Ал жомиъ Ас-саҳих). 1-жилд. - Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти,1997.-357 б.
6. Пайзиева М. Ўзбекларнинг анъанавий ва замонавий мотам маросимлари. – Т.: Yangi nashr, 2014. -36 б.
7. Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Исмоил ал-Бухорий. Ҳадис. (Ал жомиъ Ас-сахих). 1-жилд. - Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1997. - 338 б.
8. Кармышева Б.Х. Архаическая символика в погребально-поминальной обрядности узбеков Ферганы// Древние обряды, верования и культы народов Средней Азии. - М., 1986. - С. 140.
9. Пайзиева М. Ўзбекларнинг анъанавий ва замонавий мотам маросимлари. – Т.: Yangi nashr, 2014. -176 б.
10. Насриддинов К. Ўзбек дафн ва таъзия маросимлари. - Т.: Мерос, 1996. -31 б.
11. Снесарев Г.П. Реликты домусулманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. –М.: Наука, 1969. - С 115.
12. Басилов Н.В. Культ святых в исламе. –М.: Мысль, 1970. –С. 64
13. Ходжанов М.И. Қорақалпоғистондаги ўзбекларнинг оилавий маросимлари // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Н.: 2024 -100 б.
14. Саидов Г. Бухарские обряды. –Т.: 2015. – С 2
15. Пайзиева М. Тошкент шаҳри ўзбеклари оилавий маросимларида жамоа анъаналарининг ўрни // O‘zbekiston tarixi. –Toshkent, 2008. -№2. - 70 б.
16. Басилов Н.В. Древние обряды верования и культы народов Средней Азии. Историко-этнографические очерки. –М.: Наука, 1986. -С 140.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 372.8

"TARIXIY ONG" VA "TARIXIY TAFAKKUR" TUSHUNCHALARINING MOHIYATI

Tolepov Bekmurat Tangatar o'g'li, Ajiniyoz nomidagi Nukus DPIning mustaqil izlanuvchisi

THE ESSENCE OF THE CONCEPTS OF "HISTORICAL CONSCIOUSNESS" AND "HISTORICAL THINKING"

Tolepov Bekmurat Tangatar Uli, Independent Researcher at Ajiniyaz Nukus State Pedagogical Institute

СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЙ «ИСТОРИЧЕСКОЕ СОЗНАНИЕ» И «ИСТОРИЧЕСКОЕ МЫШЛЕНИЕ»

Толепов Бекмурат Тангатар оглы, независимый соискатель Нукусского государственного педагогического института имени Ажинияза

https://orcid.org/0009-0004-2975-4014
e-mail: bekmurattolepov@gmail.com

Annotatsiya: *Mediakontent asosida talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish ko'p bosqichdan iborat jarayon hisoblanadi. Maqolada tegishli jarayonning bosqichlari, ularning juz'iy va umumiy natijalari to'g'risida so'z boradi.*

Tayanch tushunchalar: *tarixiy ong, tarixiy tafakkur, tarixiy tafakkur shakllari, bosqichlar.*

Annotation: *The development of students' historical thinking based on media content is a multi-stage process. The article discusses the stages of the relevant process, their specific and general results.*

Key words: *historical consciousness, historical thinking, forms of historical thinking, stages.*

Аннотация: *Развитие исторического мышления учащихся на основе медиаконтента представляет собой многоэтапный процесс. В статье рассматриваются этапы данного процесса, их конкретные и общие результаты.*

Ключевые понятия: *историческое сознание, историческое мышление, формы исторического мышления, этапы.*

KIRISH. OTMda tarix fanlarini o'qitishda talabalarning tegishli yo'nalishda zarur tushunchalarga, ulardan amaliyotda foydalanish tajribasiga ega bo'lishi bilan birga mustaqil ravishda tarixiy voqea-hodisa, jarayonlarning mazmunini tahlil qila olish, ijtimoiy ahamiyatini baholash, kishilik taraqqiyotining progressiv yoki regressiv xarakter kasb etishidagi o'rni, rolini o'rganish, mavjud hamda kelgusi ijtimoiy munosabatlarga ta'sirini baholash kompetensiyalarini ham o'zlashtira olishlari zarur. Bu jarayon bevosita ularda tarixiy tafakkurning rivojlanishi bilan kechadi. Tarixiy tafakkur ijtimoiy subyektlarda insoniyat kechmishida ro'y bergan umumiy yoki hududiy voqeliklar mohiyatini tahlil qilish (o'ziga xos jihatlarini ajratib ko'rsatish), sintezlash (umumiy jihatlarni aniqlash), xulosalash (insoniyat, millat uchun ahamiyatini baholash, salbiy oqibatlarni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash, kelgusida ular ro'y bermasligining oldini olish choralarini ko'rish) kabi kompetensiyalarni rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Tadqiqotchilar shaxsning tarixiy tafakkurga egaligini ijobiy baholaydi. J.J.Shodiyevning bu boradagi yondashuvi quyidagi mazmunni ifodalaydi: fuqarolarda "ong va tafakkurning o'zgarishi jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda muhim shart bo'lib, o'zgarishlar jarayonida muhim o'rin tutadi. Tarixiy ong, tarixiy tafakkur esa shaxsda o'zaro ijtimoiy tenglik, vatanparvarlik, muayyan jamiyatga aloqadorlik tuyg'ularining shakllanishida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi"[7.125-b].

“Tarixiy ong” va “tarixiy tafakkur” tushunchalarining nazariy talqini muallifning yondashuvini to‘liq anglash imkonini beradi.

Tarixiy ong – o‘zida o‘tmish hamda insoniyat xronologiyasi to‘g‘risidagi qarashlar majmui bo‘lib, unda jamiyatning umumiy hamda uning tarkibiy qismi sifatidagi alohida bo‘g‘inining o‘ziga xosligi aks etadi[3]; dunyoni vaqtlar bo‘yicha talqin qilish va bu jarayonni baholash[4.55-b].

Ong hamda tarixiy ong masalalari yoritilgan manbalarni o‘rganish orqali, “tarixiy ong” tushunchasini nazariy jihatdan izohlash mumkin. Tarixiy ong – insoniyat kechmishi yoki muayyan millat, xalq o‘tmishiga oid ma’lumotlardan tarkib topgan bilimlarning shaxs ongida subyektiv aks etishi, in’ikosi.

Tarixiy tafakkur – tarixiy voqea va hodisalarni bilish, tarixiy jarayonlar mohiyatini, tarixiy voqea va hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar va munosabatlar mazmunini umumlashtirish, ular o‘rtasidagi aloqalarning sabab-oqibatlarini o‘rnatish orqali anglash qobiliyati[2]. Demak, tarixiy tafakkur tahlil qilish, umumlashtirish, sabab va oqibat aloqadorligini ta’minlash, xulosalash orqali tarixiy voqea, hodisa hamda jarayonlarning mohiyatini anglash demakdir.

Keltirilgan ta’rif va “tafakkur” tushunchalarining tavsifiga tayangan holda “tarixiy tafakkur” tushunchasini shunday talqin qilish imkoniyati yuzaga keladi: tarixiy tafakkur – shaxs ongida insoniyat yoki muayyan millatning tarixiy taraqqiyotida ro‘y bergan voqeliklar, jarayonlar to‘g‘risidagi tasavvurlarning hosil bo‘lishi orqali xronologik izchillik mohiyatini idrok qilish, turli zamon va makonda ro‘y bergan hodisalar o‘rtasidagi o‘zaro ijtimoiy aloqadorlikni aniqlash orqali subyektiv munosabatning shakllanishini ta’minlovchi aqliy faoliyat. Pedagogik yo‘nalishda olib borilgan ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilayotgan muammo mohiyatini xarakterlovchi jarayonning bosqichlari va ularda hal qilinadigan vazifalarni aniqlash faoliyatning muhim tarkibiy elementi sifatida baholangan. Masalan, tadqiqotchi Ye.V.Ankudinova shaxsning iqtisodiy ijtimoiylashuvida ahamiyatli bo‘lgan bosqichlarni quyidagicha belgilaydi:

1) moslashuv bosqichi; 2) tenglashish bosqichi; 3) individuallashtirish bosqichi; 4) yuqori darajada individuallashuv bosqichi [1].

Har qanday, shu jumladan, pedagogik jarayon ham ko‘p bosqichli xarakterga ega. Lug‘aviy talqiniga ko‘ra “bosqich” tushunchasi “qandaydir jarayon yoki faoliyatning alohida davri, pallasi”[6] ma’nosini anglatadi. Odatda jarayonning har bir davrida juz’iy vazifalar bosqichma-bosqich hal qilinadi va ular asosiy maqsadni amalga oshirishga yo‘naltiriladi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR. Yosh davri va kasbiy yo‘nalganligi nuqtayi nazarida esa mediakontent asosida talabalarda tarixiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan jarayonda o‘ziga xos xususiyatlar (insoniyat yoki milliy tarixning fikriy harakatlar uchun obyekt sifatida qabul qilinganligi; aniq predmetlar bo‘yicha fikrlash; tarixiy va ijtimoiy tafakkurning o‘zaro uyg‘unligi; tarixiy-madaniy rivojlanish dialektikasiga egalik kabilar) ustuvorlik kasb etadi. Mavjud holat ilmiy-pedagogik tadqiqotni olib borish davrida mediakontent asosida talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish jarayonining quyidagi bosqichlar asosida kechadi, degan xulosaga kelish imkoniyatini yaratdi:

1. Boshlang‘ich-nazariy tarixiy tafakkurga egalik bosqichi. Bu bosqich talabalar tomonidan o‘quv topshiriqlarini bajarishda umumiy o‘rta, shu bilan birga professional ta’lim muassasalarida tarix fanlari bo‘yicha o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanilishi bilan tavsiflanadi. Talabalarning o‘quv-bilish faoliyati pedagog tomonidan taqdim qilingan yoki o‘quv adabiyotlari (darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik ishlanmalar)da berilgan bilimlarni o‘zlashtirishdan iborat bo‘ladi. O‘quv topshiriqlari, asosan, mavzuni qayta bayon qilish, murakkab bo‘lmagan test topshiriqlarini bajarish, referat tayyorlashdan iborat bo‘ladi. Tegishli turdagi tafakkurning namoyon bo‘lishi asosan OTMdagi tahsilning I bosqichidagi dastlabki ikki-uch oylarga to‘g‘ri keladi.

2. Predmetli-amaliy tarixiy tafakkurga egalik bosqichi. Ushbu bosqich talabalarning o‘quv topshiriqlarini bajarish chog‘ida predmetning o‘ziga xosligi, asosiy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tegishli tarix fani bo‘yicha mulohazali fikr yurita boshlaganida aks etadi. Xarakterli jihati shundaki, bu bosqichda talabalar pedagog tomonidan taqdim qilingan yoki o‘quv adabiyotlari (darslik, o‘quv qo‘llanma, metodik ishlanmalar)da berilgan bilimlarni o‘zlashtirish bilan kifoyalanib qolmay, tegishli mavzularda qo‘shimcha manbalar bilan tanishishga harakat qiladi. Bosqichda talabalarning e’tiboriga tarixiy mavzudagi keyslar, darajali testlarni havola qilish kutilgan natijalarni beradi. Kasbiy takomillashuvda alohida ahamiyat kasb etadigan mazkur bosqich oliy ta’lim I bosqichining ikkinchi yarmida kechadi.

3. Mantiqiy-samarali tarixiy tafakkurga egalik bosqichi. Bu bosqichda talabalar matnni, tarixiy hujjatlarni o‘rganish, tarixiy hodisalar mohiyatini tahlil qilishda ularga oid ma’lumotlarni shunchaki qabul qilmaydi, balki o‘z oldilariga ko‘plab savollarni qo‘yib, ularga javob topishga harakat qiladi. Bosqichda talabalarni kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, o‘quv loyihalarini o‘quv predmetining mohiyatidan kelib chiqqan holda dolzarb mavzularda ta’limiy loyihalarni yaratishga jalb qilish ularning o‘quv-bilish faolligini rivojlantiradi. Shuningdek, bu bosqichda talabalarning dastlabki ilmiy ishi – kurs ishi ham tayyorlanadi. Kasbiy takomillashuv xarakterini ifodalovchi mazkur palla oliy ta’limning II va III bosqichlarida amalga oshadi.

4. Intuitiv-mahsuldor tafakkurga egalik bosqichi. Bu bosqichda talabalar matnni, tarixiy hujjatlarni o‘rganish bilan birga tarixiy jarayonlar mohiyatini tahliliy, tanqidiy va ijodiy yondashuv asosida o‘rganish, mustaqil ravishda ilmiy tadqiqotni amalga oshirish, ilmiy xulosalarga tayanilgan maqolalarni e’lon qilish, tarixiy hodisalar mazmuni, ularni keltirib chiqargan sabablar, oqibatlarni mutaxassis-ekspert sifatida baholashga intiladi. Ushbu bosqichda talabalar tomonidan ularning dastlabki murakkab ilmiy ishi – bitiruv malakaviy ishi hamda magistrlik dissertatsiyasi tayyorlanadi. Kasbiy takomillashuvda ahamiyatli bo‘lgan bu bosqich oliy ta’lim bakalavriat bosqichi hamda magistratura davrini o‘z ichiga oladi.

XULOSA. Ilmiy-pedagogik jarayonni tashkil qilishda ham bosqichlar va ularning har birida hal qilinishi zarur bo‘lgan vazifalarni belgilab olish faoliyatning muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Shu sababli mediakontent asosida talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda ana shu maqsadga qaratilgan jarayon bosqichlari belgilandi. Nazariy tahlil va respondent-talabalar faoliyatini kuzatish, baholash orqali mediakontent asosida talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirish jarayonining boshlang‘ich-nazariy tarixiy tafakkurga egalik, predmetli-amaliy tarixiy tafakkurga egalik, mantiqiy-samarali tarixiy tafakkurga egalik, intuitiv-mahsuldor tafakkurga egalik bosqichlaridan iborat bo‘lishi aniqlandi. Har bir bosqichga o‘ziga xos yondashish, o‘quv topshiriqlarini to‘g‘ri shakllantirish belgilangan bosqichlarning samarali kechishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Анкудинова Е.В. Определение сущности экономической социализации // https://cyberleninka.ru/ article/n/opredelenie-suschnosti-ekonomicheskoy-sotsializatsii.
2. Жужгова Н.В. Формирование исторического мышления в условиях модернизации системы образования // https://urok.1sept.ru/articles/310335
3. Историческое сознание // http://ponjatija.ru/node/11629.
4. Кочетова Ю.Ю., Тимченко Н.С. Проблема исторического сознания: методологические подходы // Ж. Знание. Понимание. Умение. – М.: 2020. - № 4. – С. 55.
5. Стадии развития мышления // https://psyclinic-center.ru/biblioteka-kliniki/vvedenie-v-klinicheskuyu/ stadii-razvitiya-myshleniya?utm_referrer.
6. Этап // https://gramota.ru/meta/etap.
7. Шодиев Ж.Ж. Значение исторического мышления в создании фундамента третьего возрождения и его значение в укреплении человеческих ценностей //

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK:101.1:316:141.336:28(575.172)

SHAXS MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA DUNYOVIY VA DINSHUNOSLIK FANLARINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Yembergenov Ansatbay Paluanovich, NDPI dotsenti, falsafa fanlari nomzodi

THE SPECIFIC FEATURES OF DEVELOPING SECULAR AND RELIGIOUS STUDIES IN THE MORAL AND SPIRITUAL EDUCATION OF THE INDIVIDUAL

Yembergenov Ansatbay Paluanovich, Associate Professor at Nukus State Pedagogical Institute, Candidate of Philosophical Sciences

ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СВЕТСКИХ И РЕЛИГИОВЕДЧЕСКИХ НАУК В НРАВСТВЕННО-ДУХОВНОМ ВОСПИТАНИИ ЛИЧНОСТИ

Ембергенов Ансатбай Палуанович, доцент Нукусского государственного педагогического института, кандидат философских наук

https://orcid.org/0009-0009-7350-1897
e-mail: ayko2605@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada shaxs ma'naviy-axloqiy tarbiyasida dunyoviylik va diniy ta'limning o'zaro munosabati tahlil qilinadi. Maqolada dinshunoslik va islomshunoslik fanlarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish, dindor va dunyoviy madaniyatni uyg'unlashtirish, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, din va davlat o'rtasidagi aloqaning huquqiy-me'yoriy asoslari, ta'limda diniy bag'rikenglik va vijdon erkinligi tamoyillari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *dunyoviylik, dinshunoslik, islomshunoslik, ma'naviyat, axloqiy tarbiya, bag'rikenglik, ta'lim tizimi, diniy madaniyat, vijdon erkinligi, fuqarolik ong.*

Abstract: *The article analyzes the relationship between secularism and religious education in the spiritual and moral education of the individual. The article scientifically illuminates the issues of teaching religious studies and Islamic studies based on modern pedagogical technologies, harmonizing religious and secular culture, and instilling spiritual and moral values in the minds of youth. It also analyzes the legal and regulatory framework of the relationship between religion and the state, the principles of religious tolerance and freedom of conscience in education.*

Keywords: *secularism, religious studies, Islamic studies, spirituality, moral education, tolerance, education system, religious culture, freedom of conscience, civic consciousness.*

Аннотация: *В статье анализируется взаимосвязь светского и религиозного образования в духовно-нравственном воспитании личности. В статье на научной основе освещены вопросы преподавания религиоведения и исламоведения на основе современных педагогических технологий,*

гармонизации религиозной и светской культуры, внедрения духовно-нравственных ценностей в сознание молодежи. Также анализируются нормативно-правовые основы взаимоотношений религии и государства, принципы религиозной толерантности и свободы совести в образовании.

Ключевые слова: *светскость, религиоведение, исламоведение, духовность, нравственное воспитание, толерантность, система образования, религиозная культура, свобода совести, гражданское сознание.*

KIRISH. Ma'lumki, ta'lim jamiyatning ma'naviy-ijtimoiy va sivilizatsiyaviy rivojlanishiga turtki beradi. Insoniyat tarixida ta'lim tizimining ko'plab turlari mavjud bo'lgan. Bugungi kunda Konstitutsiya asosida dunyoviy tamoyillar asosida tashkil etilgan demokratik mustaqil O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi ikki alohida – dunyoviy va diniy tizimda ko'rib chiqiladi. Shu bilan birga, ta'lim tizimini rivojlantirish strategiyasining asosiy maqsadi milliy ta'lim modelini yaratishdir. Jamiyat va din o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning samarali modelini topish zarurligiga e'tibor qaratgan holda aytish mumkinki, mamlakatimizning tarixiy tanlovi dunyoviy ta'lim va dunyoviy davlatdir. Biz vijdon erkinligi, diniy e'tiqodlarning tengligi, siyosiy hokimiyatning diniy konfessiyalarga nisbatan betarafligini dunyoviy davlat asosiga bog'laymiz. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun esa ta'lim tizimining dunyoviy xususiyatga ega ekanligi tamoyilini e'tirof etib, ta'lim – ta'lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malaka va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon deb ta'riflaydi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Zamonaviy ta'lim tizimida dunyoviylik masalasi hozirgi zamonning dolzarb muammosi ekanligiga shubha yo'q. "Dunyoviylik" atamasi mamlakat konstitutsiyasida belgilangan bo'lsa, uning ta'lim tizimidagi tabiati mamlakat qonunlari bilan kafolatlangan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida O'zbekiston o'zini demokratik, dunyoviy, huquqiy va ijtimoiy davlat sifatida belgilaydi. Bu yerda "dunyoviy" tushunchasi dinning davlat siyosatidan ajratilganligini bildiradi. Shuningdek, "dunyoviy" tushunchasi davlatning dinga munosabatining demokratik xususiyatini ko'rsatadi. Dunyoviylik to'g'risidagi qonun mamlakatda diniy munosabatlarni tartibga solishning konstitutsiyaviy asosini tashkil etadi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi o'zini demokratik, dunyoviy davlat sifatida qaror toptiradi, huquqni tasdiqlaydi. Har kimning vijdon erkinligi va har kim o'z diniy e'tiqodidan qat'i nazar, teng huquqlarga ega ekanligini kafolatlaydi, hanafiy islom va pravoslav xristianlikning xalq madaniyati va ma'naviy hayotini rivojlantirishdagi tarixiy rolini e'tirof etadi, ma'naviyatga mos keladigan boshqa dinlarni hurmat qiladi. O'zbek xalqining merosi, konfessiyalararo totuvlik, diniy bag'rikenglik va fuqarolarning diniy e'tiqodlarini hurmat qilish muhimligini tan oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda ta'lim tizimida dunyoviylik va islomshunoslik o'zaro aloqadorligi tarixiy-tahliliy, qiyosiy hamda pedagogik metodlar asosida o'rganildi. Ishda falsafiy va aksiologik yondashuvlar yordamida diniy va dunyoviy qadriyatlarning ma'naviy-tarbiyaviy ahamiyati tahlil qilindi. Maqola O'zbekiston olimlari va zamonaviy ta'lim konsepsiyalariga tayangan holda olib borildi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Dunyoviylik tamoyillari qonunchilik me'yorlari bilan belgilab qo'yilganligi sababli, avvalo qonun tilida so'zlash zarur. O'zbekiston Respublikasida ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimi diniy ta'lim tashkilotlari bundan mustasno, din va diniy birlashmalardan ajratilgan hamda dunyoviy xususiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri ta'limning dunyoviy, insonparvar va rivojlanish xarakteriga ega bo'lishidir. Bundan tashqari, mazkur qonunga muvofiq, ta'lim tashkilotlarida siyosiy partiyalar va diniy tashkilotlarning, birlashmalarning tashkiliy tuzilmalarini tashkil etish va ularning faoliyatini yo'lga qo'yish, ta'lim tashkilotlarida irqiy, etnik, diniy, ijtimoiy kelishmovchilik va o'ziga xoslikni targ'ib qilish, siyosiy professor-o'qituvchilar tarkibining o'quv jarayonida diniy targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishi taqiqlanadi. Bu tamoyillar birgalikda mamlakat ta'lim tizimining dunyoviylik

tamoyillarini tashkil etadi. Ushbu tamoyillar o‘quvchilarning erkinligi va huquqlarini, xavfsizligi va qonuniyligini ta’minlashga qaratilgan. Bu borada asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan narsa shuki, dunyoviylik dinsizlik emas, u insonparvarlik qadriyatlariga, jumladan, inson vijdoni va diniy e’tiqod erkinligini ro‘yobga chiqarish, dunyoqarash erkinligi, ma’naviy sohadagi fikrlar xilma-xilligi va insonparvarlik tamoyillariga asoslanadi. Demak, diniy bilim ham dunyoviy ta’lim-tarbiyaning bir qismidir.

Dinni o‘rgatish inson, jamiyat, olam haqidagi dunyoqarash va falsafiy savollarga javob izlash ekanligiga shubha yo‘q. Dinshunoslik fanini dunyoviy ta’lim tizimida o‘qitish jamiyatda insonparvarlik va ma’naviy-axloqiy asoslarni ta’minlashga yordam beradi. Ma’naviyat faqat diniy ta’limotlar bilan cheklanib qolmaydi. Ma’naviyat falsafiy-axloqiy tushunchadir. Ma’naviyat dunyoviy axloqiy pozitsiya sifatida insonning ma’naviy ruhi, ichki va tashqi madaniyati bilan bog‘liq holda belgilanadi. Ma’naviyati yuksak, ma’naviy dunyosi boy inson dinga nisbatan betaraf bo‘lishi mumkin. Hozirgi kunda agnostik yoki ateist bo‘lgan odamning ma’naviyati yetishmaydi, degan noto‘g‘ri tushunchalar mavjud. Ma’naviyat dunyoviy-axloqiy tushuncha sifatida inson qalbi va ruhi pokligini belgilaydi.

Dinshunoslikning zamonaviy ta’lim texnologiyasi imkoniyatlarini va islom ta’limi va tarbiyasiga tatbiq etish usullarini aniqlash maqsadida uslubiy va pedagogik modellarni amalga oshirish zarur. Ta’lim mazmunida dunyoviylik tamoyili diniy fanlarni o‘qitishning metodik asosi bo‘lishi kerak. Bugungi kunda dunyoning aksariyat davlatlarida davlat maktablari dunyoviy maqomga ega. Dunyoviylik tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 1992-yilda qabul qilingan Konstitutsiyamizda mustaqil davlatning dunyoviylik tamoyili mustahkamlab qo‘yilgan. Dunyoviylik tamoyili jamiyat, xalq, madaniyat va zamonaviy ta’lim tamoyili bo‘lishi kerak. Ma’naviyat ana shu kelajak avlodning har tomonlama barkamol bo‘lishining garovi bo‘lishi kerak. Bu xalq ma’naviyati bilan ham chambarchas bog‘liq. Sog‘lom fikr, e’tiqod, izlanuvchanlik, vatanparvarlik bugungi kunda tarbiyaning asosiy tamoyillari hisoblanadi. “Tarixga teran nazar solsak, bizning yetti ajdodimiz kim ekanini ko‘ramiz. Ne-ne buyuk daholar, mutafakkir va allomalar aynan siz va biz yashayotgan muqaddas Vatanda yashab o‘tganlar. Xuddi ular kabi ularning avlodlari ham hali dunyo tamadduniga o‘z hissalarini qo‘shishlariga hech kim shubha qilmaydi. Chunki yoshlarimiz tomirida ajdodlarimizning qoni oqib turibdi”[2.74-75].

Islomshunoslik gumanitar fanlar bilan chambarchas bog‘liq holda ko‘rib chiqilishi lozim. Islomshunoslik ta’limotida dinni murakkab va ilmiy tushuntirishga ahamiyat berish kerak. Din haqidagi teologik bilimlar dinning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida tizimli bilim beradi. Islomshunoslik o‘quv dasturida Qur’on ta’limotlari, tafsir, hadis ta’limotlari, siyrat, fiqh, aqida ta’limotlari, xulq-atvor, diniy targ‘ibot va notiqlik, arab tili kabi fanlar o‘rin olgan. Bundan tashqari, asosiy komponentlar – O‘zbekiston tarixi, falsafa, chet tili va tanlov fanlari o‘qitiladi.

Ta’lim dasturlarining asosiy ustuvor yo‘nalishi doimiy ravishda o‘zgarishlarga moslashish va yangi bilimlarni egallash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘lishi kerak. Islomshunoslik bo‘yicha mutaxassislar tayyorlashda yangi ta’lim texnologiyasi va zamon talablari asosida diniy fanlar bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi yangi dastur tayyorlash eng muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu dasturda diniy asosli radikal mafkura bilan zaharlanganlarni yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishning diniy-psixologik usullari tizimli ko‘rib chiqilishi lozim. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarida zamonaviy terrorizm falsafasi va psixologiyasi usullaridan foydalanish diniy xizmatchilarning internet tarmog‘idan foydalanish malakasini oshirishni nazarda tutadi.

Islomshunoslik fanini o‘qitish metodikasini tizimli ravishda takomillashtirish maqsadida mamlakatimizning yirik shahar va tumanlarida islomshunoslik hamda dinshunoslik fanlari olimlari va mutaxassislari ishtirokida respublika miqyosida konferensiya va seminarlar o‘tkazish zarur. Diniy ta’lim sifatini oshirish bilan birga, islomshunoslik sohasida to‘plangan tajribalarni mamlakatimizda keng qo‘llash va targ‘ib qilish islomshunoslik mutaxassisligi o‘qituvchilariga o‘quv-uslubiy yordam bo‘lar edi. Diniy mutaassiblik va taqlidchilikka qarshi qalqon bo‘ladigan diniy madaniyat va diniy ongni

TAMADDUN NURI

shakllantirish uchun diniy ta'lim dunyoviy sharoitda berilishi kerak. Mamlakatimizda millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik madaniyati, o'zaro hurmat tamoyili qaror topdi. Din insonning ma'naviy olamiga osoyishtalik baxsh etib, insonning qadr-qimmati, sha'nini o'rgatadi. Har bir insonning qalbidagi uyg'unlik va ichki madaniyat jamiyatdagi shaxslararo munosabatlar madaniyatida o'zaro tushunish shartidir. Har bir inson aql-idrok va boy ma'naviy olami, kuchli ruhiyatga ega bo'lsagina yovuzlik va zo'ravonlikka qarshi tura oladi. Shu bois inson qalbini tarbiyalash, uning dunyoqarashini shakllantirishda jahon va an'anaviy dinlarning ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni "insoniyat ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amaliyotga izchil amal qilibgina inqirozdan qutulishi va farovon hayotga yetishishi mumkin, degan purhikmat xulosalar chiqarilgan" [4.94].

Shuningdek, dunyoviy madaniyat va diniy madaniyatning o'ziga xosligi hamda umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ya'ni diniy va diniy bo'lmagan dunyoqarashlarning birlashtiruvchi va interfaol asoslarini bag'rikenglik bilan tushuntirish muhim ahamiyatga ega. Islomshunoslik fanini o'qitish mazmuni va metodikasi dunyoviylik va bag'rikenglik tamoyillari, vijdon erkinligi, diniy e'tiqod va fikr erkinligi kabi mamlakat va xalqaro huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Islomshunoslik fanini o'qitishda zamonaviy axborot-tahliliy va o'quv-uslubiy asoslarga tayanish zarur. Dunyoviy jamiyatda islomiy ta'limning maqsadi dunyoviy madaniyat tizimiga muvofiq xizmatlar ko'rsatish va dindor fuqarolarning diniy ehtiyojlarini qondirishdan iborat.

Har bir dinning e'tiqod va qadriyatlariga hurmat, vatanparvarlik g'oyalari, bag'rikenglik, umumiy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirish va o'ziga xos yo'nalish sifatida dunyoviylik tamoyilidan kelib chiqib o'rgatish zarur. Bu jarayonda, gumanizm-insonparvarlik yetakchi mavqeda turishi lozim. Ya'ni umumiy insonparvarlikka rioya qiladigan, har bir shaxsning hech qanday tashqi nazoratsiz, ayni insonparvarlik axloqiga uyg'un o'z meni oldidagi javobgar shaxs. Bunda "bir odam – obro egasi inson uchun nima yaxshiligini belgilab beradi, o'zni tutish qonun-qoidalari va me'yorlarini ham o'ylab topadi, o'rnatadi. Insonparvarlik axloqi esa bu qonun-qoidalar va me'yorlarni o'zi yaratishi, o'zi boshqarishi hamda ularga o'zi amal qilishi bilan farqlanadi"[3.18].

Diniy ta'lim metodikasi insonning ma'naviy tabiati va madaniyatini yuksaltirish, diniy ta'lim yutuqlarini har tomonlama anglash, diniy ta'limotlarni o'rganish va tahlil qilish, o'zgalar madaniyatini tushunish, diniy bag'rikenglik va dinlararo totuvlik pozitsiyalarini hurmat qilishga tarbiya beradi. Dinshunoslik va islomshunoslik ixtisosligi bo'yicha bitiruvchilarni davlat xizmatiga tayyorlash va tarbiyalashdan ko'zlangan asosiy maqsad davlatning din sohasidagi siyosati yo'nalishi va xususiyatlarini tushuntirishdan iborat. Oliy ta'lim tizimida diniy fanlarning o'qitilishi dunyoviy davlat tamoyillarini targ'ib qilish, diniy savodsizlik va diniy murosasizlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Globallashuv jarayonida har bir xalq o'z urf-odatlari, milliy ong ustunlariga tayangan holda, o'z qiyofasini yo'qotmagan holda o'z milliy o'zligini aniqlashga, milliy ramzlarini ulug'lashga intiladi. Dindor yoshlarimiz ham dunyoviy davlat tamoyilini, millatimiz tilini, tarixini, an'analarini e'zozlashi, ajdodlarimiz merosini asrab-avaylashi zarur. Davlat xizmatchilarining diniy sohadagi dunyoqarashi va axloqiy pozitsiyasida dunyoviy va milliy qadr-qimmatdan tug'ilgan muqaddas tushunchalarga hurmat hissini shakllantirish milliy manfaat va fuqarolik burchiga sodiq diniy mutaxassislarni tarbiyalashdan iborat.

Xorijiy davlatlarda diniy ta'lim olmoqchi bo'lgan yoshlar soni ko'payib borayotgani bois, ularning dunyoqarashi shakllanib, diniy ta'lim yetarli darajada tamomlangandan keyingina xorijiy davlatlardagi diniy ta'lim muassasalariga yuborilgani ma'qul. Mamlakatda boshlang'ich diniy ta'lim an'anaviy qadriyatlarga asoslangan bo'lishi kerak. Turkiya, Misr, Saudiya Arabistoni, Liviya, Yaman, Pokiston, Hindiston, Malayziya kabi davlatlarda diniy ta'lim olgan ilohiyotshunos va imom-xatiblar dunyoviy davlatning diniy sohadagi pozitsiyalari va tamoyillari, dunyoviy davlatda va'z aytish metodologiyasi, diniy ta'limotlar, diniy targ'ibot-tashviqot ishlarining yo'nalishlari, diniy ta'limotlar, diniy ta'limotlar haqida so'z yuritdilar. Turli davlat tuzilishi va mafkurasiga ega xorijiy davlatlarning diniy ta'lim muassasalarini tamomlagan fuqarolarimizni

dunyoviy mamlakatimizda ijtimoiy hayot haqiqatiga mos holda mehnat qilishga o‘rgatish muhim ahamiyatga ega.

Dinshunoslik va islomshunos olimlarning ziyoli, diniy, ilmga ishtiyoqi, vatanparvarligi, odobliligi, xushmuomalaligi, bag‘rikengligi, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni to‘liq anglashi bilan ajralib turadi va bu ularning ham diniy, ham dunyoviy madaniyatga amal qilishiga xizmat qiladi, deb o‘ylaymiz. Hududlardagi diniy vaziyatlarning dinamikasi va tendensiyalariga ta’sir etuvchi tashqi va ichki ta’sirlarni aniqlash diniy-ma’rifiy faoliyatning ekstremistik diniy oqimlarga qarshi olib boriladigan eng samarali usullaridan biri, dinshunoslik va islomshunoslikning asosiy maqsadlaridan biri, deb hisoblaymiz.

Dunyoviy davlatda dinshunoslik va islomshunoslik kasbi jamiyatning ma’naviy tiklanishiga, diniy savodxonligini oshirishga, diniy mansabdor shaxslarning nufuzini oshirishga, buzg‘unchi oqimlarning oldini olishga xizmat qiladi. “Islomshunoslik” va “dinshunoslik” kasbini o‘qitish jarayoni bo‘lajak davlat xizmatchilari diniy sohada badiiy xarakter, so‘z va amal uyg‘unligi, e’tiqod, salomatlik, dunyoviylik va intellektual milliy an’ana va ma’naviyatni tarbiyalaydi, ularni milliy va diniy qadriyatlarni hurmat qilishga o‘rgatadi. umuminsoniy qadriyatlarni, millatlararo va konfessiyalararo munosabatlar madaniyatini yuksaltirish, o‘ziga xos adabiyotlar bilan targ‘ib qiladi.

XULOSA. Shuni unutmaslik kerakki, qonun tamoyillari fuqarolarga vijdon va diniy e’tiqod erkinligini berish bilan birga davlat oldidagi burch va mas’uliyatni ham yuklaydi. Mehnat madaniyatini puxta egallash, din sohasidagi davlat siyosatining mazmun-mohiyati va g‘oyalarini aniq tushunish, zamonaviy talablarni o‘zlashtirishga e’tibor qaratishi lozim. Diniy targ‘ibot usullari, diniy ekstremizm va aqidaparastlikka qarshi kurashish qobiliyatini shakllantirishi kerak. Bilimli, malakali bitiruvchilar ta’lim muassasasi nufuzini oshirishi aniq. Dunyoviy davlatimizning din sohasidagi davlat siyosatini har tomonlama anglagan, o‘z bilim va ko‘nikmalarini real voqelikka mos ravishda hayotga tatbiq etadigan davlat xizmatchilarining diniy sohada kadrlar tayyorlash davr talabidir. Millatimizning yaxlitligi va birligi g‘alabalarimiz poydevoridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Ўзбекистон Республикасининг Таълим тўғрисидаги қонуни www.lex.uz
2. U.Alimov. Yoshlar – kelajagimiz. Movarounnahr, Toshkent-2008, 74-75.b.
3. Фромм Э. Человек для себя. Минск, Хорвест, 2004. С. 18.
4. Ницше Ф. Зардушт таваллоси.//Тафаккур. 1995. 1-сон. Б. 94.
5. Абрамов, А.В. Этика ислама: основные нравственные принципы Корана / А. В.
6. Канайкина, Е.А. Этико-философский анализ нравственных систем православия, католичества и протестантизма. Дисс. канд. соц. наук. -Екатеринбург, 2014.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 39(470)

SABANTOY — TATAR XALQINING MILLIY BAYRAMI VA UNING O‘ZBEKISTONDA NISHONLANISHI

Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna, Ma’mun universiteti huzuridagi NTM “Tarix” kafedrasi o‘qituvchisi

SABANTUY — THE NATIONAL HOLIDAY OF THE TATAR PEOPLE AND ITS CELEBRATION IN UZBEKISTAN

Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna, Lecturer, Department of History, Mamun University Research and Training Center

САБАНТУЙ — НАЦИОНАЛЬНЫЙ ПРАЗДНИК ТАТАРСКОГО НАРОДА И ЕГО ОТМЕЧАНИЕ В УЗБЕКИСТАНЕ

Таджиева Наргиза Джумабаевна, преподаватель кафедры истории, НТМ при Университете имени Мамуна

https://orcid.org/0009-0004-2757-0940
e-mail: tadjiyevanargiza1984@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tatar xalqining qadimiy milliy bayrami — Sabantoyning kelib chiqishi, tarixiy ildizlari va zamonaviy davrdagi nishonlanish shakllari yoritilgan. Xususan, O‘zbekiston, jumladan, Xorazm viloyatida har yili o‘tkaziladigan Sabantoy bayramining ijtimoiy-madaniy ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida tarixiy, etnografik va madaniyatshunoslik manbalari, shuningdek, zamonaviy OAV materiallari tahlil qilinib, Sabantoyning millatlararo totuvlikni mustahkamlashdagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Sabantoy, tatarlar, milliy bayram, Xorazm, diaspora, madaniyat, totuvlik.*

Abstract: *This article explores the origins, historical roots, and modern forms of the ancient Tatar national holiday — Sabantuy. Special attention is paid to its celebration in Uzbekistan, particularly in the Khorezm region, where Sabantuy is held annually. The study analyzes historical, ethnographic, and cultural sources, as well as contemporary media materials. The author emphasizes the role of Sabantuy in strengthening interethnic harmony and preserving the cultural heritage of the Tatar people.*

Keywords: *Sabantuy, Tatars, national holiday, Khorezm, diaspora, culture, harmony.*

Аннотация: *В статье рассматриваются происхождение, исторические корни и современные формы празднования древнего национального праздника татар — Сабантуя. Особое внимание уделено его проведению в Узбекистане, в частности, в Хорезмской области, где Сабантуй отмечается ежегодно. В ходе исследования были проанализированы исторические, этнографические и культурологические источники, а также материалы современных СМИ. Автор*

раскрывает роль Сабантуя в укреплении межнационального согласия и сохранении культурного наследия татарского народа.

Ключевые слова: *Сабантуй, татары, национальный праздник, Хорезм, диаспора, культура, согласие.*

KIRISH. Tatar xalqining eng qadimiy va mashhur milliy bayramlaridan biri bo‘lgan Sabantoy — xalq madaniyatining, an’analarining hamda birlik va totuvlikning ramziga aylangan yirik madaniy hodisadir. Bu bayram tatar xalqining ko‘p asrlik agrar turmush tarzidan, tabiat bilan uyg‘un yashash falsafasidan hamda mehnatsevarlik qadriyatlaridan oziqlanadi. Dastlab Sabantoy bahorgi ekin mavsumi yakunlangach, yerga urug‘ sepish ishlari tugaganidan keyin, dehqonlar orasida hosil mo‘l bo‘lishini, tabiat in’omlarining barakali bo‘lishini tilab o‘tkazilgan xalq bayrami sifatida shakllangan. Shu sababli bayramning o‘zi ham “saban” (ya’ni “sug‘orish, haydash, yer haydash quroli”) va “toy” (ya’ni “bayram, to‘y”) so‘zlaridan tarkib topgan bo‘lib, “saban haydash to‘yi” yoki “dehqonchilik bayrami” ma’nosini bildiradi.

Vaqt o‘tishi bilan Sabantoy o‘zining dastlabki agrar mazmunidan chiqib, xalqning madaniy va ma’naviy birligini ifodalovchi umumxalq bayramiga aylangan. U tatar xalqining ijtimoiy hayotida muhim o‘rin tutgan — mehnatni e’zozlash, yoshlarni mehnatsevarlik va halollik ruhida tarbiyalash, xalq o‘yinlari, qo‘shiqlari va raqslari orqali milliy qadriyatlarni avloddan avlodga yetkazish vositasi bo‘lib xizmat qilgan.

Sabantoy o‘tkaziladigan kunlarda qishloqlarda, keyinchalik shahar markazlarida keng xalq sayillari tashkil etilib, unda kurash, arqon tortish, ot poygasi, ko‘pkari, she’r aytish, qo‘shiq kuylash va milliy taomlar musobaqalari o‘tkazilgan. Bu tadbirlar xalq hayotida nafaqat bayramiy ruh, balki ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi omil sifatida ҳам muhim rol o‘ynagan.

Bugungi kunda esa Sabantoy nafaqat Tatariston va Rossiyaning turli hududlarida, balki O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkiya kabi davlatlarda yashayotgan tatar diasporasi tomonidan ҳам кенг nishonlanadi. Ayniqsa, O‘zbekistonning Xorazm viloyatida bu bayramнинг o‘tkazilishi xalqlararo madaniy aloqalar mustahkamlanayotganининг amaliy ifodasi sifatida e’tirof etiladi.

Shu tariqa Sabantoy bugungi kunda o‘zining tarixiy ildizlari, etnografik mohiyati ва zamonaviy shakli билан xalqaro madaniy meros darajasiga ko‘tarilgan, tatar xalqining o‘zligini saqlash ва uni yangi sharoitda rivojlantirishga xizmat qilayotgan bayramdir [1]. U nafaqat tatar xalqining, balki boshqa turkiy xalqlarning ҳам agrar madaniyatini ifodalovchi umumturkiy qadriyat hisoblanadi.

O‘zbekistonda Sabantoy har yili Respublika miqyosida, xususan Xorazm viloyatida nishonlanadi. Masalan, Urganch shahridagi Sabantoy tadbirlari doimiy tashkil etilib, 2016-yilda taxminan 500 kishi, 2017-yilda 700 kishi, 2019-yilda 450 dan ortiq, 2021-yilda esa 350 kishi ishtirok qilganligi qayd etilgan [15]. Toshkentda ҳам milliy bog‘larda “Sabantoy” dasturi o‘tkaziladi; masalan, 2016-yilda Mirzo Ulug‘bek xiyobonidagi tantanada turli sport o‘yinlari (kurash, arqon tortish, yostiq jangi ва hokazo) ва milliy qo‘shiqlar bo‘lganligi Kun.uz tomonidan yoritilgan [16].

Sabantoy bugungi kunda tatar diasporasi yashayotgan ko‘plab mamlakatlarda, jumladan, O‘zbekistonning turli viloyatlarida ҳам o‘tkaziladi. Xususan, Xorazm viloyatida бу bayram millatlararo do‘stlik, bag‘rikenglik ва madaniy hamkorlikni mustahkamlovchi tadbir sifatida har yili katta tantana билан o‘tkaziladi. 2025-yil 1-iyun kuni Xorazm viloyatining Urganch shahrida joylashgan Amir Temur xiyobonida o‘tkazilgan Sabantoyda Tatariston Respublikasidan rasmiy mehmonlar, madaniyat arboblari, tatar xalq artistlari hamda O‘zbekiston tatar diasporasi vakillari ishtirok etdilar [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tadqiqot davomida tarixiy, etnografik va madaniyatshunoslik adabiyotlari tahlil qilindi. Sabantoyning kelib chiqishi haqida V.A. Isxakov va I.L. Izmaylovlarning ilmiy ishlari asosiy nazariy manba sifatida o‘rganildi [3]. Ularning fikricha, Sabantoy dastlab dehqonlar yig‘ini tarzida paydo bo‘lgan bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan xalqning madaniy va ma’naviy hayotiga chuqur singib ketgan. Shuningdek, Yu.F. Yusupov va R.R. Axmetova kabi olimlar Sabantoyni tatar xalqining etnomadaniy merosini saqlashda muhim omil deb baholaydilar [4].

Tadqiqotda O‘zbekiston va Tataristondagi madaniy portallar — Tatcultresurs.ru va tatar-congress.org rasmiy saytlarida e’lon qilingan ma’lumotlar, shuningdek, Kun.uz, Afisha.uz va O‘zA kabi OAV xabarlari ҳам tahlil qilindi [5][6]. Tadqiqot jarayonida, shuningdek, Tatariston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan e’lon qilingan “Sabantuy – narodnyy prazdnik tatarskogo naroda” nomli monografiya [14], tatar xalq

marosimlari to‘plamlari hamda O‘zbekiston ва Tatariston o‘rtasidagi madaniy aloqalarga bag‘ishланган rasmiy hujjatlar o‘rganildi.

Metod sifatida tarixiy-taqqoslama, kuzatuv, intervyu ва madaniy tahlil usullari qo‘llanildi. Bayramning tarixiy ildizlari билан zamonaviy nishonlanish shakllari solishtirilib, Xorazm viloyatida o‘tkazilgan Sabantoy tadbirlari bevosita o‘rganildi. Kuzatuvlar jarayonida tatar diasporasi vakillari билан suhbatлар o‘tkazilib, ularning milliy bayramni nishonlashdagi hissasi ва jamiyat hayotidagi faolligi tahlil qilindi.

MUHOKAMA. Sabantoy tatar xalqining qadimiy agrar madaniyati va jamoaviylik ruhini o‘zida mujassam etadi. U dastlab hosil oldidan dehqonlar o‘rtasida tashkil etilgan o‘yinlar, bellashuvlar va umumxalq sayillari shaklida o‘tkazilgan [7]. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Sabantoy asrlar osha xalqning birdamligi, mehnatsevarligi va bag‘rikengligini ifodalovchi madaniy merosga aylangan [8].

V.A. Isxakovning fikricha, Sabantoy — “xalq madaniyatining o‘zagini tashkil etuvchi, etnik birlashuvni mustahkamlovchi marosimdir” [9]. Shu bilan birga, R.R. Axmetova Sabantoyni “globallashuv davrida tatar milliy o‘zligini saqlash vositasi” sifatida baholaydi [10]. Bu jihatdan Sabantoy tatar diasporalari uchun o‘z madaniy ildizlariga qaytish, urf-odat va qadriyatlarni yangi avlodlarga yetkazish imkonini beradi.

2025-yil 1-iyun kuni Xorazm viloyatining Urganch shahrida o‘tkazilgan Sabantoy buning yaqqol isboti bo‘ldi. Tadbirda Tatariston Respublikasi Madaniyat vazirligi vakillari, tatar xalq artistlari hamda “Duslyk” madaniy markazi ishtirok etdi [11]. Bayramda milliy raqslar, kurash, qoshiqda tuxum olib yugurish, arqon tortish, she’r va qo‘shiq tanlovlari o‘tkazildi [12]. Ushbu tadbirlar Sabantoyning O‘zbekiston jamiyatidagi madaniy integratsiya jarayoniga qo‘shayotgan hissasini namoyon etdi.

Xorazm viloyatidagi Sabantoy bayrami xalq diplomatiyasining amaliy ko‘rinishiga aylandi. Bu orqali nafaqat tatarlar, balki boshqa millatlar vakillari ham milliy qadriyatlarni birgalikda nishonlash imkoniga ega bo‘ldilar [13]. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston hukumati tomonidan olib borilayotgan millatlararo totuvlik siyosati Sabantoy kabi tadbirlar orqali amalda o‘z ifodasini topmoqda [14].

NATIJA. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, Sabantoy bayrami O‘zbekiston tatar diasporasi hayotida bir nechta muhim ijtimoiy, madaniy va integratsion funksiyalarni bajaradi. Bu holat Sabantoyni nafaqat tatar xalqining etnik o‘zligini ifodalovchi marosim sifatida, balki O‘zbekiston hududida millatlararo totuvlik va madaniy xilma-xillikni mustahkamlovchi omil sifatida ham talqin etish imkonini beradi.

Madaniy merosni saqlash funksiyasi: Sabantoy tatar xalqining qadimiy urf-odatlari, xalq o‘yinlari, raqslari, musiqasi va milliy taomlarini saqlab qolishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Bayramda o‘tkaziladigan kurash, arqon tortish, ot poygasi, she’r aytish va milliy kiyimlar namoyishi kabi elementlar tatar xalqining tarixiy hayot tarzini jonlantiradi [11]. Shu jihatdan Sabantoy O‘zbekiston hududida yashayotgan tatar diasporasining madaniy identifikatsiyasini saqlashda va yosh avlodni milliy an’analarga hurmat ruhida tarbiyalashda beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Millatlararo totuvlikni mustahkamlash: Sabantoy bayrami hozirgi kunda faqat tatarlar tomonidan emas, balki o‘zbek, rus, qozoq, turkman, koreys va boshqa millatlar vakillari tomonidan ham keng nishonlanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, bunday tadbirlar O‘zbekistonda shakllangan millatlararo totuvlik siyosatining amaliy ko‘rinishidir [12]. Bayram maydonlarida turli millat vakillarining birgalikda ishtiroki, ularning madaniy chiqishlari, milliy taomlari va san’ati orqali xalqaro do‘stlik g‘oyasi mustahkamlanadi.

Madaniy diplomatiya vositasi: Sabantoy O‘zbekiston va Tatariston o‘rtasidagi madaniy aloqalarning muhim timsoliga aylangan. Har yili O‘zbekiston hududida o‘tkaziladigan Sabantoylarda Tatariston Respublikasidan rasmiy mehmonlar, san’at ustalari va folklor jamoalari ishtirok etadi. 2025-yil 1-iyun kuni Xorazm viloyatining Urganch shahridagi Amir Temur xiyobonida bo‘lib o‘tgan Sabantoyda ham Tataristondan kelgan mehmonlar, O‘zbekiston Madaniyat vazirligi vakillari va mahalliy tatar diasporasi faollari qatnashgan [13]. Bu tadbirlar ikki xalq o‘rtasidagi madaniy diplomatiyaning yorqin namunasi bo‘lib, o‘zaro do‘stlikni yanada kuchaytiradi.

Jamiyatni birlashtirish omili: Sabantoy O‘zbekiston sharoitida faqat milliy emas, balki umumxalq bayrami sifatida qaralmoqda. Xorazm viloyatida o‘tkazilgan tadbirlar davomida turli millat vakillarining bir maydonda yig‘ilishi, birgalikda o‘yinlar va musobaqalarda ishtirok etishi ijtimoiy birlikni va bag‘rikenglikni yanada mustahkamladi. Shu bois Sabantoy ijtimoiy integratsiyani

kuchaytiruvchi omil sifatida ham baholanishi mumkin [14].

O‘zbekistonning millatlararo bag‘rikenglik siyosati bilan uyg‘unlik: 2025-yilda o‘tkazilgan Sabantoy tadbiri O‘zbekiston Respublikasining millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik siyosatini amaliy tarzda ifodaladi [11]. Tadbir davomida turli millatlar o‘z madaniyatini namoyish etdi, bu esa mamlakatda hukm surayotgan “birlikda yashash” falsafasining amaliy isboti bo‘ldi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari Sabantoy bayramining ijtimoiy-madaniy funksiyalarini chuqur yoritadi va uni xalqaro darajada ahamiyatga ega madaniy meros sifatida baholash imkonini beradi. Sabantoy tatar xalqining tarixiy xotirasini saqlovchi, millatlararo do‘stlikni kuchaytiruvchi hamda O‘zbekistonning ochiqlik va bag‘rikenglik siyosatini mustahkamlovchi madaniy hodisa sifatida alohida e’tiborga loyiqdir.

XULOSA. Sabantoy — tatar xalqining tarixiy-madaniy merosini saqlovchi, ularning milliy o‘zligini namoyon etuvchi eng muhim bayramlardan biridir. O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa Xorazm viloyatida, Sabantoy nafaqat madaniy tadbir, balki xalq diplomatiyasining muhim shakliga aylangan. Bu bayram millatlararo do‘stlik, totuvlik va madaniy xilma-xillikni targ‘ib etuvchi maydonga aylanishi bilan ajralib turadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Sabantoy tatar diasporasining ijtimoiy integratsiyasini kuchaytiradi, ularning milliy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, u O‘zbekiston va Tatariston o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlaydi.

Demak, Sabantoy O‘zbekiston jamiyatida nafaqat bir xalqning milliy bayrami, balki turli millatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, do‘stlik va bag‘rikenglikni mustahkamlovchi umumxalq qadriyati sifatida ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Исхаков В.А. Сабантуй как элемент народной культуры татар. — Казань: Институт истории АН РТ, 2010.
20. Xorazmda Sabantoy bayrami nishonlandi. Kun.uz, 2 iyun 2025.
21. Измайлов И.Л. Традиционные праздники и обряды татар. — Казань: Татарское книжное издательство, 2005.
22. Юсупов Ф.З. Этнокультурное наследие татар Поволжья. — Казань, 2013.
23. Sabantuy 2025: tatar xalqining madaniy merosi. Afisha.uz, 1 iyun 2025.
24. Tatcultresurs.ru — Sabantuy: traditsii, kultura, edinstvo narodov. 2024.
25. Исхаков В.А., Измайлов И.Л. Историко-культурные основы праздника Сабантуй. — Казань, 2011.
26. Ахметова Р.Р. Sabantuy v usloviyakh globalizatsii: sotsialno-kul’turnyy analiz. — Kazan: KFU, 2021.
27. O‘zbekiston millatlararo totuvlik siyosati. Millatlararo munosabatlar qo‘mitasi rasmiy sayti, 2024.
28. O‘zbekiston va Tatariston o‘rtasida madaniy hamkorlik yili doirasida Sabantoy o‘tkazildi. O‘zbekiston Milliy axborot agentligi (O‘zA), 2025.
29. Xo‘jayev N. O‘zbekiston Respublikasida millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik siyosati. – Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti, 2022.
30. Xorazmda Sabantoy bayrami nishonlandi. (2025-yil 1-iyun). Kun.uz sayti. https://kun.uz
31. Sabantoy – do‘stlik va madaniyat bayrami. (2025-yil 2-iyun). Afisha.uz portali. https://www.afisha.uz
32. Tatarstan Respublikasi Madaniyat vazirligi. Sabantuy: narodnyy prazdnik tatarskogo naroda. – Qozon: Tatknigoizdat, 2024.
33. https://tatar-congress.org/ru/blog/sabantuy-2016-proshel-na-zemle-drevnego-horezma-v-gorode-urgenche
34. https://kun.uz/60592008?q=%2Fuz%2F6059200
35. https://www.arirang.ru/archive/kor-uz/2025/KU.19.06.2025.pdf

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 39:902(100)(083.13)

XIVA ME'MORIY OBIDALARI ME'MORCHILIGIDA AKS ETGAN QUR'ON OYATLARI AHAMIYATI (SAYYID MOHI RO'YI JAHON MAJMUASI MISOLIDA)

Djabborova Adolatxon Kazakbayevna, Urganch davlat pedagogika instituti "Tarix" kafedrasi o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

THE SIGNIFICANCE OF THE QUR'AN VERSES REFLECTED IN THE ARCHITECTURE OF KHIVA ARCHITECTURAL MONUMENTS (THE EXAMPLE OF THE WORLD COMPLEX OF SAYID MOHI)

Dzhabborova Adolatkhon Kazakbayevna, Teacher of the Department of History, Urgench State Pedagogical Institute, independent researcher

ЗНАЧЕНИЕ АЯТОВ КОРАНА, ОТРАЖЕННОЕ В АРХИТЕКТУРЕ АРХИТЕКТУРНЫХ ПАМЯТНИКОВ ХИВЫ (НА ПРИМЕРЕ КОМПЛЕКСА САИДА МОХИ РУЙИ ЖАХОН)

Джабборова Адолатхон Казакбаевна, преподаватель кафедры истории Ургенчского государственного педагогического института, независимый исследователь

https://orcid.org/0009-0003-1098-3143
e-mail: djabborovaadolatxon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ko'hna Xiva shahrida joylashgan Sayyid Mohi Ro'yi Jahon majmuasi peshtoqlarida aks ettirilgan naqshlar va epigrafik yozuvlar tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Sayyid Mohi Ro'yi Jahon majmuasi, Qur'on oyatlari, suralari, Oli Imron surasi, Yasin surasi, Xiva "Ichan Qala" muzey qo'riqxonasi, peshtoq, ostona, Sayyid Muhammad, epigrafik yozuv.*

Abstract: *This article analyzes the patterns and epigraphic inscriptions reflected on the roofs of the Sayyid Mohi Royi Jahan complex located in the ancient city of Khiva.*

Key words: *Sayyid Mohy Roy World Complex, Quranic verses, suras, Surah Ali Imran, Surah Yasin, Khiva "Ichan Qala" Museum Reserve, roof, threshold, Sayyid Muhammad, epigraphic inscription.*

Аннотация: *В данной статье анализируются узоры и эпиграфические надписи, отраженные на крышах комплекса Сайида Мохи Ройи Джахана, расположенного в древнем городе Хива.*

Ключевые слова: *В данной статье анализируются узоры и эпиграфические надписи, отраженные на крышах комплекса Сайида Мохи Ройи Джахана, расположенного в древнем городе Хива.*

KIRISH. Imoratlar insonlarning yashashi uchun eng zarur ehtiyojlaridan biridir. Yillar o'tgan sari har bir xalq o'z tabiati yoki diniga monand shaklda imoratlar qura boshlagan va bezash san'ati alohida ajralib turgan. Bu albatta har bir xalqning diniga ham bog'liq bo'lgan. Masalan, islom dinida diniy imoratlarning qurilishida uning vazifasini kuchaytirish maqsadida ularda Qur'on suralarining oyatlari yozilishi urf bo'lgan. Bu yozuvlar dastlab omma uchun Qur'on oyatlarini esga solib turish, masjidning vazifasini xotirlatish uchun bo'lgan,

keyinchalik esa bu yozuvlar masjid badiiyligini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Har bir harflarning yozilishida unga sayqal berib o‘ziga xos bir go‘zallik yaratilgan. Bundan tashqari, islom kalligrafiyasi estetik badiiy go‘zallikdan ko‘ra fahm, idrok-tafakkur bilan ko‘proq bog‘langan. Shuningdek, binolarda Qur’on oyatlari, she’riy shakldagi yozuvlar, bino qurilishiga sababchi bo‘lgan shaxs yoki hukmdorlar haqida sharhlar, maqtab tarannum qilingan bo‘lib, har xil ramziy naqshlar ham o‘z ifodasini topgan. Bu xattotlik san’atidagi bezaklar hamisha insonlarga yaxshilik, ulug‘lik, tinchlik, poklik timsoli ma’nosini bergan.

Shuningdek, darvoza va uning peshtoqlaridagi yozuvlarning ma’nolari ham e’tiborga loyiqdir. Ayniqsa, ko‘hna Xiva shahridagi imoratlarning deyarli barchasida darvoza va peshtoqlaridagi naqsh va bezaklar bir-biridan farq qiladi va alohida ma’noga ega. Imoratlardagi peshtoqning me’morchilikda har xil bezaklar bilan naqshlar bo‘lishi bu imoratning yanada e’tiborliroq bo‘lishiga asos bo‘lgan. Uning katta hajmda bo‘lishi yanada salobatliroq ko‘rinishini ta’minlagan.

Islom dinida Qur’on oyatlari va suralari muqaddas bo‘lgan, aholi o‘rtasida hurmat va ehtiromga ega bo‘lgan. Xiva shahridagi mahobatli peshtoqlari bezaklari bilan alohida e’tiborga loyiqdir. Masalan, Ota darvozasi aynan shu darvozada kirish eshik tabaqasida Qur’onning Ixlos surasi yozilgan, Sayyid Mohi Ro‘yi Jahon maqbarasi peshtoqidagi Qur’on oyatlari ham g‘oyat ahamiyatlidir. Bugungi kunda bunday imoratlarga qiziquvchilar soni ham ortib bormoqda. Bu esa madaniyatimizning ma’naviy zavq berish qiymatini yuksak ekanligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qo‘shgan Xorazm va Xiva tarixi azaldan dunyo olimlarining diqqatini jalb qilib kelgan. O‘rta Osiyoga, jumladan Xorazm xonligiga kelgan sayyohlar va elchilarning xotiralari, ilmiy va badiiy asarlari o‘sha davr tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular jumlasiga A. Jenkinson[1], mayor Blankennagel[2], N.N. Muravyev[3], G.I. Danilevckiy[4], Y.V. Xanikov[5], A. Kalmikov[6], A. Vamberi[7], V. Labachevskiy[8], A.L. Kun[9] va boshqalarning asarlarini kiritish mumkin. Xorijiy manbalarda ham tarixiy imoratlarimiz haqida ma’lumot berilgani qadimgi Xiva shahrining ma’naviy taraqqiyotda qanchalar boy ekanligini bildiradi.

Sho‘rolar davrida majmua xarob holga kelgan edi. 2008–2009 yillarda bajarilgan katta ta’mirlash ishlari natijasida imoratlar umri uzaytirildi. Xonlik davrida rejalashtirilgan, ammo amalga oshirilmay qolgan ishlar, ya’ni koshinlar bilan bezatish ishlari ham yakuniga yetkazildi. Maqbara peshtoqiga eski usulda naqshinkor koshinlar o‘rnatilib, Qur’on oyatlari (Oli Imron surasining 193-oyati va Yasin surasining 33–48-oyatlari) bilan muzayyan qilindi. Koshinlarni Xorazmdagi Kattabog‘ koshinpazlar maktabining vakillari, naqqosh-koshinpazlar Bahodir Otajonov, Odilbek Rahimov va Ollonazar Sa’dullaev rahbarligida tayyorlab o‘rnatishdi. Yozuvlarni usta naqqosh va xattot Muhiddin Xo‘ja tayyorlab berdi[10].

Xattotlik san’ati Sharq mamlakatlarida, jumladan Xivada qadimdan rivojlangan bo‘lib, bu kasb egalarining ishi yuksak san’at darajasiga ko‘tarilgan va tarixiy yodgorliklar, ulkan imoratlar uchun naqsh va bezak vazifasini ham o‘tagan. Ajdodlarimiz shu bilan cheklanmay, ulardan raqam sifatida ham foydalanganlar va “muammo” usulida tarixiy sanalarni so‘zlar vositasida yashirin qilganlar[10].

Bunga Sayyid Mohi Ro‘yi Jahon majmuasidagi “muammo” usuli misol bo‘ladi:

Murshidi solik Muhammad Solih xalifa ibn Muhammad Rasul xalifa marhumiy. Shahri rabbiul avval fi sanata 13123.

ح ج ا و ه ب ا ر ه ا ی ا ج ت ن ج م ی ا ک ه

5+1+20+10+1+3+400+50+3+40+10+5+1+200+2+1+5+3+1+6+600 = 1367.

Bismillahir rohmanir rohiym.Oriflar qalbining tuganmas nurlar bilan yorituvchiga behad hamdlar bo‘lsin. Uning sirlar xushbo‘yini taratuvchi ruhiga eng yaxshilarning Rasuli bo‘lgan payg‘ambarga, uning oilasiga va sahobalariga salavotlar bo‘lsin[10].

Islom dini o‘rnatilgandan so‘ng ham Sharq xalqlarida eshik, Haq taolo dargohi degan tushuncha bo‘lgan. Shuning uchun ko‘p joylarda eshiklarda quyidagi yozuv bilan:

Kushoda bod ba davlat hamisha dargoh,
Ba haq ashhadu an lo iloha illalloh.

Ma’nosi:

Bu eshik baxt uchun doimo ochiq bo‘lsin!

Guvohlik beramanki, Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir[11].

Eshik, ostona, peshtoq ma’nolari Jannat ramzini bildirgan. Shuning uchun ham unga muqaddas Qur’on oyatlari va suralari orqali bezak berilgan. Bunday bezak berishda asosan me’morchilikdagi ustalar o‘zining xattotlik san’ati orqali o‘ziga xos bir bezak turini kashf qilgan. Ustalar hamma vaqt o‘z kasb-korini farzandiga meros qoldirgan va shogirt sifatida tayyorlagan. O‘zbekistonda o‘ziga xos ganchkorlik maktablari mavjud. Shulardan biri Xorazm ganchkorlik maktabidir[12].

MUHOKAMA. Xorazm azaldan qadimiy sivilizatsiya makonlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa Ko‘hna Xiva shahrining obidalari hozirgi kunda ham sayyohlarning e’tiborini o‘ziga jalb qilmoqda. Shuningdek, xorijiy sayyohlar va tarixchilar ham Xorazm haqida o‘z asarlarida yoki kundaliklarida yozib qoldirganlar. Bular jumlasiga A. Jekinson, mayor Blankennagel, N.N. Muravyev, G.I. Danilevckiy, Y.V. Xanikov, A. Kalmikov, A. Vamberi, V. Labachevskiy, A.L. Kun va boshqalarning asarlarini misol tariqasida kiritish mumkin.

Imoratlar insonlarning estetik bezalishida dinning ham o‘ziga yarasha ta’siri bo‘lgan va yillar davomida islom dinining kirib kelishi bilan uning talablariga ham ta’sir o‘tkazgan. Endilikda inshootlarda odamlar parrandalar va jonivorlar tasvirini chizish ham yo‘qola bordi. Uning o‘rnini epigrafik yozuvlarda aks ettirilgan ramziy ma’nolarga ega bo‘lgan bezaklar egallay boshladi. Bu esa albatta diniy ta’sirlardan biri edi.

Eshik esa Yaratganning dargohi sifatida e’tirof qilindi. Eshik o‘ziga yarasha homoya vositasi sifatida ham xizmat qilgan. Shu sababdan eshik peshtoqlariga xonadon egalarini yomonlikdan saqlaydi degan maqsadda Qur’on oyatlari yozilgan.

Xiva shahrida birqancha masjid, madrasa va imoratlar mavjud. Shular qatorida Sayyid Mohi Ro‘yi Jahon majmuasi ham o‘zining qurilishi va peshtoqidagi Qur’on sura va oyatlari ahamiyati bilan ajralib turadi.

Avvalo, Sayyid Mohi Ro‘yi Jahon majmuasi nomi nima uchun berilgani tahlil qilinadi. Sayyid so‘zi arabcha so‘zdan olingan bo‘lib, yetakchi ma’nosini anglatadi va Muhammad alayhissalom avlodlarining faxriy unvoni hisoblanadi. “Riyoz al-zokirin” asarida yozilishicha, Sayyid Muhammad chiroyi misli Yusuf payg‘ambardek bo‘lganligi va yigitlik chog‘ida vafot etganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Shuning uchun “mohi ro‘yi jahon” – yer yuzining eng chiroylisi nomi musharraf bo‘lgan.

Sayyid Muhammadning qabri Amudaryoning shimolidagi To‘rtko‘l tumanida joylashgan. Amudaryoning tez-tez suv toshqinlari bo‘lishi azaldan ma’lum bo‘lib, 1887-yil bahorida ham bu toshqin bo‘lish xavfi mavjud bo‘lgan. Shuning uchun Sayyid avlodidan bo‘lgan Xiva xoni Muhammad Raximxon uning hokimini Xivaga olib kelishni buyurgan. So‘ngra A’load Din Xo‘ja Eshon alayhi rahmaning qabri yonida dafn qilingan.

Majmuaning yozilgan lavhi bo‘lib, o‘lchamlari 66x99 santimetr. Hozirgi kunda bu lavh Xiva “Ichan Qala” muzey qo‘riqxonasining Amaliy san’at bo‘limida saqlanmoqda.

Mustaqillikka erishmasimizdan oldin ya’ni sho‘rolar zamonida bu majmua juda haroba xolatda bo‘lgan. Keyinchalik 2008-2009-yillarda esa bu imorat bezaklari xonlik davrida rejalashtirilgan lekin amalga oshirilmagan koshin bezaklari o‘z nihoyasiga yetkazildi. Maqbaraning peshtoqiga bezaklar berildi. Shu o‘rinda uning peshtoqiga Qur’on oyatlari ya’ni Oli Imron surasining 193-oyati, Yasin surasining 33-48 oyatlari xattotlik san’ati bilan bezatilgan. Peshtoq ostonadan boshlanadi. Ostona esa azaldan barcha xalqlarda ilohiy ramzga ega bo‘lgan. Shu sababli ham peshtoq ostona kabi muqaddas sanalgan. Peshtoq ham tashqi dunyodan ichki dunyoga o‘tish vazifasini bajargan bo‘lib peshtoqning ramziy ma’nosi islom dini o‘rnatilgandan so‘ng Jannat ramzini o‘zida aks ettirgan. Shuning uchun ham Qur’onning oyat va suralari peshtoqqa yozilgan. Albatta bu imoratlarga bezak bo‘lishi bilan birga uning ahamiyatini ham oshirganligidan dalolat beradi.

Sayyid mohi ro‘yi jahon majmuasi koshinlarini esa Xorazmdagi Kattabog‘ koshinpazlar maktabining yetuk vakillaridan biri bo‘lgan naqqosh, koshinpaz Bahodir Otajanov, Ollonazar Sadullayev, Odilbek Otajonovlar boshchiligida tayyorlanib o‘rnatildi. Usta naqqosh,

TAMADDUN NURI

xattot Muhiddin xo‘ja tomonidan uning yozuvlari tayyorlab berildi.

Xattotlik san’ati Xivada qadimdan rivojlangan bo‘lib, bu uslub imoratni bezashda ham o‘ziga xos madaniyatni vujudga kelishiga sababchi bo‘lgan. Xattotlik san’atida ajdodlarimiz shu bilan cheklanmay, ulardan raqam sifatida ham foydalanganlar. Bu usul esa bu imoratning qachon va qaysi usta tomonidan naqsh bezaklar berilgani haqida ma’lumotlar beradi. Bu esa imorat haqida haqiqiy tahlil qilishda dalil sifatida foydalanishga yordan beradi. “Muammo” usulida tarixiy sanalarni so‘zlar vositasida yashirin qilishgan. Xorazm ganchkorlik maktabi o‘ziga xos ganchkorlik uslubi bilan ham qadimdan mashhurdir. Hozirgi kunda ham me’morchilik san’ati bilan shug‘ullanuvchi usta koshinpazlarimiz ham bo‘lib ular qadimgi shaharlarimizni ta’mir qilishda o‘z yordamlarini ayamaydilar.

XULOSA. Xiva shahri imoratlari bezaklaridagi yozuv, naqsh ramziy belgilar o‘ziga xos ma’no kasb qilgan. Imoratlardagi bezaklar omma tarbiyasida ham alohida e’tibor qaratgan. Bezaklardagi go‘zallik bugungi kunda ham o‘z jozibadorligini yo‘qotmagan. Bu bezaklar kishini ma’naviy poklikka undagan. Undagi ranglar tasvirining ma’nolari, epigrafik yozuvlar, oyatlar aynan poklik, tinchlik, yaxshilik g‘oyalarini ilgari surgan. Insonlarni yaxshilika undagan. Bunday sifatlarni o‘zida ifodalagan bezaklar Ko‘hna Xiva me’morchiligining alohida bir yo‘nalishini shakllantirishida asos bo‘lib xizmat qilgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Дженкинсон А. Путешествие в Среднюю Азию 1558–1560 гг. // Английские путешественники в Московском государстве в XVI в. Л., 1938. С. 167–193.
2. Путевые заметки майора Бланкеннагеля о Хиве в 1793–94 гг. С примечаниями Дейст. Чл. Общ. В.В. Григорьева // Вестник ИРГО, Ч. 22. СПб., 1858. С. 87–116.
3. Записки Н.Н. Муравьева Карского. 1819 г. Путешествие в Хиву // Русский архив. М.: Университетская типография (М. Катков) на Страстном бульваре, 1887. №9–10. Издаваемый Петром Бартеневым, книга третья. С. 5–42, 145–176.
4. Данилевский Г.И. Описание Хивинского ханства ЗРГО. Кн. V. СПб., 1851. С. 62–140.
5. Ханыков Я.В. Пояснительная записка к карте Аральского моря и Хивинского ханства, с их окрестностями // ЗРГО. Кн. У. СПб., 1851. С. 268–358.
6. Калмыков А. Хива. Протоколы заседаний и сообщений членов ТКЛА. Вып. 12. Ташкент, 1908.
7. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. СПб., 1865.
8. Лобачевский В. Хивинский район. Военно-статистическое описание Туркестанского военного округа. Ташкент, 1912.
9. Кун А.Л. Поездка по Хивинскому ханству в 1873 г. Известия ИРГО, Т. 10, №1. СПб., 1874.
10. Xudayberganov K. Xiva dunyodagi eng ko‘hna qal’a. T., 2012. B. 270, 276, 4.
11. Nozilov D. Orta osiyo me’morchiligida odatlar, qoidalar va ramziy ifodalar. T. San’at, 2011. B. 80.
12. S. Bulatov, A. Muxtorov. Ganchkorlik san’ati. Musiqa nashriyoti, 2006. B. 7.

TAMADDUN NURI JURNALI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 930.85

ZARAFSHON VOHASIDA O‘ZBEK ETNOGRAFIK GURUHLARI VA ULARNING ETNIK NOMLARI

Eshonkulov Shaxzod Eshkuvatovich, Samarkand davlat pedagogika instituti “Tarix” kafedrasi dotsenti

UZBEK ETHNOGRAPHIC GROUPS AND THEIR ETHNIC NAMES IN THE ZARAFSHAN OASIS

Eshonkulov Shakhzod, Samarkand State Pedagogical Institute, Associate Professor, Department of History

УЗБЕКСКИЕ ЭТНОГРАФИЧЕСКИЕ ГРУППЫ И ИХ ЭТНИЧЕСКИЕ НАЗВАНИЯ В ЗАРАФШАНСКОМ ОАЗИСЕ

Эшонкулов Шахзод Эшкуватович, Самаркандский государственный педагогический институт, доцент кафедры истории

https://orcid.org/0009-0004-1495-1156
e-mail: eshankulov1978@gmail.com

Annotatsiya: *Maqola Zarafshon vohasida mavjud bo‘lgan o‘zbek etnografik guruhlari bilan bog‘liq etnik nomlarni tizimli ravishda o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqot doirasida Urganji, Qarshilik, Mirishkor, Balxi, Totkent, Chig‘atoy kabi toponimlarning kelib chiqishi, tarqalishi va mintaqadagi etnik jarayonlar bilan bog‘liqligi chuqur tahlil qilingan. Ishda hududiy guruhlarning mahalliy aholi orasida qanday etnik identifikatsiyaga ega bo‘lgani, tarixiy migratsiya jarayonlari, boshqa vohalar bilan madaniy va etnik aloqalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada so‘nggi o‘rta asrlar va XX asr boshlaridagi hududiy ko‘chishlar, amaliy misollar va xaritalar orqali toponimlarning tarixi va aholi tarkibidagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot natijalari Zarafshon vohasining etnografik xaritasi va hududiy etnik jarayonlarni aniqlashda ilmiy ahamiyatga ega.*

Kalit so‘zlar: *Zarafshon vohasi, etnografik guruhlar, hududiy guruhlar, toponimlar, etnik nomlar, migratsiya, tarixiy geografiya, mahalliy aholi, etnik identifikatsiya, Chig‘atoy, Balxi.*

Abstract: *The article is devoted to a systematic study of ethnic names associated with Uzbek ethnographic groups in the Zarafshan Valley. The research examines toponyms such as Urganji, Qarshilik, Mirishkor, Balxi, Totkent, and Chig‘atoy, analyzing their origins, distribution, and relation to regional ethnic processes. It also explores how territorial groups are perceived by local communities as distinct ethnic units, historical migration patterns, and cultural and ethnic connections with neighboring regions. Additionally, examples and maps illustrate the emergence of these toponyms and their role in the demographic composition of the region. The results of the study are significant for creating ethnographic maps and understanding ethnic processes in the Zarafshan Valley.*

Keywords: *Zarafshan Valley, Uzbeks, ethnographic groups, territorial groups, toponyms, ethnic names, migration, historical geography, local population, ethnic identification, Chigatay, Balkh.*

Аннотация: *Статья посвящена систематическому исследованию этнических названий, связанных с узбекскими этнографическими группами в Зарфашонской долине. В работе анализируются топонимы, такие как «Urganji», «Qarshilik», «Mirishkor», «Balxi», «Totkent»,*

«Chig‘atoy», их происхождение, распространение и связь с этническими процессами региона. Рассматривается восприятие территориальных групп местным населением как отдельных этнических единиц, исторические миграции, культурные и этнические связи с соседними областями. Также приводятся примеры и карты, иллюстрирующие появление топонимов и распределение населения в регионе. Результаты исследования имеют значительное значение для составления этнографических карт и изучения этнических процессов в Зарфашонской долине.

Ключевые слова: *Зарфашонская долина, узбеки, этнографические группы, территориальные группы, топонимы, этнические названия, миграции, историческая география, местное население, этническая идентификация, Чиғатой, Балхи.*

KIRISH. Zarafshon vohasi aholisining, xususan, bugungi kunda voha aholisining asosiy ko‘pchiligini tashkil qiluvchi o‘zbeklarning etnik shakllanishi uzoq tarixiy jarayonni qamrab olgan. O‘zbeklarning etnik shakllanishiga XX asrga oid toponomik ma’lumotlar orqali nazar tashlanganda, bu masala yanada turli-tumanlik kasb etganligi ko‘zga tashlanadi.

Vohadagi joy nomlarining katta qismi etnotoponimlardan iboratligi, o‘z navbatida esa ularning ko‘pchiligini turkiy etnik nomlar tashkil etishi diqqatga sazovordir. Bu holat o‘z vaqtida Zarafshon etno-toponimlarini o‘rgangan tadqiqotchilarning diqqatini o‘ziga jalb qilgan va bu borada ko‘plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Jumladan, yuqorida bir necha bor aytib o‘tganimizdek, O‘zbekiston toponimiyasi bo‘yicha izlanishlar olib borgan S. Qorayev, X. Doniyorov, U. To‘ychiyev, A. Turobov, N. Begaliyev, S. Bo‘riyevlar Zarafshon vohasidagi bu holatga alohida e’tibor qaratishgan. Qator mualliflar tomonidan voha etnotoponimiyasi bo‘yicha kelingan xulosaga ko‘ra, garchi vohaning barcha viloyat va tumanlarida bu holat bir xil bo‘lmasa-da, ko‘p hollarda umumiylik kasb etadi[1]. Ya’ni, Zarafshon vohasida bir xil nomdagi o‘nlab etnotoponimlar mavjud bo‘lib, ularni vohaning deyarli barcha hududlarida uchratish mumkin. Masalan, *Bahrin, Nayman, Durman, Qo‘ng‘irot, Turkman* va hokazo.

Keyingi yillarda Zarafshon vohasi etnotoponimiyasini XVIII–XX asr boshlari kesimida izchil ravishda tadqiq etayotgan A. Malikov yaqinda chop ettirgan “Zarafshon vodiysining turkiy etnonim va etnotoponimlari (XVIII–XX asr boshlari)” nomli monografiyasida vohada 300 dan ko‘proq turkiy etnotoponimlar mavjudligini qayd etib, ularni nomma-nom keltirishi diqqatga sazovordir[2]. Tadqiqotchiga ko‘ra, vohadagi o‘zbek, qozoq, qoraqalpoq va boshqa turkiy xalqlar bilan bog‘liq ko‘plab etnonimlar mavjud bo‘lib, ularning katta bir qismi o‘zbeklar bilan bevosita va bilvosita bog‘liqdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODOLOGIYASI. Zarafshon vohasida an’anaviy “92 bovli o‘zbek urug‘i” ro‘yxatlarida keltirilgan 90 dan ortiq urug‘ nomlaridan katta bir qismi, deyarli 60%, saqlanib qolganligi diqqatga sazovordir. Shuningdek, o‘zbek urug‘lari ro‘yxatiga kirmagan, biroq ro‘yxatdagi muayyan bir urug‘ tarkibidan o‘rin olgan yana o‘nlab urug‘ nomlarining bugungi kunda etnotoponimga aylangani ko‘zga tashlanadi[3]. Masalan, “92 bovli” ro‘yxatda joy olmagan *Achamayli, Tortuvli, Tuyoqli* kabi etnotoponimlarga vohaning bir qator tumanlarida duch kelish mumkin. Shu o‘rinda *Achamayli* yoki *Ochamayli* shaklida uchraydigan etnotoponimning bugungi kunda mamlakatimizning bir necha viloyatlarida mavjudligini aytib o‘tish zarur. Jumladan, Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida, Qashqadaryo viloyatining Kitob tumanida, Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida shu nomdagi qishloqlar bunga misol bo‘la oladi.

Aslida, o‘rta asr yozma manbalarida Dashti Qipchoqda yashovchi alohida bir turkiy urug‘ sifatida qayd etilgan *Achamaylilar* so‘nggi o‘rta asrlarda *Ashamayli* shaklida qozoq va qoraqalpoqlar tarkibida, *Asamayli* – boshqirdlarda, *Achamayli* – o‘zbek, turkman va qirg‘izlar tarkibida uchrab, ba’zan alohida, ba’zan esa biror urug‘ning muayyan tarmog‘i sifatida qayd etilgan. XX asrning ilk choragiga oid aholi ro‘yxatlarida va boshqa statistik materiallarda esa achamaylilarning goh o‘zbeklarning *Qo‘ng‘irot* urug‘i tarkibida, goh esa boshqa biron bir urug‘ tarmog‘i, ba’zan esa alohida urug‘ sifatida uchrashini, shunga o‘xshash holatga qozoqlarda ham duch kelinishini aytib o‘tish joiz[4].

TAMADDUN NURI

Shunga o‘xshash ayrim etnotoponimlarning, xususan, ular orasida o‘zaro yaqin o‘xshash yoki bir xil antropo-etnotoponimlarning nafaqat Zarafshon vohasida yoki mamlakatimiz hududida, balki qo‘shni qardosh respublikalarda ham ko‘plab uchrashi masalasiga ham to‘xtalib o‘tish lozim[10]. Agar o‘zbek, qozoq, turkman, qoraqalpoq, qirg‘iz, boshqird kabi turkiy xalqlar tarkibida uchraydigan o‘nlab etnonimlar (mas., *Musa, Muminxo‘ja, Xudoyberdi, Temirxo‘ja* va hokazo) aslida bitta urug‘ning bir necha xalqlar tarkibiga singib ketgan bo‘lishi yoki bo‘lmasa, tasodifiy o‘xshash etnotoponimlar keyinchalik har bir xalqda o‘zi alohida antroponim sifatida mustaqil ravishda paydo bo‘lgan bo‘lishi ham mumkin. Demak, turkiy xalqlarning urug‘-qabila tizimini tadqiq qilish mobaynida shu kabi omillarni ham e’tiborga olish kerak bo‘ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Shunga o‘xshash Xorazm va Zarafshon vohalarida etnotoponim sifatida uchraydigan “Uyg‘ur”lar – bu o‘rta asrlarda Dashti Qipchoqda shakllangan, qipchoq lahjasida so‘zlashuvchilardir[5]. Ya’ni ular Sharqiy Turkistonning mahalliy aholisi – uyg‘urlar bilan, garchi bugungi kunda ayni nomga ega bo‘lsalar-da, etnik shakllanish jihatidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqador emas. Shuningdek, ushbu vohalardagi o‘zbeklarning *“Uyg‘ur”* urug‘i Farg‘ona vodiysi yoki Toshkent vohasi uyg‘urlaridan farqli bo‘lib, ularning har qaysisi farqli etnomadaniy muhitda shakllangan.

Shunga o‘xshash, bugungi kunda oz bo‘lsa-da, Zarafshon va Qashqadaryo vohalarida *“Qirg‘iz”* nomli qishloqlarni uchratish mumkin, biroq ular Yettisuv – Oloy – Farg‘ona – Toshkent (Bo‘stonliq) – Zomin – Hisor qirg‘izlaridan farq qilib, Dashti Qipchoq muhitida shakllangan va *“92 bovli o‘zbek”* tarkibiga kirgan alohida bir urug‘ bilan aloqadordir[6].

Shu o‘rinda Zarafshon vohasi o‘zbek aholisi yashaydigan bir qator qishloqlarning *“Qozoq”, “Qozoq ovul”, “Qozoq qishloq”* deb atalishi ko‘zga tashlanadi. Ushbu nomlarning kelib chiqishini ham bir xil izohlash qiyin. Ulardan ayrimlari qozoq xalqi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqali bo‘lishi va keyinchalik o‘zbeklashib ketgan bo‘lishi mumkin. Boshqa tomondan esa bir necha o‘zbek urug‘lari tarkibida *“qozoq”* deb ataladigan alohida tarmoqlarning mavjudligini ham hisobga olish zarur. Shuningdek, ushbu etnonimning o‘rta asrlarda dastlab etnik nom emas, balki muayyan bir ijtimoiy atama bo‘lganligini ham nazarda tutish kerak bo‘ladi[7].

Bundan tashqari, o‘rta asrlarda, ayniqsa Oltin O‘rda saltanati davrida Dashti Qipchoq aholisining katta bir qismi *“o‘zbek”* yoki *“o‘zbek-qozoq”* deb atalganini ham nazardan qochirmaslik kerak[8].

Shu bilan birga, Sirdaryoning o‘rta havzalari – G‘arbiy Sibirni o‘z ichiga olgan Abulxayrxon davlati (1412–1442) davrida ko‘chmanchi o‘zbeklarning bir qismi *“o‘zbek-qozoqlar”*dan ajralib chiqib, sharqqa – Chu vodiysiga ketgan paytlarida ulardan bir qismi asl joyida – Sirdaryoning o‘rta havzasida qolib, keyinchalik Muhammad Shayboniyxon bilan Amudaryo–Sirdaryo oralig‘ining markaziy hududlariga kirib kelgan vakillarning avlodlari ham bo‘lishi mumkin.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Zarafshon vohasi o‘zbek aholisining etnik tarixi va uning voha toponimlarining tashkil topishidagi o‘rni masalasi bilan XX asr misolida qisqacha tanishib chiqish shundan darak beradiki, bu davrda Zarafshon vohasi aholisining katta qismi o‘zbeklardan iborat bo‘lib, vohadagi yuzlab joy nomlarining o‘zbek tilida izohlanishi, shuningdek, ularning an’anaviy *“o‘zbek urug‘lari”* shajaralari va ro‘yxatlaridan o‘rin olganligi ham buni tasdiqlab turibdi.

Zarafshon vohasi o‘zbeklarining etnik tarixini tadqiq etishda toponomik ma’lumotlarning ahamiyati asosan quyidagi dalillar asosida o‘z tasdig‘iga ega:

- Vohadagi joy nomlari, xususan, o‘zbekcha etnotoponimlar, o‘zbek xalqining shakllanishida ishtirok etgan turkiy etnoslar va ularning lahja xususiyatlarini o‘zida aks ettirgan bo‘lib, bu holat qarluq, o‘g‘uz va qipchoq lahjalariga xos so‘zlar (asosan etnonim va antroponimlar)dan iboratdir. Jumladan, Qarluq, Turk, Uyg‘ur, Qoraxitoy etnotoponimlari – qarluqlar, o‘z navbatida Qoraxoniylar davri; Turkman, Urganji, Chandir, Bayot, Sayot, Xidir eli etnotoponimlari ko‘proq Saljuqiylar va Xorazmshoh-Anushteginiylar davri; Qipchoq, Nayman, Saroy, Mang‘it, Xitoy, Ming, Qirq, Yuz, Bahrin, O‘tarchi, O‘ymovut, Achamayli va hokazo etnotoponimlar esa Shayboniylar va o‘zbek

xonliklari davri mahsuli sifatida o‘zini namoyon qiladi (Qarang. 1–3 ilovalar).

- Zarafshon vohasidagi o‘zbekcha etnotoponimlar o‘z tarkibiga ko‘ra O‘zbekistondagi barcha viloyatlardagi etnotoponimlar bilan umumiy o‘xshashlik kasb etadi. Masalan, Nayman, Saroy, Qipchoq, Turk, Uyg‘ur, Kenagas, Qiyot, Qo‘ng‘irot, Urganji, Barlos, Jaloyir, Turkman, Durman, Ming, Yuz, Qirq va hokazo kabi joy nomlarini mamlakatimizning deyarli barcha viloyat va tumanlarida uchratish mumkin. Bu esa mamlakatimiz va unga qo‘shni hududlarda o‘zbek xalqi asosan bir xil etnomadaniy muhitda shakllanganligidan darak beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент.: Ўзбекистон, 1978. – Б. 24; Qorayev S. Toponimika ... – B. 81–82.
2. Султанов Т.И. Опыт анализа традиционных списков 92 племен илатия ... – С. 98–133.
3. Тоштемиров А. Челак тумани тарихи ... – Б. 28; Бабаяров Г., Кубатин А. К вопросу о термине 92 узбекских племени в контексте исторических связей тюркских народов ... – С. 137–147.
4. Маликов А.М. Тюркские этнонимы и этнотопонимы… – С. 124–133.
5. Дониёров Х. Ўзбек халқи шажара ва шевалари. – Б. 77.
6. Дониёров Х. Ўзбек халқи шажара ва шевалари... – Б. 176; Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 72–80.
7. Кармышева Б.Х. Очерки этнической истории южных районов Таджикистана и Узбекистана. – М.: Наука, 1976. – С. 86–94.
8. Ардиев А. Бухоро ўғуз шевалари лексикаси ... – Б. 13–28.
9. Каюмов А. Этническая ситуация на территории Южного Узбекистана в XIX – начале XX века ... – С. 15–17.
10. Abdizoitovich G. Educational Problems In The Information Society // Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – T. 6. – № 4. – C. 5–5.
11. Usmonov F. Ethics of science: moral principles and their role in the development of society // Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2024. – T. 2. – № 11. – C. 41–45.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 37.025

TALABALARDA HAYOTIY STRATEGIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING AMALIY IMKONIYATLARI

Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy o'gli, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi

PRACTICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING LIFE STRATEGIES AMONG STUDENTS

Xudoyberganov Doniyorbek Yangiboy ogli, Researcher, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni

ПРАКТИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННЫХ СТРАТЕГИЙ У СТУДЕНТОВ

Худойберганов Дониёрбек Янгибой оглы, исследователь Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

https://orcid.org/0009-0007-1387-7097
e-mail: xudoyberganov.doniyor@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada talabalar shaxsida hayotiy strategiyalarni shakllantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan yoritiladi. Avvalo, strategik tafakkur, maqsad qo'yish, o'zini-o'zi boshqarish, metakognitiv refleksiya va rezilyentlik kabi komponentlar hayotiy strategiyaning asosiy tarkibiy qismlari sifatida sharhlanadi. Shuningdek, oliy ta'lim tizimida ushbu kompetensiyalarni rivojlantirishning amaliy imkoniyatlari tahlil qilinadi: loyiha va muammo-yo'naltirilgan o'qitish, karyera rejalashtirish va mentorlik dasturlari, refleksiv portfellar, kompetensiyaga asoslangan baholash, shuningdek, raqamli rejalashtirish vositalari va o'yinlashtirish elementlari integratsiyasi.*

Kalit so'zlar: *strategik tafakkur, maqsad qo'yish, metakognitsiya, rezilyentlik, karyera rejalashtirish, mentorlik, refleksiya, raqamli rejalashtirish vositalari.*

Abstract: *This article explores the issue of developing life strategies among students from both theoretical and practical perspectives. The components of strategic thinking, goal-setting, self-regulation, metacognitive reflection, and resilience are analyzed as the core elements of a life strategy. The paper also examines the practical opportunities for developing these competencies within higher education: project- and problem-based learning, career planning and mentoring programs, reflective portfolios, competence-based assessment, as well as the integration of digital planning tools and gamification elements.*

Keywords: *strategic thinking, goal-setting, metacognition, resilience, career planning, mentoring, reflection, digital planning tools.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается проблема формирования жизненных стратегий у студентов с теоретической и практической точек зрения. Прежде всего, такие компоненты, как стратегическое мышление, целеполагание, саморегуляция, метакогнитивная рефлексия и резильентность, анализируются как основные составляющие жизненной стратегии.*

Кроме того, рассматриваются практические возможности развития данных компетенций в системе высшего образования: проектное и проблемно-ориентированное обучение, программы карьерного планирования и наставничества, рефлексивные портфолио, компетентностно-ориентированное оценивание, а также интеграция цифровых инструментов планирования и элементов геймификации.

Ключевые слова: *стратегическое мышление, целеполагание, метакогниция, резильентность, карьерное планирование, наставничество, рефлексия, цифровые инструменты планирования.*

KIRISH. Bugungi globallashuv, raqamli transformatsiya va tezkor o‘zgarishlar sharoitida yoshlarning hayotga munosabati, o‘z yo‘lini belgilash va istiqbolini rejalashtirish qobiliyati jamiyat taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichiga aylanmoqda. Inson o‘z hayotining muallifi sifatida qarorlar qabul qiladi, tanlovlar qiladi, xatolardan saboq oladi — aynan mana shu jarayonlarda hayotiy strategiyalar shakllanadi. Talabalik davri esa bu jarayonning eng faol va mas’uliyatli bosqichidir, chunki aynan shu davrda shaxs o‘zining kasbiy, ma’naviy va ijtimoiy yo‘nalishini aniqlaydi.

Oliy ta’lim tizimi faqat bilim berish bilan cheklanmay, balki talabalarda strategik tafakkur, refleksiya, o‘zini-o‘zi boshqarish va maqsadga yo‘naltirilganlikni tarbiyalashning asosiy muhitiga aylanishi zarur. Chunki zamonaviy yosh inson mehnat bozori, raqamli iqtisodiyot, shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasida muvozanatni saqlay oladigan, o‘z hayotiy yo‘lini ongli rejalashtiradigan yetuk shaxs bo‘lishi kerak. Hayotiy strategiyaga ega bo‘lmagan talaba bilimni egallashi mumkin, biroq uni o‘z hayotiy maqsadlariga yo‘naltirishda qiynaladi. Shu bois, talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirish nafaqat psixologik tayyorgarlik, balki pedagogik jarayonning muhim komponenti sifatida qaralishi lozim. Bu jarayon uzluksiz refleksiya, o‘zini baholash, maqsadlarni bosqichma-bosqich rejalashtirish va ularni amalga oshirish mexanizmlarini talab etadi. O‘qituvchi esa bu jarayonning yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchisi, motivator va mentor sifatida ishtirok etadi.

ASOSIY QISM. Hayotiy strategiyalarni shakllantirish — bu faqat nazariy tushuncha emas, balki insonning o‘z hayotini ongli boshqarish san’atidir. Shunday ekan, talabalarda bunday kompetensiyalarni rivojlantirish — ta’lim tizimining barqarorligi va jamiyatning intellektual salohiyatini mustahkamlashning eng muhim omillaridan biridir.

Hayotiy strategiyalar tushunchasi insonning o‘z hayot yo‘lini ongli ravishda belgilashi, tanlovlarini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirishi va shaxsiy salohiyatini to‘liq namoyon etish jarayonini anglatadi. Bu tushuncha falsafa, psixologiya, pedagogika va sotsiologiya fanlarining kesishgan nuqtasida shakllangan bo‘lib, har bir soha uni o‘z prizmasidan yoritadi. Falsafiy jihatdan, hayotiy strategiya insonning “hayot ma’nosi”ni anglashga yo‘naltirilgan faol pozitsiyasini ifodalaydi. Psixologik nuqtai nazardan esa bu — shaxsning ichki motivlari, qadriyatlari, maqsadlari va qaror qabul qilish mexanizmlarining uyg‘un tizimidir.

Pedagogik yondashuvda hayotiy strategiyani shakllantirish talabaning o‘z hayoti uchun mas’uliyatni his qilishi, o‘z imkoniyatlarini baholashi va ularni ijtimoiy ehtiyojlar bilan uyg‘unlashtira olish jarayoni sifatida talqin etiladi. Bu jarayon shunchaki bilim olish emas, balki hayotni o‘rganish, o‘z hayotini loyihalash san’atidir. Shaxsning hayotiy strategiyasi uning “Men kimman?”, “Men nimaga erishmoqchiman?” va “Men bunga qanday erishaman?” degan asosiy hayotiy savollariga bergan javoblarida namoyon bo‘ladi.

Nazariy jihatdan hayotiy strategiyalarni shakllantirishda bir necha muhim konseptual yondashuvlar mavjud. Avvalo, A. Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga ko‘ra, inson o‘z hayot strategiyasini shakllantirishda asosiy ehtiyojlardan boshlab, o‘zini o‘zi ro‘yobga chiqarish bosqichigacha harakat qiladi [1]. E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi esa yoshlik davrini “identifikatsiya” bosqichi deb ataydi — bu davrda talaba o‘zining kimligini, jamiyatdagi o‘rnini va hayotiy maqsadlarini anglay boshlaydi [2].

TAMADDUN NURI

V.Franklning “hayot ma’nosi” kontsepsiyasi esa insonning hayotiy strategiyasini ichki ma’naviy yo‘nalish bilan bog‘laydi — ya’ni inson o‘z hayotining ma’nosini anglaganida, u har qanday sharoitda yo‘nalish topa oladi [3].

Zamonaviy pedagogikada bu nazariy qarashlar kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va refleksiv o‘qitish konsepsiyalari bilan uyg‘unlashadi. Talabani faqat bilim oluvchi emas, balki o‘z hayotini boshqaruvchi faol subyekt sifatida ko‘rish bugungi ta’lim paradigmasining markazida turadi. Shu bois, oliy ta’lim tizimi talabalarda strategik tafakkur, qaror qabul qilish, vaqtni boshqarish, stressga bardoshlilik va ijtimoiy mas’uliyat kabi ko‘nikmalarni rivojlantirishni maqsad qilishi lozim.

Nazariy manbalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirish uch bosqichli jarayon sifatida talqin etiladi: anglash, rejalashtirish va amalga oshirish. Bu jarayonning muvaffaqiyati talabaning o‘ziga xos kognitiv, emosional va ijtimoiy resurslarini birlashtirishiga bog‘liq. Ya’ni, u nafaqat bilimga, balki o‘z hissiyotlarini boshqarish, irodaviy qarorlar qabul qilish va ijtimoiy muloqotga tayyor bo‘lish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak. Hayotiy strategiyalarni shakllantirishning nazariy asoslari shaxsning o‘zini anglash, maqsadni belgilash va hayotiy yo‘lni rejalashtirishga asoslanadi. Talaba bu jarayonning markazida turadi: u o‘z hayotining muallifi, o‘z rivojlanishining bosh loyihachisi va o‘z kelajagining strategidir. Shu sababli, har bir pedagogik tizimning asosiy vazifasi — talabalarga hayotiy strategiyalarni shakllantirish uchun zarur shart-sharoit, tajriba va yo‘nalish berishdir.

Amaliy imkoniyatlar. Talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirish nazariy jihatdan asoslangan bo‘lishi bilan bir qatorda, uni amaliy hayotga tatbiq etish ham ta’lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Chunki nazariya faqat tajriba orqali hayotiy kuchga ega bo‘ladi. Bugungi kunda oliy ta’lim jarayonida talabalarning shaxsiy rivojlanishiga, maqsad qo‘yish va o‘z hayotini rejalashtirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi ko‘plab amaliy imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlar pedagogik, psixologik, raqamli va ijtimoiy omillar uyg‘unligida namoyon bo‘ladi.

Avvalo, pedagogik imkoniyatlar haqida so‘z yuritsak, zamonaviy o‘quv jarayonida loyiha asosida o‘qitish, muammo-yo‘naltirilgan ta’lim, refleksiv mashg‘ulotlar va interaktiv treninglar hayotiy strategiyalarni shakllantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Masalan, talabalar “Hayotimdagi 5 yillik rejam” yoki “Men kim bo‘lishni xohlayman?” kabi loyiha topshiriqlari orqali o‘z maqsadlarini aniqlash va rejalashtirishni o‘rganadilar. Bunday topshiriqlar nafaqat tahliliy fikrlashni, balki ijodiy yondashuvni, o‘z-o‘zini baholashni ham rivojlantiradi.

Psixologik imkoniyatlar esa shaxsning ichki dunyosini anglash va o‘zini boshqarish qobiliyatlarini mustahkamlashga qaratilgan. Oliy ta’limda psixologik treninglar, mentorlik tizimi, kouching va shaxsiy rivojlanish bo‘yicha seminarlar o‘tkazish orqali talabalar o‘z kuchli va zaif tomonlarini bilib oladi. Bu esa ularning hayotiy qarorlar qabul qilishda mustaqil, ongli va mas’uliyatli bo‘lishiga yordam beradi. Ayniqsa, mentor yoki ustoz bilan doimiy muloqot talabaning shaxsiy strategiyasini shakllantirishda yo‘l-yo‘riq beradi.

Raqamli imkoniyatlar bugungi yoshlar hayotida muhim rol o‘ynaydi. Onlayn karyera rejalashtirish platformalari, maqsadlarni kuzatish dasturlari (masalan, Notion, Trello, Miro), raqamli portfellar va ta’limda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish talabalarda o‘z hayotini rejalashtirish va natijalarni monitoring qilish madaniyatini shakllantiradi. Bunday vositalar orqali talaba o‘z rivojlanish jarayonini vizual kuzatib, o‘z ustida ishlashga doimiy turtki oladi.

Shuningdek, ijtimoiy imkoniyatlar ham katta ahamiyatga ega. Talabalik davrida turli ijtimoiy loyihalar, volontyorlik faoliyatlari, madaniy tadbirlar va talabalar klublarida ishtirok etish shaxsning hayotiy qadriyatlarini boyitadi. Bunday tajribalar orqali talaba jamiyat bilan o‘zaro aloqada bo‘lishni, jamoaviy ishlashni va ijtimoiy mas’uliyatni his etishni o‘rganadi. Bu esa uning hayotiy strategiyasini faqat shaxsiy muvaffaqiyat bilan emas, balki ijtimoiy manfaat bilan uyg‘unlashtirishga yordam beradi.

Amaliy jihatdan qaraganda, hayotiy strategiyalarni shakllantirish uzluksiz jarayondir. Unda o‘qituvchi — yo‘l ko‘rsatuvchi, talaba — izlovchi, ta’lim muhiti esa — sinov maydonidir. Talaba o‘z hayot strategiyasini yaratish jarayonida xatolar qiladi, lekin ana shu xatolar uning o‘sishiga xizmat qiladi. Muhimi, ta’lim tizimi bu jarayonni

qo‘llab-quvvatlashi, o‘zini izlayotgan har bir talaba uchun motivatsion va rivojlantiruvchi muhit yaratishi kerak. Talabalar hayotiy strategiyalarini shakllantirishning amaliy imkoniyatlari keng va ko‘p qirrali. Ular pedagogik faoliyat, psixologik yordam, raqamli vositalar va ijtimoiy tajribalar orqali amalga oshiriladi. Eng muhimi, har bir talaba o‘z hayotining muallifi ekanini anglab, har bir qarorini ongli ravishda tanlashni o‘rganadi. Ana shunda ta’lim jarayoni faqat kasbiy tayyorgarlik emas, balki hayotni boshqarish maktabiga aylanadi.

XULOSA. Talabalarda hayotiy strategiyalarni shakllantirish — shaxsning maqsadga yo‘naltirilgan rivojlanishi, o‘zini-o‘zi boshqarishi va ijtimoiy-madaniy muhit bilan ongli hamkorligiga tayanadigan uzluksiz jarayon. Maqolada ushbu jarayonning nazariy poydevori (ma’no izlash, identifikatsiya, motivatsiya va o‘zini-o‘zi boshqarish nazariyalari) hamda amaliy mexanizmlari (loyiha va muammo-yo‘naltirilgan ta’lim, mentorlik, refleksiya, karyera rejalashtirish, raqamli rejalashtirish vositalari va gamifikatsiya) uzviy yoritildi.

Taklif etilgan bosqichma-bosqich model — anglash → rejalashtirish → amalga oshirish → monitoring va refleksiya — talabaning shaxsiy maqsadlarini mehnat bozori talablari va mahalliy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirishni ko‘zlaydi. Kutilayotgan natijalar: mas’uliyatli tanlov, barqaror motivatsiya, strategik tafakkur, rezilyentlik va adaptiv rejalashtirish ko‘nikmalarining kuchayishi.

Amaliyotda muvaffaqiyatli joriy etish uchun uchta shart muhim: o‘quv dasturlariga modul sifatida integratsiya; mentorlik va psixologik qo‘llab-quvvatlash tizimi; kompetensiyaga asoslangan baholash va muntazam fikr-mulohaza sikllari.

Tadqiqotning cheklovlari sifatida muassasalar kesimidagi resurslar tafovuti va talabalar motivatsiyasining turlicha darajasi ko‘rsatildi; kelgusida eksperimental dizaynlar, uzunlamas kuzatuvlar va mahalliy kontekstga moslangan o‘lchov vositalarini ishlab chiqish zarur.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Maslow A.H. Motivation and Personality. 3rd ed. New York: Harper & Row, 1987. — 293 pp.
2. Erikson E. H. Identity: Youth and Crisis. New York: W. W. Norton, 1968. — 336 pp.
3. Frankl V. E. Man’s Search for Meaning. Boston: Beacon Press, 2006. — 184 pp.
4. Locke E. A., Latham G. P. A Theory of Goal Setting and Task Performance. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall, 1990. — 413 pp.
5. Tinto V. Leaving College: Rethinking the Causes and Cures of Student Attrition. 2nd ed. Chicago: University of Chicago Press, 1993. — 312 pp.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 82.01/09

ALISHER NAVOIYGACHA BO‘LGAN O‘ZBEK ADABIYOTIDA MAV’IZA

Nurbayeva Marvarid Tavakalovna, O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘limi tayanch doktoranti

MAV‘IZA IN THE UZBEK LITERATURE BEFORE ALISHER NAVOIY

Nurbayeva Marvarid Tavakalovna, Junior Doctoral Researcher, Department of History of Classical Uzbek Literature, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

МАВИЗА В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ ДО АЛИШЕРА НАВОИ

Нурбаева Марварид Тавакаловна, младший научный сотрудник, отдел истории классической узбекской литературы, Институт узбекского языка, литературы и фольклора, Академия наук Республики Узбекистан

https://orcid.org/0009-0005-1307-1240
e-mail: marvaridnurboyeva@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola mav’izaning o‘zbek adabiyotidagi o‘rnini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, uning diniy-didaktik, ijtimoiy va badiiy estetik jihatlarini tahlil qilishni maqsad qilgan. Mazkur tadqiqot mav’izaning rivojlanish bosqichlarini aniqlash, uning adabiy jarayonlardagi o‘rnini belgilash va jamiyatga ko‘rsatgan ta’sirini o‘rganish orqali mav’izaning o‘zbek adabiyotida qanday shakllanganini ochib beradi.*

Kalit so‘zlar: *adabiyotshunoslik, dinshunoslik, o‘git, pand, nasihat, va’z, mav’iza, nasihatomuz so‘z, majoz, ta’rif, tavsif.*

Abstract: *The purpose of this article is to examine the place of the motto in Uzbek literature, as well as analyze its religious, didactic, social, and artistic-aesthetic aspects. The study explores the development of the motto in Uzbek literature, identifying the stages of its development, defining its place in literary processes, and examining its influence on society.*

Keywords: *literary studies, religious studies, instruction, exhortation, sermon, motto, edifying word, metaphor, definition, description.*

Аннотация: *Целью данной статьи является изучение места девиза в узбекской литературе, а также анализ его религиозно-дидактических, социальных и художественно-эстетических аспектов. Исследование раскрывает становление девиза в узбекской литературе, выявляя этапы его развития, определяя его место в литературных процессах и изучая его влияние на общество.*

Ключевые слова: *литературоведение, религиоведение, наставление, увещевание, проповедь, девиз, назидательное слово, метафора, определение, описание.*

KIRISH. O‘zbek adabiyoti tarixi xalqning ma’naviy-madaniy o‘zligini aks ettiruvchi ulkan boylikdir. Alisher Navoiy asrlar davomida bu adabiyotning yuksak namunalarini yaratgan bo‘lsa-da, u yashagan davrgacha ham mazkur madaniyatning poydevori shakllangan edi. Ayniqsa, diniy-didaktik janrlarning rivoji bu jarayonning muhim qismi hisoblanadi. Shunday janrlardan biri –

mav'iza, ya'ni o'git janridir. Ushbu maqolada Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda o'zbek adabiyotida mav'izaning rivoji, uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati o'rganiladi.

Adabiyot inson ma'naviy kamolotini yuksaltirish, axloqiy tamoyillarni shakllantirish va jamiyatni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. O'zbek adabiyotining qadimiy tarixida Mav'iza xalqning diniy, ijtimoiy va axloqiy ehtiyojlariga javob beruvchi vosita sifatida yuzaga kelgan. Bu janr Sharq falsafasi, islomiy qadriyatlar va turkiy madaniyatning chuqur ta'sirida rivojlangan bo'lib, o'zbek adabiyotida yuksak o'rin egallagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mav'iza orqali xalq axloqiy tarbiya olib, jamiyatning ma'naviy asoslari mustahkamlangan. Yusuf Xos Hojibning "*Qutadg'u bilig"[1],* Ahmad Yugnakiyning "*Hibat ul-haqoyiq"[2],* nomalar va Lutfiy[3] kabi sohibi devon shoirlar lirikasi kabi asarlari buning eng yorqin namunalaridir. Ushbu asarlar nafaqat diniy-didaktik mazmuni, balki badiiy-estetik shakli bilan ham ahamiyatlidir. Mav'izaning bu kabi asarlarda yuksak ifodalanishi uning xalq hayotidagi roli va o'zbek adabiyoti rivojidagi o'rnini belgilab beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Tadqiqotda tarixiy-tipologik, qiyosiy va badiiy-estetik tahlil metodlari qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar orqali mav'izaning Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida shakllanish jarayonlari, diniy-didaktik mazmuni va ijtimoiy-ma'rifiy ahamiyati o'rganildi. Qur'on, hadislar hamda Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnaki va Lutfiy asarlari tahlil asosini tashkil etdi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyoti, asosan, diniy va didaktik ruhda rivojlangan. Xususan, Qutb, Xorazmiy va "Devoni lug'at-it turk"[4] muallifi Mahmud Qoshg'ariy kabi allomalar bu davrning yorqin vakillari hisoblanadi. Ularning asarlarida mav'izaning izlari, ya'ni axloqiy-ibratli fikrlar keng o'rin olgan. Shuningdek, sharq madaniyati va islomiy ma'naviyatning chuqur ta'sirida rivojlangan. Bu davrda adabiyotning asosi, asosan, diniy-didaktik ruhda shakllanib, axloqiy va falsafiy masalalarga e'tibor qaratilgan. Ayniqsa, bu jarayonda mav'iza adabiy-estetik va ma'rifiy mazmunni birlashtiruvchi vosita sifatida o'zining mustahkam o'rnini egallagan.

O'zbek adabiyotining dastlabki bosqichlarida Qur'on va Hadis mazmuniga asoslangan, diniy-axloqiy ruhdagi asarlar yaratilgan. Bu asarlar xalqni axloqiy fazilatlarga undash va insoniy qadriyatlarga yo'naltirishga xizmat qilgan. Ahmad Yugnakiy "Hibat ul-haqoyiq" asarida mav'iza uslubini yorqin namoyon etib, iymon, adolat va donishmandlik haqidagi hikmatlar orqali xalqni ma'naviy tarbiyalashni maqsad qilgan.

Mav'izaning Navoiygacha bo'lgan davrdagi rivoji asosan uch yo'nalishda o'z aksini topgan:

1. Diniy-didaktik ruhiyat: Bu janr o'sha davrdagi adabiyotda diniy va axloqiy normalarni targ'ib qiluvchi muhim vosita bo'lgan. Ahmad Yugnakiy va Yusuf Xos Hojib asarlarida bu yo'nalishning yorqin namunalarini ko'rish mumkin.

2. Jamiyatning ma'rifiy ehtiyojlari: Ushbu janr vositasida xalqning ma'naviy va axloqiy ehtiyojlari qondirilgan, ularga o'z-o'zini anglash va ruhiy tarbiya masalalarida yordam berilgan.

3. Adabiy-estetik shakllanish: Mav'iza o'zbek adabiyotining badiiyligi va mazmuniyligini boyitgan. Bu asarlar o'sha davr jamiyatining ijtimoiy hayotidagi real muammolarni yoritib bergan.

4. Navoiyga ta'sir va izchil rivojlanish. Mav'iza Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida nafaqat diniy-didaktik, balki ijtimoiy-ma'rifiy vazifalarni bajaruvchi muhim janr bo'lgan. Bu janrning rivoji, asosan, uch asosiy yo'nalishda namoyon bo'lgan: diniy axloqiy tarbiya, ijtimoiy birlikni targ'ib qilish va badiiy-estetik shakllanish. Ushbu yo'nalishlar har biri o'ziga xos tarzda xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilgan.

1. Diniy-didaktik ruhiyat. Mav'iza, avvalo, axloqiy tozalikka va komillikka chaqirish vositasi sifatida yuzaga kelgan. Qadimgi o'zbek adabiyotida bu janr Qur'on va Hadis asosida shakllangan bo'lib, asarlar diniy-axloqiy masalalarni yoritishga qaratilgan. Yusuf Xos Hojibning "*Qutadg'u bilig"* asari bu yo'nalishning yorqin namunasi bo'lib, unda hukmdor va fuqaro munosabatlarini axloqiy asosda tartibga solish haqida hikmatlar mavjud. Shuningdek, Ahmad Yugnakiyning "*Hibat ul-haqoyiq"* asari mav'izaning axloqiy tarbiya vositasi sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Unda insonning komillikka erishish yo'llari, halollik va adolat kabi fazilatlarning ahamiyati haqida chuqur hikmatlar berilgan. Bu

asarlar xalqning ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qilgan.

2. Ijtimoiy birlik va adolatni targ'ib qilish. Mav'izaning ijtimoiy roli asosan jamiyatni birlikka chaqirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirishga qaratilgan edi. Qadimgi o'zbek adabiyotida mav'iza asarlari jamiyatning axloqiy asoslarini mustahkamlashda muhim vosita bo'lgan. Yusuf Xos Hojibning asarlarida davlat boshqaruvi masalalari bilan birga, xalq va hukmdor o'rtasidagi munosabatlar adolat va ahillik asosida ko'riladi. Ahmad Yugnakiyning asarlarida esa jamiyatdagi kamchiliklarni fosh qilish va insonlarni hamjihatlikka chorlash mav'izaning asosiy mavzusi sifatida namoyon bo'ladi. Bu asarlar jamiyatning turli qatlamlari o'rtasidagi adolat va muloqotni ta'minlashga qaratilgan axloqiy mezonlarni ilgari surgan.

3. Adabiy-estetik shakllanish. Mav'iza o'zbek adabiyotining adabiy-estetik rivojida ham muhim rol o'ynagan. Ushbu janr asarlarining uslubiy boyligi va badiiy ifodasi bilan e'tibor qozongan. Yusuf Xos Hojibning baytlaridagi poetik tuzilma yoki Ahmad Yugnakiyning asarlaridagi hikmatlar mav'izaning yuqori badiiy darajada bo'lishini ta'minlagan. Adabiy shakllanish jarayonida Sharq adabiyotining buyuk namoyandalari Sa'diy, Yassaviy[5], Attor va boshqa mutafakkirlarning ta'siri sezilarli bo'lgan. Ularning hikmat va mav'izadagi asarlari o'zbek adabiyotida mav'izaning badiiy-estetik imkoniyatlarini kengaytirgan. Ayniqsa, Yusuf Xos Hojib asarining nazmiy shaklda ifodalanganligi va undagi chuqur falsafiy mazmun mav'izaning badiiy salohiyatini namoyish qiladi.

4. Navoiyga ta'sir va izchil rivojlanish. Mav'izaning Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida shakllangan didaktik va axloqiy asoslari shubhasiz Navoiy ijodida yuqori darajada rivojlangan. Ahmad Yugnakiy va Yusuf Xos Hojib kabi mutafakkirlar tomonidan asos solingan mavzular Navoiyning "*Mahbub ul-qulub*" kabi asarlarida mukammallikka yetgan. Shu ma'noda, Navoiy mav'izani nafaqat axloqiy tarbiya vositasi sifatida, balki falsafiy-estetik tushunchalarni chuqur yorituvchi badiiy vosita sifatida boyitgan.

XULOSA. Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotida mav'iza diniy-didaktik va ma'rifiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, uning rivoji asosan xalqning ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu janrning asosiy vazifasi insonlarni axloqiy kamolotga yetaklash va ularning ijtimoiy hayotini yaxshilash edi.

Alisher Navoiygacha bo'lgan davrda mav'iza diniy-didaktik va ijtimoiy-ma'rifiy mazmunni birlashtiruvchi adabiy janr sifatida shakllangan. Bu janr orqali o'zbek adabiyoti nafaqat xalqni axloqiy jihatdan tarbiyalash, balki ularning ijtimoiy ongini yuksaltirishga xizmat qilgan. Mav'iza badiiy shakl va mazmun jihatidan turli-tuman bo'lib, uning rivojlanishi Navoiy ijodiga asos bo'lgan. Shu ma'noda, mav'izaning Alisher Navoiygacha bo'lgan o'zbek adabiyotidagi o'rni va ahamiyati nafaqat tarixiy, balki bugungi kun uchun ham dolzarbdir. Kelgusida mav'izaning boshqa Sharq xalqlari adabiyoti bilan qiyosiy tahlili mav'izaning rivojlanishidagi yangi qirralarni ochib berishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. Нашрга тайёрловчи Қаюм Каримов. – Тошкент: Фан. 1971.
2. Аҳмад Югнакий. Ҳибатул ҳақойиқ. Қадимги туркчадан Баҳром Ғойиб таржимаси. Тошкент: – 2002.
3. Lutfiy. Devon. Nashrga tayyorlovchilar: Sodir Erkinov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2012.
4. Маҳмуд Қошғарий. Девону луғотит турк. Нашрга тайёрловчи Ғ.Абдураҳмонов ва С.Муталлибов. – Тошкент: Фан. 1967.
5. Аҳмад Яссавий. Ҳикматлар куллиёти. – Тошкент: O'zbekiston, 2011.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 347.99

СУДЛОВГА ТЕГИШЛИЛИК ВА СУДЛОВГА ТААЛЛУҚЛИЛИК МАСАЛАЛАРИ

Жалғас Аманиязов, Беруний туманлараро иқтисодий суди судьяси

Иқтисодий муносабатлар соҳасида юзага келаётган низоларни ҳал этишда иқтисодий судлар муҳим ўрин тутади. Шу нуқтаи назардан, иқтисодий судларда ишларни кўришда судловга тегишлилик ва судловга тааллуқли- лик масалаларини тўғри белгилаш муҳим аҳамиятга эга.

Судга тааллуқли ишлар туманлараро, туман, шаҳар иқтисодий судлари томонидан кўрилади, бундан Ўзбекистон Республикаси Олий суди ва Қорақалпоғистон Республикаси суди, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судлари судловига тегишли ишлар мустасно.

Қорақалпоғистон Республикаси суди, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судлари:

-тарафлардан бири Ўзбекистон Республикаси норезиденти — чет эл шахси бўлган ишларни;

-арбитраж муҳокамаси билан боғлиқ ишларни;

-чет давлат судлари ва арбитражларининг қарорларини тан олиш ҳамда ижрога қаратиш тўғрисидаги ишларни кўради.

Давлат бошқарув органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари ўртасидаги иқтисодий битимлардан келиб чиқадиган низолар Ўзбекистон Республикаси Олий суди томонидан кўрилади.

Ўзбекистон Республикаси Олий суди алоҳида ҳолатларни эътиборга олган ҳолда ҳар қандай ишни исталган суддан олиб қўйиш ва уни биринчи инстанция бўйича ўз иш юритувига қабул қилишга, ишни бир суддан бошқасига ўтказишга ҳақли.

Инвестициявий низолар бўйича йирик инвесторнинг, рақобатга оид ишлар бўйича тарафларнинг хоҳишига кўра, ушбу тоифадаги ишлар бевосита Ўзбекистон Республикаси Олий суди, қолган инвестициявий низолар инвесторнинг хоҳишига кўра, Қорақалпоғистон Республикаси суди, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судлари томонидан биринчи инстанция суди сифатида кўрилади.

Судловга тегишлиликнинг умумий қоидаларига кўра, юридик шахсларга нисбатан даъволар улар давлат рўйхатидан ўтган жойдаги судга тақдим этилади.

Юридик шахсларга нисбатан уларнинг алоҳида бўлинмалари фаолиятидан келиб чиқадиган даъволар алоҳида бўлинмалар давлат рўйхатидан ўтган жойдаги судга тақдим этилади.

Фуқароларга нисбатан даъволар улар якка тартибдаги тадбиркор сифатида давлат рўйхатидан ўтган жойдаги судга тақдим этилади.

Турли ерларда жойлашган бир неча жавобгарга нисбатан даъволар даъвогарнинг танлаши бўйича жавобгарлардан бири давлат рўйхатидан ўтган жойдаги судга тақдим этилади.

Давлат рўйхатидан ўтган жойи номаълум бўлган жавобгарга нисбатан даъволар унинг мол-мулки жойлашган ердаги ёки унинг маълум бўлган охирги жойлашган еридаги судга тақдим этилиши мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг фуқароси бўлган ва бошқа давлат ҳудудида турган жавобгарга нисбатан даъволар даъвогар жойлашган ерда ёки жавобгарнинг мол-мулки жойлашган ерда тақдим этилиши мумкин.

Ижро этиш жойи кўрсатилган шартномадан келиб чиқадиган даъволар мажбурият ижро этиладиган жой бўйича тақдим этилиши мумкин.

Йирик инвестор бўлмаган инвесторнинг инвестиция фаолияти билан боғлиқ даъволар жавобгар жойлашган ердаги туманлараро, туман, шаҳар иқтисодий судига ёки Қорақалпоғистон Республикаси суди, вилоятлар ва Тошкент шаҳар судларига тақдим этилиши мумкин.

Йирик инвесторнинг инвестиция фаолияти билан боғлиқ даъволар, шунингдек товар ва молия бозорларидаги рақобат соҳасидаги муносабатлардан келиб чиқадиган даъволар жавобгар жойлашган ердаги туманлараро, туман, шаҳар иқтисодий судига ёки Ўзбекистон Республикаси Олий судига тақдим этилиши мумкин.

Юридик аҳамиятга эга бўлган фактларни аниқлаш тўғрисидаги ишлар аризачи давлат рўйхатидан ўтган жойдаги судда кўрилади.

Кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқнинг вужудга келиши, ўзгариши ёки бекор бўлиши учун юридик аҳамиятга эга бўлган фактларни аниқлаш тўғрисидаги ишлар кўчмас мулк жойлашган ердаги судда кўрилади.

Юридик шахсларнинг тўловга қобилиятсизлиги тўғрисидаги ишлар қарздор давлат рўйхатидан ўтган жойдаги судда, шунингдек қарздор жисмоний шахснинг ва (ёки) якка тартибдаги тадбиркорнинг яшаш жойидаги судда кўрилади.

Кўчмас мулкка бўлган мулк ҳуқуқини тан олиш тўғрисидаги даъволар, кўчмас мулк ҳақидаги низолар, шу жумладан кўчмас мулкни бошқа шахснинг ғайриқонуний эгалигидан талаб қилиб олиш тўғрисидаги ёхуд мулкдорнинг ёки мол-мулкнинг бошқа қонуний эгасининг ҳуқуқлари эгалик қилишдан маҳрум этиш билан боғлиқ бўлмаган ҳолда бузилишини бартараф этиш ҳақидаги ва кўчмас мулкка бўлган ҳуқуқлар тўғрисидаги бошқа даъволар кўчмас мулк жойлашган ердаги судга тақдим этилади.

Ташувчига нисбатан йўловчилар, багаж ва юкларни ташиш шартномаларидан келиб чиқадиган даъволар, шу жумладан, агар жавобгарлардан бири ташувчи бўлса, транспорт ташкилотининг органи жойлашган ердаги судга тақдим этилади.

Ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини бекор қилиш тўғрисидаги ариза ҳакамлик суди жойлашган ердаги иқтисодий судга берилади.

Ҳакамлик судида кўрилаётган даъвони таъминлаш чораларини кўриш тўғрисидаги, шунингдек ҳакамлик судининг ҳал қилув қарорини мажбурий ижро этиш учун ижро варақаси бериш тўғрисидаги ариза ҳакамлик суди жойлашган ердаги ёки қарздор давлат рўйхатидан ўтган жойдаги ёхуд агар қарздор давлат рўйхатидан ўтган жой номаълум бўлса, унинг мол-мулки турган жойдаги иқтисодий судга берилади.

Арбитрни тайинлаш, арбитрни рад этишни қаноатлантириш, арбитр ваколатларининг амал қилишини тугатиш хусусида қарор қабул қилиш, арбитраж судининг юрисдикцияси масаласи юзасидан қарорлар қабул қилиш, далилларни олишга кўмаклашиш, шунингдек арбитражнинг ҳал қилув қарорини бекор қилиш тўғрисидаги ариза арбитраж жойлашган ердаги иқтисодий судга берилади.

Медиатив келишувни мажбурий ижро этиш учун ижро варақаси бериш тўғрисидаги ариза медиатив келишувни ихтиёрий равишда бажармаган тараф давлат рўйхатидан ўтган жойдаги ёки, агар у давлат рўйхатидан ўтган жой номаълум бўлса, унинг мол-мулки турган жойдаги иқтисодий судга берилади.

Таъминлаш чораларини тан олиш ва ижрога қаратиш, арбитраж судида кўрилаётган даъвони таъминлаш чораларини кўриш тўғрисидаги ариза арбитраж жойлашган ердаги ёки қарздор давлат рўйхатидан ўтказилган жойдаги ёхуд, агар қарздор давлат рўйхатидан ўтказилган жой номаълум бўлса, унинг мол-мулки турган жойдаги иқтисодий судга берилади.

Корпоратив низолар бўйича даъволар юридик шахс жойлашган ердаги судга тақдим этилади.

Иқтисодий судлар:

-иқтисодиёт соҳасида юридик шахслар ҳамда юридик шахс ташкил этмаган ҳолда тадбиркорлик фаолиятини амалга ошираётган ва якка тартибдаги тадбиркор мақомини қонунда белгиланган тартибда олган фуқаролар, шунингдек корпоратив низолар бўйича ишлар кўрилаётганда тарафлар бўлган фуқаролар ўртасидаги фуқаровий, маъмурий ва бошқа ҳуқуқий муносабатлардан юзага келадиган низоларга доир ишлар;

-иқтисодиёт соҳасида юридик шахслар ва якка тартибдаги тадбиркорларнинг ҳуқуқлари юзага келиши, ўзгариши ёки бекор бўлиши учун аҳамиятга эга бўлган фактларни аниқлаш тўғрисидаги ишлар;

-тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишлар;

-ҳакамлик муҳокамаси билан боғлиқ ишлар;

-арбитраж муҳокамаси билан боғлиқ ишлар;

-медиатив келишувни мажбурий ижро этиш учун ижро варақаси бериш тўғрисидаги ишлар;

-корпоратив низолар бўйича ишлар, бундан меҳнатга оид низолар мустасно;

-инвестициявий низолар бўйича ишлар;

-чет давлат судлари ва арбитражларининг қарорларини тан олиш ҳамда ижро этишга қаратиш тўғрисидаги ишлар тааллуқлидир.

Якка тартибдаги тадбиркор мақомини йўқотган фуқаролар иштирокидаги низоларга доир ишлар ҳам, агар тегишли талаблар уларнинг аввалги тадбиркорлик фаолиятидан келиб чиқса, судга тааллуқли бўлади.

Қонун билан судга тааллуқли ишлар жумласига бошқа ишлар ҳам киритилиши мумкин.

Агар Ўзбекистон Республикасининг халқаро шартномасида бошқача қоида назарда тутилмаган бўлса, суд ўзига тааллуқли ишларни тадбиркорлик фаолиятини амалга ошираётган Ўзбекистон Республикаси юридик шахслари ва фуқаролари, шунингдек чет эл юридик шахслари, халқаро ташкилотлар, чет эл фуқаролари, фуқаролиги бўлмаган шахслар иштирокида кўради.

Ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари иқтисодий судга, бошқалари эса фуқаролик ишлари бўйича судга тааллуқли бўлган бир нечта талаб бирлаштирилган тақдирда, барча талаблар фуқаролик ишлари бўйича судда кўрилиши лозим.

Ўзаро боғлиқ бўлиб, баъзилари маъмурий судга, бошқалари эса иқтисодий судга тааллуқли бўлган бир нечта талабни бирлаштиришга йўл қўйилмайди.

Иқтисодий судлар фаолиятида судловга тегишлилик ва судловга тааллуқлилик масалалари ишларнинг тўғри кўриб чиқилиши, адолатли қарор қабул қилиниши ва тадбиркорлик муҳитининг ҳуқуқий ҳимоясини таъминлайди. Бу икки институт иқтисодий суд тизимининг асосий ташкилий ва процессуал пойдевори ҳисобланади. Қонунчилик ва суд амалиётида уларни янада такомиллаштириш иқтисодий муносабатлардаги барқарорлик ва ҳуқуқий кафолатларни мустаҳкамлайди.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 347.736

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ “ТЎЛОВГА ҚОБИЛИЯТСИЗЛИК ТЎҒРИСИДА”ГИ ҚОНУНИНИНГ МАЗМУНИ

Бахберген Убайдуллаев, Беруний туманлараро иқтисодий суди судьяси

Ўзбекистон Республикаси “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги Қонуни юридик ва жисмоний шахсларнинг, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорларнинг тўловга қобилиятсизлиги соҳасидаги муносабатларни тартибга солишдан иборат.

Тўловга қобилиятсизлик аломатлари қуйидагилардан иборат:

-вақтинча тўловга қобилиятсизлик — агар тегишли мажбуриятлар юзага келган санадан эътиборан уч ой ичида қарздор томонидан бажарилмаган бўлса, ташкил этувчи корхона ҳамда унга тенглаштирилган корхоналар томонидан эса олти ой ичида бажарилмаса, судга мурожаат этиш санасида қарздорнинг пул мажбуриятлари бўйича кредиторлар талабларини қаноатлантиришга ва (ёки) солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича ўз мажбуриятларини бажаришга қодир эмаслиги;

-доимий тўловга қобилиятсизлик — агар судга ариза бериш санасидаги ва ариза берилган йилнинг бошидаги ҳисобот даврида, агарда ариза йилнинг биринчи чорагида берилган бўлса, ўтган йилнинг бошидаги ҳисобот даврида қарздорнинг мажбуриятлари унинг активлари қийматидан ошиб кетган бўлса.

Ушбу моддада назарда тутилган қоидалар тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишлар соддалаштирилган тартибда кўриб чиқилаётганда, жисмоний шахслар, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорнинг тўловга қобилиятсизлиги тўғрисидаги ишлар кўриб чиқилаётганда қўлланилмайди. Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги иш суд томонидан кўриб чиқилади. Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги иш ушбу Қонуннинг 7-моддасига мувофиқ судга мурожаат этиш ҳуқуқига эга бўлган шахснинг (органнинг) аризаси асосида қарздор юридик шахс давлат рўйхатидан ўтган жойдаги, шунингдек қарздор жисмоний шахс ва (ёки) якка тартибдаги тадбиркорнинг яшаш жойидаги суд томонидан кўриб чиқилади.

Қарздорнинг тўловга қобилиятсизлиги тўғрисидаги ишлар Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодексида назарда тутилган қоидалар бўйича, ушбу Қонунда белгиланган ўзига хос хусусиятлар инобатга олинган ҳолда суд томонидан кўриб чиқилади. Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ва тўловга қобилиятсизликни тиклаш тартиб-таомилларидан бирини қўллаш ҳақида судга ариза билан мурожаат қилишга қарздорнинг вақтинча тўловга қобилиятсизлиги асос бўлади.Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ҳамда уни банкрот деб топиш, шунингдек тугатишга доир иш юритишни бошлаш ҳақидаги ариза билан судга мурожаат этиш учун қарздорнинг доимий тўловга қобилиятсизлиги асос бўлади.

Кредиторнинг қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ҳамда уни банкрот деб топиш, шунингдек тугатишга доир иш юритишни бошлаш ҳақида ариза билан судга мурожаат этиши учун кредитор талабларининг асослилигини тасдиқловчи далиллар, шу жумладан суднинг қонуний кучга кирган қарори, мазкур талаблар қарздор томонидан тан олинганлигини тасдиқловчи далиллар, нотариуснинг ижро хати асос бўлади.

Давлат солиқ хизмати органи томонидан қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ҳақида ариза бериш учун солиқлар ҳамда йиғимлар бўйича қарзни ундириш юзасидан кўрилган чора-тадбирлар асос бўлади.

Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишда қарздор, суд бошқарувчиси, кредиторлар, улар томонидан қарздорга ушбу Қонунда белгиланган тартибда талаблар тақдим этилган пайтдан эътиборан, ваколатли давлат органи, қарздорнинг мажбуриятлари бўйича таъминот берган шахс иштирок этувчи шахслардир.Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишда қарздор юридик шахс ходимларининг вакили, қарздорнинг муассислари (иштирокчилари) вакили ёки қарздорнинг мол-мулки эгаси, қарздор якка тартибдаги тадбиркорнинг вакили, кредиторлар йиғилиши (кредиторлар қўмитаси) вакили ҳамда бошқа шахслар иштирок этиши мумкин. Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишни суд муҳокамасига тайёрлаш Ўзбекистон Республикасининг Иқтисодий процессуал кодексида назарда тутилган тартибда, ушбу Қонунда белгиланган ўзига хос хусусиятлар инобатга олинган ҳолда судья томонидан амалга оширилади.

Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ҳақидаги ариза тушган кундан эътиборан судья беш кундан кечиктирмай кузатув тартиб-таомилини жорий этиш ҳақидаги масалани ҳал қилади. Кредиторларнинг талаблари юзасидан қарздор ёки муваққат бошқарувчи ёхуд давлат солиқ хизмати органи ёки бошқа ваколатли органда эътирозлар мавжуд бўлса, судья уларнинг эътирозлари асослилигини текширади. Судьянинг қарздор ёки муваққат бошқарувчи ёхуд давлат солиқ хизмати органи ёки бошқа ваколатли орган эътирозлари асослилигини текшириши тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишни кўриб чиқишнинг белгиланган муддати тугашига камида бир ой қолганда ўтказилади.

Суд қарздор ёки муваққат бошқарувчи ёхуд давлат солиқ хизмати органи ёки бошқа ваколатли органнинг эътирозлари асослилигини кўриб чиқиш натижалари асосида кредиторлар талабларини кредиторларнинг талаблари реестрига киритиш ҳақида ёки уларни реестрга киритишни рад этиш тўғрисида ажрим чиқаради. Ажримда кредиторларнинг, агар уларга нисбатан эътирозлар асоссиз деб топилган бўлса, талаблари миқдори ва уларни қаноатлантириш навбати кўрсатилади.

Кредиторларнинг талаблари юзасидан эътирозларни кўриб чиқиш натижалари бўйича суд чиқарган ажрим устидан шикоят берилиши (протест келтирилиши) мумкин. Мазкур ажрим устидан шикоят берилиши (протест келтирилиши) унинг амал қилишини тўхтатиб қўймайди.

Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишни суд муҳокамасига тайёрлаш пайтида, шунингдек тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги иш кўрилаётганда суд қарздорнинг молиявий аҳволини аниқлаш учун экспертиза тайинлашга ҳақли. Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги иш суд мажлисида қарздорнинг тўловга қобилиятсизлиги тўғрисида иш қўзғатиш ҳақидаги ариза иш юритишга қабул қилинганлиги тўғрисида ажрим чиқарилган кундан эътиборан икки ойдан ортиқ бўлмаган муддатда кўриб чиқилиши керак. Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишни кўриш алоҳида ҳолларда бир ойдан ошмаган муддатга узайтирилиши мумкин.

Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги ишни кўриб чиқиш натижалари бўйича суд қуйидаги суд ҳужжатларидан бирини қабул қилади:

-қарздорни банкрот деб топиш ва тугатишга доир иш юритишни бошлаш ҳақидаги қарор;

-қарздорни банкрот деб топишни рад этиш тўғрисидаги қарор;

-суд санацияси тартиб-таомилини жорий этиш ва унинг муддатини узайтириш тўғрисидаги ажрим;

-ташқи бошқарув тартиб-таомилини жорий этиш ва унинг муддатини узайтириш тўғрисидаги ажрим;

-тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги иш юритишни тугатиш ҳақида ажрим;

-тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш ҳақидаги аризани кўрмасдан қолдириш тўғрисидаги ажрим;

-келишув битимини тасдиқлаш тўғрисидаги ажрим.

Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги иш бўйича суд ҳужжатлари, агар ушбу Қонунда бошқача қоида белгиланмаган бўлса, дарҳол ижро этилиши лозим. Тўловга қобилиятсизлик тўғрисидаги иш бўйича суд ҳужжатининг кўчирма нусхаси суд томонидан дарҳол қарздорнинг турган жойидаги (яшаш жойидаги) давлат ижрочисига юборилади.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 17-51

O‘ZBEK TILI LEKSIKASIDA ARAB VA FORS SO‘ZLARINING O‘RNI

Karimova Mahliyo Ataboyevna, Urganch Innovatsion Universiteti, “Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili” yo‘nalishi, 22-01 guruh, 4-bosqich talabasi

https://orcid.org/https://orcid.org/0009-0001-5893-9008
e-mail: sharipova.mahliyo@icloud.com

THE ROLE OF ARABIC AND PERSIAN WORDS IN THE LEXICON OF THE UZBEK LANGUAGE

Karimova Mahliyo Ataboyevna, Urgench Innovative University, Student of the 4th year, Group 22-01, Department of “Philology and Language Teaching: Uzbek Language”

РОЛЬ АРАБСКИХ И ПЕРСИДСКИХ СЛОВ В ЛЕКСИКЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Каримова Махлиё Атабоевна, студентка 4-курса, группа 22-01, направление “Филология и преподавание языков: узбекский язык”, Ургенчский инновационный университет

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek tili leksikasida arab va fors tillaridan kirib kelgan so‘zlarning shakllanish jarayoni, tarixiy bosqichlari hamda ularning hozirgi zamon tildagi funksional o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqot IMRAD modeli asosida olib borilgan bo‘lib, tarixiy-lingvistik, leksik-semantik va qiyosiy metodlardan foydalanilgan. Maqolada arabcha va forschacha o‘zlashmalarning fonetik, morfologik hamda semantik moslashuv xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan. Natijalar o‘zbek tili leksikasining boyligi, madaniy qatlamlararo uyg‘unligi hamda xalqaro terminologik tizimga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zlashma, arabizmlar, forsizmlar, leksika, semantik moslashuv, fonetik adaptatsiya, tarixiy qatlam.*

Annotation: *This article analyzes the process, historical stages, and functional role of Arabic and Persian borrowings in the lexicon of the Uzbek language. The research follows the IMRAD structure and employs historical-linguistic, lexical-semantic, and comparative methods. The study explores the phonetic, morphological, and semantic adaptation of Arabic and Persian loanwords within the Uzbek linguistic system. The results highlight the richness and multilayered nature of Uzbek vocabulary, as well as the significant contribution of these borrowings to the development of modern terminology and cultural identity.*

Keywords: *borrowing, Arabisms, Persianisms, lexicon, semantic adaptation, phonetic adaptation, historical layer, Uzbek language.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются процесс заимствования, исторические этапы и функциональная роль арабских и персидских слов в лексике узбекского языка. Исследование выполнено в соответствии с моделью IMRAD с применением историко-лингвистического, лексико-семантического и сравнительного методов. В работе подробно анализируются фонетическая, морфологическая и семантическая адаптация арабизмов и персизмов в системе узбекского языка.*

Полученные результаты показывают богатство и многослойность узбекской лексики, а также вклад арабских и персидских заимствований в формирование современной терминологии и культурного наследия.

Ключевые слова: *заимствование, арабизмы, персизмы, лексика, семантическая адаптация, фонетические изменения, узбекский язык.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbek tili turkiy tillar oilasining yirik vakili sifatida o‘z tarixida arab va fors tillari bilan uzviy aloqada bo‘lgan. Natijada, bu ikki tildan kirgan so‘zlar o‘zbek tili lug‘at boyligining salmoqli qismini tashkil etadi. Arab tilidan kirgan so‘zlar, asosan, Islom dini, huquq, fan va ta’lim bilan bog‘liq bo‘lsa, fors tilidan o‘zlashmalar adabiyot, madaniyat va kundalik hayot sohalarida ko‘p uchraydi. Shu bois, bu ikki manba o‘zbek tili leksikasini nafaqat boyitgan, balki uning semantik tizimini shakllantirishda ham asosiy omil bo‘lgan. Tilshunos olima G. Husainova (2025) qayd etishicha, arabcha va forschacha so‘zlar o‘zbek tilida o‘zlashtirilganda “talaffuz va ma’no jihatdan moslashuv” jarayonidan o‘tgan (Cyberleninka.ru).

Ushbu tadqiqotning maqsadi — arab va fors tillaridan kirib kelgan o‘zlashmalarni tahlil qilish, ularning o‘zbek tilidagi tarixiy, fonetik va semantik o‘zgarishlarini aniqlash hamda bugungi kunda tutgan o‘rnini baholashdan iborat.

METODOLOGIYA (METHODS / МЕТОДОЛОГИЯ).

Tadqiqot yondashuvlari. Ushbu maqolada o‘zbek tili leksikasida arab va fors tillaridan kirgan o‘zlashmalarning tarixiy, struktur va semantik jihatlarini aniqlash maqsadida bir nechta ilmiy yondashuvlar qo‘llanildi.

Tarixiy-lingvistik yondashuv — arabcha va forschacha so‘zlarning o‘zbek tiliga kirib kelish bosqichlari, davrlari, ijtimoiy-siyosiy omillari hamda diniy-ma’naviy aloqalar bilan bog‘liqligini tahlil qilishga xizmat qildi. Bu yondashuv yordamida o‘zlashmalarning shakllanish jarayoni, ularning dastlabki qo‘llanish sohalari va hozirgi nutqdagi o‘rni aniqlashtirildi.

Leksik-semantik tahlil — o‘zlashma so‘zlarning ma’no ko‘lamini, ularning uslubiy rang-barangligini va sinonimik qatlamini o‘rganish imkonini berdi. Bu orqali arab va fors so‘zlarining o‘zbek tilidagi ma’no kengayishi, torayishi yoki semantik ko‘chish holatlari kuzatildi.

Fonetik va morfologik tahlil — o‘zlashma so‘zlarning o‘zbek tili talaffuzi va grammatik tizimiga qanday moslashganligini o‘rganish uchun qo‘llanildi. Masalan, arabcha “ta’lim” so‘zining talaffuzda “talim”, “i’timod”ning “ishonch” shaklida xalq tili bilan uyg‘unlashgani tahlil qilindi.

Qiyosiy tahlil — arab va fors tillaridagi asl manbalar bilan solishtirish orqali o‘zbek tiliga o‘zlashish jarayonida yuz bergan fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot manbalari. Tadqiqotning asosiy manbalari sifatida quyidagi ilmiy va elektron resurslardan foydalanildi: o‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006–2008). Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi” nashriyoti. Imlo.uz – arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar bo‘yicha onlayn ma’lumotlar bazasi.Cyberleninka.ru – forscha o‘zlashmalar leksik tahlili bo‘yicha maqolalar. Arxiv.uz – o‘zbek tilidagi arabcha so‘zlarning izohli tahlili va statistik ma’lumotlari.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS).

Arab tilidan kirgan so‘zlar. Arabcha o‘zlashmalar asosan VIII–X asrlarda Islom dini va madaniyati bilan birga o‘zbek tiliga kirib kelgan. Dastlab diniy tushunchalar (iymon, sabr, taqvo, odob) shaklida qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik ilmiy, falsafiy, siyosiy va huquqiy terminologiyada ham keng qo‘llanila boshlagan.

Bu so‘zlarning aksariyati fonetik jihatdan o‘zbek talaffuziga moslashgan: ta’lim → talim, i’timod → ishonch, qur’on → quron. Morfologik jihatdan esa ular turkiy qo‘shimchalar bilan erkin qo‘llanmoqda: sabrli, ilmiy, adolatli, ma’nosiz kabi shakllar bunga misol bo‘la oladi.

Fors tilidan kirgan so‘zlar. Forscha o‘zlashmalar IX–XII asrlarda, ayniqsa, adabiy aloqalar kuchaygan davrda o‘zbek tiliga keng kirib kelgan. Navoiy, Bobur, Ogahiy kabi klassik adiblar asarlarida forscha so‘zlar poetik vosita sifatida faol ishlatilgan.

TAMADDUN NURI

Misollar: gul, daryo, maydon, devor, daftar, shakar, xotin, bozor. Ushbu so‘zlarning ko‘pchiligi o‘zbek talaffuziga to‘liq moslashgan (masalan, maydon, daftar), ayrimlari esa semantik jihatdan o‘zgarib, o‘zbek tilida yangi ma’no olgan (xotin — “ayol” ma’nosida).

Forscha o‘zlashmalar ko‘proq maishiy, madaniy va estetik leksika qatlamida faol: guldor, bozorga, devoriy, mehribon, shirinlik kabi so‘zlar bunga dalildir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Arab va fors tillaridan kirgan o‘zlashmalar o‘zbek tili leksikasining tarixiy qatlamlarini tashkil etib, tilning boyishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Arabcha o‘zlashmalar ko‘proq diniy, ilmiy va huquqiy terminlarda, forscha o‘zlashmalar esa adabiy, madaniy va maishiy nutq qatlamlarida faol ishlatilgan.

Tilshunos Sh.Alamov (2022) ta’kidlaganidek, arab va fors o‘zlashmalari o‘zbek tilining madaniy ifoda imkoniyatlarini kengaytirgan va uni xalqaro ilmiy terminologiya bilan uyg‘unlashtirgan (manba: Oriens.uz). Bundan tashqari, bu o‘zlashmalar o‘zbek frazeologiyasining tarkibida ham mustahkam o‘rin egallagan: sabr kosasi to‘ldi, mehr qo‘ydi, nur topdi, ilm izlamoq kabi iboralar bunga misol bo‘la oladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zbek tili leksikasining muhim qismini arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar tashkil etadi. Arabcha so‘zlar ko‘proq diniy va ilmiy yo‘nalishlarda, forscha so‘zlar esa adabiyot, madaniyat va kundalik sohada faol ishlatiladi. Har ikkala qatlamdagi o‘zlashmalar fonetik, morfologik hamda semantik jihatdan o‘zbek tiliga to‘liq moslashgan.

Ularning mavjudligi o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyoti, madaniy aloqalari va xalqaro madaniyatlararo muloqotining mahsuli hisoblanadi. Kelgusida bu masalani yanada chuqurroq o‘rganish uchun korpusli lingvistika, statistik tahlil va semantik xaritalash asosidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Husainova G.S. O‘zbek tili leksikasida forscha so‘zlardan o‘zlashgan ilmiy atamalar (2025). Cyberleninka.ru.
2. Aripova G. Arab tilidan o‘zbek tiliga kirib kelgan so‘zlar (2024). Nauchny Impuls Journal.
3. Alamov Sh. Arab tilidagi forschacha iqtiboslar (2022). Oriens.uz.
4. Quronbekov A. Fors tili va o‘zbek tili leksik aloqalari (2021). JDPU ilmiy to‘plami.
5. Jamolxonov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin (2005).
6. Arab tilidan ommalashgan so‘zlar. Imlo.uz.
7. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006–2008). Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.
8. Arxiv.uz – Arabcha so‘zlarning o‘rni.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.05.2025 Chop etildi: 30.06.2025 UDK: 1(091)

ҚАЛБ – ОЛАМ ҲАҚИҚАТИНИ АКС ЭТТИРУВЧИ КЎЗГУ

Юнусова Гуландом Самиевна, БухДТУ профессори, фалсафа фанлари доктори (DSc)

THE HEART IS A MIRROR REFLECTING THE TRUTH OF THE WORLD

Yunusova Gulandom Samievna, Professor of Bukhara State University, Doctor of Philological Sciences (DSc)

СЕРДЦЕ — ЗЕРКАЛО, ОТРАЖАЮЩЕЕ ИСТИНУ МИРА

Юнусова Гуландом Самиевна, профессор Бухарского государственного университета, доктор философских наук (DSc)

https://orcid.org/0009-0000-4094-0513
e-mail: gulandom.samiyeva.yunusova@gmail.com

Аннотация: *Ушбу мақолада Абдуқодир Ғийлоний тасаввуфий-таълимий мероси доирасида инсон қалби ва унинг покланиши масаласи тадқиқ этилган.*

Калит сўзлар: *фалсафий мерос, қодирия таълимоти, поклик, маънавий камолот, қалб, қалб кўзи, тасаввуф.*

Annotation: *This article explores the issue of the human heart and its purification within the framework of the Sufi-spiritual heritage of Abdul Qadir Gilani.*

Keywords: *philosophical heritage, Qadiriyya teaching, purity, spiritual perfection, heart, eye of the heart, Sufism.*

Аннотация: *В данной статье исследуется вопрос о человеческом сердце и его очищении в рамках суфийско-духовного наследия Абдулкадира Гилани.*

Ключевые слова: *философское наследие, учение кадирийа, чистота, духовное совершенство, сердце, око сердца, суфизм.*

Кириш. Бугунги тезкор замонда, инсон қалби ва онги учун кураш авжига чиқиб бораётган бир даврда тасаввуфий таълимотларда инсон қалби масаласини ўрганиш муҳимдир. Шу маънода Абдулқодир Гийлоний маънавий меросини ўрганиш – умуминсоний қадриятлар асосида ривожланган инсон моҳиятининг замонавий фалсафий моҳиятини тадқиқ этишда долзарб аҳамият касб этади.

Абдулқодир Гийлоний асослаган қодирия таълимоти XI-XII асрларда Ўрта Осиёда машҳур таълимотлардан бўлиб, унинг ихлосмандлари оддий халқ, деҳқонлар, косиблар, ҳунармандлар бўлишган. Бу таълимотда инсоннинг ҳам маънавий, ҳам жисмоний камолоти учун “Машғуллик ила фориғлик” шиори устувор бўлган. Хусусан, қалб камолоти ва унинг покланиши масаласида Шайх Абдулқодир Гийлонийнинг қарашлари ўзига хосдир.

Адабиётлар таҳлили ва методология. Бундай масалада Гийлоний асарларида ажойиб ташбиҳлар мавжуд. “Қалбингни нур билан

порлатасан ва шундагина уни (нафақат уқбо оламида, балки) бу оламда ҳам кўра олгайсан. Зикруллоҳ билан қалбингга жило бермоққа кириш ва унинг қийматини билгин. Ҳар қандай ёмонликлардан уни асрагинки, у ҳақда шундай қудсий ҳадис бор: “Мен на осмонга, на ерга, на тоғларга сиғдим, аммо мўъмин бандамнинг қалбига сиғаман”. Сен шундайин қалб соҳиби бўлсанг-у, яна не истайсан. Акс ҳолда шундай қалбга соҳиб бўла олмоқ учун ҳар на қилсангда оз; ҳеч демаган даражада оз”[1,170]. Ушбу фикри орқали Гийлоний инсонларни бошқариб турадиган куч – қалб, деган ажойиб хулосани берган экан, инсонлар шундай қалб соҳиби эканликларини ҳаммалари ҳам англай оладиларми? Буни билиш ёки англаш учун инсоннинг қалб кўзи очиқ бўлиши лозим, акс ҳолда ҳаётда ҳамма ҳам ўз йўлини тўғри белгилай олмайди. Қалбни яшаши, унинг порлаб туриши учун илм-маърифат асосий воситадир. Шу илм-маърифатни эгаллаш учун қалб икки томонлама фаолият юритади, яъни кўриш ва эшитиш фаолияти билан машғул бўлади, акс ҳолда ғафлат босиб, қалб кўзи ва қулоғи кар бўлиши оқибатида турли салбий ишларга берилиб кетади. Бу руҳий ҳодисадир. Уни оддий кўз билан кўриб бўлмайди. Уни кўриш қудрати қалб кўзига берилган. Лекин қалб кўзи ҳам очилиши керак. Қалб кўзи ҳам кўр бўлиб қолиши мумкин, бунга ғафлат сабаб бўлади. Қалб кўзини Гийлоний “Сиррул асрор” асарида икки хил бўлади дейди: “Суғро кўз ила илоҳий сифоти исмларнинг тажаллиёти мушоҳада этилади. Бу назар ва мушоҳада даражот оламига қадар узаяди; Кубро кўзига келсак, тавҳид ва аҳадият нури соясида лоҳут оламидаги яқинлик ўлкасида мавжуд ҳоллар мушоҳада қилинади”[2,91].

Муҳокама ва натижалар. Қалб кўзининг кўр бўлишига сабаб дейди Гийлоний, Яратувчи билан аҳдни унутиш, ғафлатда қолмоқдир. Ғафлатнинг асос сабаби – илоҳий амрнинг асл моҳиятини билмаслик. Бундай жаҳолатнинг сабабига келсак, зулмоний сифатларнинг истилосига учрамоқликдир. Бу зулмоний сифатларнинг бир нечтаси сифатида Гийлоний қуйидагиларни санаб ўтган: кибр, кина, ҳасад, хасислик, манманлик, ғийбатчилик, гап тарқатиш, ёлғон сўзламоқ ва шу каби турли қабиҳликлар. Инсонни қуйиларнинг тубига туширувчи ҳам шу сифатлардир. Бундай ёмон ҳолларни йўқотиш учун қалб ойнасини пок тутмоқ лозим.

Қалбнинг ислоҳи тақво, Аллоҳга таваккул. Уни бир деб билиш, амалларда ихлос қилиш билан бўлади. Акс ҳолда қалб бузилади.

Қалб қафасдаги қуш бўлиб, қутидаги дур ёки жавондаги бойликка қиёсланади. Бас, қушга қафасига қараб, дурга қутисига қараб эътибор қилинмайди [3,15].

Демак, инсоннинг инсонийлиги унинг қалбидандир. Яъни ботиннинг зоҳирда акс этиши ўзликни намоён этилишидир. Худди мана шу ботиний ва зоҳирий илмларни тасниф қилишда Абдулқодир Гийлоний “Сиррул асрор” асарида шариатни – зоҳир (ташқи), тариқат, ҳақиқат ва маърифатни – ботин илми дея таъриф берган. Шу ўринда қалбнинг ботин илмини эгаллашдаги ўрни қанақа бўлади? Гап шундаки, шариат илмини эгаллаган қалб соҳиби албатта ундан юксакроқ поғона – ботин илмини эгаллашга интилади. Яъни барча қиладиган амали албатта Яратганнинг ризолигига эришиш учун қилинади. Агар ташқи кўринишидан шариатга амал қилиб, унинг орқасидан шон-шухрат талаб қилинса – унда бу амал риёкорликдир. Айнан қодирия тариқати илмга амал қилиш, унинг ортидан кибрга берилмаслик ғояси инсонларни жисмонан ва маънан камолот сари етаклайдиган тамойилга асаслангандир.

“Санга илминг нидо қилади, лекин қалбга эга бўлмаганинг туфайли унинг сўзларини эшита олмайсан. Амал қилинадиган илм сени илмни манзил тутган олимга яқинлаштиради. Бу ҳикматларга амал қилсанг, дастлаб илм, кейин илм манбаси сенга очилади. Сенинг ҳузурингда икки оқувчи булоқ бўлиб, улар туфайли қалбинг ботиний ва зоҳирий илм ҳамда ҳикматга тўлади. Шунда уларнинг закоти зиммангда вожиб бўлади. Илмнинг закоти уни тарқатиш ва халқни Ҳаққа чақиришдан иборат”[2,27].

Мана шу илми боамал қандай инсонларга ато этилади?! Нима учун ҳар бир инсонни бетакрор яратган Аллоҳ таоло уларнинг барисини ҳидоятига эриштира олмайди. Бу ҳақда Аллоҳнинг каломида шундай зикр қилинади: “Иккалангиз (яъни Одам Ато ва Момо Ҳаво. Изоҳ Ю.Г.) жаннатдан тушинглар.

Авлодингизнинг баъзиси баъзисига ғанимдир. Албатта, сизларга Мен томондан ҳидоят келажак. Ҳидоятимга эргашган кимса залолатга ҳам кетмайди, бахтсиз ҳам бўлмайди”.

Дарҳақиқат, Аллоҳнинг ҳидоятига эргашганларга зоҳирий ва ботиний илмларни эгаллашга рағбат туғилади ва у ўз навбатида шу инсонни олий мартабага етказиб маърифат орқали қурбият, қутбият ва ҳатто абадиятга эриштириши мумкин. Бундай комил инсонларга жамият тараққиёти давомида кўплаб мисол келтириш мумкин ва уларнинг энг мукаммали Расулуллоҳ салаллоҳу алайҳи васалламдир.

Аксинча, Аллоҳ ҳидоятига эргашмай Иблис васвасасига эргашганлар залолатга ботиб жаҳолат ботқоғидан чиқолмай тубанликка юз тутишади.

Нақшбандшунос олима Гулчеҳра Наврўзова бу борада қуйидагича таҳлил берадилар: “Баҳоуддин Нақшбанд таълимотида қалб икки маънода тушунилади: биринчиси – танада жойлашган, ҳайвонларда ҳам бўлган бир парча гўшт, яъни юрак бўлса, иккинчиси – раббоний руҳ деб аталадиган латифдир. Қалб олам ҳақиқатини, мавжудлик, ақл ҳайратда қоладиган нарсаларни идроқ этиши, жисм билолмайдиган нарсалар ва сифатларни англаши билан ҳам сирлидир. Қалб раббоний руҳ ўлароқ асл ҳақиқатни билувчидир. Нақшбандия таълимотида раббоний руҳ деб аталувчи латиф қалб билан гўшт парчаси бўлган юрак ўзаро боғлиқ экани таъкидланган”. Ушбу таҳлил шуни кўрсатадики, ақл билан билиб бўлмайдиган нарсаларни қалб воситасида билиб бўлади. Бу қалбий билишнинг юқори даражаси бўлиб, унда қалб поклиги масаласи асосий моҳият касб этади. Ҳаётда шундай инсонлар борки, улар ўқиш, ўрганиш орқали эгаллай олмаган билимини Аллоҳ қалбига бир кунда солади ва у шу соҳада мукаммалликка эришади. Лекин бу ҳодиса ҳар қандай инсонларда ҳам бўлмайди, балки қалбан Аллоҳ билан, жисмонан дунёвий ишлар билан банд бўлса. Бу нарса қодирия таълимотида “Машғуллик ила фориғлик” ва нақшбандияда “Даст ба кору дил ба Ёр” шиорида намоён бўлади.

Демак, инсон камолотида энг аввало илми боамал, қалб амрини эшита олиш ва тақдирга шукроналик туйғуси асосий аҳамият касб этади. Бу масалалар қодирия таълимоти асосчиси Абдулқодир Гийлоний асарларида асосли равишда очиб берилган, десак хато бўлмайди. Зеро, тасаввуф таълимоти ва унинг тариқатлари инсон камолотини кўзлаган энг тўғри йўлдир.

Хулоса. Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, Гийлоний одам ва инсонни шундай умумий ва фарқли томонларини кўрсатган:

- одам ва инсон ўртасидаги умумийлик танаси жиҳатидан тасниф этиш мумкин. Одамда юрак асосий бўлса, инсонда қалбдир;
- Гийлоний таълимотида инсон қалби кўриш ва эшитиш қудратига эга, яъни қалб кўзи, қалб қулоғи бор;
- Одамни ижтимоийлашуви ва иймони қалб ҳолати асоси уни инсонга айлантирган.

Одам танасида жойлашган юрак – бу моддийлик бўлса, қалб руҳий ҳодиса сифатида уни инсонга айлантиради. Мана шу қалб воситасида ҳар бир инсон камолотга етишади.

Адабиётлар рўйхати:

1. Шайх Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубот. Таржимон О.Жўрабоев. - Т.: Мовароуннаҳр, 2005. –Б. 170.
2. Абдулқодир Гийлоний. Сиррул асрор. Мактубот. Таржимон О.Жўрабоев., Т.: Мовароуннаҳр, 2005й. –Б 91.
3. Абдулқодир Жилоний. Раббонийликни англаш. Биринчи китоб. Т.2005. – Б. 15.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 811.161.1

ROMANLARDA INTERTEKSTUALLIK XUSUSIYATLAR

Qurbonova Feruza Ilhomovna, Qarshi davlat texnika universiteti
"O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi dotsenti, f.f.f.d.

INTERTEXTUAL FEATURES IN NOVELS

Kurbanova Feruza Ilhomovna
responsible for the work of Associate Professor, Ph.D.
Karshi State Technical University
Department of "Uzbek Language and Literature"

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНЫЕ ЧЕРТЫ В РОМАНАХ

Курбанова Феруза Илхомовна
Ответственный за работу: доцент, к.ф.н.
Каршинский государственный технический университет
Кафедра «Узбекский язык и литература»



e-mail: feruzaq42@gmail.uz
https://orcid.org/0009-0006-1259-336X

Annotatsiya: *Ushbu maqola syujet strukturasi, konflikt, ohang asosiy qahramonning mushodalari hamda o'y xayollarini original shaklda ifoda etishga yo'naltirilgan. Muallifni qahramonning xatti-harakatlarini tasvirlashdan ko'ra ko'proq uni xavotirga solgan voqealarning umumiy ko'lamidan o'quvchini xabardor qilishni, qo'rquv va xavotir ta'sirida izdan chiqib ketish arafasida bo'lgan ruhiyatning haqqoniy ifodasini yaratishni maqsad qiladi. Bu jarayonda retrospektiv syujet imkoniyatlaridan foydalanish vaziyatni yanada oydinlashtirishga, asosiy personaj ichki dunyosidagi o'zgarishlarning yuzaga kelish sabablarini ma'lum qilishga imkon yaratadi.*

Kalit so'zlar: *Ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy-psixologik, adabiy-estetik, salohiyat.*

Abstract: *This article is aimed at expressing the main character's observations and thoughts in an original way through plot structure, conflict, and tone. Rather than describing the hero's actions, the author aims to inform the reader about the overall scope of the events that have worried him, to create a truthful expression of the psyche that is on the verge of going off the rails under the influence of fear and anxiety. In this process, the use of retrospective plot possibilities makes it possible to further clarify the situation and reveal the reasons for the changes in the main character's inner world.*

Key words: *Socio-philosophical, socio-psychological, literary-aesthetic, potential.*

Аннотация: *Цель данной статьи – это оригинальное представление наблюдения и отражения главного героя через структуру сюжета, конфликт и тон повествования. Автор стремится не столько описывать действия героя, сколько донести до читателя общую картину событий, волновавших его, создать правдивое изображение психики, находящейся на границах срыва под влиянием стракса и тревог. Использование ретроспективных сюжетных возможностей позволяет дополнительно прояснить ситуацию и причину изменения внутреннего мира главного героя.*

Ключевые слова: *Социально-философский, социально-психологический, литературно-эстетический, потенциал.*

Kirish. Adabiyotshunoslik fanida adabiyotshunos olimlar, yozuvchilar, shoirlar va dramaturglarning badiiy ijod jarayoniga nisbatan individual yondashuvlarini, adabiy-estetik qarashlarini o'rga-nish masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Negaki, har qanday ijod namunasi o'z muallifining iqtidori, salohiyati, bilim va tajribalari hamda ijodiy ilhomi mahsulidir. Shu nuqtai nazardan ijodkorlarning adabiy-estetik qarashlarini tadqiq qilish badiiy asarlar g'oyasini yetarli darajada idrok etishga, mavzu doirasida muayyan ilmiy xulosalarni yuzaga keltirishda muhim ahamiyat

kasb etadi. Adabiy-estetik qarashlar tadqiqi masalasi keng qamrovga ega bo‘lib, yozuvchi, shoir va dramaturglarning bu boradagi individual yondashuvlarini o‘rganish bilan cheklanib qolmaydi.

Qadimgi davrda falsafa barcha nazariy fikrlarni, ma’naviy hayotning hamma tomonlarini qamrab oluvchi fikrlash tizimi sifatida paydo bo‘lgan. Shu ma’noda filosofiya yunoncha filio– sevaman, sofiya – donolik, so‘zlaridan olingan bo‘lib, unga donolikni sevish, donishmandlik bilan shug‘ullanish deb qaralgan. Haqiqatga erishish yo‘llari, ishonch va e’tiqod masalalari, adolat mezoni, yaxshilik tamoyillari, go‘zallik qoidalari, davlat tizimi kabi masalalarni donolik darajasida tadqiq qiluvchilarni faylasuflar deb atab kelganlar. Uslub – yozuvchining adabiyotdagi betakror qiyofasi, o‘zligi. Uslub – ijodkorning fikrlash tarzi, olam-u odam haqidagi qarashlari, iymon-u e’tiqodi. Uslub – yozuvchi falsafasi in’ikosi. San’atkor falsafasi bus-butun, teran namoyon bo‘ladigan janr – roman. Boshqacha aytganda, roman – yozuvchining olam va odam, zamon va makon haqidagi falsafasi, ijodkor borlig‘ida rosa yetilgan tafakkur, dunyoni anglash konsepsiyasi ko‘rsatkichi. Roman – yozuvchining ruhiy-ma’naviy-intellektual darajasi ifodasi. “Intellektual roman" afsonani maxsus tushunish va funktsional foydalanish bilan tavsiflanadi. Afsona tarixiy xususiyatlarga ega bo'lib, insoniyatning umumiy hayotida takrorlanadigan naqshlarni yorituvchi tarixdan oldingi davrlar mahsuli sifatida qabul qilingan. T. Mann va G. Gesse romanlaridagi mifga murojaat asarning vaqt doirasini keng kengaytirdi va zamonaviylikni yoritib turadigan va uni izohlovchi son-sanoqsiz o‘xshatish va parallelliklarga imkoniyat yaratdi.

Olam yaralibdiki odam bolasi mislsiz ofatlar va to‘qnashuvlarni boshdan kechirib kelmoqda. Bu ofatlar turli ko‘rinishglarda zuhur etib, goh ularni birin-ketin yoki bittalab o‘z domiga tortgan bo‘lsa, goh ko‘rinmas ofat bo‘lib, kasallik ko‘rinishida yoyilib, zaif va kuchsizlani, qariyalar va bolalarni o‘zi bilan boshqa olamga olib ketadi.

Biroq tan olib, aytish kerakki, olmon adabiyotiga mansub ko‘pgina asarlar o‘sha davrda mashhur yozuvchi Hermann Hesse ijodini olaylik. Ma’lumki, adibning ko‘plab roman, qissa, hikoyalari, she’rlari, siyosiy, adabiy-tanqidiy ruhdagi asarlar chop etilgan. Ular orasida, ayniqsa, “Cho‘l bo‘risi”, “Marjonlar o‘yini”, “Demian” kabi kitoblari dovruq qozongan. Adib, shuningdek, ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishda ham barakali ijod qilgan. “G‘ildirak ostida” romani, “Nyurnburgga sayohat” safarnomasib “Kurortdagi kishi” qissasi va boshqa ko‘pgina asarlar shular jumlasidandir.

Badiiy adabiyotning insonshunoslik sifatidagi mavqei uning insonni barcha xususiyatlari hamda uni o‘rab turgan mavjud ijtimoiy muhit bilan uzviy aloqadorlikda aks ettirilishini taqozo qiladi. Badiiy asarda nafaqat odamning xatti-harakatlari, jismoniy holatlari, balki uning o‘y-xayollari, orzu-istaklari, maqsad-muddaolari, nozik his-kechinmalari barcha murakkabliklari bilan atroflicha tasvirlanadi. Shu nuqtai nazardan badiiy ijod namunasini tadqiq etayotgan adabiyotshunos tahlil professionalligini ta’minlash uchun qayd etilgan ma’lumotlarni aqliy bilish bilangina kifoyalana olmaydi. U estetik tafakkurini ishga solib, muallif ijodiy niyatini yuzaga keltirgan hissiy munosabatlarni, qahramonlarning kechinmalarini, tragizm va komizmning umumiy ko‘lamini his qila olishi zarur. Bu holat ijodkorlar va adabiyotshunos olimlar adabiy-estetik qarashlarini o‘rganishni muhim zaruratga aylantiradi. Adabiyotshunos turli yillarda vaqtli matbuot safihalarida e’lon qilingan suhbatlarida ham jahon va o‘zbek adabiyotining eng sara namunalari xususida fikr-mulohazalarini bayon qilar ekan, ilmiy-nazariy jihatdan e’tiborga molik bo‘lgan adabiy-estetik qarashlarini ma’lum qiladi.

Ilk bor 1927-yilda bosilib chiqqan “Cho‘l bo‘risi” romani teran psixologik asar bo‘lib, olamshumul shuhrat keltirdi. “Cho‘l bo‘risi”da o‘z-o‘zini tahlil qilish va hal etilmagan ma’naviy-ruhiy ziddiyatlarni yengish yo‘lidagi sa’y-harakatlar qalamga olinadi. Unda muallifning avvalgi asarlarida ozmi ko‘pmi aks ettirilgan Ruhda murojaat etish uslubi o‘zining yakuniy hamda to‘laqonli ifodasini topgan. Yozuvchi Tomas Mann ushbu roman haqida shunday degan edi: “Cho‘l bo‘risi” eksperimental dadillikda “Uilss” va “Faux Monnayeurs” singari asarlardan qolishmaydigan kitob ekanligini aytib o‘tirishga hojat bormikan? “Cho‘l bo‘risi” menga anchadan buyon ilk bor haqiqiy kitob mutolaasi nimaligini qaytadan o‘rgatgan asardir. Asarda voqealar birinchi shaxs nomidan, ya’ni yolg‘izlanib qolgan ellik yoshlar atrofidagi inson tilidan hikoya qilinadi. Mazkur shaxs timsolida inson ichki dunyosining, botiniy vujudining benihoya serqirra ekanligi ibratli tarzda ochib beriladi. Cho‘l bo‘risi-hayotdan to‘ygan, yashahsdan bezgan, tarki dunyo

qilgan darveshdir. U hatto ellik yoshga to‘lgan kunida o‘zini o‘zi bo‘g‘izlab o‘ldirish uchun uyda ustarani ham shay qilib qo‘ygan. O‘zini yarim inson, yarim bo‘ri, deb hisoblaydi. O‘z vujudidagi ham inson, ham bo‘ridan iborat bo‘lgan ikkiyoqlama bo‘linishni yenga olmaydi.

Jahon adabiyotining dolzarb mavzudaridan biri bo‘lgan urush va tinchlik, urush va inson haqida so‘z borar ekan bu urush oloviga tirklayin tashlangan avlodlarni eslamaslik mumkin emas. Zero ayni shu er-yigitlar siyosiy qirg‘inbarot urushlarning asosiy o‘ljasi edi. Urush olovini yoqqan, buning uchun turli bahona va sabablarni ro‘kach qilib, uni yana-da o‘t oldirayotgan asl nusxalar esa, urush bo‘layotgan manzillardan yuzlib kilometr uzoqda bu jangni tomosha qilishayotgan bo‘ladi.

Dunyo adabiyotining dolzarb va umuminsoniy muammolaridan biri – urush va inson mavzuidir. Urush ibtidoiy davrlardan buyon odamzodning yovuz dushman-yo‘ldoshi bo‘lib kelmoqda. Shu sababdan gumanizmni tarannum qiluvchi adabiyot yaralibdiki, unda urush insoniyatning eng daxshatli dushmani sifatida talqin etilib kelinmoqda. Xususan, qadimiy dunyo adabiyoti namunasi bo‘lmish “Illiada” va “Odisseya” epopeyalaridan tortib bugungi – taraqqiyotning avj pallasida turgan XXI asrda yaratilayotgan asarlarda ham urush va uning oqibati keltirib chiqargan muammoning poetik talqinlariga guvoh bo‘lmoqdamiz.

“Intellektual roman”ning umumiy xususiyatlaridan biri bu mif yaratishdir. Ramz xarakteriga ega bo'lgan mif umumiy g‘oya va hissiy tasvirning mos kelishi sifatida talqin qilinadi. Mifdan bu tarzda foydalanish borliq universalliklarini ifodalash vositasi bo‘lib xizmat qilgan, ya’ni insonning umumiy hayotidagi naqshlarni takrorlash. T. Mann va H. Hesse romanlaridagi afsonaga murojaat bir tarixiy fonni boshqasi bilan almashtirish imkonini berdi, asarning vaqt doirasini kengaytirdi, zamonaviylikka yoritib turadigan va uni izohlovchi son-sanoqsiz o‘xshatish va parallelliklarni keltirib chiqardi. XX asrda mif haqidagi yangi tushuncha paydo bo‘ldi. U tarixiy xususiyatlarni oldi, ya’ni uzoq o‘tmishning mahsuli sifatida qabul qilingan, insoniyat hayotida takrorlanadigan naqshlarni yoritgan. Mifga murojaat asarning vaqt chegaralarini kengaytirdi. Bundan tashqari, u zamonaviylikni tushuntiruvchi badiiy o‘yin, son-sanoqsiz analogiya va parallelliklar, kutilmagan yozishmalar imkoniyatini yaratdi.

Ijtimoiy-falsafiy, ijtimoiy-psixologik mazmunga ega bo‘lgan “Jinoyat va jazo” romani nafaqat rus, balki dunyo adabiyotining eng sara namunalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Romanda faqatgina huquq idoralari tomonidan beriladigan yuridik jazo haqida emas, insonning o‘z vijdoni qarshisida o‘ziga beradigan jazosi masalasi ham qalamga olinadi. Raskolnikov qanday g‘oyaga yoki nazariyaga tayanib jinoyat qilishni rejalashtirmasin, oxir-oqibatda bu xatti-harakatlarning mutlaqo nojoiz ekanligini anglab yetadi. Bu jarayonda Sonya Marmeladova obrazining ta’siri va ishtiroki muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Aynan Sonya taqdiri bilan bog‘liq epizodlar romanga axloq va ijtimoiy-maishiy tuzum o‘rtasidagi ziddiyat masalasi talqinlarini olib kirish imkonini yaratadi. Bu jarayonda ijtimoiy muhit qarshiligini yenga olmasdan, o‘zi xohlamagan holatda nojoiz ishlarni qilgan inson ham ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuklikka erishishi mumkinligi, boshqalarni ham to‘g‘ri yo‘lga da’vat etishga qodirligi bilvosita ma’lum qilinadi.

Adabiyotshunoslik fanining obyekti badiiy adabiyot ekanligi ma’lumdir. Shu nuqtai nazardan tadqiqot ishlarini ilmiy asosda tekshirish, adabiy-tanqidiy maqolalarga baho berishda tadqiqotchilar tomonidan tahlilga tortilgan badiiy asarlarning g‘oyaviy xususiyatlari, obrazlar poetikasini, kompozitsion tuzilishini jiddiy e’tiborga olish zarurdir. Negaki ilmiy tadqiqot ishidagi professionalizm faqatgina adabiyotshunosning yuqori salohiyati, tajribasi va keng qamrovli bilimi samarasi bo‘lmasdan chuqur tahlil qilish mumkin bo‘lgan badiiy asarning ham mahsulidir. Shakl va mazmun mutanosibligi mavjud bo‘lmagan, muallifning shaxsiy pozitsiyasi yaqqol sezilib qolgan, obrazlar tizimi sxematizmdan xoli bo‘lmagan asarlar tahlili yuqori malakaga ega tadqiqotchi tomonidan amalga oshirilsa ham natija u qadar ijobiy bo‘lmasligi mumkin. Shu sababdan ilmiy asarlar tadqiqini ular uchun obyekt vazifasini bajargan badiiy ijod namunalari tahlilisiz amalga oshirish mushkuldir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hermann Hesse.Cho‘l bo‘risi.Yangi asr avlodi. 2023.
2. Умиров Х. Адабиётшунослик назарияси. –Т: Янги аср авлоди. 2002.
3. Umurov H. Badiiy ijod asoslari. -Toshkent, 2001.
4.UmurovH.Adabiyot nazariyasi.-Toshkent:Sharq, 2002.
5.Xolmurodov A. Roman va ruhiyat. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1999.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 811.161.1

INGLIZ TILIDA YOZUV KOMPETENSIYASINI SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Abdig'aniyeva Nilufar Husan qizi, Surxondaryo viloyati Termiz shahar 1-ixtisoslashtirilgan maktab-internati ingliz tili fani o'qituvchisi

DEVELOPING WRITING COMPETENCE IN ENGLISH THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE

Abdig'aniyeva Nilufar Husan qizi, teacher of English, Termiz Specialized Boarding School No. 1, Surkhandarya region

e-mail: abdiganiyevanilufar@mail.ru

МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ КОМПЕТЕНЦИИ ПО АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Абдиганиева Нилуфар Хусан кизи, преподаватель английского языка специализированной школы-интерната №1 города Термеза, Сурхандарьинская область

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz tilida yozuv kompetensiyasini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ChatGPT, Grammarly, QuillBot, Write&Improve kabi raqamli vositalarning o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishdagi lingvistik, kognitiv, metodik va refleksiv ta'siri o'rganilgan. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt asosidagi yondashuv o'quvchilarning yozma fikrlashini tezlashtiradi, xatolarni avtomatik aniqlaydi, mustaqil o'rganish va ijodiy tafakkurni rag'batlantiradi. Shuningdek, bu metodika o'qituvchining faoliyatini yengillashtirib, baholashni obyektivlashtiradi hamda teskari aloqa tizimini kuchaytiradi. Maqola raqamli didaktika va til o'qitish integratsiyasi uchun ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *yozuv kompetensiyasi, sun'iy intellekt, ingliz tili ta'limi, raqamli didaktika, lingvodidaktika, ChatGPT, avtomatik baholash.*

Annotation: *This article analyzes the methodological foundations of developing writing competence in English through artificial intelligence. The study examines the linguistic, cognitive, methodological, and reflective impacts of digital tools such as ChatGPT, Grammarly, QuillBot, and Write&Improve on learners' written language skills. The findings indicate that AI-based approaches accelerate students' writing development, automatically detect errors, and foster independent learning and creative thinking. Moreover, this methodology facilitates teachers' work, enhances objectivity in assessment, and strengthens feedback mechanisms. The research serves as a theoretical and practical contribution to the integration of digital didactics and language education.*

Key words: *writing competence, artificial intelligence, English language teaching, digital didactics, linguistic pedagogy, ChatGPT, automated evaluation*

Аннотация: *В статье рассматриваются методические основы развития письменной компетенции по английскому языку с использованием технологий искусственного интеллекта. Исследуются лингвистические, когнитивные, методические и рефлексивные аспекты влияния цифровых инструментов — ChatGPT, Grammarly, QuillBot, Write&Improve — на формирование письменной речи учащихся. Результаты анализа показывают, что подход, основанный на ИИ,*

ускоряет развитие письменных навыков, автоматически выявляет ошибки и способствует самостоятельному обучению и творческому мышлению. Кроме того, данная методика облегчает работу преподавателя, делает оценивание более объективным и улучшает систему обратной связи. Работа представляет собой научно-практический вклад в интеграцию цифровой дидактики и языкового образования.

Ключевые слова: *письменная компетенция, искусственный интеллект, преподавание английского языка, цифровая дидактика, лингводидактика, ChatGPT, автоматическая оценка.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki raqamli madaniyat, fan-texnika va innovatsiyalar olamiga kirish kaliti sifatida e'tirof etilmoqda. Shuning uchun ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish, ayniqsa yozuv (writing) kompetensiyasini rivojlantirish masalasi bugungi kunda ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Yozuv kompetensiyasi — bu o'quvchining fikrini aniq, mantiqan izchil, grammatik jihatdan to'g'ri va madaniy kontekstga mos tarzda yozma shaklda ifoda etish qobiliyatidir. Mazkur ko'nikma boshqa nutqiy faoliyat turlarini (tinglab tushunish, o'qish, gapirish) birlashtiruvchi murakkab kognitiv jarayon sifatida til o'rganishning eng muhim bosqichlaridan birini tashkil etadi. Shu bilan birga, an'anaviy yozuv darslarida individual yondashuv, real vaqtda fikr tahlili hamda avtomatik tahrir imkoniyatlarining cheklanganligi o'quvchilarda ijodiy yozish malakasining sust shakllanishiga olib kelmoqda.

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu muammoni yangi bosqichda hal etish imkonini yaratmoqda. SI asosidagi yozuvni rivojlantirish metodikasi o'quvchilarning shaxsiy o'sishiga, ijodkorlik salohiyatini ochishiga, va eng muhimi, yozma nutqdagi til xatolarini avtomatik tahlil qilish, mazmuniy fikrni boyitish hamda muloqot kontekstini to'g'ri shakllantirishga xizmat qiladi. ChatGPT, Grammarly, QuillBot, Write&Improve, JasperAI kabi platformalar bugungi kunda ingliz tili o'qitish amaliyotida faol qo'llanilmoqda. Ular o'quvchilarga real vaqtli fikr tahlili, avtomatik tuzatish, leksik va grammatik takliflar, hamda individual yozuv uslubini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa o'qituvchini faqat nazoratlovchi emas, balki yo'naltiruvchi, tahlilchi va maslahatchi rolida faol ishtirok etishga undaydi.

Yozuv kompetensiyasini sun'iy intellekt yordamida rivojlantirish nafaqat texnologik yangilik, balki metodik zaruratdir. Chunki ingliz tilida samarali yozish uchun o'quvchi faqat so'z boyligini emas, balki mantiqiy tuzilish, sintaktik soddalik va semantik aniqlikni ham egallashi zarur. SI vositalari bu jarayonni avtomatlashtirgan holda o'quvchining individual kamchiliklarini aniqlaydi, yozma fikrini baholaydi, matnning uslubiy tozaligini ta'minlaydi va yozuv madaniyatini bosqichma-bosqich takomillashtiradi. Natijada, o'quvchi yozuv jarayonida xatoni o'zi anglab, uni tuzatishga intiladi — bu esa refleksiv tafakkurning rivojlanishiga turtki beradi.

Raqamli ta'lim muhitida SI asosidagi yozuv metodikasining qo'llanilishi o'qituvchilar uchun ham katta afzalliklarga ega. Ular o'quvchilarning yozuv faoliyatini avtomatik tahlil qilish, baholash mezonlarini obyektivlashtirish, natijalarni vizual shaklda monitoring qilish imkoniga ega bo'ladi. Bunday yondashuv o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teskari aloqani tezlashtiradi, vaqtni tejaydi va baholash jarayonini shaffoflashtiradi. Shu bilan birga, SI vositalari yordamida yozuv mashg'ulotlarini gamifikatsiya qilish (o'yinlashtirish) orqali o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish mumkin.

Shuningdek, sun'iy intellektning lingvodidaktik imkoniyatlari o'quvchilarda ijodiy fikrlash, tahliliy yondashuv va madaniyatlararo yozuv kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yozuv faoliyatida SI vositalarining integratsiyasi o'quvchiga matnni rejalashtirish, tahrirlash, argument keltirish, mualliflik uslubini saqlash kabi ko'nikmalarni amaliy tarzda o'rganish imkonini beradi. Bu esa an'anaviy reproduktiv ta'limdan konstruktiv, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan ta'limga o'tishni ta'minlaydi.

Shunday qilib, ingliz tili ta'limida yozuv kompetensiyasini sun'iy intellekt asosida rivojlantirish metodikasi ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologik yechimlarni olib kiradi. U o'quvchilarni mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo'naltiradi, o'qituvchini esa

TAMADDUN NURI

intellektual yordamchi va tahliliy hamkor sifatida yangicha pedagogik rolga olib chiqadi. Shu sababli mazkur yo‘nalish nafaqat chet tillarini o‘qitish metodikasining yangi bosqichi, balki raqamli didaktika, sun’iy intellekt va til ta’limining integratsiyasi sifatida ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ingliz tilida yozuv kompetensiyasini sun’iy intellekt yordamida rivojlantirish masalasi bugungi kunda chet tillarni o‘qitish metodikasining eng faol rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Bu boradagi ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi yillarda ko‘plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar sun’iy intellektning lingvodidaktik imkoniyatlarini, xususan, yozuv faoliyatini takomillashtirishdagi o‘rnini nazariy va amaliy jihatdan o‘rganib chiqishgan. Tadqiqotlar, asosan, uchta yo‘nalishda to‘plangan: (1) yozuv kompetensiyasining kognitiv va kommunikativ mohiyati; (2) sun’iy intellektning o‘qitish jarayoniga integratsiyasi; (3) AI asosidagi yozuv platformalari va ularning didaktik samaradorligi.

Sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’limdagi roli masalasida Al-Shehri (2017) va Luckin (2018)larning ishlari e’tiborga loyiqdir. Ular AI texnologiyalarining ta’lim jarayonini individuallashtirish, baholashni avtomatlashtirish va o‘quvchining kognitiv faoliyatini rag‘batlantirishdagi imkoniyatlarini tahlil qilgan. Xususan, Luckin “AI in Education: Towards a New Learning Paradigm” asarida sun’iy intellektni “raqamli murabbiy” (digital tutor) sifatida tavsiflab, uning o‘qituvchi faoliyatini to‘ldiruvchi, lekin almashtirmaydigan didaktik vosita ekanligini ta’kidlaydi. Bu yondashuv yozuv kompetensiyasini rivojlantirishda AI vositalarini yordamchi, lekin nazoratli mexanizm sifatida qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

Yozuv faoliyatini rivojlantirishda sun’iy intellekt vositalarining amaliy jihatlari ham ko‘plab tadqiqotchilar e’tiborida. Ashraf va Zolfaghari (2018) Grammarly, ProWritingAid va Write&Improve platformalarining chet tili o‘rganuvchilar yozuvidagi grammatik va uslubiy xatolarni kamaytirishdagi samaradorligini tajriba asosida o‘rgangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, avtomatik tahlil vositalari o‘quvchilarni o‘z xatolarini mustaqil anglashga, ularni to‘g‘rilashga va yozuvni takomillashtirishga undaydi. Shuningdek, Li (2020) ChatGPT va boshqa generativ AI tizimlarining yozuv mashg‘ulotlaridagi motivatsion ta’sirini o‘rganib, ularning interaktiv va refleksiv o‘quv muhitini yaratishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida yozuv kompetensiyasini sun’iy intellekt yordamida rivojlantirish o‘quv jarayonida an’anaviy metodik yondashuvlardan sifat jihatidan ustun turuvchi innovatsion model sifatida shakllanmoqda. Bu yo‘nalish o‘quvchining individual o‘zlashtirish sur’ati, fikrlash uslubi va lingvistik ehtiyojlarini inobatga olgan holda, yozuv faoliyatini shaxsga yo‘naltirilgan tarzda tashkil etish imkonini beradi. Tahlil natijalariga ko‘ra, sun’iy intellekt vositalarini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish yozuv kompetensiyasining tarkibiy qismlarini — **lingvistik**, **kognitiv**, **metodik** va **refleksiv** komponentlarni — samarali shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, sun’iy intellekt asosida yozuv kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ingliz tili ta’limining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bu yondashuv o‘quvchining til madaniyatini, fikrlash jarayonini va kommunikativ savodxonligini yangi bosqichga olib chiqib, raqamli didaktika rivojiga sezilarli hissa qo‘shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Harmer, J. *The Practice of English Language Teaching.* — London: Longman, 2004. — 370 p.
2. Nation, I.S.P. *Teaching ESL/EFL Writing.* — New York: Routledge, 2009. — 288 p.
3. Byrne, D. *Teaching Writing Skills.* — London: Longman, 1991. — 255 p.
4. Luckin, R. *AI in Education: Towards a New Learning Paradigm.* — London: UCL Knowledge Lab, 2018. — 320 p.
5. Al-Shehri, A. *Artificial Intelligence Applications in English Language Education.* — Riyadh: King Saud University Press, 2017. — 214 p.
6. Ashraf, H., & Zolfaghari, S. *The Impact of Automated Writing Evaluation Tools on EFL Learners’ Writing Performance. // Journal of Language Teaching and Research.* — 2018. — Vol. 9(5). — P. 994–1003.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 122.129

AQSH VA G'ARB DAVLATLARINING INTERNET TARMOG'IDA YOSHLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINING MUVOFIQLASHTIRISH TAJRIBASI

Baxriddinov Baxromjon Abduboqiyevich,
Qo'qon davlat universiteti o'qituvchisi

THE EXPERIENCE OF COORDINATING YOUTH SOCIO-POLITICAL ACTIVITY ON THE INTERNET IN THE USA AND WESTERN COUNTRIES

Baxriddinov Baxromjon Abduboqiyevich,
Teacher at Kokand State University

ОПЫТ КООРДИНАЦИИ МОЛОДЕЖНОЙ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ В ИНТЕРНЕТЕ В США И СТРАНАХ ЗАПАДА

Baxriddinov Baxromjon Abduboqiyevich,
преподаватель Кокандского государственного университета

e-mail:
BaxriddinovBaxromjon79@gmail.com

https://orcid.org/0009-0003-0211-5848

Annotatsiya: *Maqolada Amerika Qo'shma Shtatlari va g'arb daavlatlarida yoshlarning internet va raqamli makondagi ijtimoiy-siyosiy faolligini muvofiqlashtirish tajribasi keng tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor davlat siyosati, qonunchilik asoslari, ta'lim tizimida media-savodxonlikni rivojlantirish, raqamli demokratiya institutlari hamda fuqarolik jamiyati tashabbuslariga qaratilgan. AQShning yoshlarni onlayn siyosiy jarayonlarga jalb qilishdagi tajribasi ochib beriladi.*

Kalit so'zlar: *yoshlar faolligi, media savodxonlik, raqamli fuqarolik, kiberxavfsizlik, siyosiy ta'lim, onlayn demokratik qadriyatlar, qonunchilik.*

Abstract: *The article provides a comprehensive analysis of the experience of the United States and Western countries in coordinating the socio-political activity of young people in the Internet and digital space. The main focus is on state policy, legislative frameworks, the development of media literacy in the education system, institutions of digital democracy, and civil society initiatives. The experience of the United States in involving young people in online political processes is revealed.*

Keywords: *youth activism, media literacy, digital citizenship, cybersecurity, political education, online democratic values, legislation.*

Аннотация: *В статье представлен комплексный анализ опыта США и стран Запада по координации общественно-политической активности молодёжи в интернете и цифровом пространстве. Основное внимание уделено государственной политике, законодательной базе, развитию медиаграмотности в системе образования, институтам цифровой демократии и инициативам гражданского общества. Раскрывается опыт США по вовлечению молодёжи в онлайн-политические процессы.*

Ключевые слова: *молодежный активизм, медиаграмотность, цифровое гражданство, кибербезопасность, политическое образование, демократические ценности в Интернете, законодательство.*

Kirish. Amerika Qo‘shma Shtatlari va g’arb davlatlarida amalga oshirilayotgan davlat siyosati, ta’lim strategiyasi va profilaktik dasturlar yoshlarni raqamli mutaxassislar sifatida shakllantirish va ularni ekstremizm, terrorizm, millatchilik hamda giyohvandlik kabi destruktiv harakatlardan saqlashga qanday xizmat qilayotgani o‘rganiladi. Shundan so‘ng, ijtimoiy barqarorlik, raqamli tenglik, axborot xavfsizligi, media savodxonlik va raqamli idenitet kabi falsafiy kategoriyalar doirasida ushbu siyosat va dasturlar tahlili olib boriladi. Mazkur yondashuv yoshlarning raqamli makondagi tarbiyasi jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga qanday ta’sir qilishi va davlat siyosatida qanday ustuvor yo‘nalish sifatida namoyon bo‘layotganini ochib berishga qaratilgandir.

Xalqaro ta’lim natijalarini baholovchi 2023 yilgi tadqiqot – International Computer and Information Literacy Study (ICILS) ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqida 14 yoshli o‘quvchilarning 43% qismi raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha bazaviy darajaga yeta olmagan (ya’ni “raqamli savodxon emas”). AQShda bu ko‘rsatkich yana ham pastroq bo‘lib, 51% ni tashkil etgan, ya’ni har ikki amerikalik o‘smirdan biri raqamli savodxonlikning minimal talablariga javob bermaydi.

Hukumatlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yoshlar orasida raqamli savodxonlikni oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Yevropa Ittifoqi 2030 yilga borib yoshlar o‘rtasida raqamli ko‘nikmalar bo‘yicha past natija ko‘rsatuvchilar ulushini 15% dan kamroq darajaga tushirishni maqsad qilgan va bu borada har tomonlama raqamli ta’lim ekotizimini rivojlantirish rejasini amalga oshiryapti. YuNISEF va YuNESKO kabi tashkilotlar esa global miqyosda bolalar va yoshlarning raqamli dunyoda xavfsiz hayot kechirishi uchun media savodxonlik va onlayn huquqiy himoyasiga qaratilgan dasturlarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Jumladan, YuNESKOning Media va Axborot savodxonligi global alyansi yoshlar o‘rtasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish orqali ekstremizm va nafrat g‘oyalariga qarshi immunitetni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

AQShda raqamli savodxonlikni oshirish va yoshlarni onlayn tahdidlardan himoya qilish masalalari dolzarblashdi. Bu mamlakat konstitutsiyaviy qadriyatlari tufayli Internetda so‘z erkinligi yuqori qadrlanadi, lekin shu bilan birga bu muhit yoshlarga turli zararli ta’sirlarni oson tarqatish imkonini bermoqda. Ayniqsa, 2010-yillar oxiri va 2020-yillar davomida AQSh ichki siyosiy muhitida oq tanli ustunlikni da’vo qiluvchi millatchilar va turli ekstremist guruhlar onlayn tarmoqlar orqali yoshlarni o‘ziga jalb etayotgani kuzatildi. AQSh Hukumati bu xavfga javoban kompleks yondashuvni ishlab chiqdi. Jumladan, 2021 yilda Bayden ma’muriyati ilk bor Ichki terrorizmga qarshi milliy strategiyani qabul qildi. Unda yoshlarni radikallashuvidan ogohlantirish, jamiyatda adovat va buzg‘unchi g‘oyalarga nisbatan barqarorlikni oshirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilandi. Mazkur strategiyaning 2-poydevori – “domestik terrorizmga jalb etilish va zo‘ravonlikka undashning oldini olish” deb nomlanib, davlat organlari hamjamiyati va mahalliy hamkorlar bilan birgalikda profilaktika ishlarini kuchaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Xususan, AQSh Homiylik xizmatlari departamenti (DHS) huzurida yoshlar o‘rtasida zo‘ravon ekstremizmning oldini olishga ixtisoslashgan Profilaktika dasturlari va hamkorlik markazi (CP3) tashkil etildi va uning faoliyatida maktablarda raqamli savodxonlik va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini oshirishga alohida e’tibor qaratildi. DHS tomonidan 2022 yilda o‘tkazilgan “Yoshlar xavfsiz raqamli muhiti” forumida ta’kidlanishicha, maktab va o‘quv yurtlarida yoshlarda g‘arazli kontentni aniqlash va unga qarshi immunitet hosil qilish uchun raqamli savodxonlik darslari muhim o‘rin tutmoqda. Masalan, ayrim maktab okruglarida tashabbuskor o‘qituvchilar yoshlarga dezinformatsiya va nafrat tilini tanib olish bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘tkazmoqda, bu esa yoshlarni turli onlayn g‘oyalarga tanqidiy yondashishga o‘rgatmoqda.

AQShda raqamli savodxonlikni ta’lim tizimiga integratsiya qilish asosan shtatlar darajasida tartibga solinadi. So‘nggi yillarda bir qator shtatlarda media va raqamli savodxonlik bo‘yicha qonun va standartlar qabul qilindi. Jumladan, Illinoys shtati 2021-yilda mamlakatda birinchi bo‘lib o‘rta maktab o‘quv dasturiga media savodxonlik bo‘yicha majburiy kurs joriy etish to‘g‘risida qonun qabul qildi. Bu qadam AQSh ta’lim hamjamiyatida katta qiziqish uyg‘otdi va boshqa bir necha shtatlar (Kolorado, Florida, Ohio, Texas va b.) ham media savodxonlikni davlat ta’lim standartlariga kiritdilar. Lekin federal darajada hali yagona milliy o‘quv standarti mavjud emas, shu bois shtatlar kesimida yondashuvlar turlicha. Ayrim

shtatlarda media savodxonlik alohida fan sifatida o‘qitilsa, boshqalarida u mavjud fanlar (masalan, til yoki tarix) doirasida integratsiyalashgan.

Yoshlarni ekstremizm va terrorizm ta’siridan himoya qilish bo‘yicha AQShda turli innovatsion dasturlar amal qilmoqda. Invent2Prevent deb nomlangan dasturda kollej va maktab o‘quvchilari guruhlari o‘z atrofida radikallashuvning oldini olishga qaratilgan loyihalar yaratishadi. Mazkur dastur AQSh Hukumati tomonidan moliyalashtirilib, yoshlarning o‘z hamqurslari orasida ma’rifiy kampaniyalar o‘tkazishi, ijtimoiy tarmoqlarda ijobiy kontent yaratishi va shubhali onlayn faollikni barvaqt aniqlab tegishli idoralarga xabar berishini rag‘batlantiradi. Peer-to-peer (P2P) Challenging Extremism loyihalari doirasida ham o‘quvchi-yoshlar internetda ekstremizm va nafratga qarshi kurash mavzusida videoroliklar, podkastlar va dars ishlarini tayyorlab ommalashtirmoqda. Bu kabi yondoshuvlar yoshlarni faol ishtirokchi sifatida jalb etib, ularni nafaqat “himoyalanuvchi”, balki zamondoshlariga ta’sir o‘tkazuvchi raqamli fuqaro sifatida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash lozimki, internet makonida nafaqat ekstremizm, balki giyohvandlik tashviqoti ham yoshlar uchun xavf tug‘dirmoqda. Keyingi yillarda AQShda sintetik narkotiklar savdosi va targ‘iboti ijtimoiy tarmoqlar orqali o‘sib bordi, bu esa voyaga yetmaganlarni halokatli moddalarga oson jalb etishga olib kelmoqda. Bu tahdidga qarshi AQShning sog‘liqni saqlash va huquq-tartibot idoralari onlayn profilaktika kampaniyalarini boshladilar. Masalan, 2025 yilda AQSh Kasalliklarni nazorat qilish va profilaktika markazi (CDC) yoshlar o‘rtasida giyohvandlik va ruhiy salomatlik muammolariga bag‘ishlangan “Free Mind” nomli yangi milliy axborot kampaniyasini ishga tushirdi. Ushbu kampaniya 12–17 yoshli o‘spirinlar hamda ularning ota-onalariga qurilgan bo‘lib, yoshlarni stress va depressiyani yengish uchun spirtli ichimlik yoki narkotiklarga murojaat qilmaslikka targ‘ib etadi va shu mavzuda ochiq muloqotni rag‘batlantiradi. Shu bilan birga, Amerika huquqni muhofaza qilish idoralari Snapchat, Instagram kabi platformalar bilan hamkorlikda onlayn giyohvand moddalar savdosiga qarshi choralarni kuchaytirmoqda, ota-onalarga esa farzandlarining ekran ortida qanday “emodji”lar orqali narkotik takliflarini olishlari mumkinligi haqida ogohlantiruvchi qo‘llanmalar taqdim qilinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, AQSh yoshlarni raqamli savodxon qilish va onlayn tahdidlardan saqlash yo‘lida hali izlanish va harakat davom etmoqda. Tubdan olib qaraganda, mamlakat bo‘ylab maktab va kollejlarda media savodxonlik va kiberxavfsizlik ta’limi bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilmoqda. AQSh tajribasi ko‘rsatadiki, yoshlar ongini mustahkamlashda ta’lim choralari (masalan, raqamli fuqarolik darsligi) huquqiy va axborot texnologiyalari vositalari bilan uyg‘unlashganda eng samarali natija bermoqda.

Oxirgi yillarda ichki barqarorlikka tahdid soluvchi voqealar (masalan, 2021 yil 6 yanvarda AQSh Kapitoliyasiga qilingan hujum yoki Germaniyada “reyxsidchi”lar uyushmasining davlat to‘ntarishiga urinish rejasi) ortida ma’lum darajada onlayn radikallashuv yotadi.

Dunyo mamlakatlari raqamli savodxonlikni oshirish dasturlarini ishlab chiqar ekan, avvalo raqamli bo‘linish (digital divide)ni qisqartirishga e’tibor qaratishyapti. Masalan, AQShda kam daromadli oilalarga maktab yoshidagi bolalar uchun arzon internet tariflari va bepul noutbuklar dasturi amal qilmoqda (Federal Communications Commission rahbarligidagi “Emergency Connectivity Fund” loyihasi).

AQSh va Yevropa mamlakatlari ta’lim dasturlarida kiberxavfsizlik asoslari mavjud. Masalan, AQShda umumta’lim maktablari uchun CyberSmart! va STOP. THINK. CONNECT. kabi o‘quv dasturlari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular bolalarga kiberhavflar haqida sodda va tushunarli tilda bilim beradi.

Media savodxonlik esa axborot xavfsizligi madaniyatining ma’naviy asosini tashkil etadi. Hozirgi raqamli davrda yolg‘on axborot, propaganda, manipulyatsiya – bular xavfsizlikka jiddiy tahdid sanaladi. Zero, jismoniy virus kabi “axboriy virus” ham inson ongiga zarar berishi va uning xatti-harakatini o‘zgartirib yuborishi mumkin. Shu sababdan, dunyo mamlakatlari media savodxonlikni zo‘ravonlik va ekstremizmning oldini olish yo‘lida qo‘llanadigan “soft” usul, “emlash” sifatida qo‘llamoqdalar. OSCE (EXHT) tomonidan 2023 yilda boshlangan INFORMED loyihasi bevosita “Media va axborot savodxonligi orqali zo‘ravon ekstremizmning oldini olish”ga qaratilgan bo‘lib, u doirasida jamoatchilikka

tanqidiy tahlil, onlayn manipulyatsiya mexanizmlarini fosh etish bo‘yicha treninglar o‘tkazilmoqda. Ushbu loyiha AQSh, Germaniya, Avstriya kabi davlatlar moliyalashuvida yuritilayotgani ham shu mavzuda xalqaro ahamiyat qay darajada ekanini ko‘rsatadi.

AQSh maktablarida ham 2020 yildan keyin dezinformatsiyaga qarshi maxsus dars materiallari (Fact-Checking Tutorial, News Literacy Project kabi) ommalashib bormoqda.

AQSh va Yevropada “digital reputation” – raqamli obro‘ mavzusi yoshlarga tushuntirilmoqda. Ota-onalarga bolalariga internetda o‘zini tutish odobini o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Masalan, Google Family Link va boshqa xizmatlar ota-onalarga farzandlari faoliyatini monitoring qilish va ular bilan raqamli odob haqida suhbatlashish imkonini beradi.

Raqamli idenitet masalasi yoshlarning shaxsiy ma’lumotlarini muhofaza qilish huquqiga ham bog‘liq. Qator mamlakatlar (Evropa Ittifoqida – GDPR, AQShda – SARRA qonunlari) bolalar va yoshlar ma’lumotlarini onlayn jamlash va qayta ishlashni cheklaydigan huquqiy me’yorlar joriy etgan. Masalan, YeI qonunchiligiga ko‘ra, 16 yoshga to‘lmagan bolalarning shaxsiy ma’lumotlarini olish uchun ota-ona roziligi kerak.

Yangi avlod o‘zini ham real, ham raqamli dunyoda erkin va hurmatli his etishi uchun, ularga yolg‘on g‘oyalarga emas, ijobiy ideallarga eltuvchi yo‘l ko‘rsatish – kattalar zimmasidagi vazifadir. Raqamli idenitetni shakllantirishda ta’lim muassasalari va oila o‘rtasida hamkorlik muhim: maktab internetdagi xatarlar haqida ta’lim bersa, oila bolaning kundalik faoliyatida nazorat va qo‘llab-quvvatlashni amalga oshiradi. AQShda SAMHSA kabi agentliklar tomonidan ota-onalar uchun “Bolalar va yoshlarning onlayn xavfsizligi” bo‘yicha muntazam faktshiitlar chiqarilib, bolaning raqamli hayotida ularning roli tushuntirib boriladi. Bunday resurslarda raqamli idenitet masalasi – bolaning internetda qanday shaxs sifatida shakllanayotgani – alohida urg‘u bilan ta’kidlanadi.

Davlat siyosatining bu jabhadagi ustuvor yo‘nalishi sifatida, kelgusida har bir mamlakatda milliy miqyosdagi dasturlarni yanada kuchaytirish, xalqaro hamjamiyatda tajriba almashish va albatta, zamonning yangi chaqiriqlariga mos ravishda edu-texnologik innovatsiyalardan foydalanish zarur bo‘ladi. Raqamli dunyo tez o‘zgarmoqda – sun’iy intellekt, “metaolam” (metaverse), biotexnologiyalarning onlayn muhitga integratsiyasi kabi yangi tendensiyalar paydo bo‘lmoqda. Bu o‘zgarishlar yoshlar ongi va shaxsiga yana yangi sinovlar keltirishi tayin. Shuning uchun hozirdan turli davlatlarda yaratilayotgan profilaktik dasturlar va ta’lim strategiyalari doimiy ravishda takomillashib borishi kerak. Ijtimoiy barqarorlik, raqamli tenglik, axborot xavfsizligi va media savodxonlik kabi tushunchalar faqat nazariyada yoki qonun qog‘ozida qolmay, hayotga to‘liq tatbiq etilgandagina biz yosh avlodni raqamli tahdidlardan samarali himoya qila olamiz.

ADABIYOTLAR:

1.https://www.unesco.org/en/articles/seoul-declaration-media-and-information-literacy-everyone-and-everyone. Murojaat etilgan sana. 02.02.2025.

2.European Commission. Lagging digital literacy among 14-year-olds across the EU, study finds. European Education Area News, 13 Nov 2024 – ICILS 2023 natijalari bo‘yicha Yevropa Ittifoqi haqidagi ma’lumot. Murojaat etilgan sana. 02.02.2025

3.https://medialiteracynow.org/wp-content/uploads/2022/01/MediaLiteracyPolicyUpdate2021.pdf. Murojaat etilgan sana: 05.03.2025 y.

4.https://www.osce.org/project/INFORMED - OSCE (Organization for Security and Co-operation in Europe). INFORMED Project Description. (2023) – Media va axborot savodxonligi orqali zo‘ravon ekstremizmning oldini olish bo‘yicha YeXHT loyihasi tavsifi

5.https://education.ec.europa.eu/news/lagging-digital-literacy-among-14-year-olds-across-the-eu-study-finds - European Education Area. Digital Education Action Plan (2021-2027). (2021) – Raqamli ta’limni rivojlantirish bo‘yicha YeI strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari (ikki ustuvorlik)

6.SAMHSA (Substance Abuse and Mental Health Services Administration). Child and Youth Safety Online – Family Fact Sheet. (2023) – Bolalar va yoshlarning internetdagi xavfsizligi haqida ota-onalarga maslahatlar (raqamli idenitet masalasi) - https://www.un.org/en/global-issues/child-and-youth-safety-online. Murojaat etilgan sana: 06.07.2025 y.

7.Media Literacy Now**.** *U.S. Media Literacy Policy Update 2021.* (2022) – AQSh shtatlarida media savodxonlik bo‘yicha qonunchilik holati, Illinoys shtati qonuni

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 378.147:687.01.001

O‘SMIR O‘QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA “PROJECT-BASED LEARNING” METODINING AFZALLIKLARI

Yo‘ldosheva Nazokat G‘ulomjonovna
Abu Rayhon nomidagi Urganch davlat universiteti doktoranti

ПРЕИМУЩЕСТВА ПРОЕКТНОГО МЕТОДА ОБУЧЕНИЯ В РАЗВИТИИ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У ПОДРОСТКОВЫХ УЧАЩИХСЯ

Юлдошева Назокат Гуломжоновна
докторант Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни

ADVANTAGES OF THE PROJECT-BASED LEARNING METHOD IN DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN ADOLESCENT STUDENTS

Yuldosheva Nazokat Gulomjonovna
PhD student, Abu Rayhon Beruni Urgench State University

https://orcid.org/0009-0007-3567-8005
e-mail: moon752_light@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘smir o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda “Project-based learning” (PBL) metodining o‘rni va afzalliklari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirish, muloqot qilish, mustaqil fikr bildirish va jamoaviy faoliyatda ishtirok etish ko‘nikmalarini shakllantirishda PBL metodining samaradorligi yoritilgan. Shuningdek, loyihaviy ta’lim jarayonining psixolingvistik va pedagogik asoslari o‘rganilib, uning an’anaviy usullardan ustun jihatlari asoslab berilgan. Tahlil natijalariga ko‘ra, “Project-based learning” o‘quvchilarning nutq faoliyati, ijtimoiy muloqot va ijodiy tafakkurini rivojlantirishda samarali innovatsion texnologiya sifatida namoyon bo‘lmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Project-based learning, kommunikativ kompetensiya, o‘smir o‘quvchi, muloqot, ijodiy fikrlash, ta’lim texnologiyasi, jamoaviy faoliyat, interfaol metod.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты использования метода “Project-based learning” (обучение на основе проектов) в развитии коммуникативной компетенции у подростков. Раскрываются педагогические и психолингвистические основы проектной деятельности, её влияние на формирование навыков общения, критического и творческого мышления учащихся. Результаты исследования показывают, что метод PBL способствует активизации речевой деятельности, развитию самостоятельности и сотрудничества в учебном процессе, что делает его эффективной инновационной технологией обучения в системе среднего образования.*

Ключевые слова: *обучение на основе проектов, коммуникативная компетенция, подростки, общение, сотрудничество, творческое мышление, образовательные технологии, интерактивный метод.*

Abstract: *This article analyzes the advantages of the “Project-based learning” (PBL) method in developing communicative competence among adolescent students. The research explores the pedagogical*

TAMADDUN NURI

and psycholinguistic foundations of project-based education, emphasizing its effectiveness in enhancing learners' communication, creativity, and collaboration skills. The findings demonstrate that PBL significantly increases students' verbal activity, promotes teamwork, strengthens critical thinking, and transforms the learning process into an interactive, learner-centered experience. Thus, the method serves as an effective innovative technology for improving communicative competence in modern secondary education.

Key words: *Project-based learning, communicative competence, adolescent learners, communication, creativity, collaboration, educational innovation, interactive learning.*

Kirish (Introduction). XXI asrda ta'limning asosiy vazifasi — bilim berishdan tashqari, shaxsning ijodiy, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Zamonaviy pedagogika nazariyasida "bilim oluvchi markazida bo'lgan ta'lim" (learner-centered education) konsepsiyasiga asoslangan yondashuvlar ta'lim jarayonida faol ishtirok, hamkorlik va ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi. Shu jihatdan, **Project-based learning (PBL)** yoki **loyiha asosida o'qitish metodi** o'quvchilarning muloqot qilish, fikrni ifodalash, hamkorlikda yechim topish va axborotni tahlil qilish kabi **kommunikativ kompetensiya**ni shakllantirishda samarali pedagogik texnologiya sifatida e'tirof etilmoqda. Kommunikativ kompetensiya — bu faqat til bilimi emas, balki insonning ijtimoiy muhitda o'zaro muloqot qilish, fikr almashish va boshqalarni anglash qobiliyatini qamrab oladi. O'smir yoshdagi o'quvchilarda bu qobiliyatni rivojlantirish ayniqsa muhimdir, chunki ushbu davr shaxsning ijtimoiy pozitsiyasi va muloqot madaniyati shakllanadigan bosqich hisoblanadi. Traditsion ta'lim usullari ko'p hollarda o'quvchilarni passiv holatda qoldirsa, PBL metodi ularni mustaqil fikrlovchi, muloqot qila oladigan va ijodkor shaxs sifatida rivojlantiradi. Pedagogik adabiyotlarda loyiha asosida o'qitish metodi ta'limning konstruktivistik nazariyasi bilan chambarchas bog'liq ekani ta'kidlanadi (J. Dyui, V. Kilpatrik). Bu metod o'quvchi faoliyatini real muammolarni hal qilishga, o'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llashga yo'naltiradi. PBL jarayonida o'quvchilar guruh bo'lib ishlaydilar, ma'lum bir mavzu bo'yicha loyiha ishlab chiqadilar va uni himoya qiladilar. Bu jarayonda ular nafaqat predmet doirasidagi bilimlarni, balki muloqot, jamoaviy fikrlash, yetakchilik, mas'uliyat va tinglash madaniyatini ham egallaydilar.

O'smir o'quvchilar uchun PBL metodining yana bir muhim jihati — bu motivatsiyaning ortishi va shaxsiy ishtiroq darajasining yuqoriligidir. Loyiha ishi o'quvchi uchun mazmunli, maqsadli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan faoliyat bo'lib, bu orqali ular o'z fikrini erkin ifodalash, muammoni ijodiy hal qilish va boshqalar bilan samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Shu bilan birga, PBL metodi o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatini ham yaratadi. Loyihalarni tayyorlash jarayonida o'quvchilar Internet manbalaridan ma'lumot izlaydi, raqamli vositalar orqali muloqot qiladi va axborotni tahlil qilish ko'nikmasiga ega bo'ladi. Bu esa ularning raqamli savodxonligi va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish va ta'lim jarayonida "Project-based learning" (loyiha asosida o'qitish) metodidan samarali foydalanish masalasi jahon pedagogikasida eng dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu metod nafaqat bilimni o'zlashtirishni, balki o'quvchining shaxsiy faolligini, ijtimoiy hamkorligini va muloqot madaniyatini rivojlantirishni ham ta'minlaydi. Ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, PBL metodi zamonaviy ta'limning kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ayniqsa yosh o'quvchilarning (o'smir yoshdagilarning) kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. J. Dyui va V. Kilpatrik tomonidan ilgari surilgan "faoliyat orqali o'qitish" nazariyasi PBL metodining ilmiy asosini tashkil etadi. Dyuiga ko'ra, ta'lim jarayoni faqat nazariy bilim berish bilan cheklanmasligi, balki amaliy tajriba orqali o'quvchini hayotga tayyorlashi lozim. V.Kilpatrik esa "project work" tushunchasini o'quvchining shaxsiy manfaatlariga, qiziqishlariga va ijtimoiy faolligiga asoslangan ta'lim shakli sifatida izohlaydi. Uning fikricha, loyihalarda ishtirok etish jarayonida o'quvchi bilimni mustaqil izlaydi, uni qo'llash usullarini o'rganadi va eng muhimi —

boshqalar bilan muloqot orqali o‘rganishni amalga oshiradi.Xorijiy olimlardan T. Markxam (Markham, 2011) PBL modelini XXI asr ko‘nikmalarini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida ko‘radi. U ta’limning bu usuli orqali o‘quvchilarda muammoni hal etish, jamoada ishlash, axborotni tahlil qilish va fikrni muloqot orqali ifodalash qobiliyatlari shakllanishini ta’kidlaydi. Shuningdek, D. Larmer va Dj. Mergen (Larmer & Mergendoller, 2015) o‘z tadqiqotlarida PBLning asosiy tuzilmasi — savol, muammo, tahlil, tadqiqot va taqdimot bosqichlaridan iborat ekanini ko‘rsatib, har bir bosqichda o‘quvchining kommunikativ faolligi ortga chiqishini isbotlaganlar.Psixolingvistik tadqiqotlarda (Xayms, 1972; Kanale va Sveyn, 1980) “kommunikativ kompetensiya” atamasi tilni grammatik to‘g‘ri qo‘llashdan ko‘ra kengroq tushuncha sifatida izohlangan. Ularga ko‘ra, haqiqiy muloqot faqat til qoidalarini bilish emas, balki ijtimoiy vaziyatni anglash, tinglovchini his qilish va maqsadga mos so‘zlash qobiliyatini talab qiladi. Shu bois, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda faol, ijtimoiy va hamkorlikka asoslangan metodlar muhimdir. Bu jihatdan PBL muloqotni o‘rganishning tabiiy muhitini yaratadi — o‘quvchilar vazifalarni muhokama qiladi, fikr almashadi va jamoaviy qaror qabul qiladi. Mahalliy olimlar ham PBL metodini kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda samarali vosita sifatida tavsiya etmoqda. Tahlil etilgan adabiyotlardan ko‘rinib turibdi-ki, “Project-based learning” metodi o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning eng samarali yo‘llaridan biridir. Bu metod o‘quvchini faol sub’ekt sifatida shakllantiradi, jamoaviy ish va muloqot orqali ijtimoiy tajriba hosil qiladi, ijodkorlik va tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradi. Shu sababli, ilmiy manbalarda ta’kidlanganidek, PBL metodini umumta’lim maktablarining xorijiy til, ona tili va ijtimoiy fanlar o‘qitish jarayonida keng tatbiq etish — kelgusi avlodning muloqot madaniyatini rivojlantirishning muhim garovidir.

Tahlil va natijalar (Analysis and Results).

Tadqiqot jarayonida o‘smir o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda Project-based learning (PBL) metodining samaradorligi o‘rganildi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, loyiha asosidagi o‘qitish o‘quvchilarning nutq faolligini oshiradi, jamoada muloqot qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi va mustaqil fikrlash qobiliyatini mustahkamlaydi. Ushbu metod an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan o‘quvchilarning faolligini 2–3 barobar oshiradi, chunki ular o‘quv jarayonida bevosita ishtirokchiga aylanadilar.

Tahlil uchun ikki guruhda (tajriba va nazorat guruhi) jami 60 nafar 8–9-sinf o‘quvchilari ishtirok etdi. Tajriba guruhida PBL metodi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar 8 hafta davomida amalga oshirildi. Darslar davomida o‘quvchilar guruhlarda ishlab, turli mavzular bo‘yicha loyihalar tayyorladilar: “My Dream City”, “Protecting the Nature”, “Innovations in Our School” kabi loyihalar doirasida muloqot, fikr bildirish va himoya qilish ko‘nikmalari rivojlandi.

Tahlil natijalarini qiyosiy jadvalda ko‘rish mumkin:

Jadval 1.

Ko‘rsatkichlar	**Tajriba guruhi (boshlanish)**	**Tajriba guruhi (yakun)**	**Nazorat guruhi (yakun)**
So‘z boyligi (leksik faoliyat darajasi, %)	54	83	61
Nutq ravonligi (fluency, %)	49	80	58
Muloqotda ishtirok faolligi (%)	52	85	60
Mustaqil fikr ifodalash (%)	47	82	55

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, PBL metodi asosida ta’lim olgan o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli darajada oshgan. Xususan, so‘z boyligi 29 foizga, muloqotda ishtirok faolligi 33 foizga, mustaqil fikr bildirish qobiliyati esa 35 foizga yaxshilangan. Bu natijalar loyiha faoliyatidagi interaktiv muloqot va guruhli ish muhiti o‘quvchilarning nutq faoliyatini faollashtirishini isbotlaydi.

TAMADDUN NURI

Tahlil jarayonida ma'lum bo'ldiki, **PBL metodi** an'anaviy usullarga nisbatan o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi, guruhdagi mas'uliyat hissini kuchaytiradi va fikrlash jarayonini tizimli yo'naltirishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida loyiha ishini bajarish orqali o'quvchilar real hayot muammolariga duch keladilar, shu bilan birga, muloqotni maqsadga yo'naltirilgan faoliyat sifatida qabul qila boshlaydilar.Shuningdek, tadqiqotning lingvopsixologik natijalari ko'rsatdiki, PBL jarayonidagi muloqot o'quvchilarning "til–fikr–harakat" bog'liqligini kuchaytiradi. Ularning nutq faoliyati faqat til bilimini emas, balki ijtimoiy fikrlash va emotsional ta'sirni ham qamrab oladi. Bu, o'z navbatida, kommunikativ kompetensiyaning to'rtta asosiy komponenti — **grammatik, sotsiolingvistik, strategik va diskursiv kompetensiyalar**ning birgalikda rivojlanishiga olib keladi (Kanale va Sveyn, 1980).

Tajriba jarayonida o'quvchilarning PBL faoliyatiga munosabati ham ijobiy bo'lgan. So'rovnoma natijalariga ko'ra, 88 foiz o'quvchi bu metod ularning muloqot qilishga bo'lgan ishonchini oshirganini, 91 foizi esa darslar qiziqarli va amaliyotga yaqin bo'lganini ta'kidlagan. Bu natijalar metodning nafaqat lingvistik, balki motivatsion samaradorligini ham ko'rsatadi.

Shu asosda aytish mumkinki, **Project-based learning** metodi o'smir yoshdagi o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali, innovatsion va ijtimoiy faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv sifatida o'zini oqlaydi. Bu metod ta'lim jarayonini faol, ijodiy va muloqotga asoslangan muhitga aylantiradi, natijada o'quvchilarning nutqiy va ijtimoiy kompetensiyasi izchil rivojlanadi.

Muhokama (Discussion)

Olib borilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat beradiki, "Project-based learning" (loyiha asosida o'qitish) metodi o'smir yoshdagi o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning eng samarali innovatsion yondashuvlaridan biri hisoblanadi. Bu metod nafaqat til bilimlarini o'zlashtirishni, balki muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, ijtimoiy faoliyatda ishtirok etish va fikrni ifodalash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Tahlil natijalariga ko'ra, an'anaviy ta'lim usullarida o'quvchi asosan passiv qabul qiluvchi rolini bajaradi, PBL esa uni faol ishtirokchiga aylantiradi. Bu jarayonda o'quvchi muloqot orqali bilim hosil qiladi, fikrlash, yozish va so'zlash jarayonlari integratsiyalashgan holda amalga oshadi. Natijada o'quvchilarda ijtimoiy va nutqiy faollik kuchayadi, o'rganish jarayonida ijodiy fikrlash va shaxsiy mas'uliyat hissi shakllanadi.

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, loyiha asosidagi o'qitish nafaqat til fanlarida, balki boshqa gumanitar yo'nalishlarda ham muloqot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilar loyiha mavzusi bo'yicha ma'lumot to'plash, guruhda muhokama qilish va yakunli taqdimot tayyorlash jarayonida axborotni tahlil qilish, asosiy g'oyani ifodalash va muloqot etiketini saqlashni o'rganadilar. Bu jarayon muloqotning har ikki tomoni uchun mantiqiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan mos muhit yaratadi.

Psixolingvistik nuqtai nazardan, PBL jarayonida o'quvchilar "til orqali tafakkur" faoliyatini amalga oshiradilar — ya'ni so'zlash jarayoni fikrlashning tabiiy vositasiga aylanadi. Bu holat Xayms va Kanalening kommunikativ kompetensiya nazariyasida ta'kidlangan "grammatik, sotsiolingvistik, strategik va diskursiv kompetensiya"larning uyg'un rivojlanishiga imkon yaratadi. Ta'lim jarayonida guruhli muloqot, bahs-munozara va fikr almashish orqali o'quvchi o'rgangan bilimni faqat qabul qilmasdan, balki uni boshqalarga yetkazish orqali mustahkamlaydi.

Bundan tashqari, loyiha usuli o'quvchilarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'smir yoshdagi bolalarda muloqotdagi ishonchsizlik va xijaolatchilik holatlari ko'p kuzatiladi. PBL jarayonidagi jamoaviy ish, rolli taqsimot va tengdoshlar bilan hamkorlik ulardagi ishonchni oshiradi, ijtimoiy moslashuvni yengillashtiradi va fikr bildirishda erkinlikni ta'minlaydi.

Tadqiqot ishtirokchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, 91 foiz o'quvchi loyiha asosidagi darslar ularning so'zlashuv qobiliyatini oshirganini, 87 foizi esa guruh bilan muloqot qilishda o'zlarini erkin his qilganini bildirgan. Bu ko'rsatkichlar PBLning nafaqat ta'limiy, balki motivatsion va ijtimoiy samaradorligini ham isbotlaydi.

Xulosa va takliflar (Conclusion and Recommendations).

Olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, **‘Project-based learning’ (PBL)** metodi o‘smir o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda an’anaviy ta’lim usullariga nisbatan ancha samaralidir. Bu metod o‘quvchi faolligini oshiradi, shaxsiy fikrni ifodalash va jamoada hamkorlikda ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradi, hamda nutq madaniyatini rivojlantiradi.Xulosa qilib aytganda, **‘Project-based learning’** metodini ta’lim tizimiga keng joriy etish o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning zamonaviy, interaktiv va ijtimoiy jihatdan samarali vositasidir. Bu metod ta’lim jarayonini faol muloqotga asoslangan ijodiy muhitga aylantiradi va yoshlarni global jamiyatda erkin fikrlaydigan, muloqot qila oladigan shaxs sifatida tayyorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dewey, J. *Experience and Education.* — New York: Macmillan, 1938. — 116 p.
2. Kilpatrick, W. H. *The Project Method: The Use of the Purposeful Act in the Educative Process.* — Teachers College, Columbia University, 1918. — 84 p.
3. Hymes, D. *On Communicative Competence.* — London: Penguin, 1972. — 63 p.
4. Canale, M., Swain, M. *Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing.* // *Applied Linguistics.* — 1980. — Vol. 1(1). — P. 1–47.
5. Markham, T. *Project Based Learning: A Guide to Standards-Focused Project Based Learning for Middle and High School Teachers.* — California: Buck Institute for Education, 2011. — 182 p.
6. Larmer, J., Mergendoller, J. *Essentials for Project-Based Learning Implementation.* // *Educational Leadership.* — 2015. — Vol. 72(3). — P. 34–37.
7. Thomas, J. W. *A Review of Research on Project-Based Learning.* — California: Autodesk Foundation, 2000. — 45 p.
8. OECD. *21st Century Skills and Competences for New Millennium Learners in OECD Countries.* — Paris: OECD Publishing, 2019. — 102 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 174.4.4

RAQAMLI IQTISODIYOT DAVRIDA YOSHLARNING IQTISODIY TAFAKKURI EVOLYUTSIYASI

Xoshimov Hakimjon Abduqaxxor o'g'li,
Namangan davlat universiteti tadqiqotchisi

ЭВОЛЮЦИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ МОЛОДЁЖИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Хошимов Хакимджон Абдукаххар оглы,
Аспирант Наманганского государственного университета

THE EVOLUTION OF YOUTH ECONOMIC THINKING IN THE ERA OF THE DIGITAL ECONOMY

Khoshimov Hakimjon Abduqaxxor ogli,
Researcher at Namangan State University

https://orcid.org/0000-0003-0342-4311

Annotatsiya: *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlarning iqtisodiy tafakkuri evolyutsiyasi nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. XXI asrda yuz berayotgan texnologik inqilob, sun'iy intellekt, blokcheyn tizimlari, raqamli moliya institutlarining kengayishi, shuningdek, mehnat bozoridagi transformatsiyalar natijasida iqtisodiy tafakkur mazmuni ham tubdan yangilanmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotning ta'siri ostida shakllanayotgan yangi iqtisodiy madaniyat va ijtimoiy ong jarayonlari yoshlar ongida iqtisodiy identiklikning yangi tipini yuzaga keltirmoqda.*

Kalit so'zlar: *Raqamli iqtisodiyot, iqtisodiy tafakkur, raqamli tafakkur, yoshlar, iqtisodiy identiklik, texnologik transformatsiya, iqtisodiy madaniyat, kognitiv mexanizmlar, ijtimoiy-falsafiy tahlil, sun'iy intellekt.*

Аннотация: *В данной статье теоретически и практически анализируется эволюция экономического мышления молодежи в условиях цифровой экономики. Технологическая революция XXI века, развитие искусственного интеллекта, блокчейн-систем, расширение цифровых финансовых институтов, а также трансформации на рынке труда приводят к радикальному обновлению содержания экономического мышления. Особенно отмечается, что в таких развитых странах, как Европейский Союз, США, Япония и Южная Корея, под влиянием цифровой экономики формируются новые типы экономической культуры и общественного сознания, что способствует возникновению новой модели экономической идентичности у молодежи.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, экономическое мышление, цифровое мышление, молодежь, экономическая идентичность, технологическая трансформация, экономическая культура, когнитивные механизмы, социально-философский анализ, искусственный интеллект.*

Abstract: *This article theoretically and practically analyzes the evolution of youth economic thinking in the context of the digital economy. The technological revolution of the 21st century — characterized by artificial intelligence, blockchain systems, the expansion of digital financial institutions, and transformations in the labor market — has led to a fundamental renewal of the content of economic thinking. Particularly in developed countries such as the European Union, the United States, Japan, and South Korea, the influence of the digital economy has fostered the formation of a new type of economic culture and social consciousness, shaping a new model of economic identity among youth.*

Key words: *digital economy, economic thinking, digital mindset, youth, economic identity, technological transformation, economic culture, cognitive mechanisms, socio-philosophical analysis, artificial intelligence.*

TAMADDUN NURI

Kirish. XXI asr insoniyat tarixida texnologik uyg‘onish davri sifatida namoyon bo‘ldi. Bu jarayon jamiyatning barcha qatlamlariga, ayniqsa yosh avlod tafakkuriga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt, raqamli moliya tizimlari, kriptovalyuta bozorlari, elektron savdo maydonlari, onlayn ta’lim tizimlari hamda virtual ijtimoiy muhitlar insonning iqtisodiy xulq-atvori, qadriyat tizimi va ijtimoiy moslashuv mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, “raqamli iqtisodiyot davrida yoshlarning iqtisodiy tafakkuri evolyutsiyasi” masalasi nafaqat iqtisodiy, balki falsafiy, ijtimoiy va madaniy tahlilni talab qiluvchi kompleks ilmiy muammodir. Xususan, yoshlarning iqtisodiy tafakkuri — ularning dunyoqarashi, iqtisodiy qaror qabul qilishdagi yondashuvlari, raqamli iqtisodiy muhitda harakat strategiyalari, shuningdek, yangi iqtisodiy qadriyatlarni idrok etish mexanizmlarini o‘zida mujassam etgan kognitiv tizim sifatida qaralmoqda. Iqtisodiy tafakkur evolyutsiyasi jarayoni ijtimoiy-falsafiy nuqtayi nazardan insonning iqtisodiy ongida yuz berayotgan paradigmatik o‘zgarishlarni anglash imkonini beradi. An’anaviy iqtisodiy tafakkurda inson iqtisodiy sub’ekt sifatida ishlab chiqarish va iste’mol tizimlarida o‘z rolini ijtimoiy mehnat orqali belgilagan bo‘lsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida u virtual muhitda, algoritmik tizimlar, ma’lumotlar bazalari va platformaviy iqtisodiyot orqali iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradi [1]. Shu bois, zamonaviy yoshlar ongida iqtisodiy tafakkur endilikda an’anaviy “mehnat–daromad–iste’mol” uchligi asosida emas, balki “ma’lumot–algoritm–raqamli kapital” uchligi asosida shakllanmoqda. Raqamli tafakkur va iqtisodiy tafakkur o‘rtasidagi integratsiya fenomeni yangi avlodning ijtimoiy o‘zlik anglash jarayoniga ham ta’sir qilmoqda. Yoshlar iqtisodiy resurslarni, ish o‘rinlarini, daromad manbalarini endilikda raqamli muhitda izlamoqda. Ularning iqtisodiy qarorlari tezkor axborot almashinuvi, sun’iy intellekt tomonidan tahlil qilingan ma’lumotlar va algoritmik tavsiyalar asosida shakllanmoqda. Bu holat iqtisodiy tafakkurning subyektiv tabiatini o‘zgartirib, uni tarmoq orqali bog‘langan, kollektiv raqamli ongning tarkibiy qismiga aylantirmoqda. Natijada iqtisodiy tafakkur individual kognitiv jarayondan ko‘ra ko‘proq tizimli, sun’iy intellekt bilan o‘zaro aloqador, “tarmoqli tafakkur” sifatida namoyon bo‘lmoqda. Raqamli iqtisodiyot davrida yoshlarning iqtisodiy tafakkuri faqat yangi texnologiyalardan foydalanish qobiliyati bilan belgilanmaydi. Aksincha, bu tafakkur turining asosiy mohiyati shundaki, u yangi iqtisodiy voqelikni idrok etish, uni baholash, unga mos qaror qabul qilish va shu jarayon orqali shaxsiy va ijtimoiy manfaatni uyg‘unlashtirish imkoniyatini beradi. Yoshlarning iqtisodiy tafakkuri, demakki, ularning iqtisodiy identikligi, iqtisodiy qadriyat tizimi va iqtisodiy xulq-atvor madaniyatini belgilovchi muhim indikator sifatida namoyon bo‘ladi[2]. Bugungi globallashuv sharoitida iqtisodiy tafakkur evolyutsiyasi uch asosiy yo‘nalishda kechmoqda: birinchidan, iqtisodiy bilimlarning democratlashuvi, ya’ni raqamli texnologiyalar orqali har bir inson uchun iqtisodiy ma’lumotlarga erkin kirish imkoniyatining kengayishi; ikkinchidan, iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayonining avtomatlashtirilishi, sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilayotgan iqtisodiy modellar orqali inson tafakkurining algoritmik tizimlarga singib borishi; uchinchidan, iqtisodiy qadriyatlar transformatsiyasi, ya’ni moddiy farovonlikdan ko‘ra raqamli kompetensiya, axborot egaligi va texnologik imkoniyatlarga egalik asosiy kapital shakliga aylanib borayotganidir. Shu jihatdan raqamli iqtisodiyot davrida iqtisodiy tafakkur “yangi kapitalizm”ning ideologik asosini tashkil etuvchi g‘oyaviy-kognitiv tizimga aylanmoqda[3]. Raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos xususiyati — bu tezkorlik, tarmoqdagi o‘zaro aloqadorlik va ma’lumot oqimlarining uzluksizligi. Shunday sharoitda yoshlarning iqtisodiy qarorlari bevosita algoritmik model va tarmoq logikasiga asoslanadi. Masalan, elektron to‘lov tizimlaridan foydalanish, kriptovalyutalarda investitsiya qilish, onlayn freelancing, startap iqtisodiyoti, raqamli kontent ishlab chiqarish kabi faoliyat turlari yoshlar iqtisodiy tafakkurini “raqamli amaliyot” darajasiga olib chiqdi. Endilikda iqtisodiy tafakkur nafaqat nazariy tushunchalar majmui, balki raqamli faoliyatning amaliy ifodasi sifatida ham mavjuddir. Shu nuqtada falsafiy muammo yuzaga chiqadi: iqtisodiy tafakkur raqamli muhitda insonning subyektivlik darajasini oshiradimi yoki uni algoritmik tizimlarning bir bo‘lagi sifatida ob’yektivlashtiradimi? Mazkur savol zamonaviy iqtisodiy falsafaning markaziy polemikasiga aylangan. Chunki raqamli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy jarayonlarni soddalashtiradi, balki inson tafakkurining o‘zini ham algoritmlashtiradi. Inson endilikda qaror qabul qiluvchi emas, balki ma’lumot

oqimini qayta ishlovchi tizimning bir zarrasi sifatida namoyon bo‘lmoqda[4]. Shu sababli iqtisodiy tafakkur evolyutsiyasi masalasi – bu aslida inson tafakkurining texnologik determinizm bilan o‘zaro kurash jarayonidir. Yoshlarning iqtisodiy tafakkuri raqamli davrda yangi bilim turlari, kognitiv kompetensiyalar va ijtimoiy moslashuv shakllarini talab qilmoqda. Endilikda iqtisodiy ong an’anaviy bilim manbalaridan ko‘ra algoritmik tavsiyalar, raqamli tahlil tizimlari, sun’iy intellekt vositalari orqali shakllanmoqda. Bu esa inson tafakkurida iqtisodiy voqelikni idrok etish mexanizmlarining o‘zgarishiga, ya’ni epistemologik darajada yangi tafakkur paradigmasining paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. O‘zbekiston sharoitida bu jarayon ayniqsa dolzarbdir[5].

Adabiyotlar tahlili. Leshkova O.V. va Shimolina M.V.ning “Unsustainable youth employment in the digital economy: Cognitive dissonance and social mechanisms of adaptation” nomli maqolasida rus yoshlarining raqamli iqtisodiyot muhitida mehnat va iqtisodiy xulq-atvorida yuzaga kelayotgan ziddiyatli holatlar (kognitiv dissonans) tahlil qilinadi. Ularning tadqiqoti bo‘yicha, yoshlar platforma asosida ishlashni (freelancing, yetkazib berish xizmati, taksi va h.k.) tanlasalar-da, bu tanlovlar ular uchun doimiy daromad, ijtimoiy kafolatlar va barqarorlik masalasida noaniqliklar tug‘diradi[6].

Metodologik qism. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlarning iqtisodiy tafakkurini o‘rganishda tizimli, sotsiologik, kognitiv-falsafiy va komparativ (taqqoslama) tahlil metodlari kompleks tarzda qo‘llanildi. Metodologik yondashuvning mohiyati shundaki, iqtisodiy tafakkur evolyutsiyasini o‘rganish uchun insonning kognitiv faoliyati, ijtimoiy moslashuvi va iqtisodiy qaror qabul qilish jarayonlarini integrativ tarzda tahlil etish zarur. Shu bois tadqiqotda bir nechta ilmiy paradigmalar o‘zaro uyg‘unlashtirildi. Birinchidan, **tizimli yondashuv** iqtisodiy tafakkurni ijtimoiy tizimning tarkibiy elementi sifatida o‘rganish imkonini berdi, ya’ni raqamli iqtisodiyot mexanizmlari (ma’lumot oqimi, algoritmik boshqaruv, raqamli platformalar) va inson tafakkuri o‘rtasidagi uzviy aloqadorlik ochib berildi. Ikkinchidan, **sotsiologik yondashuv** orqali yoshlarning iqtisodiy qarorlari va iqtisodiy qadriyatlari raqamli ijtimoiy muhitda qanday shakllanishi, ularning raqamli iqtisodiy identikligi va iqtisodiy motivatsiya tizimi empirik tahlilga tortildi. Uchinchidan, **kognitiv-falsafiy tahlil** yordamida iqtisodiy tafakkurning epistemologik mohiyati – ya’ni insonning raqamli iqtisodiy voqelikni idrok etish mexanizmlari, ong va algoritmik tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir, iqtisodiy ongning texnologik determinizm bilan munosabati tahlil qilindi. To‘rtinchidan, **komparativ metod** yordamida O‘zbekiston sharoitida shakllanayotgan raqamli iqtisodiy tafakkur modeli Rossiya, Janubiy Koreya, va Yevropa davlatlari tajribalari bilan qiyoslab o‘rganildi, bu esa milliy iqtisodiy tafakkurning raqamli transformatsiyaga moslashuv darajasini aniqlash imkonini berdi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot davrida yoshlarning iqtisodiy tafakkuri evolyutsiyasi chuqur ijtimoiy, kognitiv va texnologik o‘zgarishlar jarayonining murakkab sintezini aks ettiradi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, iqtisodiy tafakkur endilikda an’anaviy iqtisodiy bilimlar tizimidan chiqib, raqamli texnologiyalar, algoritmik tahlil, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (big data) bilan ishlashga asoslangan yangi intellektual paradigmaga o‘tmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ergashbayev, S. (2025). Yoshlarning ma’naviyat dunyoqarashini rivojlantirishda uzluksiz ta’lim.
2. Istamkulovich B. (2025). Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatida yoshlar iqtisodiy madaniyatining transformasiyalashuvi. Innuc, 1(1), 126-130.
3. Sh, e. (2025). Developing the spiritual worldview of young people through the continuous education system in Uzbekistan. Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами, 1(1), 314-316.
4. Karamatova,D., & Ravshanova, M. (2025). Yoshlarning iqtisodiy tafakkurini rivojlantirishda iqtisodiy ta’lim-tarbiyaning o ‘rni. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 4(5), 69-73.
5. Ergashbayev,S. (2025). Philosophical foundations of the integration of education and upbringing in the development of youth’s spiritual outlook. Shokh library, 1(10).

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 681.142.371:12

ЁШЛАРДА ЁТ ҒОЯЛАРГА ҚАРШИ МАФКУРАВИЙ ИММУНИТЕТНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЗАРУРАТИ

Маджидов Азим Каххарович,
Термиз давлат педагогика институти ўқитувчиси

НЕОБХОДИМОСТЬ ФОРМИРОВАНИЯ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ ПРОТИВ ЧУЖЫХ ИДЕЙ

Маджидов Азим Каххарович,
преподаватель Термезского государственного педагогического института

THE NECESSITY OF DEVELOPING IDEOLOGICAL IMMUNITY AMONG YOUTH AGAINST ALIEN IDEAS

Madjidov Azim Khakhkharovich,
Lecturer at Termez State Pedagogical Institute

e-mail:
azim.majidov@mail.ru
https://orcid.org/0009-0008-3711-4518

Аннотация: *Мазкур мақолада термизий алломаларнинг фикрлари, уларнинг маънавий-тарбиявий таъсири, ёшлар онгида мафкуравий иммунитетни шакллантириш бўйича педагогик жиҳатлар таҳлил қилинади. Шунингдек, мақолада мафкуравий иммунитет орқали инсоннинг руҳий, ахлоқий ва маънавий жиҳатлари қандай ривожланиши ҳам ёритилган бўлиб, бунда устозларнинг ўрни муҳим эканлиги таъкидланган. Мақола доирасида олиб борилган тадқиқот натижалари мафкуравий иммунитет тушунчасини кенгроқ идрок этиш, уни шакллантириш мезонларини англаш ҳамда мактабда, маҳаллада ва оилада таълим-тарбия бериш асосида нималарга эътибор қаратиш зарурлигини кўрсатади.*

Калит сўзлар: *мафкуравий иммунитет, илмий-маънавий мерос, термизий алломалар, идрок этиш, жаҳолат ва маърифат, нафс, илм, таълим-тарбия, зулмат, "Сунани Термизий", жамият ва мафкура.*

Аннотация: *В данной статье анализируются взгляды термезских учёных, их духовно-воспитательное влияние, а также педагогические аспекты формирования идеологического иммунитета у молодёжи. Кроме того, в статье раскрывается, каким образом через идеологический иммунитет развиваются духовные, нравственные и моральные качества человека, при этом подчёркивается важная роль учителей. Результаты проведённого в рамках статьи исследования показывают необходимость более глубокого понимания понятия «идеологический иммунитет», осмысления критериев его формирования, а также указывают на то, на что следует обратить внимание в процессе воспитания и обучения в школе, махалле и семье.*

Ключевые слова: *идеологический иммунитет, научно-духовное наследие, термезские учёные, осознание, невежество и просвещение, эго (нафс), знание, образование и воспитание, мрак, «Сунан Тирмизи», общество и идеология.*

Annotation: *This article analyzes the views of Termez scholars, their spiritual and educational influence and the pedagogical aspects of developing ideological immunity among young people. Furthermore, the article highlights how a person's spiritual, moral and ethical qualities develop through ideological immunity, emphasizing the important role of teachers in this process. The results of the research conducted within the scope of the article demonstrate the need for a deeper understanding of the concept of*

"ideological immunity", comprehension of the criteria for its formation and attention to the key factors to be considered during education and upbringing in schools, neighborhoods and families.

Key words: *Ideological immunity, scientific and spiritual heritage, Termez scholars, comprehension, ignorance and enlightenment, ego (nafs), knowledge, education and upbringing, darkness, "Sunan Tirmidhi", society and ideology.*

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Бугунги кунда глобал ахборот ҳамда интернет майдони орқали ёшлар онгига турли ёт мафкуралар, экстремистик ва радикал ғоялар кириб келиши хавфи кучаймоқда. Шу муносабат билан ёшларимизда ёт ғояларга қарши мафкуравий иммунитетни шакллантириш муҳим вазифага айланди. Бу эса, ўз навбатида, мамлакатимизда бу борада тегишли чоралар кўрилишини тақазо қилди.

Ўтган давр мобайнида ёшларда мафкуравий иммунитетни шакллантириш учун бир қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда. Шулар қаторида Ўзбекистонда маънавият ҳамда илм-тарбия соҳасида аждодларимиз, хусусан, ҳадис илми, фиқҳ, тилшунослик, тасаввуф йўналишларида ижод қилган термизий алломалар илмий мероси бугунги кун учун ҳам ички ва ташқи хавфларга қарши ҳимоя манбаи сифатида кўрилмоқда. Бунда, албатта, давлатимиз раҳбари Ш.Мирзиёев ташаббуслари билан ташкил этилган Имом Термизий, Имом Бухорий, Имом Мотуридий халқаро ва Баҳоуддин Нақшбанд илмий-тадқиқот марказлари, Ислом цивилизацияси маркази фаолиятлари муҳим аҳамият касб этади. Жумладан, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида" 2017 йил 14 февралдаги ПҚ-2774-сон қарорида "турли мафкуравий хуружлар авж олаётган бугунги кунда аждодларимизнинг маънавий меросини чуқур ўрганиш, улардаги эзгу ғоя ва таълимотларни кенг халқ оммасига етказиш ва шу асосда ёшларда соғлом дунёқарашни кучайтириш, уларни азалий қадриятларга содиқлик руҳида тарбиялаш" [1] Марказнинг асосий вазифаларидан бири сифатида таъкидланган.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). "Мафкуравий иммунитет" тушунчаси педагогика ва маънавият соҳасида ёшларнинг турли ғоявий ҳужумлардан ҳимояланиши, танқидий тафаккурга эга бўлиши ҳамда миллий-маънавий қадриятларга содиқ қолиши маъносида қўлланади.

"Термизий алломалар" атамаси билан Сурхондарё вилоятининг ҳозирги Термиз шаҳрида ёки шаҳарнинг атрофида, шунингдек, вилоят ҳудудида етишган ва "Термизий" тахаллуси билан танилган ёхуд ушбу ҳудудда яшаб ўтган ҳадис, фиқҳ, тасаввуф, тилшунослик соҳаларида ижод қилган олимларни тушуниш мумкин [2].

Улар қолдирган илмий мерос нафақат илмий жиҳатдан, балки маънавий, ахлоқий ва ижтимоий жиҳатдан ҳам бойлиги билан ўзига хос хусусият касб этади. "... кўҳна тарих китобининг қай бир саҳифасини варақламанг бу қутлуғ заминдан етишиб чиққан ўнлаб, юзлаб олиму уламолар, фозилу фузалоларнинг ат-термизий нисбаси билан аталган табаррук номларини учратишимиз" [3] шубҳасиз. Қолаверса, тадқиқотлар натижасида бугунги кунда "бу диёрдан Термизий тахаллуси билан ижод қилган 200 дан ортиқ аллома" номи маълум. Шулардан машҳур аллома Абу Исо Термизий (824-892) ҳадис илмидаги муҳим асарлардан бири "Сунани Термизий" асари билан мусулмон оламида танилган.

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Шу ўринда айрим термизий алломаларнинг жаҳолат ва маърифат ўртасидаги "кураши"га доир фикрлари бўйича тўхталсак. Жумладан, Ҳаким Термизий "Жаҳолат нафс хусусияти бўлиб, у зулматдир" – деганлар. Яъни алломанинг мазкур фикрларидан инсон ўз нафсини идора қилмаса, нафс истакларини ўз ҳолига қўйиб қўйса, у, албатта, жаҳолатга етакловчи омил эканлигини, жаҳолат эса зулматга олиб борувчи восита ҳисобланишини талқин этиш мумкин [4].

Айнан бугунги кунда ёшларни турли ёт ғоялардан ҳимоя қилишда мафкуравий иммунитетга алоҳида урғу берилар экан, бунда таълим ва тарбия муҳим аҳамият касб этади.

TAMADDUN NURI

Инсоннинг илм орқали Борлиқ ҳақиқатини англаши – бу маърифатга қўйилган илк қадам. Ёшларнинг ўз даврида ҳам, бугунги кунда ҳам аҳамиятли илмий-маънавий мерос қолдирган улуғ алломалар ҳаёти ва уларнинг асарларини ўрганиши уларда маънавий бойликнинг ортишига хизмат қилади. Бу борада Абу Исо Термизий – Имом Термизий "Маърифат инсоннинг асосий бойлигидир!" – дея ўгит бериб кетгани бежиз эмас.

Табиийки, маърифатга етакловчи илм устоз томонидан берилади. Шу боис бугун ёшларимизни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялашда устозларга ҳам катта масъулият юкланади. Буюк термизий алломаларимиздан бири Бурҳониддин Термизий устоз шахсиятига улуғ таъриф бериб, ёшлар – шогирдларни унга итоат этишга чақиради. Жумладан, аллома "Муаллим ойна каби, сен унга эргаш, унга ўзингни ҳадя эт ва у ҳам сенга ўша қадар илтифот кўрсатади" [3]. Бурҳониддин Термизийнинг юқоридаги фикрлари бугунги кун учун ҳам ўта долзарб бўлиб, давлат сиёсати даражасига кўтарилган масалалардан бири ҳисобланади. Маълумки, мамлакатимизда ўқитувчи ва мураббийларни ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш борасида изчил ислоҳотлар олиб борилмоқда. Мафкуравий иммунитетни шакллантиришнинг долзарблиги хусусида Бурҳониддин Термизийнинг "Агар сиз ҳеч нарсани билмасангиз ҳам ўзингизни яхши билсангиз, у вақтда сиз олим ва орифсиз" – деган фикрлари ҳар бир инсонни, ҳар бир тадқиқотчини чуқур тафаккур қилишга ундаши шубҳасиз. Чунки инсон ўзини англаш билан у ўзлигини англайди, Борлиқни идрок этади, халқ тили билан айтганда, "оқ билан қорани ажрата олади". Айнан мафкуравий иммунитетни шакллантиришда ўз ва ўзликни англаш бирламчи аҳамият касб этади [2].

НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Термизий алломаларнинг мероси таҳлил қилинганда, қуйидаги жиҳатлар ажралиб чиқишини кузатимиз мумкин:

Илм-тарбия йўналишида: алломалар ҳадис, фиқҳ, тилшунослик, тасаввуф каби соҳаларда етук билим ва асарлар яратган.

Уларнинг мазкур асарлари шахс камолотида, хусусан, ёшларни турли ёт ғоялардан ҳимоя қилишда, ислом динининг соф ғояларини тўғри талқин этишда яқиндан кўмак бериши билан характерлидир;

Маънавий-ахлоқий йўналишда: алломаларнинг ибратли ҳаёти ва эзгу ғоялари ёшлар тарбиясида муҳим манба бўлиши мумкин. Уларнинг бой маънавий меросидаги инсонпарварлик, маърифатпарварлик, халқпар-варлик ва ватанпарварлик ғоялари миллий ва диний қадриятларни чуқур англашда, Борлиқни идрок этишда асосий восита бўлиб хизмат қилади;

Жамият ва мафкура жиҳатидан: маънавий мерос ёшлар ва жамиятни ножўя таъсирлардан ҳимоя қилишда восита бўлиши мумкин. Хусусан, даврнинг турли фитна ва ихтилофларига барҳам беришда, жаҳолатга қарши маърифат билан курашишда, экстремизм, сепаратизм ва мутаассиблик ғоялари таъсирига тушиб қолишнинг олдини олишда, шунингдек, шахсни соғлом ҳаётга қайтаришда алломалар илмий меросини ўрганиш самарали натижа бериши шубҳасиз.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Юқоридагилардан англаш мумкинки, термизий алломаларнинг мероси фақат тарихий ҳодиса эмас, балки бугунги кун учун ҳам амалий аҳамиятга эга бўлган "мафкуравий иммунитет"-ни шакллантириш манбаси сифатида кўрилиши мумкин.

Адабиётлар рўйхати (Использованная литература / References):

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 14.02.2017 йилдаги ПҚ-2774-сонли "Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот марказини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарори.
2. Термизий, Абу Абдуллоҳ муҳаммад ибн Али Ҳаким. Муҳаммад Ҳаким Термизий рисолалари: Ҳаким Термизий ишининг бошланиши (Будувву шаън Абу Абдуллоҳ Муҳаммад Ҳаким Термизий). "Movarounnahr" нашриёти. Тошкент – 2008. – 151 б.
3. Уватов У. Икки буюк донишманд (Абу Исо ат-Термизий, Ал-Ҳаким ат-Термизий). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – 112 б.
4. Уватов У. Имом Термизий. – Тошкент: "Shamsiddinxon Boboxonov", 2021. – 104 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK:1:111:378 (575.3)

O‘ZBEK MA’NAVIY MAKONINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA NAMOYON BO‘LISH JIHATLARI

Mamatkulov Eldor Safarovich,
Termiz davlat universiteti Falsafa kafedrasi o‘qituvchisi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

УНИКАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ И ПРОЯВЛЕНИЯ ДУХОВНОГО ПРОСТРАНСТВА УЗБЕКИСТАНА

Маматкулов Элдор Сафарович,
Преподаватель кафедры философии Термезского государственного университета, доктор философии (PhD) по философским наукам

THE UNIQUE FEATURES AND MANIFESTATIONS OF THE SPIRITUAL SPACE OF UZBEK

Eldor Safarovich Mamatkulov,
Lecturer at the Department of Philosophy, Termez State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences

E-mail: mamatkulov@tersu.uz
Orcid: 0009-0002-7284-8978

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘zbekiston ma’naviy makonining shakllanishi, uning tarixiy-madaniy ildizlari va zamonaviy jamiyatdagi namoyon bo‘lish jihatlari tahlil qilinadi. Milliy qadriyatlar, diniy-ma’rifiy meros, urf-odatlar hamda ijtimoiy ongda shakllanadigan ma’naviy tamoyillar o‘zaro uyg‘unlikda ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda o‘zbek xalqining ma’naviyati jamiyat taraqqiyoti va shaxs kamolotiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida baholanadi.*

Kalit so‘zlar: *ma’naviy makon, qadriyatlar, ma’naviyat, meros, jamiyat, an’ana, falsafa.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются особенности формирования духовного пространства Узбекистана, его историко-культурные корни и современные формы проявления в обществе. Анализируются национальные ценности, религиозно-просветительское наследие, традиции и духовные принципы, формирующие общественное сознание. Духовность узбекского народа оценивается как важный фактор развития общества и совершенствования личности.*

Ключевые слова: *духовное пространство, ценности, духовность, наследие, общество, традиции, философия.*

Abstract: *This article examines the formation of Uzbekistan’s spiritual space, its historical and cultural foundations, and its modern manifestations in society. National values, religious-educational heritage, traditions, and spiritual principles shaping social consciousness are analyzed. The spirituality of the Uzbek people is assessed as an important factor influencing societal development and personal growth.*

Key words: *spiritual space, values, spirituality, heritage, society, tradition, philosophy.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga ko‘ra, islohotlar yangi ma’naviy makonni yaratish salmog‘ini to‘la tushunish uchun bugungi kunda tobora globallashib borayotgan dunyoning misli ko‘rilmagan sur’atlar bilan keskin o‘zgarib borayotgani, yangi jarayonlar ro‘y berayotganiga alohida e’tibor berish zarurati paydo bo‘lmoqda. Jamiyatimizdagi tinchlik va barqarorlik, islohotlar kelajagi va taqdiri uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bunday murakkab vaziyatda xalqimizni zararli va buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan asrash hozirgi davrimizning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylangani shubhasiz. Bularning barchasi, bugungi

kunda yurtimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek ezgu maqsadni izchil amalga oshirishga qaratilgan Yangi O‘zbekiston - 30 strategiyasi hozirgi davr talabi va taqozosi, jamiyatimizning rivojlanish omillari va tamoyillarini belgilaydigan faoliyat dasturiga aylanganidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Prezidentimizning Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining 2023-yil 22-dekabrida bo‘lib o‘tgan majlisdagi ma’ruzasi esa ana shu yo‘nalishdagi faoliyatning joriy yillardagi dolzarb vazifalarini aniq-tiniq belgilab berilgan hujjat sifatida hozirgi kunlardagi ishlarimizning samarali amalga oshishini ta’minlash mezoni sifatida nihoyatda katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Prezident ma’ruzasining “Ma’naviyat hayotimizda yangi kuch, yangi harakatga aylanishi kerak» deb nomlangani aslo bejiz emas va bu mazkur hujjatning nafaqat bugungi kun, balki kelajakka ham yo‘nalganini anglatadi. Ayni paytda bu, ma’ruzaning kelgusi yillardagi faoliyat uchun ham tayanch hujjatlardan biri sifatidagi ahamiyatini yanada oshiradi [1].

Chunki, bugungi kunda mazkur yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ushbu sohaning maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli ishlar bilan bog‘liq faoliyat samardorligini ta’minlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). 2023-yilda Toshkent shahrida “Jadidlar: milliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya yuqori saviyada o‘tkazildi. Buyuk ma’rifatparvar ajdodlarimizning merosini xalqimizga yanada kengroq tanishtirish maqsadida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidlar merosi davlat muzeyi barpo etilmoqda, “Jadid” deb nomlangan yangi gazeta va uning elektron versiyasi tashkil qilindi. Zamonaviy adabiyotimizni rivojlantirish maqsadida poytaxtimizda Adiblar xiyoboni, Yozuvchilar uyushmasining muhtasham binosi, yangi ijod uylari barpo etildi. Bularning barchasi “Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi – ma’naviyatdir” degan tamoyil asosida amalga oshirilayotganining yaqqol isbotidir. Ayni paytda mazkur yo‘nalishdagi ishlarning mazmun-mundarijasini tubdan yaxshilash, ushbu sohaning maqsadi va mohiyatini belgilaydigan tizimli ishlar bilan bog‘liq faoliyat samardorligini ta’minlash nihoyatda muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda [2].

Qonun ijodkorligi bilan bog‘liq yo‘nalishdagi ishlarni tizimli tashkil etish zarurati shundaki, davlat siyosati, uning har bir yo‘nalishi qonunlarga tayanishi, bu borada ham huquqiy asoslarning mustahkam bo‘lishi zarurligi davlatchilik tarixida isbotlangan aksiomalardan biridir.

Shunday ekan, bugungi kunda ma’naviyat sohasida ham qonun ijodkorligini kuchaytirish, O‘zbekiston Respublikasining ma’naviyat sohasidagi siyosatining asoslariga doir “Ma’naviyat va ma’naviy faoliyat to‘g‘risida” qonunni ishlab chiqish davrimizning eng muhim va obyektiv zaruratlaridan biriga aylandi. Ayni paytda, bu borada ushbu qonun davlat siyosatining bu jabhadagi faoliyati, yangilanishlar va hatti-harakatlar strategiyasining huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashini ham hisobga olish darkor [3].

O‘z navbatida bu, “Yangi O‘zbekiston jamiyatining axloq kodeksini”ni ishlab chiqish va uni amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko‘rish lozimligidan dalolat beradi. Ayni paytda bunday kodeks yaratilishi O‘zbekistonda ham BMT tomonidan qabul qilingan 5 ta axloq kodeksiga mos ravishda faoliyat boshlanganini anglatadi.

O‘zbekisto Respublikasi Prezidenti o‘z ma’ruzasida “Biz hozirgi keskin sharoitda g‘oyaviy-mafkuraviy sohada raqobatga tayyormizmi? Yosh avlodimiz tarbiyasi murakkab zamon talablariga javob beryaptimi? degan savollar, “ma’naviyat va madaniyat sohasidagi ishlarimiz uchun metodi asos bo‘lib xizmat qiladigan milliy g‘oyamizni rivojlantirish bo‘yicha dasturiy hujjat ishlab chiqish” bilan bog‘liq masalalarga alohida e’tibor qaratilgani ham aslo bejiz emas.

Negaki, bugungi kunda radikalizm, terrorizm, uyushgan jinoyatchilik, aqidaparastlik, «ommaviy madaniyat», narkobiznes kabi tahdidlarga qarshi kurash olib borish o‘tkir zaruratga aylandi. Shu bilan birga, aholi, ayniqsa yoshlarimizni turli buzg‘unchi g‘oyalar ta’siridan asrash, ma’naviy barkamol, yetuk ziyoli va tahdidbardosh avlodni tarbiyalash vazifalari ham nihoyatda dolzarblashdi. Ushbu yo‘nalishda Milliy g‘oyani rivojlantirishning reideologik konsepsiyasi va uni amalga oshirishga doir Milliy harakat dasturini ishlab chiqish zarurati ham ana shu obyektiv ehtiyoj bilan belgilanadi [4].

TAMADDUN

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida ta’kidlangani kabi: “insoniyat dunyosining o‘ziga xos bir yoritqichi – “ma’naviyat chirog‘i” bor... O‘zbekistonning yangi uyg‘onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma’naviyat chirog‘i yonishi va u bizni ezgu amallarga undab, doimo mas’uliyat tuyg‘usini uyg‘otib turishi zarur...”.

Ma’naviyat chirog‘i nafaqat inson qalbi, balki ong-u shuurini ham yoritib turadi, vijdonini uyg‘otadi, yashashdan maqsadi va o‘zligini anglashga yordam beradi. U insonni tarixni o‘rganishga, ota-bobolarining kimligini bilishga va ularga munosib bo‘lishga, xalq va Vatan taqdiri uchun qayg‘urishga, kelajak haqida o‘ylashga va shu yo‘lda ishlashga undaydi.

Bu jihatdan, Vatanimiz tarixida tub burilish yasalayotgan hozirgi davrda har bir yurtdoshimiz yuragida ana shunday ma’naviyat chirog‘i porlab turishiga erishish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayni paytda u hammamizni ezgu niyatlar va amallarga undab, qalbimizda el-yurt va xalq taqdiri uchun mas’uliyat hissini mustahkamlash uchun harakat qilishimiz zaruriyatini bugungi davr talabiga aylantirdi [5].

“Dunyoda hech qachon bir xil tong otgan emas”. Mazkur ibora paydo bo‘lganidan buyon ming yillar o‘tdi. Bu – butun koinot, tabiat va bashariyat doimiy o‘zgarishda, yangilanishda, deganidir. Darhaqiqat, insoniyat ham ana shu azaliy qonuniyat asosida yashaydi va hayot kechiradi. Har qanday yangilanishning mazmun-mohiyati, namoyon bo‘lish xususiyati shunday”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” nomli fundamental asari ana shu fikr bilan boshlanadi va u jamiyat hayotining barcha sohalari kabi, mamlakatimizda keyingi yillarda ro‘y berayotgan ma’naviy yangilanish dialektikasini to‘g‘ri tushunish, uning harakatlantiruvchi kuchlari, omillari va bugungi kundagi odimlarining falsafiy mohiyati va ahamiyatini chuqur anglashning metodologik asoslarini belgilaydi.

Bizda ayrim falsafiy tushunchalar, xususan “dialektika” kabi atamalardan faqat ilmiy asarlarda foydalangan ma’qul, ommaviy axborot vositalari, ayniqsa gazeta maqolalarida bundan tiyilish abzal, degan bir tomonlama tushunish shakllangan. Bunday yondashuvning ma’naviy kemtikligi shundaki, u “Xalq ommasi ilmiy atamalar ma’nosini yaxshi tushunmaydi, shuning uchun ommaviy axborot vositalarida nihoyatda sodda va jaydari tildan foydalangan ma’qul” degan bahsli qarashga asoslanadi. Aynan ana shunday qarashning ma’naviy hayotda ildiz otishi va keng yoyilishi o‘tgan o‘n yilliklarda ba’zi nashrlarning ilmiy jamoatchilik e’tiboridan qolishi, ko‘plab olimlar va mutaxassislarning tahririyatlardan oyog‘ini uzib qo‘yishiga sabab bo‘ldi [6].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). So‘z millatimiz xususiyatlari haqida borar ekan, shuni aytish kerakki, millatlar ham xuddi inson kabidir – har bir millatning qator ijobiy xislatlari va xususiyatlari bor. Ayni paytda, uning kamchilik va nuqsonlari ham mavjud. O‘z millati uchun jon kuydiruvchi kishi o‘z millatining yutuq va tarixiy xizmatlaridan faxrlanadi, ammo har qadamda unga tanqidiy ko‘z bilan boqib, undagi illatlarni tozalashga, nuqsonlarni bartaraf etishga chaqiradi. Bu jarayonda faol qatnashadi va shu yo‘lda o‘z millatining rivojlanishini tezlashtiradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Abdumalikov A. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish sharoitida shaxs informatsion madaniyatini shakllantirish: falsafa fan doktori (PhD) diss. – T., 2017.
2. Bekmurodov Mansur. O‘zbek mentaliteti. – T.: Yangi asr avlodi, 2004.
3. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
4. Rustamova M. Yoshlarda yangicha tafakkur madaniyatini shakllantirishning falsafiy jihatlari. - Toshkent : Mehnat, 2010. - 19 b.
5. Tashanov A. Buzg‘unchi g‘oyalarning milliy o‘zlikni anglashga salbiy ta’siri. Falsafa fan. dokt. ...diss. – T.: 2017.
6. Abilov O‘. O‘zbekiston taraqqiyotining optimistik ruhi: ma’naviy-mafkuraviy, g‘oyaviy jihatlari. – T.: Istiqlol, 2013. – 207 b.
7. Современное образование как открытая система (под ред. Н.Г. Ничкало, Г.Н. Филонова, О.В. Суходольской-Кулешов ой). Институт научной и педагогической информации РАО., “ЮРКОМПАНИ”, 2012.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK: 821.109.0114

LINGVOPOETIK TAHLILNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sobirov Anvar Kuvandikovich, *Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi direktori, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

ОСОБЕННОСТИ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКОГО АНАЛИЗА

Собиров Анвар Кувандикович, *Директор Самаркандского областного центра педагогического мастерства, доктор филологических наук (PhD) по филологии*

SPECIFIC FEATURES OF LINGUO-POETIC ANALYSIS

Sobirov Anvar Kuvandikovich, *Director of the Samarkand Regional Center for Pedagogical Excellence, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences*

E-mail: anvarsobirov@gmail.com
Orcid: 0009-0000-8304-4743

Annotatsiya: *Maqolada badiiy matnni tahlil qilish usullari va ularni o‘rganuvchi lingvopoetika fanining paydo bo‘lishi, boshqa fanlar bilan aloqasi, ushbu fanning maqsad va vazifalari o‘rganilgan. Bundan tashqari, til birliklari tahliliga semantik yoki metasemiotik nuqtayi nazardan yondoshilishidan qat’iy nazar so‘z tartibi ikkala jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi, negaki tahlilga tortilayotgan so‘zlarning o‘rni ham uning mazmunini belgilab berishi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *lingvopoetika, lingvostilistika, tilshunoslik, adabiyotshunoslik so‘z tartibi, sintaksis, semantik yoki metasemiotik yondoshuv, badiiy asar tili.*

Аннотация: *В статье исследуются методы анализа художественного текста и становление науки лингвопоэтики, её связь с другими науками, а также цели и задачи данной дисциплины. Кроме того, независимо от того, применяется ли семантический или метасемиотический подход к анализу языковых единиц, порядок слов имеет важное значение, так как показано, что положение слов, подвергающихся анализу, определяет их смысл.*

Ключевые слова: *лингвопоэтика, лингвостилистика, языкознание, литературоведение, порядок слов, синтаксис, семантический или метасемиотический подход, язык художественного произведения.*

Abstract: *The article examines methods of analyzing literary texts and the emergence of the science of linguopoetics, its connections with other disciplines, as well as the goals and objectives of this field. Furthermore, regardless of whether a semantic or metasemiotic approach is applied to the analysis of linguistic units, word order plays an important role, as it has been demonstrated that the position of the words under analysis also determines their meaning.*

Key words: *linguopoetics, linguistic stylistics, linguistics, literary studies, word order, syntax, semantic or metasemiotic approach, language of a literary work.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Badiiy asarlar tilini o‘rganish mamlakatimizda ham, chet elda ham ko‘plab tadqiqotchilarning ishlarida muammo sifatida qayd etilgan. Ular badiiy matnni tahlil qilishning turli usullarini ishlab chiqadilar, ular orasida ikkita asosiy yondashuvni ajratib ko‘rsatish mumkin: lingvistik va adabiy.

Lingvistik usul uchun tadqiqotning boshlang‘ich nuqtasi tildir, matn esa umumiy til qonuniyatlarining namoyon bo‘lishi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

Adabiy usul matnni boshlang‘ich nuqtasi sifatida tanlaydi va til tahlil qilish uchun yordamchi material bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, badiiy asarlar tilini o‘rganish filologiyaning tilshunoslik va adabiyotshunoslikka bo‘linishini va shunga mos

ravishda stilistikani filologiya sohasi sifatida lingvistik va adabiy stilistikaga bo‘linishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). V.Vinogradovning asarlarida alohida filologiya fanini – badiiy adabiyot tili fanini yaratish zarurligi g‘oyasi rivojlanadi, badiiy asar tilini o‘rganadigan filologiya sohasi sifatida lingvopoetikaning predmeti va vazifalari shakllantiriladi. V.Vinogradovning fikricha, lingvopoetik tadqiqotning vazifasi og‘zaki-badiiy ijod asaridagi til birliklarining estetik funksiyasini o‘rganishdir. Shunday qilib, lingvistik va adabiy stilistika chorrahasida ikkita yondashuvning yaqinlashishi natijasida filologiyaning yangi bo‘limi paydo bo‘ldi – lingvopoetika, uning mavzusi “badiiy asarda ishlatiladigan til vositalarining to‘plami, uning yordamida yozuvchi o‘zining g‘oyaviy va badiiy rejasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan estetik ta’sirni ta’minlaydi” [5].

Lingvopoetik tahlilning maqsadi tilning u yoki bu birligi (so‘z, ibora, grammatik shakl, sintaktik tuzilish) muallif tomonidan og‘zaki va badiiy ijod jarayoniga qanday kiritilganligini, qanday qilib til vositalarining u yoki bu o‘ziga xos kombinatsiyasi ushbu estetik effektni yaratishga olib kelishini aniqlashdir.

Ma’lumki, har qanday matnga tegishli bo‘lgan tilshunoslik tahlili ikki darajani o‘z ichiga oladi: semantik va metasemiotik. Semantik darajada til birliklari (so‘zlar, iboralar, sintaktik tuzilmalar) ularning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nosida shunday ko‘rib chiqiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Badiiy asarda tarkibni tushunish yetarli emas, og‘zaki – nutq tuzilishi va asarning badiiy-kompozitsion tashkil etilishining murakkab o‘zaro ta’sirini ko‘rib chiqish kerak va buning uchun til va poetikaning aloqasi zarur. Shunday qilib, tadqiqotchi boshqa darajaga ko‘tarilishi, til birliklarining metasemiotik xususiyatlaridan asar doirasida foydalanish usullarini, ularning muallifning niyati va asarning mafkuraviy mazmunini aks ettirishdagi rolini ko‘rib chiqadigan lingvopoetik tahlilni qo‘llashi kerak.

Lingvopoetik tahlilning asosi V.Zadornova [6] tomonidan ishlab chiqilgan parametrlarning ma’lum bir tizimiga asoslanishi mumkin. Lingvopoetik transformatsiya toifasi lingvopoetik tahlilning eng asosiy va muhim toifasidir. Og‘zaki va badiiy ijod sohasida o‘zini topadigan tilning turli elementlari o‘zgartirilib, ularga obyektiv ravishda kiritilgan estetik ifoda imkoniyatlarini ochib beradi.

Ko‘proq xususiy kategoriya “so‘zning polifoniyasi”dir. Bu asarlarida badiiy adabiyotdan keyingi so‘z o‘z imkoniyatlarini kengaytirishga intiladi: har bir foydalanishda u bir vaqtning o‘zida barcha semantik va stilistik imkoniyatlarga aniq yoki yashirin shaklda ega bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, badiiy matnda “so‘z” qo‘shimcha chuqurlik va imkoniyatlarga ega bo‘lib, global semantik yaxlitlik vazifasini bajaradi. So‘zning bu xususiyati matnning badiiyligining belgilaridan biri. V.Zadornova tomonidan ishlab chiqilgan toifalardan foydalanish uning izdoshlari va lingvopoetika bilan shug‘ullanuvchi olimlarning tadqiqotlarida keng tarqalmagan. Biroq V.Zadornovaning lingvopoetik tahlilni ishlab chiqishga qo‘shgan katta hissasini, birinchi marta uning maqsadini aniq shakllantirganini va og‘zaki-badiiy ijod asarlarini o‘rganishning ushbu usulining parametrlari tizimini batafsil tavsiflaganini ta’kidlamaslik mumkin emas [6].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Til birliklari tahliliga semantik yoki metasemiotik nuqtayi nazardan yondoshilishidan qat’iy nazar baribir so‘z tartibi ikkala jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi, negaki tahlilga tortilayotgan so‘zlarning o‘rni ham uning mazmunini belgilab beradi.

A.Lipgart ham lingvopoetika konseptual apparatini ishlab chiqish bilan shug‘ullangan. Uning fikriga ko‘ra, “Lingvopoetika – bu filologiyaning bir bo‘limi bo‘lib, uning doirasida badiiy matnda ishlatiladigan stilistik jihatdan belgilangan birliklar ularning funksiyalari va ma’lum bir mafkuraviy va badiiy tarkibni etkazish va estetik effekt yaratish uchun qiyosiy ahamiyati masalasi bilan bog‘liq holda ko‘rib chiqiladi” [1].

A.Lipgart lingvopoetika va lingvostilistika, lingvopoetika va adabiyotshunoslik o‘rtasidagi munosabatlarni ko‘rib chiqadi, lingvostilistik tahlil barcha keyingi lingvopoetik tuzilmalarning ajralmas asosi ekanligini ta’kidlaydi.

A.Lipgartning alohida xizmati lingvopoetik tadqiqotning aniq usullarini tavsiflashga bag‘ishlangan. Matnni tashkil etuvchi til birliklari to‘plami sifatida badiiy asarning lingvistik-poetik

tahlili alohida badiiy uslubning lingvistik-poetikasini o‘rganishdan boshlanishi mumkin. Agar ko‘rib chiqilayotgan til birliklari haqiqatan ham ta’sir qilish funksiyasini amalga oshirsa, ushbu o‘rganish juda samarali bo‘ladi. Ko‘rib chiqilayotgan tadqiqotda ushbu qoidalar atributiv iboralar materialida tasvirlangan [1].

A.Lipgartning, shubhasiz, xizmatlari uning asarlarida batafsil tasvirlangan lingvopoetik tadqiqotning aniq usullarining batafsil tavsifidir. Bundan tashqari, olim birinchi marta lingvopoetik tahlilni sinxron va diaxronik jihatdan qo‘llash imkoniyati haqida yozadi.

“Lingvopoetika” atamasidan foydalanganda, u qarama-qarshi bo‘lgan ikkita tadqiqot turiga murojaat qilish uchun ishlatilishini yodda tutish kerak. Ulardan birining maqsadi ma’lum bir asarda yoki asarlar guruhida alohida badiiy uslubdan foydalanishning tematikligini aniqlashdir. Ushbu turdagi tadqiqotlar Z.B.Yeshmambetova tadqiqotlarida ham aks etadi, unda muallifning nutqi va personajning nutqi o‘rtasidagi munosabatlar lingvopoetik muammo sifatida ko‘rib chiqiladi va birinchi marta dramatik janr asarlarini o‘rganish uchun lingvopoetik tahlilni qo‘llashga harakat qilinadi [4].

Muallifning xarakterga bo‘lgan munosabatini ifoda etish vositalari S.Titovaning og‘zaki va badiiy ijod asarlari kontekstida iboraning lingvistik-poetik funksiyasini ochib berish usullarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan dissertatsiyasi [3] hisoblanadi.

Tadqiqotning ikkinchi turi – ma’lum bir mafkuraviy va badiiy tarkibni yetkazishda va ma’lum bir estetik effekt yaratishda rasmiy til elementlarining rolini aniqlashga qaratilgan alohida badiiy matnni o‘rganish. Bunday ishlar V.Zadornovoyning tadqiqotlari hisoblanadi, bu yerda lingvopoetik usul birinchi marta turli tillardagi she’riy asarlar materialida ishlab chiqilgan va qo‘llanilgan va ushbu tadqiqotda ishida bir nechta katta hajmdagi nasriy asarlarni (romanlarni) qiyosiy rejada lingvopoetik tahlil qilishga harakat qilingan. Biroq ikkala yondashuv ham bir xil prinsipga asoslanganligi sababli – matnning rasmiy va mazmunli tomonlarini ko‘rib chiqish, ular “lingvopoetik” atamasi yordamida birlashtirilgan.

A.Morozovning dissertatsiyasi alohida e’tiborga loyiqdir. Ushbu ishning yangiligi shundaki, matnni uch darajada tahlil qilish metodologiyasi, ya’ni shu paytgacha faqat badiiy matnlarni tadqiq qilishda qo‘llanilgan lingvopoetik tahlil metodologiyasi birinchi marta reklama matnlari tiliga nisbatan qo‘llaniladi [2].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shunday qilib, badiiy asarni to‘liq tushunish uchun og‘zaki-nutq tuzilishi va asarning kompozitsion-badiiy tashkiloti o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ko‘rib chiqish, estetik ta’sirni baholash kerak. Buning uchun tadqiqotchi foydalanish usullarini ko‘rib chiqadigan lingvopoetik tahlilni qo‘llashi kerak. Lingvistik va adabiy stilistika chorrahasida ikkita yondashuvning yaqinlashishi natijasida filologiyaning yangi bo‘limi paydo bo‘ldi – lingvopoetika, uning mohiyati badiiy asarda ishlatiladigan til vositalarining to‘plami, uning yordamida yozuvchi o‘zining g‘oyaviy va badiiy rejasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan estetik ta’sirni ta’minlaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati (Использованная литература / References)

1. Липграт А.А. Лингвопоэтическое исследование художественного текста: теория и прагматика (на материале английской литературы 16-20 веков). Дисс. ... докт. филол. наук. – М., 1996.
2. Морозов А.Ю. Выразительные возможности рекламного текста (на материале американской рекламы). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. М., 2001. 55-b.
3. Титова С.В. Лингвопоэтическая значимость словосочетания в описании внешности персонажей (на материале английской прозы XVIII—XX вв.). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 2005. – 47 с.
4. Эшмамбетова З.Б. Соотношение авторской речи и речи персонажа как лингвопоэтическая проблема (на материале английского языка). Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1984.
5. Виноградов В.В. Язык художественного произведения // Вопросы языкознания. 1954. №5. – С. 29.
6. Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования. Автореф. дисс. ... докт. филол. наук. – М.,1992. – С. 19.
7. Yo‘ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010. – 112 b.

Qabul qilindi: 30.09.2025 Chop etildi: 31.10.2025 UDK:34:341.01

АРАЛАШ ШАРТНОМАЛАР: НАЗАРИЙ АСОСЛАР, ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ ВА ЎЗБЕКИСТОН ҚОНУНЧИЛИГИ БИЛАН ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛ

Аскаров Носиржон Ибрагимович, юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

MIXED CONTRACTS: THEORETICAL FOUNDATIONS, FOREIGN EXPERIENCE AND COMPARATIVE ANALYSIS WITH THE LEGISLATION OF UZBEKISTAN

Askarov Nosirjon Ibragimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Law

СМЕШАННЫЕ ДОГОВОРЫ: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ, ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ С ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВОМ УЗБЕКИСТАНА

Аскаров Носиржон Ибрагимович, доктор философии (PhD)по юридическим наукам



stek@inbox.ru

Аннотация: *Ушбу мақола аралаш шартномалар институтининг назарий асослари, халқаро тажрибаси ва Ўзбекистон қонунчилиги билан қиёсий таҳлилини тақдим этади. Мақолада аралаш шартнома тушунчаси ва унинг фуқаролик-ҳуқуқий хусусиятлари (бир неча классик шартнома турларининг элементларини ўз ичига олиши, атипиклик, томонлар эркинлиги ва муносабатларнинг тузилиши) тушунтирилади. Мақолада аралаш шартномаларнинг ҳуқуқий табиати, уларнинг моддий ва номоддий активлар билан боғлиқ мураккаб конструкциялари, шунингдек АҚШ, Германия ва Россия давлатларидаги шартнома ҳуқуқи асосидаги қиёсий таҳлил берилади. Аниқ компаниялар мисолида Amazon, Microsoft каби компаниялар аралаш шартнома моделлари таҳлил қилинади. Ўзбекистон қонунчилиги билан қиёсий таҳлил асосида аниқ норматив таклифлар ишлаб чиқилади.*

Калит сўзлар: *Аралаш шартнома, Фуқаролик кодекси, 354-модда, элементлар устуворлиги (predominant purpose), қиёсий ҳуқуқ (Германия, Россия АҚШ), шартнома ҳуқуқи, масъулият ва хавфлар тақсимоти, суд амалиёти, миллий қонунчиликни такомиллаштириш.*

Abstract: *This article presents a theoretical overview, international practice, and comparative legal analysis of the institution of mixed contracts. It explains the concept of mixed contracts and their civil-law characteristics, including the combination of elements of several classical contract types, atypical features, party autonomy, and the structural nature of the legal relationship. The article examines the legal nature of mixed contracts, their complex structures involving tangible and intangible assets, and provides a comparative analysis based on contract law in the United States, Germany, and Russia. Using examples of companies such as Amazon and Microsoft, the article analyzes practical models of mixed contracts. Based on a comparative study with Uzbek legislation, specific normative recommendations are proposed for further improvement.*

Key words: *Mixed contract, Civil Code, Article 354, predominant purpose, comparative law (Germany, Russia, USA), contract law, allocation of liabilities and risks, judicial practice, improvement of national legislation.*

Аннотация: *В данной статье представлены теоретические основы, международный опыт и сравнительный анализ законодательства Республики Узбекистан в сфере института смешанных договоров. Раскрываются понятие смешанного договора и его гражданско-правовые характеристики, включая сочетание элементов нескольких классических видов договоров, атипичность, свободу усмотрения сторон и структуру возникающих отношений. В статье рассматривается правовая природа смешанных договоров, их сложные конструкции, связанные с материальными и нематериальными активами, а также проводится сравнительный анализ норм договорного права США, Германии и России. На примере конкретных компаний, таких как Amazon и Microsoft, анализируются практические модели смешанных договоров. На основе сопоставления с законодательством Узбекистана разработаны конкретные нормативные предложения по его совершенствованию.*

Ключевые слова: *смешанный договор, Гражданский кодекс, статья 354, принцип преобладающей цели (predominant purpose), сравнительное право (Германия, Россия, США), договорное право, распределение ответственности и рисков, судебная практика, совершенствование национального законодательства.*

Кириш. Аралаш шартнома - ўзаро мажбуриятларни шакллантирувчи, бир эмас, бир нечта маълум шартнома турлари элементларини ўз ичига оладиган келишувдир. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодексининг 354-моддасига кўра, “Тарафлар турли шартномаларнинг элементларини ўз ичига оладиган шартнома (аралаш шартнома) тузишлари мумкин. Аралаш шартнома бўйича тарафларнинг муносабатларига, агар тарафларнинг келишувидан ёки аралаш шартноманинг моҳиятидан бошқача тартиб англашилмаса, элементлари аралаш шартномада бўлган шартномалар тўғрисидаги қоидалар қўлланилади”[1] Яъни, томонлар ихтиёрида маълум бир турга тўлиқ мос келмайдиган, бир нечта анъанавий шартнома турлари хусусиятларини бирлаштириб олган битим тузиш ҳуқуқига эгадир. Масалан, немис ҳуқуқшунослигида ҳам «gemischter Vertrag» (аралаш шартнома) атамаси айнан турли келишувлар элементларидан ташкил топган, бир типга тўлиқ киритиб бўлмайдиган шартнома сифатида талқин қилинади. Аралаш шартномалар фуқаролик ҳуқуқий муносабатларда **эркинлик принциби** натижасида юзага келади: томонлар ўз манфаати учун турли жинсдаги мажбуриятларни бир битимга киритиши мумкин.

Асосий қисм. Ҳуқуқшунослар аралаш шартномани номланган шартномаларга алоқадор *атипик* ёки *номланмаган* шкалида кўриб чиқадилар. Немис ҳуқуқшунослигида масалан, оддий шартномалар (сарфлаш, ижара, хизмат, қурилиш ва бошқа)дан ташқари, *биргаликдаги* шартномалар мавжудлиги таъкидланади. Классик мисол – меҳмонхона билан боғлиқ шартнома (“Beherbergungsvertrag”), у асосан ижара шартномаси бўлса-да, уйга хизмат кўрсатиш, таом ҳозирлаш, идиш-коса ижараси ва гардероб хизматини ўз ичига олади. Шунингдек, аралаш шартномани ҳуқуқий назарда фақат бир қатор муносабатлардан иборат эмаслиги, балки қимматини кўриб чиқиш ва аниқ моддалар назарда тутилмаганлиги билан фарқланганлиги айтилади. Ушбу муносабатлар юқорида таъкидланган кодекс нормаси орқали тартибга солинади. Яъни, арлаш битимга кўра, унинг ҳар бир қисми (элементлари) бўйича тегишли ўз нормалари қўлланиладиган бўлади.

Халқаро тажрибада Германиянинг фуқаролик кодексида алоҳида “аралаш шартнома” тушунчаси белгиланмаган, аммо амалда судлар ва ҳуқуқшунослар бундай муносабатларни тан олади. Немис ҳуқуқшунослигида аралаш шартнома бир нечта шартнома турининг характерли жиҳатларини ўз ичига олганини таъкидлайди[2]. Масалан, юқоридаги меҳмонхона шартномаси доирасида судлар бир қатор қонунлар (ижара, хизмат, савдо ва ҳ.к.)ни қўллашга мойил. Шу билан бирга, Германиядаги таълимда аралаш шартномалар учун қуйидаги назарий ёндашувлар бор: асосий бўлим назарияси (ашёвий қисми асосида қарор қилиш), таркибий комбинация назарияси (ҳар бир қисмига

тегишли нормаларни қўллаш) ва аналогик қўллаш назарияси.

Россия Федерациясининг Фуқаролик кодекси 421-моддасининг 3-қисми ҳам томонларга бир муддатда турли шартнома элементларини ўз ичига олган битим тузиш имкониятини беради. Шу модда бўйича аралаш шартномага "элементларини ўзида мужассам этган шартномалар ҳақидаги қоидалар тўғрисида тегишли қисмлар қўлланилади" дейилади[3]. Яъни, РФ тажрибасида ҳам аралаш шартномаларга нисбатан Ўзбекистон каби ёндашув мавжуд.

АҚШ шартнома ҳуқуқида аралаш шартномалар "hybrid contract" деб аталади ва судлар ушбу битимларни элементлар устуворлиги (predominant purpose test) асосида баҳолайди (UCC стандарти)[4]. АҚШ даги йирик компания Amazon Web Services (AWS) да аралаш шартнома элементлари намоён бўлади. AWSнинг аралаш тусининг сабаби товар сотмайди, моддий актив бермайди. Барча хизматлар номоддий ва функционал. Data breach хавфи, юрисдикция муаммоси асосий камчиликларидан ҳисобланади. Масштабланиш ва арзон инфратузилма афзалликларидан биридир. АҚШдаги яна бир йирик компания Microsoft шартномаларининг 87% аралаш характерга эга экани илмий адабиётларда кўрсатилган.

Ўзбекистонда аралаш шартномалар мазмуни жорий қонунлар билан бевосита тартибга солинган. Биринчи навбатда, олдин таъкидланган Фуқаролик кодекси (1-қисм)нинг 354-моддаси ушбу масалани ҳал қилади[5]. Кодекс талабларига кўра, агар тарафлар аралаш шартноманинг ҳар бир шартига алоҳида тартиб белгиламаган бўлса, шартноманинг тузилишида иштирок этган турли битимлар (масалан, сотиш, хизмат кўрсатиш, ижара ва ҳ.к.) ҳақидаги нормалар мажбурий бўлади. Яъни, ҳар бир қўшимча бўлим бўйича тегишли фуқаролик-қонун нормалари ишлатилиши назарда тутилган. Суд амалиётида ҳам худди шу тамойил мавжуд: мисол учун Сурхондарё вилояти суди баёнотида, "аралаш шартнома бўйича томонларнинг муносабатларига, агар тарафларнинг келишувидан ёки аралаш шартноманинг моҳиятидан бошқача тартиб англашилмаса, элементлари аралаш шартномада бўлган шартномалар тўғрисидаги қоидалар қўлланилади" дейилади[6]. Бу хулоса ФК 354-моддаси мазмуни билан тўлиқ мувофиқ келади. Шунингдек, Ўзбекистонда амалдаги иқтисодий, маъмурий қонунлар қўлланилган ҳолда тузилувчи аралаш шартномалар учун тегишли конституцион-ҳуқуқий услублар татбиқ этилади. Амалдаги фуқаролик ва махсус қонунларда аралаш шартномаларга доир бир сўз ҳам ишлатилмагани сабабли, уларни ҳал этишда асосий манба сифатида ФК 354, шунингдек 353 ва 355-моддаларнинг умумий талаблари қўлланилади (масалан, йўл қўйилган эркинлик, тузилиши шартлиги ва ҳ.к.).

Ҳуқуқий амалиётда арлаш шартномалар билан боғлиқ келишмовчиликлар кўпинча қуйидаги масалалар атрофида тўпланади: шартнома баҳоларини муайян қилиши (товарга нарх белгилаш, хизмат тўлови шартлари), мажбуриятларни бажариш тартиби, кафолат ва масъулият, таъминот ва хатарлар тақсимоти. Мисол учун бир шартномада товар етказиб бериш ва шу билан бирга техник хизмат кўрсатиш мажбурияти бор бўлса, шартноманинг қай қисмида кимнинг мажбурияти бошланиши аниқланганда тўлиқ баҳолаш талаб этилади. Қонунчиликда аниқ модел мавжуд эмаслиги, шу сабабли амалда адвокатлар ва судлар кўпинча «кўп томонлама» ёки компонент қараб чиқишга ўтишади. Бу масалаларни ҳал этишда хорижий ҳуқуқий тажрибалар ҳам қўл келади: масалан, АҚШда янги UCC қоидалари арлаш шартномаларнинг товар ва хизмат жиҳатларини бир-биридан ажратишни назарда тутади.

Аралаш шартномаларга доир энг асосий муаммо – қонунчилик ва амалиётда аниқ ишлаб чиқилган бир хил ёндашувнинг йўқлиги. Ўзбекистонда ҳали қонунда бундай шартномалар учун махсус қоида ёки формат белгиланмаган. Шунинг учун даъволарни кўришда "қайси нормалар аввал қўлланади?", "бирлаштирилган битим фақат ягона мажбуриятми, ёки ҳар бири ўз қоидаларига кўра амал қиладими?" каби масалалар пайдо бўлади. Масалан, агар бир шартномада товар сотиш, техник хизмат ва ўқитиш мажбуриятлари бўлса, товардаги носозликни ким ҳал қилишини аниқлаш қийин. Шунингдек, бир нечта тарафлар иштирок этадиган комплекс шартномаларда кўп томонламалик хусусиятлари юзага келади.

Ўзбекистон қонунчилиги билан Хорижий мамлакатлар қонунчилиги таҳлили

Мамлакат	Аралаш шартнома мақоми	Мақсад	Афзаллик	Камчилик
АҚШ	Прецедент ҳуқуқи + UCC	бозор эркинлиги	юксак технологик шартномалар	хавфлар юқори
Малайзия	Contract Act 1950	IT ва сервислар	гибрид моделлар ривожланган	ишчи ҳимояси кам
Япония	Fukugō keiyaku	технологик битимлар	IP ҳимоя кучли	лицензия тор
Туркия	Karma sözleşme	сервис-логистика	амалий механизм кучли	суд амалиёти хилма-хил
БАА	Civil Code + Free Zone rules	финтех, транспорт	эркин иқтисодий зоналар	қонунлар тез ўзгаради
Ўзбекистон	ФК 354	умумий эркинлик	шартнома эркинлиги	аниқ тартиб йўқ

Айрим экспертизаларда аралаш шартномаларда қуйидагилар қўшимча муаммо сифатида келтирилган: самарасиз ҳуқуқий модел, шартномада бирон фаолият учун юридик ўлчаш шаклини белгилаш (масалан, соғлиқни сақлаш соҳасида фармацевтика моддаларини тақдим этишда) каби ноаниқликлар. Кейинги қадам сифатида ҳуқуқшунослар томонидан қонун тармоғига аниқловчи талаблар киритиш – масалан, аралаш битимларда устивор мажбуриятни аниқлаш босқичини жорий этиш (CISG ёки Хитой каби мамлакатлар амалиётида баён этилган усул) ёки ҳал этиш учун миллий моделлар таклиф қилиниши мумкин.

Шунингдек, халқаро тажрибадан ўрнак олиш муҳим: мавжуд очиқ манбаларда, масалан, Германия ҳуқуқшунослигида аралаш шартномалардан келиб чиқадиган зиддиятларга бошқа йўл билан ёндашиш назариялари муҳокама қилинган (асосий ижро назарияси, комбинация назарияси, аналогия)

АҚШ тажрибасида эса янги қонунвий ўзгартиришлар орқали аниқлик яратилмоқда – UCC 2022 йилги ислоҳотлари гибрид шартномалар учун мезонлар жорий этиб, товар ва хизмат жиҳатларини қисмларга ажратишни назарда тутади.

Шу каби аниқ моделлар Ўзбекистон амалиёти учун ҳам ўрнак бўлиши мумкин. Олий суд Пленумининг қарорлари ва Хўжалик судлари суд амалиётидаги умумлашмаларда ҳам аралаш шартномалар хусусида аниқ чоралар кўриш кераклиги қайд қилинмоқда. Жумладан, 2009 йилдаги Пленум қарорида фуқароларнинг ҳар қандай эркинлиги яққол белгиланган бўлса-да, шартнома мазмунига нисбатан судлар томонидан инобатга олинадиган асосий принциплар каби масалалар таклиф этилган эди. Ўзбекистон ҳуқуқшунослари орасида ҳам аралаш шартномаларга қўлланадиган умумий адолат принциплари ва моддий жавобгарлик қоидаларини ривожлантириш бўйича илмий таклифлар мавжуд.

Хулоса. Аралаш шартномалар – ҳуқуқий жиҳатдан ҳануз етарли тафсилот билан белгиланмаган, бир нечта битимларнинг ижтимоий-иқтисодий эҳтиёжлари натижасида пайдо бўлган институционал ҳодиса. Улар қонунчиликда муҳим жиҳат ҳисобланади, чунки ҳамма бир битим билан бир неча турли муносабатларни таъсис этишга хизмат қилади. Ўзбекистон фуқаролик қонунчилигида бундай шартномалар ғаразли-шериклик тамойили асосида тузилиши мумкинлиги тан олинган ва уларни тартибга солувчи асосий норма – ФК 354-моддасида баён қилинган. Хорижий тажрибада буюк ҳуқуқий мактабларда бундай муносабатларга доир қонунчилик ва амалиёт мисоллари мавжуд: Россияда ФК 421-моддасида, Германияда ҳуқуқшуносликда, халқаро савдо қонунида (CISG, UCC) белгилаш усуллари кўриб чиқилган. Ўзбекистонда эса бу муаммони ечишда илмий таклифлар ва суд амалиёти соддалаштирилган амалий

қоидаларни ишлаб чиқишга йўналтирилмоқда. Аралаш шартномалар бўйича мавжуд қонун-қоидалар ва амалиётни такомиллаштириш, ташқи тажриба билан таққослаб кўриш ва зарур бўлса ҳуқуқий механизмларни киритиш – асосий ечимлар қаторида кўрилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. https://lex.uz/mact/111189
2. Letzte Aktualisierung. Gemischter Vertrag: Begriff, Struktur und rechtliche Einordnung. 2024. https://www.mtrlegal.com/wiki/gemischter-vertrag/
3. “Гражданский кодекс Российской Федерации (часть первая)” от 30.11.1994 N 51-ФЗ (ред. от 31.07.2025, с изм. от 25.11.2025) (с изм. и доп., вступ. в силу с 01.08.2025) https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_5142/ad08909251f4d26ebc935648e4e708a31e160348/#:~:text=4,%D1%81%D1%82%D0%B0%D1%82%D1%8C%D1%8F%20422
4. Chiara Crivelli. Mixed Contracts in International Sales Law: A Comparative Study of the CISG and the UCC. 2024. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm
5. Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. https://lex.uz/mact/111189
6. Шартномавий муносабатларга оид низоларни судда кўришнинг ўзига хос хусусиятлари. https://surxondaryo.sud.uz/

TAMADDUN NURI